



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com)https://oak.uz/pages/4802

ULUG‘ ALLOMA VA MUTAFAKKIRLAR MA’NAViy MEROSI INSONIYATNI KAMOLGA YETKAZUVCHI XAZINADIR



Bahiriddin Muhammad Bobur

Alisher Navoiy

Moxtunquli



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
 НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
 SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot. uz

Bosh muharrir

Nargiza BERDIYEVA

Tahrir hay'ati:

Dilshod Kenjayev
 Nizomiddin Mahmudov
 Yorqinjon Odilov
 Jabbor Eshonqulov
 Baxtiyor Daniyarov
 Abdurahim Nosirov
 To'liqin Saydaliyev
 Barno Buranova
 Zulxumor Mirzayeva
 Qozoqboy Yo'ldoshev
 Bahodir Jovliyev
 Salima Jumayeva
 Qayum Baymirov
 Manzar Abdulkayrov
 Alijon Safarov
 Madina Nuriddinova
 Latifa Xudayqulova
 Barno Kadirova
 Nargiza Mirzayeva
 Guli Shukurova
 To'maris Butunbayeva
 Ramziddin Abdusatorov
 Okila Turakulova
 Yuldosh Raxmatov
 Ramziddin Abdusatorov
 Feruza Manukyan

Axborot hamkorimiz:



Muharrirlar:

Lutfullo JO'RAYEV
 Bibimaryam RAHMONOVA
 Oydin SHUXRATOVA

Sahifalovchi:

Mahliyo ABDUQODIROVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
 Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
 Telefon: (98) 121-74-16,
 (71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
 (71) 233-03-67.
 e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

M U N D A R I J A

TADQIQOT

Sulaymon Nazarov, Inom Xujamov. Darsliklarni ishlab chiqishda ilg'or tajribalarni o'rganish: holati, muammolari va rivojlanish istiqbollari.....	3
Amanulla Muratkulov. Alisher Navoiy asarlarida arabcha va forscha o'zlashmalarning qo'llanishi.....	6
Mavluda Ortiqova. Alisher Navoiy ijodidagi qushlar obrazi genezisi.....	9
Kamola Ikromova. Ta'lim mavqeyini oshirishda zamonaviy texnologiyalarning roli.....	13
Abubakir Ziyadullayev. Alfred De Musset badiyatida xronotopik o'ziga xoslik.....	14
Muxayyo Rizaxanova. Fransuz tilida etiketga xos iboralarni qo'llanishi.....	17
Zuhra Qarshiboyeva. Nutq odobi va bugungi kun yoshlari nutqi.....	19
Aziza Usarova. Abduvali Qutbiddin ijodida arxaizmlarning qo'llanilishi.....	20
Munisaxon Xurramova, Shohsanam Mamatkulova. Oliy ta'limda talabalar samaradorligini oshirishda chatgptning ahamiyati.....	22
Feruza Qurbonova. O'quv mashg'ulotlarini zamonaviy tashkil etish va o'tkazish texnologiyalari.....	24
Xasan Gafforov. Dialogik nutqda gender farqlar va ularning o'ziga xos jihatlari.....	29
Xusnida Isroilova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda konsratsiyani rivojlantirishga doir yondashuvlar.....	30
Muhabbat Rajabaliyeva. O'zbek mumtoz adabiyotshunosligida Poyon Ravshanov ilmiy merosining ko'lami.....	32
Nargiza Amirqulova. Frazologizmlarning o'zbek va ingliz tilidagi morfologik xususiyati.....	34
Nodir Ramazonov. Da'vo xati matnining o'ziga xos xususiyatlariga doir.....	37
Orzigul Ubaydullayeva, Feruz Rajabov. Poetonimiya lingvistik dunyoqarash hodisasi sifatida.....	39
Saidov Zokir. Ilova konstruksiyalarning asosiy vazifalari.....	42
Shaxnoza Saidrasulova. O'zbek va ingliz tillarida reklama matnlarining tasnifi va turlari xususida.....	44
Baxtiyor Turdiyev. Bo'lajak informatika o'qituvchilarni kasbga tayyorlashda individual ta'lim tizimlarini takomillashtirish.....	46
Islomjon Turdiyev. Ingliz va o'zbek tillaridagi ish yuritish terminlarining semantik xususiyatlari qiyosi.....	48
Odina Usmonova. Taom nomlarini konsept sifatida o'rganish.....	50
Xurshida Xaydarova. Taqlid so'zlarning sinonimik guruhlarda talqin qilinishi (5 jildli o'zbek tilining izohli lug'ati asosida).....	52
Yoshin Hakimov. Zamonaviy mediada «kompyuter lingvistikasi» fanining ahamiyati.....	55
Sadbara Mamatova. Sharq yozma yodgorliklarida Nuh va To'fon voqealarining yoritilishi.....	57
Gulnoza Djurakulova. Dostonlarda qo'llaniluvchi o'xshatishlar.....	59
Shahnoza Beknayeveva. Maktabgacha ta'limda inson resurslarini rejalashtirish, tanlash va taraqqiy ettirish.....	61
Gulnoza Ernazarova. Ma'danshunoslik terminlari tizimidagi arabcha o'zlashmalar xususida.....	64
Shohsanam Bobojonova. "Axloq" konseptosferasining sharq va g'arb dunyosida tutgan o'rni.....	66

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir.
<https://oak.uz/pages/4802>



Laylo Khursanova. The notion of "concept" and its conceptual sphere in linguistics	68
Roza Turdieva. Efficient practices for developing linguistic proficiency in english languag	70
Ulugbek Elmurodov. Presentations, electronic portfolios and blog portfolios in foreign language education: methodological principles and performance criteria	72
Dildora Israilova. Pedagogical principles of teaching english to preschool children through fairy tales	74
Saodat Kasimova. Methods of improving the speech of students of higher education in economics	76
Dilara Dospanova. Borrowings as a source of replenishment of anthroponymic vocabulary	78
Turgunboy Omonov. Insurance terminology and legal cultures	80
Gulnoza Najmutdinova. Improving the methodology of developing reflexive skills of future english language teachers	83
Asilabonu Sobirova. The poet who won hearts	85
Farangiz Mamedova. Eclectic approach in teaching foreign languages	87
Nargiza Muxamedova. Perspectives of oil and gas industry in Uzbekistan	88
Munisa Mirgiyazova. Using case-study method in teaching law students	90
Nasiba Mirzayeva. Principles of teaching a foreign language in the context of	92
Nilufar Turdiyeva, Otabek Baxtiyorov. The evolving landscape of modern technology	95
Dilnoza Aminova. The relationship between the polysemy of military terminology and intercultural communications	97
Omon Khudoyorov. What is the difference between ielts and cefr?	99
Madina Davlyatova. Gender peculiarities of names of professions and occupations in uzbek and english languages	101
Салим Дониёров. Повышающаяся значимость процесса медиакон вергенции традиционных сми в реалиях построения нового Узбекистана	103
Сания Умарова. Использование информационных технологий в обучении будущих педагогов	106
Чарос Абдуллаева. Социопрагматический аспект лингвокреативности через использование языковой игры	108
Феруза Таирова. Сопоставительный анализ английского и узбекского драбблов с когнитивно социопрагматического ракурса	111
Мукаддас Абдурахманова. Лингвокогнитивный анализ омонимов в жанре туюк	114
Гузэл Эгамбердиева. Применение интерактивных методов и приемов на занятиях русского языка при изучении темы «Второстепенные члены предложения. Мои друзья»	118
Нилуфар Аташикова. Формирование профессиональной компетентности специалиста-экономиста в процессе обучения английскому языку для специальных целей	123
Роза Рамазанова. Использование метода "case-study" при преподавании русского языка как иностранного	125
Раушан Торежанова. Значение общественно-этических идей беруни в семейном воспитании	129
Р.М. Садыков. Условия обогащения словарного запаса студентов – важнейший фактор развития речевых компетенций будущих учителей начальных классов	130
Роза Рахмонова. Вопросы истории развития узбекского фольклора	133
Умида Юлбарсова, Наргиза Усанова. Формирование научно-исследовательской компетенции в процессе обучения русскому языку бакалавров нелингвистических специальностей	135

HUQUQ

Abror Sharipov. Profilaktika inspektorining huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda oiladagi yoshlar bilan olib boradigan profilaktik ishlari	138
--	-----

TAHLIL

Nasiba Bozorova. "Xotiram siniqlari" da aytilmagan izhorlar ifodasi	141
Nuriniso Umarova. Abdulla Oripov asarlarida daraxt poetik obrazi	143
Dilfuza Allayarova, Dilfuza Umarova. Lirik asarlarda milliy ruh masalasini o'rganish	145
Dilfuza Shadiyeva. Erkin Vohidov she'rlarida irsoli masal san'atining qo'llanishi	147
Dilnoz Ollaberganova. Malala yusufzoy ijodining adabiy konteksti va ayollarga bo'lgan munosabatning milliy, diniy, madaniy, ma'naviy asoslari	149
Dilrabo Chorshanbiyeva. Abdulla Oripovning tabiat lirikasida makon va zamon masalasi	150
Komila Fayziyeva. Amerika adabiyotida romantizm ruhi tug'ilishi	152
Hoshim Ahmedov. Rauf Parfining nasriy she'rlari	154
Sanobar Kamolova. Turli tillar talqinida shaxs ismlarining leksik-semantik xususiyatlari	158
Inobat Madroximova. Xosiyat Rustamova she'rlarida kuz modusi	160
Gulbahor Mingyasharova. "Muhabbatnoma" asarining o'rganilishi	162
Nargiza Muhamedova, Zohid Karimov. Milliy kurashimiz o'zbek tili targ'iboti vositasi	163

Sohibaxon Ne'matullayeva. Luqmon Bo'rixonning ijodida xalqona syujet	166
Gulnoza Teshayeva. Adabiy parallel janrining kompozitsiyasi.....	168
Matluba Jabborova. "Hayrat ul-abror"da xotin-qizlar obrazi.....	170

PEDAGOGIKA

Xurshida Berdiyeva. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimni baholashda xalqaro baholash tadqiqotlarining ahamiyati va afzalliklari.....	174
Nafosat Boboqulova. O'quvchilarning adabiy-nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish	176
Ra'no Rizayeva. O'quvchilarda milliy identlikni shakllantirishda o'qituvchi milliy identligining ijtimoiy pedagogik mexanizmini takomillashtirishning pedagogik modeli	179
Sayyoraxon Abduraxmonova. Pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlash omillari.....	183
Simela Abdullayeva. Akademik yozuvni o'qitishda grafik organayzerlar.....	185

METODIK TAVSIYA

Ma'rufjon Inatullayev. Ko'zi ojiz bolalarga musiqiy ta'lim o'rgatishning zamonaviy metodlari	188
Quvonchbek Begmatov. Xorijiy til ta'limida kommunikativ metoddan foydalanishning o'rni va ahamiyati.....	190
Munisxon Rabbimova. Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy faoliyatida intellektual ta'lim tizmlaridan foydalanish....	192
Farrux Boboyev. Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining shaxsiy malakasi mohiyati va tuzilishini aniqlashdagi yondashuvlar.....	194
Moxir Xalimov. O'quvchilarning chizmalarni o'qish orqali boshlang'ich tushunchalarini shakllantirish	197
Muborak Mirsaidova. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning aqliy faoliyatini oshirish.....	199
Sanjarbek Sheraliyev, Nag'ima Jiyenbayeva. Muhandislik grafikasi fanlaridan I spring dasturi yordamida mustaqil ta'limni tashkil qilish metodikasi	202
Bori Nigmanov. Yosh basketbolchilarning jismoniy va funksional tayyorgarlik asoslari	204
Nigora Nematova. Chet tilni o'qitishda mustaqil ta'lim maqsadi va tashkiliy mezonlari	206
Albina Stépanian. Méthodes modernes d'enseignement de l'écriture dans le processus d'éducation des étudiants.....	208
Maftuna Khasanova. Application of the "close reading" method in an integrated teaching english language and literature to university students	210

TILSHUNOSLIK

Feruzaxon Karimova. Psixologiya va tilshunoslikning o'zaro ta'sirlashuvi	212
Saodat Saidakbarova. Ingliz va o'zbek ijtimoiy muloqotida kodlash usullari	215
Dilraboxt Rustamova. Ensiklopedik lug'atning umumiy xususiyatlari.....	217
Manzura Ashirmatova. Qishloq xo'jaligi terminlari tezaurusini yaratish.....	220
Go'zal Burxonova. Tillarda agrar tizimi atamalarining leksikografik talqini.....	221
Dilnoza Jamolitdinova, Mohinur Qodirova. Parantez birliklarning gap va matnga munosabati	224
Navruz Imamov. Ingliz va o'zbek tillarida tugallanganlik aspektual semantikani shakllantiruvchi temporal adverbiallarning ifodalanishi.....	227
Iqlima Jo'rayeva. Evfemizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari tahlili (ingliz va o'zbek tillari misolida)	229
Mohinur Azizova. Turli lingvomadaniy muhitlarda "qadah so'z" janrining voqealanishi	232
Shahnoza Qarshiyeva. Ingliz va o'zbek tillarida innovatsion nutqiy birliklarning tasnifi	234
Soniya Latipova. Idiomalarning grammatik va sintaktik tuzilishiga oid ayrim dolzarb masalalar.....	235
Gulbahor Nazarova, Nafisa Sirojeva. Lexical transformations, their types and role in the process of translation	239
Gulnoza Shodiyeva. Greeting as one of the most important signs of speech etiquette in uzbek and english languages.....	245
Umida Abdilakimova. Use of effective approaches in teaching writing in non philological higher educational institution.....	246
Jayron Radjabova. Code switching problem and language contacts	248
Nigina Pulatova. L'apprentissage de la grammaire dans l'enseignement du français	249

KICHIK TADQIQOT

Nargiza Xidoyatova. Mobillik tushunchasi va uning turlari.....	251
Zamira Qarshiyeva. "Nazm ul-Javohir"dagi ruboiylarning tarbiyaviy ahamiyati	253
Muxlisa Nasillayeva. Atoiy ijodida frazeologizmlarning o'rni.....	255
Nilufar Dehqonova. "Devonu Lug'otit Turk" asarida marsiya janri.....	256

Sulaymon NAZAROV,
Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi
"Darsliklarni ishlab-chiqish" bo'lim boshlig'i;
Inom XUJAMOV,
Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi
"Iqtidorli yoshlarni tanlab olish va olimpiadalarni tashkil etish" bo'lim boshlig'i

DARSLIKLARNI ISHLAB CHIQUISHDA ILG'OR TAJRIBALARNI O'RGANISH: HOLATI, MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada darsliklarni ishlab chiqish nazariyasi va tarixi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar mavjudligiga qaramay, ular rivojlanish jarayonida to'plangan ilg'or tajribalarni o'rganish, milliy o'quv adabiyotining ilmiy-pedagogik salohiyatini ochib berishdan iborat.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, o'quv dasturi, darslik, adabiyot, pedagog, ehtiyoj, tahlil, natija.

Annotation: despite the fact that this article contains a lot of research on the theory and history of textbook development, they consist in studying the best experience gained during the development, revealing the scientific and pedagogical potential of domestic educational literature.

Key words: education, upbringing, curriculum, textbook, literature, teacher, need, analysis, result.

Аннотация: несмотря на то, что в данной статье приведено множество исследований по теории и истории разработки учебников, они заключаются в изучении лучшего опыта, накопленного в ходе разработки, раскрытии научно-педагогического потенциала отечественной учебной литературы.

Ключевые слова: образование, воспитание, учебная программа, учебник, литература, педагог, потребность, анализ, результат.

O'quvchilarning bilim samaradorligini oshirishda, ularni mustaqil hayotga tayyorlashda maktab darsliklari asosiy

vositalardan biri hisoblanadi. Shu sababli hozirgi kunda o'quvchilarni sifatli va zamonaviy darsliklar bilan ta'minlash yuzasidan jiddiy izlanishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning asosiy maqsadlari – ta'limning qulayligi, sifati va samaradorligini oshirish bilan bog'liq bo'lib, bu uning mazmunini sezilarli darajada yangilashni nazarda tutadi. Bu esa, o'z navbatida, o'quv adabiyotlarining yangi avlodini rivojlantirishni talab qiladi, chunki aynan darslik o'quv jarayonining asosiy tarkibiy qismi sifatida ta'lim mazmunini amalda amalga oshiradi.

Bizning fikrimizcha, yangi avlod darsliklarini yaratish, birinchi navbatda, ularni ishlab chiqishda mavjud xalqaro tajribalarni o'rganish va nazariy tushunish, o'tgan yillardagi mavjud o'quv adabiyotlarining ilmiy-pedagogik salohiyatini aniqlashni talab qiladi, chunki kelajakka yo'l ta'limi dasturi va darsliklarini yaratish bo'yicha mavjud tajribalarni o'rganib va rivojlantirmasdan, ta'lim uzluksizligiga erishish mumkin emas. Ushbu bosqichda erishilgan bilimlarni tizimlashtirish, tarixiy boy tajribalarni o'rganish va umumlashtirib, keyin maqsad sari harakat qilish muhimdir.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2022-yilning 29-dekabr kuni Xalqaro kongress

markazida boshlang'ich sinflar uchun ishlab chiqilgan yangi avlod darsliklari taqdimoti bilan tanisha turib, "..... 2023-yil 1-yanvardan boshlab respublikaning 14 ta hududidagi maktablarda yangi darsliklarni joriy etish bo'yicha eksperiment boshlanayapti, 1-sentabrdan esa 10 mingtasida boshlanadi" degan fikrni bildirdi.

Shu munosabat bilan respublikamizda, Finlandiya ta'limi dasturi va darsliklari tajribadan o'tkazilib, o'quv adabiyotlarining yangi avlodlarini nashr etish, mutaxassislarni sifat jihatidan yangi darsliklar yaratishga jalb qilishga qaratilgan faol
c h o r a -



tadbirlar ko'rilmoqda.

Mamlakatimizning 14 ta hududiga tajriba tarzida joriy etilayotgan boshlang'ich sinf darsliklardan, keyingi bosqichlarda 5–11-sinflar uchun ham ta'lim dasturi va darsliklari ishlab chiqiladi.

Bugungi kunda yangi avlod darsliklarini yaratish hamda nashrga tayyorlashda asosiy e'tibor mazmun va sifat jihatidan xalqaro talablarga javob berishga qaratilmoqda. Shunga ko'ra, hozirgi kunda ta'lim tizimi rivojlangan Turkiya davlatining tajribasi o'rganildi.

Jumladan, ta'lim tizimida o'z tajribasiga ega bo'lgan Turkiya Milliy ta'lim vazirligi tasarrufida 60 mingta maktab mavjud bo'lib, mazkur maktablarda jami 18 million nafar o'quvchi ta'lim oladi.

Xalqaro ilg'or tajribalarni o'rganish maqsadida, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi mas'ul va mutaxassislar agentlik tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internat hamda ixtisoslashtirilgan maktablarga zamonaviy o'quv metodik adabiyotlarni ishlab chiqish



uchun Turkiya ta'lim tizimi va amaliyotini o'rganish maqsadida Istanbul va Anqara shaharlarida bo'lib, Turkiya Milliy ta'lim vazirligi Darsliklar va nashrlar boshqarmasi, Izmir shahrida joylashgan vazirlik huzuridagi nashriyot hamda "METIKSAN", "RITM" nashriyotlari faoliyati bilan tanishildi.

O'rganishlar va tajriba almashish maqsadida Darsliklar va nashrlar boshqarmasi mas'ul xodimlari Umar Farrux Turxol, Nurjon Ishilchaylar tomonidan darsliklar uchun buyurtmalarni shakllantirish, chop etish hamda yetkazib berish tizimi bo'yicha qilingan taqdimot natijasiga ko'ra, Milliy ta'lim vazirligi tomonidan "Mebbis" elektron platformasi yaratilgan bo'lib, ta'lim muassasalari darsliklar buyurtmasini mazkur tizimga yuklaydi.

Tahlillarga ko'ra, joriy yildan boshlab Izmir shahrida joylashgan, dunyoda ishlab chiqarish bo'yicha 6-o'rinda turadigan matbaa korxonasi Darsliklar va nashrlar boshqarmasi tasarrufiga olgan hamda o'quv adabiyotlar mazkur korxonada chop etilishi belgilangan.

Turkiya tajribasiga ko'ra, o'quv adabiyotlarini bosmaxonalardan qabul qilish jarayonida sifatni

nazorat qiluvchi 50 nafar komissiya a'zolari ishtirok etadi, qabul jarayonida avvalo darsliklarning soni keyin esa sifati tekshiriladi. Bundan tashqari, Ta'lim-tarbiya departamenti, xususan, Ta'lim dasturlari va o'quv materiallari departamenti o'z faoliyatini yuritib, ta'lim dasturlari va darsliklarni ishlab chiqish jarayonlarida bevosita ishtirok etadi.

Bugungi kunda, 3 yoshdan boshlab (bog'cha yoshi) 12-sinfga qadar jami 94 nomdagi o'quv adabiyotlari ishlab chiqiladi. Shundan 1-8-sinflardagi barcha o'quvchilar uchun bir xil darslik ishlab chiqilsa, 9-12-sinfda yo'nalishiga (tabiiy fanlar, aniq fanlar, ijtimoiy fanlar, kasb-hunarga, sport, san'at yo'nalishidagi litseylar, Anado'li hamda imom xatib litseylari) qarab ishlab chiqiladi.

Turkiyada 2003-2004 o'quv yilidan boshlab "O'quv adabiyotlarini bepul tarqatish" amaliyotga joriy etilgan. Bunda 2003-2004 o'quv yilidan 1-4-sinf o'quvchilariga, 2006-2007 o'quv yilidan 5-8-sinf o'quvchilariga, 2009-2010 o'quv yilidan 9-12-sinf o'quvchilariga, 2014-2015 o'quv yilidan xususiy maktab o'quvchilariga kitoblar bepul yetkazish boshlangan. 2021-2022-yildan boshlab Turkiya bo'ylab barcha ta'lim muassasalari bepul darslik bilan ta'minlanishi yo'lga qo'yilgan. 2022-2023 o'quv yilida darsliklarni chop etish va yetkazib berish xarajatlari o'rtacha har bir o'quvchiga 20-25 lira, jami 9 milliard lirani tashkil etgan.

Darslik yaratishga muallif, muharrir, filologlar asosiy mas'ullar hisoblansa, bundan tashqari davlat ta'lim standarti, o'quv dasturlari tahlili, shuningdek, darslikning o'quvchilar psixo-fiziologik xususiyatlariga mosligini o'rganishga alohida mas'ul xodimlardan iborat ishchi guruhlar faoliyat olib boradilar.

Milliy ta'lim vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalari uchun yaratiladigan darsliklarni tayyorlash, ekspertizadan o'tkazish va tahlil qilish uchun 32 ming nafar pedagoglardan iborat ishchi guruh maxsus tayyorlangan.

Darslik mualliflari tomonidan tayyorlangan darslik loyihasi vazirlikka taqdim etiladi. Ushbu darslik maketlari ishchi guruhi hamda vazirlik komissiyasi tomonidan tahliliy o'rganib chiqiladi.

Bunda darslik maketlari 200 ta banddan iborat bo'lgan mezonlar asosida 100 ballik tizim asosida baholanadi. 75 baldan oshgan darslik maketi qabul qilinib, takomillashtirish uchun ijodiy jamoaga qayta taqdim etiladi.

Darslik maketlarini o'rganib chiqish, ekspertizadan o'tkazish, takomillashtirish jarayonlari 9 oy davom etadi, shundan so'ng tayyor holatga keltirilgan darslik chop etish uchun bosmaxonaga taqdim etiladi.

Darsliklar quyidagi asosiy talablarga mos bo'lishi lozim:

- mavjud qonunlarga zid bo'lmasligi;
- tasdiqlangan ta'lim dasturlariga mos bo'lishi;
- o'quvchilarni ijobiy natijaga erishtiruvchi;

- turk tilining adabiy til me'yorlariga amal qilinganligi;
- elektron resurslar bilan boyitilishi hamda dizayni talabga javob berishi lozim.

O'zbekistonda ham bugungi kunda yangi avlod darsliklarini yaratishda ta'lim muassasalari o'quvchilari, o'qituvchilari va ota-onalari hamda keng jamoatchilikning fikri muhim hisoblanadi. Shu maqsadda nashrga tayyorlanayotgan darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarining mazmuni, dizayni va sifatini yanada yaxshilash hamda takomillashtirish yuzasidan tayyorlangan darsliklarning elektron variantini tajribasinovdan o'tkazish maqsadida ta'lim muassasalariga yetkazilmoqda va olingan fikr, mulohazalar asosida darsliklar yanada takomillashtirilmoqda.

Pirovardida, darsliklar yuzasidan kelib tushayotgan o'rinli taklif va mulohazalar shubhasiz darsliklarni mazmunan takomillashtirishga yangi turtki beradi. Bu esa sifat jihatidan yangilangan darsliklarni yaratishda, ta'lim tizimi bilan jamiyat o'rtasidagi yanada samarali aloqani ta'minlashga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda yangidan chop etiladigan darsliklarga kiritilgan o'zgarishlar quyidagilar hisoblanadi:

Birinchi navbatda, o'quvchilarning yoshi va psixo-fiziologik xususiyatlari inobatga olingan holda tayyorlanmoqda.

Ikkinchidan, darslik mazmunida mavjud bo'lgan

takrorlanishlar bartaraf etilib, xalqaro tajribaga suyangan holda darslikning dizayni va foto-illyustratsiyalariga o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Yana bir e'tiborli jihati – fanlar kesimida fanlararo bog'liqlik hamda sinflararo uzviylik ta'minlanmoqda. Eng muhimi, darsliklar innovatsion yondashuv asosida tayyorlanmoqda. Bunda o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan ta'limiy o'yinlar, mashqlar, masalalar va topshiriqlarga urg'u berilmoqda.

Qolaversa, informatika va axborot texnologiyalari darsliklarining mazmuni o'quvchilarning texnik qobiliyatini rivojlantirishga oid amaliy, kreativ, mantiqiy yondashuvga asoslangan topshiriqlar bilan boyitilmoqda. Bu jahonga mashhur STEAM texnologiyalari talablari asosida amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yurtimizda ta'lim dasturlari va darsliklarining yangi avlodini yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda, uning shakllanishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari aniqlanib, ularning tarixiy va pedagogik tahlili berib borilmoqda. Ushbu tadqiqot butun Turkiya tajribasi fonida bo'lib, Turkiya davlatining milliy ta'lim siyosatini shakllantirishdagi tarixiy roli, Turkiya va O'zbekiston Respublikasining milliy ta'lim bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazasining qiyosiy tahlili va mamlakatimizda ta'lim mazmunining hozirgi holati, uning rivojlanish tendensiyalarini aniqlashga qaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 11 майдаги “2022-2026 йилларда халқ таълими ривожлантириш бўйича миллий дастурни тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-134-сон Фармони.
2. Р. Х. Джураев, С.Т.Турғунов. Таълим менежменти. Т.: “Voris-Nashriyoti”, 2006. 263 бет.
3. Ш. Қурбонов, Э. Сейтхалилов. Таълим сифатини бошқариш. Т.: “Турон-Иқбол”, 2006. 592 бет.
4. Андреас Шляйхер. Образование мирового уровня. Как выстроить школьную систему XXI века? Успешные реформы и высокие результаты. Пер. с англ.– М.: Издательство «Национальное образование», Москва, 2019. 336 с.
5. А.Раджиев, Ф.Каримов, А.Ибрагимов. TALIS-2018 Халқаро тадқиқотлари талаблари асосида ўтказилган сўровнома ва тадқиқот ҳисоботининг маълумотлар тўплами. 2-қисм. Тошкент-2022. 119 бет.
6. <https://t.me/avloniyuz>
7. https://t.me/raqamli_pedagogik_xizmatlar
8. www.google.co.uz

Amanulla MURATKULOV,
 GuIDU O'zbek tilshunosligi kafedrasida katta o'qituvchisi

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA ARABCHA VA FORSCHA O'ZLASHMALARNING QO'LLANISHI

Annotatsiya: maqolada Alisher Navoiy asarlarida arabcha va forscha o'zlashmalarning berilishi va ular aks ettirgan ma'nolar masalasi o'rganilgan. Alisher Navoiy o'zbek tilining boyligini, uning ilmiy va badiiy asarlar yaratish imkoniyatiga ega ekanligini, adabiy til bo'la olish quvvati va qudratiga egaligi masalalari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: arab tili, fors tili, so'z, ma'no, o'zbek tili, sheva, leksika.

Абстрактный: в статье рассматривается вопрос арабской и персидской адаптации в произведениях Алишера Навои и смыслы, которые они отражают. Алишер Навои исследовал богатство узбекского языка, его способность создавать научные и художественные произведения, а также его способность стать литературным языком.

Ключевые слова: арабский язык, персидский язык, слово, значение, узбекский язык, диалект, лексика.

Abstract: the article examines the issue of Arabic and Persian adaptations in the works of Alisher Navoi and the meanings they reflect. Alisher Navoi has researched the wealth of the Uzbek language, its ability to create scientific and artistic works, and its ability to become a literary language.

Keywords: arabic language, Persian language, word, meaning, Uzbek language, dialect, lexicon

Kirish. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng til o'qish va o'qitish ishlarida ham o'zgarishlar

yuz berdi. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi bilan bu tilning har tomonlama rivojlanishi uchun keng yo'l ochildi. Jamiyatdagi har qanday o'zgarishlar dastlab tilda o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillaridanoq o'zbek tili fanini rivojlantirish, fan yutuqlarini hayotga tatbiq etish kun tartibidagi asosiy masala etib belgilandi.

Asosiy qism. Alisher Navoiy o'zbek tilining boyligini, uning ilmiy va badiiy asarlar yaratish imkoniyatiga ega ekanligini, boshqacha qilib aytganda, adabiy til bo'la olish quvvati va qudratiga egaligini amaliy isbotladi, ilmiy asosladi. Bu murakkab va o'ta muhim masalani bajarishda hazrat quyidagi manbalardan unumli, eng asosiysi, o'rinli foydalandi:

- birinchidan, o'zigacha bo'lgan tilning leksik va grammatik shakllaridan;
- ikkinchidan, umumturkiy tilga xos bo'lgan til boylıklaridan;
- uchinchidan, o'sha paytdagi o'zbek sheva va lahjalaridan, ya'ni umumxalq tilidan;
- to'rtinchidan, o'zlashgan qatlamdan. Boshqacha aytganda, ayniqsa, arab va fors tilidan o'zbek tiliga o'tib ulgurgan leksik va grammatik shakllardan.

Ma'lumki, o'zbek tiliga qadimdan arab, fors tilidan so'zlar, grammatik shakllar anchagina o'zlashdi. Ular faqat ilmiy jamoatchilikka va qalam ahliga tanish bo'lib qolmasdan, bora-bora sheva materiallariga ham singa boshladi. Boshqacha qilib aytganda, umumxalq tili boyligiga aylana boshladi. Shuning uchun hazrat Alisher Navoiy bunday so'zlarga o'gay ko'z bilan qaramaydi. Ulardan o'zining badiiy va ilmiy asarlarida g'oyat o'rinli foydalanadi.

O'rni bilan shuni alohida qayd etish lozimki, shoir

ba'zan arab va fors tilidan kirgan so'zlardan o'zbek tilidagi o'shanday so'zlarning ekvivalenti sifatida foydalanadi. Ayrim holatda esa arabcha so'zlarni ilmiy termin sifatida qo'llaydi. Ba'zan esa, masalaga uslub nuqtayi nazardan yondashib, o'zining badiiy asarlarida ham o'zbekcha, ham forscha, ham arabcha so'zlarni ishlatganiga guvoh bo'lamiz. Albatta matnda qaysi tilga oid so'zning qo'llanganligi, eng asosiysi, maqsadsiz emas. Chunonchi, o'zbek tilidagi "ota" so'zining ma'nosi arab tilida "valid" so'zi bilan ifodalanadi. Shoir ijodida har ikki tilga oid so'zning ishlatilganligiga guvoh bo'lamiz:

Odamki, bashar nasli silkiga erur payvand,
 Suratda senga valid manida senga farzand.
 ("G'aroyibus-sig'ar")

Boshni fido qilg'il ato boshig'a.

Shuningdek, Alisher Navoiy ota, padar ma'nosini anglatuvchi arabcha "ab" so'zini ham qo'llaydi: Otang oyu onang xurshid edi erkinki, sen tug'dung,

Vale husnu latofatda ne ab o'xshar senga, ne umm.
 ("Favoidul-kibar")

O'zbek tilidagi "ona" so'zining ma'nosi arab tilida "valida", "umm" so'zlari bilan ifodalanadi. Shoir o'z ijodida bu uch so'zdan ham foydalanadi:

Oyu kun gar validang o'lsa ul afzun husn aro,
 Ayb emas, iyuki sadafqa dur kibi farzand bil.
 ("Badoyiul-vasat")

Jismni qil sadqa ono qoshig'a.

O'zbekcha "ota-ona" juft so'zi bilan teng, baravar shu ma'noni bildiruvchi arabcha "validayn" so'zi qo'llanilgan.

Alisher Navoiy o'zbekcha "bola", "o'g'il" so'zlariga sinonim sifatida arabcha "valad", "xalaf" so'zlarini

ham mo'l ishlatgan. Arabcha "xalaf" so'zi keyindan keladigan, o'rniga o'tadigan, o'rinbosar ma'nosidan tashqari, avlod, zuriyot ma'nosini ham ifodalaydi:

Valaddur ul dur-u volid sadafdur,
Sadof yani otovu dur xalafdur. ("Farhod va Shirin")

Shoir o'zbekcha "ko'k" so'zini faol qo'llaganidek, xuddi shu ma'noni ifodalovchi arabcha "falak", forscha "osmon" so'zlarini ham juda keng ishlatadi. Ayniqsa "osmon" leksemasiga -iy qo'shimchasini qo'shish orqali uning uslubiy noziklikni yuzaga keltirgan jihatlaridan foydalanganligi ko'zga ochiq tashlanadi:

Emas anjum qazo ko'k mazranda sochti g'am tuxmi. ("Favoidul-kibar")

Osmoniy kutub-ko'kdan ingan kitoblar. Osmoniy to'rt daftar – ko'kdan ingan to'rt kitob (Zabur, Tavrot, Injil, Qur'on).

Alisher Navoiy gunoh, ayb, aybdorlik ma'nosida g'i o'zbekcha "yozuq, yozug" so'zlari bilan bir qatorda arabcha "jurm", forscha "gunoh" so'zlarini ham ishlatadi: jurm aylamoq – gunoh qilmoq, jurm ahli – gunohkorlar. Fors tilida "ohu" so'zi "kiyik" dan tashqari ayb, gunoh ma'nolarini anglatadi.

Hazratning asarlarida bu so'z yuqoridagi o'zbekcha va arabcha so'zlarga ma'nodosh sifatida ham qo'llanilgan: ohugirlik – ayb topishlik, ayb izlashlik. O'zbekcha "bo'sag'a" so'zi bilan birga forscha "ostono" so'zi ham faol ishlatilgan: ostonbo's – bo'sag'a o'pish.

Alisher Navoiyda "yuz" so'zi bilan keluvchi baytlar juda ko'p:

Yuzung ko'zimga keraktur, O'zing o'zimga keraktur. ("Mezonul-avzon")

Shoir yuz, bet so'ziga sinonim sifatida arabcha "oraz", uzor forscha "ro'y", "ro'", "chehra" so'zlarini ham qo'llaganligi bor gap:

Orazin yopqach ko'zumdin sochilur har lahza yosh,
Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz nihon bo'lg'och quyosh.

Pari ro'y – pari yuzli, husnli, go'zal. Uzoringni ocharg'a qimsanurmen,

Vale el ko'rmagiga qizg'anurmen. ("Muhokamatul-lug'atayn")

Eski o'zbek tilida manglay, peshona ma'nosida

"olin" so'zi qo'llanilgan. Ayni chog'da, Hazratning asarlarida bu o'zbekcha so'z bilan ma'nodosh sifatida forscha "peshona" ham faol ishlatilgan:

Qo'pub ul g'or peshonig'a bordi,
Tutub ilgiga bir zarfi chiqardi. ("Farhod va Shirin")

Eski o'zbek tilida, jumladan, Alisher Navoiy asarlarida inju, dur, yoqut, olmos kabi qimmatbaho tosh ma'nosida forscha "gavhar" so'zi juda ko'p ishlatilgan bo'lib, u ko'pincha birikma shaklida qo'llanilgan:

Gavhari anjum – yulduz gavhari, inju kabi yulduzlar;
Gavhari obdor – sof va tiniq gavhar; Gavhari shabcharog' – tunni yorituvchi gavhar. Majoziy ma'noda: qorong'ulikda yo'l ko'rsatuvchi;

Gavhari shahvor – yirik gavhar; so'z gavhari – asli ma'no, chuqur ma'noli, mazmundor she'r;

Gavhari shamoyil – gavharsifat;
Gavhar hasab – gavhar kabi asil.


Arab tilida "g" tovushi bo'lmaganligi sababli forscha "gavhar" so'zi bu tilda "javhar" shaklida. Uning ko'pligi "javohir". Uning majoziy ma'nosi nur sochuvchidir.

Alisher Navoiy forscha "gavhar"ga sinonim

sifatida arabcha "javhar", "javohir" so'zlarini ham o'z ma'nosida, ham ko'chma ma'noda ham ishlatadi; ko'p hollarda uning ma'no nozikliklarini bu so'zning birikma ichida kelganida ochiqroq ilg'aymiz. Javohiri nafois-nafis javohirlar, qiymat baho (eng toza) toshlar. Majoziy ma'noda: chuqur ma'noli so'zlar va ustalik bilan ishlatilgan adabiy iboralar; javohiri samin – qiymatbaho toshlar; Maodin javohari – madanlar javohiri; majoziy ma'noda; ajoyib so'zlar;

Javohiri ashk – ko'z yoshi donalari. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash lozimki, Alisher Navoiy mazkur so'zga -lig' qo'shimchasini qo'shib, javhar (qiymtbaho tosh)lari bor, javohirli ma'nosini ifodalovchi "javohirlik" so'zini yasagan.

Alisher Navoiy uy, xona ma'nolarini o'zbekcha "uy" so'zi bilan ifodalaydi. Hatto birikmalarda bu so'zning ma'nosini bir muncha kengaytiradi ham. Masalan, "uy qizi" birikmasida "xizmatkor qiz", "ko'z uyi" birikmasida "ko'z ichi" ma'nolari ifodalangan. Ayni chog'da, shoir "uy"ga parallel ravishda "oddiy uycha" ma'nosidagi



forscha “kulba” soʻzidan ham foydalanadi. Bu soʻz birikma ichida turlicha maʼno nozikliklarini yuzaga keltirgan deyish mumkin. Masalan, kulbai ahzon – gʻam uyi, gʻamxona; kulbai ano – mashaqqatli uy. Shuningdek, adib asarlarida kichik uy, xona, turar joy, uy maʼnolarini ifodalovchi forscha “koshona” soʻzi ham yuqoridagi soʻzlar bilan maʼnodosh sifatida faol ishlatiladi.

Shoir sheʼriyatida “sevuvchi” maʼnosidagi arabcha “oshiq” (koʻpligi ushshoq) soʻzi bilan bir qatorda, ayrim hollarda qisman uning mubolagʻasini anglatib “ishqqa giriftor” maʼnosida keluvchi arabcha “vomiq” soʻzi ham ishlatilgan.

Alisher Navoiyning asl oʻzbekcha “yoyogʻ, yoyoq” (yayov) soʻzi bilan forscha “piyoda”; oʻzbekcha “but” (oyoq) soʻzi bilan forscha “poy”; oʻzbekcha “uchmoq” (jannat) soʻzi bilan arabcha “jannat”, “xuld” soʻzlarini parallel ishlatganligiga guvoh boʻlamiz.

Shoir shuningdek, oʻzbekcha “dudogʻ // dudoq” soʻzi bilan parallel ravishda forscha “lab” soʻzini ham sinonim sifatida qoʻllaydi:

Sarigʻ libos ul nushi labki xandondur,
Erur masihki, xurshid ichinda pinhondur.
 (“Navodurush-shabob”)

Eng birla menging yaxshi, dudogʻing yaxshi.

Hazrat oʻzbekcha “koʻz” soʻzini oʻz maʼnosida va iboralarda koʻchma maʼnoda faol ishlatadi. Koʻzga ilmak – manzur qilmoq, yoqtirmoq, koʻzdan solmoq – koʻzdan uzoqlatmoq, nazar tashlamoq; koʻzda asramak – juda ham ehtiyot qilmoq; avaylab saqlamoq. Koʻz durri – majoziy maʼnoda: koʻz yoshi; koʻz yopmoq – koʻz yummoq; umid uzmoq; koʻz uyi – koʻz kosasi kabi. Shuningdek, “qarogʻ” soʻzidan ham foydalanadi:

Choʻkurlarkim, sening yoʻlingda tevralmish ayogʻimgʻa,

Chekib ul kuy gardin surma tortarmen qarogʻimgʻa.

“Qarogʻ” soʻzini faqat “koʻzning qorachigʻiga” nisbatan ham ishlatiladi:

Shohning moyayi farogʻi ham ul,

Ne farogʻi, koʻrar qarogʻi ham ul. (“Sabai sayyor”)

Shu bilan birga shoir oʻzbek tiliga arab tilidan oʻtib, singishli boʻlib qolgan “koʻz” maʼnosini ifodalovchi “ayn” soʻzidan ham voz kechmaydi:

Yorab vals xurshididin ayn anga,

Muayyan boʻlub qobi qavsayn anga. (“Saddi Iskandariy”)

“Oʻtkir koʻz” maʼnosida “ayni biynish” birikmasidan foydalanadi:

Qayu yerdakim ayni biynish durur,

Sababin bilurkim, iki ish durur. (“Saddi Iskandariy”)

Ayni paytda “koʻz”ning forscha “chashm” variantiga ham murojaat qiladi: Zahri chashm – koʻz zahri, yomon qarash, koʻz tegish; chashm zaxmi – koʻz tegishi. Alisher Navoiy oʻz asarlarida oʻzbekcha “bulut” soʻziga sinonim sifatida forsiy “abr” soʻzini qoʻllaydi. “Abri bahor”, “abri bahoron”, “abri nayson” birikmalarini “bahor buluti” maʼnosida ishlatadi:

Ul bahori husn mingan qatra afshon bodpoy,
Gulshani aysh ochqali abri bahorimdur mening.
 (“Gʻaroyibus-sigʻar”)

Asl turkiy “koʻngul” soʻzi insonning his-tuygʻu, kechinmalar olami, dil, qalb maʼnolarini ifodalaydi. “Yurak” soʻzi ham qadimgi turkiy tilga tegishli. Shuning uchun Alisher Navoiy bu ikki soʻzni ham oʻz asarlarida ishlatadi. Arab tilidagi “qalb” soʻzi koʻp maʼnoli boʻlib, dastlab “yurak” maʼnosini, keyinchalik esa “dil”, “koʻngil” maʼnolarini anglati boshlagan. Shu sababli shoir mazkur soʻzni yuqoridagi oʻzbekcha soʻzlarga sinonim sifatida ishlatadi. Forscha “dil” soʻzi ham shu maʼnoda boʻlib, undan juda koʻp soʻz yasalgan. Alisher Navoiy ularning deyarli barchasidan oʻrinli foydalanadi:

Rahm ichra gʻizo ham ulki malum,

Havoyi dilkusho ham ulki malum. (“Farhod va Shirin”)

Hozirgi adabiy tilda “kiprik” shaklida ishlatiladigan soʻz Alisher Navoiy asarlarida xuddi umumxalq tilidagidek “kirpik” koʻrinishida qoʻllanilganligi guvohi boʻlamiz:

Orazing ochqonda koʻnglumni ochib gul-gul, valek,
Kirpigidin anda yuz ming xor-xor etgan yigit.

(“Badoyiul-vasat”)

Uning sinonimi boʻlgan forsiy “mija” soʻzining ham shoir ijodida koʻp uchrashi bor gap:

Mengizlari gul-gul, mijalari xor,

Qabogʻlari keng-keng, ogʻizlari tor. (“Muhokamatul-lugʻatayn”)

Alisher Navoiy oʻzbek tilidagi “koʻz yoshi, yigʻi” soʻzlari bilan bir qatorda forsiy “giryā” (yigʻi, koʻz yoshi toʻkish), “ashk” (koʻz yoshi) soʻzlarini ham ajib suratda ishlatadi:

Har kun oʻtgan kechadan oshufta koʻnglum zorroq,

Har tun oʻtgan kundan ashk afshon koʻzum xunborroq. (“Badoyiul-vasat”)

Ushbu oʻrinda “ashk afshon” birikmasi “koʻz yoshi sochuvchi, yigʻlovchi” maʼnosida kelmoqda.

Tillardagi soʻzlarning aksariyati koʻp maʼnolidir. Jumladan, eski oʻzbek tilida “oʻlang” soʻzi ham bir necha maʼnoli boʻlib, uning bir maʼnosi oʻlan, ashuladir:

Dasht uzra oʻlang soʻngicha ketkay,

To maqsadu manzilgʻa etkay. (“Layli va Majnun”)

Fors tilidagi “ohang” soʻzi ham bir necha maʼnoli boʻlib, u “kuy, ohang” maʼnolarini ham ifodalagan. Arab tilida “maqom” soʻziningda bir maʼnosi “kuy, ohang”dir. Ayni paytda arabcha “nagʻma” soʻzi “sayrash”dan tashqari “ohang, kuy, maqom” maʼnolarini ham anglatgan. Shuning uchun Hazrat Alisher Navoiy ularning har biridan zarur paytda uslub talabi bilan yoki mantiq nuqtayi nazardan kelib chiqib foydalangan:

Mugʻanniy, tuzat nagʻmai rehta,

Ani qil oʻzung birla omexta. (“Saddi Iskandariy”)

“Nagʻmai rehta” Navoiy davridagi bir kuy nomi.

Umuman mana shu qisqagina tahlildan shu maʼlum boʻlmoqdaki, soʻz mulkingning sultoni boʻlmish Alisher

Navoiy o'zbek tilidagi so'zlarga hamda arab va fors tillaridan o'zlashib, singishib ketgan so'zlarning ekvivalentlarining birortasiga e'tiborsiz bo'lmagan. Chunki daho sabog'icha, tilda so'zning o'gayi yo'q.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Асарлар. Ўн беш томлик. – Тошкент, 1964. – 556 б.
2. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985.
3. Бафоев Б. Сложные существительные в лирике Алишера Навои. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1968. – 25 с.
4. Фозилов Э.И. Алишер Навоий асарлари луғати. – Тошкент, 2013.
5. Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 1983-1985.
6. Рахматуллаева М. К вопросу изучения синонимов в лирике Алишера Навои. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1965. – 25 с.
7. Севортян Э. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на гласные. – М.: Наука.

Mavluda ORTIQOVA,

Xalqaro innovatsion universiteti o'qituvchisi,
erkin tadqiqotchi

ALISHER NAVOIY IJODIDAGI QUSHLAR OBRAZI GENEZISI

Annotatsiya: A.Navoiyning boy merosini o'rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlar bugungi kunda juda salmoqli. Shu bilan birga Navoiyning asarlarida o'z tadqiqini to'lig'icha topmagan masalalar ham bor. Shunday masalalardan biri valiyilar obrazi bo'lib, A.Navoiy "Lison ut-tayr" dostonida qushlar obrazidan asar mohiyatini yoritishdagi majoziy timsollar sifatida foydalanadi. Ushbu maqolada qushlar obrazi va qushlar obrazining genezisi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: valiy, qushlar obrazi, qush tili, Hudhud, Simurg', vodiylar, Anqo.

Abstract: today, scientific research aimed at studying the rich heritage of A. Navoi is very important. At the same time, there are issues that have not been fully explored in Navoi's works. One of such issues is the image of guardians, and in the epic "Lison ut-tyr" by A. Navoi, the image of birds is used as figurative symbols to illuminate the essence of the work. This article talks about the image of birds and the genesis of the image of birds.

Key words: guardian, image of birds, bird language, Hudhud, Simurg, valleys, Anqo.

Абстрактный: сегодня очень важны научные исследования, направленные на изучение богатого наследия А.Навои. В то же время есть вопросы, которые в работах Навои не раскрыты до конца. Одним из таких вопросов является образ хранителей, а в эпосе «Лисон ут-тыр» А. Навои образ птиц используется как образная символика для освещения сути произведения. В данной статье говорится об образе птиц и генезисе образа птиц.

Ключевые слова: хранитель, образ птиц, птичий язык, Худхуд, Симург, долины, Анко.

Sharq mumtoz adabiyotida o'zlari uchun adolatli podshohni izlab mashaqqatli yo'lga chiqqan qushlar obrazi

mavjud. A.Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida ham qushlar obrazi asosida muallif o'zining falsafiy, diniy va tasavvufiy qarashlarini ifoda etadi. A.Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida sinovlarda toblangan, barcha qiyinchiliklardan, xususan, o'z nafsini yengib komillikka erishishning barcha bosqichlaridan sabot bilan o'ta olgan kishilar, ya'ni Haqning jamoliga chin oshiqalar Navoiy ta'biri bilan aytganda haqiqiy valoyat sohiblari sanaladi. A.Navoiy valiy shaxsini sifatlarini ochib berishda qushlar obrazidan foydalanadi. Asar g'oyasi allegorik timsollar orqali bayon qilinib

"Lison ut-tayr" dostonida qushlar tilini, qushlar orqali jamiyatimiz a'zolarining fazilatlarini, illatlari, ijtimoiy hayot manzaralari majoziy tarzda ochib beriladi. Ushbu asarni o'qir ekanmiz, Navoiy asar g'oyasi va sujetini F.Attorning "Mantiq ut-tayr", ya'ni "Qush tili" asariga o'xshatib nazira tarzida yozganligini ko'ramiz. Bu haqda Navoiy o'zining "Lison ut-tayr" asarida aytib o'tganligini, o'z asarini F.Attor asariga javoban yozib, umri davomida ma'naviy-axloqiy nuqtayi nazaridan falsafiy-tasavvufiy ruhdagi dunyoqarashlarini batafsil bayon qilganligini ko'ramiz. A.Navoiy bu asarni

yo'zishda Fariduddin Attorni o'ziga ma'naviy ustoz deb biladi, ammo o'zini shogird deb atashga andisha qilib, Attorni bu falsafiy ilmlarning sultoniga, o'zini esa bu ilm yo'lidagi qulga mengzaydi. Navoiy bu asarni bir umrlik hayot tajribalari, falsafiy-tasavvufiy dunyoqarashlari bilan boyitib yozishi bilan butun turkiy adabiyot ahliga ulkan tuhfa ato etadi. Bu bilan "Lison ut-tayr" asari "Mantiq ut-tayr" asari ta'sirida yozilgan va uning aynan tarjimai emas, balki unga javoban yozilgan asar deya olamiz. "Lison-ut tayr" dostoni bilan "Mantiq ut-tayr" dostonidagi mushtaraklik shunday ekan "Mantiq ut-tayr" dostoni genezisi qaysi asarlarga borib taqaladi va ularda qushlar obrazi qanday konsepsiyaga xizmat qilgan?

Qushlar obrazi ishtirok etgan asarlarga murojat qilsak, bu asarlarning avvalida Ibn Sinoning "Risalat ut-tayr" qissasi turadi. Ba'zi olimlarning fikricha, Ibn Sinoning "Risalat ut-tayr" qissasi sharqda qushlar allegorizmiga asoslanib yozilgan ilk badiiy asar bo'lib, Attor va Navoiy dostonlarining yaratilishida asosiy vazifa bajargan. Professor A.M. Bahovuddinov Ibn Sino risolasining sharq adabiyotiga, ko'rsatgan ijobiy ta'siri haqida gapirar ekan, Navoiy ham "Lison ut-tayr" dostonini yozishda undan ta'sirlanganini qayd etadi. Shu jumladan, A.Irisov ham bu nuqtayi nazarni quvvatlab, shunday mulohaza yuritadi: "Risalat ut-tayr", asosan, ramz-ishoralar bilan yozilgan bo'lib, F.Attorga "Mantiq ut-tayr", Navoiyga "Lison ut-tayr" kabi asarlarni yozishga turtki bo'lgan deyish mumkin. Chunki bu sohada, dastlab Abu Ali Ibn Sino asar yozdi. So'ng bir qancha yozuvchilar qalam tebratdilar. Sh.Sharipov ham bu jarayonga o'z fikrini bildirib shunday deydi: "Darhaqiqat, Ibn Sinoning mazkur risolasi faqat Attor va Navoiy dostonlari vujudga kelishida bir turtki bo'lib qolmay, shu bilan birga, Ibn Sinodan so'ng qush tili vositasida yaratilgan barcha asarlar, jumladan, G'azzoliy va Suhravardiyning nomlari qayd etilgan asarlar vujudga kelishida ham asosiy omillardan biri rolini o'tadi. Shu jihatdan mazkur risola sharq adabiyotida keng tarqalgan qushlar haqidagi traditsion asarlarning kelib chiqishida muhim rol o'ynagan manbalar sifatida ham alohida diqqatga

sazovordir".

Ibn Sinoning "Risalat ut-tayr" asari ikki xil nom bilan: "Risalat ut-tayr" (Qush risolasi) va "Kitob ush-shabaka vat-tayr" (tuzoq va qush kitobi) nomlari bilan yuritilgan. Ibn Sinoning "Risalat ut-tayr" asarida ham bir gala qushlar qafasga tushib qolishi, qafasdan xalos bo'lsa ham oyoqlaridagi changaldan halos bo'lmaganligi, buni yechimini faqat bir podsho bilishi va uni axtarib sakkizta vodiyan o'tganligini oxirida esa bu tugunni oyoqlariga tuzoq qo'ygan o'sha ovchi yecha olishi va shu kabi sir-u sinoatlarni anglagani haqida so'z boradi. Shuni

alohida ta'kidlash lozimki, asardagi mazkur sujet Ibn Sinoning Sharq folkloridan yaxshi tanish ekanini va undan kerakli o'rinda, mohirlik bilan foydalanish qobiliyatiga ega ekanligidan dalolat beradi.

Chunki, shunga o'xshash asarlar Ibn Sinoga ham qadar sayyor sujet sifatida O'rta Osiyo, arab, fors va hind xalqlari orasida keng tarqalgan bo'lib, Ibn Sino ulardan ijodiy foydalanganligini Sh.Sharipov ham aytib o'tganlar. Bu esa o'z navbatida mazkur sujetning manbai xalq og'zaki ijodida ekanligidan guvohlik beradi. Bu sujetning ayrim variantlarini mashhur hind eposi "Kalila va Dimna", shuningdek, hind va o'zbek xalq og'zaki ijodining ayrim namunalari tarkibida ham uchratish mumkin.

Xuddi shu kabi allegorik obrazlar, Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" asarida ham uchraydi. Xususan, rivoyatlarda aytilishicha: "Yuzlab qushlar Sulaymon allayhissalom qayerga borsa, boshi uzra qanotlarini soyabon qilib borgan. Shohning oltin-u kumushdan bunyod etilgan, bir yig'och maydon ichida turgan taxti uzra ham qushlar saf tortib, soyabon vazifasini o'tagan".

Qushlar majoziy obrazda ifodalangan yana bir asar Muhammad G'azzoliyning "Risalat-ut-tayr" asari hisoblanadi. G'azzoliyning ushbu asarida ham bir gala qushlar yig'ilib o'zlariga adolatli bir podshohni axtaradilar. Shunda ular maslahatlashib, bu maqomga Qof tog'ida podshohlik qiluvchi Anqo qushi loyiq deb o'ylaydilar va ular yo'lga tushadilar. Yo'lda ular juda ko'p mashaqqatlarga, to'siqlarga sinovlarga duch keladilar. Ko'pchiligi yo'lda halok bo'ladilar. Sababi,



issiq o'lkadan kelgan qushlar sovuqqa chidolmaydilar, sovuq o'lkadan kelgani issiqqa chidolmaydilar. Shunday qilib qushlar Anqo qushning oldiga borgunga qadar kamayib qoladilar. Ular yo'lda halok bo'lgan do'stlariga juda achinadilar. Qushlar bir go'zal qasr yoniga kelib to'xtaydilar. Shunda ularning oldiga chiqqan saroy mulozimlari nima maqsadda kelganligini so'raydi. Qushlar saroy mulozimlariga o'zlari uchun podshoh axtarib kelganligi, buning uchun esa Anqoni munosib bilganlarini aytadilar. Saroy mulozimlari aytadiki, podshoh sizlarga podshohlik qilolmaydi. Ammo siz kelmasangiz ham podshohingiz edi. Shunday ekan, indamay orqalariga qaytib ketishlarini aytadilar. Qushlar esa bunga rozi bo'lmasdan umrini oxiriga qadar shu yerda yashab qolishga ruxsat so'raydilar. Dastlab, Anqo qushi rozi bo'lmaydi. Keyin esa qushlarning o'ziga bo'lgan mehr-muhabbatini, orzu-umidini anglagach, ularni shu yerda qolishlariga ruxsat beradi. Qushlar esa rohat va farog'atda hayot kechiradilar.

M.G'azzoliyning ushbu asarida Anqo bilan qushlar o'rtasida suhbat bo'lganida tasavvufga oid ayrim masalalarni Qur'on oyatlari asosida izohlaydi. Masalan, qushlar o'zlarining yo'lda halok bo'lgan hamrohlari taqdiri haqida so'raganlarida shunday javob beriladi: "Tangri yo'lida o'lganlarni o'lik deb emas, balki tirik deb bil". Risolada Qur'ondan yigirmaga yaqin oyat keltirilgan bo'lib, ularning mazmuni insonlarni ezgu ishlar qilishga chorlash, bu yo'lda ularni qanday qiyinchiliklar va ularning ortida rohat borligi haqidadir.

Demak, G'azzoliy "Risolat ut-tayr" asarida diniy va tasavvufiy qarashlarini majoziy tarzda ifodalari ekan, Olloh ishqida bo'lgan har bir so'fiy oldidagi qiyinchilikni yengib o'tgandan so'ng ruhi Olloh bilan birlashadi demoqchi. Ammo, bu fikr tasavvufni ham juda murakkab jihatlariga borib taqaladi. Ma'lumki, islom dinida "Ollohni o'xshashi yo'q, u bir va shunday qoladi. Hech qaysi bir O'zi yaratgan mavjudot Unga teng bo'lolmaydi" degan qarashlar va bu qarashlarni isbotlab beruvchi oyatlar va hadislar mavjud. Shunday ekan, qanday qilib bandasi Ollohga birlashadi. Xususan, Navoiy va Attor asarlaridan ham bunday g'oyani anglash noo'rindir. Har bir shu mavzuda, qushlar obrazi majoziy tasvirlangan asarlarni yozgan mualliflari tasavvuf va din bilimdoni bo'lganlar. Navoiy o'zining biografik ruhdagi asarlarida Kalomullohni yod olgani haqida yozib qoldirgan. Shunday ekan, fikrimizcha, yuqoridagi sujet asosidagi asarlarda O g'lloh ishq va bu yo'ldagi qiyinchiliklar, ularni yengib o'tish, natijada esa komillikka erishish, Ollohning mukofotlariga, Olloh vasliga yetishish saodati tasvirlanadi. "Lison ut-tayr" dostonining qisqacha sujeti quyidagichadir: "Har xil qushlar bir gulistonda majlis qilmoq niyatida yig'iladilar. Lekin har bir qush o'ziga munosib o'rin ololmagani tufayli mojaro ko'tariladi. Bunday adolatsizlikni bartaraf etish uchun ularda bir

odil va dono boshliqqa ehtiyoj paydo bo'ladi. Hudhud Simurg' degan qush borligini aytib uning afsonaviy ta'rifini beradi. Lekin Simurg'ga yetishish g'oyat mushkul ekanini, yo'lda azob-uqubatlar muqarrar ekanini uqtirib o'tadi. Hamma qushlarda Simurg'ga katta havas uyg'onadi. Qushlar uni izlashga ahd qilishadi va bu yo'lda rahbar bo'lishlikni Hudhuddan iltimos qiladilar. Hudhud rozi bo'ladi.

To'ti, Tovus, Bulbul, Qumri, Tazarv, Kaklik, Durroj, Kabutar, Shohboz, Shunqor kabi qushlarga murojaat qilib, yo'lga o'tlanishga chog'laydi. Qushlar yo'lga chiqadilar. Lekin ko'p o'tmay ular toliqadilar, yo'l mashaqqatidan alam va dard chekib Hudhudga uzrxohlik bildiradi boshlaydilar.

To'ti garchi qafasda esa-da, go'zallar qo'lidan shakar-qand yeb, qattiqchilik ko'rmay yashab kelardim desa, Tovus o'zining olamdagi eng go'zal qushlardan ekanini aytadi.

Hudhud esa qushlarning barcha uzrlariga javob qiladi va o'z fikrlarini dalillash uchun qator hikoyatlar keltiradi. Qushlarning qanday qilib Simurg'ga yetishlari mumkin degan savollariga Hudhud: "Bu ishq yo'lidir, binobarin bu yo'lda jondan ham imondan ham kechishga tayyor turish vojibdir" – deya javob qiladi. Hudhud xuddi shu so'zlarning daliliga mashhur Shayx San'on qissasini keltirib o'tadi. Hudhud Simurg'ni yanada mufassal ta'rifini beradi. Davradagi qushlarda Simurg'ga ishtiyoq yanada ortadi. Qushlar bu yo'lda rahbar bo'lishi zarurligini e'tirof etadilar va yana Hudhudga yuzlanadilar. U rozi bo'lmaydi. Shunda barchaga qur'a tashlaydilar. Qura Hudhudga tushadi. Endi qushlar birin-ketin o'z maqsadlari sari sur'at va siyratlaridan kelib chiqib savol bera boshlaydilar. Jumladan, bir qushning bu yo'l nimadan holi degan savoliga Hudhud shunday javob beradi:

*...Erur holi ulus g'avg'osidin,
 Shohi zu johu istig'nosidin.*

Yana bir qushning manzilga qachon yetib boramiz degan savoliga Hudhud oldinda yetti manzil bor ekanligini va ularning ta'rifini berib o'tadi. Nihoyat, qushlar olti vodiyaning juda ko'p azob-uqubatlar chekib o'tadilar. Ularning ko'plari halok bo'ladi, ba'zilari izsiz yo'qolib ketadilar.

Nihoyat, qushlar oxirgi – yettinchi vodiya kirib keladilar. Qarasalar:

*Har gul gulshanida bir ko'zgu erdi,
 Kim qayon boqsalar o'trurdi.
 Ko'rinur erdi nazardamu-bamu,
 Aks ko'rguzgan kibi ko'zgu-yusu...
 Kim qilib o'ttiz qush havas,
 O'zlarin ko'rdilar ul Simurg'u bas.*

Shunday qilib, ular axtargan Simurg', o'zlari – o'ttiz qush ekanini angladilar. Navoiy bu asari bilan majoz usulidan foydalanib, majoziy qahramon, personajlar savol-javoblari, xatti-harakatlari va intilishlari orqali butun olam, undagi barcha mavjudotlar Ollohning

tajallisi ekanligini ifodalagan.

Asarda ijtimoiy mohiyatga ega bo'lgan qator hikoyatlar ham mavjud bo'lib, ularda inson mehnatining qadrsizligi, boylikka hirs qo'yishning fojiviy oqibatlari, badbinlik va tarkidunyochilikning behudaligi, ta'magirlik va tekinxo'rlikning yomon illat ekanligi qalamga olinadi hamda ayyorlik va firibgarlik, johillik, xayolparastlik, uquvsizlik kabi xislatlar qoralanadi.

Masalan, asardagi bir hikoyatda dur va marvarid uchun o'z hayotini xavf ostiga solib nihoyatda og'ir mashaqqatli mehnat bilan topgan durlarini savdogarlarga bir ikki chaqaga pullab, tirikchilik qiluvchi g'avvoslar haqida so'z yuritiladi. Hind savdogari haqidagi hikoyatda butun hayotini xatarli safarlarda o'tkazgan, rohat-farog'at ko'rmay, hamisha savdo dardi bilan yurgan savdogarning oxiri daryoga tushib, baliqlarga yem bo'lgani bayon etiladi.

Asarda Navoiyning shaxsiy mushohadalari asosida yaratilgan hikoyatlar ham mavjud bo'lib, ular o'zlarining realistlik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Hunarning sir-u asrorlaridan bexabar bog'bon, musht yeb qornini to'ydiruvchi beor, tekintomoq, hammani aldab misni

oltin, soxta toshni gavhar deb pullab kelgan zargar, behunar va ochko'zligi tufayli yo'l azobi va ovqat tanqisligiga chidayolmay o'lib ketgan pahlavonlarga bag'ishlangan hikoyatlar shular jumlasidandir.

“Lison ut-tayr” dostonining tili Navoiyning boshqa dostonlari, she'riy asarlari tiliga nisbatan anchagina sodda va ravondir. Aytish mumkinki, asardagi murakkab falsafiy mazmun, majoziy vositalarning keng qo'llanganligi tili va uslubini yengil, o'ynoqi, jonli ham tushunarli bo'lishini taqozo qilgan. Navoiyning xalq og'zaki ijodi, undagi sujetlar, hikmatli so'zlar, ta'birlardan, hazil-mutoyibalardan unumli foydalanishi ham shu bilan izohlanadi. Bularning hammasi va ushbu asar kompozitsiyasining nihoyatda puxta ishlanganligini, mazmun va uni ochishda qo'llanilgan badiiy usullar va obrazlar Navoiyning yuksak badiiy mahoratidan dalolat beradi. Xullas, “Lison ut-tayr” o'sha davrning eng aktual masalalarini qamrab olgan real hayot, jamiyat va uning turli tabaqadan tashkil topgan namoyondalarini fazilat va illatlari xususida so'z yurituvchi murakkab falsafiy dostonidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Navoiy A. “Lison ut-tayr” nasriy bayoni. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984.
2. Navoiy A. “Lison ut-tayr” nasriy bayoni. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1992.
3. Attor F. “Mantiq ut-tayr” nasriy bayoni. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2006.
4. Rabg'uziy Nosiruddin Burhoniddin. “Qissasi Rabg'uziy”. Birinchi kitob. – Toshkent: G'.G'ulom nashriyoti, 1990. 34-bet.
5. Irisov A. “Abu Ali ibn Sinoning “Salomon va Ibsol” qissasi”. 18-19-betlar.
6. Tuzuvchi: f.f.d Xasanov B. “Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at”. –Toshkent: “FAN” nashriyoti. 58-bet.
7. Abu Ali ibn Sino. “Tayr qissasi. Falsafiy risolalar”. – Toshkent, 1963.
8. G'aniyeva S. Alisher Navoiy. – Toshkent: O'zfan akademik nashr, 1968. 108–111-betlar.

Kamola IKROMOVA,
TKTI “O‘zbek tili va professional ta’lim”
kafedrasida katta o‘qituvchisi;
O‘g‘iloy TAJIMUROTOVA,
22-62 Pt guruh talabasi

TA'LIM MAVQEYINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING ROLI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘qitishda, xususan, kasb-hunar ta’limida texnologiyalardan foydalanish tahlil qilinadi. Shuningdek, kasb-hunar ta’limi mavqeyini yuksaltirishda texnologiyalardan foydalanish katta rol o‘ynashi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: *islohot, sifat, model, bilim, talabalar, oliy ta’lim, hozirgi kun, o‘qituvchi, jamiyat.*

Аннотация: в данной статье анализируется использование технологий в преподавании, в частности профессионального образования. А также отмечается, что использование технологий занимает огромную роль в повышении статуса профобразования.

Ключевые слова: *реформа, качество, модель, знание, студенты, высшее образование, настоящее, педагог, общество.*

Annotation: this article analyzes the use of technology in teaching, in particular vocational education. It is also noted that the use of technology plays a huge role in improving the status of vocational education.

Key words: *reform, quality, model, knowledge, students, higher education, present, teacher, society.*

O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘li, bu – demokratik huquqiy davlat, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar yo‘lidir.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ta’lim tizimiga yo‘naltirilayotgan katta hajmdagi investitsiyalar O‘zbekistonning eng ilg‘or mamlakatlar qatoridan joy olishiga zamin yaratmoqda. Jumladan, oliy ta’lim muassasalarini moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish va mutaxassislar sifatini tubdan yaxshilash ko‘zda tutilgan.

O‘zbekistonning ta’lim modeli eng zamonaviy talablarga javob beradigan ta’lim muassasalarini barpo etish bilangina cheklanib qolmasdan, ushbu model avvalambor, sifatga, ya’ni o‘qituvchilar, o‘quvchilar, talabalar, o‘quv dasturlari va pirovard natijada bilimlar sifatini oshirishga asoslangandir.

Inson aqli borasida Sharqda qaror topgan qarashlarga ko‘ra, aql ikki xil, ya’ni tabiiy va kasbiy bo‘ladi. Tabiiy aql insonga tug‘ma in‘om etiladi. Kasbiy aql esa o‘qish, ilm olish va tajriba tufayli orttiriladi. Kasbiy aqlni shakllantirishdek sharaflil va mashaqqatli vazifa aynan pedagoglar zimmasiga yuklatilgandir. Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi va ushbu dastur asosida olib borilgan islohotlar natijasida ta’lim sifati va samaradorligi keskin oshdi. Ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazalari mustahkamlandi. Shuni qoniqish bilan aytish mumkinki, zamonaviy ta’lim tizimining joriy etilishi bugungi kunda ijobiy natijalar bermoqda. Pedagoglarning vazifasi zamonaviy texnik ta’minotga ega ta’lim muassasalarida

talablar darajasida innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida yoshlarimizga ta’lim-tarbiya berishdan iborat bo‘lmog‘i lozim. Buning uchun har bir pedagog o‘z ustida mukammal ishlashi, zamondan orqada qolmasligi, o‘qitishning innovatsion texnologiyalarini puxta bilishi va o‘z faoliyatida joriy etishi zarur. Hozirgi kunda eski an’anaviy uslubdagi darslar yoshlarimiz ehtiyojini qondirmaydi, ular bunday darslarni tinglagisi kelmaydi. Chunki, fikrlash va tafakkur boshqa, aynan biror fan bo‘yicha bilimga ega bo‘lish boshqa. Fikrlash va tafakkur tabiiy aql mahsuli, bilim olish esa – bu ta’lim muassasasi, pedagog faoliyati mahsuli. Yoshlarimizni fikrlashi va tafakkuri bundan 15-20 yil avvalgi yoshlarga nisbatan ancha baland va tezdir. Agar pedagog yoshlar bilan hamnafas fikrlamasa, zamon yangiliklariga va talablariga yoshlardanda tez bo‘lmasa, uning ta’lim-tarbiya sohasidagi faoliyati samarasiz bo‘lib qoladi.

Shu bois “Dars jarayonlarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zamon talabi”, – desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Texnologiya – bu belgilangan maqsad va kafolatlangan natijaga erishishning iqtisodiy samarali loyihalangan jarayonlar ketma-ketligi majmuidir. “Texnologiya” so‘zi lotincha “**Thexnos**” – san‘at, hunar, soha va “Logos” – fan degan ma‘noni anglatadi. Texnologiyalarning turlari juda ko‘p. Masalan: **nanotexnologiya, ishlab chiqarish texnologiyasi, axborot texnologiyalari, ta’lim texnologiyalari** va boshqalar.

Ta’lim texnologiyalari – insonga ta’lim va tarbiya berishning ilmiy asoslangan, inson tafakkuriga,

ya'ni ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining intellektual salohiyatiga bog'liq holda amalga oshiriladigan jarayonlar majmuidir. Ta'lim texnologiyani doimiy bir xil holda, ya'ni oldindan loyihalashtirilgan jarayon deb bo'lmaydi. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim texnologiyani bir qolipga sig'adigan, aniq bir o'zgarimas loyiha deb bo'lmaydi. Chunki har bir auditoriya, har bir guruh uchun tinglovchilarning ma'lumoti, ilmiy salohiyati, yoshi, jinsi va boshqa ko'rsatkichlarga bog'liq holda, kerak bo'lsa, guruhdagi har bir tinglovchi uchun alohida pedagogik yondashuv va uning texnologiyasi talab etiladi. Masalan, pedagog bir mavzuni maktab bolalariga boshqa texnologiya asosida, oliy o'quv yurti talabalariga boshqa texnologiyada, ishlab chiqarishdagi muhandis-texnik xodimlarga boshqa va oliy o'quv yurti pedagoglariga boshqa texnologiya asosida o'tishi

talab etiladi. Shuningdek, oldindan ma'lum bir guruhda dars o'tishda, pedagogning oldindan loyihalashtirib kelgan dars o'tish texnologiyasi, auditoriyaning tayyorgarligi, undagi savol-javoblar natijasida yuzaga keladigan vaziyatlar asosida o'zgarishi ham mumkin. Shundagina pedagog aniq ko'zlangan natija – ya'ni o'z bilimini tinglovchilar tafakkuriga yetkazib, ularda rivojlantiruvchi faol faoliyat uyg'ota oladi.

O'qitishdan maqsad, tinglovchiga oldindan aniq, bor narsani o'rgatish emas, balki o'qishni o'rgatishdir. Chunki, biz bugun talabaga o'rgatayotgan texnik vositalar, ayniqsa axborot-kommunikatsiya tizim texnikalari tezda ma'naviy eskiradi, demak, bitiruvchi o'zi mustaqil o'qib, yangi texnik vositalar bilan ishlash sirlarini bilishi, shunga o'zida amaliy ko'nikma hosil qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, 1997.
2. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – Toshkent, 1997.
3. Aripov M.M. va boshqalar. Informatika, informatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2003.
4. Андреев А. А. Введение в дистанционное обучение. Учебно-методическое пособие. — М.: 1997 г.
5. Ахаян А.А. Виртуальный педагогический вуз. Теория становления. – Санкт-Петербург, 2001г.

Abubakir ZIYADULLAYEV,
SamDCHTI tayanch doktoranti

ALFRED DE MUSSET BADIYATIDA XRONOTOPIK O'ZIGA XOSLIK

Annotatsiya: ushbu tadqiqot ishida fransuz yozuvchisi A. Musset asarlarining lingvopoetik tahlili va ularning o'zaro mutanosibliigi hamda badiiy zamon va makon tadqiqi orqali yozuvchining poetik universalizmi o'rganilgan. Bunda olib borilgan izlanish matnning badiiy xronotopik tahlili orqali amalga oshirilgan va asosan badiiy makonning hosil bo'lish kompozitsiyalari tadqiqot obyekti sifatida olib chiqilgan.

Kalit so'zlar: *lingvistik va poetik xususiyat, badiiy makon, real muhit, zamon-makon dialektikasi, makonning yopiqligi va ochiqligi, adabiy yondashuv, ichki makon, ichki badiiy makon, struktur topos, badiiy kontinuum.*

Абстрактный: в данной исследовательской работе поэтический универсализм писателя изучается посредством лингвопоэтического анализа произведений французского писателя А. Мюссе и их взаимосвязи, а также исследования художественного времени и пространства. Проведенное исследование осуществлялось посредством художественного хронотопического анализа текста, причем в качестве объекта исследования преимущественно была взята композиция произведения художественного пространства.

Ключевые слова: *лингвопоэтические особенности, художественное пространство, реальная среда, диалектика времени и пространства, замкнутость и открытость пространства, литературный подход, внутреннее пространство, внутреннее художественное пространство, структурный топос, художественный континуум.*

Abstract: in this research work, the poetic universalism of the writer is studied through the linguistic and poetic analysis of the works of the French writer A. Musset and their interrelationship, as well as the study of artistic time and space. The research carried out was carried out through the artistic chronotopic analysis of the text, and mainly the composition of the creation of the artistic space was taken as an object of research.

Key words: *linguistic and poetic features, artistic space, real environment, time-space dialectic, closedness and openness of space, literary approach, interior space, interior artistic space, structural topos, artistic continuum.*
Asarlarda syujet jarayonlarini tasvirlash uchun qo'llaniladigan makon konkret hayotda duch kelinadigan makon

holatidan katta farqqa ega emas. Ammo bunda badiiy makonning lingvistik va poetik xususiyatlari o'ziga xos ahamiyatga ega. Rus adabiyotshunosi D.C. Lixachev o'zining "Rus adabiyotining tarixiy poetikasi" asarida makon haqida "Yozuvchi o'z asarida voqea sodir bo'ladigan muayyan makon yaratadi. Bu makon hududi katta bo'lib, bir qancha mamlakatlarni o'z ichiga olishi mumkin (sarguzasht yoki safarnoma tipidagi asarlar), hatto voqea yer sharining chegarasidan chiqishi mumkin (fantastik romanlarda) va kichik bir xonada yuz berishi mumkin" [8, 129] – degan fikrlarni bildirgan. A. Myusse Fransiya tarixida nafaqat yozuvchi shoir balki o'tkir satirik va tanqitchi bo'lib ham tanilgan. Bu xarakter uning ayrim asarlarining bosh obrazlarida tasvirlangan hamda yozuvchi o'sha qahramonlar orqali jamiyatda mavjud xatoliklarni ko'rsatishga harakat qilgan. Bularga misol tariqasida Les Nuits (Tunlar) shery to'plami, Emmeline hikoyasi yoki Deux nuits d'exes dramalarini keltirish mumkin. "Zamon-makon dialektikasining bunday konsepsualligi badiiy zamon va badiiy makonni san'atkor tasvirlayotgan olamning ajralmas uzviy tarkibi, deb qarashga o'rgatadi. Adabiyotda ajralmas bu tarkib xronotop, ya'ni zamon va makonni badiiy o'zlashtirish usuli deb nomlanadi" [1, 142]. A. Myussening o'z san'at doirasida yaratilgan barcha asarlaridagi badiiy tasvir uslubi juda keng va har bir jarayonni, badiiy makonni, badiiy zamonni, xronotopni ifodalashda o'zining badiiy uslubidan foydalangan. Pendant les quatre premières années après le mariage, on les vit très peu l'un et l'autre. Ils avaient loué une maison de campagne au bord de la Seine, près de Melun ; il y a dans cet endroit deux ou trois villages qui s'appellent le May, et comme apparemment la maison est bâtie à la place d'un ancien moulin, on l'appelle le Moulin de May. C'est une habitation charmante ; on y jouit d'une vue délicieuse. Une grande terrasse, plantée de tilleuls, domine la rive gauche du fleuve, et on descend du parc au bord de l'eau par une colline de verdure. Derrière la maison est une basse-cour d'une propreté et d'une élégance singulières, qui forme à elle seule un grand bâtiment au milieu duquel est une faisanderie ; un parc immense entoure la maison, et va rejoindre le bois de la Rochette [9, 14]. Ma'nosi : To'ydan keyingi birinchi to'rt yilda ular bir-birini juda kam ko'rishdi. Ular Melundan uncha uzoq bo'lmagan Sena qirg'og'ida joylashgan qishloq uyini ijaraga olishdi; bu yerda ikki-uch qishloq bor edi, ularni Le Mey deb atashadi va uy eski tegirmon o'rnida qurilganga o'xshaganligi uchun, Mullen de Mey deb atalardi. Bu maftunkor uy ajoyib manzara ega edi : daryoning chap qirg'og'idan jo'ka o'tlari ekilgan katta ayvon ko'tarilgan, bog'dan suv yam-yashil tepalik bo'ylab tushardi. Uyning orqasida g'ayrioddiy soflik va noodatiy uslubda qurilgan ferma bor edi, uning katta binosi bo'lib, o'rtasida qirg'ovul in qurgan; katta park bu fermani o'rab olgan va La

Rochete o'rmoni bilan bog'lagan edi. Yuqoridagi tasvir parchasida ifodalangan xronotopni izohlagan holda shunday deyish mumkin : Emmeline hikoyasining asosiy qayramoni Emmeline o'zining to'yidan keyingi holati, ya'ni « asal oyi » tasvirlanmoqda. Bunda yozuvchi badiiy makonni struktiv ifodalashda ketma-ketliklarga e'tibor qaratgan. Manzara tasviri avvalambor qishloq joylashuvidan, keyin qishloq ichidagi uyning joylashuvidan va uyning badiiy tasviridan iborat. Uy yoki ferma makonining tasvirida badiiylik yaqqol ko'zga tashlanadi : une habitation charmante, d'une vue délicieuse, Une grande terrasse, plantée de tilleuls, domine la rive gauche du fleuve, parc au bord de l'eau par une colline de verdure. Bu ifoda tasvirlari qahramon atrofidagi mavjud badiiy makonning holatini to'liq anglashga yordam beradi. Bunda makonning yopiqlik va ochiqlik holatiga ham urg'u berilgan. Yuqoridagi manzara chizgilarida faqat ochiq makon tanlanganligini bog', ferma, daryo, o'rmon kabi makon ifodalovchilaridan bilish mumkin. Bundan tashqari A. Myusse o'zining asarlarida badiiy tasvir ko'lamiga juda katta e'tibor qaratgan. Uning har bir asari boshlanishida badiiy ifoda jarayonning o'ziga xosligini ya'ni, obraz tasvirining hudud va vaqtga adabiy yondashuvini ko'rish mumkin. Yozuvchining ifoda holatiga ko'ra, asarda anglashilayotgan badiiy makon tarkibida ichki makon hosil qilishi mumkin. Bunda gavdalantirilayotgan badiiy kompozitsiyaning tarkibiga boshqa bir badiiy mavjudlik tasvirlash orqali erishiladi.

De même que, dans la machine pneumatique une balle de plomb et un duvet tombent aussi vite l'une que l'autre dans le vide, ainsi les plus fermes esprits subirent alors le même sort que les plus faibles et tombèrent aussi avant dans les ténèbres. De quoi sert la force lorsqu'elle manque de point d'appui ? Il n'y a point de ressource contre le vide [8, 34]. Ma'nosi : Bo'shliqda bir-birini o'rnini to'ldiradigan metall sharlar singari, kuchli ishtiyoq, umid ma'lum bir holatda umidsizlik o'rnini to'ldiradi. Va ulkan ishtiyoq sekin asta mavhumlikda g'oyib bo'ladi. Unga yetishmayotgan turtki aslida nimaga xizmat qiladi ? Ummuman olganda hech qanday bo'shliqni to'ldiradigan g'oyaning o'zi ham yo'q. Bu o'rinda yozuvchi o'z davrining yoshlari hayoti haqida jamiyatda kuzatilayotgan noodatiy holatlar yuzasidan fikrlarini keltirgan. Ya'ni yoshlar ongida mavjud bo'shliqni to'ldirish uchun kim harakat qilmoqda, yoki qanday yechim borki, bu holatni bartaraf etishga degan savollarni qo'ygan holda murojaat etmoqda. Endi yuqoridagi parchaning davomi : Je n'en veux d'autre preuve que Goethe lui-même, qui, lorsqu'il nous fit tant de mal, avait ressenti la souffrance de Faust avant de la répandre, et avait succombé comme tant d'autres, lui, fils de Spinosa, qui n'avait qu'à toucher la terre pour revivre, comme le fabuleux Antée [7, 34]. Ma'nosi : Gyote singari mazlum insonni endi xohlamaymanki,

u bizni shunchalar yomonga chiqargan. Faustning azoblarini ifodalashdan oldin uning o'zi his etgan, asar qahramonlari singari o'lib, so'ngra afsonaviy Ante singar qayta tirilib ko'rgan. Asarning badiiy sujetining bir makonda ikkinchi makonga o'tishi real makonning badiiy makondan farqlanishni ko'rsatadi. Yuqoridagi parchalarda yoshlarning manaviy ongi, ruhiy bo'shliq qurboni bo'lish haqidagi fikr mulohazalar ortidan Gyotening asar qahramonlari ustida olib borilgan mulohazalar asar poetikasidagi holatni birmuncha murakkablashtirib yuborgan. Buni yoshlarning ruhiy bo'shliq olamida sarson-sargardon yurgan paytlardagi holati bilan tasvirlangan ichki badiiy makon sifatida Faustning azobli hayotini tasavvur etish mumkinligi bilan izohlash mumkin. « Badiiy asar voqeahodisalarini hikoya qilish jarayonida ikki xil makon va zamon (vaqt) holatiga duch kelamiz. Birinchi so'zlab beruvchi, ya'ni muallif tomonidan belgilab qo'yilgan vaqt va makon, ikkinchi, voqeaning harakat vaqti va holati. Birinchi holat matnda aniq qayd etilmaydi, u asarda bilvosita namoyon bo'ladi, bu holat asar voqealarini va qahramonlari tabiatini tushinishda nihoyatda muhim bo'lib qoladi. Ikkinchi holat doim aniq bo'ladi, chunki bu holat bizga ma'lum bo'lgan makon va zamoni anglatadi. » [10, 234-235] M. Baxtining sujet tasviri xususida yuqoridagi mulohazalarini quyidagi misolda ko'rish mumkin. C'était par une de ces sombres soirées où le vent qui siffle ressemble aux plaintes d'un mourant ; une pluie aiguë fouettait les vitres, laissant par intervalles un silence de mort. Toute la nature souffre par ces temps : les arbres s'agitent avec douleur ou courbent tristement la tête ; les oiseaux des champs se serrent dans les buissons ; les rues des cités sont vides. Ma blessure me faisait souffrir. Ma'nosi : O'layotgan odamning nolasiga o'xshab yangraydigan huvillagan shamolli, qorong'u oqshomlardan biri edi; shiddatli yomg'ir derazalarga urilib, vaqti-vaqti bilan o'lik sukunatni buzib yuborar edi. Bu paytlarda butun tabiat azob chekadi: daraxtlar og'riqli harakatlanadi yoki g'amgin bosh egadi; dala qushlari butazorda bir-birining pinjiga tiqilishadi; shahar ko'chalari bo'm-bo'sh. Jarohatim menga azob berar edi [7, 84]. Asr farzndining dil izhori asarining bosh qahramon Oktav sevgilisining va do'stining xiyonatiga duch kelgan va do'sti bilan duelda jarohatlangan holda ko'cha kezib yurib sovuq shamolli bir tunda sobiq sevgilisining uyi yoniga borib qoladi. Bu tasvirda muallif Myusse asar yaratilish davri va yuqoridagi sujet jarayonlaridan keyin ekanligini ifodalayotgan gaplarning grammatk zamonidan ham bilish mumkin. Hikoya zamonidan (l'imparfait) foydalangan holda tasvir etmoqda va jarayonlarni sodir bo'lishi davri va makoni aniq tasvirlanmoqda : tun, shamol, yomg'ir, daraxtlar, qushlar va deraza. Bular badiiy makon va zamon ifodasini uyg'unlikda ifoda etishga yordam beruvchi ikkilamchi obrazlardir. "Muhimi boshqa –

matndagi personajlar atrofidagi narsa va buyumlar tasviri ortida makon munosabatlari tizimi, makon strukturasi (struktur topos) yuzaga keladi. Bunday holda badiiy kontinuum (zamon va makon izchilligi) da personajlarni joylashtirish va tashkillash tamoyilida makon strukturasi boshqalarni ifoda qiluvchi til sifatida bo'ladi. Badiiy makonning matndagi modellashtiruvchi alohida o'rni shu bilan bog'liqdir" [6, 196]. Badiiy makonni hosil qiluvchi mayda personajlar umumlashgan holda bir adbiy tasvir tilini mujassamlashtiradi. ...Une certaine nuit que j'étais sur ce banc, plongé dans une affreuse tristesse, je vis passer un ouvrier attardé qui chancelait. Il balbutiait des mots sans suite, mêlés d'exclamations de joie ; puis il s'interrompait pour chanter. Il était pris de vin, et ses jambes affaiblies le conduisaient tantôt d'un côté du ruisseau, tantôt de l'autre. Il vint tomber sur le banc d'une autre maison en face de moi. Là il se berça quelque temps sur ses coudes, puis s'endormit profondément. La rue était déserte ; un vent sec balayait la poussière ; la lune, au milieu d'un ciel sans nuages, éclairait la place où dormait l'homme [7, 136]... Ma'nosi : Bir kuni kechasi men skameykada qayg'uga botib o'tirganimda, dovdirab turgan bir ishchining o'tib ketayotganini ko'rdim. U shodlik nidolari qo'shilib, tasodifiy so'zlarni duduqlanib aytardi; keyin kuylashni to'xtatdi. U sharobdan to'lib-toshgan, zaiflashgan oyoqlari uni goh soyning bir tomoniga, goh boshqa tomoniga olib borardi. U kelib, ro'paramdagi boshqa uyning skameykasiga yiqildi. U yerda bir muddat tirsagida tebrandi, keyin chuqur uyquga ketdi. Ko'cha huvillab qoldi; quruq shamol changni olib ketdi; Oy, bulutsiz osmon o'rtasida, odam yotgan joyni yoritdi. Badiyatning hech qanday ta'riflashlarisiz bu tasvirning xronotopini anglash qiyin emas. Badiiy zamoni ifodalayotgan vositalar, nuit va la lune. Badiiy makon vositalari : banc, d'un côté du ruisseau, tantôt de l'autre, en face de moi, La rue était déserte , un vent sec. Bular o'quvchi ongida asar sujetida sodir bo'layotgan jarayonlarning aniq tasviriy makonini hosil bo'lishini ta'minlaydi. Bu yerda bosh qahramon Oktav o'zining muvaffaqiyatsiz muhabbatini iztiroblarini tortayotib, sevgilisining manziliga mast holatda o'zini anglamagan holda kelib qoladi va u yerda o'ziga va adolatsiz dunyoga qilgan ohu-nolalarini mana shu badiiy makonda ifodalaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, A. Musset asarlaridagi ifodalangan badiiy makon va xronotop tasviri asosan negativ xususiyatga ega. Uning tun tasviri badiiy zamon obrazini shakllantirishda asosiy vosita ekanligi va badiiy makonning shu negativ obrazga monand ravishda gavdalantirilganligi bu asarlarning universallik xususiyatini ochib beradi. Yozuvchi bunday ijod usulini o'zi yashab turgan jamiyatning ta'siri orqali o'zida shakllantirgan va uni kelajak avlod uchun qog'ozga muhrlashga qaror qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qarshibayeva U. Fransuz romantizm prozasining poetik xususiyatlari: Filol. fan. d-ri. ...diss. –Toshkent, 2016.
2. Романда замон ва хронотоп шакллари М.Бахтин. – Тошкент: “Akademnashr”, 2015.
3. Istamova Sh. Badiiy asarlarda tushning poetik-kompozitsion vazifalari: Fil.fan.fals. d-ri. diss. –T., 2018.
4. Темирболат А.Б. Категории хронотопа и темпорального ритма в литературе. Монография. - Казань: Алмати, 2009.
5. Romanda badiiy xronotopning o'ziga xosligi. Monografiya. –T.: Turon zamin ziyo, 2014.
6. Muqimov T.B. On rhyme phraseologisms in French and uzbek languages: International bulletin of applied science and technology, 3(6), 1431-1433. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8107029>
7. Лотман Ю.М. Структура художественного текста // Лотман Ю.М. Об искусстве. – СПб.: «Искусство – СПб», 1998.
8. Alfred de Musset. La Confession d'un enfant du siècle, Bibliothèque nationale de France. 1836.
9. Лихачев Д.С. Историческая поэтика русской литературы. – Санкт-Петербург: Алтейя, 2001.
10. Alfred de Myusse. Emmeline. Bibliothèque nationale de France. 1888
11. Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. М.: 1975.

Muxayyo RIZAXANOVA,

Samarqand Davlat Chet tillar instituti, katta o'qituvchi

FRANSUZ TILIDA ETIKETGA XOS IBORALARNING QO'LLANISHI

Annotatsiya: mazkur maqolada, Fransuz tilida etiket va iboralar haqida ilmiy ma'lumotlar beriladi. Maqola, Fransuz tilidagi munosabatlar va kommunikatsiyada qo'llaniladigan adabiyotlar, qo'llanmalar va usullar, madaniy va sotsial qadriyatlar, til o'yligi, ta'riflar, so'z o'yligi, nutq so'zi va imkoniyatlari, davranish antropologiyasi, va ko'ngil ochiqliklar to'g'risida o'zbekcha ma'lumotlar taqdim etadi. Ilmiy jurnallar, konfranslar, va akademik manbalardan olingan ma'lumotlar asosida tuzilgan maqola, fransuz tilini o'rganish, madaniy va tilshunoslik sohasidagi tadqiqotlarga yordam berishi maqsadida tayyorlangan.

Kalit so'zlar: *fransuz tili, etiket va iboralar, odob-axloqi, ijtimoiy tadbir, davlatining an'analari.*

Annotation: this article provides scientific information about etiquette and expressions in French. Articles, literature, practices and methods used in French language relations and communication, cultural and social values, language thinking, definitions, word thinking, discourse and possibilities, anthropology of circulation, and provides Uzbek information about open-mindedness. The article, compiled on the basis of information obtained from scientific journals, conferences, and academic sources, was prepared in order to support research in the field of French language learning, cultural and linguistic studies.

Key words: *french language, etiquette and expressions, manners, social events, traditions of the country.*

Аннотация: в этой статье представлена научная информация об этикете и выражениях на французском языке. Статьи, литература, практики и методы, используемые во французских языковых отношениях и общении, культурных и социальных ценностях, языковом мышлении, определениях, словесном мышлении, дискурсе и возможностях, антропологии обращения, а также предоставляют узбекскую информацию о непредвзятости. Статья, составленная на основе информации, полученной из научных журналов, конференций и академических источников, была подготовлена с целью поддержки исследований в области изучения французского языка, культурных и лингвистических исследований.

Ключевые слова: *французский язык, этикет и выражения, манеры, светские мероприятия, традиции страны.*

Kirish. Fransuz tilida etiketga xos iboralarni qo'llash dunyoda ko'p oila, ish, va ijtimoiy munosabatlarda juda muhim bo'lib, bu mavzuda ko'proq tushuncha yaratadi. Etiket, insonning davranishini, kommunikatsiyasini va muloqotni muvofiqlashtirish usullari bilan bog'liq qoidalarning to'g'ri va mazmuni ta'siri kabi asoslarni o'z ichiga oladi.

Etiketga xos iboralarni o'rganish va ularni amalga oshirish, masalan, o'tirishib qolish, muloqotda qo'llash, o'zini taqdim etish, va boshqa amallar, kishi yoki kompaniya uchrashuvi davrida ko'proq samarali va ishonchli hisoblanadi. Bu sababdan, qo'llanish mumkin bo'lgan eng ko'p ko'riladigan mavzularning biri etiketga qarashning qanday asoslariga ega bo'lishdir.

Birinchi paytgacha, etiketga xos iboralarni qo'llashda, o'zaro hurmat va adabiyotni saqlash juda muhimdir. Bunday so'zlar, masalan, "Iltimos", "Rahmat", "Uzur so'ra'vlar" va boshqalar, muloqot davomida boshqacha insonlarga hurmat ko'rsatishni bildirish uchun ishlatiladi.

Ikkinchi ravishda, ijtimoiy halqada yoki kasbiy doiradagi majlisda bo'lsa, so'zning boshlanishi "Salom", "Assalomu alaykum", yoki "Bonjour" kabi eng ko'p ishlatiladigan iboralar bo'lishi mumkin. Uchinchi ravishda, qo'llanish mumkin bo'lgan boshqa iboralar, masalan, "Tashakkur", "Marhamat", "Ustoz", "Sizga omad" va boshqalar, ijtimoiy, kasbiy yoki oilaviy munosabatlarda samarali bo'lishadi. Shuningdek, etiketga xos iboralarni qo'llashda, so'zlar juda muhimdir, ammo muloqotning toni, yuz ifodasi va quloqqa to'g'ri yetadigan usullar ham muhimdir. Bu, muloqotni samimiyat bilan davom etishni ta'minlashda yordam beradi va o'zaro munosabatlarning yaxshi tarzda rivojlanishiga olib keladi.

Asosiy qism. Mamlakatda odob-axloq qoidalari monarx Lui XIV davrida o'rnatila boshlandi, uning hukmronligi

"Oltin asr" deb nomlanadi. U jamiyatda va sudra umumiy qabul qilingan xulq-atvor qoidalarini tan olishni talab qilgan. Va saroy subyektlari va mehmonlari yangi tartibga tezda ko'nikishlari uchun qoidalar bilan maxsus kartalarni tarqatishga qaror qilindi. Hatto yangi lavozim paydo bo'ldi - belgilangan tartibning qat'iy bajarilishini nazorat qiluvchi marosim ustasi. Jamiyatdagi kishilarning xulq-atvor qoidalarini anglatuvchi "odob" atamasi kiritildi. Asta-sekin yangi tushuncha va atamalar paydo bo'la boshladi. Rus tilida fransuz tilidan olingan ko'plab etiket so'zlari mavjud. Masalan, galant (fransuzcha "galant" dan) nafis xushmuomalalik va xushmuomalalik ko'rsatadigan odamdur. Fransuz odob-axloqi mamlakat madaniyatining aksi, millat g'ururi, mahalliy mentalitetning o'ziga xos xususiyati.

Kiyim bilan kutib ol, aql bilan kuzatib qo'y.

"Fransuzcha g'aroyib kiyinish" iborasini mavjud. U kutilmaganda paydo bo'ldi. Fransuzcha uslubda kiyinib, siz nafislikni, soddalikni, hashamat va go'zallikni tanlaysiz. Fransuzlar birinchi navbatda tashqi ko'rinishga e'tibor berishadi. Qayerda bo'lsangiz ham tashqi ko'rinish mukammal bo'lishi kerak: ijtimoiy tadbirda, romantik kechki ovqatda, teatrdan. Fransiyadagi etiket kiyim kodiga rioya qilishni talab

qiladi. Odamlarning oldiga tartibsiz, dazmollanmagan kiyimda chiqish mumkin emas. Oyoq kiyimlarini tanlashda amaliy qoidalarga amal qilish tavsiya etiladi. U kiyimga mos kelishi va muayyan vaziyatga mos kelishi kerak. Soch turmagiga alohida e'tibor beriladi. Tasvirni to'ldirish uchun turli aksessuarlar, sharflar, shlyapalar, soatlar yordam beradi. Bundan tashqari, bu odam kiyim tanlashga barcha mas'uliyat bilan yondashganining belgisidir. Kiyim uslubi muayyan vaziyatga mos kelishi kerak

Tilga munosabat. Monarxlar davrida bir qancha xorijiy tillarni bilish maqto'vga sazovor deb hisoblanganiga qaramay, bugungi yoshlar ingliz tilini yaxshi bilishmaydi. Ularda vatanparvarlik tuyg'usi yuqori darajada rivojlangan, shuning uchun faqat o'z ona tillarida gapirish odat tusiga kiradi. Shuning uchun, agar fransuzlar orasida sodiq do'stlar topish istagi bo'lsa, ularning tilini o'rganish mantiqan to'g'ridir. Fransuzlar o'z davlatining an'analarini hurmat qiladigan g'ururli xalqdir. Ajablanarlisi shundaki, bir paytlar davlat darajasida radiostansiyalar efrida xorijiy musiqiy asarlar soniga cheklov joriy etishga qaror qilingan.

Oila va nikohga munosabat. Fransiya xalqi oilaviy qadriyatlarga juda sezgir va oilaviy munosabatlarni saqlashga harakat qiladi. Bu hech bo'lmaganda yaqin odamlarning bir-biriga yaqin yashashni afzal ko'rishida namoyon bo'ladi. Bu bizga bir-birimizni ko'rish va tez-tez muloqot qilish imkonini beradi. Yakshanba oilaviy yig'ilishlar kuni hisoblanadi. Fransiyadagi odob-axloq qoidalari shu kuni turli avlodlarning oila a'zolari yig'iladigan katta dasturxon qo'yishni buyuradi. Ushbu an'anaga rioya qilish oila a'zolari bilan oilaviy aloqalarni mustahkamlash va hayotingizdagi yangiliklar bilan bo'lishish uchun ajoyib imkoniyatdir. Fransuzlar kechki ovqatni 19 soatdan oldinroq qilishni afzal ko'rishadi. Ovqatlanish paytida turli mavzularda suhbatlashish odat tusiga kiradi.

XULOSA. Xulosa qilib aytish mumkinki, maqolada Fransuz tilida etiket va iboralarni o'rganish bo'yicha ilmiy ma'lumotlar taqdim etadi. Ushbu mavzuga oid Fransiyaning kommunikatsiya va munosabatlar sohasidagi adabiyotlar, qo'llanmalar, va usullar, madaniy va sotsial kontekst, ta'riflar, so'z o'yiligi, nutq so'zi, davranish antropologiyasi, va ko'ngil ochiqliklar bilan bog'liq ilmiy ma'lumotlar qayd etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dehqonov Islom Teshayevich. (2021) Fransuz tilidan tarjima qilingan asarlarda ekzotizmning ifodalanishi. Международная научно-практическая конференция. 1 (1) 216-218.
2. Shalola Jurayeva, Gulsanam Shavkatova, characteristics of romanticism in french literature, development and innovations in science 2022/12/7. Volume 1 issue 17 pages 4-7.
3. Juraeva shalolaxan khusanboevna, the theme of a hero in uzbek production, proceedings of international educators conference 2022/10. Volume 6 issue 8 pages 28-31.
4. Shalolajurayevakhusanboyevna. Romantic genre and romantic art in french literature, prospects for the development of science and education 2022/3/24. pages 69-72.

Zuhra QARSHIBOYEVA,
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti o'qituvchisi

NUTQ ODOBI VA BUGUNGI KUN YOSHLARI NUTQI

Annotatsiya: maqolada nutq madaniyati, muloqatning o'ziga xos tomonlari, nutqning o'ziga xos foydali sifatlari xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: *nutq madaniyati ta'riflari, uning o'rganilishi, adiblarimiz asarlaridagi bu bilan bog'liq fikrlar talqini, bugungi kundagi nutq madaniyatiga bo'lgan e'tibor.*

Abstract: the article discusses the culture of speech, the specifics of communication, the specific useful qualities of speech.

Keywords: *definitions of speech culture, its study, interpretation of related ideas in the works of our writers, attention to today's speech culture.*

Odobni sershox daraxtga o'xshatish mumkin. Har bir yoshning, har bir kasb-korning o'z odobi bor. Inson bolasi go'dakligidan boshlab ota-onasi, ustozlari, atrofini o'rab turgan barcha birodarlaridan qanday yashashni, odob-axloq qoidalarini o'rganib boradi. Xalqimizda "Odobli bola elga manzur", "Inson odobi bilan go'zal", "Odobning avvali salom" kabi maqollar mavjud. Darhaqiqat, odob "Assalomu alaykum"dan boshlanadi. Hatto o'zbek xalq ertaklarida ham yovuzlik ramzi hisoblangan ba'zi obrazlar tilida "Gar saloming bo'lmasa, bitta yamlab yutardim" degan jumalarni uchratamiz. Bu so'zni hamma vaqt, har qanday joyda bir xilda, to'liq, sof talaffuzda qo'llamoq kerak. Talaffuzning softligi, to'g'riligi, jumalarning o'rinni tanlanishi va eng muhimi, sermazmun bo'lishi nutqimizning ta'sirchanligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Odob juda keng va qamrovli tushuncha bo'lib, u nutqni to'g'ri va o'rnida qo'llash odobini ham o'z ichiga oladi. Buyuk bobokalonimiz Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" kitobida "Odobning boshi tildir" degan maqol qayd qilingan. Ulug' alloma Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida "til ardami" (nutq odobi) haqida bir qancha go'zal hikmatlar mavjud bo'lib, jumladan "So'zingga ehtiyot bo'l, boshing ketmasin, Tilingga ehtiyot bo'l, tishing sinmasin", "Bilib so'zlasa, so'z donolik sanaladi, Nodonning so'zi o'z boshini yeydi", "Aql ko'rki so'zdir va til ko'rki – so'z" deyiladi dostonida. So'z mulkining sultoni Alisher Navoiy so'zning muloqotdagi o'rnini bilishni inson axloqining asoslaridan hisoblagan, aniq va lo'nda gapirishni fazilat deb bilgan. Tariximizda go'zal nutq, nutq odobi, ona tilining qudrati kabi masalalar hamisha allomalarimiz diqqat markazida bo'lib kelgan. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiriy kabi bir qator ma'rifat darg'alari tilimiz muhofazasi, tilning softligi va nutq odobi haqidagi jiddiy fikrlarni bayon qilganlar. Bugungi nutq madaniyati tushunchasi nutq odobini ham o'z ichiga oladi. Nutq madaniyati fikrni mustaqil, ravon, go'zal va nutq vaziyatiga muvofiq tarzda ifodalashni nazarda

tutadi. Raso nutq madaniyati jamiyat madaniy-ma'rifiy taraqqiyotining, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisi, o'ziga xos ko'zgidir. Nutqiy muloqotning samaradorligi nutq madaniyatiga bog'liq, chunki madaniy nutqqa chinakam ta'sir kuchiga ega bo'la oladi. Har qanday nutqning asosiy maqsadi muayyan axborot va hissiy holatni tinglovchi (o'quvchi)ga yetkazish, shu yo'l bilan unga ta'sir qilishdan iborat. Ammo nutq bunday ta'sir quvvatiga ega bo'lishi uchun, albatta, madaniylik talablariga javob berishi zarur. Buning uchun nutqda bir qator zaruriy sifatlardan mavjud bo'lishi kerak.

Nutqning madaniyligini ta'minlaydigan kommunikativ sifatlardan bir qancha bo'lib, ularning asosiylari qatorida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: **to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik, softlik, jo'yalilik.** Ana shu kommunikativ sifatlarning barchasini o'zida mujassamlashtirgan nutq madaniyati hisoblanadi. Mazkur sifatlarga bog'liq holatda nutq madaniyatining ikki bosqichi farqlanadi, ya'ni nutqda to'g'rilik sifatining mavjudligi nutq madaniyatining birinchi bosqichi hisoblanadi, nutqda qolgan boshqa sifatlarni ham mujassamlashtirish esa nutq madaniyatining ikkinchi – oliy bosqichi sanaladi.

Nutq madaniyatiga rioya qilish esa har bir insonning o'z ona tiliga bo'lgan munosabatini yaqqol ko'rsatadi. Ona tili — ezgu fazilatlar, yuksak tuyg'ular manbayi. U inson kamolotida betakror o'rin tutadi. Chunki onalarimiz bizga shu tilda alla aytadi, inson uchun hayotiy zarur bilim va tushunchalarni til vositasida ong-u shuurimizga singdiriladi, odob-u axloqimiz, fe'l-atvorimiz til orqali berilgan o'g'it va nasihatlar asosida shakllanadi. Ayniqsa, inson tafakkurining shakllanishi bevosita til bilan bog'liq. Chunki biz biror-bir narsaning xususiyatlari haqida o'ylaganda har biri aniq bir so'zda ifodasini topgan tushunchalar, fikr va tasavvurlarga tayangan holda uning o'ziga xos tomonlarini anglaymiz. Masalan, daraxtning yashilligini ajratish uchun yashil degan so'zning ma'nosini bilgan bo'lishimiz kerak. So'zni, ya'ni tilni bilganimiz sari biz dunyoni ham yaxshiroq bilib boramiz, fikrimiz, ongimiz

yuksaladi. Ona tili — ko'hna tariximiz, hayotbaxsh qadriyatlarimiz, din-u diyonatimiz, xalqimizga xos dunyoqarash, his-tuyg'ular evolyutsiyasini, ya'ni tadrijiy taraqqiyotini ko'rsatadigan, ajdodlar merosini avlodlarga yetkazadigan ko'zgidir. Shuning uchun o'z tilini yo'qotgan millat o'zligidan ham mahrum bo'ladi, ma'naviy zavolga yuz tutadi.

Til - xalqning, millatning eng buyuk qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun xalqning ozodlikka, o'zligini anglab yetishga intilishida tilning qadrini tiklash, nufuzini oshirish muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, ona tilimizning imkoniyatlaridan keng foydalanish, uning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori va nufuzini yuksaltirish, eng zamonaviy soha va tarmoqlarda faol qo'llanishini ta'minlash bo'yicha ko'pgina ishlarni amalga oshirishimiz lozim. Ana shu jarayonda ishtirok etish ona tilimizdan bahramand bo'lib voyaga yetgan, shu til orqali o'zini, o'zligini, butun dunyoni tanigan insonlar sifatida siz-u bizning ham farzandlik burchimizdir. Ona tilini sevish - vatanparvarlik belgisi, ajdodlar ruhiga hurmat ramzi. O'z tilini asrab-avaylagan xalq o'zligini, g'ururini asrab-avaylagan bo'ladi. Shuni esda tutingki, ona tilimizda xalqimizga xos his-tuyg'ular, tushuncha va tasavvurlar, urf-odat hamda an'analar chuqur aks etgan. Lekin bugungi kunda ko'pchilik yosh avlodning o'z nutqiga va ona tiliga

bo'lgan munosabati o'zgargan. Ular nutqlarida turli chet tilidagi so'zlardan foylanishlari odat tusiga kirgan. Ayniqsa ularning ijtimoiy tarmoqdagi yozishmalariga e'tibor bersangiz hech narsani tushunmaysiz, go'yoki yangicha yoshlar nutqini kashf qilib olishgandek. Bu ham yozma nutq madaniyatimizning buzilishiga olib kelmaydimi? Albatta shunday, shung uchun har birimiz nutqimiz yozma yoki og'zaki bo'lsin uning sofligini yo'qotmasligimiz zarur. Chunki nutq kishilarni kimligini, uning saviyasini, aql-u tafakkurini jahon xalqlariga ko'rsatuvchi ko'zgidir.

Xulosa o'rinda Jaloliddin Rumiyning ushbu gaplarini keltirib o'tmoqchiman. So'z – qurol, maqsad esa ko'ngil, ko'ngil o'rtanmasa, ehtirolarga to'lmasa, so'zda ta'sir bo'lmaydi. Bitta so'z olamni vayron qiladi, bitta so'z qo'rqoqni polvon qiladi. Nutq odobi deb yuritilgan qoida va ko'rsatmalarda sodda va o'rinni gapirish, qisqa va mazmundor so'zlash, ezmalik, huda-behuda gaplarni qoralash, keksalar va ustozlar oldida nutq odobini saqlash, to'g'ri, rost va dadil gapirishning yuksak ifodasini talqin etish va boshqalar haqida gap boradi. Shu o'rinda, Kaykovusning shunday fikri bor: "Hamma qobiliyatlarning eng yaxshisi nutq qobiliyatidir. Nutqni juda yaxshi va san'atkorona o'rganib ol, doimo gapga chechan bo'lishga harakat qil. Nutqi shirin kishinnig mehribon kishilari ham ko'p bo'ladi".

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R. Rasulov . Umumiy tilshunoslik .—T.,2021.
2. R. Rasulov . O'qituvchi nutqi madaniyati va notqlik san'ati.—T., 2020
3. Sh. Rahmatullayev . Hozirgi o'zbek adabiy tili.- T., 2006.
4. A.J. Omonturdiyev, Sh .I. Abduraimova . O'zbek nutqi madaniyati va notqlik san'ati. —T., 2016.
- 5.J. Eltazarov . Tildagi tejamlilik tamoyili va qisqaruv. —S. 2004
6. Zuhra Qarshiboyeva. Sohaga oid terminlarning imlosi masalalari.Til va adabiyot.uz. 2023-yil 5-son

Aziza USAROVA,

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
1-kurs magistranti*

ABDUVALI QUTBIDDIN IJODIDA ARXAIZMLARNING QO'LLANILISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada arxaizmlarning she'riy matnlardagi o'ziga xos qo'llanilish xususiyati yoritilgan. Xususan, Abduvali Qutbiddinning "Nayson" va "Bor" to'plamlarida qo'llanilgan eskirgan so'zlar yig'ib chiqilgan va ularning ma'nolari izohlab berilgan.

Kalit so'zlar: *arxaizm, isiorizm, lingvopoetika, nayson, dilmarglik, milmilak.*

Аннотация: в данной статье описывается уникальность устаревших слов в поэтических текстах. В частности, были собраны устаревшие слова, использованные в сборниках Абдували Кутбиддина «Найсон» и «Бор», и разъяснены их значения.

Ключевые слова: *архаизм, историзм, лингвопоэтика, найсон, дилмарглик, милмилак.*

Abstract: this article describes the uniqueness of obsolete words in poetic texts. In particular, obsolete words used in Abduvali Qutbiddin's collections "Nayson" and "Bor" were collected and their meanings were explained.

Key words: *archaism, historicism, linguopoetics, nayson, dilmarglik, milmilak.*

Hammamizga yaxshi ma'lumki, jamiyat hayotida bo'ladigan har qanday islohotlar, o'zgarishlar uning lug'at boyligiga ta'sir qilmay qolmaydi. Neologizmlar bilan bir qatorda unutilayotgan so'zlar ham borki, ular jamiyatdagi o'zgarishlar tufayli tushunchasi va u anglatayotgan ma'nosi bilan birgalikda iste'moldan chiqmoqda. Hozirda

ularni faqat badiiy uslublardagina voqeani aniq va tiniq ko'z oldimizga keltirishimiz uchun foydalanishmoqda. "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" da arxaik va tarixiy so'zlarga quyidagicha ta'rif berilgan: "Arxaizm (yun. archaios – qadimgi). Ma'lum davr uchun eskirgan, iste'moldan chiqqa boshlagan til birligi; Tarixiy so'z. O'tmishga oid voqea-hodisalarni ifodalaydigan, bu voqea-hodisalarni nomlash maqsadida hozirgi tilda ishlatiladigan so'z" [6: 18-103]. Ya'ni eskirgan so'zlarni ikkiga bo'lishimiz mumkin: istorizmlar (tarixiy so'zlar) va arxaizmlar (eskirgan so'zlar). Hozirda mavjud bo'lmagan tarixiy, o'tmishda bo'lgan narsa, voqea-hodisalarni ifodalovchi so'zlar tarixiy so'zlar bo'lsa, Hozirda mavjud bo'lgan narsa va tushunchalar arxaik so'zlardir [4: 117].

Agar tarixni ko'z oldimizda jonlantirish maqsadida eskirgan so'zlardan nasrda foydalanishsa, so'z o'yini va badiiyligini ta'minlaydigan vosita sifatida nazmda ham uchratishimiz mumkin. She'riy nutqda til birliklarining tarixiy va zamonaviy shakllarini poetik maqsad yo'lida turli variantlarda qo'llash tilningestetik ta'sirini, matnning poetik funksiyasini ifodalaydi [3:98]. Tilshunoslik va adabiyotshunoslikning ajralmas uyg'unligini fanda lingvopoetika atamasi bilan yuritiladi. Lingvopoetika sohasi hozirda barq urib gullayotgan sohalardan biridir. Chunki badiiy asar tilini o'rganish va uni tadqiq etish, faqatgina shakliy tomonini o'rganish bo'lmay, shakl orqali yuzaga kelgan mazmunni ham ifodalaydi. Bunday ikki muhim aspektning birlashuvi esa badiiy asarning mukammalligini ta'minlaydi.

"Abduvali she'riyati dunyoni obrazli idrok etishning ajoyib namunasidir. U borliqni yalong'och tasavvur qila olmaydi. Qalbiga har bir lahzani, voqea va hodisani his qilib, kamalakdek jilo beradi." deya Rauf Parfi tomonidan aytilgan ushbu jumlar ajoyib shoir Abduvali Qutbiddin haqida edi [5: 4]. Bunday olqishga sazovor bo'lgan ijodkorimiz esa bizning nazdimizda o'z iste'dodini ilk to'plamidayoq yaqqol namoyon eta olgan. Abduvali Qutbiddin qator she'riy to'plamlari bo'lib biz ularni lingvopoetik jihatdan tahlilga tortdik. Uning she'rlarida falsafiylik, tasavvufiy g'oyalar va noan'anaviylik bilan qatorda an'anaviylik kabi noyob xususiyatlarni uchratishimiz mumkin. Ammo bugun biz hozirda mana shunday noyob xususiyatlarni ochishda ijodkorga qo'l kelgan eskirgan so'zlar va ularning ma'nolarini keltiramiz. Ijodkorning ilk to'plami "Nayson" nomi bilan atalib, bu nomning o'zi ham odamni uyga toldiradi. Tassavvufiy adabiyotlarda " abru naysonlar" so'zini ko'plab uchratishimiz mumkin. Bunda nayson so'zi yorning ismi ma'nosini bildiradi, va uning jismidagi o'ziga xosligini namoyon etadi.

-Hoy, dedi yigitcha **dorilfununda**

Diplom yoqlagansiz, ha, yashang balli.

To'g'risini ayting. biror domlaga

Ming so'm berganmisiz siz ham, aqalli [5: 14].

Ushbu she'rda keltirilgan arxaik so'z hisoblangan

dorilfunun so'zi hozirgi vaqtda universitet maqomidadir. Abduvali Qutbiddin ijodida suvoriy, gajak, kokil, janggoh, qalqon, kamon, amir, qal'a, tarozbon, kaniz, temirchi, zabon, arava singari ko'plab qo'llanilgan so'zlar ham mavjud. To'g'ri, bunday tarixiy so'zlarimiz ham chiroyli bir yo'sinda she'rning badiiyligini ta'minlagan. Ammo shoir ijodiga o'ziga xos tarzda qo'llanilgan shunday so'zlar ham borki, ular she'rning falsafiylik ruhini yuqori pog'onaga ko'taradi.

Harna yomg'ir yog'ar, yuvar aybimiz,

Kechib kechirmaydi g'animat **dayr**.

Yomg'irpo'shni ochding, ojiz qaysimiz,

Xahr, xayr, xayr...[1: 176]

Eskirgan so'zlar qatorini quyidagilar bilan to'ldirsak, albatta, shoir ijodidagi ajoyibotlar misolida: dahr, bahr, nahr, yobon, roviy, sibiziq, chobuksuvor, g'assollik, padarul- abad, g'orat, dilmarglik, burg'u, qo'nalg'a, xonumon, mijgon. Bod, milmilak, kakhshon kabi. Bularning orasida dilimarglik va milmilak so'zlari she'rning nomiga aylanib, naqorat sifatida takrorlangan.

Savatlar chiridi yaraldi maxluq-

Yuragi **g'orat-u**, chirik miyasi.

Qaboqlar joyida bor- yo'g'i yoriq,

Tiynati- **dilmarglik**, ablahlik kasbi [5: 49]

Ushbu she'riy parchada bir emas uchta eskirgan so'z keltirilgan. G'orat-esk.kt. talon-taroj, buzg'unlik; qabog- ko'z ustidagi yumshoq terining leksik jihatdan farqlanuvchi eskirgan variant; dilmarglik- shoir tomonidan yaratilgan qo'shma so'z bo'lib, dil va marg kabi ikki qismdan iborat. Marg- o'lim, vafot. Dilmarglik-dili o'liklik ma'nosida ishlatilmoqda. U esa shoir tomonidan kasb sifatida baholanmoqda.

O'ram-o'ram soch yotadi, Soch yotadu.

G'aram-g'aram tosh yonadi, Tosh yotadu.

Ko'r, ko'r **milmilak** [5: 23].

Milmilak-moychiroq ma'nosida, milt- milt taqlid so'zning takror shakli. Bunda moychiroqning miltillashiga nisbatan olingan. She'r garchi sodda shakl va bir qaraganda sodda mazmunga ega bo'lsada, uning zamirida katta ma'no yotadi.

To'lishgan dalalar beradi hosil,

Gul tishlab boychibor bahorga **vosil**,

Tog'larning kulishin to'ydi-yu, **g'ofil**,

O, ko'ngil suv bo'ldi do'mbira-do'mbir,

Torlaring tortilsin, zorlatib kuldir [5: 20]

Keltirilgan she'riy parchada fasllar kelinchagi- bahor faslining kelishi quyidagicha yoritib berilgan: " qish bo'yi dam olgan dalalar endi hosil berishga va uni undirishga tayyor, boychibor bahorga yetishib gul tishlar, g'aflatda qolgan kishi nihoyat tog'larning uyg'unishini tuydi, do'mbira chalinaverib suv bo'ldi, torlaring tortilsin, barchani kuldir". Haqiqiy iste'dod egasining bu tarzda bahor faslini yoritib berar ekan, ko'z o'ngimizda tog'li hududlardagi bahor nafasini tuyamiz. Insonning ichki hislarni qitiqlaydigan bunday mazmunni shakl bilan ham chambarchas bog'lagan.

Qofiyaga mos tushgan “hosil”, “vosil” va “g’ofil” soʻzlaridan vosil soʻzi eskirgan soʻzdir. Asli arab tilidan kirib kelgan ushbu soʻz, “erishmoq, yetishmoq, borib yetmoq” maʼnolarini anglatadi. Yaʼni boychiborning gul (oʻt)ning taʼmini ogʻziga olishi bahorga yetishishidan darakdir. Albatta, shoirning har bir sheʼrida tarixiy soʻzlarni yoinki shakllarni koʻrishimiz mumkin. Bunday oʻziga xoslik esa ham shakliy, ham mazmuniy tomonning mukammalligini taʼminlashga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduvali Qutbiddin. Bor. – T.: Gʻ.Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 2011.
2. Madvaliyev A., Mahkamov N., va b. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. –T.: Oʻzbekiston, 2021.
3. Rixsiyeva G. Sheʼriy matn poetikasida feʼlining oʻrni. Ona tili va adabiyoti, 2008, 6-son.
4. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. – T.: 2016.
5. Абдували Кутбиддин. Найсон.–Т.: Г. Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.
6. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Тошкент: ЎЗМЭ, 2002.
7. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 5 tomlik. – Toshkent, 2008.

Munisaxon XURRAMOVA,

SamDCHTI “Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti” kafedrasida oʻqituvchisi;

Shohsanam MAMATKULOVA,

SamDCHTI “Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti” kafedrasida oʻqituvchisi

OLIV TAʼLIMDA TALABALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA CHATGPTNING AHAMIYATI

Annotatsiya: oliy taʼlimda talabalarining samaradorligi hali ham muammo boʻlib qolmoqda. Raqamli dunyoda texnologiya tobora rivojlanib bormoqda va turli xil ishlarni bajarish uchun qulayliklar yaratmoqda, shu jumladan, taʼlim sohasida ham. Ushbu tadqiqotning maqsadi ChatGPTning talabalar savodxonligini yaxshilashga yordam berishdagi rolini tahlil qilishdir. Ushbu til oʻqitish modeli talabalarga turli yoʻllar bilan yordam berishi mumkin, masalan, foydali maʼlumotlar va manbalarni taqdim etish, til koʻnikmalarini yaxshilashga yordam berish, hamkorlikni osonlashtirish, vaqt samaradorligini oshirish, qoʻllab-quvvatlash va boshqalar.

Kalit soʻzlar: ChatGPT, samaradorlik, talabalar, oliy taʼlim, motivatsiya berish, oʻzaro hamkorlik,

Аннотация: успеваемость студентов по-прежнему остается проблемой в сфере высшего образования. В цифровом мире технологии все больше развиваются и облегчают выполнение разных дел, в том числе и в сфере образования. Целью данного исследования является анализ роли ChatGPT в повышении грамотности учащихся.

Эта модель преподавания языка может помочь учащимся во многих отношениях, например, предоставляя полезную информацию и ресурсы, помогая улучшить языковые навыки, облегчая сотрудничество, повышая эффективность использования времени, обеспечивая поддержку и многое другое.

Ключевые слова: ChatGPT, эффективность, студенты, высшее образование, мотивация, взаимодействие,

Abstract: student performance is still a challenge in higher education. In the digital world, technology is developing more and more and making it easier to do different things, including in the field of education. The purpose of this study is to analyze the role of ChatGPT in helping to improve student productivity.

This language teaching model can help students in many ways, such as providing useful information and resources, helping improve language skills, facilitating collaboration, improving time efficiency, providing support and more.

Key words: ChatGPT, efficiency, students, higher education, motivation, interaction

Kirish. Ushbu tadqiqotning asosida oliy taʼlimda talabalarining past samaradorlik muammosi yotadi. Past samaradorlikka bir necha omillar sabab boʻlishi mumkin, masalan, berilgan materialni tushinishda qiyinchilik, motivatsiya yetishmasligi va atrofdagi muhit tomonidan qoʻllab-quvvatlanmasligi kabilar. Talabalar samaradorligini oshirishga yordam

beradigan texnologiyalardan biri bu chatbot. Chatbotdan talabalarga topshiriqlarni bajarishda, maʼruzalar bilan bogʻliq maʼlumotlar bilan taʼminlashda va boshqa narsalarda yordam beradigan virtual yordamchi sifatida foydalanish mumkin. [4,19]. Chatbotning eng soʻnggi turlaridan biri bu ChatGPT (Generative Pre-trained Transformer 3.5). ChatGPT

sun'iy intellektga asoslangan tabiiy til modeli bo'lib, juda katta ma'lumotlar yordamida o'qitilgan. Ushbu modeldan turli maqsadlarda, shu jumladan talabalar samaradorligini oshirishga yordam beradigan virtual yordamchi sifatida foydalanish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Ushbu tadqiqotda tadqiqotchi stol tadqiqot yondashuvidan foydalanadi, bunda asosan birlamchi tadqiqot o'tkazishdan ko'ra, ma'lumotlar yig'ishni yengillashtirish uchun ikkilamchi axborot manbalariga tayanadi. Tadqiqotning uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun turli xil ma'lumot manbalariga murojaat qilindi. Adabiyotlar jurnal portallari orqali mavjud bo'lgan, onlayn ommaviy axborot vositalari va ushbu nutqqa tegishli kalit so'zlarni, xususan, ChatGPT va talabalar mahsuldorligiga mos keladigan ma'lumotlar bazalaridan olindi. Ushbu tadqiqot sifatli tadqiqot shakli sifatida tasniflanadi. Ma'lumotlarni yig'ish jarayoni tegishli ma'lumotlarni diqqat bilan tinglash va ehtiyotkorlik bilan yozib olish kabi usullardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Keyinchalik ushbu ma'lumotlar qisqartirish, ma'lumotlarni taqdim etish va xulosa qilish usullari orqali tahlil qilindi.

NATIJAR VA MUHOKAMA. OpenAI tomonidan o'qitilgan til modeli sifatida ChatGPT talabalar mahsuldorligini turli yo'llar bilan yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Quyidagilar ChatGPTning talabalar savodxonligini oshirishdagi muhim jihatlari hisoblanadi:

Foydali ma'lumotlar va resurslarni taqdim etish. ChatGPT talabalar uchun foydali ma'lumot va manbalarni, topshiriqlar va loyihalarni bajarish uchun zarur bo'lgan bilimlarni taqdim etishi mumkin. Masalan, talabalar ma'lum bir mavzu bo'yicha ChatGPTga savollarni berishlari mumkin va til modeli internetda topilgan ma'lumotlarga asoslangan javoblarni taqdim etadi. ChatGPT, shuningdek, talaba tomonidan muhokama qilinadigan mavzuga tegishli maqolalar va kitoblar bo'yicha takliflar berishi mumkin. [2,15]

Til ko'nikmalarini yaxshilashga yordam berish. Til modeli sifatida ChatGPT talabalarga til ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradi. Talabalar ChatGPTdan grammatikani yaxshilash, so'z boyligini kengaytirish va yozishni yaxshilash vositasi sifatida foydalanishi mumkin. Talabalar, shuningdek, topshiriqlarni topshirishdan oldin ularni yaxshilash uchun ChatGPTdan foydalanishlari mumkin. [3,10]

Talabalar o'rtasidagi hamkorlikni osonlashtirish. ChatGPT talabalar o'rtasidagi hamkorlikni osonlashtirish vositasi sifatida ham ishlatilishi mumkin. Talabalar ChatGPTdan bir-biri bilan muloqot qilish, fikr va loyihalarni baham ko'rish va fikr-mulohazalarni

taqdim etish uchun foydalanishlari mumkin. ChatGPT talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi munozaralarni yengillashtirish, talabalarga mavzuni yaxshiroq tushunishda yordam berish uchun ham ishlatilishi mumkin. [4,15]

Vaqtning unumdorligi va samaradorlikni oshirish. ChatGPT talabalar vaqtini samarali o'tkazishga va samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Masalan, talabalar ChatGPTdan ularning dars jadvallari, topshiriqlar muddatlarini va bajariladigan ishlar ro'yxatini saqlashda foydalanishlari mumkin. Shunday qilib, talabalar o'zlarining vaqtini yaxshiroq boshqarishlari va muhim topshiriqlar yoki muddatlarni o'tkazib yubormasliklarini ta'minlashlari mumkin.

Qo'llab-quvvatlash va motivatsiya berish. Bundan tashqari, ChatGPT talabalarni qo'llab-quvvatlash va motivatsiya manbai sifatida ham qaralishi mumkin. Talabalar ChatGPTdan stress va tashvishlar haqida gapirish yoki ularning vaqti va vazifalarini yaxshiroq boshqarish bo'yicha maslahat so'rash uchun foydalanishi mumkin. [5,276] Foydali ma'lumotlar va manbalarni taqdim etish, til ko'nikmalarini yaxshilashga yordam berish, o'zaro hamkorlikka ko'maklashish, vaqt samaradorligi va samaradorligini oshirish, qo'llab-quvvatlash va motivatsiya berish orqali, ChatGPT talabalarga akademik maqsadlariga erishish va umumiy sifatini yaxshilashga yordam beradi. Umuman olganda, ChatGPT talabalar o'zlashtirish sifatini oshirishda katta hissa qo'shishi mumkin. Kerakli axborot va resurslar bilan ta'minlash, til ko'nikmalarini yaxshilash, o'zaro hamkorlikni osonlashtirish, vaqt unumdorligini oshirish, motivatsiya berish bilan ChatGPT talabalarga akademik maqsadlariga erishishga va ularning umumiy o'zlashtirish sifatini yaxshilashga katta yordam beradi. Biroq ChatGPTni insoniy muloqot va talabalar akademik maqsadlariga erishish va o'rganishdagi harakatining o'rnini bosuvchi vosita emas, balki bu jarayonda ularga ko'mak beruvchi yordamchi vazifasida ko'rish kerak.

XULOSA. Ushbu tadqiqot yakunida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan takliflar quyidagilardan iborat: birinchidan, talabalar ChatGPTdan oqilona foydalanishi va ushbu til modeli tomonidan taqdim etilgan axborot manbalarining ishonchlilikiga e'tibor berishi kerak. Ikkinchidan, o'qituvchilar va ta'lim muassasalari ChatGPTdan talabalar o'qishini osonlashtirish va ta'lim sifatini oshirishda foydalanishi mumkin, biroq bu jarayonda ularning orasida muvozanatni inobatga olishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alifnan, M. A., Dishari, S., Jovic, M., &

Lomidze, K. (2023). ChatGPT as an Educational Tool: Opportunities, Challenges, and Recommendations for Communication, Business Writing, and Composition Courses. *Journal of Artificial Intelligence and Technology*, 1–21. <https://doi.org/10.37965/jait.2023.0184>

2. Cotton, D. R. E., & Shipway, R. (2023). Chatting and Cheating. Ensuring academic integrity in the era of

ChatGPT. ResearchGate, 1, 1–12.

3. Essel, H. B., Vlachopoulos, D., Tachie-Menson, A., Johnson, E. E., & Baah, P. K. (2022). The impact of a virtual teaching assistant (chatbot) on students' learning in Ghanaian higher education. *International Journal of Educational Technology in Higher Education*, 19(1),57.

<https://doi.org/10.1186/s41239-022-00362-6>

4. Haleem, A., Javaid, M., Qadri, M. A., & Suman, R. (2022). Understanding the role of digital technologies in education: A review. *Sustainable Operations and Computers*, 3, 275–285.

<https://doi.org/10.1016/j.susoc.2022.05.004>

5. Shuxratovna, N. F., & Muxabbat, A. (2022). PROBLEMS AND SOLUTIONS IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 318-320.

6. Tlili, A., Shehata, B., Adarkwah, M. A., Bozkurt, A., Hickey, D. T., Huang, R., & Agyemang, B. (2023). What if the devil is my guardian angel: ChatGPT as a case study of using chatbots in education. *Smart Learning Environments*, 10(1), <https://doi.org/10.1186/s40561-023-00237-x>

Feruz QURBONOVA,
QDPI Filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

O'QUV MASHG'ULOTLARINI ZAMONAVIY TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya : maqolada Oliy ta'limda talabalarni mustaqil-ijodiy fikrlashga, tahlil qilish, bahs-munozara yuritish, buni asoslangan holda himoya qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan ilg'or pedagogik texnologiyalardan Oybek hayoti va adabiy faoliyatini o'qitishda foydalanish yo'llari yuzasidan amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'z: *adabiy jarayon , badiiy mahorat, munozara, munosabat, tahlil, talqin, izlanuvchanlik, mustaqil fikrlash, ibrat.*

Аннотация: в статье даны практические рекомендации по способам использования передовых педагогических технологий в обучении жизни и литературному творчеству Ойбека, направленные на формирование на его основе навыков самостоятельного и творческого мышления, анализа, дискуссии и защиты у студентов вузов.

Ключевые слова: *литературный процесс, художественное мастерство, дискуссия, отношение, анализ, интерпретация, любознательность, самостоятельное мышление, примерность.*

Annotation: article provides practical recommendations on ways to use advanced pedagogical technologies in teaching the life and literary work of Oybek, aimed at developing, on its basis, the skills of independent and creative thinking, analysis, discussion and defense among university students.

Key words: *literary process, artistic skill, discussion, attitude, analysis, interpretation, curiosity, independent thinking, exemplary behavior.*

Bugungi kunda mamlakatimizning rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olishi uchun zamonaviy iqtisodiyot, fan, madaniyat, texnika, texnologiya asosida mutaxassislar tayyorlashning takomillashgan tizimiga bosqichma-bosqich o'tilmoqda. Davlatimiz olib borayotgan siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri aynan yoshlarga qaratilmoqda. Ta'lim tizimini rivojlantirish, zamonaviy ilmiy tafakkur yutuqlariga, ilg'or tajribalarga tayangan holda, barcha ta'lim bosqichlarida ta'lim-tarbiya jarayonining sifati va samaradorligini oshirishga erishish maqsadida ta'lim tizimiga rivojlangan mamlakatlarning ilg'or texnologiyalarini joriy etish, bu texnologiyalar asosida o'quv mashg'ulotlarini zamonaviy tashkil etish va

o'tkazish ishlariga aohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada talabalarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, sog'lom raqobat, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib bormoqda. Talabalarning mustaqil fikrlash hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarni nazariy va amaliy jihatdan tashkil etish va o'tkazish chuqur bilim hamda yuksak mahoratni talab etadi. O'quv mashg'uloti jarayoniga tatbiq qilinadigan har qanday pedagogik texnologiya fan dasturi asosida mashg'ulot mazmuniga mos tuzib chiqilishi va talabning erkin, ijodiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi shart.

Quyida Pedagogika Oliy ta'lim muassasalarida

O'zbek adabiyoti fanidan Oybek adabiy merosi mavzusini zamonaviy ta'lim asosida o'qitishning samaralari usullari haqida so'z yuritamiz.

MAVZU : OYBEK ADABIY MEROSI

- REJA :** 1. Oybek adabiy merosi va uning o'rganilish tarixi.
 2. Oybek lirikasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.
 3. Oybek-romannavis.
 4. Xulosa.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Oybek hayoti va adabiy merosini to'liq o'rganish. Yozuvchi uslubi va badiiy mahorat qirralarini she'riy va nasriy asarlari tahlilida ko'rib chiqish.

O'qitish usullari: suhbat, munozara, savol-javob.

O'qitish shakli : individual, kichik guruhlarda ishlash.

1-Reja. Oybek adabiy merosi va uning o'rganilish tarixi.


Maqsad: Oybek adabiy merosi bilan yaqindan tanishish. Yozuvchi ijodini o'rgangan adabiyotshunos olimlarning monografiya, risola, ilmiy maqolalarini o'qib chiqish.

Kutilayotgan natija: Istiqlogacha va istiqoldan keyingi davr tadqiqotlarida Oybek hayoti va ijodiga turlicha yondashuvlar bolganligini aniqlaydilar va xolis munosabat bildiradilar.

Bajarish shakli: individual ishlash.

1-Topshiriq : Oybek hayoti va adabiy faoliyatiga oid bilimlarni mustahkamlash. Yangi ma'lumotlar almashish.

“B.B.B.” texnologiyasi asosida bilimlar tekshiriladi. Namuna :



2-Topshiriq: “MUNOSABAT BILDIR”

Oybek ijodi sho'rolar davridan to bugungi kunga qadar tadqiqotchilar tomonidan obyekt sifatida o'rganib kelinmoqda. Sizga adib hayoti va ijodi bo'yicha yaratilgan ilmiy risola hamda maqolalar havola qilinmoqda. Unda Oybek ijodining turli qirralari tahlilga tortilgan. Mazkur maqolalarni o'rganib chiqing va o'z munosabatingizni bildiring.

N	Maqola nomi	Muallifi	Yili	Manba
1.	“G'oyaviylik va badiiy mahorat”	H. Yoqubov	1963	https://kh-davron.uz/

2	“Oybek mahorati”	M.Qo‘shjonov	1965	https://kh-davron.uz/ .
3	Oybek gulshanida qolgan g‘unchalar	N.Karimov	1985	https://n.ziyouz.com/
4	Oybek sof lirikasining mohiyati va estetik qimmati	U.Hamdamov	2002	Badiiy tafakkur tadriji. -T. “Yangi asr avlodi”
5	“Ko‘ngilda qolib ketgan gaplar”	M.Qo‘shjonov	2006	“Ko‘ngilda qolib ketgan gaplar” -T.”Ma’naviyat”
6	“Quyosh va nur kuychisi”	Y.Solijonov	2009	Haqiqatning sinchikov ko‘zlari. -T. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.

3-Topshiriq: “MULOHAZA YURIT”

Istiqlolgacha bo‘lgan davrda Oybek ijodiga nisbatan biryoqlama qarashlar mavjud edi. Istiqoldan keyin olib borilgan tadqiqotlarda Oybek hayoti va ijodiga yondashuvlar o‘zgardi. Maqolalarda bildirilgan fikrlar yuzasidan mulohaza yuriting.

2-Reja: Oybek lirikasining g‘oyaviy- badiiy xususiyatlari.

Maqsad: Oybek lirik merosi bilan yaqindan tanishish.

Kutilayotgan natija: Oybekning lirik merosini g‘oyaviy-tematik jihatdan turkumlarga ajratadilar. Shoir badiiy mahoratini asar tahlili misolida ko‘rib chiqiqadilar.

Bajarish shakli: kichik guruhlarda ishlash .

1-Topshiriq. Oybekning lirik merosini o‘rganib chiqing va olgan ma‘lumotlarngiz asosida “**Klaster**” tuzing .

2-Topshiriq.Oybek she‘riyatidan meditatif va ijtimoiy lirika ko‘rinishidagi she‘rlarini ajratib , jadval tuzing.

Sh'erlar nomi	Meditativ lirika	Tavsifiy lirika
“O‘ZBEKISTON”		
“NA‘MATAK”		
“NAY KUYLARI”		
“CHOLG‘U TOVUSHI”		
“MASHRAB”		
“ERKIN QUSH”		
“KUTGANDA”		
“SOZIM”		

3- Topshiriq: ”T.T.T” (Tahlil - Talqin - Taqdim.)

1-guruh uchun: Oybek lirikasiga mansub bo‘lgan ijtimoiy-falsafiy mazmundagi she‘rlardan birini ajratib olib, tahlil qiling.

2-guruh uchun : Oybek she‘riyatidan meditatif lirika namunalari ajratib oling, tahlil qiling.

She‘rni tahlil qilish uchun quyidagi savol va topshiriqlarga javob bering.

1. She‘rni ifodali o‘qishga tayyorlaning. O‘qish jarayonida sizda qanday tuyg‘ular paydo bo‘ldi?
2. She‘r mavzusini aniqlang.
3. Har bir bandedagi tayanch so‘zni toping. Ularning band mazmunini tashkil etishdagi o‘rni va ahamiyatini izohlang.
4. She‘rda qanday badiiy tasvir vositalari qo‘llangan? Ular qanday badiiy-estetik vazifalarni bajarmoqda?



3-Reja: Oybek - romannavis.

Maqsad: o‘zbek romannavislik maktabining shakllanishida Oybek nasriy ijodining ahamiyatini “Qutlug‘ qon” va “Navoiy” romanlari tahlili misolida ko‘rib chiqish.

Kutilayotgan natija: “Qutlug‘ qon” romanida davr, muhit va inson fojiasini yoritishda yozuvchi badiiy mahoratini o‘rganadilar. “Navoiy” romanida tarix va tarixiy shaxslarning badiiy ifodasini o‘rganadilar. Tarixiy romanda badiiy to‘qimaning o‘rnini aniqlaydilar. Badiiy asarni adabiyotshunoslik va tilshunoslik nazariyasi fanidan egallagan bilimlariga tayangan holda tahlil qiladilar.

Bajarish shakli : kichik guruhlarda ishlash. (talabalar o‘z hohish-istaklariga ko‘ra kichik guruhga bo‘linib, o‘zlari istagan topshiriqni bajarishlari mumkin bo‘ladi)

Qo'llaniladigan texnologiya: "Tadqiqot va taqdimot".

Guruh nomi	1-topshiriq	2-topshiriq	3-topshiriq	4-topshiriq
Adabiyot shunoslar	Asarning mavzusi va g'oyasini aniqlang	Syujet komponentlarini toping.	Roman matni kompozitsiyasi ustida ishlang.	Obrazlar galeriyasini tuzib chiqing
Tilshunoslar	Badiiy.asar tilining obrazlilikiga misollar toping	Qahramon nutqini individuallashtirish uchun ishlatilgan so'zlarni ajratib	Joy koloritini bergan so'zlarni aniqlang	Davr ruhini aks ettiruvchi so'zlarni aniqlang
Ijodkorlar	Sahna talqini	Insho yozish kichik insho	Notiqlik chiqishi Personaj nutqidan ifodali yodlash	Rasm chizish, maqola yozish

4-Reja: Xulosa . "Shaxsiyati - ibrat, ijodi - saboq."

Maqsad: Butun hayoti va faoliyatini adabiyot va ilm taraqqiyotiga bag'ishlagan, bu soha rivoji uchun o'z kuch-quvvatini ayamagan, natijada mislsiz mashaqqatlarni boshidan o'tkazib, dard va alam to'la kunlarni bardosh bilan yengib o'tgan buyuk siymo - Oybek siymosi bilan yaqindan tanishish orqali yozuvchining shaxsiyatidan ibrat, ijodidan o'rnak olish.

Topshiriqni bajarish shakli: individual.

- Zarifa Saidnosirovaning "Oybegim mening" kitobini qunt bilan o'qib chiqing.
- Oybek shoir, adib, oila boshlig'i sifatida qanday fazilatlarga ega ekanligini bilib oling. Ulardan siz qanday saboq oldingiz?
- Zarifa Saidnosirova hamda Oybekning qaysi fazilatlari siz uchun ibrat bo'la oladi? Kelgusi hayotingizda ularning qay birini o'zingiz uchun dasturilamal qila olasiz. ?
- Olgan taassurotlaringiz asosida **"Shaxsiyati - ibrat, ijodi- saboq"** mavzusida esse yozing.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Рахимов Б. Мавлянов А. Ўқув машғулотларини замонавий ташкил этиш ва ўтказиш технологиялари. Тошкент. "Фан ва технология" нашриёти, 2016.
- Qurbanova Feruza Azamovna Adabiy ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning amaliy ahamiyati. Oriental Art and Culture 2020 .368-372
- Azamovna Kurbanova Feruza The Practical Value of Using Innovative Pedagogical Technologies in Literary Education Eastern Art and Culture, 2020 .Том 3.368-372.
- F. A. Kurbanova . TAHIR MALIK'S "GOODBYE, CHILDHOOD!" THE ISSUE OF REBELLION AGAINST MENTAL ILLNESS IN THE STORY. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. 2022/11/29. 362-365

Xasan GAFFOROV,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Tillarni o‘qitish” kafedrasida assistent o‘qituvchisi

DIALOGIK NUTQDA GENDER FARQLAR VA ULARNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek adabiyoti namunalaridan olingan dialogik parchalardagi gender farqlar hamda o‘ziga xosliklar tadqiq qilinadi. Bugungi kunda olib borilayotgan tadqiqotlarni tahlil qilib shuni aytilish mumkin, o‘zbek tilshunosligi sohasidagi gender tushunchasi til madaniyatining bir bo‘lagi sifatida tavsiflanmoqda va uni xalqning gender madaniyatini shakllantiruvchi asosiy omil deb qaralmoqda.

Kalit so‘zlar: *an’anaviy murojaat shakli, Ayol nutqi, Erkak nutqi, Sintaktik birliklar doirasidagi gender farqlar, Gender omili, O‘zbek ayollari nutqi, O‘zbek xalq mentaliteti.*

Аннотация: в данной статье изучаются гендерные различия и особенности диалогических фрагментов, взятых из образцов узбекской литературы. Анализируя проводимые сегодня исследования, можно сказать, что понятие гендера в сфере узбекского языкознания описывается как часть языковой культуры и считается основным фактором, формирующим гендерную культуру народа.

Ключевые слова: *традиционная форма обращения, Женская речь, Мужская речь, Гендерные различия внутри синтаксических единиц, Гендерный фактор, Речь узбекских женщин, Узбекский народный менталитет.*

Abstract: in this article, the gender differences and peculiarities of the dialogical fragments taken from samples of Uzbek literature are studied. Analyzing the research conducted today, it can be said that the concept of gender in the field of Uzbek linguistics is described as a part of the language culture and it is considered the main factor that forms the gender culture of the people.

Key words: *traditional form of address, Female speech, Male speech, Gender differences within syntactic units, Gender factor, Uzbek women’s speech, Uzbek folk mentality.*

Hozirda o‘zbek jamiyati madaniyatida ham o‘zgarishlar ketmoqda, er va xotin orasida ism bilan murojaat qilish holatlari ko‘payib borayotganiga qaramay, an’anaviy murojaat shakllaridan foydalanishni yuzaga keltiradigan holatlar ham uchrab turibdi. Fikrimizga isbot tarzida, notanish odamlarning hamda oilaning katta yoshli a‘zolari yonida umr yo‘ldoshiga ismini aytib murojaat qilish jamiyat tomonidan odobsizlik tarzida qabul qilinishi mumkin. Ushbu ta’qiq doirasida gender tengsizlikni ko‘rishimiz mumkin. Erkak ismini umr yo‘ldoshi tomonidan aytib murojaat qilinishining taqiqlanishi qat’iyroqdir, ya’ni er tomonidan ayolning ismi bilan chaqirilishiga jamiyatning munosabati nisbatan neytralroq bo‘lsa, xotin tomonidan turmush o‘rtog‘iga uning ismini aytib murojaat qilishi esa salbiy baholanadi. Er-xotinning bir-biri bilan muloqot qilishdagi o‘ziga xos jihatlari va an’anaviy munosabati o‘zbek xalq mentaliteti hamda undagi axloqiy tartib-qoidalar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Sintaktik birliklar doirasidagi gender farqlarga kelsak, erkaklar nutq jarayonida ergash gapli, o‘rin va maqsadli qo‘shma gaplarni ko‘proq qo‘llasa, ayollar ergash gapli va qiyoslovchili murakkab gaplarni keng qo‘llashni ko‘proq afzal ko‘radilar.

Fikrimizning dalilini quyidagi misollarda ko‘rishimiz mumkin:

1. *Naqshlarini ko‘ngildagiday qilib chizmagunicha,*

naqshlar orasida ko‘zga chalinar-chalinmas bir yerga — amali usta Farhodll, deb yozmagunicha, qo‘lidan bo‘yoq qalami tushmaydi (G‘afur G‘.Tarjimalar. 165-bet).

2. *Sen xalq uchun tog‘ qaziyotganingda, bizlarni qo‘l qovishtirib o‘turibdi deb o‘ylaganmiding?* (G‘afur G‘.Tarjimalar. 209-bet).

3. *Endi bostirmadan chiqib ketayotsam, qator-qator humlarga ko‘zim tushdi* (Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi. 539-bet).

4. *Tog‘lar orasida Bobur —Bu kitob bitganda, mening umrim ham tugagay - degani Xumoyunning yodiga tushdi* (Qodirov P. Yulduzli tunlar. 92-bet).

5. *Roman chiqqach, uni uyimizda har kim o‘zicha sevib o‘qirdi* (Qodiriy H. Otam haqida. 139-bet).

O‘zbek ayollari o‘z nutqlarida ko‘pincha mehr, soddalikni ifodalovchi so‘zlardan ko‘proq foydalanishadi. Misol uchun:

O‘g‘rigina bolam, xoy o‘g‘rigina bolam, hoynahoy biror tiriklikning ko‘yida tomga chiqqan ko‘rinasan, axir kasbing nozik, tumov-pumovingni yozib chiqsang bo‘lmaydimi, — debdilar. Hoy, aylanay, O‘g‘rigina bolam, boshimda shunday musibat turganda ko‘zimga uyqu keladimi? (G‘afur G‘.Tarjimalar. 165-bet).

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek tilidagi matnlarda ham erkak va ayol nutqida sezilarli farqlar mavjuddir. Erkaklar va ayollar nutqlarida bir xil til birliklaridan foydalanilsa-da, lekin ularning ushbu

til birliklarining foydalanilishida semantik, stilistik va formal ko'rinishlar ko'pincha farqli bo'ladi. O'zbek tilida erkaklar nutqida ko'proq tarbiyaviylik, muloyimlik va xushmuomalalik bilan uyg'unlashgan xususiyatlar ustunlik qiladi. Quyidagi er va xotin o'rtasida olib borilgan qisqa suhbat namunasiga e'tibor qarataylik:

- *Xotin, bolalarni chaqir.*
- *Dadasi, bolalar hali maktabda.*
- *Xotin, tez bo'l. Men shoshilib turibman..*
- *Dadasi, choy tayyor. Uyga kiringiz.*
- *Onasi, rahmat.* (Adham Damin. Saylanma. 1-jild.

B. 165-bet)

Nutq o'g'il va qiz bolaga qaratilgan-da o'zbek ayollari nutqida ham salmoqli farqlar mavjuddir. O'g'il bolaga nisbatan qo'llanilayotgan nutqda stilistik rangga ega bo'lgan til birliklari ko'proq ifodalaniadi, bu uning kelajakda erkaklik sifatlarini egallab, kelajakda katta hayot uchun zarur bo'lgan bir qancha mehnat faoliyati turlarini o'zlashtirishi kerak bo'lgan boquvchi sifatida shakllanishiga turtki bo'ladi hamda yordam beradi.

Ona va o'g'il o'rtasidagi qisqa dialog:

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gordon L. (1990). Gender and Higher Education in in the Progressive Era. New Haven, London: Yale University Press. -278 p.
2. Gordon L. Gender and Higher Education in in the Progressive Era. New Haven, London: Yale University Press, 1990 – 187 p.
3. Jespersen J. (1998). The woman / the feminist critique of language / ed. by D. Cameron. L. 1998. –352 p.
4. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. Фил.фанлари номз.дисс.автореферати. Самарқанд, 1993. 19-бет.
5. Искандарова, Ш. М. Ўзбек тили лексикаси мазмуни майдон сифатида (шахс микромайдони): Автореф. дисс... докт. филол. наук. — Тошкент, 1999; Расулова М. И.. Проблемы лексической категоризации в лингвистике: Дисс. ... докт. филол. наук. — Ташкент, 1999;

Xusnida ISROILOVA,
ADU erkin tadqiqotchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KONSENTRATSIYANI RIVOJLANTIRISHGA DOIR YONDASHUVLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda konsentratsiya qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik zaruriyati, bolalarda konsentratsiya qobiliyatini rivojlanishtirishda ijtimoiy me'yorlarning o'zlashtirilishi, shuningdek, bolalarda konsentratsiyani rivojlantiruvchi asosiy omillar xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, konsentratsiya, didaktik o'yinlar, kognitiv harakat, mashg'ulot, ijtimoiy ong, davlat ta'lim standart.

Аннотация: в данной статье рассматривается педагогическая необходимость развития способности к концентрации внимания у детей дошкольного возраста, усвоение социальных норм в развитии способности к концентрации внимания у детей, а также основные факторы, развивающие концентрацию внимания у детей.

Ключевые слова: дошкольное образование, концентрация внимания, дидактические игры, познавательное движение, обучение, общественное сознание, государственный образовательный стандарт.

Abstract: this article discusses the pedagogical necessity of developing the ability to concentrate in children of preschool age, the assimilation of social norms in the development of the ability to concentrate in children, as well as the main factors that develop concentration in children.

Key words: preschool education, concentration, didactic games, cognitive movement, training, social consciousness, state educational standart.

“O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”da esa “...maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish” masalasi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab qo‘yildi”. Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan yuqoridagi Qaror va Farmonlar uzluksiz ta‘lim tizimining muhim bo‘g‘ini hisoblangan maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining davlat hamda nodavlat tarmog‘ini kengaytirish, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta‘minlashda dasturilamalga aylandi.

“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari” va “Ilk qadam” Davlat dasturining ishlab chiqilishi uzluksiz ta‘lim tizimida maktabgacha ta‘limni samarali amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Albatta, maktabgacha ta‘limni ham shaklan, ham mazmunan yangilashga qaratilgan bu kabi islohotlar ota-onalardan tortib barcha pedagoglar bola tarbiyasi, uning ta‘lim olishga tayyorgarligiga zamon talablaridan kelib chiqqan holda yondashuvini talab etadi.

Respublikamizda maktabgacha ta‘lim tashkilotlari yuzasidan olib borilayotgan islohotlarning negizi tarbiyalanuvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘quv-tarbiyaviy faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish, bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida ota-onalar va jamiyatga tegishli bilimlar berishni tashkil etish va amalga oshirish, bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va jamiyat bilan o‘zaro hamkorlikni tashkil qilish va amalga oshirish – maktabgacha ta‘lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning tub negizini tashkil etadi.

Bolalarda konsentratsiyaning rivojlanishi ularning aktiv faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Bolalarning aktiv faoliyati o‘yin, o‘quv, mehnat va turmush faoliyati kun mobaynida bir necha bor o‘zgaradi. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar 8 minutga yaqin aqliy faoliyat bilan faol shug‘ullanishlari mumkin bo‘lsa, katta maktabgacha yoshdagi bolalar esa ana shunday faoliyat bilan 12-14 minut shug‘ullana oladilar. Shu vaqt o‘tgandan so‘ng ular kontsentratsiya susayishi kuzatiladi. Mashg‘ulotlar orasida va mashg‘ulotning o‘zida harakatli mashqlar (jismoniy tarbiya daqiqalari, jismoniy tarbiya tanaffuslari)dan ularni tetiklashtirish uchun foydalanilsa, ularning kontsentratsiyasi bir muncha ko‘payadi.

Bolalarda konsentratsiyaning rivojlantiruvchi eng asosiy omillardan biri ular qiziquvchanlik xususiyati hisoblanadi. Qiziquvchanlik bolaning tevarak-atrofdagi voqea-hodisalarga, narsa va buyumlarga qiziqish bilan qarashida, hamma narsani ushlab, his qilib, diqqat bilan kuzatishida namoyon bo‘ladi. Sayr, ekskursiya

vaqtida tarbiyachi bolalarning diqqatini tabiatning rang-barangligiga, uning o‘zgarishi va uyg‘unligiga qaratadi, tabiat hodisalariga qiziqish uyg‘otadi, unga muhabbat va ehtiyotkorlik munosabatini tarbiyalaydi, asrab-avaylashga o‘rgatadi. Tarbiyachi kuzatishlar tashkil etib, bolalarda paydo bo‘lgan savollarga o‘z vaqtida javob berishga harakat qilishi, ularni mustaqil javob qidirishga undashi lozim bo‘ladi. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini, ularning sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat.

Bolalarda konsentratsiyaning rivojlantirishda o‘yin faoliyatining ahamiyati katta. O‘yin faoliyati bolalarning ixtiyoriy diqqatini oshiradi, bola irodasini, ijodiy fikrini rivojlantiradi. Bola ijodiy o‘yinda aqliy jihatdan tarbiyalanadi va rivojlanadi. Shuningdek, mehnat faoliyati ham bolalarda konsentratsiyaning rivojlanishiga xizmat qiladi. Mehnat faoliyati bolalardan diqqat, o‘tkir zehnlilik, topqirlik, ijodkorlik, qobiliyatlarini egallashni talab etadi hamda bola nutqini yangi so‘zlar bilan boyitadi.

Ma‘lumki, inson aqli keng ma‘noda sezish va idrok etishdan boshlanadi. U tafakkur va hayotni o‘z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig‘indisi bo‘lib, aqliy faoliyat diqqatning har doim ma‘lum maqsadga qaratilgan bo‘lishini taqozo etadi. Insonning aqli uning asosiy faoliyatida erishgan muvaffaqiyati xususiyati bilan bog‘lanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar konsentratsiyasini rivojlantirish yo‘llari va usullarini o‘rganish muammosi pedagogikaning muhim muammolaridan biridir. Konsentratsiya atrof-olam, dunyoni anglashga qiziqish, noma‘lum narsani bilish istagi – asosan o‘qitish va faoliyat samaradorligini belgilaydigan ustuvor xususiyatlardan biridir. Kognitiv harakatlarni tashkil etish bolada allaqachon shakllangan ehtiyojlarga, shu jumladan, kattalar bilan muloqot qilish zarurligiga asoslangan bo‘lishi kerak (harakatlar, amallar, qarorlar, fikrlarni tasdiqlash).

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tarbiyachi mashg‘ulot rejasini tuzishda bolalarning xulq-atvori, qiziqishi, rivojlanish darajasiga qarab, yakka tartibdagi ishlar ham rejalashtiradi. Unda umumiy rivojlanishda biroz orqada qolayotgan, diqqati tarqoq, o‘ziga ishonchi yo‘q yoki o‘zi to‘g‘risida yuqori fikrli bolalarga ko‘proq e‘tibor berish kerak. Guruhdagi bolalarda kontsentratsiya bilan bog‘liq muammoli bolalar bo‘lganida, avvalambor, ularning diqqatini bir joyga jalb qilish uchun kichik harakatli mashqni amalga oshirish lozim bo‘ladi.

Xullas, bolalarda konsentratsiyaning rivojlantirish muammosining yana bir dolzarbligi shundaki, insonning tashqi dunyo bilan o‘zaro aloqasi faqat uning diqqat-e‘tibori va faolligi tufayli amalga oshadi, bu esa o‘z navbatida anglash, tushunish, tafakkur qilishga yordam beradi. Konsentratsiya bolaning faolligini, uning

atrof-olamni bilishga bo'lgan ishtiyoqini, noma'lumdan ma'lumni aniqlashga bo'lgan harakatini ta'minlaydi. Ilmiy adabiyotlarda "konsentratsiya" tushunchasi turli talqinlarda ifoda etiladi. Konsentratsiya bolaning

o'zi mustaqil biror bir faoliyatga intilishini, insoniyat tomonidan ijtimoiy tajriba orqali to'plangan faoliyat usullarini o'zlashtirishini o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli Qarori / O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 1-son, 11-modda, 35-son, 923-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018-y., 06/18/5483/1594-son; 01.01.2020-y., 07/20/4555/4257-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrda "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli Qarori / O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 37-son, 984-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-son.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-mayda "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi to'g'risida"gi PQ-4312-son Qarori / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019-y., 07/19/4312/3106-son; 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-son.

4. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2018-yil 18-iyunda 1450-sonli "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini tasdiqlash haqida"gi Buyrug'i / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.07.2018-y., 10/18/3032/1450-son.

5. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. – T., 2018.

6. G.A. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tayyorlov guruhi bolalarining ijtimoiy intellektini rivojlantirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) avtoref. – T., 2023. 10 (43)-bet.

7. Hasanboyeva O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi // O'quv qo'llanma. – T.: "Ilm ziyor" nashriyoti, 2011. (186)-bet.

Muhabbat RAJABALIYEVA,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTSHUNOSLIGIDA POYON RAVSHANOV ILMIY MEROSINING KO'LAMI

Annotatsiya: ushbu maqolada adabiyotshunos olim Poyon Ravshanovning hayot yo'li, o'zbek mumtoz adabiyotida olib borilgan ilmiy izlanishlari atroficha tahlil etilgan. Poyon Ravshanov ijodining o'ziga xosligi, adabiyot sohasidagi ilmiy yangiliklar o'rganildi.

Kalit so'zlar: *Poyon Ravshanov, voha, mumtoz adabiyot, o'zbek, tadqiqot, o'ziga xoslik, adabiyotshunoslik, ilmiy jurnal, gazeta, risola, adabiy-tarixiy asar.*

Аннотация: в данной статье подробно анализируется жизнь литературоведа Поёна Равшанова и его научные исследования в области узбекской классической литературы. Изучены своеобразие творчества Поёна Равшанова, научные новации в области литературы.

Ключевые слова: *Поён Равшанов, оазис, классическая литература, узбекский язык, исследование, оригинальность, литературоведение, научный журнал, газета, брошюра, литературно-историческое произведение.*

Abstract: in this article, the literary scholar Poyon Ravshanov's life path and scientific research conducted in Uzbek classical literature were thoroughly analyzed. Originality of Poyon Ravshanov's works and scientific innovation in the field of literature were studied.

Key words: *Poyon Ravshanov, oasis, classic literature, Uzbek, research, originality, literary studies, scientific journal, newspaper, pamphlet, literary-historical work.*

O'zbek mumtoz adabiyoti – ulkan ummon. Bu ulug'vor ummonning janubiy qirg'oqlari Qashqadaryo vohasida, uning bepoyon sarhadlarida mavj uradi. Mustabid tuzum davrida Qashqadaryo vohasining 30 asrdan ziyod tarixi o'rganilmagani kabi, qadimga taqaluvchi mumtoz adabiyotimiz javohirlari ham mutlaqo e'tibordan chetda qolib keldi. O'tmishda Qashqadaryoda yozma adabiyot bo'lganmi – o'tgan asrning 60-yillari so'nglariga qadar, hatto, shunday savol ham o'rta qo'yilmagan edi.

Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasida Qashqadaryo vohasidan etishgan Mir Qarshiy Xitoyi, Mavlono

Soyiliy va Abulbaraka Firoqiylar to'g'risida muxtasar ma'lumot beriladi. "Majolis-un nafois"ni mutolaa qilganlar ko'p bo'lgandir, lekin, o'tmish qashqadaryolik shoirlar haqida yozish, ularni ulug' shoir asari vositasida qayta kashf etish faqat o'tgan asrning 70-yillari oxirlarida amalga oshadi. Qashqadaryoning o'tmish madaniyati tarixiga murojaat etish, mumtoz adabiyot vakillari hayoti va ijodiyotini tadqiq etish Poyon Ravshanov nomi bilan bog'lanadi. Bu, ilmda, adabiyotshunoslik sohasida o'z yo'lini belgilab olish bo'libgina qolmay, ayni vaqtda, vatanimiz ilm-fani tarixida Qashqadaryoning qadimgi davrlardan tutib kelgan o'rnini aniqlashda, o'rganishda yangi qadam, moziy madaniyati va adabiy hayotining pinhon qolib kelayotgan qo'riqlarini ochish, tadqiqotchilikdagi kashfiyot yo'li edi. [1: 37]

Qashqadaryo vohasidagi mumtoz adabiy hayot haqida Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va XV asr tarixiy manbalarida mavjud ma'lumotlarni to'plash orqali ilmiy fikr yuritish amaliy ahamiyati katta bo'ladi. Abulbaraka Firoqiy xususida "Boburnoma", Ayyub Shahrisabziy to'g'risida esa Darveshali Changiy asarlarida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Manbalarni izlab topish va ilmiy jamoatchilikka, keng o'quvchilar ommasiga taqdim etishda tadqiqotchi olim Poyon Ravshanov birinchilardan bo'lib, Qashqadaryo o'tmish adabiy hayotiga qo'l uradi, Qashqadaryo vohasining qadimdan madaniyat beshiklaridan bo'lib kelganligini dalillar orqali isbotlash yo'lidan boradi.

O'tgan asrning 70-yillariso'nklaridamumtozadabiyot bilan yaqindan shug'ullanib kelayotgan, ilmiy maqsadi ufqi ancha yorishib qolgan adabiyotshunos olimning tadqiqotchilik iqtidori butunlay Qashqadaryoning o'tmish badiiy hayotiga, uni mukammal ochishga, mumtoz adabiyotimiz taraqqiyotida tutgan o'rnini, qo'shib kelgan hissasini belgilashga bag'ishlangan. Bu davrni Poyon Ravshanov ilmiy tadqiqotchiligida "Nasafiylarni kashf etish" bosqichi deb atash o'rinlidir.

2004-2005-yillardan to 2014-yilning boshlariga qadar Poyon Ravshanov o'zbek mumtoz adabiyotiga doir salmoqli maqolalar yaratdi. Ular orasida "Qiyomatga qolgan javob", "Moziyning unutilmas sabog'i", "Behbudiyning so'nggi kunlari", "Behbudiyning so'nggi manzili", "Mab dai nur" olami", "So'z mulkining sohibqironi", "Navoiy uyida yigirma kun", "Alisher Navoiyning Temuriylarga qarindoshlik nisbati va sadoqati", "Alisher Navoiyning bobolari", "Sadoqat timsoli", "Ulug'lar ruhiga ehtirom", "Sohibqiron ma'naviyati" singari tadqiqot ishlari bor. Tadqiqotchi olim fanga baxshida etgan umrida mingdan ziyodroq maqolalar, 50 dan ortiq kitoblar nashr etdirdi. Bunda gap, tabiiyki, sonda emas, balki, sifatdadir. Qolaversa, ko'tarilgan mavzularning yangiligi va amaliy ahamiyatida ham. O'zbekiston yangi tarixining birinchi jildi "Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida" (hammualliflikda), "Qashqadaryo tarixi", "Qarshi tarixi",

"Shahrisabz tarixi", "Jeynov tarixi", "Ajdodlarimiz qadri" kabi tarixiy asarlarga ayrim boblar tariqasida kiritilgan madaniyat va badiiy adabiyot to'g'risidagi izlanishlar ahamiyati katta. Muhimi, Qashqadaryo vohasining adabiy hayoti maktab darajasiga ko'tarildi. IX–XII asrlarda yashagan yurtdosh shoirlar – Nasafiylar, Keshiylar, XIV–XX asr qashqadaryolik ijodkorlar hayoti va adabiy merosi birinchi bo'lib, Poyon Ravshanov asarlarida, tadqiqotlarida yoritildi, izlab topildi. "Adabiy sahifalar", "Tarix badiiyati", "Adabiyot va ta'lim" singari ishlarda Qashqadaryo mumtoz adabiy hayoti namoyandalarining ulkan o'zbek adabiyotiga qo'shgan hissasi haqida jamoatchilik, ilm ahli tushuncha va bilimga ega bo'ldi. Bu mavzular davom etdirildi, to'ldirildi. Muhimi, Hofiz Ro'ziboy Mashrabi Soniy, Botirxo'ja Xolis, Xayoliy, Mahzun Shahrisabziy Qashqadaryoga, avlodlariga, kitobxonlarga qaytdi. Olimning xizmatlari nechog'lik ekanligini bu keltirilgan dalillar ochiq-oydin isbotlab turibdi.

Poyon Ravshanovning ilmiy va pedagogik sohadagi xizmatlari munosib taqdirlangan. U "Shuhrat" nishonining sohibidir, 2003-yilda olimga "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi" faxriy unvoni berilgan. Poyon Ravshanov Respublika yozuvchilar uyushmasining a'zosi edi. Uyushma a'zoliciga buyuk adabiyotshunos, O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov, O'zbekiston qahramoni, Xalq shoiri Abdulla Oripov, filologiya fanlari doktori, professor Pirmat Shermuhamedovlar tavsiyanoma berganlar.

Ko'ramizki, Poyon Ravshanovning tadqiqotchi sifatida ilm-fanga kirib kelishi, o'z o'rnini va mavqeyini egallashi tarixi maqolanavislikdan boshlangan. Bu hol, istisnosiz, hamma olimlar, barcha tadqiqotchilar uchun xos bo'lgan, hayotda muttasil sinovdan o'tib kelayotgan, o'zini oqlagan ilmiy usuldir.

Mustaqillik sharofati sabab, keyingi yillarda asosan tarixiy mavzudagi maqolalar, tarixiy asarlar yozish bilan band bo'lgan Poyon Ravshanov o'zining sevimli sohasi bo'lgan adabiyotshunoslikdan, mumtoz adabiyotga oid izlanishlar olib borishdan, asarlar, maqolalar yozishdan sira chekingan emas. Olimning Respublika matbuotida e'lon qilingan "Moziyning unutilmas sabog'i", "Behbudiyning so'nggi kunlari", "Behbudiyning so'nggi manzili", "Mab dai nur" olami (Olim Ravshanov bilan) [2: 52] maqolalari ilmiy amaliy ahamiyati katta bo'lganligini aytib o'tish kerak. XX asr boshlari adabiyotimiz va madaniyatimizning yirik vakili Mahmudxo'ja Behbudiy tarjimai holiday bahsli, ziddiyatli, ko'pdan buyon echimi topilmasdan kelinayotgan muammolarni hal qilishga daliliy hujjatlarga, tarixiy manbalar asosida yozilgan ikki maqola o'rnini boshqacha bo'lganligini ta'kidlash hojat emas. Poyon Ravshanov o'zbek mumtoz adabiyotining yirik bilimdonlaridan biri sifatida respublika matbuotida vaqti-vaqti bilan o'tkazib turiladigan, munozarali

muammolar hal etishiga amaliy yordami tegadigan bahslarda faol ishtirok etdi.

Tadqiqotlar yo'nalishi rang-barang bo'lib, mumtoz adabiyot XX asr o'zbek badiiy ijodiyoti, dramaturgiya, voha tabiati va bo'lak sohalarga tutashardi. Mustaqilka qadar bo'lgan, Respublika doirasidagi jurnal va to'plamlardagi ilmiy izlanishlar mevasi hisoblangan maqolalar orasida tarixga tobin ishlarining ham paydo bo'la boshlaganligini shu davrda kuzatish mumkin edi. Muallifning tarixiy mavzudagi maqolalar yozishi, aslini olganda, tasodifiy emasdi. Shuningdek, voha tabiatiga bag'ishlangan ishlarni ham, shunchaki, qiziqish natijasi deb bo'lmasdi. [3: 24]

Tadqiqotchi olim nimani yozgan, nimani e'lon etgan bo'lsa, zahmatli izlanishlar mahsullarini el-u xalqqa, ilmiy jamoatchilikka, keng kitobxonlar ommasiga, tadqiqotchilarga atagan, ular e'tiboriga havola etgan. Olimning o'zi tanlagan yo'ldan og'ishmay borganligi, o'z yo'lini kashf etib, o'z o'rniga ega bo'lganligi katta e'tiroflarga, obro'-ehtimlarga bois bo'ldi. Tadqiqotchi olim Poyon Ravshanov mumtoz adabiyotimizning muhim masalalarini yoritishga katta hissa qo'shgan.

O'zbek mumtoz adabiyotining xassos tadqiqotchisi darajasiga ko'tarilish, tan olinish va e'tirof etilish katta

baxt. Bu baxtga musharraf bo'lish uchun fidoiylik ko'rsatish lozim bo'ladi. Qunt, bilim, tajriba, mehnatdan qochmaslik, doimo harakatda bo'lish, keng diapazonda ilm-fan sirlarini egallay borish, mahorat kasb etish tadqiqotchilikning tamal toshlari hisoblanadi. Poyon Ravshanov doimo izlanishda edi. 1997-yilda akademik Aziz Qayumov huzurida bo'lib, bir necha oy davomida u kishidan ko'p narsalar o'rgangan edi. Natija chakki bo'lmadi – XIX asr oxirlari XX asr boshlarida yashagan, mustabid qizil tuzumga qarshi ruhda she'rlar yaratgan shoirlar yangi tariximizdan o'rin oldilar. Akademik Aziz Qayumov bir o'rinda Poyon Ravshanov haqida "muhtaram olim va fozil, talantli adabiyotshunos va murabbiy", degan fikrini kitobiga muhrlagan edi.

Tadqiqotchi olim Poyon Ravshanovning mumtoz adabiyot masalalariga bag'ishlab yozgan maqolalari – ilmiy izlanishlari haqida qisman to'xtalib, fikr yuritildi. Ko'p qirralik, qomusiylik, sermahsullik o'ziga xos xususiyatlar ekanligi ta'kidlab o'tildi. U o'zbek mumtoz adabiyotining o'z ovozi, o'z o'rnini, o'z yo'li bo'lgan tadqiqotchilaridandir. Olim mumtoz adabiyotining qo'l urilmagan sohalariga murojaat etishi va yangi fikrlarni o'rtaga qo'yishi bilan taniqli olimlar tomonidan e'tirof etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ражабалиева М., Содиқова М. Мумтоз адабиёт муҳиби. . – Тошкент.: Янги аср авлоди, 2014
2. Нафасов Т., Бозоров Т. Библиография. Поён Равшанов. – Қарши.: Насаф, 1991
3. Равшанов О. Эътироф. – Тошкент.: Минҳож, 2004

Nargiza AMIRQULOVA,
 Qarshi davlat universiteti

FRAZEOLOGIZMLARNING O'ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI MORFOLOGIK XUSUSIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada frazeologik birliklarning semantik va grammatik jihatdan barqaror ekanligini, frazeologik birliklar mavjudligini ko'rsatib o'tadi. Frazeologizmlar ikki yoki undan ortiq so'zlar turg'un birikmasidan iborat. Frazeologizmlar turlarga bo'linishi va frazeologiyani ma'lum bir tildagi so'zlar bog'lanmasi bo'lishi frazeologizmlar to'g'risida bahs etadi. Frazeologizmlarni o'rganishda ularning semantik va struktural belgilarini tilning mazmun plani bilan uning ifoda plani munosabati borasida qaramoq zarur.

Kalit so'zlar: *biror ishga juda qattiq kirishmoq, eng so'nggi yangiliklardan tezda xabardor bo'lmoq, iqtisod tomonlama mustahkam, biror nimani qattiq ushlab olmoq (ahdda qattiq turmoq) , to'g'riso'z, hech qachon ochilishi kerak bo'lmagan sirni saqlamoq, chin ko'ngildan yordam bermoq*

Аннотация: в данной статье приведены данные об устойчивости фразеологизмов с точки зрения грамматических и семантических особенностей. Фразеологизмы включают в себя два и более устойчивых сочетания. Разделение фразеологизмов предполагает дискуссию о возможности сочетания фразеологизмов в конкретном языке. При изучении фразеологизмов необходимо учитывать их семантические и структурные признаки по отношению к содержательному плану языка и плану его выражения.

Ключевые слова: *держатъ руку, держатъ руку на пульсе, держатъся на плаву, держатъ в руках вещи, держатъ язык за зубами, держатъ в строжайшем секрете. Держатъ кого-л. В твердой руке..*

Annotation: this article depicts data about stability of phraziological units in terms of grammatic and semantic features. Phraziologisms include two or more stable combinations. The devision of phraziologisms makes discussion

about possibility of combination of phraseologisms in a specified language. While studying phraseologisms, it is essential to consider their semantic and structural signs in relation to the content plan of the language and its expression plan.

Keywords: keep one's hand, keep abreast of, keep afloat, to keep a tight hand on things, keep a still tongue in one's head, to be kept most strictly secret. keep a firm (tight) hand on smb

Hozirgacha frazeologizmlarning semantik tabiati, semantik tasnifi, shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari, uslubiy xususiyatlari ko'pgina ilmiy izlanishlar manbai bo'lgan. Lekin frazeologizmlar "tilshunosligimizda muayyan so'z turkumlari bo'yicha tasnif qilinmagan va grammatik xususiyatlari etarli darajada o'rganilmagan". Masalan, adabiyotlarda fe'l (aravani quruq olib qochmoq, arpasini xom o'rmoq), ravish (bir og'izdan, tomdan tarasha tushganday), sifat (bag'ri keng, yuragi toza) frazeologizmlar borligi ta'kidlanadi va asosan fe'l frazemalarning morfologik, ya'ni turli lug'aviy va aloqa munosabat shakllariga munosabati haqida fikr yuritiladi. Haqiqatdan ham frazeologizmlarning aksari fe'l turkumiga xos: aqlini yo'qotmoq, kosasi oqarmoq, boshiga ko'tarmoq, ko'ngli yorishmoq va h. Bular tuslana oladi. Masalan, aqli (m/ng) ni yo'qotdi /yo'qotdim /yo'qotding. Bu holatda birinchi komponentda egalik ham qo'shilib o'zgarib borayotganini ham kuzatish mumkin. Shunday ekan, bunday frazemalarni to'liq fe'l iboralar deb aytsa to'g'ri bo'ladi? Yoki ko'ngli yorishmoq frazemasini har qanday shaxsda kelsa ham shaxs-son qo'shimchalarini olmaydi: ko'ngli(m/ng) yorishdi. Iboralarning paradigmatic formalari (turlanishi, tuslanishi kabilar) dastavval ularning qaysi turkumga mansub ekanligi bilan belgilanadi. Iboralarning asosiy qismini fe'l frazeologik birliklar tashkil qiladi. Fe'l iboralarning ichki sintaktik qurilishi birikmaga teng bo'lsa, bunday fe'l ibora tuslanadi: bosh egdim, bosh egding kabi. Agar iboraning ichki sintaktik qurilishi gapga teng bo'lsa, bunday fe'l ibora tuslana olmaydi, doim III shaxs formasida turadi. Masalan, ko'z tegdi iborasini tuslab bo'lmaydi. Bu ikki tur fe'l iboralar tuslanishi jihatdan farq qiladi, ammo mayl, zamon kabi kategoriyalarning formalari o'zgarish har ikkisida voqe bo'laveradi: bosh egdim; ko'z tegsa, bosh egibdi, ko'z tegibdi kabi. Bunday iboralarning ko'pi bo'lishli va bo'lishsiz aspektida ham kelaveradi: bosh egaylik va bosh eg maylik kabi. Fe'l frazeologik birliklarning leksik tarkibida, fe'l so'z-komponentdan tashqari, boshqa turkum so'zi ham qatnashadi. Bunday so'z-komponent ko'pincha ot bilan ifodalaniib, uning tarkibida egalik affiksi qatnashadi: ko'ngl(i)ga kelmoq, ko'ngl(i) yorishdi kabi. Ana shu egalik affiksi vositasida fe'l iboda uch shaxsdan biriga nisbat beriladi: ko'nglim yorishdi, ko'ngling yorishdi, ko'ngli yorishdi kabi. Birikmaga teng qurilishli fe'l iboralarda esa shaxs-son ma'nosini tuslovchi ham, egalik affiksi ham ifodalaydi. Ayrim iboralarga bu ikki holat birgalikda xos bo'ladi; ko'nglingni buzdim, ko'nglimni buzdim kabi. Ot komponent tarkibida qatnashadigan egalik affiksini

o'zgartib ishlatish sifat, ravish iboralarda ham mavjud: ko'nglim bo'sh, ko'ngling bo'sh; oyog'ingni qo'lingga olib, oyog'ini qo'lga olib kabi. Ba'zi iboralar sintaktik qurilishiga ko'ra birikmaga teng bo'la turib doim III shaxsda ishlatiladi. Masalan, bosh(i)dan oshib yotmoq, iborasi faqat III shaxsda keladi, chunki tuslanishida narsa bilan bog'lanadi. Ba'zi iboralar grammatik qurilishida doim III shaxs egalik affiksi qatnashadi, chunki egalik olib nisbatlanishida bunday ibora narsa bilan bog'lanadi: mag'zini chaqmoq, misi chiqdi kabi. Ayrim iboralarda ot so'z-komponentga egalik affikslarining faqat ko'plik formalari qo'shiladi (III shaxs egalik affiksi son jihatdan neytral): gapimiz bir joydan chiqdi, gapingiz bir joydan chiqdi kabi. Faqat ko'plik tuslovchisini olib keladigan iboralar ham uchraydi: gapni bir joyga qo'ydik, gapni bir joyga qo'yishdi yoki qo'yidilar kabi. Ot so'z-komponenti bilan tugaydigan ayrim iboralar kelishikda o'zgaradi, son formasini o'zgartadi: ammanning buzog'i, ammanning buzog'ini, ammanning buzoqlaridan; tosh bag'ir, tosh bag'irlar, tosh bag'irlarga kabi. Misollardan ayonki, tuslanish, egalik affiksi olib o'zgarish (nisbatlanish) odatda kishi bilan bog'lanishda sodir bo'ladi, narsa bilan bog'lanishda esa doim III shaxs tuslovchisi yoki egalik affiksi keladi. Frazeologiya ilmiy tadqiq qilishda tilshunoslikda keng tarqalgan distributiv metoddan foydalanish mumkin. Frazeologizmlarning nutqda ishlatilishi xususiyatlarini distributiv metod yordamida o'rganish orqali ularning struktural-semantik belgilari chuqurroq aniqlanadi. Undan tashqari, frazeologizmlarni o'rganishda ularning semantik va struktural belgilarini tilning mazmun plani bilan uning ifoda plani munosabati borasida qaramoq zarur. Frazeologizmlarning sostavini tekshirishda uning komponentalari o'rtasidagi birikish turlarini, birikuvchi so'zlarning tabiatini valentlik metodi asosida qaramoq zarur. Frazeologizmlarning strukturasi va ma'nolarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yish (oppozitsiyada) aniqlilarga olib keladi. Frazeologizmlarning grammatik tomonlarini ham hisobga olish zarur. Chunki frazeologizmlarning komponentalari o'rtasida sintaktik aloqalar, ularga qo'shiluvchi affikslar muhim rol o'ynaydi. 1) keep abreast of – 1. ortda qolmaslik, 2. xabardor bo'lmoq, zamon bilan hamnafas bo'lmoq. ... what young doctors needed to do was to keep abreast of the latest medical developments. (Th. Dreisel, "Twelve men", "The Country Doctor" p.42) yosh shifokorlar qilishlari kerak bo'lgan muhim vazifa tibbiyot sohasidagi eng so'nggi yutuqlardan xabardor bo'lish edi. 2) keep afloat – qarzga botmaslik, zo'rg'a qo'l uchida kun kechirmoq. 3) keep dark – 1.

yashirinmoq, berkinmoq, ko'zdan narida yurmoq. 2. sir saqlamoq. It's no less than natural he should keep dark: so would you and we in the same box. Uning yashirinishga majburligi mutlaqo tabiiy: uning o'rnida bo'lganimizda siz men ham xuddi shunday yo'l tutgan bo'lar edik. (R.L.Stevenson, "The Wrecker", ch. XVII. P. 107.)4) keep going – 1.to'xtab qolmasdan davom ettirmoq. 2.harakat qilishda davom etmoq, bo'sh kelmaslik. This is exhausting work, but I manage to keep going. Bu holdan toydiradigan ish, ammo men bo'sh kelmasdan davom ettiraman. (R.Aldington, "All Men are Enemies", ch.XI.)5) keep one's chin (pecker) up – ruhi tushmaslik, o'zini qo'lga olmoq.I know how you feel lad, but don't fret... I'll see what can be done. And at the meantime keep your pecker up. (A.Cronin, "The stars look down", book II, ch.I)Siz hozir nimani his qilayotganingizni tushunib turibman,do'sti, lekin g'am chekmang.Nima qilish mumkinligini o'ylab ko'raman. Siz esa ruhingizni tushirmang.6) keep oneself to oneself – odamovi bo'lmoq; yolg'izlikni afzal ko'rmoq, odamlardan o'zini olib qochmoq. Our profession is dependent on politics and economy and it is vitally necessary to participate and not just keep oneself to oneself. ("Morning star", June 27, 1975) 7) keep one's hair (shirt yoki wool) on – qizishib ketmaslik, o'zini qo'lga olmoq, o'zini tutmoq. Keep your shirt (hair) on. You're getting your pay every week.What's the matter with you? (U Sinchair, "100 %", ch.35) 8) keep quiet about smth – nimanidir aytmaslik, sukut saqlamoq. We've kept this and there's no need for shouting. (I. Murdoch, "The Blach Prince", part III.)9) keep shady – o'zini panaga tortmoq, ko'zga tashlanmaslik, yashirinmoq.They were warned to keep shady if they valued their lives.(a.C.Doyle, "The Lost World", ch. VIII.)10) keep smb. dangling – birovni o'ta kuttirmoq, toqatini toq qilmoq. Don't keep me dangling.Tell me if I passed the test. (DCE).Toqatimni toq qilmang. Imtihondan o'tdimmi yo'qmi, shuni ayting menga. 11) keep smb. going – kimnidir qo'llab quvvatlamoq, (moddiy) yordam ko'rsatmoq, kimningdir hayotini saqlab qolmoq. I was very ill, but the medicine he gave me kept me going.(DEI).Men og'ir kasal edim, lekin u bergan dori hayotimni saqlab qoldi.12) keep smb guessing – shubha uyg'otmoq, o'ylashga majbur etmoq.She always tries to keep me guessing. (L.P.Hartley, "A Perfect Women",) 13) keep smth. to oneself – 1) fikrini to'liq bayon etmaslik, nimanidir sir saqlamoq. You may keep your remar.2) rad etmoq,

birov bilan bo'lishishni xohlamaslik. 14) keep abreast of (up) with the times – zamon(davr)dan ortda qolmaslik. The trouble with you, my dear fellow – Henry replied, "is that you won't keep abreast of the times". (P.H.Johnson, "Catherine Carter"). 16) keep a still tongue in one's head – tilini tiyib yurmoq, tilini tiymoq, jim yurmoq. I'll tell you what I know, because I believe you can keep a still tongue in your head if you like. (G.Eliot, "Adam Bede")17) keep one's tongue between one's teeth – tilini tiymoq.But Lui knew his place and managed to keep his tongue between his teeth.(J.London, "The Mutiny of the Elsinore",) 18) keep a firm (tight) hand on smb. – 1.kimgadir o'z hukmini o'tkazmoq, qo'li ostida saqlamoq. 2.o'zining qat'iy siyosatini yuritmoq, nimanidir nazorat qilmoq. Mrs.Garlick's chief hobby continues to be the small economy, "As she said one day to an acquaintance: it's a good thing I can afford to keep a tight hand on things". (A.Bennet, "The Tight Hand") 19)keep one's hand in – nimadir bilan shug'ullanishni davom ettirmoq. I'm coming back ... not in the old way, of course. Just with an investmen here and there, I want to keep my hand in, you have the feel of the market .(J.Lindsay, "Lost Birthright",) 20) keep a firm rein on smb. (smth.) – kimningdir inon-ixtiyorini butunlay o'z qo'lida tutib turmoq. 21) keep a good heart – ruhini (kayfiyatini) tushirmaslik; o'zini tutmoq. 22) keep a good house – mehmonlarni yaxshi kutib olmoq; mehmondo'st bo'lmoq. 23) keep (have, hold) one's (an) ear (close) to the ground – 1.yer tagida ilon qimirlasa sezmoq, hamma narsadan boxabar bo'lmoq. 2.ommaning fikriga quloq tutmoq. 24) keep (get, have got) an eye on smb. – ko'zdan qochirmaslik, muntazam nazorat qilmoq.34) keep (have) one's eye on the ball – asosiy maqsad sari dadil intilmoq; har doim hushyor (tayyor) bo'lmoq. He does it well, don't you think? Lawrence says he keeps his eye on the ball. (J.Galsworthy, "Flowering Wilderness",) 25) keep (have) one eyes glued on – 1.ko'z uzmasdan qaramoq, ko'z uzolmay qolmoq, 2.maroq bilan tomosha qilmoq. The little girl had (kept) her eyes glued on a big dall in the shop window.(ALD) 26)keep smth. secret – nimanidir sir saqlamoq.The task in which he was engaged was to be kept most strictly secret. (W.Scott, "Count Robert of Paris",)

Xulosa qilib shuni ayta olamizki, frazeologik fe'llar ingliz tilida, fe'llar bilan birikib turli ma'nolarni aks ettirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке // Виноградов В.В. Лексикология и лексикография: Избр. Тр. - М.: Наука, 1986.
2. Влахов С., Флорин С. Непереваемое в переводе. – М., 1986.
3. Дубинец Э.М. Курс лекций и планы семинарских занятий по лексикологии английского языка.
4. O.A.To'raqulova Adabiyot darslarida tekstual-analitik tahlil asosida o'quvchilarda mutolaani rivojlantirish "2023 /1(15) ISSN -2181-922X

Nodir RAMAZONOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti,
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

DA'VO XATI MATNINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARIGA DOIR

Annotatsiya: ushbu maqolada da'vo xatlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritilgan. Da'vo xatlarining mohiyati, tarkibiy tuzilishi, ular matniga qo'yiladigan talablar yoritilgan.

Kalit so'zlar: da'vo xatlari, so'rov xatlari, mohiyati, rasmiylashtirilishi, yozish qoidalari, ilova.

Аннотация: в данной статье рассказывается о претензионных письмах и их особенностях. Разъясняются сущность, структура и требования к тексту претензионных писем.

Ключевые слова: претензионные письма, письма-запросы, суть, форма, правила написания, приложения.

Annotation: this article talks about claim letters and their features. The essence, structure and requirements for the text of claim letters are explained.

Key words: letters of claim, letters of request, essence, form, writing rules, applications.

Ma'lumki, xizmat yozishmalari o'z xususiyatlari va bajaradigan vazifasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Javob xatni talab qiluvchi xatlar (da'vo xatlar, so'rov xatlar, iltimos xatlar).
2. Javob xatni talab qilmaydigan xatlar (ilova xat, tasdiq xat, eslatma xat, axborot xat, kafolat xat va boshqalar).

Da'vo xatlari va ularning mohiyati

Ma'lum bir muassasaning boshqa bir idora yoki transport tashkilotlariga nisbatan talab va e'tirozlari bayon qilingan xatlar da'vo xatlari deb yuritiladi. Da'vo xatlari tovar yetkazib berish, qurilish ishlari, ijara, yuk tashish va shu kabi bir qancha ishlar bo'yicha tuzilgan shartnomalar bajarilmay qolganda, o'z qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuziladi. Da'vo xatlarida, asosan, shartnomaga ko'ra o'z zimmasiga olgan majburiyatini buzgan tomon yetkazgan zararni qoplash talab qilinadi.

Da'vo xatlarining asosiy zaruriy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Da'vo qiluvchi muassasa nomi va manzili.
2. Xatning yozilish sanasi va tartib raqami.
3. Da'voni qabul qiluvchi muassasa nomi va manzili.
4. Da'vo bahosi (qiymati).
5. Xat matni.
6. Ilovalar ro'yxati (sahifalar soni ko'rsatilgan holda).
7. Mansabdor shaxs(lar)ning imzosi.

Odatda, da'vo xatlari uch nusxada tayyorlanadi. Xatning 1-nusxasi aybdorga, 2-nusxasi da'vogarning o'zida qoldiriladi. Aybdor muassasa da'vo xatida ko'rsatilgan talablarni bajarishdan bosh tortgan taqdirda, xatning 3-nusxasi da'vo arizasiga qo'shib, sudga yoki hakamlikka topshiriladi. Da'vo xatlarida da'vogar talabini asoslaydigan hamda tasdiqlaydigan dalillar, ko'rsatmalar va ekspertiza dalolatnomasi, qabul qilish dalolatnomasi, savdo dalolatnomalari va hokazolar xatga ilova qilinib, ularning ro'yxati

ko'rsatilishi kerak.

Da'vo xatlariga quyidagilar ilova qilinadi:

1. Tovar-transport yukxati (temir yo'l yukxati, aeroflot yukxati, avtotransport yukxati va boshqalar).
2. Savdo dalolatnomalari (yuk qisman yo'qolganda va buzilganda).
3. Yukning tashish uchun qabul qilinganligi to'g'risida patta (yuk butunlay yo'qolganda).
4. Jo'natilgan mol (tovar)ning ro'yxati va bahosi ko'rsatilgan hujjat, to'lov talabnomasi, naryadlar, mahsulotni jo'natish uchun berilgan hujjat.

5. Da'vo hisob-kitobining summasi (bunday hisob-kitoblar agar matnning o'zida ko'rsatilmagan bo'lsagina ilova etiladi).

6. Da'vogarning fikriga ko'ra da'voning haqligini tasdiqlay oladigan hujjatlar.

Da'vo xati yozish bilan bog'liq asosiy masala – uning matnini to'g'ri shakllantirishdir.

Da'vo xati matnining 6 tarkibiy qismi:

1. Birinchi xatboshi. Holat / vaziyat yuzaga kelishi tarixi (ikki o'rtada tuzilgan shartnoma va uning asosiy shartlari).
2. Ikkinchi xatboshi. Shartnoma yuzasidan amalga oshirilgan to'lov harakatlari (bankdagi hisob raqamidan pul o'tkazilganligini tasdiqlovchi to'lov topshiriqnomasi sanasi, raqami va summasi).
3. Uchinchi xatboshi. Shartnoma asosida yetkazib berilgan tovar-moddiy boyliklar haqida ma'lumot (yukxati sanasi, raqami va yetkazib berilgan tovarlar miqdori).
4. To'rtinchi xatboshi. Shartnoma bo'yicha yetkazib berilmagan tovar-moddiy boyliklar haqida ma'lumot (yetkazib berilmagan qoldiq tovar miqdori va summasi).
5. Beshinchi xatboshi. Shartnomani bajarish uchun qo'yiladigan muddatlar (qaysi sanagacha shartnoma asosidagi majburiyatlarni to'la bajarish

lozimligi talablari).

6. Oltinchi xatboshi. Sanksiya qismi (agar belgilangan muddatgacha shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaydigan bo'lsa, keyingi xatti-harakatlar, qonun hujjatlari va ularning tegishli moddalarini ko'rsatgan holda).

Quyida da'vo xatiga namuna ilova qilinmoqda.

Namuna

**YTT "Ahmedov Anvar Saidovich",
100175, Toshkent shahri,
Yunusobod-7, 41/55,
Tel. 99 777-77-88**

2024.01.15 №24/1

**"Mega-Sport" MChJ
STIR 000374169079**

**Manzil: 100095, Toshkent shahri,
Qushbegi ko'chasi, 22-uy**

**Da'vo qiymati
450000 (to'rt yuz ellik ming) so'm**

DA'VO XATI

Biz sizning do'koningizdan (Qushbegi ko'chasi, 22-uy) 2024-yil 10-yanvar kuni Nike, qora, 43-o'lcham, qiymati 450000 (to'rt yuz ellik ming) so'm bo'lgan erkaklar qishki etiklarini sotib oldik. Ushbu poyabzal uchun kafolat muddati 60 kun edi.

2024-yil 12-yanvar kuni mahsulotda nuqson aniqlandi – taglikka mahkamlangan joyida charm yupqalashgan. Shu sababli, poyabzal yaroqsiz holga keldi.

O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 13-moddasiga muvofiq mahsulotni aynan yoki shunga o'xshash mahsulot bilan almashtirishingizni yoki uning to'liq qiymatini qaytarishingizni so'rayman.

Bizning da'vo xatimizga 10 kun ichida javob

berishingizni talab qilamiz.

Agar sizning nuqson haqida shubhangiz bo'lsa, biz sizdan sotuvchi hisobidan tovarni ekspertizadan o'tkazishingizni so'raymiz (muddat – O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 14-moddasiga muvofiq da'vo xati berilgan kundan boshlab 20 kun). Bunday holda, ekspertiza natijalari haqida bizga yozma ravishda xabar berishingiz so'raladi.

Belgilangan muddatda bizning talablarimiz bajarilmasa, "Iste'molchilar huquqlari to'g'risida"gi Qonunning 29-moddasiga asosan o'z xohishimizga ko'ra boshqa da'volar qo'yish va sudga murojaat qilish huquqini saqlab qolamiz.

Ilova: Xarid kvitansiyasining nusxasi.

A. S. Ahmedov _____ /
imzo/

Xulosa qilib aytganda, da'vo xatlari bo'lajak yuristlar uchun o'zlashtirilishi muhim ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlar sirasiga kiradi. Chunki ushbu xat protsessual ahamiyatga ham ega bo'lib, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishning muhim vositasi hisoblanadi. Protsessual tartib-taomillarga ko'ra, da'vo xatlari yozish orqali ikki o'rtada yuzaga kelgan nizoli vaziyatni tinch yo'l bilan hal etishga urinmay turib, da'vo arizasi bilan sudga murojaat qilish, sudlarning ish hajmi haddan ziyod oshib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun da'vo arizalari orqali nizolarni hal qilish eng maqbul yo'l hisoblanadi. Talabalar tomonidan da'vo arizalarini tuzishda asosan uning matn qismini shakllantirish muammoli hisoblanadi. Chunki aynan matn qismida da'voli vaziyatning yuzaga kelish tarixi, shartnoma yuzasidan amalga oshirilgan to'lov harakatlari, shartnoma asosida yetkazib berilgan tovar-moddiy boyliklar haqida ma'lumot, shartnoma bo'yicha yetkazib berilmagan tovar-moddiy boyliklar haqida ma'lumot, shartnomani bajarish uchun qo'yiladigan muddatlar va sanksiya qismi aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov N. va b. Davlat tilida ish yuritish (9-nashri). – Toshkent, 2020.
2. Ish yuritish: Amaliy qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2017.
3. Ramazonov N.N. Davlat tilida ish yuritish va akademik yozuv: o'quv qo'llanma. – Toshkent: TDYU, 2023.

Orzigul UBAYDULLAYEVA,
Qarshi MII akademik litseyi o'qituvchisi
Feruz RAJABOV,
Qarshi MII akademik litseyi katta o'qituvchisi, f.f.f.d(Phd)

POETONIMIYA LINGVISTIK DUNYOQARASH HODISASI SIFATIDA

Annotatsiya: mazkur maqolada onomastika va etnik ong o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishda ko'plab ijtimoiy-falsafiy jihatlarini va inson ongida shakllangan axloqiy qadriyatlarining butun tizimini hisobga olgan holda tarixiy yondashish kerakligi va badiiy asarlardagi o'rni tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: *onomastika, poetonim, izoh, antroponimik makon, islom, etno, georfonim.*

Аннотация: в данной статье проанализирована необходимость исторического подхода в изучении взаимосвязи ономастики и этнического сознания с учетом многих социально-философских аспектов и всей системы нравственных ценностей, сформировавшейся в сознании человека, и ее места в художественных произведениях.

Ключевые слова: *ономастика, поетоним, объяснение, антропонимическое пространство, ислам, этном, георфонема.*

Annotation: this article analyzed the need for a historical approach in the study of the relationship between onomastics and ethnic consciousness, taking into account many socio-philosophical aspects and the entire system of moral values formed in the human mind, and its place in artistic works.

Key words: *onomastics, poetonym, explanation, anthroponymic space, Islam, ethno, georphonem*

Onomastika fan sifatida tilshunoslikning tegishli nomlarni o'rganadigan va etnik ong va etnik madaniyat kabi tushunchalar bilan bog'liq bo'lgan tarmog'idir. "Etnik ong nafaqat moddiy, ijtimoiy va ma'naviy madaniyatning etnoga xos unsurlari majmuasi, balki muayyan etnik guruhning butun tarixi davomida shakllangan millatlararo munosabatlardir. Shuning uchun onomastika va etnik ong o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishda ko'plab ijtimoiy-falsafiy jihatlarini va inson ongida shakllangan axloqiy qadriyatlarining butun tizimini hisobga olgan holda tarixiy yondashish kerak. Milliy o'z-o'zini anglashning turmush sharoiti bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlarini xalqning psixik xususiyatlarini shakllantirish qonuniyatlari sifatida ko'rish mumkin, chunki asrlar davomida shakllanib kelgan turmush tarzi xalq ma'naviyatiga, uning ongiga ta'sir ko'rsatadi.

Madaniyat barcha tushunchalar, jumladan, tegishli nomlar sobit bo'lgan onomastik majmuadir. Xususan, "Antroponimik makon o'zining tarkibi va xususiyatlariga ko'ra noyob, til jamoasining lingvomadaniy ongi bilan bog'liq bo'lgan so'z boyligi qatlamidir..."[1].

O'tmish va hozirgi zamon shaxs ismlari va familiyalari tizimida jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichlaridagi hayotidan, ma'naviy madaniyat va etnik meros xususiyatlaridan dalolat beruvchi qimmatli etnik-madaniy material topiladi. Familiyalar etnik toifa bo'lib, ular etnik guruh tarixini bilish manbai bo'lib xizmat qiladi. Har qanday xalqning onomastikasi uzoq vaqt davomida, ma'lum tarixiy-geografik sharoitlar ta'sirida rivojlanib boradi, bu esa tipologik va etimologik nuqtayi nazardan xos nomlarning xilma-xilligini oldindan belgilab beradi. Xalq madaniyatining eng muhim tarkibiy qismi bo'lgan nomlar bir vaqtning

o'zida tilning ajralmas qismi bo'lib, unda odamlarning tashqi dunyoga, undagi shaxsning o'rniga munosabati aniq namoyon bo'ladi. O'zbek tilining antroponimik tizimi uzoq vaqt davomida noyob tarixiy, geografik va lingvistik sharoitlarda shakllangan. O'zbeklarning qo'shni va hududiy jihatdan uzoq qabilalar va millatlar bilan tarixan o'rnatilgan etnik va etnik-madaniy aloqalari bevosita o'zbek xalqining shaxsiy ismlari tizimida o'z aksini topgan bo'lib, ular haqiqiy laqabda ham, xalq nomida ham aks etadi va o'zbek klassik asarlarida, jumladan, mumtoz adabiyot asarlari poetonimiyasini o'rganishda ma'lum bo'ladi, bu esa alohida e'tiborga loyiqdir.

"Poetik nom (poetonim) badiiy adabiyotdagi nom bo'lib, u asar tilida nominativ, xarakterlovchi, uslubiy va g'oyaviy vazifalardan tashqari, qoida tariqasida, uydirma nomlar turkumiga kiradi, lekin ko'pincha o'ziga xos ism, yozuvchi haqiqiy ismlardan yoki ikkalasining kombinatsiyasidan foydalanadi"[2]. Poetonim orqali muallif qahramonning xarakteri va xatti-harakatlarini yaxshiroq va chuqurroq ochib berishga imkon beradigan xususiyatlarni beradi.

V.A.Kuxarenko poetonimlarni adabiy matnni tarkibiy va semantik tashkil etishning eng muhim vositasi deb hisoblaydi: Poetonim har bir muloqotchi nutqida nihoyatda ma'lumotga boy bo'lgan birlikdir, chunki u obyekt ma'nosini bildirgan holda, uning butun tarkibini o'z ichiga oladi. Poetonim, shuningdek, u faoliyat ko'rsatayotgan etnik jamoaga xos bo'lgan ruhiy xususiyatlarning izini ham o'z ichiga oladi, xalq nomida mavjud bo'lgan ismlar bilan bir qatorda qo'shimcha badiiy ma'nolar bilan to'lib ketgan va bu ularni semantik jihatdan sezilarli darajada boyitadi.

Adabiy antroponimlar ma'lum bir xalqning lingvistik

o'zini o'zi anglashining o'ziga xos belgisi bo'lib, muallifning dunyoqarashi prizmasi orqali uzatiladi. "Lingvistik o'z-o'zini anglash" tushunchasi etnik ong muammolari, dunyoning lingvistik tasviri va etnik guruhning ruhiy xususiyatlari bilan yaqin aloqani ochib beradi. Dunyoning lingvistik tasviri - bu "tushunchalar, tasvirlar va boshqa qiymat dominantlarining mohiyatini til dunyosining ramziy tasviri bo'lib, u insonni o'rab turgan voqelikni og'zaki tasavvur qilishni, dunyoqarash va dunyoqarashni etnos ongida tushunchalar tizimi, aqliy dunyoqarashini taklif qiladi. Dunyoning konseptual surati tarixan shakllangan lingvistik va individual nutq leksikasini aks ettiradi, uning bir qismi etnik-lingvistik madaniyatning barqaror yadrosi bo'lgan o'ziga xos ismlar olamidir. Dunyoning "onomastik rasmi" - bu odamning atrofidagi dunyo va tegishli ismlar haqidagi og'zaki tasvirlar va bilimlar to'plami. Har qanday etnik guruh dunyosining lingvistik belgining tarkibiy qismlari bo'lgan qadriyatlar orasida tilning rivojlanishida ma'lum iz qoldiradigan din muhim rol o'ynaydi. Muayyan dinlarning tarqalishi har doim antroponimlarning ommaviy ravishda olinishi bilan birga keladi. Shunday qilib, Islomning tarqalishi Ingush nomlari kitobida Qur'ondan olingan musulmon ismlarining paydo bo'lishiga olib keldi (Payg'ambarning ismlari, uning sahobalari, shuningdek, Payg'ambarning o'zi ismining ko'plab sinonimlari).

V.A.Gordlevskiy ta'kidlaganidek, musulmonlar ko'proq payg'ambar, uning eng yaqin sahobalari yoki qarindoshlarining ismlarini tanlaydilar. "Payg'ambarlarning ismlari Muhammad alayhissalomning "Farzandlaringizga payg'ambarlarning ismlarini qo'yinglar" degan hadisda ifodalangan vasiyatini bajarish uchun tanlangan. Bunday nom namunalarini ko'plab badiiy asarlarning matnlarida ko'rish mumkin. Bunday ko'p sonli o'zlashtirilgan nomlardan foydalanishni badiiy matnda aks ettirilgan tarixiy vaqt, Islomning keng tarqalgan va asosiy din sifatida qabul qilingani bilan tushuntirish mumkin. Aynan shu fakt o'zbek xalqining ruhiy xususiyatlarini ochib berishga yordam beradi, chunki xalqning lingvistik o'zini o'zi anglashi millatning dunyoqarashi va axloqiy asoslarini aks ettiruvchi asl nomlarda aniq namoyon bo'ladi.

Islomgacha bo'lgan davrda ham ota-bobolarimiz ism qo'yishning o'ziga xos «tizimini» ishlab chiqishgani va unga amal qilishganini xalq og'zaki ijodi namunalaridan bilamiz. "Chunonchi, ibtidoiy jamoa va urug'chilik davrida ijod qilingan turkiy ismlarda ko'proq botirlik, jasurlik ramzi bo'lgan tushunchalar; chaqaloqning hayoti, uning sog'lig'i, ulg'ayishini orzu qilish bilan aloqador tasavvurlar; go'zallik, o'ktamlik, chevarlik bilan bog'liq estetik qarashlar; xo'jalikning ko'p qirrali tomonlarini ifoda etuvchi tushunchalar yetakchi o'rin tutgan. Mana shunday ismlarning bir qismi o'zbek tilida hozirda ham saqlanib qolgan: Alpon, Arig' (go'zal

ma'nosida), Arslon, Burgutboy, Yo'lbars, Kumushoy, Lochin, Oyarig', Oygul, Oyxon, Ulg'ay, Unsun, Tirkash, Tursun, To'xta, Ergash, Erkin, O'lmas, Quvondiq, Qoplon, Qanotboy, Yursin, Yursinoy, Qilichboy va b." [3]. Shuningdek, xalq og'zaki ijodining bebaho durdonasi «Alpomish» dostonida ajdodlarimizning o'ziga xos ism qo'yish tamoyili aks etgan. Boybo'ta Do'stqorayev «Alpomish» matnining jilolari nomli maqolasida dostonidagi ismlarga alohida to'xtaladi: «O'g'il bolalarga katta niyat bilan ulug', ulkan narsa yoki kuchli mavjudotlarning otlari qo'yilgan. Yoxud yosh jonivorlarni anglatuvchi ismlarni tanlashgan. Negaki har qanday jonzotning kichigi «shirin», yoqimli ko'rinadi. Dostonda Olpinbiy, Dobonbiy, Boybo'ri, Boysari degan turkiy nomlar uchraydi. Olpinbiy asli bahodir, polvon degan ma'noni anglatuvchi «alp» va katta ma'nosini beruvchi qo'shimcha «mon»dan tashkil topgan, «Alpmon» so'ziga qo'shilgan «biy» esa, turkiy qavmlarda «qozi» yoxud «oqsoqol» ma'nolarini bildirgan» [4]. Olim doston qahramonlaridan Dobonbiy, Ko'kaman, Alpomish ismlarining ma'nosini shu tarzda izohlaydi: «Dobonbiy «dev» va «mon» o'zaklaridan tarkib topgan. «Ulkan dev» degani. («Dev» o'zagi tovush o'zgarishiga uchrab «dob» tarziga kelgan, «mon»ning «m» tovushi talaffuzda tushib qoldirilgan). «Ko'kaman» so'zida ham shunday holatni ko'rish mumkin. «Ko'ka» so'zi ko'ksdan olingan bo'lib, «ko'krak, yurak» ma'nolarini bildiradi. Ko'kaman (ko'kamon) «yuragi katta» degani. Alpomish so'zini ham «alp», «mon» va «mish» kabi o'zak hamda qo'shimchalarga bo'lish mumkin» [4]. Boybo'ri poetonimining tarkibi ikkita appellativni o'z ichiga oladi, ulardan biri - bo'ri - o'zbeklarning g'oyalariga ko'ra, kuch, jasorat bilan ajralib turadigan hayvonni bildiradi. Bular esa qahramonning xarakteri va xatti-harakatlarini yaxshiroq va chuqurroq ochib berishga imkon beradigan xususiyatlarni beradi.

Bu holatni sharq og'zaki va yozma adabiyotining mumtoz namunalarida ham istagancha uchratishimiz mumkin. Bizningcha, qahramonlarga ramziy nom berishning dastlabki go'zal namunalarini «Qutadg'u bilig» asarida uchraydi. Bir qator tadqiqotchilar ham asardagi nomlar haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirishgan. "Kuntug'di (chiqqan kun) - adolat timsoli bo'lib, Elig o'rnida, Oyto'ldi (to'lgan oy) - davlat timsoli bo'lib, vazir o'rnida, O'gdulmish (aqli raso) - aql timsoli bo'lib, vazirning o'g'li o'rnida, O'zg'urmish (uyg'ongan) - qanoat timsoli bo'lib, vazirning qarindoshi o'rnidadir" [5].

Taxalluslar odamlarning ruhiy xususiyatlarini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Ular ma'lum bir muhitda, ayniqsa qishloqda paydo bo'ladi va faoliyat ko'rsatadi va kommunikantlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning aniq ko'rsatkichidir. Ingush shaxsiy nomlarining ijtimoiy jihatdan ajralib turadigan funksiyasi taxalluslar tizimida eng aniq amalga oshiriladi. Taxallus

- bu "antroponimning bir turi, odamga uning o'ziga xos xususiyati, hayoti bilan bog'liq vaziyat, har qanday o'xshashlik, kelib chiqishi va boshqa motivlarga ko'ra atrofidagi odamlar tomonidan berilgan qo'shimcha norasmiy ism".

Asarlarda qo'llangan hujjatli etnografik ma'lumotlarga asoslangan marosimlar badiiy tasvir kitobxonga alohida qiziqish uyg'otadi. Chunki bunda o'zbeklarning barcha diniy qarashlari namoyon bo'ladi, ularning inson tabiat kuchi oldida ojiz ekanligi, va samimiy e'tiqodi namoyon bo'ladi. O'zbek xalqining o'zligini anglashi, musulmonlarning turli urf-odatlar va bayramlari (georfonimlari) nomlari, topografik obyektlarning nomlari (shu jumladan, diniy xarakterdagilar) va boshqa onomastik birliklar orqali ularning madaniy-tarixiy jihatlari ramziy ma'noga ega bo'ladi.

Kitobxonga asardagi personajlar nomzodini ko'rsatishning asosiy sabablaridan biri bu shaxsiy ismni insonning ijtimoiylashuvi vositasi sifatida qabul qilishdir. Bu motiv, masalan, ismning semantikasi asosidagi xususiyatlarni xarakterga o'tkazishda, ya'ni eng yaxshi fazilatlarga ega bo'lgan shaxs bo'lish, u yoki bu sohada ustun bo'lish istagida namoyon bo'ladi. O'zbek millati vakili fantaziyasidagi shaxsiy ism qoida tariqasida o'quvchi idrok etish jarayonida boshqaradigan o'ziga xos milliy va madaniy tarkibiy qismni o'z ichiga oladi. Ushbu milliy-madaniy

ma'lumotlar antroponimik konnotatsiya orqali amalga oshiriladi.

Asardagi nomlarning qo'llanishi tufayli xalqning mentaliteti, o'zligini anglashi haqida tasavvur hosil bo'ladi. O'zbeklarning qadimiy madaniyati, ularning diniy e'tiqodlari va dunyoning lingvistik tasviri haqida tasavvurga ega bo'lgan asl turkiy nomlari bu borada ayniqsa qimmatlidir. Ismning madaniy va tarixiy ma'lumotlari uning asosiy semantik mazmuniga ta'sir qiladi, milliy va madaniy o'ziga xosligini mustahkamlaydi va bu o'zbek xalqining lingvistik ongida aks etadi. Ismlar nafaqat etnik ong va milliy o'ziga xoslik belgilarining tashuvchisi, balki xalq tarixi va etnografiyasini, madaniy tushunchalarini ham aks ettiradi. Ch.Aytmatov ona tilining millat taqdiridagi o'rni haqida so'z yuritar ekan "Xalqning o'lmasligi uning tilidadir. Har bir til o'z xalqi uchun ajoyibdir. Bizni dunyoga keltirgan, bizga eng katta boylik – o'z tilini ato etgan xalq oldidagi har birimizning farzandlik burchimiz bor: uning sofligini saqlash, boyligini ko'paytirish", deganda haqli edi.

Xulosa qilib aytganda, ma'lum bir millat vakillarining real nomlari yoki badiiy asarlaridagi poetonimlarni o'rganish orqali o'sha millatning madaniy va etnik qarashlari, tasavvurlari, umidlari namoyon bo'ladi. Bu esa o'sha xalqning e'tiqodi, tarixini chuqurroq o'rganishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Соколова Е.Н. Структура антропонимов в «Слове о полку Игореве» [Текст] / Е.Н. Соколова // Вестник Тюменского государственного университета. – 2009. - №1. – С.192.
2. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1988. – с.108
3. Begmatov E. O'zbek ismlari. – Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2-nashri, 2007. 595-bet.
4. Do'stqorayev B. «Alpomish» matnining jilolari // «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi, 2011 yil, 1-son.
5. Karimov Q. «Qutadg'u bilig» asarida uchraydigan shaxs nomlari // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1967. – № 2. 42-bet.

Saidov ZOKIR,
Samarqand davlat chet tillari o'qituvchisi

ILOVA KONSTRUKSIYALARNING ASOSIY VAZIFALARI

Annotatsiya: ushbu maqoda ilova konstruksiyalarning asosiy vazifalari haqida gap boradi. Bunda ilova konstruksiyalarni o'rganishni ham nazariy, ham amaliy ahamiyatiga e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari mashhur olimlarning ilova konstruksiyasining asosiy vazifalari haqidagi qarashlariga ham maqolamizda o'rin ajratganmiz.

Kalit so'zlar: *ilovali element, ilova konstruksiya, gap, biriktiruvchi vosita.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются основные задачи присоединительных конструкциях. При этом уделяется внимание теоретической и практической значимости присоединительных конструкциях. Кроме того, в нашей статье мы представили взгляды известных ученых на основные задачи построения приложений.

Ключевые слова: *присоединительный элемент, присоединительными конструкция, предложение, союз.*

Abstract: this article discusses the main tasks of application constructions. In this case, attention is paid to the theoretical and practical importance of the study of applied constructions. In addition, we have presented the views of famous scientists about the main tasks of application construction in our article.

Key words: *application phenomenon, application construction, sentence, conjunction.*

Ilova konstruksiya hodisasini o'rganar ekanmiz, bu hodisa to'g'risida mavjud bo'lgan fikr va mulohazalarimiz ham borgan sari kengayib, chuqurlashib boradi. Chunki, bu hodisa ko'p qirrali, ko'p tomonli lingvistik hodisadir. Uning ko'p qirrali hodisa ekanligi ilovali elementlarning ilova konstruksiya tarkibida bajarib kelayotgan funksiyalari bilan belgilanadi. Ilovali elementlarga xos bo'lgan funksiyalarni bu yerda tahlil qilinayotgan misollar namunasida aniqlashdan oldin shu ilovali elementlar tufayli yuzaga kelayotgan ba'zi bir sintaktik birliklarga to'xtalib o'taylik. Chunki bu birliklar ham shu ilovali elementlar yordamida sodir bo'ladi. Ilovali elementlar tufayli yuzaga kelgan sintaktik birliklardan bu ilova konstruksiya bo'lib, u ham o'z navbatida ilova aloqalariga asoslangan murakkab sintaktik butunlikning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Shuning uchun ham biz bu ikkala terminologik tushunchani parallel qo'llayveramiz. Biroq ilova konstruksiyaning sintaktik tabiatini, xususiyatini o'rgana borgan sari biz yana u bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqacharoq sintaktik hodisaga duch kelamiz, u ham bo'lsa, gapning aktual bo'laklarga ajratish hodisasidir. Bu o'rinda ilova konstruksiya bilan gapning aktual bo'laklarga ajratish hodisasi orasida qanaqa munosabat bor degan haqli savol tug'ilishi mumkin.

Ana shu yuzaga kelgan savolga javob berish maqsadida, biz bu yerda, gapning aktual bo'laklarga ajratish hodisasi bilan bevosita bog'liq bo'lgan fikr va mulohazalarga qisqacha to'xtalib o'tishni o'rinli deb hisoblaymiz.

Gapning aktual bo'laklarga ajratish hodisasi to'g'risidagi nazariya chet el va rus tilshunosligida keng ko'lamda qo'llanilib kelmoqda. Ushbu nazariya, asosan, chex tilshunoslik maktabining asoschilaridan biri V. Mateziusga taalluqlidir. Keyinchalik, bu

nazariyaning tarafdorlari ko'payib bordi. Ularning orasida K.G. Krushelnitskaya, I.P. Raspopov va V.G. Admonilarning olib borgan ishlari diqqatga sazovordir. Dastlabki vaqtlarda gapni aktual bo'laklarga ajratishda intonatsiyaga alohida o'rin berilgan. Gapning aktual bo'laklarga ajralishi uning kommunikativ maqsadini ifodalaydi va u sintaktik jarayonda tahlil qilinadi. Har qanday gapning faqatgina matn doirasida tahlil qilinishi maqsadga muvofiqdir. Shundagina u haqiqiy sintaktik va intonatsion ma'no kasb etadi va uning aktual komponentlariga ajralishi real holatda bo'ladi. Ma'lumki, bir gapni bir necha aktual bo'laklarga bo'lish mumkin. Gapni aktual ajratish deganda gapni ikki bo'lakka tema va remaga ajratish tushuniladi.

Tema axborot predmeti, ya'ni fikr harakatining boshlanishi bo'lsa, rema – bu uning rivojlanishidir. Bu holatni quyidagi misol orqali izohlash mumkin: masalan, "ich" berilgan deydik, ya'ni bu tema funksiyasini bajarib keladi, uning rivojlanishi uchun rema kerak, rema ana shu temani to'ldirish maqsadida yuzaga keladi. U holda ich kam, demak, bu sodda gap tarkibida tema va remani tushunamiz. Albatta, bunday holni kengaytirilgan gaplar tarkibida ham kuzatish mumkin, u holda qaysi bir gap bo'lagi biz uchun muhim bo'lsa, unga mantiqiy urg'u berib ajratib ko'rsatamiz.

Biroq bizning asosiy maqsadimiz bu yerda gapning aktual bo'laklari bo'lmish tema va rema tushunchalarini ilova konstruksiya tabiatiga moslashtirishdan iborat, chunki rema o'z mohiyati jihatidan temaga nisbatan qo'shimcha axborot beradi, ya'ni uni konkretlashtiradi, to'ldiradi. Reming ana shunday xususiyatini e'tiborga olgan tilshunos olimlar, uni ilova konstruksiyaning ramkasi doirasida tushuntirishga harakat qilishgan. Bu sohada M.E. Shafiro olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir. Chunki u birinchilardan bo'lib remaga xos bo'lgan xususiyatlarni ilovali elementlar

yordamida tushuntirib bergan, natijada gapning aktual bo'laklaridan bo'lmish remaning ilovali elementlarga munosabati mavzusidagi ilmiy maqolasi yuzaga keldi. Remani ilovali element funksiyasida quyidagicha tushuntirish mumkin:

1. Damals hatten wir noch nicht genügend Medikamente. Keine Betäubungsmittel.

Rema ham o'zining lingvistik mohiyati jihatdan ilovali elementning o'zginasidir, chunki ilovali element o'z tarkibida remaning xususiyatlarini takrorlab oldindan aytilgan fikrga qo'shimcha ma'no berish yordamida yuzaga keladi, ya'ni bu qo'shimcha ma'no konkretlashtirish, to'ldirish, izohlash, aniqlash kabi kommunikativ funksiyalarga ega. Boshqacha qilib aytganda, temada aytilgan fikrni rivojlantiradi, to'ldiradi. Demak, rema endi oddiy bir gap tarkibidan chiqib, ilova konstruktsiya yoki murakkab sintaktik butunlik tarkibida ijod qiladi.

Remani ilovali elementga tenglashtirish yoki ilovali elementlarni rema funksiyasida talqin qilish ko'pgina olimlarning diqqat markazida bo'lmoqda. Masalan, Ye.A.Referovskaya "rema bu aytilgan fikrga qo'shimcha ma'no anglatuvchi komponentdir, ya'ni ilovali elementning o'zginasidir" – deydi. V.A. Dmitrenko rema to'g'risida Ye.A. Referovskayaning fikrini davom ettirib, bu to'g'risida shunday yozgan: "gapning aktual bo'laklarga bo'linishi, ularning grammatik bo'linishiga nisbatan ijobiy xarakterga ega, bu yerda rema yakunlovchi, tugallovchi komponent sifatida yuzaga keladi. Remaga nisbatan keltirilgan fikr va mulohazalar borgan sari kengayib, aniqlanib, to'ldirilib boriladi, ya'ni rema bu ilovali element, ilovali element bu remaning o'zginasidir degan tushuncha maydonga keladi. Fikrimizning isboti uchun N.A.Frolovaning quyidagi xulosalarini keltirishni o'rinli deb hisoblaymiz: "Ilova konstruktsiya tarkibida – why, sches the most important thing there is. Tom e. And to you Thomas ya'ni – to me and to you Thomas kabi ilovali elementlarning kelishi, ularning faqatgina rema funksiyasida kelishini emas, balki polirema funksiyasida ham kela olishini

isbotlaydi".

N.A. Frolova tomonidan aytilgan mulohaza bu yerda keltirilgan polirema ilovali elementning mono va polifunksionalligini eslatadi. Bu ilovali element faqat rema funksiyasida kelmasdan, balki ana shu rema funksiyasida keluvchi ilovali element uchun tema ham bo'lishi mumkin degan xulosani keltirib chiqaradi.

Ilovali elementlarning gapning aktual bo'linishi komponentlariga nisbatan bo'lgan sintaktik munosabatlarini izohlab berishga juda ko'plab ilmiy maqolalar bag'ishlangan, biroq ularning barchasini bu yerda takrorlab bo'lmaydi. Namuna tariqasida Y.A. Referovskayaning yana bir mulohazasini keltirishni o'rinli deb bilamiz, chunki bu mulohaza ilova konstruktsiya atrofida mavjud bo'lgan ba'zi bir savollarga ijobiy javob tariqasida xizmat qilishi ham mumkin. Jumladan, Y.A. Referovskaya ilovali elementga xos bo'lgan ayrim xususiyatlar to'g'risida shunday yozadi: "Ilovali elementlar hech vaqt avtonomiya holatida bo'lmaydi, ya'ni o'z-o'zini mustaqil idora qila olish huquqiga ega emas, chunki u rema xarakteriga ega, u faqat avtonomiya shaklida o'zi bevosita bog'liq bo'lgan komponent yonida kela olishi mumkin xolos". Haqiqatdan ham, Y.A. Referovskayaning ushbu xulosasi juda ko'plab savollarga javob bo'lishi mumkin. Chunki, ilovali elementning o'zi yakka holda kela olmaydi, faqatgina matn tarkibida, ya'ni murakkab sintaktik butunlik tarkibida ilovali element xususiyatiga ega bo'lishi mumkin. Chunki uning mohiyati "ilova"dir, aytilgan fikrga qo'shimcha ma'no beruvchidir. Uning ilovali element ekanligini faqatgina u yoki bu ilova konstruktsiya tarkibidagina sezish, ko'rish, tahlil qilish mumkin.

Ilovali elementga xos bo'lgan bunday va boshqa xususiyatlar to'g'risida, ya'ni ularning ko'p qirrali, ko'p tomonli funksiyalari to'g'risida maqolamizda qanchalik tahlil qilmaylik, qanchalik izohlamaylik ularning yangi-yangi tomonlari ochilaveradi va izlanish obyektiga aylanaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Адмони В. Г. Пути развития грамматического строя в немецком языке. М., 1973. -С. 171.
2. Крушельницкая К.Г. К вопросу о смысловом членении предложения. Вопросы языкознания, №5. 1956.
3. Распопов И.П. Актуальное членение предложения. Уфа, 1961.-112 с.
4. Реферовская Е.А. Лингвистические исследования структуры текста. Л., 1983. -215 с.
5. Шафира М.Е. К вопросу о присоединении. Вопросы синтаксиса и стилистики рус. литературного языка. Куйбышев, 1963. с. 59-77.

Shaxnoza SAIDRASULOVA,
O'zJOKU Xorijiy tillar kafedrasida o'qituvchisi

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA REKLAMA MATNLARINING TASNIFI VA TURLARI XUSUSIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy ingliz tilining reklama matnlari mazmun-kompozitsion tuzilishi, ya'ni tipologiya va leksik-semantik tadqiqotga bag'ishlangan. Zamonaviy ingliz tilida reklama matnlarini yaratish xususiyatlari maxsus nutq janri sifatida reklama matnining o'ziga xos xususiyatlari tobora ortib bormoqda, tilshunoslarning e'tiborini tortadi, bu, eng avvalo, reklama milliy mentalitetga bevosita bog'liqligi va til jamoasining madaniy o'ziga xosligi bilan izohlanadi.

Kalit so'zlar: reklama, matn, lingvistika, axborot, mahsulot, semantika

Аннотация: данная статья посвящена изучению содержательно-композиционной структуры современных англоязычных рекламных текстов, а именно, типологии и лексико-семантических особенностей построения рекламных текстов в современном английском языке. Специфика рекламного текста как особого речевого жанра все чаще привлекает к себе внимание лингвистов, что объясняется, прежде всего, тем, что реклама непосредственно связана с национальным менталитетом и культурным своеобразием языкового коллектива.

Ключевые слова: реклама, текст, лингвистика, информация, товар, семантика.

Annotation: this article is devoted to the study content-compositional structure of modern English-speaking advertising texts, namely, typology and lexical-semantic features of constructing advertising texts in modern English language. The specifics of advertising text as a special speech genre are increasingly attracts the attention of linguists, which is explained, first of all, by the fact that advertising is directly related to the national mentality and cultural identity of the linguistic community.

Key words: advertising, text, linguistics, information, product, semantics.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi "Reklama to'g'risida"gi Qonunining 11-moddasida aytilishicha, "Mahsulotga qiziqishni shakllantirish va mahsulot realizatsiyasiga ko'maklashish uchun mahsulotning muayyan markasiga (modeliga, artikuliga) yoki uning ishlab chiqaruvchisiga iste'molchining e'tiborini atayin jalb etuvchi, shuningdek, mazkur mahsulotni ishlab chiqaruvchi yoki tarqatuvchi shaxsga taalluqli ma'lumotlar (rekvizitlar)dan iborat axborot material, muallif va tahririyat material – reklama hisoblanadi hamda u "Reklama" yoki "Reklama o'rnida" rukni ostida joylashtirilmog'i lozim."

Reklama iqtisod, lingvistika, psixologiya va lingvokulturologiya, sotsiologiya kabi bir nechta soha kesishmasidagi tushuncha bo'lganligi sababli tadqiqotchilar tomonidan unga turli xil ta'riflar berilgan. "Reklama" so'zi ko'p asrlar mobaynida muhim semantik o'zgarishlarga uchragan lotincha "reklame" (qichqirmoq) va "reklamare" (qattiq qichqirmoq) fe'llaridan hosil bo'lgan. Reklama (lot. reklame — qichqirmoq) — tovarlarning sifati, ularni sotib olishdan ko'riladigan naf haqidagi axborot; bevosita yoki bilvosita foyda (daromad) olish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar yoki mahsulot to'g'risida tarqatiladigan maxsus axborot.

S.I.Ojegov ta'rificha, "Reklama - bu keng tarqalgan shon-sharafni yaratish, iste'molchilar va tomoshabinlarni jalb qilish uchun turli xil usullarda

ogohlantirish". Ushbu ta'rifdan tushunish lozimki, har qanday mish-mishlar, g'iybat va piarlardan to ommaviy axborot vositalarida tarqatiladigan deyarli har qanday mahsulot haqidagi ma'lumot reklama hisoblanadi. Reklamani tor ma'noda tushunadigan bo'lsak, faqat mahsulot va xizmatlar bilan cheklangan. Ammo shaxs, hudud yoki turizm joylari, siyosiy partiyalar kabilar ham o'z o'rnida turlicha usullarda reklama qilinadi.

Metodologiya

AQSHning Shimoli-G'arbiy universiteti marketing professori Filip Kotler tomonidan ham reklama to'g'risida o'ziga xos ta'rif berilgan: "Reklama - bu pul mablag'lari manbai aniq ko'rsatilgan pulli axborotni tarqatish vositasi orqali amalga oshiriladigan shaxsiy kommunikatsiya shakli". S.I.Ojegovning ta'rifidan farqli o'laroq Kotler barcha bepul ma'lumotlar, mish-mishlar va g'iybatlarni rad etadi hamda tovarlar, xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tarqatishda pulli vositalardan foydalanishni ta'kidlaydi. Bizning fikrimizcha, tarqatiladigan barcha mahsulot ta'riflari pulli yoki bepul bo'lishi iste'mol doirasi miqdorini belgilaydi. Ya'ni, reklamaga ko'proq pul sarflash mahsulotning areal va ijtimoiy zonasi kengayishi bilan namoyon bo'ladi.

O'zbek tili izohli lug'atida obyektimiz quyidagicha ta'riflangan: "Reklama (fr. reklame <lot. reklamere – qattiq qichqirmoq). Muayyan tovar yoki xizmat turlari haqida xaridorni xabardor qilish, ularga nisbatan talab ehtiyojni yuzaga keltirish yoki kuchaytirish maqsadida

ana shu tovar va xizmatlar to'g'risida berilgan ma'lumot. Savdo reklamasi – marketing konsepsiyasida mahsulotni sotish tadbirlari majmuasida markaziy o'rinni reklama egallab turadi.”

Muxokama

Ye.V.Medvedeva o'zining “Reklama aloqalari” kitobida quyidagicha yondashadi: “Reklama - bu ommaviy yo'naltirishning bir turi bo'lib, unda bir yo'nalishga ega va shaxsiy bo'lmagan ma'lumotli, majoziy, ekspressiv taklif qiluvchi matnlar yaratiladi va tarqatiladi, reklama beruvchi tomonidan moliyalashtiriladi va odamlar guruhlariga yuboriladi. Reklama beruvchining tanlovi va xatti-harakati munosib baholanadi.”. Ushbu ta'rif barcha reklama turlari (tijorat, ijtimoiy va siyosiy, hatto reklama maqolalari va jamoat munosabatlari)ga xos matnlarni qamrab olgan bo'lib, reklamaning maqsadga muvofiqligi, ya'ni reklamaning shaxsga ma'lum shartlar yoki muayyan harakatlar uchun turtki yaratish maqsadidagi ta'siri haqida fikr yuritadi. Reklama matnidagi taklifning maqsadi iste'molchi his-tuyg'ulariga va ular orqali shaxsning irodasi va ongiga ta'sir qilishdir. L.G.Feshchenko, “reklama matni marketing kommunikatsiyasi sohasida faoliyat yuritadigan kommunikativ birlik” ekanligini ta'kidlaydi.

Reklamaga ta'rif berilgani sayin, uning yangi-yangi qirralari ochilib, ularni yagona qolipga solish murakkab masala ekanligi oydinlashadi. Chunki dunyodagi iqtisodiy va texnikaviy rivojlanishlar davom etar ekan, reklama sohasi ham rivojlanishda davom etadi. Ammo eng muhim jihati o'zgarmaydi. Bu – reklama muloqot turi sifatida qabul qilinadi va iste'molchilarni qiziqtirishda turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Reklamada kommunikatsiya, albatta, ijtimoiy aloqaning ma'lum bir turi sifatida belgilanishi kerak, chunki reklamaning mavjudligi va rivojlanishi bevosita jamiyat bilan bog'liq holda amalga oshadi.

Natijalar

F.Kotlarning ta'rifida diaxron nazariya hisobga olinmaganligi ko'rinib turibdi. Nemis tilshunosi R.Harveg o'z davrida matn lingvistikasini to'liq ilmiy asoslash va tadqiq qilish uchun kamida yuz yil kerakligini to'g'ri ta'kidlagan edi. Reklama - bu alohida faoliyat turi bo'lib, butun insoniyat tarixida alohida o'rin egallab kelmoqda. Uning tabiatini aniq belgilab bo'lmaydi. Buning sababi, reklamaning o'ziga xos qonunlari psixologiya, matematika, statistika, mantiq, sotsiologiya va boshqa bir qancha fanlar kesishmasida paydo bo'lgan bilimlarni birlashtiradi va, albatta, zamonaviy marketingning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

Reklama tushunchasi haqida yuqoridagi ta'riflardan kelib chiqib, quyidagicha izoh berishni ma'qul ko'rdik: Reklama talabgor (ishlab chiqaruvchi yoki xizmat taklif qiluvchi) tomonidan iste'molchilarga muayyan mahsulot, shaxs, g'oya yoki xizmat ko'rsatish, ularning

qulaylik va afzalliklari haqida bevosita yoki bilvosita foyda (daromad) olish maqsadida xabar, tavsiya berish, namoyish qilishdir. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida ishlab chiqarish turlari ko'paydi. Ammo hozirgacha xalqimizda reklama borasida to'la tushuncha rivojlanmagan deyish mumkin. Chunki mahsulot reklamasida og'zaki reklama kuchliroq sanab kelinmoqda. Reklama qilishdan ko'ra tanish-bilishlar tomonidan tavsiya va takliflar bilan fikr bildirish ishonchli vosita bo'lib qolgan. O'zbek xalqi uchun mahsulotning tajribadan o'tgan holda tavsiya qilishlarini qabul qilish odat tusiga aylangan. Ayniqsa, kundalik un, yog', guruch va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari, albatta, kimningdir tavsiyasi bilan xarid qilinadi.

Broker yoki sotuvchi mahsulotni tanlashda ijtimoiy qatlamning moliyaviy holatiga qarab ish yuritadi. Shahar va qishloq iste'molchilari o'rtasida reklama ta'sir doirasining farqi juda katta. Bugungi kunda O'zbekistonda iqtisodiy rivojlanish tufayli ijtimoiy qatlamning moliyaviy ahvoli yaxshilanib, mahsulotni harid qilishda iste'mol madaniyati rivojlandi va reklamaga ehtiyoj kuchayib bormoqda. Reklamaning yo'nalishi yoki turini tanlashda firma yoki talabgor tashkilotdan mahsulotning qaysi tomonini yoritish muhimligini aniqlab olish talab etiladi. Shunga ko'ra, dunyo reklamachilari doirasida tasniflash muammosiga doir ko'plab bahslar bo'lib turadi. Buyurtmachilar uchun qulaylik yaratish maqsadida reklama mahsulotidagi aniq maqsad, qulay sharoit, tanish va notanish holatlarni hisobga olgan holda turlarga ajratishga e'tibor kuchaygan. Reklama tasnifi bo'yicha ilk harakatlar XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lsa-da, ammo hozirgi kungacha reklamaning yagona tasnifi tan olinmagan. Shu davrgacha yagona tasnifga kelinmaganligi sababli reklama tipologiyasini tashkil qilishda, asosan, strategik belgilar hisobga olinadi. Reklama yo'nalishi, ko'rinishi, namoyish joyi va yaratilish holatini mahsulot ishlab chiqaruvchi belgilaydi. Reklamaning qaysi turini tanlashni, albatta, moliyaviy holat belgilaydi.

Xulosa

Bugungi kun iste'molchilarida vaqt tejamkorligi kuchayganligi sabab reklama tarqatuvchi omillardan uzoqlashmoqda va mahsulot bilan yo'l-yo'lakay tanishuv ehtiyoji kuchayib borganligi uchun banner reklamalar, xususan, plakatlardagi namoyish asosiy reklama vositasi bo'lib qolmoqda. Xalqaro miqyosda tan olingan reklama tashish qoidalarida eng samarali vosita – videoreklama rivojlanishda davom etmoqda.

Reklamani tasniflash ko'plab turlarni tahlil qilish va ajratish talab qilinadigan hodisadir. Internet sahifalarida reklamaning 8 ta asosiy turi borligi ta'kidlanadi.

1. Savdo belgisi reklamasi
2. Ulgurji va chakana reklama
3. Siyosiy reklama

4. Manzil-ma'lumotnoma reklama.
5. Fikrlovchi reklama.
6. Korporativ reklama.
7. Biznesga oid reklama.
8. Ijtimoiy reklama.

Rossiyaning eso-online.ru sayti ham xuddi yuqoridagi kabi turlarni ko'rsatadi va shu bilan birga, iste'molchi guruhlariga ko'ra ham 8 ta asosiy turga ajratadi:

1. Maqsadli auditoriya tarkibi - kuchli, o'rta va zaif segmentlangan.
2. Maqsadli ta'sir - tijorat (mahsulot-xizmat) va notijorat (siyosiy va ijtimoiy).
3. Tarqalish kengligi - global, milliy, mintaqaviy, mahalliy.

4. Yetkazish usuli - bosma, elektron, tashqi.
5. Reklama ko'rinishi - matn, vizual, matnli.
6. Ta'sir usuli - bevosita va bilvosita.
7. Maqtash yo'li bilan - nomaqbul va shaxsiylashtirilgan
8. To'lov usuli - bepul va pulli.

A.A.Romanov va V.A.Polyakovlar tasnifida ham masalaniing mohiyati to'liq qamrab olishga harakat qilingan. Reklama ishi keng tarmoqli bo'lganligi uchun ularni tasniflash va turlarga ajratish murakkab masala bo'lib qolmoqda. Chunki mahsulotlar ko'lami kengayib boradi. Tabiiyki, ularni iste'molchilarga yetkazishning yangi yo'llari ham paydo bo'ladi. Ushbu yetkazish yo'llari esa reklama turlarining yangilanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Reklama to'g'risida". PK.723-I-son, 25.12.1998. // <https://lex.uz/docs/25458>
2. Kotler F. Osnovi marketinga. izd. Vilyams, 2007. – S.160. // <https://studfiles.net>.
3. Abdullayeva Sh., Nosirov P., Marketing - bozor iqtisodiyoti asosi, –T., 1994.// <https://uz.wikipedia.org/wiki/Reklama>
4. Petrovskiy M. Slovar literaturnix terminov [Elektronniy resurs] // – M. Petrovskiy // <http://feb-web.ru>
5. Kotler F. Marketing - menedjment. SPb: Piter Kom. 1998. – S. 168.
6. O'zbek tili izohli lug'ati. // Madvaliyev A. tahriri ostida. –T.: O'zbekiston. 2011. – B. 374
7. Medvedeva Ye.V. Reklamnaya kommunikatsiya / Ye.V.Medvedeva. – M.: Yeditorial URSS, 2003. – S.279
8. Feshenko L.G. Struktura reklamnogo teksta: Uchebno - prakticheskoye posobiye. Izd. Peterburgskiy institut pechati, 2003 . – 27-40 s .
9. Harweg R - Textlinguistik – Yn: Prospektiken der Linguistik, Bd.2. – Stuttgart, 1974.
10. Mudrov A.N. Osnovi reklami.Uchebnik. 2-ye izdaniye, pererabotannoye i dopolnennoye. – M.: Magistr, 2008, – S. 397.
11. Romanov A.A., Polyakov V.A. "Reklamniy menedjment", Uchebnoye posobiye:, – M., 2011. – 3 s.

Baxtiyor TURDIYEV,

*Termiz muhandislik-texnologiya instituti
"Avtomatlashtirish va boshqarish" kafedrasasi assistenti
Chirchiq davlat pedogogika universiteti erkin tadqiqotchisi*

BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARNI KASBGA TAYYORLASHDA INDIVIDUAL TA'LIM TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: mazkur maqolada informatika integratsiyasi, individual ta'lim tizimi, ularning tashkil qiluvchilari, informatika o'qituvchisi individual ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy va tarbiyaviy tadqiqotlar, individual ta'lim tizimi va ulardan foydalanish hamda takomillashtirish yo'llari ochiq, aniq ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *pedagogika, integratsiya, individual ta'lim tizimi, maqsad, metod, shakl, mazmun, tashkil etuvchilar, nazorat.*

Аннотация: в данной статье наглядно показаны интеграция информатики, системы индивидуального образования, их организаторы, учитель информатики, научно-педагогические исследования, направленные на совершенствование системы индивидуального образования, системы индивидуального образования и пути их совершенствования, подтверждено.

Ключевые слова: *педагогика, интеграция, индивидуальная система образования, цель, метод, форма, содержание, организаторы, контроль*

Abstract: in this article, the integration of informatics, the individual education system, their organizers, the informatics teacher, scientific and educational researches aimed at improving the individual education system, the individual education system and the ways of their use and improvement are clearly shown. confirmed.

Key words: pedagogy, integration, individual education system, goal, method, form, content, organizers, control.

Kirish. Hozirgi vaqtda rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida bo'lajak pedagog kadrlarni tayyorlash amaliyoti va uning metodikasini takomillashtirishga bo'lgan talablar ko'lami o'sib bormoqda. Shu boisdan ham, tadqiqot ishlarimiz orqali bo'lajak informatika o'qituvchilarini amaliy faoliyatga tayyorlash jarayoni o'zining dolzarbligi bilan ajralib turadiki, bunda ularning individual faoliyat olib borish kasbiy kompetentligini rivojlantirish orqali mazkur muammoning yechimlarini aniqlashda, ushbu maqola ma'lum darajada xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar rivojlanib borayotgan bugungi kunda ta'lim tizimiga ham, ushbu ta'lim texnologiyalari va pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish orqali bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlashning uzluksizligini va izchilligini ta'minlash imkoniyatlari taqdim etiladi. Bunda asosiy e'tibor, tadqiqot ishlarimiz orqali bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratiladi.

Bo'lajak informatika o'qituvchisini kasbga tayyorlashda individual ta'lim tizimlarni takomillashtirish uchun talabalarga:

- Informatika va axborot texnologiya fanining ilmiy-ta'limiy va tarbiyaviy, rivojlangan texnologiya vositalaridan foydalanishni to'g'ri yo'naltirishga o'rgatish;
- O'qitilayotgan informatika fanini zamonaviy texnologiyalar asosida individual ta'lim tizimi orqali moslab borishni aniq qilib tushuntirish;
- Pedagog "Men talabaning bilimni shakllantiraman", "Men fan o'qituvchisiman", "Men talaba yoshlarga tarbiyachiman" g'oyasi asosida bo'lajak informatika o'qituvchisini kasbga tayyorlash;
- Pedagogik faoliyatdagi o'qituvchilarni rag'batlantirish;
- Talabalar orasida bilimli va namunali pedagog bo'lishga rag'batlar, motivatsiya berish va pedagogik fikrlash doirasini rivojlantirib borish;
- Informatika va axborot texnologiya o'qituvchisini individual ta'lim tizimlari asosida tayyorlashda pedagogik, psixologik, amaliy tajriba asosida shakllantirish;
- O'rganayotgan fanida individual ta'lim tizimlari orqali matematik modellashtirish va loyihalashtirish, tajriba va amaliy mavzularni individual ta'lim orqali o'rganish;
- Informatika fanini o'qitishda individual ta'lim metodlari, vositalari, zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalangan holda o'rgatib tushuntirib boorish;
- Talabalarga zamonaviy dasturlarni individual ta'lim metodlari asosida qiziqtirib CAD, CAE, CAM

dasturlarni o'rgatish;

Talabani o'zi bilgan va qiziqqan mutaxassisligidan individual ta'lim metodik maqsadlarini mustaqil ravishda namunali, adolatli boholashda mavjud bo'lgan xatolarni to'g'rilashlariga o'rgatish.

Mavzuning dolzarbligi Tadqiqot ishimizda bo'lajak informatika o'qituvchilarini kasbga tayyorlashda individual ta'lim tizimlarini takomillashtirish orqali bo'lajak axborot texnologiya o'qituvchilarini o'zining pedagogik salohiyatlarini va amaliy faoliyatlarini individual ta'lim tizimi sifatida doimiy takomillashtirib borishlariga qaratilgan yondashuvlarni tatbiq etishni mazkur jarayonning dolzarb muammo sifatida ko'rishimiz mumkin. Individual ta'lim tizimlarining takomillashtirilishi bir yoki bir nechta ta'lim sohasidagi ijtimoiy rivojlanishda o'zining samaradorligi bilan ajralib turadiki, bunda ta'limning uzluksizligi va izchilligi ta'minlanadi.

Xulosa va takliflar: Bo'lajak informatika o'qituvchisini kasbga tayyorlashda individual ta'lim tizimlarini takomillashtirishning asosiy vazifalari quyidagilarni tashkil qiladi:

- Talabalarga individual ta'lim tizimlari asosida o'z mutaxassis fani bo'yicha mavzularida ko'rsatilgan dasturlar asosida kompyuterlardan unumli foydalanish.
- Talabalarga individual ta'lim tizimlarini tashkil qilish tamoyillari (ilmiylikka, tizimlilikka, ko'rgazmalilikka va h.k.)ga asoslanib ma'ruza, amaliy, tajriba darslarni qiziqarli tashkil qilish, tadqiqotchilikka va loyihalashtirishga asoslangan holda, integratsiyalash doirasida innovatsion tizimda faoliyatlarni tashkil qilishga o'rgatib tushuntirib borish, pedagogik o'qituvchilarning mahoratlarini to'g'ri yo'naltirish.
- Ta'limiy yo'nalishlari bo'yicha qo'llaniladigan avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari yordamida masalalarni yechish, modellashtirish, loyihalash va mahsulot dizaynini ishlab chiqish hamda dasturlashning mazmun-mohiyatini bilish, ularga nisbatan talabalarning dunyoqarashini shakllantirish orqali kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlarini namoyon etish.
- Individual ta'lim tizimlarini takomillashtirishda Konvertor dasturlar, nashriyot tizimlari, publisher dasturi, maxsus amaliy dasturlar, tex, latex, equation dasturlarini texnik tizimlardagi elektron hujjatlarni rasmiylashtirishda qo'llash.
- Bo'lajak informatika o'qituvchisini kasbga tayyorlashda talabalarga raqamli texnologiyalar davrida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash usul va vositalari, kompyuter modellashtirish, dasturlash texnologiyalarining tamoyillarini o'rgatish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

• Bo'lajak informatika o'qituvchisini kasbga tayyorlashda sohaga oid jadval ma'lumotlarini guruhlash, tartiblash, saralash va filtrlash, umumlashgan elektron jadvallar bilan ishlash texnologiyasi vositalari va ularni muhandislik masalalarini yechishda qo'llay olish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.Mavlonova, N.Raxmonqulova. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. – T., 2009.
2. P.A.Mavlonova, B.Normurodova, N.Rahmonqulova. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi". – T.: Fan, 2007.
3. A.T.Kenjabayev, M.M.Ikramov, A.Sh.Allanazarov. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat nashriyoti, 2020.
4. M.T.Azimjanova, M.T.Muradova, M.S.Pazilov. Informatika va axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat nashriyoti, 2020.
5. .S. Qosimov. "Axborot texnologiyalari". Texnika oliy o'quv yurtlari bakalavriat bosqichi talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan. – Toshkent, 2016.
6. Erien H Glendinning, John McEwan, Oxford for inglisch. Information texnology. Printed China. 2016
7. P.Ф.Сузи, Язык программирования Python, М.:Национальный открытый университет "ИНТУИТ", 2016 (Основы информационных технологий)
8. Erien H Glendinning, John McEwan, Oxford for inglisch. Information texnology. Printed China. 2016

Islomjon TURDIYEV,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
O'zbek tili va adabiyoti universiteti*

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI ISH YURITISH TERMINLARINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI QIYOSI

Annotatsiya: so'zlarning semantik xususiyatlari so'zlarni tavsiflash va farqlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan ma'noning turli tomonlarini anglatadi. Bu xususiyatlar so'zning ta'rifi, uning sintaktik xususiyatlari, boshqa so'zlar bilan bog'lanishi, dunyo va inson tajribasi bilan bog'liqligi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin. So'zlarning semantik xususiyatlarini aniqlash va ifodalashning bir necha yondashuvlari mavjud va turli lingvistik nazariyalar va hisoblash modellari ushbu mavzu bo'yicha o'z nuqtayi nazarlarini taklif qiladi.

Kalit so'zlar: *leksema, lug'at, ish yuritish terminlari, semantik tahlil, til, terminologiya.*

Annotation: semantic features of words refer to different aspects of meaning that can be used to describe and differentiate words. These features can include information about a word's definition, its syntactic properties, how it relates to other words, and how it relates to the world and human experience. There are several approaches to identifying and representing the semantic properties of words, and various linguistic theories and computational models offer perspectives on the subject.

Key words: *lexeme, dictionary, office work terms, semantic analysis, language, terminology.*

Аннотация: семантические особенности слов относятся к различным аспектам значения, которые можно использовать для описания и дифференциации слов. Эти функции могут включать информацию об определении слова, его синтаксических свойствах, о том, как оно соотносится с другими словами и как оно связано с миром и человеческим опытом. Существует несколько подходов к выявлению и представлению семантических свойств слов, а различные лингвистические теории и вычислительные модели предлагают взгляды на этот предмет.

Ключевые слова: *лексема, словарь, деловые термины, семантический анализ, язык, терминология.*

Kirish. Semantik xususiyatlarni ifodalashning muhim asoslaridan biri Charlz J. Fillmor tomonidan ishlab chiqilgan semantik xususiyatlar nazariyasidir. Bu nazariyaga ko'ra, so'zlarni jonlilik, kishilik, faollik, tetiklik kabi ma'no belgilariga ko'ra tavsiflash mumkin. Bu xususiyatlar so'z ma'nosining asosiy jihatlarini qamrab olish uchun ishlatiladi va ko'pincha semantikaning hisoblash modellarida qo'llaniladi. So'zlarning ma'nosini ifodalashning yana bir ta'sirchan yondashuvi semantik tarmoqlar yoki vektor tasvirlaridan foydalanishdir. Bunday yondashuvda so'zlar yuqori

o'Ichovli semantik makonda nuqta sifatida ifodalanadi va so'zlarning semantik xususiyatlari bu nuqtalarning bir-biriga nisbatan o'rni bilan tutiladi. Ushbu tasvirlarni yaratish va manipulyatsiya qilish uchun so'zlarni joylashtirish va taqsimlash semantikasi kabi usullar qo'llaniladi. Ushbu rasmiy yondashuvlardan tashqari, so'zlarning semantik xususiyatlariga oid ko'plab psixologik va kognitiv tadqiqotlar mavjud. Ushbu tadqiqot so'z ma'nolarining aqliy ifodasi, so'zni tushinishda kontekstning roli va leksik kirish va so'z ma'nosini izlashda ishtirok etadigan kognitiv

jarayonlarga oid tadqiqotlarni o'z ichiga oladi.

Asosiy qism. Ingliz va O'zbek tillarida ish yuritish sohasiga oid terminlar o'z holicha kichik bir tizimdir va, albatta, bu ikki tildagi ish yuritish terminlarning semantik tuzilishida umumiy va farqlovchi jihatlarni aniqlash, terminlarning ifoda planida mavjud imkoniyatlarni tadqiq qilish esa bu ikki tildagi o'zaro hujjat almashinuvidagi ma'lum bir g'alizliklarga yechim berishga yordam berishi shubhasiz. Ingliz va o'zbek tillarida ish yuritish terminlarining tadqiqida ma'lum bir izohli lug'atlar asos sifatida olinadi. Xususan, o'zbek tilidagi so'zlarda sememalarni belgilash yoki ko'p sememali leksema sememalarni farqlash uchun bugungi kungacha tayanch manba vazifasini, asosan, "O'zbek tilining izohli lug'ati" o'tab kelmoqda. Lekin Ingliz tilida ayni bir lug'at turi asos qilib olinmagan, shunga qaramasdan eng ko'p qo'llaniladigan sifatida "Oxford English Dictionary", "Cambridge learner's dictionary" Merriem-Webster English Dictionary" va "Longman English dictionary" larni keltirishimiz mumkin. Ushbu dissertatsiyada Ingliz tilidagi ish yuritish terminlarining, asosan, "Cambridge learner's dictionary" lug'atidagi ma'nolari "O'zbek tili izohli lug'ati" bilan taqqoslanadi. Leksik sathda alohida tizim sifatida qaralmasada ushbu terminlar huquqshunoslikka oid pometalari ostida beriladi va ularning ma'noviy xususiyatlari hamda lisoniy ahamiyati masalasi xususida bahs olib borilganda tizim leksemalarining semantik tarkibi, tabiati ham O'TILdagi tavsif, talqin va misollar asosiy manba sifatida olinadi. Holbuki, ingliz tilida ushbu terminlar alohida pometa ostida emas, u beradigan ma'no qaysi kontekstda qo'llanilishiga qarab qavs ichida beriladi. Masalan:

Administration noun (MANAGEMENT): the people in an organization who manage its business and operations; The decision to cancel the trip was made by the school administration.

O'TILda huq. (yoki jur.) pometalari ostida beriladigan ish yuritish terminlariga oid leksemalarning semantik tavsifini tadqiq qilish va bu terminlar bo'yicha umumiy xulosalarga kelish orqali ushbu terminlarning umumfilologik izohli va tarjima lug'atlaridada berilishiga doir mezonlarni belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslikning sistem-struktur yo'nalishi asoschisi bo'lmish Ferdinand de Sossyur ta'kidlaganidek butun bir sistema o'z ichida bir qancha tarkibiy qismlarga ajralish xususiyatiga egadir: "Til yaxlit bir butunlikni tashkil qiluvchi elementlarning sistemasi. Uni tashkil etuvchi har bir elementning ma'nosi bir paytning o'zida shu sistemani tashkil qilayotgan boshqa elementlarning mavjudligiga asoslanadi" [1]. Har bir tildagi leksik tarkibini tashkil etuvchi barcha kichik sistemalar o'zidan kattaroq bo'lgan boshqa sistemaning tarkibidagi element sifatida bo'ladi. Har qanday butunlikda esa quyidagilar aks etadi: 1) ko'plab elementlardan iborat butunlik; 2) yaxlitlikni tashkil etuvchi elementlar; 3)

elementlar o'rtasidagi barqaror munosabatlar [2].

Yuqorida qayd etilganidek, ish yuritish terminlari huquqshunoslik terminlari tarkibida bo'ladi. Bu holat Ingliz va o'zbek tillarida ham bir xil uchraydi. Tilshunos olimi M.Ergasheva semantik maydon haqida fikr yuritib shunday deydi: "Semantik maydon alohida til sistemasi sifatida murakkab lisoniy strukturaga ega. Maydonning struktur o'zagini barcha paradigmatik guruhlar yig'indisi tashkil etadi. Paradigmatik munosabatlar turli xil xarakterda, u yoki bu mazmuniy belgilari bilan yaqin bo'lgan leksik birliklarning har xil sinflari yordamida namoyon etilishi mumkin. Paradigmatik munosabatlar bir chiziqli emasligi bilan farqlanadi" [3]. Bu munosabat terminologik sistemalarga xos hisoblanib huquqshunoslik terminlari tarkibida bo'lgan ish yuritish terminlari misolida ham ko'rish mumkin bo'ladi. Ma'lumki, leksik birliklarning mazmuniy va leksik-semantik xususiyatlari semasiologiyaning eng muhim vazifalaridandir. Mazmuniy tuzilish esa leksik ma'no, ma'no ottenkasi hamda hissiy-ekspressiv ottenkani o'z ichiga oladi [4]. Ingliz va O'zbek tillari izohli va boshqa lug'atlarining yaratilish jarayonida ham ushbu vazifalar amalga oshirilgan, hamda qat'iy tuzilgan reja, mavjud alohida qo'llanma va yo'riqnomalar asos qilib olingan. Bularga misol qilib S.F.Akobirovning "O'zbek tilining izohli lug'ati"ning chegaralari va manbalari haqida"gi maqolasi, akademik A.Hojjiyev tomonidan tuzilgan "O'zbek tilining ko'p jildli izohli lug'atini tuzuvchilar uchun yo'riqnoma" larni keltirish mumkin. Mazkur qo'llanmalar ikkala izohli lug'atni yaratish jarayonida miqdorni belgilash va termin tanlashda amaliy vosita bo'lib xizmat qilgan. Lug'atni ishlab chiqish jarayoni lug'atning maqsadga muvofiq bo'lishi uchun undan foydalanayotgan odam soha bo'yicha bilimiga ega bo'lmasligi mumkinligini ham inobatga olish muhim ahamiyatga egadir. Lug'at yaratish jarayonining markazida so'zlarni to'plash, lug'at yozuvlarini tasniflash va semantik tadqiqotlarni osonlashtirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan semantik sohalar katalogi mavjud. Bu ro'yxat amhar, xitoy, ingliz, fransuz, hind, indoneziya, nepal, rus, portugal, ispan va suahili kabi qator tillarda mavjud[5]. Ingliz tilidagi terminlar o'zbek tilidagi o'xshashlarga qaraganda ko'proq aniq xarakterga ega; ko'p holatlarda tor ma'noli so'z va so'z birikmlari bo'ladi, masalan: agreement - a decision or arrangement, often formal and written, between two or more groups or people; Contract - a legal document that states and explains a formal agreement between two different people or groups, or the agreement itself; Deal - an agreement or arrangement, esp. in business:

Ushbu terminlarning barchasi umumiy "kelishuv" ma'nosiga ega bo'lsa-da, ular semantik jihatdan tadqiq qilinganda ular o'rtasidagi tafovutlarni aniq bilish mumkin. So'zlarni tarjima qilishda o'zgarishlar murakkab bo'lishi mumkin. Ham alohida so'zlarning, ham umumiy jumalarning transformatsiyasi mavjud.

Leksik birliklar umumiy ichki shaklga va o'xshash semantik komponentlarga ega bo'lmasa-da, ular turli tillarda ifodalangan semantik tarkibni yetarlicha yetkazadi.

Xulosa. Umuman olganda, semantik xususiyatlarni o'rganish rasmiy lingvistik nazariyalarni, hisoblash modellarini va kognitiv psixologiyani o'z ichiga olgan keng va ko'p tarmoqli sohadir. Bir qator lingvistik, hisoblash va psixologik nuqtayi nazarlarni hisobga

olgan holda, tadqiqotchilar so'z ma'nosining boy va murakkab tabiatini yanada to'liqroq tushinishlari mumkin. Ingliz tilidagi ish yuritish terminologiyasining semantik tahlili huquqiy atamalarning ma'nolarini chuqur o'rganishni o'z ichiga olgan murakkab va ko'p qirrali vazifadir. Yuridik til o'zining aniqligi, o'ziga xosligi va tarixiy ildizlari bilan ajralib turadi, bu esa uning o'ziga xos semantik tuzilishiga yordam beradi.

Fodalanilgan adabiyotlar

1. Соссюр Ф. Труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1977. – С. 147.
2. E.Sabirova "O'zbek tilining izohli lug'ati"da huquqiy terminlarning berilishi. diss. 2022.
3. Ergasheva M. Olamning lisoniy manzarasi va semantik maydonlarga bo'linishi. «Молодой учёный». №3.1 (107.1) Filologiya . Fevral, 2016. 62-bet.
4. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. – М., 1959. – С 57.
5. <https://www.sil.org/dictionaries-lexicography/dictionary-development-process>

Odina USMONOVA,
Andijon davlat universiteti

TAOM NOMLARINI KONSEPT SIFATIDA O'RGANISH

Annotatsiya: maqolada lingvistik va madaniy tahlil jarayonida taom nomlarini ko'rib chiqish va gastronomiya, turmush tarzi va qadriyatlarning xususiyatlarini modellashtirish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: *kognitologiya, konsept, lingvokulturologiya, mentalitet, antropologiya, etnolingvistika, konstruksiya, estetika, paradigma, leksikologiya.*

Konseptning mohiyatini aniqlash masalasi zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda dolzarb vazifalardan bo'lib qolmoqda. Konseptual tizim shaxsning dunyoqarashini shakllantiradi, uning voqelikni tushunishini aks ettiradi. Odam nafaqat moddiy obyektlar sohasida, balki ularning intellektual, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlariga moslashtirilgan konseptlar dunyosida ham mavjuddir. Konseptlarning muammoli sohasini o'rganish va dunyoning lingvistik manzarasini tushunish kognitiv tilshunoslikning ilmiy tadqiqot sohasidir. Bu mental dunyoni ifodalovchi va odamlarning atrof-muhit haqidagi qarashlarini qamrab oladigan, tushunchalar deb nomlanuvchi minimal birliklarga joylashtirilgan konseptual sohani o'rganishni o'z ichiga oladi. "Konsept", "tushuncha" va "ma'no" kabi terminlar ko'pincha bir-birining o'rnida ishlatiladi. Konsept hissiy va ifodali ma'nolar bilan to'yintirilib, natijada, u turli g'oya, tasvir va bilim bilan bog'liq bo'ladi. Shaxsiy ong tomonidan qayta ishlanadigan konseptdan farqli o'laroq, konsept murakkab ifoda shakllarini: hissiyot, imtiyoz, nafrat va ba'zan hatto nizolarni talab qiladi. Konsept obyektning tan olingan fundamental xususiyatlarining to'plami. U dunyo manzarasining mental komponenti bo'lib xizmat qiladi, lingvistik va madaniy bilimlarni qamrab oladi. Frazologik, leksik va boshqa lingvistik vositalar

konseptni turli yo'llar bilan yetkazadi. Agar konseptni lingvistik bilishning belgisi sifatida ko'rib chiqsak, u, haqiqatan ham, til bilan chambarchas bog'liq bo'lgan aqliy prinsipni aks ettirishi mumkin.

Shuning uchun konsept, ma'no va konseptosferani farqlash masalasi zamonaviy tilshunoslikning dolzarb va muhim vazifasi bo'lib qolmoqda. Konsept, tushuncha va ma'noning asosi, mazmuni va ko'lamini taqqoslab, ularning farqlanishini aniqlash mumkin. Konsept milliy xususiyatlardan mustaqil ravishda mavjud bo'lgan ma'noni anglatadi, u mantiqiy fikrlash orqali yetkaziladi. Konseptning namoyon bo'lish doirasi har tomonlama xilma-xil va kengdir. Lingvokulturologik yo'nalish tarafdorlari konsept tushunchadan ancha keng ma'noga ega, deb hisoblashadi. Ularning fikricha, konsept mazmuni nafaqat belgilangan kategorik xususiyatlarni, balki barcha tegishli madaniy ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi. Bu nuqtayi nazar N.D.Arutyunova, V.V.Kolesov, Z.D.Popova, I.A.Sternin, Yu.S.Stepanov, V.N.Teliya, L.O.Cherneyko kabi olimlar tadqiqotlarida ham ilgari surilgan. Jumladan, N.D.Arutyunova konseptni milliy an'ana, folklor, din, mafkura, hayotiy tajriba, badiiy obraz, his-tuyg'u va qadriyatlar tizimi kabi omillarning o'zaro ta'siri natijasi paydo bo'lgan amaliy falsafa tushunchasi sifatida izohlaydi. Konsept "inson va

dunyo o'rtasida vositachilik qiluvchi o'ziga xos madaniy qatlamni tashkil qiladi. [1]

L.O. Cherneyko esa "konsept tushunchani o'z ichiga oladi, lekin u bilan cheklanmaydi, balki so'zning butun mazmunini – denotativ va konnotativni qamrab oladi, bu madaniyat tashuvchilarining so'z ortidagi hodisaning tabiati haqidagi g'oyalarini aks ettiradi", deb ta'kidlaydi. G.G.Slishkinning fikricha, "konsept til, ong va madaniyatni har tomonlama o'rganishga qaratilgan shartli tadqiqot birligidir". Bundan tashqari, konsept "ona tilida so'zlashuvchilarning milliy xotirasida kognitiv substrat shaklida saqlanadigan haqiqiy yoki ideal dunyo obyektini aks ettiruvchi ongning har qanday diskret mazmunli birligi", deb tushuniladi.[2] "Konsept" atamasi ko'pincha antroposentrik jihatdan ishlatiladi, u verbal bayon qilingan, ma'lum bir tushuncha bilan bog'liq bo'lgan, lekin u bilan cheklanmagan aqliy shakllanishni aks ettiradi. Lingvokulturologik yondashuv konsept tushunchasini madaniyatning asosiy birligi, uning konsentrat sifatida tan olgan. Yu.S.Stepanov konseptning tuzilishiga "uni madaniyat faktiga aylantiradigan hamma narsa, jumladan, asl shakli (etimologiya); tarkibning asosiy xususiyatlariga kelib chiqish tarixi; zamonaviy tashkilotlar; baholash va boshqalar kiradi", deb hisoblaydi.[3] "Lingvokulturologik konsept" olimlar tomonidan lingvistik va madaniy tadqiqotlar birligi sifatida tan olingan, chunki uning asosiy vazifasi, S.G.Vorkachov ta'kidlaganidek, "o'z semantikasida milliy mentalitetni etnik guruh va milliy xarakterning mafkuraviy hamda xulq-atvor xususiyatlari to'plami, lingvistik shaxsning ma'naviy hayotining nisbatan barqaror va ajralmas ombori sifatida aks ettirish qobiliyatidir". [4] Lingvokulturologiyada konseptning milliy-madaniy semantik sohalari aniqlash uchun kognitiv yondashuv keng qo'llaniladi. Kognitiv tilshunoslikda konsept mental birlik shaklida, ona tilining kategoriyalarida va o'z navbatida, milliy-madaniy tipik xarakterda aks etadi.[5] Madaniyat murakkab va ko'p qirrali tizim bo'lib, uning markaziy bo'g'ini konseptdir. Aynan konsept odamlarning ongi, tafakkuri va tilini birlashtiradigan vazifani bajaradi. Milliy madaniy konsept – bu milliy mentalitetni, milliy xarakterning o'ziga xos xususiyatlarini baholashga imkon beradigan bilim, tajriba va odamlar turmush tarzining "to'plovchisi"dir. Madaniyatlararo muloqot sharoitida ushbu bilim alohida qiziqish uyg'otadi, bu vaziyatda konsept madaniy va madaniyatlararo muloqot jarayonida vositachi vazifasini bajaradi. Konseptual tahlil usullariga ko'ra, milliy komponentni o'z ichiga olgan lingvistik birliklarga murojaat qilish ushbu birliklarning semantikasiga xos bo'lgan madaniy ma'nolarni ochib berishga va shu bilan konseptning mazmunini aniqlashga imkon beradi.

Taom nomlarini konsept sifatida o'rganish ma'lum bir xalqning dunyoqarashi va qadriyatlarini idrok etishning kalitidir. Bu sohani rivojlantirishda tilshunoslik va

kulturologiya fanlari integratsiyasi muhim o'rin tutadi. Lingvistik va madaniy tahlil jarayonida taom nomlarini ko'rib chiqish mumkin. Bu gastronomiya, turmush tarzi va qadriyatlarining xususiyatlarini modellashtirishga imkon beradi. Turli madaniyatlarda "taom nomlari" konseptini o'rganish juda muhimdir. Jumladan:

1. Bu turli xalqlar o'rtasidagi ovqatlanish tarixi va an'analarni yaxshiroq tushunishga, umumiy va noyob narsalarni ko'rishga imkon beradi. Masalan, non Yevropada, guruch esa Osiyoda mashhur.

2. Taomlarni nomlash, ingredient va pishirish usullarining kelib chiqishini tahlil qilish ma'lum bir millatning urf-odatlarini, e'tiqodlari va turmush tarzi haqida qimmatli madaniy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

3. Gastronomik leksika, etimologiyani taqqoslash dunyoning turli oshxonalarini o'rtasidagi lingvistik va tarixiy o'zaro ta'sirlarni ochib beradi.

4. Chet el oziq-ovqat nomlarini tahlil qilish, o'zga madaniyatga qarash, ularning yashash joylari va ovqatlanishining o'ziga xos xususiyatlarini tushunishning muhim usuli bo'lishi mumkin.

Gastrolingvistikani madaniyatlarni o'rganish usuli sifatida ko'rib chiqish, tahlilning bir nechta istiqbolli yo'nalishlarini aniqlashga imkon beradi. Masalan:

1. Evolyutsion tahlil. Sivilizatsiya tarixi davomida ovqatlanish an'analari va taomlarning nomlari qanday o'zgaragan, bu ularning madaniyati va texnologiyasining rivojlanishi haqidagi tahlildir.

2. Falsafiy tahlil.

3. Lingvokognitiv tahlil. Muayyan sivilizatsiyaning kognitiv qobiliyatlarining o'ziga xos xususiyatlari (makon va vaqtni idrok etish, mantiq, xotira) ularning gastronomik lug'ati va frazeologiyasini tashkil qilishda qanday namoyon bo'lishini tahlil etadi.

4. Etnopsixolingvistik tahlil. Etnik guruhning milliy xarakteri, temperamenti va ijtimoiy munosabatlari ularning oshpazlik an'analari va tilining o'ziga xos xususiyatlarida qanday aks etishini namoyon etadi.

Shunday qilib, gastrolingvistika barcha madaniyatlarning xilma-xil qirralarini modellashtirish uchun universal vositaga aylanishi mumkin. XVII asrdan boshlab fransuz oshxonasi xomashyo va maxsus taomlar uchun yangi, sun'iy nomlarni taqdim etdi. Ushbu tendensiya XVII-XVIII asrlarda boshqa Yevropa mamlakatlariga tarqaldi. Bu esa guruch bilan no'xat pyuresi, no'xat sho'rva, perlova yormasi sho'rvasi, mol go'shti va qo'y go'shtidan tayyorlangan taomlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Taom nomlari o'ziga xos xususiyatlarga ham ega bo'lib, ular madaniy, oshxona va tijorat sharoitlariga qarab farq qilishi mumkin. Jumladan:

1. Tarkibi va tayyorlash usulining aks etishi. Taomlarning ba'zi nomlarida ular qaysi ingredientlardan tayyorlanganligi yoki qaysi pishirish usuli qo'llanilishi haqida ma'lumot bo'lishi mumkin. Masalan,

“Teriyaki tovug’i” taomning teriyaki retsepti bo’yicha tayyorlanganligini ko’rsatadi.

2. Madaniy va tarixiy jihatlar. Taom nomlari mintaqaviy kelib chiqish, urf-odat yoki madaniy hamda tarixiy jihatlarni aks ettirishi mumkin. Masalan, “paelya” – bu pishirilgan taomlar nomi bilan atalgan an’anaviy ispan taomidir.

3. Marketing maqsadlari. Zamonaviy pishirishda taom nomlari e’tiborni jalb qilish va taomning o’ziga xos qiyofasini yaratish uchun ishlab chiqilishi mumkin. Bunga potensial mijozlarda qiziqish uyg’otish uchun ijodiy nomlardan foydalanish kiradi.

4. Ramziy ma’no. Taomlarning ba’zi nomlari ramziy ma’noga ega bo’lishi yoki ba’zi voqea va bayramlar bilan bog’liq bo’lishi mumkin. Jumladan, “Pasxa kulichi (pirog’i)” – provaslav Pasxa uchun tayyorlangan ramziy taomdir.

Ko’rinadiki, taom nomlari ularning tarkibi, kelib chiqishi, madaniy va tarixiy jihatlarini aks ettiradi, shuningdek, tijorat maqsadlarida ishlatilishi mumkin. Shunday qilib, gastronomik konseptlarini o’rganish jamiyat rivojlanishi va uning qadriyatlarini to’g’risida har tomonlama tushuncha beradi. Bizning fikrimizcha, “taom” konsepti badiiy asarlar – folklor, adabiyot va jurnalistik materiallarda juda keng tarqalgan bo’lib, inson hayotini saqlab qolish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu konsept chuqur madaniy ildizlarga ega va uzoq vaqtdan beri mavjud bo’lib, madaniyatshunos, antropolog va etnolingvistlarning o’rganish mavzusiga aylangan. Ushbu hodisa tadqiqotchilarining ta’kidlashicha, mifologiyada “taom” tushunchasining ko’lami uning “tabiat-madaniyat” oppozitsiyasidagi o’rni bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Н. Д. Арутюнова. Логический анализ языка. Ментальные действия. – М.: Наука, 1993. – С. 3-6.
2. Бабушкин А. П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. – Воронеж. 1996. – 103 с.
3. Степанов Ю. С. Концепты. Тонкая пленка цивилизации. М.: Языки славянских культур, 2007. – 248 с.
4. Воркачёв С. Г. Концепт как «зонтиковый термин». Язык. Сознание. коммуникация. Вып. 24. М.: 2003. – С. 5-12.
5. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: 2001. – 208 с.

Xurshida XAYDAROVA,

QarDU tadqiqotchisi, Qarshi shahridagi Prezident maktabi o’qituvchisi

TAQLID SO‘ZLARINING SINONIMIK GURUHLARDA TALQIN QILINISHI (5 JILDLI O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATI ASOSIDA)

Annotatsiya: mazkur maqolada 5 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da mavjud taqlid so‘zlarning ma’nodoshligiga ko‘ra tahlil qilindi. Taqlid so‘zlarni sinonimik guruhlariga birlashtirgan holda jamlab, izoh va misollar keltirish orqali tavsiflangan.

Kalit so‘zlar: *taqlid so‘zlar, izoh, illyustrativ misol, ko‘p ma’noli so‘zlar, ma’nodosh so‘zlar, ko‘chma ma’no.*

Аннотация: в данной статье были проанализированы слова-имитаторы в 5-томном «Аннотированном словаре узбекского языка» по значению слов. Подражание описывается путем объединения слов в синонимические группы, с пояснениями и примерами.

Ключевые слова: *слова-сравнения, пояснение, иллюстративный пример, многозначные слова, синонимы, переносное значение.*

Annotation: in this article, the 5-volume "Annotated Dictionary of the Uzbek Language" has been analyzed according to the semantic meaning of the taqlid words. Imitation is described by combining words into synonymous groups, giving explanations and examples.

Key words: *simile words, explanation, illustrative example, polysemous words, synonyms, figurative meaning.*

Ma’lumki, qaysi tilda ma’nodosh so‘zlar ko‘p uchrasa, o’sha til boy til hisoblanadi. Ya’ni tildagi so‘zlarning turli ma’no ottenkalarni ifodalay olishi til imkoniyatlarini kengaytirib, turli ma’no nozikliklarini ko’rsata olish imkonini beradi. O‘zbek tilidagi so‘zlarning ko‘pchiligi o‘z ma’nodoshlariga ega, shu jumladan taqlid so‘zlarda ham ma’nodoshlik ko‘p uchraydi. Tilimizda mavjud ko‘pchilik so‘zlarning ma’nodoshlari borligiga asoslanib o‘zbek tilini ham boy tillar qatoriga

kiritish, fikrimizcha, to’g’ri bo’ladi.

Nutq hamisha rang-barangligi, turlichaligi bilan ajralib turadi. Nutqning vazifasi tilning turli sathlarini, bu sath birliklarining mazmun va vazifalarini nutq sharoiti bilan, so‘zlovchining maqsadi va imkoniyatlari bilan uyg’unlashtirib, muayyan holda fikr almashtirishni ifodalashdan iborat bo’ladi [1].

Ma’nodosh so‘zlar bir umumiy ma’noga ega bo’lsa ham ular bir-biridan ovozning baland-pastligiga,

ijobiy yoki salbiy bo'yoqqa egaligiga, uslubiga, faol-nofaolligiga, tezligiga, hosil bo'lish vaziyatiga va boshqa belgilariga ko'ra farqlanadi. Shuningdek, ma'nodosh so'zlarni bir-birining o'rnida doimo almashtirib bo'lmaydi. Mazmuni o'xshash bo'lgan so'zlardan tashkil topgan qator sinonimik qatorni tashkil qiladi. Ushbu qatoridagi eng faol bosh (dominanta) so'znigina kengroq qo'llash mumkin. 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" ni tahlil qilib, lug'atda mavjud taqlid so'zlarni sinonimik uyalarga birlashtirib, bir umumiy sinonimik uyaga mansub bo'lishiga qaramasdan o'z ichidan xususiylik kasb etuvchi, bir-biridan farqlanuvchi sinonim taqlidlarni mazkur maqolada kengroq izohlaymiz.

Quyidagi so'zlar 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" da ayn. pometasi bilan berilgan bo'lib, ma'nodosh taqlid so'zlar hisoblanadi. Masalan, bag'ir-bug'ur, bag'-bug'; biqir-biqir, biq-biq; vang-vang, ang-ang; varaq-varaq, jaraq-jaraq, charaq-charaq; vij-vij, bij-bij; visir-visir, pichir-pichir, shivir-shivir; gungur-gungur, gangir-gungur; gurra, gur; gusur-gusur, gurs-gurs; dang-dung, dang'-dung'; dangir-dungur, dang'ir-dung'ur, dang'-dung'; dikang-dikang, dik-dik, dik, jangir-jungur, jingir-jingir; kasir-kasir, kasir-kusur; g'irch, g'irt; g'it, g'iyt; g'iq, g'iyt; g'uvur, g'ovur; g'ult, qult; g'o'dir, g'udur; g'o't-g'o't, g'at-g'at; hingir-hingir, hiring-hiring [4].

Ma'lumki, til inson tafakkuri sifatini ta'minlashga va istalgan obyektga nisbatan mantiqan to'g'ri o'ylashga o'rgatadi. Bu uning me'yor va qoidalari yordamida, shuningdek, simvollar sifatida namoyon bo'ladigan belgilar yordamida amalga oshadi. Shuning uchun obyekt qanchalik murakkab bo'lsa, u shunchalik murakkab belgilar tizimi orqali aks etadi. Bilish obyektining real murakkabligi tadqiqi tilning ilmiy tahliliga bog'liq va bunda til ongni ifodalovchi shakl va vosita ekanligi ko'zga yaqqol tashlanadi [2].

"Til – tushunchalarni ifodalovchi belgilar sistemasidir", – deb qisqa ta'rif bergan edi Ferdinand de Sossyur. Biroq bu ta'rifda dunyochoa mazmun bor. Chunki tildagi "tushunchalarni ifodalovchi belgilar" undagi barcha birliklarni (fonema, morfema, so'z, so'z birikmasi, gap) qamrab oladi. Tilning har bir bosqichi - fonologiya, morfonologiya, morfologiya, leksika, sintaksis va stilistika ham o'z sistemasiga, to'g'riroq aytganda, "kichik sistema" siga egadir. Shu tufayli til butun bir sistemalar sistemasini sifatida tushuniladi [3].

5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" da mavjud mazmuni o'xshash taqlid so'zlarni sinonimik uyalarga jamlangan tasnifi: 1. Shovqinli jarayonlarni bildiruvchi sinonim taqlid so'zlar: bag'-bug', bag'ir-bug'ur, vang', vag'ir-vug'ur, chuvur, chuv-chuv, chug'ur, chug'ur-chug'ur, shovur, shovur-shuvur, shov-shuv, qiy-chuv. Ular turli nutqiy vazifa bajaradi. Masalan, Shov-shuv va qiy-chuv asosan ot so'z turkumi vazifasida kelib, keng ko'lamda qo'llaniladi. 2. So'zlashuv jarayonini bildiruvchi sinonim taqlid so'zlar: bidir-bidir, bijir-bijir, biljing-biljing, g'ing'ir-g'ing'ir, g'iring-g'iring, g'iring-

piring, g'o'ldir-g'o'ldir, ming'ir-ming'ir, pichir-pichir, shivir-shivir. Bidir-bidir juda ham tez, labi-labiga tegmay gapirishda; biljing-biljing ezmalik qilish, o'rinsiz gapni ko'paytirishda; g'ing'ir-g'ing'ir anglab bo'lmas darajada noaniq, eshitilar-eshitilmas gapirishda; gangir-gungur, gungur-gungur ko'pchilikning qizg'in, tortishuvli suhbatidan hosil bo'lgan shovqinni ifodalashda qo'llaniladi. Ulardan bidir-bidir, bijir-bijir, biljing-biljing, g'ing'ir-g'ing'ir, g'iring-g'iring, g'o'ng'ir-g'o'ng'ir salbiy mazmuni; gangir-gungur, gungur-gungur so'zlari esa ijobiy mazmun, ko'tarinkilikni ifodalaydi. 3. It ovozigina taqlidni bildiruvchi sinonim so'zlar: ak-ak, ang-ang, vang-vang, vov, uv, hov. Ang-ang itning kaltak yoki boshqa narsa azobidan chiqaradigan tovushini, vov, hov hurishni, uv cho'ziqroq hurishni ifodalaydi. 4. Yo'tal tovushiga taqlidni bildiruvchi sinonim so'zlar: uxu, o'ho'. Ushbu so'zlar ham bir-biridan ovozning baland-pastligiga ko'ra farqlanadi. 5. Hasharotlarning tovushiga taqlidni bildiruvchi sinonim so'zlar: biz-biz, viz, g'ing, g'o'ng. Biz-biz vizillagan nozik tovushni; viz tez aylanuvchi va tez harakat qiluvchi tovushni; g'ing pashsha, ari kabi qanotli hasharotlarning uchgandagi ovozini; g'o'ng – qo'ng'iz, qovog'ari kabi hasharotlarning tovushini bildiradi. 6. Suyuqlikni bosish jarayoniga taqlidni bildiruvchi sinonim so'zlar: bilch-bilch, pilch-pilch, chilp-chilp. 7. Quyuq va suyuq narsaning qaynashiga taqlidni bildiruvchi sinonim so'zlar: bilq-bilq, biq-biq, biqir-biqir, vaqir-vaqir, varaq-varaq, hil-hil, jig'. Ushbu so'zlardan vaqir-vaqir, varaq-varaq baland qaynashdagi ovozga taqlidni, hil-hil past olovda bir me'yorda qaynash holatini, jig' esa samovar, qumg'onning qaynash tovushiga taqlidni ifodalaydi. 8. Chaqaloqning yig'isiga taqlidni bildiruvchi sinonim so'zlar: big'-big', ing, inga. Ushbu so'zlardan big'-big' qattiq va baland ovozli yig'ini, qolganlari me'yoriy yig'i tovushini ifodalaydi. 9. Yonish jarayonidagi tovushga taqlidni bildiruvchi sinonim so'zlar: guv, gur, lov, pov, chatir-chatur, chitir, vij-vij. Ushbu so'zlardan gur, lop birdan sodir bo'ladigan tovushni; pov shiddatli, tez yonishda chiqadigan tovushni; chatir-chatur quruq o'tinning yonishidan chiqadigan tovushni; chitir kuchsiz tovushni; vij-vij ho'l o'tinning yonishini ifodalaydi. 10. Asosan oltin-kumushlarning yaltirashi va jiringlashi; yaxlit-yaxlit (pul haqida) bildiruvchi sinonim so'zlar: varaq-varaq, jaraq-jaraq. Ushbulardan varaq-varaq nofaol so'z hisoblansa, jaraq-jaraq so'zlashuv uslubida ma'lum ijtimoiy qatlam doiralarida faol qo'llaniluvchi so'z hisoblanadi. 11. Qurbaqaning tovushiga taqlidni bildiruvchi sinonim so'zlar: vaq-vaq, vaqir-vaqir, vaqir-vuqur. Vaq-vaq odatiy tovushni, vaqir-vaqir, vaqir-vuqur to'xtovsiz ovozni ifodalaydi. 12. Yorug'lik jarayoniga taqlidni bildiruvchi sinonim so'zlar: yilt, milt, yalt, yalt-yult, yaraq, yal-yal, yarq. Ushbu so'zlardan yilt, milt kuchsiz, qisqa nurni; yalt bir marotaba, qo'qqisdan ko'ringan nur, yorug'likni; yal-yal tovlanish, jilolanishni; yarq birdan yuz bergan yorug'lik aksini;

yaraq nihoyatda yorug', yaltiroq nur aksini ifodalashiga ko'ra farqlanadi. 13. Chaynaganda chiqadigan tovushga taqlidni bildiruvchi sinonim so'zlar: kars-kars, kasir-kasir, kasir-kusur, kirt-kirt, kurs-kurs, kurt-kurt, chalp, chalp-chulp, chalp-chalp kuvrak, tarang va quruq narsalarni chaynaganda; kirt-kirt, kurt-kurt, qart-qurt o't-hashakni chaynaganda; chalp, chalp-chulp, chalp-chalp ovqat chaynaganda; qitir quruq narsalarni kemirganda chiqadigan tovushni ifodalaydi. 14. Og'iz orqali havo chiqish jarayoniga taqlidni bildiruvchi sinonim so'zlar: kuh, puf. Kuh so'zi qo'lni isitish uchun havo chiqarishga nisbatan taqlidni bildirsa, puf so'zi nafas olish, o'tni o'chirish yoki alangalash, issiq narsani sovutishda chiqariladigan tovushga nisbatan taqlidni hosil bo'ladi. 15. Mushuk ovoziga taqlidni bildiruvchi sinonim so'zlar: miyov, mov, pix. Ushbu so'zlar bir-biridan odatiy tovush, kuyikkandagi tovush, o'z raqibini qo'rqitish uchun hurpayib olib, tomoq qirib chiqarilishiga ko'ra farqlanadi. 16. Suv ovoziga taqlidni bildiruvchi sinonim so'zlar: mildir-mildir, chuldir-chuldir, shaldir-shuldur, shatir, shatira-shutur, shildir, shir, qult, qul-qul, qulq-qulq. Ushbulardan mildir-mildir, chuldir-chuldir, shaldir-shuldur, shatir, shatira-shutur, shildir taqlid so'zlari oqishdagi tovushning baland-pastligiga ko'ra farqlansa, qult, qul-qul, qulq-qulq suv quyishdagi tovushni ifodalashiga ko'ra yuqoridagilardan farqlanadi. 17. Yig'lash jarayoniga taqlidni bildiruvchi sinonim so'zlar: pirq, piq, piqir, piq-piq, piqir-piqir, ho'ngir-ho'ngir, ho'ng-ho'ng. Ushbu taqlid so'zlar bir-biridan tovushning baland-pastligiga, uzun yoki qisqaligiga, o'zini tutish darajasiga, yoshiga, jinsiga ko'ra farqlanadi. 18. Nafas tiqilishiga taqlidni bildiruvchi sinonim so'zlar: hiq; g'iq. Ushbu taqlid so'zlar bir-biridan uzuq, qisqa tovushni ifodalashiga ko'ra farqlanadi. 19. Qaltirash jarayoniga taqlidni bildiruvchi sinonim so'zlar: dag'-dag', dir, dir-dir, dirr, zir, qalt-qalt. 20. Bolalar surnayining yoki avtomobil signalining tovushiga taqlidni bildiruvchi sinonim so'zlar: dud, dut, g'at, g'o't-g'o't. 21. Urilganda chiqadigan tovushga taqlidni bildiruvchi sinonim so'zlar: duk, dup, do'p, do'q, do'qir, tap, tapira-tupur, tapir-tupur, tap-tap.

22. Yugurganda chiqadigan tovushga taqlidni bildiruvchi sinonim so'zlar: dukur, dupur, do'pir, dubir. 23. Qovurilganda chiqadigan tovushga taqlidni bildiruvchi sinonim so'zlar: jaz, jaz-buz, jaz-jaz, jaz-juz, jiz, jiz-biz, jiz-jiz. 24. Qo'ng'iroq tovushini bildiruvchi sinonim taqlid so'zlar: jangir-jungur, jarang, jarang-jurung, jingir-jingir, jiring. 25. Tezlik bilan amalga oshadigan holatga taqlid so'zlar: zip, zuv, lip, lop, lo'p, shilt, g'iz, g'ir. 26. Qushlarning qanotidan chiqadigan tovushga taqlid bildiruvchi sinonim so'zlar: zuv-zuv, par-par, parr, parr-parr, part, patir, patir-putur, pir. 27. Kulgi tovushiga taqlid bildiruvchi sinonim so'zlar: xi-

xi, qah-qah, qix, qiqir, he-he-he, hingir-hingir, hiring-hiring, hi-hi. 28. Sinish tovushiga taqlid bildiruvchi sinonim so'zlar: chars, chars-churs, chirs, chirs-chirs.

29. Suvga tushish jarayoniga taqlidni bildiruvchi sinonim so'zlar: shalop, shalp, shapir-shupur, sho'lp, sho'p. 30. Qimirlash holatiga taqlidni bildiruvchi sinonim so'zlar: qilt, qimir, qimir-qimir, g'ivir-g'ivir, g'imir-g'imir. 31. Suyuqlikni yutish jarayoniga taqlidni bildiruvchi sinonim so'zlar uyasi: qult, xo'r-xo'r, g'ilt, g'ilq, g'ult. 32. Ishqalanish jarayoniga taqlidni bildiruvchi sinonim so'zlar uyasi: g'ajir, g'art, g'art-g'urt, g'ijir, g'ij-g'ij, g'iyt, g'iych, g'iyq, g'irt. 33. Yirtilish jarayoniga taqlidni bildiruvchi sinonim so'zlar uyasi: tar, tarr, tirr, shar, shart, shart-shurt, shir [4].

O'zbek tilining lug'at sostavi umumxalq o'zbek tilining barcha so'z boyliklarini, undagi tarixiy-traditsion, turg'un qatlamlarni, yangi, zamonaviy leksikani, endi paydo bo'layotgan eng yangi so'zlarni ham qamraydi; bu tilning ahvolidan, qandayligidan dalolat beradi. Lug'at sostavi qanchalik boy va xilma-xil bo'lsa, til ham shunchalik taraqqiy etgan bo'ladi. O'zbek tilining lug'at sostavi nihoyatda boydir. Bu o'zbek tili uzusi (nutq protsessidagi ko'p sonli mavjud imkoniyatlar) dan erkin, tanlab olingan holda foydalanish imkonini beradi [5].

Ma'lumki, ma'nodosh so'zlar bir so'z turkumi doirasida ma'nodoshlikni hosil qiladi. Ya'ni so'z ma'nodoshi bilan birgalikda bir so'z turkumiga mansub bo'ladi. Biz mazkur maqolamizda izohli lug'atdagi taql.s. so'z pometasi bilan berilgan so'zlarni asos qilib oldik, ularning ma'nodoshlari mazmunan o'xshash, lekin pometasiz berilgan yoki ayn. belgisi bilan berilgan so'zlar orasidan tanlandi. "O'zbek tilining izohli lug'atlari" da pometasiz berilgan taqlid so'zlar ham ko'pchilikni tashkil qiladi. 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" dagi pometasiz taqlid so'zlarning tavsifi va illyustrativ misollarini o'rganib, ularning ko'pchiligi pometali taqlid so'zlar bilan mazmunan o'xshashligi sababli bunday so'zlarning ham taqlid so'z turkumi hisoblanilishi, fikrimizcha, to'g'ri bo'ladi. Ko'p ma'noli so'zlar har bir ma'nosida boshqa-boshqa so'zlar bilan ma'nodoshlikni hosil qilishi mumkin. Tadqiqot jarayonida ko'pchilik ko'p ma'noli taqlid so'zlar ham har bir ma'nosida bir-biridan farqli bir nechta taqlid so'zlar bilan ma'nodoshlik hosil qilishini kuzatdik. Lekin mazkur maqolamizda ko'p ma'noli taqlid so'zlarning har bir ma'nosini sinonimik tomondan o'rganish zarurati yo'q deb hisoblandi. Ushbu maqolada 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" da ayn. belgisi bilan kiritilgan jami ma'nodosh taqlid so'zlarni aniqlab kiritdik, shuningdek, mazmunan o'xshash bo'lgan ma'nodosh taqlid so'zlarni 33 xil sinonimik uyalarga jamlab, mazmuniy farqlarini kerakli izohlar bilan tavsifladik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. –Toshkent: O'qituvchi, 1995.
2. Abdiazizov A. O'zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi. –Toshkent: O'qituvchi. 1992.
3. O'zbek tilshunosligi: taraqqiyot tamoyillari, ilmiy muammolar, istiqboldagi vazifalar. –Toshkent: 2013.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006-2008.
5. O'zbek tili leksikologiyasi, –Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1981.

Yoshin HAKIMOV,

*O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,
Bosma OAV va noshirlik ishi fakulteti,
Harbiy va sport jurnalistikasi kafedrasida o'qituvchisi*

ZAMONAVIY MEDIADA «KOMPYUTER LINGVISTIKASI» FANINING AHAMIYATI

Annotatsiya: maqolada kompyuter lingvistikasi fanining ommaviy axborot vositalari sohasida qo'llanilishi va qulayliklari yoritilgan. Shuningdek, sohaga oid ilmiy tadqiqotlarning hozirgi holati tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: *kompyuter lingvistikasi, tilshunoslik, media, avtomatik tarjima, bo'g'in.*

Аннотация: в статье описывается применение и удобство науки компьютерной лингвистики в сфере средств массовой информации. Также проанализировано современное состояние научных исследований в этой области.

Ключевые слова: *компьютерная лингвистика, лингвистика, медиа, машинный перевод, слог.*

Abstract: the article describes the application and convenience of the science of computational linguistics in the field of mass media. The current state of scientific research in this area is also analyzed.

Keywords: *computer linguistics, linguistics, media, machine translation, syllable.*

Bugun kiber olamda "Kompyuter lingvistikasi" fani yangi yo'nalishlarni vujudga keltirmoqda. Kompyuter va tilshunoslikning kesishuvidan paydo bo'lgan ushbu fanning o'z navbatida OAVga ham ta'siri katta, qulayliklari esa salmoqli.

Axborotlashgan XXI asrda OAVning konvergentsiyalashuvi yuz berarkan, bu bevosita Internet bilan chambarchas bog'liq jarayon sanaladi. Internet – bu kompyuter orqali kirib boriladigan virtual olam. Demak, bunday vaziyatda "kompyuter lingvistikasi" fanining ommaviy axborot vositalari sohasida ham keng qo'llanilishi tabiiydir. Jumladan, avtomatik tarjima, tezaurus, elektron lug'atlardan foydalanish, sun'iy intellekt imkoniyatlari kabilar shular sirasidan. O'z navbatida bu kabi yangilanishlar axborot texnologiyalarini tilshunoslikka va zamonaviy mediaga tatbiq etish bilan bog'liq istiqbolli ilmiy yo'nalishlar paydo bo'lishiga keng yo'l ochmoqda. Zero, bugun avtomatik tarjima sifatini yaxshilash, har bir tilga oid so'zlarni lemmalash va teglash nazariyasi, algoritmi hamda lingvistik ta'minotini yaratish, matn tahlil qilish, tarjima qilish dasturlari jahon tilshunosligida dolzarb masalaga aylangan.

Xorijda avtomatik tarjima uchun mo'ljallangan



dasturlarni ishlab chiqish asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan kompyuter lingvistikasi faniga oid amalga oshirilgan tadqiqotlar ko'lami keng. Jumladan, prof. L.L.Nelyubinning ilmiy faoliyatida mashina tarjimasi uchun (ingliz tili bo'yicha) algoritmlar va dasturlar ishlab chiqish asosiy o'rinni egallaydi. Yu.N.Marchuk tarjimani modellashtirish metodlari va uni avtomatlashtirish yo'llarini ishlab chiqqan holda rus kompyuter lingvistikasiga asos solgan olimlardan

hisoblanadi.

Mamlakatimizda ham so'nggi yillarida kompyuter lingvistikasida avtomatik tarjima, sun'iy intellektning o'zbek tilini tushunish va qayta ishlashiga erishish borasida bir qator ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, O'zbekistonda kompyuter lingvistikasining



shakllanishida dastlab lingvostatistikaga oid ilmiy tadqiqot olib borgan M.Ayimbetov, S.Rizayev, S.Muhamedova kabi olimlarning ishlari diqqatga sazovor. Shuningdek, kompyuter lingvistikasi sohasida A.Po'latov, S.Muhamedova, A.Rahimov, Z.Xolmanova, N.Abduraxmonova, A.Norov kabi olimlarning sohaga oid darslik va o'quv qo'llanmalari nashrdan chiqqan.

2023-yilning noyabr oyida We Digital agentligi marketing va kreativ sohasida vazifalarni samarali bajarish uchun sun'iy idrokni (SI) audio-, videokontent va matnlarga integratsiya qiluvchi SI laboratoriyasini

ishga tushirdi. Matnlarni tuzish, savollarga javob berish va tabiiy suhbatni imitatsiya qila oladigan ilg'or sun'iy idrok texnologiyasi "ChatGPT" bazasida ishlab chiqilgan "Uzbek Expert" chat-boti ushbu laboratoriyaning loyihalaridan biri bo'ldi.

Uzbek Expert o'zbek tili bilan ishlaydigan kontent-creatorlar uchun mo'ljallangan. U tarjima va kontekstni tushunish bilan bog'liq muammolarga yechim topadi. Google va Yandex kabi onlayn tarjimonlar tarjimada qiyinchilikka duch kelsa, ushbu bot qulaylik yaratadi. Bot PDF-fayllarni o'qiy oladi hamda o'zbek tilida keng lug'at bazasiga ega bo'lib, o'zbekcha-ruscha va o'zbekcha-inglizcha lug'atlardan foydalanish imkoniyatiga ega. Bu botga kontekst va grammatikani yaxshiroq tushunish imkoniyatini beradi, o'zbek tilidagi OAV yangiliklaridan foydalanish imkoniyati esa dolzarb kun tartibini inobatga olishda qo'l keladi. Uzbek Expert chat-botiga obuna bo'lib, undan har bir xohlovchi foydalanishi mumkin.

Ko'rinadiki, kompyuter lingvistikasi fani globallashuv davri muammolarini hal qilishga yo'naltirilgan, yoshlarning ham texnikani, ham xorijiy tillarni chuqur o'rganishlarini ta'minlaydigan soha hisoblanarkan, OAV sohasi mutaxassislariga ham bu katta qulaylik beradi.

Sohada esa bugun o'zbek kompyuter tilshunosligini yangicha, zamonaviy texnologiyalar, dasturlar asosida rivojlantirish hamda samarali, ixcham, qulay va arzon kompyuter dasturlari uchun lingvistik ta'minot yaratib berish, ta'limda bu mavzularni o'qitishni takomillashtirish yechimini kutayotgan dolzarb vazifalardan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Po'latov. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent: Akademya, 2011.
2. Z.T. Xolmanova. Kompyuter lingvistikasi (o'quv qo'llanma), –Toshkent: "Asian Book House", 2020.
3. A. I. Safarov. Kitobxonlik targ'iboti konvergent maqola vositasida. infolib: informatsionno-bibliotechniy vestnik uchrediteli: Obshestvo s ogranichennoy otvetstvennostyu s uchastiem inostrannogo kapitala "e-line press", (4).
4. N.Z. Abduraxmonova. Inglizcha matnlarni o'zbek tiliga tarjima qilish dasturining lingvistik ta'minoti (sodda gaplar misolida), filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, –Toshkent: 2018.
5. R.A. Karimov. O'zbek-ingliz parallel korpusini tuzishning lingvistik va dasturiy masalalari, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD dis. avtoreferati, Buxoro, 2022.
6. <https://kun.uz/kr/news/2024/02/02/chatgpt-ozbek-tilini-organmoqda-we-digitaldan-uzbek-expert-bilan>

Sadbara MAMATOVA,
Renessans ta'lim universiteti o'qituvchisi

SHARQ YOZMA YODGORLIKLARIDA NUH VA TO'FON VOQEALARINING YORITILISHI

Annotatsiya: maqolada Sharq yozma yodgorliklarida Nuh va to'fon voqealarini yoritish va unda inson yaratilishiga to'fon afsonasining versiyalari ta'siri e'tibor qaratilgan. Shuningdek olimlarimizning suv toshqiniga oid voqealar turli zamonlarda va turli vaqtlarda arxeologik qazishmalarni o'rganilgan ma'lumotlar tahlil qilingan bo'lib bunda olimlarimizning tadqiqot ishlari qiziqarli va e'tibor qaratadigan jihatlari o'quvchini o'ziga tortadi.

Kalit so'zlar: *Bobul, to'fon, Afsona, Mesopotamiya, Shumerlar, Nuh a.s, sivilizatsiya, juudi, Verner Keller.*

Abstract: the article focuses on the illumination of the events of Noah and the flood in the written monuments of the East and the influence of versions of the flood legend on the creation of man. Also, the flood events of our scientists have been analyzed and the data of archaeological excavations at different times and at different times have been analyzed, and the interesting and attention-grabbing aspects of the research work of our scientists attract the reader.

Keywords: *babylon, flood, Legend, Mesopotamia, Sumerians, Noah, civilization, Jew, Werner Keller.*

Аннотация: в статье основное внимание уделяется освещению событий Ноя и потопа в письменных памятниках востока и влиянию версий легенды о потопе на создание человека. Также проанализированы события наводнений наших ученых и проанализированы данные археологических раскопок в разные периоды и в разные времена, а интересные и привлекающие внимание аспекты исследовательской работы наших ученых

Ключевые слова: *вавилон, потоп, Легенда, Месопотамия, Шумеры, Ной, цивилизация, Еврей, Вернер Келлер*

Bizga ma'lumki "Qisasi Rabg'uziy"da Nuh alayhissalom obrazi keng yoritilgan bo'lib, unda inson yaralilishidan tortib har bir jonli va jonsiz mavjudotlar, ularning paydo bo'lishi, ezgulik va yovuzlik har doim birga yashashi haqidagi ma'lumotlar shuningdek, Allohning to'fon ofatini yuborilganga qadar voqealar juda qiziq va mulohazali jumboqlarga ham duch kelamiz. Shuning uchun ham "Qisasi Rabg'uziy" asarida mujassamlashgan ulug'vor g'oyalari zamiridagi hayotsevarlik tuyg'usi ko'p asrlar mobaynida xalqimiz komolotining eng kuchli va o'ziga xos jihati bo'lib kelgan.

Qadimdan adabiyotda mavjud bo'lgan buyuk suv toshqini haqidagi barcha afsonalar ichida eng qadimiysi Bobil yoki to'g'rirog'i shumerlar adabiyotidir. Bobil versiyalari Ashurbanipal davriga, ya'ni miloddan oldingi uchinchi ming yillikda VII asrga to'g'ri keladi. To'fondan qolgan dalillarning minglab yillar davomida saqlanib qolishi bu biz kelajak avlod uchun ham katta meros ekanligiga ko'z yuma olmaymiz. Mesopotamiya tekisligida va uning atrofida sodir bo'lgan to'fonni o'rganish uchun ko'plab arxeologik qazishmalar amalga oshirildi. Buning natijasida, Mesopotamiya tekisligidagi to'rt asosiy shahar: Ur, Uruk, Kish va Shuruppakda to'fondan qolgan alomatlariga duch kelindi. To'fon sodir bo'lgan, deb taxmin qilingan hududda olib borilgan qazishmalar ham to'fon butun yer yuzida emas, balki Mesopotamiyaning bir qismiga ta'sir o'tkazgan keng ko'lamli falokat bo'lganligini ko'rsatadi. Qur'onda vahiy qilinganidek, kemanding

to'xtash joyi al-Juvdiy bo'lgan. Garchi arabcha "juudii" so'zining o'zi «baland joy, tepalik» degan ma'nolarni anglatasa-da, u ba'zida ma'lum bir tog'ni anglatish uchun ham qo'llaniladi. Mana shu nuqtai nazardan olib qaralganda, "juudii" so'zi barcha yerlarni qamrab olish emas, balki faqat muayyan bir balandlikka yetgan suvlarni nazarda tutilgan. Boshqacha qilib aytganda, biz Qur'ondan to'fonning (yahudiylarning muqaddas diniy kitobi va boshqa afsonalarda ta'kidlanganidek) Yer yuzidagi barcha yerlarni va hamma tog'larni emas, balki ma'lum bir joyni yutganligini bilib olamiz.

Ur shahridagi (bugungi kunda u Tall al-Muqqayyar nomi bilan ma'lum) sivilizatsiya qoldiqlarining eng eskisi miloddan avvalgi 7000-yilga borib taqaladi. Inson sivilizatsiyasining eng qadimiy namunalaridan biri bo'lgan Ur shahri birin-ketin tug'ilgan va yo'q bo'lgan sivilizatsiyaning makoni bo'lgan hududdir. Ur shahrini o'rganish orqali qilingan arxeologik kashfiyotlar u yerdagi sivilizatsiya dahshatli to'fon orqali to'xtatilganligi va uning o'rniga yangi sivilizatsiya asta-sekin paydo bo'lganligi haqida bizga aniq ma'lumot beruvchi dalillarni oshkor qildi. Mikroskopik tahlillar Urdagi tepalik ostida hosil bo'lgan bu ulkan gil quyqasi qadimgi Shumer sivilizatsiyasini mahv etishga qodir bo'lgan katta va qudratli suv bosqini oqibatida to'planganligini ko'rsatadi.

"Gilgamesh" dostoni va "Nuh" hikoyasi Mesopotamiya sahrosi ostida chuqur qazilgan bu shaxta qudug'ida birlashgan edi. Maks Malloven bir zumda bunday ulkan massasining hosil

bo'lishi bahaybat sel falokati natijasida yuz berishi mumkinligini aytgan Leonard Vullining o'y-fikrlarini so'zlab berdi. Vulli, shuningdek, Shumerning Ur shahrini Al-Ubayd shahridan (uning aholisi to'fondan qolgan sirlangan sopol idishlardan foydalanar edilar) ajratgan suv bosqini qatlamini ham ta'riflab berdi. Bu dalillar Ur shahri to'fon ta'siri ostida qolgan joylardan biri bo'lganligini tasdiqlaydi.

Nemis arxeologi Verner Keller nazarda tutilayotgan qazishmalarning ahamiyati haqida ham to'xtalib o'tdi. U o'z so'zini davom ettirar ekan, Mesopotamiyada olib borilgan arxeologik qazishmalarda balchiqli qatlam ostida qolgan shahar qoldiqlarining hosilasi bu hududda chindan ham suv bosqini bo'lganligini isbotlashini ta'kidlaydi. To'fonning izlarini o'zida aks ettirgan boshqa bir Mesopotamiya shahri esa hozirgi kunda Tall al-Uhaymer nomi bilan ma'lum bo'lgan shumerliklarning Kish shahridir. Qadimiy Shumer qaydnomalarida bu shahar "Buyuk to'fondan so'ng paydo bo'lgan ilk sulola manzili" deb tasvirlanadi. Agar zukko olimlarning fikrlari tekshirib ko'rilsa, aniqki, ular to'fon tafsilotiga tayanch bo'luvchi dalil juda kuchli ekanligini ta'kidlaydilar. Bu fikrga ko'ra, ushbu dahshatli suv toshqini taxminan miloddan avvalgi 3000-2900-yillarda sodir bo'lgan. Mallovenning aytishicha, yerdan 4-5 metr pastda, Shmidt gil va qum aralashmasidan hosil bo'lgan (suv toshqini orqali yuzaga kelgan) sariq tuproq qatlamiga yetgan. Bu qatlam qo'rg'on profiliga qaraganda tekislik sathiga yaqinroq bo'lgan va uni qo'rg'onning yon-atrofida kuzatish mumkin edi degan taxminlar ham ilgari suriladi.

Shumerlar adabiyoti haqida o'zbek olimi Zoyir Ziyotov shunday yozadi: "Shumer adabiyoti o'zlar zamonida yozilgan "sof shumer" asarlariga va shumerlarning merosi sifatida, albatta, ularni ulug'lab

yozilgan keyingi toifa asarlarga bo'linadi". Xo'sh, Nineviyada ilk topilgan "Bilgamish" dostoni qaysi toifa asarlarga kiradi? Z.Ziyotov keyingi toifaga deydi. Lekin, shunday bo'lsa-da, doston Shumerlar madaniyati negizida paydo bo'lganiga ko'ra, uni Shumer adabiyoti sirasida ko'rish va qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki doston yoshini 2600-2700 yil deb belgilanishiga qaramay, uning dastlabki sof Shumerlar variantini olimlar 3700 yil deb bilishadi. Bundan tashqari, dostonning dastlabki og'zaki variantining yoshi 4500 yildan 6000 yilga qadar tarix bag'riga kirib ketishi haqida qarashlar mavjud.

Bundan ko'rinib turibdiki, Nuh to'foni sabablari olimlarimiz tomonidan o'rganilgan tadqiqotlar haligacha aniq va asosli sabab bor ekanligi jumboq bo'lib kelayotganini ko'rsatadi. Endilikda olimlar bu dahshatli to'fon haqiqatdan ham qanday yuz berganini ilmiy jihatdan isbotlashga harakat qilishmoqda. Farazlar ko'p. Biroq yaqingacha tayanishga asosli ilmiy ma'lumot mavjud emasdi. Yaqinda "Naturiy" jurnalida shov-shuvli tadqiqot natijalari e'lon qilindi. Tadqiqot natijalarida aqlga sig'maydigan deb kelingan farazlar endilikda real haqiqatga aylangan taxminlar ilgari surilmoqda ya'ni Nuh to'foni yuz berishiga sabab bo'lgan suv yer qa'riining o'zidan chiqqan degan faraz aql bovor qilmaydigan hodisa emas, balki sayyoramizning ichki qatlamlarida ulkan suv zaxiralari mavjudligi, ularda obihayot bilan Tinch okeani kabi o'nlab ummonlarni suvga to'ldirish mumkin ekan.

Bu ham bizning bir tadqiqotimiz jarayonida aniqlaganlarimiz. Balki, Nuh to'foni haligacha biz bilmagan tilsimlarga bo'ydir. Va bu tilsimlarda yangidan yangi ma'lumotlar o'chog'iga tadqiqotchi olimlarni qiziqishlar bilan o'ziga tortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Носируддин Бурхонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. Тошкент: Ёзувчи, 1990. – 240 б.
2. Инжил / Товротдан "Ибтидо" / Забур. Юнон ва ибрий тилларидаги асл нусхаси асосидаги таржима. Биринчи нашр: "Графически завод Хрватске", Загреб, Хорватия. 1992.
3. Маҳабҳарата ёки Баҳарата авлодлари жангномаси: [Ҳинд эпоси]: Жангар қиссаси / Русчадан Йўлдошев. С тарж. – 3-нашри. – Т.: Юлдузча, 1988. – 160 б.
4. Мифы народов мира. Энциклопедия. (В 2 томах). Гл. Ред. С.А. Токарев. – М.: «Советская Энциклопедия», 1988. – т. 2. К-Я. – 719 с. С илл.
5. Фрээр Дж. Дж. Фольклор в Ветхом завете: Пер. с англ. – 2-е изд., испр. – М.: Политиздат, 1989. – 542 с.
6. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. I tom. Mas'ul muharrir A.Qayumov. – T.: Fan, 1978. 328-b.
7. Раҳмонов Н.А. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: 2017, – 116 б.

Gulnoza DJURAKULOVA,
 O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy
 kommunikatsiyalar universiteti
 dotsent v.b., Phd.

DOSTONLARDA QO'LLANILUVCHI O'XSHATISHLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada ta'rif va tavsif beriladigan parchalarda o'xshatishlar asosiy yordamchi vosita sifatida baxshining portretni to'laqonli chizishi uchun bosh ko'makchi vazifasini o'tashi haqida so'z boradi. Tasvirni mukammal to'la chizishda, uni tinglovchiga aniq ko'rinishini yetkazishda har bir qismga alohida ta'rif va har birini o'xshatish asosida ta'riflash baxshi uchun qulay uslub sanaladi va bu uslubdan Sherobod dostonchilik maktabida keng qo'llanilishi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: *doston, o'xshatish, epik formula, Sherobod dostonchilik maktabi, baxshi.*

Аннотация: в этой статье рассказывается о небольшой эпической формуле, аналогичной той, что используется в отрывках, где дается описание, в качестве основного вспомогательного средства, чтобы Бакхши мог полноценно нарисовать портрет. Описывать на основе индивидуального описания каждой части и сравнения каждой из них, рисуя изображение идеально полным, передавая его ясный вид слушателю, считается благоприятной техникой для Бакхши, и было показано, что эта техника широко используется в шерабадской школе эпоса.

Ключевые слова: *эпос, аналогия, эпическая формула, школа эпоса Шерабад, Бакхши.*

Abstract: this article talks about a small epic formula, similar to that used in the passages where the description of the horse is given, as a basic aid so that Bakhshi can fully draw a portrait of the horse. Describing horses based on an individual description of each part and comparison of each of them, painting the image of the horse perfectly complete, conveying its clear appearance to the listener, is considered a favorable technique for Bakhshi, and this technique has been shown to be widely used in the Sherabad school of epic.

Key words: *epic, analogy, epic formula, school of epic Sherabad, Bakhshi.*

O'zbek xalq og'zaki ijodida, shu jumladan, dostonlarda qo'llanilgan an'anaviy o'xshatishlarning barqaror shakl olgan. O'xshatish asosli kichik epik formulalar qo'llanish doirasi o'zbek xalq dostonlarida juda keng bo'lib, ijro davomida tasvirni, anglanishi lozim bo'lgan tushunchani oson yetkazish usuli sifatida baxshi improvizatsiyasi uchun imkoniyatlar tug'diradi. Bunday kichik epik formulalar ham nasriy, ham she'riy parchalarda barobar qo'llanilishi mumkin.

Ta'rif keltirilgan parchalarning to'laligicha o'xshatishga asoslangan variantini Sherobod dostonchilik maktabi vakillari kuylagan dostonlarda ko'rishimiz mumkin. Xususan, "Zaydinoy" dostonining Qodir baxshi Rahim o'g'li variantida:

Sovrisiga qarasang,
 Sakson uyni tikkanday.
 Iyig'iga qarasang,
 Qirqta kampir yotguday.

deb boshlanuvchi ot ta'rifi keltirilgan katta epik formulaning yetmish ikki misrasi otning tasviriga bag'ishlanib, shu o'rinda o'ttiz olti o'xshatish berilganki, har ikkinchi misrada birinchi misradagi o'xshagan detalni o'xshatuvchisi ko'rsatiladi. Baxshi otning tashqi ko'rinishi va harakatlarini o'xshatishli epik formulalar asosida har misrada shunday uyg'un tizgan va bu so'z munchog'ida tekis terilgan marjon kabi o'z o'rnini topgan.

Bunday otning tavsifini to'laligicha o'xshatishlar asosida keltirilganda barcha baxshi maktablarda

qo'llaniladigan kichik epik formulalardan tashqari, Sherobod dostonchilik maktablari vakillarigagina xos bo'lgan kichik epik formulalarni ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, Qodir baxshi kuylagan "Zaydinoy" dostonida o'xshatishli kichik epik formulalar asosida ifodalangan ot ta'rifini Chori baxshi Umirov kuylagan "Tarkibadaxshon", Chorshanbi baxshi Rahmatullayev, Shoberdi baxshi Boltayev, Abdunazar Poyonov kuylagan "Malla savdogar", Abdunazar Poyonov kuylagan "Oltin qoboq" dostonlaridagi ot ta'rifi keltirilgan katta epik formulalarda ham ayni yoki ayrim o'zgarish bilan qo'llanilganligini ko'rishimiz mumkin. Fikrimiz tasdig'i sifatida Abdunazar Poyonov kuylagan "Oltin qoboq" dostonidagi kuylangan "otga mamiz berish"(otni maqtash, ta'rif berish) o'rnini ko'rib chiqamiz:

To'bangdagi ikki ko'z,
 Ajdarhoning ko'ziday,
 Gijing-gijing o'ynaysan,
 Jo'gining erka qiziday,
 Sovringdagi go'shtlaring
 Laylimkonning tuziday,
 Badaning yuqaligi
 Xitoyning qog'oziday.

O'zbek xalq dostonlarida qahramon va ot obrazini ajdarhoga qiyoslanishi epik formulaga aylanib juda ko'p o'rinlarda qo'llanadi. Bu ilonsifat xayoliy mavjudot xalq og'zaki ijodining afsonaviy, mifologik obrazlaridan biri sanaladi. Bu o'rinda otning o'zi emas, ko'zi ajdarhoning

ko'ziga qiyoslangan. Keyingi misralarda otning o'yinga tushishi jo'gi, ya'ni raqsga tushib, tomosha ko'rsatib yuruvchi ko'chmanchi xalq lo'lilarning qiziga o'xshatiladi. Keyingi misrada Sovrisidagi go'shtlari Laylimkonning tuziga qiyoslanadi. Laylimkon Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida joylashgan tuz koni hisoblanib, xalq orasida Xo'jaykon deb ham yuritiladi. U shifobaxsh kon bo'lib uning tuzlari kristall kabi yaltillab turadi. Misra orqali baxshi katta yaltirab turuvchi ot sovrisini ko'z oldimizga keltirishimizda yordam beradi.

Keyingi misrada esa eng oliy sifat yupqa qog'ozlar Xitoyda ishlab chiqarilganini inobatga olsak, badanining yuqaligiga Xitoy qog'oziga qiyoslanishi go'zal o'xshatish hosilasi deyish mumkin. "Tarkibadaxshon" dostonida "Terisining yupqaligi, Ko'k choyni qog'oziday" deb ifodalanadi. Ko'k choyni vatani Xitoy ekanligini fahm etsak, bu ikki formula mazmunan bir faqat shaklan tafovutga egaligi ma'lum bo'ladi.

"Tarkibadaxshon" dostonida esa ot ta'rifi Avazxonning Tarkibadaxshonning uzoq yo'lga chiqishida otga qayta-qayta qamchini urishi bilan qamchining zarbidan yashin tezligida yo'lga tushgan, achchig'i kelgan G'iro't tasviri chiziladi.

Ikki quloq tikka bo'lgan,
 Keng adirning andiziday,
 Bo'ktirchi gushi bilqillar,
 To'ngnagan to'qson muziday.

Biz ko'rayotgan misralarda otning jahldagi tasvirini quloqlarining tik bo'lishi vositasida ifodalash bilan birga uni adir, kengliklarda o'suvchi o'simlik – andizga qiyolanadi. Chunki "Andiz – (Inula) qoqidoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'tlar turkumi. ...O'zbekistonda bo'ydor turlari ko'proq tarqalgan". Andiz adirdagi o'simliklar orasida balandroq ko'rinib turishi bilan esga olinadi. Demak, quloqlarning tik turishi andizga qiyoslanishi, nafaqat ohang jihatdan, balki mazmunan ham o'rinlidir. Keyingi qatorda esa ot go'shtlarining to'nglagan(qotgan) muzga qiyoslanishi ham o'ziga xos o'xshatishli epik formula sanaladi. Abdunazar baxshi muz detalidan go'shtga emas ko'zlarga nisbatan foydalanadi:

Joltillaydi ko'zlaring
 Chillada qishning muziday.
 Tog'dan o'ynab tashlashing
 Jaylovdan qaytgan qo'ziday,
 Tikka-tikka qochishing
 Tulkini quvgan toziday.
 Gohida yurmay qolishing
 Abdunazarning soziday.

Yuqoridagi badda keltirilgan o'xshatishlarning barchasi epik formula shakliga kirgan bo'lib, ba'zan kichik o'zgarishlar bilan ham takrorlanadi. Masalan, "Chillada qishning muziday" yuqoridagi misrada ko'zning yaltillashiga nisbatan ishlatilsa, Qodir baxshi muzning qattqlik xususiyatini nazarda tutib,

"Badanning qattqligi, Har chillaning muziday" deb badanning qattqligiga qiyoslaydi. "Jaylovdan qaytgan qo'ziday" kichik epik formulasi esa "Zaydinoy", "Oltin qoboq" dostonlarida ham "Yaylovdan qaytgan qo'ziday" shaklida qo'llanadi. "Tarkibadaxshon" dostonida "Sutga to'ygan qo'ziday" shaklida, "Malla savdogar" dostonida uch o'rinda "Jaylovdan qaytgan qo'ziday" shaklida, bir o'rinda esa "Ko'katga to'ygan qo'ziday" shaklida kuylanadi. Shu o'rinda biz tadqiq qilayotgan "Malla savdogar" dostonida to'rt o'rinda otni ta'rifi keltirilishini, bu dostonning biz tadqiq qilayotgan 2018-yilgi nashri uch baxshi – Chorshanbi baxshi Rahmatullayev, Shoberdi baxshi Boltayev, Abdunazar baxshi Poyonovlardan yozib olinganligini inobatga olib, Uxov ilgari surgan fikrlarga tayansak, har bir ot ta'rifi keltirilgan o'rinni alohida tadqiq qilish, har bir o'rinda qo'llanilgan epik formula orqali qaysi baxshi kuylagani haqida ma'lumot berishi mumkin.

Keyingi misralardagi tikka-tikka qochishi Tulkini quvgan toziga qiyoslanisa, bu o'rinni Chori baxshi Umirov "Cho'lda shamolday ketishi, Tulkini ko'rgan toziday", Qodir baxshi esa "Havolanib jo'nashi, Tulki quvgan toziday" deya kuylaydi. "Malla savdogar"da "Qahrlanib yugurishi tulkini quvgan tozi"ga o'xshatiladi. Bunda mazmunan ham o'xshagan harakat, ham o'xshatilgan narsa aynan takrorlanadi, ya'ni kichik epik formula o'zgarishga uchramaydi. "Malla savdogar" dostonining boshqa bir otni ta'rifi keltirilgan o'rnida esa "Kalla chayqab o'ynashing, Tozidan qochgan tulkiday" misrasi keltiriladi. Bu holatda o'xshatishga asos bo'luvchi obrazlar o'rni almashadi, ammo mazmun o'zgarmaydi. Bu kichik epik formula ot ta'rifidan boshqa o'rinlarda ham qo'llanilgan. Xususan, Fozil Yo'ldosh o'g'li kuylagan "Alpomish" dostonida to'lg'oq vaqtidagi kampirlarning shoshib, besaranjom qilgan harakatlari haqida aytilganda bu o'xshatishni ko'rishimiz mumkin. "Boybichalarga shunda to'lg'oq vaqti yaqin yetdi; ne kampirlar kelib, boybichani aylanib, tulkini inlatgan toziday bo'lib, boybichalarni angnib, o'rta olib turibdi". Ushbu holat bu kichik epik formulaning qadimiyligini, ma'lum bir obrazga bog'lanmagan holatda faqatgina ayrim o'xshash holat, vaziyatlar tasvirida kelishini, barqaror shaklda baxshi xotirasida saqlanishini va baxshining epik formuladan tayyor vosita sifatida doimiy qo'llash imkonini mavjudligini isbot etadi.

Doston matnidagi keyingi "Gohida yurmay qolishing, Abdunazarning soziday" o'xshatishini O'zbekiston xalq baxshisi Abdunazar baxshi bilan suhbat qurganimizda kamtarinlik bilan aytgan bir fikri orqali izohlamochimiz: "Baxshilarda dostonni go'zal kuylash uchun Alloh bergan ovoz, kuchli xotira va soz chertish qobiliyati yuksak darajada bo'lishi lozim. Ba'zi baxshilarda shulardan qaysidiri yuqoriroq, qaysidir sal quyiyoq bo'ladi. Ayniqsa bizda (Sherobod baxshilari (ta'kid muallifniki)) sozni zo'r chertadilar.

Masalan, Shoberdi baxshi Boltayev sozni qoyillatib chertadi, meni esa ba'zida soz qiynaydi". Qodir baxshi kuylagan "Zaydinoy" dostonida ham, Chori baxshi Umirov kuylagan "Tarkibadaxshon"da ham bu o'xshatish qo'llanmagan, "Malla savdogar" dostonida esa "Jomon baxshining soziday", "Bir xil baxshining soziday" shaklida keladi. Bu holatni epik formulaning keyingi davrda barqaror shakl ola boshlaganligi bilan izohlashimiz mumkin.

Biz ko'rib chiqayotgan dostonlarda otni tasvirini berishda ot va uning tana a'zolarini qiz, bibi (eshon quchgan bibi), qozi (pora yegan qozi), qo'zi, tozi, kiyik, ayiq (ayiqning bolasi), qa'la, jala (chillaning jalasi), tuz, muz(chillaning muzi), yulduz, lola, ko'rupa, supra, sep (Kellingning pichgan sepi), kubi (Boybichcha pishgan kubi), qozon, azon (Mulla aytgan azon) kabi

kishi, hayvon, tabiat hodisalari, narsa-buyum kabi elementlarga qiyoslash barqaror shakl olgan bo'lib, ular aloxida so'z yoki kengaygan birikma shaklida epik formulaga aylangan.

Demak, otning ta'rif va tavsifi beriladigan parchalarda o'xshatishli kichik epik formulalar asosiy yordamchi vosita sifatida baxshining ot portretini to'laqonli chizishi uchun bosh ko'makchi vazifasini o'taydi. Otning tasvirini mukammal to'la chizishda, uni tinglovchiga aniq ko'rinishini yetkazishda otlarni har bir qismiga alohida ta'rif va har birini o'xshatish asosida ta'riflash baxshi uchun qulay uslub sanaladi. Har bir o'xshatishning takrorlanmasligi, obrazlilik, mubolag'adorligi bunday parchalarni yanada ohangdor va jozibali bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. – Toshkent: Fan, 1979. 169-bet.
2. Zaydinoy. Qodir shoir varianti. O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor arxivi. Inv. №1692.
3. Malla savdogar. O'zbek xalq dostoni. Aytuvchilar: Chorshanbi baxshi Rahmatullayev, Shoberdi baxshi Boltayev, Abdunazar Poyonov. – T.: Akademnashr, 2018. 318-bet.
4. Oltin qoboq. Aytuvchi: Abdunazar Poyonov. – T.: Akademnashr, 2018. 462-b.
5. Tarkibadaxshon. Aytuvchi: Chori baxshi Umirov. O'zFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor arxivi. №1814.

Shahnoza BEKNAYEVA,
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor
va mutxassislarini qayta tayyorlash va
malakasini oshirish instituti 2-bosqich doktoranti

MAKTABGACHA TA'LIMDA INSON RESURSLARINI REJALASHTIRISH, TANLASH VA TARAQQIY ETTIRISH

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inson resurslarini boshqarish, kadrlar salohiyatini oshirish, kadrlar siyosatining tahlili, kadrlarni tanlash hamda tashkilot madaniyatiga ta'sir etuvchi omillar keltirilgan. Shuningdek, rahbarlik faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar sifatida rahbarning ish vaqti va uning faoliyatiga oid ish rejani tuzishni muammolari yoritilgan.

Kalit so'zlar: mezon, qadriyat, kadrlar salohiyati, boshqarish, omil, tamoyil, personal, menejment.

Annotation: in this article, human resource management, personnel capacity building, personnel policy analysis, personnel selection, and factors affecting organizational culture are presented in preschool educational organizations. Also, the problems of the leader's working hours and the creation of a work plan related to his activities are highlighted as factors influencing the leadership activity.

Key words: criterion, value, personnel potential, management, factor, principle, personnel, management.

Аннотация: в данной статье представлены управление человеческими ресурсами, формирование кадрового потенциала, анализ кадровой политики, подбор персонала, а также факторы, влияющие на организационную культуру в дошкольных образовательных организациях. Также в качестве факторов, влияющих на лидерскую деятельность, выделены проблемы режима рабочего времени руководителя и создания плана работы, связанного с его деятельностью.

Ключевые слова: критерий, ценность, кадровый потенциал, менеджмент, фактор, принцип, персонал, менеджмент.

O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash davrida fuqarolar daromadlarini, turmush darajasini va respublikada ishlab chiqarilayotgan YAIM hajmini oshirish, natijada yurtimiz mustaqilligini mustahkamlash, xalqimiz farovonligini yuksaltirish maqsadida aholi bandligini ta'minlash uchun yangi ish o'rinlarini yaratish, mehnat sharoitlarini yaxshilash bilan birgalikda mehnat resurslari intellektual salohiyatini oshirish vazifalari

ham bugunning dolzarb ahamiyat kasb etuvchi masalalari qatoridan o'rin egallaydi. Hozirgi davrda respublika iqtisodiyotining barqaror va jadal taraqqiyotini ta'minlashda kelajagimiz uchun keng qamrovli, oqilona asoslangan ustuvor vazifalar va yo'nalishlar, ijtimoiy-ta'lim rivojlanish reja va dasturlari ishlab chiqilmoqda. Mamlakatimizda shakllantirilayotgan, ko'pgina jabhalarda mustahkamlanib borayotgan yangicha bozor munosabatlari uzluksiz ta'lim tizimiga, shu jumladan, aholi ziyoli qatlamining salmog'ini oshirishga, respublikamiz iqtisodiyotining mustahkamligi va aholi farovonligini yuksaltirish maqsadida faol va halol xizmat qiluvchi bilimli, iqtidorli, tashabbuskor yuqori malakali kadrlar soni va salohiyatini oshirishga xizmat qilayotgan oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Kadrlar siyosatining tahlilida quyidagi mezonlar qo'llaniladi:

- personalning miqdor va sifati;
- joriy kadrlar qo'nimsizligi;
- amalga oshirilayotgan siyosatning egiluvchanligi;

- xodimning manfaatlarini hisobga olish.

Tashkilot madaniyati - tashkilotdagi psixologik tabiat (klimat) va qadriyatlar sistemasi bo'lib, u xodim muhitni shakllantiradi va unga xususiy jilo beradi. Tashkilot madaniyati ish yuritishga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi. G'arb olimlari tashkilot madaniyatining 10 kategoriyasini alohida ko'rsatib o'tadilar:

- Insonning o'zligini e'tirof etishi;
- Ma'lumotlar almashinuvi va o'zaro hamkorlik;
- Tashqi ko'rinishi va kiyinishi;
- Insoning qiziqadigan sohasi;
- O'zgarishlarni anglash va qabul qilish vaqti;
- Jinsiy farq va munosabat;
- Ehtiyojlar tizimi va ustuvorliklar;
- O'z e'tiqodi va boshqalar e'tiqodiga munosabat;
- Ixtisoslik bo'yicha ma'lumoti va shaxsiy odatlar;
- Ishlash usuli va o'ziga xoslik.

Tashkilot madaniyatiga ta'sir etuvchi omillar.

Tashkilot madaniyatiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilganda guruh bo'lib faoliyat ko'rsatayotgan shaxslarning individual xulq-atvori juda murakkab va xilma-xil ekanligiga e'tibor berish kerak. Bu omillar o'zaro, uzviy bog'liqlikda amal qiladi.

1. Qadriyatlar — bu nisbatan umumiy iqrorlik bo'lib, nima to'g'ri, nima noto'g'ri ekanligi bilan belgilanadi. Bunda insonlarning umumiy moyilligi yuzaga chiqadi.

2. Munosabatlar - bu qadriyatlarni yuzaga chiqaruvchi turli usullar namoyon bo'lishi jarayonidir. Bunda shaxslar va guruhlarining o'zaro aloqalari, ta'siri yuzaga chiqadi.

3. Hulq-atvor — bu inson harakatining turli shakllaridir. Insonlar u yoki bu vaziyat taqozosiga

binoan o'z madaniyatini namoyon qiladi.

Rahbarlik faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar sifatida rahbarning ish vaqti va uning faoliyatiga oid ish rejani tuzishni sanab o'tish mumkin. Rahbarning faoliyati rejalarini tizimi asosida tashkil etiladi. Tizim tarkibi quyidagi rejalaridan iborat:

1. Strategik reja;
2. Yil rejasi;
3. Kvartal rejasi;
4. Oy rejasi;
5. Hafta rejasi;
6. Kun rejasi.

Shu rejalarining har biri keltirilgan ketma-ketlikda tuziladi. Bu tabiiy, chunki har bir keyingi reja oldingi rejaning maqsadlari, masalalari va dalillari asosida batafsil tuziladi. Shu oltita rejalar birgalikda asta sekin, kerakli yo'llanishda rahbarning bir me'yorda istagan kelajagi sari ilgari surib boraveradi. Rejalar tizimining ta'sirida vaqt rahbar umrining har bir davrida doim faqat olis va muqaddas niyatlarga erishish uchun sarflanadi. Rejalar tizimining mantiqi shundaki, strategik maqsadga rahbar kundalik rejalar orqali erishadi. Kundalik rejalar rejalar tizimida oxirgi va eng muhim bosqichining tasavvur etadilar.

Yangi kunning rejasini oldingi kunning so'ngida yaratilgani yaxshi. U haftalik reja asosida tuziladi. Unda rahbar ertaga ish kuni davomida qilinishi kerak bo'lgan ishlarni va hal etilishi lozim bo'lgan muammolarni ro'yxatga oladi. Haftalik rejada bo'lmagan, kecha yuzaga kelgan masalalarni ham rahbar ertagi kunning rejasiga kiritadi.

Boshqaruv inson faoliyatining bir turi sifatida odamlarning umumiy maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi (qo'shma) harakatlariga ehtiyoj mavjud bo'lgan davrdan mavjud. Keng ma'noda boshqaruvni umumiy maqsadlarga erishish yo'lida o'z sa'y-harakatlarini birlashtirgan odamlar guruhining faoliyati sifatida ta'riflash mumkin. Har bir tarixiy davr boshqaruv subyektlari munosabatlariga, rag'batlantirish usullariga, jarayonning o'zini tashkil etish ko'lamiga o'ziga xos tuzatishlar kiritdi, lekin faqat 20-asrda boshqaruvga ilmiy yondashuvlar paydo bo'ldi va rivojlana boshladi. Boshqaruv nazariyasining o'ziga xosligi uning fanlararoligi, farqlovchi xususiyati amaliy muammolarni hal qilishga yo'naltirilganligidir. Keng ma'noda boshqaruv deganda "belgilangan maqsadga muvofiq boshqaruv obyektini qarorlar qabul qilish, tashkil etish, nazorat qilish, tartibga solish, ishonchli ma'lumotlar asosida tahlil qilish va umumlashtirishga qaratilgan faoliyat" tushuniladi.

Ko'pgina olimlar, shu jumladan P. Druker, boshqaruv bilan sinonim bo'lgan fanni ajratib ko'rsatishadi — "menejment". Demak, P.Druker "menejment" atamasi ma'lum bir funksiyani va uni bajaruvchi kishilarning ijtimoiy mavqeyini hamda o'quv intizomi va ilmiy tadqiqot sohasini o'z ichiga olishini

ta'kidlaydi. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, "zamonaviy menejment — bu inson atrofida aylanadigan boshqaruv faoliyatining o'ziga xos turi bo'lib, u odamlarni birgalikda harakat qilish qobiliyatiga ega qilish, ularning harakatlari samaradorligini oshirish va ularga xos zaif tomonlarini yumshatishdir"[1, b.7-11]. V. Siegert va L. Lang menejmentni "odamlarni shunday boshqarish va vazifalarni insonparvar, tejamkor va oqilona bajarish imkonini beradigan mablag'lardan shunday foydalanish" deb tushunadi[2, b.25].

Falsafiy lug'atda menejmentga quyidagi ta'rif berilgan. "Menejment – ishlab chiqarishni boshqarish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va foydani oshirish uchun foydalaniladigan boshqaruv tamoyillari, usullari, vositalari va shakllari majmuini o'z ichiga oladi" [3]. Shunga qaramay, menejment tushunchasini tahlil qilib, Yu.A.Konarjevskiy shunday xulosaga keladi: "Menejment bu nafaqat tijorat faoliyati, biznesni boshqarish, balki odamlar bilan ishlash orqali boshqarishdir. Boshqaruvda, go'yo, ikkita yo'nalish birlashtirilgan: tashkiliy-texnik va psixologik-pedagogik, odamlarni boshqarish, o'zining yakuniy maqsadiga erishish uchun jamoani tashkil qilish bilan bog'liq [4, b.11 — 12]. V.P. Shalayeving motivatsion dasturiy-maqsadli boshqaruv (MDMB) konsepsiyasiga muvofiq, boshqaruv zo'ravon va zo'ravonliksiz bo'lishi mumkin. Boshqaruvning birinchi turi shakllanish strategiyasi bilan tavsiflanadi — insonning ichki dunyosiga tashqi tomondan aralashish, unga xatti-harakatlar qoidalari, faoliyat usullarini yuklash. Ushbu boshqaruvning o'ziga xos xususiyati ta'sir qilishdir.

Zo'ravonliksiz boshqaruv rivojlanish strategiyasiga asoslanadi — shaxsning shaxsiy salohiyatini ochish, ro'yobga chiqarish va rivojlantirishga ko'maklashish. Bunday nazorat o'zaro ta'sirga asoslanadi [5]. V.S. Diye boshqaruvni inson mavjudligining ajralmas qismi sifatida belgilaydi, ularsiz odamlarning birgalikdagi faoliyati mumkin emas. Zamonaviy jamiyat boshqaruv tizimisiz rivojlana olmaydi, chunki u har birining o'z manfaatlari, ehtiyojlari va imkoniyatlari, tajribasi va harakat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan shaxslardan iborat [6]. Odamlarning birgalikdagi faoliyati barqaror bo'lishi uchun, bizning fikrimizcha, rahbar bir qator shaxsiy fazilatlariga ega bo'lishi kerak, masalan: stressga chidamlilik, hukmronlik qilish qobiliyati, g'alaba qozonish istagi, o'ziga ishonch, ijodkorlik, hissiy muvozanat, mas'uliyat, tadbirkorlik, ishonchlik, mustaqillik, xushmuomalalik. Biroq, muvaffaqiyatli boshqaruv boshqa fazilatlarini ham talab qiladi. Bugungi kunda murakkab va ba'zan chalkash boshqaruv vaziyatlaridan chiqish yo'llarini izlayotgan har qanday rahbar nimaga tayanish kerakligini hal qilishi kerak: nazariy tavsiyalar va ishlanmalar, taniqli ilmiy organlarning maslahatlari yoki mavjud tajribalar, taniqli pretsedentlar, o'z sezgilari.

Bizningcha, intuitsiya innovatsiyalarni boshqarish jarayonida, ayniqsa, muhimdir. Innovatsiya odatiy, tanish harakat usullarini istisno qiladi, uning samaradorligi esa majburiy ko'rsatkichlardan biridir. Bu rahbarning intuitsiyasi unga tanlangan yo'lni to'g'riligini aytishga qodir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Drukker, P.F. Praktika menedjmenta: uchebnoye posobiye / Piter Ф.Друккер; per. s angl.; pod red. Ya.K. Marinovicha. — M.: Vilyame, 2000. — 397s.
2. Zigert, Verner. Rukovodit bez konfliktov / Verner Zigert; sokrash. per. s nem. N.V. Vardul, A.D. Bogomolova; nauch.ped., avt. predisl. A.L. Juravlev. — M.: Ekonomika, 1990. — 335 s.
3. Filosofskiy slovar / V.N. Miroshnichenko, L.V. Ostapenko, E.V. Sha-xova. -M., 2004.- 560 s.
4. Konarjevskiy, Yu.A. Menedjment i vnutrishkolnoye upravleniye /Yu.A. Konarjevskiy. M., 2000. — 224 s.
5. Shalaye, V.P. Genezis i sotsialniy smisl sistemno-sinergeticheskoy paradigmi: dis... d-ra filos. nauk. — N. Novgorod, 1997. -305 s.
6. Diye, B.C. Upravleniye kak obyekt filosofskogo analiza / B.C. Diye // Tezisi Rossiyskogo filosofskogo kongressa: v 7 t. T.4. — SPb: Izd-vo SpbGU, 1997. — S.281-28.

Gulnoza ERNAZAROVA,
NavDPI "O'zbek tilshunosligi" kafedrasida dotsent v.b.

MA'DANSHUNOSLIK TERMINLARI TIZIMIDAGI ARABCHA O'ZLASHMALAR XUSUSIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek tilidagi ma'danshunoslik terminlarining shakllanish jarayoni tahlil qilingan. O'zbek tili ma'danshunoslik terminosistemi uzoq asrlar davomida tilimizning ichki imkoniyatlari hamda boshqa tillardan so'z o'zlashtirish hisobiga boyib borganligi, tilimizni tashqi imkoniyatlar asosida boyishida arabcha o'zlashmalarining o'ziga xos o'rni misollar asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: lug'at tarkibi, ma'danshunoslik terminlari, o'zlashgan so'zlar, arabcha o'zlashmalar, so'zlashuv tili, kitobiy til, og'zaki nutq.

Аннотация: в данной статье анализируется процесс формирования минералогических терминов в узбекском языке. Терминология узбекского языка на протяжении многих веков обогащалась за счет внутренних возможностей нашего языка и заимствования слов из других языков.

Ключевые слова: словарный состав, минералогические термины, заимствованные слова, арабские адаптации, разговорный язык, литературный язык, устная речь.

Annotation: this article analyzes the formation process of mineralogy terms in the Uzbek language. The terminology of the Uzbek language has been enriched for many centuries due to the internal possibilities of our language and the acquisition of words from other languages.

Key words: vocabulary composition, mineralogy terms, adopted words, Arabic adaptations, colloquial language, literary language, oral speech.

Har qanday til lug'at tarkibining tarixiy rivojlanish va shakllanish xususiyatlarini bilish uchun o'sha til lug'at tarkibidagi so'zlarni tarixiy-etimologik nuqtayi nazardan o'rganish, ularning genezisi va kelib chiqish manbasini aniqlash talab qilinadi. Bunday izlanishlar, o'z navbatida, o'zbek tilining o'tmishda qaysi qardosh tillar va noqardosh tillar bilan o'zaro munosabatda bo'lganligini aniqlash imkonini beradi hamda tilning lug'at tarkibi, grammatik qurilishida sodir bo'lgan tarixiy rivojlanish jarayonlarini ilmiy jihatdan tushunishga zamin hozirlaydi. Bu fikrlar ma'danshunoslik terminlarining rivojlanish bosqichlarini aniqlashga ham bevosita aloqadordir.

Tilshunos olimlar u yoki bu til leksikasini tarixiy-etimologik nuqtayi nazardan tahlil qilganda, undagi o'z va o'zlashgan so'zlarni aniqlashni asosiy maqsad qilib qo'yadilar. Bu haqida professor E.Begmatov shunday yozadi: "So'zlarni tarixiy-etimologik guruhlariga ajratish yo'li bilan ham o'rganish mumkin. Bu usul til lug'at sostavini tashkil etuvchi lug'aviy birliklarning genetik manbalarini, ya'ni so'zning aslida qaysi til elementi ekanini aniqlashga imkon beradi". Ushbu maqolada o'zbek tilidagi ma'danshunoslik terminlarining shakllanish jarayonini tahlil qildik. O'zbek tili ma'danshunoslik terminosistemi uzoq asrlar davomida tilimizning ichki imkoniyatlari hamda boshqa tillardan so'z o'zlashtirish hisobiga boyib borgan. Tilimizning tashqi imkoniyatlar asosida boyishida arabcha o'zlashmalarining o'rni o'ziga xos.

Shunisi xarakterliki, arab tilida o'zlashgan ma'danshunoslik terminlari o'zbek tilida iste'molda bo'lgan o'z til birliklari bilan parallel ravishda qo'llangan.

Masalan: inju va arabcha dur; oltin va arabcha zahab; va temir (temur) va arabcha hadid; tosh va arabcha hajar. Ammo bulardan bugungi kunda hadid, zahab, hajar kabilar, shuningdek, ruxom (bu termin o'rnida yunoncha-grekcha marmar termini qo'llaniladi) termini ishlatilmaydi.

Misollar tahlili o'zbek tiliga arab tilida o'zlashgan ma'danshunoslik terminlarining miqdori unchalik ko'p emasligini ko'rsatadi.

Eski o'zbek adabiy tilida arabcha qatlamga mansub ma'danshunoslik terminlari qo'llanilgan, ulardan ayrimlari bugungi kunda ham faol ishlatiladi, ba'zilari arxaiklashgan. Bulardan: aqiq, dur, zabarjad, la'l, ma'dan, markazit, mumiyo, soda, talk, kabi tilimizda faol ishlatilsa, bura, zirnix, iksir nuqra, realgar, trona, hal kabilar arxaiklashgan. Arabcha ma'danshunoslik terminlari O'rta Osiyo hududining arablar tomonidan istilo qilinishi, mazkur hududda arab tilining keng tarqalishi natijasida o'zlashgan. Qur'oni karim va boshqa manbalarda qimmatbaho ma'danlar haqida berilgan ma'lumotlar o'z navbatida mazkur sohaga oid arabcha terminlarning tez sur'atlar bilan o'zlashishiga turtki bo'lgan. Muqaddas Qur'onda حجر هاجرون – tosh, عسّوون – mis, فضف – faddotun – kumush, مارجون – marjun, لؤلؤل – lu'luun – marvarid, رافاع – gavhar, درمز – zumradun – zumrad, ديدح – hadiydun – temir, ماسون – maasun – olmos va boshqa ma'danshunoslik terminlari uchraydi. Muqaddas kitobda temir ma'dani alohida zikr qilinadi. Temir so'zini anglatuvchi "Hadid" deb nomlangan suraning 25-oyatida temirning xislatlari haqida so'z yuritilgan: "...yana biz temirni tushurdik – yaratdik" "Sab'a"

surasining 10-oyatida shunday zikrlar keltirilgan: “Biz Dovudga (ulugʻ) fazl (martaba) ato etdik: “Ey, togʻlar va qushlar! (Dovud) bilan birga tasbeh aytinglar!” Va uning uchun temirni (xamirdek) muloyim qilib qoʻydik”.

“Al-Isro” (“Bani Isroil”) surasining 50-oyatida Alloh qiyomat kunida barchani qayta tiriltirishi haqida: “Ayting: “xoh **tosh** yo **temir** boʻlinglar (baribir Alloh sizlarni qayta tiriltirur)”, – degan fikrlar mavjud.

Mazkur surasining 95-96-oyatlarida ham **temir** va **mis** maʼdani zikr qilingan: “U (Zulqarnayn) aytdi: “... Sizlar menga **temir** parchalarini keltiringlar” – dedi. Bas, qachon u (temir-tersaklarni qizdirib) oʻt qilgach (eritgach), dedi: “Menga eritilgan **mis** (ham) keltiringlar, u (**temir** parchalari)ning ustidan quyurman”. Suraning 93-oyatida **oltin** maʼdani zikri ham uchraydi: “Yoki sening **oltin**dan bir uying boʻlmagunicha (senga iymon keltirmaymiz)”.

“Haj” surasining 21-oyatida temir haqida shunday fikrlar keltiriladi: “Ularga (urib jazo berish uchun) **temir** gurzilar bordir”.

Mazkur suraning 23-oyatida “albatta, iymon keltirgan va solih amallarni qilgan zotlarni Alloh (jannatdagi) ostidan anhorlar oqib turadigan bogʻlarga kiritur. Ular u joyda **oltin** bilakuzuklar va **marvaridlar** bilan bezalurlar, liboslari esa harir (ipak) boʻlur deyiladi.

Bulardan tashqari, “Tavba” surasining 34-oyatida oltin va kumush zikri uchraydi: “**Oltin** va **kumushlarni** kon (maxfiy xazina) qilib olib, ularni Alloh yoʻlida sarf qilmaydiganlarga alamli azob “xushxabari”ni bering!”. .

Qimmatbaho maʼdanlar “Oli Imron” surasining 14, 21, 91-oyatlarida ham tilga olinadi: “Odamlarga ayollar, farzandlar, uyum-uyum **oltin-kumushlar**, saman otlar, chorva va ekinlarga mehr koʻyish ziynatli qilib qoʻyilgan”. (14-oyat) “Ustilarida yashil ipak va shoyi liboslar boʻlib, ular **kumush** bilakuzuklar bilan bezangan boʻlurlar va Parvardigorlari ularni pok sharob bilan sugʻorur”. (21-oyat) “Albatta, kofir boʻlgan va kofirliklaricha oʻlganlarning birortasi agar yer yuzi toʻla **oltinni** badal sifatida bersa ham, aslo qabul qilinmas”. (91-oyat)

Arab tilida zuxruf – zeb-ziynat demakdir. Qadim-qadimlardan boshlab zeb-ziynat buyumlari qimmatbaho maʼdanlardan yasalgan. Qurʼoni karimning “Zuxruf” surasida shu haqida oyat nozil qilingani uchun shu lafz bilan nomlagan. Mazkur suraning 33, 34, 53, 71-oyatlarida **oltin** va **kumush** maʼdanlari zikr

qilingan: “Agar odamlarning biror millat boʻlib olishlari (kofir boʻlib ketishlari) boʻlmaganda edi kimasalarga uylarining shiftlarini ham unga chiqadigan narvonlarni ham **kumushdan** qilib quygan boʻlar edik”. (33-oyat) “Yana ularning uylarining eshiklarini ham, oʻzlari ustida yastanib oʻtiradigan surilarni ham (**kumushdan** qilib qoʻygan boʻlur edik)”. (34-oyat) “Bas, unga (Musoga) **oltin** bilakuzuklar tanlanganida edi yoki u bilan birga farishtalar xamroh boʻlib kelganida edi!” (53-oyat) “Ularga oltin laganlar (da taomlar) va qadahlar (da sharoblar) aylantirilur. (71-oyat)

Oltin minerali “Kahf” surasining 31-oyatida zeb-ziynat buyumi sifatida tilga olinadi: “Aynan ular uchun ostilaridan anhorlar oqib turadigan mangu jannatlar bor boʻlib, ular u joyda **oltin** bilakuzuklar bilan bezanurlar va yashnab turuvchi shoyi liboslar kiyib, soʻrilarda suyanib oʻtirurlar”.

“Inson” surasining 15, 16, 19-oyatlarida (solih insonlarga vaʼda qilgan jannat tasvirida) qoʻllangan kumush, dur maʼdanlari zikri mavjud: “Ular kumush idishlar (da taomlar) va (oʻzi **kumushdan** yasalgan boʻlsa-da shaffoflikda) shisha boʻlib ketgan qadah (da sharoblar) aylantirilur”. (15-oyat) “Shisha boʻlgan-da ham **kumushdan** (ularni soqiylar) oʻlchab qoʻyganlar”. (16-oyat) “Ularning ustida mangu yosh xodimlar (xizmat qilib) aylanib koʻrganingizda sochib yuborilgan durlar deb oʻylaysiz”. (19-oyat)

“Tur” surasining 24-oyatida “ularning ustida goʻyo (sadaf ichida) yashiringan **gavhardek** (pok va xushsurat) gʻulomlar aylanib (xizmat qilib) yurar”.

“Fotir” surasi 33-oyatida “ular mangu (yashaydigan) jannatlarga kirurlar va **oltin** bilakuzuklar va marjonlar bilan bezangan boʻlurlar.”.

Koʻrinadiki, tarixiy vaziyat, yaʼni islom dinining Oʻrta Osiyoga yoyilishi natijasida arab tili uzoq yillar davomida Oʻrta Osiyo va Sharq xalqlari uchun fan va madaniyat tili, taʼlim tili, din va shariat tili vazifasini bajardi. Ana shunday sabablarga koʻra eski oʻzbek tiliga maʼlum miqdorda arabcha maʼdانشunoslik terminlari kirib kelgan.

Manbalarda oʻzlashmalarning ikki omil bilan tilimiz lugʻat boyligidan mustahkam oʻrin egallaganligi koʻrsatiladi: soʻzlashuv tili va kitobiy til orqali. Adabiy tilimizga arabcha soʻzlar koʻproq kitobiy til, qisman ogʻzaki nutq orqali kirgan ligini yuqoridagi misollar orqali koʻrib oʻtdik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдулазиз Мансур. Қуръони Карим маъноларининг таржима ва тавсири. – Тошкент: Сано-стандарт, 2019.
2. Алиев А., Содиқов Қ. Ўзбек адабий тили тарихидан. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – Б. 18.
3. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 160.
4. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 448 б.

Shohsanam BOBOJONOVA,
 Shahrizabz davlat pedagogika
 instituti dotsenti v.b., f.f.f.d.

“AXLOQ” KONSEPTOSFERASINING SHARQ VA G‘ARB DUNYOSIDA TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya: ushbu maqolada “axloq” so‘zining etimologiyasi, uning Sharq va G‘arbga oid bo‘lgan xususiyatlari haqida so‘z boradi. Shuningdek, Qadimgi Sharq hamda G‘arb dunyosida “axloq”ning o‘rni va farqlari, o‘xshashliklari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *axloq, tarbiya, Qur‘oni karim, etika, subyektivistik manzara, axloqiy qarashlar.*

Abstract: in this article, we will talk about the etymology of the word “ethics” and its Eastern and Western characteristics. Also the place of “ethics”, differences and similarities in the ancient and Eastern and Western worlds are discussed.

Key words: *morals, education, Koran, ethics, subjectivist landscape, moral views.*

Абстракт: в данной статье говорится об этимологии слова «этика», ее восточной и западной характеристике. Также обсуждается роль «этики» на Древнем Востоке и Западе, различия и сходства.

Ключевые слова: *мораль, образование, Священный Коран, этика, субъективистский взгляд, моральные взгляды.*

Inson yaralibdiki, u tabiatdagi boshqa jonzotlardan farq qilishi uchun etika va estetika qoidalariga asoslanib

yashaydi. Axloqiy normalar esa o‘z-o‘zidan insonning kundalik turmush tarzi, odatlariga aylanib qoladi. Bu narsa esa Xudo tomonidan faqatgina insoniyatga ong ato etilganining yana bir isbotidir.

Xo‘sh, axloq o‘zi nima? Bilamizki, axloq so‘zi arab tilidan olingan “xulq” so‘zining ko‘pligi hisoblanadi. Bundan ko‘rinadiki, barcha xulqlarning majmui axloq hisoblanarkan. Axloq bu insonning jamiyatga, insonlarga, ba‘zida o‘ziga bo‘lgan munosabatidir. Nafsni yenggan inson komil inson, har qanday komil inson esa axloqli, boshqalarga o‘rnak bo‘ladigan insondir.

Dunyoda millatlar ko‘p, ularda turli xil din, irq, elat, til bor. Ammo ularni bog‘lab turuvchi yagona rishta axloq, ong va tarbiyaning mavjudligi hisoblanadi. Har bir xalq o‘zining kelib chiqishi, urf-odatlariga tayanib axloq normalarini yaratadilar. Buning natijasida butun dunyo ikki mintaqaviy hududga, ya‘ni Sharq va G‘arbga bo‘lingan.

На сегодняшний день работа по изданию фольклорных произведений возросла как в качественном, так и в количественном отношении, и в масштабах. Многие дастаны, книги народного обрядового фольклора издавались впервые. В дальнейших планах Узбекской фольклорной школы: осуществлять работу научной экспедиции, основанной известным учёным Х. Зарифовым, с целью последовательного сбора материалов узбекского фольклора и обеспечения её регулярности; Полное

научное описание и каталогизация материалов Узбекского фольклорного архива имени Х. Зарифова; подготовка 100-томного научного издания «Материалы узбекского фольклора» на основе архивных материалов, собранных фольклористами за почти 80 лет, и образцов фольклора, зафиксированных в ходе будущих научных экспедиций; подготавливать научные, научно-популярные и популярные издания фольклорных произведений; исследование исторических основ, типологии и поэтики жанров узбекского фольклора на основе приоритетных научных методов мировой фольклористики; заключается в создании новых учебников и пособий и учебники по народному обрядовому фольклору для студентов высших учебных заведений.

Литература

1. Isroilova X. (2023). O'zbek folklorshunosligining rivojlanishida folklorshunos olimlarning qo'shgan hissalar. *Oriental Art and Culture*, 4 (3), 800-811.
2. Интернет портал «Узбекский фольклор и литература». <http://lib7.com/1311-uzbekskij-folklor-i-literatura.html>

Умида ЮЛБАРСОВА,
преподаватель, Ферганский государственный университет
 Наргиза УСАНОВА,
преподаватель, Ферганский государственный университет

ФОРМИРОВАНИЕ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ БАКАЛАВРОВ НЕЛИНГВИСТИЧЕСКИХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ

Аннотация: статья посвящена исследованию процесса формирования научно-исследовательской компетенции у бакалавров, обучающихся русскому языку в рамках нелингвистических специальностей. Авторы анализируют методы и подходы, используемые в образовательном процессе, с целью развития студенческих навыков научного исследования.

Ключевые слова: научно-исследовательская компетенция, бакалавры, русский язык, формирование компетенций, процесс обучения.

Annotation: the article is devoted to the study of the process of formation of scientific research competence among bachelors studying the Russian language within the framework of non-linguistic specialties. The authors analyze the methods and approaches used in the educational process in order to develop students' scientific research skills.

Keywords: *research competence, bachelors, Russian language, competence formation, learning process.*

Annotatsiya: maqola lingvistik bo'lmagan mutaxassisliklar doirasida rus tilini o'rganayotgan bakalavrlar o'rtasida ilmiy-tadqiqot kompetentsiyasini shakllantirish jarayonini o'rganishga bag'ishlangan. Mualliflar talabalarning ilmiy tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida o'quv jarayonida qo'llaniladigan usul va yondashuvlarni tahlil qiladilar.

Kalit so'zlar: *ilmiy-tadqiqot kompetentsiyasi, bakalavrlar, rus tili, kompetentsiyalarni shakllantirish, o'quv jarayoni.*

Выпускник нового типа современного вуза необходимо, чтобы обладал как профессиональными компетенциями, так и гибкими навыками. Нет сомнений в важности развития научно-исследовательской компетенции у студентов, которая позволяет применять полученные знания и умения для решения широкого спектра задач. Работа в различных отраслях новой экономики требует способности принимать инновационные решения. Отсутствие навыков научно-исследовательской деятельности, таких как самостоятельность, креативность и отход от стереотипного мышления, а также быстрый поиск эффективных способов решения сложных задач, ограничивает возможности будущих профессионалов.

В высшей школе основной задачей по обучению иностранному языку является формирование иноязычной коммуникативной компетенции. Учитывая активное участие студентов в научно-исследовательской работе, преподаватели иностранных языков также активно развивают исследовательские навыки у студентов.

В современной литературе формирование научно-исследовательской компетенции у студентов рассматривается с разных точек зрения. Описываются различные практики и формы работы, используемые преподавателями вузов как в учебной аудитории, так и за ее пределами. В процессе изучения предметов на иностранном языке студенты получают навык работы с научной литературой. Например, в рамках изучения профессионального иностранного языка студенты лингвистических специальностей овладевают навыком работы с научными текстами по своей специальности, что традиционно вызывает сложности у студентов. Для работы такого рода студентам необходимо ознакомиться с научным стилем письменной речи, изучить специфические языковые конструкции и лексический состав научных текстов.

В рамках внеаудиторной деятельности студентов активно развивается научно-исследовательское направление. Проведение дискуссий и диспутов, в том числе на иностранных языках в рамках студенческих научных конференций, а также участие в деятельности студенческих научных сообществ помогает формированию коммуникативной и исследовательской компетенций у студентов.

Большинство исследователей обращают внимание на опыт развития научно-исследовательской компетенции у магистров и аспирантов [5]. Студенты этих категорий активно занимаются такими видами работ, как составление аннотаций, подача заявок на гранты, написание

рефератов, обсуждение научно-исследовательских проектов и другие. Очевидно, что объем научно-исследовательской работы на втором и третьем уровнях высшего образования и готовность магистров и аспирантов к ее выполнению выше, чем у студентов бакалавриата. Однако навыки исследовательской работы формируются уже на первом уровне обучения, включая процесс изучения иностранного языка студентами-бакалаврами. Ряд современных работ подтверждает успешный опыт формирования научно-исследовательской компетенции на уровне бакалавриата [1; 3]. Авторы отмечают важность проведения совместных научных мероприятий, участие в которых позволяет студентам-магистрантам апробировать свои исследования, а бакалаврам понять уровень проведения и анализа исследования на магистратуре [2, с. 142].

Для овладения научно-исследовательской компетенцией необходимо применять интерактивные методы обучения, что является одним из самых эффективных способов. Использование информационно-коммуникативных технологий активизирует процесс освоения студентами навыков исследовательской деятельности [4].

Научные конференции на русском языке являются одной из самых эффективных форм внеучебной исследовательской работы. Это ежегодное мероприятие для студентов с первого по четвертый курс. Темы конференции и направления работы секций определяются в соответствии с будущей профессиональной деятельностью студентов и обсуждаются с преподавателями выпускающих кафедр, которые участвуют в подготовке конференции вместе с преподавателями русского языка. Доклады студентов, как правило, связаны с темами их курсовых работ. Участие студентов в научно-практической конференции комбинирует учебные и научные виды деятельности, включая исследовательские и практические аспекты. Такие мероприятия являются отличной возможностью для раскрытия творческого потенциала студентов, формирования навыков устной коммуникации на русском языке и развития уверенности в себе и уважения к чужому мнению.

Другим важным направлением развития исследовательской компетенции студентов является помощь преподавателей в подготовке публикаций на русском языке. Опыт показывает, что студенты выбирают для обсуждения в научных статьях проблемы, связанные с использованием иностранного языка в будущей профессиональной деятельности. Информация о возможностях публикации представляется студентам на занятиях, но работа над текстами происходит во вне-

аудиторное время, включая как самостоятельную работу, так и совместное взаимодействие с преподавателем. Мотивацией для студентов-бакалавров становится желание овладеть навыком академического письма, который им пригодится при продолжении обучения в магистратуре.

Все перечисленные формы внеаудиторной деятельности способствуют формированию не только профессиональной коммуникативной компетенции на иностранном языке, но и развитию гибких навыков, которые студенты

приобретают в процессе научно-исследовательской работы. Планируется подтвердить эффективность проведения научно-практических мероприятий на иностранном языке с помощью анкетирования студентов. Также будет произведен анализ причин, затрудняющих формирование научно-исследовательской компетенции у студентов высших учебных заведений в контексте изучения иностранного языка.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Егорова, О.А. Развитие исследовательской компетенции студентов в научном юридическом познании / О.А. Егорова, Е.Н. Зинченко. - Текст: непосредственный // Вестник Южно-Уральского государственного университета. Серия: Право. - 2018. - Т. 18. - № 3. - С. 63-74.
2. Малик, Л.С. Студенческие научные конференции кафедры социальной работы и социальной безопасности САФУ имени М. В. Ломоносова как ресурс развития профессионализма / Л.С. Малик, Н.И. Бобылева, А.Б. Федулова, Н.В. Цихончик. - Текст: непосредственный // Вестник Северного (Арктического) федерального университета. Серия: гуманитарные и социальные науки. - 2018. - №6. - С. 139-143.
3. Спиридонова, М.И. Профессиональные компетенции бакалавров пищевой индустрии в научно-исследовательской деятельности / М.И. Спиридонова, И.В. Максимова. - Текст: непосредственный // Проблемы современного педагогического образования. - 2018. - № 59-2. - С. 345-348.
4. Тюльпинова, Н.В. Компьютерное моделирование как основа развития научно-исследовательской компетенции студентов / Н.В. Тюльпинова. - Текст: непосредственный // Russian journal of education and psychology. - 2019.- Т. 10. - № 3. - С. 79-84.
5. Хлыбова, М.А. Формирование научно-исследовательской компетенции у магистров и аспирантов в процессе обучения иностранному языку /М.А. Хлыбова. - Текст: непосредственный // Проблемы современного педагогического образования. - 2018. - № 58-2. - С. 272 -275.

Abror SHARIPOV,
 mayor, Toshkent viloyati
 IIBB kotibiyat boshlig'i

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING HUQUQBUZARLIK VA JINOYATCHILIKNING OLDINI OLIHDA OILADAGI YOSHLAR BILAN OLIB BORADIGAN PROFILAKTIK ISHLARI

Annotatsiya: maqolada profilaktika inspektorlarining huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish bilan birga ular profilaktikasini amalga oshirish va ta'minlashda, ya'ni, yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda, ularning bo'sh vaqtlarini unumli tashkil etishda, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan notinch oilalardagi ma'naviy-ruhiy muhitni sog'lomlashtirishda davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda profilaktik masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *profilaktika inspektori, huquqiy ong, ma'naviy-ruhiy muhit, oilada yoshlar tarbiyasi, huquqbuzarlik profilaktikasi.*

Аннотация: в статье инспекторы профилактики, помимо предупреждения правонарушений и преступлений, осуществляют и обеспечивают их профилактику, то есть в повышении правового сознания и культуры молодежи, в эффективной организации ее свободного времени, в оздоровление морально-духовной среды в неблагополучных семьях, находящихся в социально опасной ситуации, государственных и негосударственных. Совместно с организациями освещаются профилактические вопросы.

Ключевые слова: *инспектор по профилактике, правосознание, нравственно-духовная среда, воспитание молодежи в семье, профилактика преступности.*

Annotation: in the article, prevention inspectors, in addition to the prevention of offenses and crimes, implement and ensure their prevention, that is, in raising the legal consciousness and culture of young people, in the efficient organization of their free time, in the healing of the moral and spiritual environment in troubled families in a socially dangerous situation, state and non-state. In cooperation with organizations, preventive issues are highlighted.

Key words: *prevention inspector, legal awareness, moral and spiritual environment, education of young people in the family, crime prevention.*

Jamiyatda jinoyatning sodir etilishidan ko'ra uning oldini olish, ya'ni huquqbuzarliklar profilaktikasini kuchaytirish samarali natijalarni beradi. Aytish mumkinki, yoshlar orasida huquqbuzarliklar profilaktikasining aniq

tartib-tamoyillarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Bu dunyo tajribasidan o'z isbotini topgan. Yuridik ensiklopediyada: "Huquqbuzarlik – jamiyatda o'rnatilgan va qonun asosida belgilagan tartib yoki umuman ijtimoiy yashash qoidalarini buzish. O'z xususiyatlariga ko'ra huquqbuzarlik – jinoyat, nojo'ya harakat, intizomni buzish shaklida bo'ladi. Ko'p hollarda huquqbuzarlik qonunbuzarlik so'zi bilan hamohang bayon etiladi. Barcha huquqbuzarliklar jinoyat emas. Shu bilan birga, qonunbuzarliklarning barchasi jinoyat bo'lmasligi mumkin. Jinoyat deb aytish uchun uning o'ziga xos belgilari bo'lishi zarur» .

Zero, yoshlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi sodir etilishini taqozo etuvchi sabab va sharoitlarni keltirib chiqaruvchi, davlat siyosatini belgilash va uni amalga oshirish hamda takomillashtirishga qaratilgan kompleks ijtimoiy huquqiy jarayondir.

Yoshlar o'rtasida sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish, nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasiga oid tizimli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish asosiy masala hisoblanadi.

Xalqaro miqyosida yoshlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan

profilaktik ishlarning solishtirilgan tadqiqi, huquqiy madaniyat nazariyasi, huquqiy madaniyat va huquqiy hulq-atvorga oid tendensiyasi kuzatilmoqda.

Bugungi kunda profilaktika inspektorlarining huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda va ta'minlash, ya'ni, aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, yoshlarning bo'sh vaqtlarini unumli tashkil etish, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan notinch oilalardagi ma'naviy-ruhiy muhitni sog'lomlashtirish borasida davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda profilaktik choralar ko'rilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 18-fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-sonli farmoni qabul qilingan edi. Farmonga muvofiq, fuqarolar yig'ini raisining huquq-tartibot masalalari bo'yicha o'rinbosari vazifasini bajarish profilaktika inspektori zimmasiga yuklatildi. Profilaktika inspektorlarining vazifalari nimalardan iborat, ularga qanday imtiyozlar berilgan, o'z lavozimiga nomunosib xodimlarga qanday jazo choralari ko'rish

kerakligi belgilangan.

Profilaktika xizmatlarining huquqbuzarliklar faoliyatini oilalar va ulardagi yoshlarsiz tasavvur etish qiyin.

O'zbekistonda huquqbuzarliklar profilaktikasining milliy tizimi va uning mazmun-mohiyatida hayotda amalga oshirilishi va qo'llanilishini ta'minlovchi organ va muassasalar faoliyatiga bevosita o'zbek xalqining yuksak ma'naviyatini o'zida aks ettiruvchi insoniy tuyg'ular, fazilatlar, buyuk ajdodlar meroslari, oila qadriyatlarini haqidagi g'oyalar singdirilgan.

Profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikda huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda, ilgari sudlangan, spirtli ichimlikka ruju qo'ygan, giyohvandlik kasaliga muhtalo bo'lgan, farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, yengil tabiatli ayollar va fohishalar, voyaga etmaganlar huquqbuzarliklari, diniy ekstremistik oqimga mansub yoki xayrixoh bo'lgan shaxslar, kam ta'minlangan oilalar soni va ularning turmush tarzini aniqlash bo'yicha qator vazifalarni amalga oshiradi.

Shuningdek, profilaktika inspektorlari xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga, ularning jamiyat hayotidagi, oilada ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirishdagi, yosh avlodni tarbiyalashdagi rolini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ham amalga oshirishi nazarda tutiladi.

Profilaktika inspektorining aholi tinchligini tun-u kun ta'minlash, jamoat tartibini saqlash va fuqarolarning huquqiy faolligini oshirish borasidagi faoliyatini tashkil etishda o'zining ijobiy samaralarini bermoqda.

Jamiyatda qaysi soha borki, uning faoliyati tahlil etiladi, undagi muammo va kamchiliklar aniqlanadi. Demak, kamchiliklar bartaraf etish choralari ko'rilmasa, sohani rivojlantirib bo'lmaydi va natijada faoliyatida unum bo'lmaydi. Shu munosabat bilan profilaktika inspektorlarining jamoat tuzilmalari oldida hisobot berib borish tizimi shakllantirildi.

Profilaktika inspektorining oilalar bilan hamkorligini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish choralarni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, bu jarayonda mahalladagi va oiladagi barcha mavjud muammolar joyida hal etiladi yoki har qanday salbiy ijtimoiy illatlar va huquqbuzarliklarning barvaqt oldi olinadi.

Profilaktika (katta) inspektorining oilalar bilan hamkorligini yanada takomillshashtirish va uning yangi usul hamda shakllari, yo'nalishlarini aniqlash va amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Chunki, bugungi olib borilayotgan islohotlardan maqsad ham oilalarda yoshlar tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish

chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida "Ijtimoiy muammolarni hal etish, birinchi navbatda aholi bandligini ta'minlash, ayollar va yoshlarni ijtimoiy-foydali faoliyatga jalb etishni faollashtirish, voyaga yetmaganlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish" – degan masalalar keltirilgan.

Shu boisdan, profilaktika (katta) inspektorining huquqbuzarliklarni oldini olishda oilalar bilan hamkorligini muntazam tahlil etish, ularning aniq yo'nalishlarini belgilab olish, takomillashtirish choralarni ko'rish muhim ahamiyat kasb etadi.

Profilaktika (katta) inspektori oilalarda huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon beradigan shart-sharoitlarni bartaraf etish, shuningdek, birgalikda fuqarolarning xushyorligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni olib borishlari faoliyati samaradorligini oshiradi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi – huquq tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash va ularning oldini olish, bartaraf etish maqsadida qo'llaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimidir.

Huquqbuzarlik profilaktikasi bilan birga jinoyatchilik profilaktikasi ham bu – insonlarning ma'naviy olamini, ruhiyatini izdan chiqarishga qaratilgan turli shakldagi g'oyaviy, mafkuraviy, axborot xurujlari va deviant xulq-atvor ko'rinishlarining sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo'llaniladigan umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktika tizimi.

Globalashuv davrida yoshlar orasida jinoyatga nisbatan moyillikning ortib borishi natijasida turli begona, yot odatlarning yoshlar orasida qadriyatga aylanib ommalashib borayotganligi, yangi axborot texnologiyalarining salbiy ta'siri natijasida esa jamiyat hayotida ma'lum muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Yoshlar nima uchun jinoyatga qo'l urganligini bilish uchun eng avvalo uning atrofidagi ijtimoiy muhit, shart-sharoitning yoshlarga qanday ta'sir etganligini o'rganish kerak. Shuningdek, ruhiy sabablar, salbiy shaxs sifatlar, ya'ni noqonuniy xulq, qat'iy hayotiy maqsadlarning to'liq shakllanmaganligi, tashqi salbiy muhit va oilada tarbiyaning talab darajasida emasligi yoshlarda jinoiy xulq-atvorlarning paydo bo'lishiga qulay imkoniyat beradi.

Oilalardagi yoshlarda jinoiy xulqning kelib chiqishiga ta'sir etuvchi bir qator ijtimoiy-pedagogik omillar mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

– ota-onalar va pedagoglar yoshlarning yosh hamda individual xususiyatlarini e'tiborga olmasliklari yoki tarbiyaviy bilim va tajribalarining yetishmasligi;

– oilada axloqiy munosabatlar va sogʻlom pedagogik-psixologik muhitning yetarli emasligi, oilaviy nizolarning mavjudligi hamda oilada bolaga nisbatan eʼtiborning sustligi;

– maktab pedagoglar jamoasining yoshlar oʻrtasida mavjud nizoli, muammoli vaziyatlarga barham berishda nomaqbul usullarni qoʻllashlari;

– yoshlarning boʻsh vaqtlarini tartibsiz va mazmunsiz oʻtkazishlari va hakoza.

Profilaktika inspektorining yoshlar orasida huquqbuzarliklar profilaktikasini olib borishda quyidagi vazifalarni bajarishlari talab etiladi:

- yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini taʼminlash;

- jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonuniylikni mustahkamlash;

- huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, oʻrganish, bartaraf etish chora-tadbirlarini koʻrish;

- huquqbuzarlikdan jabrlanuvchilarni, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil boʻlgan, huquqbuzarlik sodir etgan, shu jumladan, ilgari sudlangan va ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish;

- jismoniy shaxslarning huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirish;

- huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalar faoliyatining oʻzaro hamkorligini taʼminlash va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish.

Xulosa oʻrnida keltiradigan boʻlsak, huquqbuzarlik

jamiyat rivojlanishiga salbiy taʼsir koʻrsatuvchi ijtimoiy-huquqiy va ruhiy hodisa boʻlib, bugungi kunda huquqbuzarliklar profilaktikasi jinoyatchilikka qarshi kurashishda bosh yoʻnalishga aylandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, profilaktika inspektori tomonidan olib boriladigan ishlar yuzasidan quyidagi xulosa va amaliy tavsiyalar taklif etilmoqda:

1. Yoshlar oʻrtasida nazoratsizlik, qarovsizlik va huquqbuzarlikni oldini olishga qaratilgan barcha meʼyoriy hujjatlar (buyruq, qoʻshma qaror, chora-tadbirlar rejasi, yoʻriqnoma va tartib)ning ijrosini qatʼiy nazoratga olish;

2. Jinoyat sodir etgan yoshlarning xatti-harakatlarini aniq misollar orqali “Jinoyatga jazo muqarrar” ruknida joylarda muhokama qilish jarayonini kuchaytirish;

3. Mahalla faollari va oilalar bilan hamkorlikda tarbiyasi ogʻir, maktabning ichki nazorati hamda ichki ishlar profilaktik nazoratiga olingan va xavfli guruhga kiruvchi oʻquvchilar va ularning ota-onalari bilan yakka tartibda profilaktik-ogohlantiruv ishlarini tashkil etish, shu bilan birga oʻzaro axborot almashinuvini kuchaytirish;

4. Yoshlarning xulq-atvori va fanlarni oʻzlashtirishida erishgan yutuqlari yoki boʻshliqlar paydo boʻlgan holatda ota-onasining ishxonasi va turar joyiga (mahalla raisi) xat yuborishni tizimli yoʻlga qoʻyishni tashkillashtirish;

5. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda yoshlar oʻrtasida har qanday gʻayri ijtimoiy xatti-harakatlarning oldini olishga qaratilgan turli xil dasturlarni vakolatli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oʻzbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentyabrdagi “Voyaga yetmaganlar oʻrtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi toʻgʻrisida”gi Qonuni. Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2010-y., 39-son, 341-modda.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar Strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-4947-son Farmoni. – Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2017, 6-son, 70-modda.

3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-2833-sonli qarori. (Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 07.07.2021, 06/21/6257/0645-son; 03.12.2022, 06/22/258/1064-son).

4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-maʼnaviy muhitni sogʻlomlashtirish, mahalla institutini yanada qoʻllab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-5938-sonli farmoni. (Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 18.10.2021, 06/21/6324/0970-son, 01.12.2021, 06/21/27/1116-son, 21.04.2022, 06/22/113/0330-son; 13.09.2023, 06/23/159/0700-son; 20.11.2023, 06/23/197/0865-son).

5. Yuridik ensiklopediya / Yuridik fanlar doktori, professor U. Tadjixanovning umumiy tahririda. – T.: Sharq, 2001. 652-bet.

6. Abdullayeva Sh.A. Pedagogik diagnostika va korreksiya. – Toshkent: Fan va axborot texnologiyalari, 2019. 280-bet.

Nasiba BOZOROVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti,
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti

“XOTIRAM SINIQLARI”DA AYTILMAGAN IZHORLAR IFODASI

Annotatsiya: ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoirasi Zulfiyaxonimning “Xotiram siniqlari” dostoni xususida so'z yuritilgan. Dostonda shoiraning umr sarhisobi iztirob va dard fonida ifodalangani tahlil asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Zulfiya, “Xotiram siniqlari”, doston, she'r, o'zbek she'riyati, o'zbek shoirasi, hurriyat, obraz, tuyg'u.

Аннотация: в данной статье рассказывается поэма “Фрагменты моей памяти” народной поэтессы Узбекистана Зульфийяханим. На основе анализа выявляется, что краткое содержание жизни поэтессы в эпосе выражено на фоне страданий и боли.

Ключевые слова: Зульфийа, “Фрагменты моей памяти” эпос, поэма, узбекская поэзия, узбекская поэтесса, свобода, образ, чувство.

Annotation: this article describes the poem “Fragments of My Memory” by the national poetess of Uzbekistan Zulfiyahanim. Based on the analysis, it is revealed that the summary of the poetess's life in the epic is expressed against the background of suffering and pain.

Key words: Zulfiya, “Fragments of my memory” epic, poem, Uzbek poetry, Uzbek poetess, freedom, image, feeling.

Inson yoshi bir joyga borib qolganda nimanidir aytgisi, dilining tub-tubida qolib ketgan yukdan o'zni xalos etgisi, bor-budini to'kib solgisi keladi. Bu esdalik, yodgorlik, kundalik, tundalik yoxud xotiralar bo'lishi mumkin. Istisnosiz

tarzda barchada bo'ladigan bu istak borasida ko'proq ijodkor ahligagina omad kulib boqqan. Negaki, ularning so'zlari el orasida “Yodgorlik” (Mirtemir), “Uyqu qochganda” yoxud “Tundaliklar” (Asqad Muxtor), “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” (O'tkir Hoshimov), “Iqronoma” (Lev Tolstoy) sifatida qo'lma-qo'l yuradi. Shu tarzda aytilmay qolgan qaysidir so'zlar, hayot maktabidan qo'lga kiritilgan noyob topilmalar, iqrorlar, dilso'zlar ko'pchilikka yetib boradi.

Zulfiyaxonimning “Xotiram siniqlari” dostoni ham ayni shunday asarlardan hisoblanadi. Bu doston shoiraning “aytilmagan alami”, “yozilmagan she'ri”dir. Unda yallig'lanib yotgan keksa xotiradagi dardlar, tig'li siniqlar bor bo'y-basti bilan namoyon bo'lgan. Bu xotiralar bilan tanishar ekanmiz, “jahon minbarlarida yangragan she'rlari Sharq ayolining aql-u zakosi, fazl-u kamolining yorqin ifodasi sifatida millionlab she'riyat muxlislariga odamiylik, muhabbat va sadoqatdan saboq bergan” shoirani qaytadan kashf etamiz, uning butun umr qalb tubida yotgan dardlariga hamdard bo'lamiz.

“Xotiram siniqlari” 1995-yil, mamlakat mustaqilligiga endigina 3 yil to'lgan bir paytda yozilgan. Aslida, dostonning – shu vaqtga qadar aytilmagan so'zlarning, yozilishiga sabab ham mana shu qutlug' kunning kelganidir. Shu bois ham shoira:

Sen shu hur nazmga ixtiyor berib,
Men og'ir bulutdek bir yog'ib oldim, – deydi.

Doston hurriyatning nima ekanligini dildan anglagan, uning kelishini pinhona sog'inib, pinhona kutgan kishining qo'rquv va hayajoni, xavotir va quvonchini ifoda etuvchi satrlar bilan boshlangan:

Hurriyat, keldingmi – nahotki kelding,

Pinhona sog'indim, pinhona kutdim.

Yomg'irga bag'rini tutgan sahrodek –
Sening nasimingga qalbmni tutdim.

Umr bo'yi shuhrat va el ardoga bo'lgan Zulfiyaxonimning hurriyatni bu qadar tashnalik bilan kutganining boisi kitobxonni qiziqtirishi tabiiy, albatta. Doston davomida erkka, erkinlikka tashna qalbning torlari bir-bir yechilib, savollarga javob topiladi.

Mana, qalb — baxt-u dard to'la dengizim,
Mavjlari shuhratim, hijron, o'kinchim.
Qo'rquv kalxatlari tegib sindirgan –
Yodim siniqlari ostida — cho'kindi.

Inson ko'pincha biror narsa borasida ko'rganlariga qarab xulosa chiqaradi, baho beradi. Ammo ko'z bilan ko'rib bo'lmas, botinda yashirin haqiqatlar ham borki, mana shular orqali narsaning mohiyati ayonlashadi. Shu vaqtgacha biz Zulfiyaxonimning dengiz mavjlarini – shuhrati va hijronini o'rganganmiz. Bu doston orqali esa shoira bizni dengiz ostiga – aytilmagan, yozilmagan xotiralariga, so'zlariga oshno etadi. “Yuzi qontalash” bu xotiralar o'quvchi ko'z o'ngida jonlanib – haqiqat pardalari ko'tariladi.

“Xotiram siniqlari”da dastlab shoiraning onaizori bilan bog'liq suvratlar naqshlanadi. Go'daklari qalbini mumtoz nazm sirlaridan boxabar etgan munisa ayol siymosi shunday tasvirlanadi:

Bu onam – tangrining baxtli onida
Ayrı ixlos bilan yaratgani chin.
Qarog'ida mehr shamlari yoniq –
Gullagan o'rikday orasta otin.

Ona tasvirida shoira o'zgacha, hech kimning xayoliga kelmagan tashbeh qo'llagan: “Gullagan o'rikday orasta otin”. Balki “So'fi Olloyormi, devona

Mashrab Bayozlarin o'pib qo'lga olgan" onasining sehrli olamga asir etib "rang-u ohanglarni jonga quygani" bois Zulfiya – Zulfiyaxonim, el ardog'idagi shoira bo'lgandir. Balki yangasiga esh bo'lib tikkan palagida qolgan tilaklari unga tinchlik bermay, qog'ozga oshno etgandir. Balki, o'ttizga yetmayoq uni topgan dard – butun umrlik qismatiga aylangandir. Har holda, "usti butun, ichi tutun" onaning, "metindan yaralgan jon" – otaning irodasi farzandga ham ko'chgani aniq. Bo'lmasa, "yashin urgan polapon siyoq qolgan" kishining:

Bo'ldi bas. Jangdan so'ng horg'in sarkarda,
Tirik askarlarin tizganday qator –
Men tirik hislarim bir joyga yig'dim
Va kuchli yashashga ayladim qaror,-
deyishi oson emas, albatta.

Shoiraning otasi
zahmatkash temirchi
bo'lgan. Otasining
olovga yo'ldosh
kasbidan, shoira
o'zi yozganidek,
h a m m a
vaqt zavq

ko'rgan. "Xotiram
siniqlari" da
siyosat va
t u r m u s h
yukidan qaddi
egik ota timsoli
ham o'ziga xos
tasvirlangan. Shoira
otaning qizga bo'lakcha
mehri bo'lishini "Otam ta'biricha
edim boychechak" satri bilan
ifodalagan bo'lsa, ota portretini shunday
chizgan:

Buncha chidam qaydan – po'lat, olovdan,
Metindan yaralgan jonmida otam...
Otash og'ushidan topib bizga non,
G'amga ham chidamli bo'larkan inson.

Shoira nazdida otasi chin bardosh sohibi. Otaning kasbi kabi og'ir-bosiq fe'li birgina so'zidan ma'lum bo'ladi: "Soldim Xudoga". Bu Xudoga ishongan, uning adolatiga umid qilgan kishining og'riqli nolasi edi.

Shoiraning eng og'ir, og'irdan-da og'ir xotirasi akasi bilan bog'liq. Otasini "g'amga ham chidamli" etgan, onasini "qo'llarida mushtday tugunchak" bilan Tosh shaharni kezdirgan bu voqea – bundan (doston 1995-yilda yozilgan) 60 yil oldin, ya'ni 1930–1935 yillar – "Tig'day tillarida yalay boshlagan" zamonda sodir bo'lgan:

... Aka, ko'zingizda otash bor edi,
Aka, joningizda quyosh bor edi,
Sultonlikka loyiq kelbat, layoqat,
Sardorni yanglig' bardosh bor edi.
Sizni-da qora tun oldilarmikin,
Qo'lingizga kishan soldilarmikin,
Yukinish, yalinchmas – g'ururni ko'rib
Vahshiy g'azablarda yondilarmikin?!

Shoiraning akasini ham Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosirlarning boshiga tushgan qismat chetlab o'tmagan. Bu qirg'in – qatliomga or-nomusi baland, g'ururi yuksak, mard o'g'lonlarning necha–nechasi uchramadi deysiz? Shoira, ehtimol buni o'sha payt (15-18 yoshlarida) chuqur anglamagandir. Biroq anglab yetganda ham hech so'z aytmadi. Axir, u paytda shoiraning ta'biricha, "nechalar yashardi zamoni sizlab". Ayniqsa, shoiraning

1937-yilda Normat akasining qamoqqa olingani, ayni kamol yoshida akasi ham siyosatning qurboni bo'lgani haqidagi haqiqatlar singilning yuragini zardobga to'ldirgan.

Aytilmagan yig'i-
yo'qlovlari butun
umr bo'g'zini
kuydirgan, ichida
otash – olov
yondirgan.

Aka, jonim akam – jondoshim
akam,

Oltmish yil ortimga qaytib yig'layin,
Bo'g'zimni kuydirar yo'qlovlarimni
"Oh"larim eritar – aytib yig'layin.

Bu – vaqtda aytilmagan, yurakning tub-tubida tosh qotgan va har qanday toshni ham eritib sel qiladigan yo'qlov. "Sibirning nur tushmas o'rmonlarida qushday qirilgan norg'ul o'g'illar"ga aytilgan marsiya. "Mehrdan bino" bo'lgan singilning akasining qotillariga "o'q qilib otgan nafrati, o'chi". "Xalq ganjin yulmoqqa cho'zilgan qo'lga alvon guldastalar tutgan"larning oh-u zoridir. Yurakni kemiruvchi bu og'riqlarni yashirib yashash uchun insonda qancha matonat va bardosh bo'lishi kerak?! Zulfiyaxonim o'zida o'sha kuch va chidamni

topa olgan, ichi ostin-ustin bo'lsa-da, "yurtni bo'ron bo'lib" keza olgan, akasidan, otasidan, suyukli yoridan ayrilsa-da, bolalari uchun yashashga kuch topa olgan haqiqiy o'zbek ayoli – onasi edi.

Jim yashash, jimlik ichra ko'milib yashash davr shiori bo'lgan bir paytda ichdagi bo'ronlarni bostirish, qaysidir hislarni bandi qilib yashash yuki juda og'ir bo'lgan. Bu og'ir yuk qalbi uyg'oq kishilarni qadam-baqadam ta'qib etgan. Ular kunduz o'y-xayollarni band etgan bo'lsa, tunlari tushlarni egallagan, xullas, jonga ming bir olov yoqqan. Zulfiyaxonimga ham bu og'riqlar begona bo'lmagan. "Xotiram siniqlari"da jonni otashlarga solguvchi bu dardlar shunday ifodalangan:

Tushlarimda topib akam jasadin,
Otamning yoniga qazitdim qabr,
O'zim yonganimga ruhlar yondi deb
Xokiga suv sepib, tiladim sabr.

Shoira o'sha zamonda o'zini ovutishning bundanda o'zga chorasini topmagan.

Dostonning keyingi bandlarida qalb taftishi poyama-poya oshib boradi. Yangi hayot deb "betalab, benolish" yashalgan kunlar esga olinadi. Umrning ko'p g'ofilliklari, ishonch-e'tiqodning puchga chiqqani mardona tan olinadi. So'ng keksalarga xos umr

sarhisobiga o'tiladi:

Qay biri vazminroq savobmi – gunoh,
Yashadim-ku riyo, haromdan nari.
Kuyganman. Bosh –oyoq kuyik jismimning–
Nimasin yoqardi do'zax o'tlari.
Bu dunyoda ko'rgan azob, ko'z yoshlar
Savob posangisin xiyol bosarmi?
Gumrohlik pallasin to'ldirsa toshlar,
Eng baland doriga meni osarmi?

Og'riqli bu savollar shoiraning uyg'oq ruhi, bezovta qalbining tarjimoni. Bu savollarni o'ylab yashagan inson insoniylik sharafini boshqalardan ko'ra chuqurroq anglagan va umrning qiymati – bajarilgan ishlar, amallar, aytilgan so'zlar, yashash tarzini bir-bir tahlil eta oladigan gunoh va savobning ajri xususida o'ylab taladi. Umrining ko'pi ketib ozi qolgan har bir inson borki, o'z qalbi oldida mana shu kabi hisob beradi.

Xullas, "Xotiram siniqlari" Zulfiyaxonim ijodining o'ziga xosligini dalillovchi, tuyg'ular ifodasining samimiy va haqqoniyligi bilan she'rxon diqqatini tortuvchi asar. Bu asar zahmatkash, mehnatkash o'zbek xalqiga ruhi o'zga olamlarga qush bo'lib uchgan suyukli qizidan yodgor ijod daftari bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zulfiya. Bahor keldi seni so'roqlab / She'rlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
2. Ulug'ova M. Bahor keldi seni so'roqlab. – Toshkent: Sharq, 2015.
3. Zulfiya ijodida Sharq va G'arb an'analari / Maqolalar to'plami. – Buxoro, 2015.

Nuriniso UMAROVA,

*"University of management and future
Technologies" gumanitar fanlar
kafedrasida katta o'qituvchisi*

ABDULLA ORIPOV ASARLARIDA DARAXT POETIK OBRAZI

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri Abdulla Oripovning vafotidan so'ng chop etilgan "Shoirning tug'ilishi" she'riy to'plamiga kiritilgan "Sahrodagi qayin", "Chinor yashar tanho", "Nihol" kabi she'rlarida tabiatning inson ruhiy holatiga ta'siri tasviri yetakchilik qiladi, bunda lirik "men" olami birinchi rejada turadi hamda tabiat va inson ruhiyatida aks etgan ta'sirlar, o'zgarishlar mushtarak tasvirlangan. Boshqa odamlarga oddiy tuyulgan, e'tibor berilmagan voqea-hodisalar ijodkor uchun mo'jiza, noyob bo'lib tuyuladi, ijodkor ruhiyati o'zgacha talqin etadi, his qiladi. Uning falsafiy she'riyatida doimo inson ruhiyati va tabiat manzaralari jonli va ta'sirli tasvirlangani haqida so'z boradi.

Tayanch so'zlar: *inson, ruhiy olam, lirik men, tuyg'ular, ta'siri, ijodkor, insoniy, tabiat manzaralari, holat, hodisalar.*

Аннотация: в этой статье один из ведущих представителей узбекской литературы Абдулла Орипов опубликовал посмертно "Sahrodagi qayin", "Chinor yashar tanho", "Nihol" и другие стихотворения о природе. На психическое состояние является ведущим, в котором на первый план выходит мир лирического «Я», а совместно описываются явления и изменения, отражающиеся в природе и психике человека. События, которые кажутся другим людям обычными, на которые не обращают внимания, кажутся художнику чудом и неповторимым, психика художника интерпретирует и ощущает его по-другому. Его философская поэзия всегда говорит о ярком и впечатляющем изображении человеческой психики и природных сцен.

Ключевые слова: *человек, духовный мир, лирическое Я, чувства, влияние, творчество, человек, природные декорации, ситуация, события.*

Abstract: in this article, one of the leading representatives of Uzbek literature Abdulla Oripov published posthumously “Sahrodagi qayin”, “Chinor yashar tanho”, “Nihol” and other poems about nature. The mental state is the leading one, in which the world of the lyrical “I” comes to the fore, and phenomena and changes reflected in the nature and human psyche are jointly described. Events that seem ordinary to other people, which they do not pay attention to, seem to the artist to be a miracle and unique; the artist’s psyche interprets and feels it differently. His philosophical poetry always speaks of a vivid and impressive portrayal of the human psyche and natural scenes.

Key words: *human, spiritual world, lyrical self, feelings, influence, creativity, man, natural scenery, situation, events.*

“Tabiatni insondan, insonni esa tabiatdan ayricha tasavvur etish mumkin emas. Tabiat inson mehnati, uning aql-zakovatidan go’zallasha borsa, inson o’zi uchun zarur bo’lgan moddiy va ma’naviy qudratni tabiatdan oladi. Shuning uchun ham so’z san’ati yaralibdiki, ular o’rtasidagi mushtaraklik ijodkorlar diqqat markazida bo’lib kelgan”. Abdulla Oripovning vafotidan keyin chop etilgan “Shoirning tug’ilishi” to’plamiga kiritilgan “Sahrodagi qayin”, “Chinor yashar tanho”, “Nihol” kabi she’rlarida tabiatning inson ruhiy holatiga ta’siri tasviri yetakchilik qiladi, bunda lirik “men” olami birinchi rejada turadi hamda tabiat va inson ruhiyatida aks etgan ta’sirlar, o’zgarishlar mushtarak tasvirlangan. Boshqa odamlarga oddiy tuyulgan, e’tibor berilmagan voqea-hodisalar ijodkor uchun mo’jiza, noyob bo’lib tuyuladi, ijodkor ruhiyati o’zgacha talqin etadi, his qiladi, tuyadi, jumladan, “Sahrodagi qayin” she’riga nazar solsak,

Mudroq sahrodagi oppoq bir qayin,
O’rmonlardan yiroq, tanho, hur qayin.
Zarrin kokil yoymish suvlar tegrangda
Qushchalar uchadi, ketmas tepangdan.
Ular kuylar senga bahor xayolin,
Sen hozir xushnudsan, ammo qay zolim
Sen-la niyatini bajo etibdi.

Ey qayin, seni...

Umidsiz tuproqqa ekib ketibdi...

Ey sho’rlik, yosh qayin, ko’p otmas butun,
Hokim bo’lar bunda jazirama kun.

Giyohlar bosh qo’yar qaynoq tuproqqa,
Olis tog’ suvlari kelmas bu yoqqa.

Ketar qushchalar ham bahorlar tomon,
Seni-chi, chanqoqlik qiynar beomon.

Va bir kun so’larsan bosh egib mayin,
Ey sho’rlik, yosh qayin, ey tanho qayin.

Yur ko’m-ko’k o’rmonga, olib ketayin.

Yotsirama, do’stim, kesmasman rostdan...

Daraxtning oldida men ham daraxtman.

Davr muammolarini ijodkor shaxs – lirik “men” timsoli vositasida ifodalashdan tashqari tabiatdagi timsollar orqali ham ifodalash, ramziylik asosida hayotiy masalalarni tasvirlash Abdulla Oripov ijodiyotining yetakchi xususiyatlaridan biridir. Tabiatda shunday holat va hodisalar bo’ladiki, uni anglash, mohiyatiga yetish ilohiy tuyg’u sohiblariga, ijodkorlarga, nasib etadi va nihol, daraxt, suv, tosh his qilgan tuyg’uni

qalban his qiladilar, kerak bo’lsa, “daraxt oldida daraxt bo’ladi”, aslida, sahrodagi qayin obrazi orqali majoziy ma’noda, hayotining jazirama, qiyin kunlarida yolg’iz qolgan inson timsoliga nozik ishora berilganday go’yo. Inson hayotining murakkab damlarida sahrodagi qayin kabi tanho qoladi, haqiqiy do’st, hamdam istaydi, lekin kim haqiqiy do’st, kim soxta aynan umrning mana shunday paytlarida bilinadi, chunki, do’stman, degan qushlar ham bahor tomon ketishadi. Qayin hayotning xatosi sabab umidsiz tuproqqa ekilgan, shuning uchun jazirama cho’lda uning umri besamar ketayotgani ijodkorning qalbini junbushga keltiradi, bu jarayonda shoir “sahrodagi qayin”ning ruhiy holatini qalban tuyish orqali yordam qo’lini cho’zishni xohlaydi. Tanholikka mahkum etilgan sahrodagi qayin bilan lirik “men” o’rtasidagi qalban yaqinlik ehtiroslarga parvoz bag’ishlaydi va she’rning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. “Chinor yashar tanho” she’rida yuqoridagi she’rga mazmuniy yaqinlikni kuzatish mumkin.

Chinor yashar tanho tog’ etagida,

Ildizlari bo’rtgan qo’l tomirday.

Balki qondir u – buloq narida

Sirli qo’shiq aytib, titrar paydar-pay.

Chinor esa bunda uning gapini

Tasdiq etgan kabi egib turar bosh.

...Bilaman, ko’p gapga guvohdir bu bosh...

Chinor yashar tanho, tog’ tagida –

Qo’l tomirday...

“Ijodkorning hayoti, ko’rgan-kechirganlari, yaratgan asarlariga muayyan darajada asos bo’lib xizmat qiladi. Bu nasriy asarlarda personajlar tabiatida, voqealar oqimida, she’riyatda esa tur spetsifikasiga ko’ra o’zgacharoq ko’rinishda namoyon bo’ladi. Modomiki, she’riyatda shoir ko’proq his-tuyg’ular, kechinmalar, ruhiy holatlarga diqqat qilar ekan, shu narsalarni avvalo o’zi tuymog’i, kechirmog’i, ulardan ilhomlanib, ruhlanib qo’liga qalam olmog’i lozim”. Psixolog L.Vigotskiy inson faoliyatini ikki turga ajratishni ma’qul ko’radi. “Birinchisi, hayotni boricha qabul qiluvchi va an’analarni davom ettiruvchi ijrochilar. Ikkinchisi, hayotni tog’ridan-to’g’ri qabul qilmay, o’zgacha fikrlavchi, yangilanish tarafdorlaridir”. Abdulla Oripov ham dunyoni o’zgacha idrok etadi, yangilik yaratish, hech kim sezmagani, e’tibor bermagan, tuymagan kashfiyotlarni she’riy asarlarida jo etadi.

Adabiyotshunos H.Boltaboyev nasriy asarlar

uslubini o'rganishga qaratilgan ishida quyidagicha fikrlar bildirgan: "Har bir yozuvchining dunyoni ijodiy o'zlashtirish jarayonida orttirgan hissiyotlar tajribasi, olamni o'ziga xos ko'rish, idrok etish, tushunish va tushuntirish yo'li bo'ladi... Iste'dodli yozuvchilarning hayotga tashlangan dastlabki nigohidayoq o'sha adib o'ziga xosligining ayrim qirralari aks etishi mumkin. Ijodkorning o'z tahlil obyektiga munosabati, uni qanday ko'rish, rang-barang hayot voqealari ichidan zaruriysini saralab olishi, uni o'z tasavvurida qayta jonlantirishi, qalb qo'rini berishi va nihoyat, asar tug'ilishigacha bo'lgan jarayon uslubiy xarakterga ega". Ustoz Abdulla Qahhor: "Yozuvchi biror hodisaga o'quvchida muhabbat yoki nafrat hissi qo'zg'atishi uchun avval o'sha his o'zida bo'lishi kerak", degan edi. Shunday bo'lmas ekan, uning asari jonsiz va quruq

chiqadi, kitobxon dilidan joy ola olmaydi, quyidagi she'rda kitobxon shoir tuygan beg'ubor tuyg'ularni qalban his qiladi, beixtiyor she'r ohangiga, dunyosiga sho'ng'iydi, bu esa ijodkorning yutug'idir, ijodkor uchun ulkan mukofotdir.

Xulosa o'rinda, Abdulla Oripovning har bir asari o'zbek xalqining qalb qo'ridan joy olgan, shu sababli ijodkorga yuksak hurmat, e'tibor va cheksiz mehr bilan munosabatda bo'lishadi. Xalqning mehri, e'tirofi, e'tibori – san'at olamida faoliyat yuritgan insonlar uchun yuksak martaba, unvondir, chunki xalq har doim haqiqiy va asl bahoni beradi, bu esa Abdulla Oripovning mashaqqatli, lekin sharaflil va matonatli mehnatlari mevasidir, qolaversa, Abdulla Oripov o'z nomini mangulikka muhrlagan takrorlanmas va noyob iqtidor sohibidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To'lakov I Hozirgi o'zbek lirikasida davr va qahramon talqini. Filol.fan.dok...dis. – Toshkent, 1994. 246-bet.
2. Ergasheva Sh.O. Saida Zunnunova she'riyatida ijodkor shaxsiyati va lirik qahramon muammosi. Filol.fan.nomzodi...dis. – Toshkent, 2008. 134-bet.
3. Vigotskiy L.S. Voobrajenie i tvorcestvo v detskom vozraste. – M.: Prosveshenie, 1991. S.345.

Dilfuza ALLAYAROVA,
SamDVMCHBU o'qituvchisi.
Dilfuza UMAROVA,
SamDVMCHBU o'qituvchisi.

LIRIK ASARLARDAMILLIY RUH MASALASINI O'RGANISH

Annotatsiya: yoshlarda Ona Vatanga muhabbat ruhini paydo qilish va uni takomillashtirish, shu zaminda yaratilgan milliy – ma'naviy yodgorliklar mohiyatini ochib berish, ularni yoshlarga tushuntirish orqali ham amalga oshadi. Nasriy va nazmiy asarlarda ifoda etilgan milliy mentalitet masalasini atroflicha yoritib berish orqali o'quvchilarda milliy ong va milliy tafakkurni o'stirish zarurdir. Ushbu maqolada ham lirik asarlardagi milliy ruh masalasi tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: lirik kechinma, badiiy tahlil, poetik kashfiyot, shakl va mazmun birligi.

Абстракт: воспитание у молодежи духа любви к Родине и его совершенствование можно осуществить путем раскрытия сущности национальных и духовных памятников, созданных на этой земле, и разъяснения их молодежи. Развивать у учащихся национальное сознание и национальное мышление необходимо путем всестороннего освещения вопроса национального менталитета, выраженного в прозаических и поэтических произведениях. В данной статье также исследуется проблема национального духа в лирических произведениях.

Ключевые слова: лирическое отступление, художественный анализ, поэтическое новшество, единство формы и содержания.

Abstract: education of the spirit of love for the Motherland among young people and its improvement can be carried out by revealing the essence of national and spiritual monuments created on this earth and explaining them to young people. It is necessary to develop national consciousness and national thinking among students by comprehensively highlighting the issue of national mentality expressed in prose and poetic works. This article also explores the problem of the national spirit in lyrical works.

Keywords: lyrical experience, artistic analysis, poetic discovery, unity of form and content.

Milliy san'atga muhabbat ruhida tarbiyalangan inson o'zida turli zararli yot g'oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetni his qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning qator asarlarida yoshlarda milliy ruh va mentalitetni oshirish borasida o'tmish va zamonaviy madaniyat yodgorliklarini, buyuk shaxslar hayoti va ijodini keng targ'ib qilish zarurligi ta'kidlangan. Uning ilm-fan, madaniyat va adabiyot arboblari bilan uchrashuvlarida har qanday xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmisligi, bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar, osori-atiqalar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilishi alohida ta'kidlangan edi. Mamlakatimiz Prezidenti ta'kidlagan ma'naviy meros safiga Muhammad Yusufning Vatan, xalq, millat, insoniy tuyg'ular kuylangan she'rlarini ham hech ikkilanmasdan qo'sha olamiz. Chunki Muhammad Yusuf doimo xalq diliga, ko'ngliga yaqin gaplarni juda topib va ravon aytgan. Uning she'rlari o'z ohangi bilan birga yozilgan. Hali siyohi qurimagan satrlarning hofizlar tomonidan ijro etilishining sababi ham shunda bo'lsa kerak. Shoir o'zining ichki his-tuyg'ularini kuylamadi, aksincha, xalq quvonchini o'z quvonchi, xalq dardini o'z dardi deb bildi. Asosan, o'lmas mavzularda asarlar yozdi. Yaratgan asarlarini hech kimnikiga o'xshamagan xalqona yo'sinda yozdi. Muhammad Yusufning "Ulug'imsan, Vatanim" she'rlar to'plamini o'qigan har bir kitobxon, har bir inson Vatanni, yorni sevishni, ardoqlashni o'rganadi. Uning "Bizdan ozod Vatan qoladi", "Vatan", "Ona Turkiston", "O'zbekiston", "Vatan yagonasan", "Yoshlar madhiyasi", "Vatanni seving", "Vatan madhi" kabi she'rlarini eslash kifoya. "Vatan madhi" she'rida shoir oddiy, sodda ravon misralarda Vatanni sevishga undaydi:

*O'ping, ko'zingizga suring tuprog'in,
Har so'zin muqaddas duodek seving.
Qadang yuraklarga millat bayrog'in,
Vatanni Najmiddin Kubrodek seving. [4:72]*

Bu misralarda shoir ulug' vatanparvar, mo'g'ullar bosqiniga qarshi kurashib jon fido qilgan Kubroni eslatadi va unga bo'lgan buyuk ehtiromini ifodalash bilan birga Vatanni Kubrodek sevishga undaydi.

Shoir to'plamining "Shaharlar madhi" bo'limida Toshkent shahri o'ziga xos tasvirlanadi. "Toshkent"ga bag'ishlangan she'rida shunday yozadi:

*Ey quyoshga qarindosh shahar,
Tinglamassan balki arzimni.
Qirq yil qulluq qilsam ham agar,
Uzolmasman sendan qarzimni. [4:43]*

Darhaqiqat, Muhammad Yusuf ilm va martaba bergan, bag'rida voyaga yetkazgan Toshkentni sidqidildan yaxshi ko'rar edi. Bu dil izhorlari oqko'ngil shoirdan Toshkent shahriga atab qo'yilgan haykalga o'xshaydi. Muhammad Yusufning "Mingtepa qo'shig'i", "Andijon", "Mahalla", "Shahrixon" she'rlarini farzandning onaga minnatdorchilik madhiyasi deyish mumkin. Shoir

ijodini e'tirof etgan ustoz "O'zbekiston Qahramoni", O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov quyidagicha yozadi: "Darhaqiqat, o'z elini, xalqini, Vatani chinqizib farzandday, beg'araz sidqidildan yaxshi ko'rar edi. Shu mehrning natijasi o'laroq, uning she'riyatini ham xuddi shundoq beminnat va beg'araz she'riyat sifatida maydonga keldi. San'atkorlar-ku uning har bir misrasini sozga solishga tayyor edilar. Haqiqiy ma'nodagi barhayotlik, zavol bilmaslik Muhammad Yusuf ijodiga ham taalluqli bo'lgay desam, inshaolloh, xato qilmagaydirman". Haqiqatdan ham Muhammad Yusuf barhayot she'riyat yaratdi. "...Uning, – deb yozadi adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov, – oson yoziladiganga o'xshab ko'ringan misralari muxlislarni yig'latadi, kuldiradi, o'z og'ushiga tortib oladi".

Darhaqiqat, badiiy adabiyotning uchta asosiy turidan biri bo'lgan lirika azaldan kechinma shaklida berilgan badiiy fikr bilan ish ko'radi. Shunday ekan, biz lirik kechinma haqida so'z yuritar ekanmiz, uning tarkibini tashkil etgan tushunchalarni ham anglab olmog'imiz lozim. Lirik kechinmaning tarkibini fikr va his tashkil etadi. Chinakam she'rda fikr va his-tuyg'u uyg'unlashib ketadi. Muhammad Yusuf she'rlari shunchalik yuqori saviyada yozilganki, unda biror bir ortiqcha narsa yo'q. Taniqli adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqulov shoirlik va she'riyat, umuman, lirika xususida so'z yuritib shunday deydi: "shoirlik – she'rni she'riyatga aloqasi yo'q narsalardan tozalay bilishdir. Chunki she'rning go'zalligi, avvalo, ana shu musaffolikda aks etadi. She'rdagi soflilik – tuyg'u va tushunchadagi soflilik demak. She'r bilan she'rxon orasidagi davomli ichki aloqa shundan boshlanadi. To'g'ri, bevosita matnga diqqatni qaratish, uni tadqiq va tahlil qilish adabiyotning barcha muhim jihatlari, o'ziga xos holatlarini yoritishga to'la-to'kis imkon berolmaydi. Ammo u adabiyot ilmini umumiy, bir yoqlama, goho farosatsizlarcha to'qilgan fikr-mulohazalardan himoyalashi shak-shubhasiz. Zero, haqiqiy adabiyot – san'atkorlik zavqi ila yaratilgan asardan boshqa bir narsa emas".

Xalq shoiri Muhammad Yusuf ijodida lirik "men" kechinma va poetik fikrni birlashtirishga xizmat qiladi. Navoiyning:

*Nazmki, ham suvrat erur xush anga,
Zimnida ma'ni dahi dilkash anga. [1:58]*

Misralarida "nazm zimni" (ichi, mag'zi)dagi dilkash ma'ni lirik kechinmaning tarkibini tashkil etadi. Bu tartib ikki element – fikr va hisdan iborat bo'lib, yaxlit holda ehtirosli fikr deb ataladi... Negaki "nazm zimni"dagi "ma'ni" (fikir) "dilkash" bo'lishligi uchun u ehtirosga o'rab berilishi kerak. Shunday qilib lirik kechinmada fikr va hissiyot qorishiq yashaydi. Bugina emas, ular bir-birining mag'iz-mag'iziga shunday singib ketadiki, ajratib olishning iloji bo'lmay qoladi. Bu ajralmas birlik – butunlik lirik kechinmaning mohiyatini tashkil etadi. Ammo takomildagi lirik kechinmaning yuzaga chiqishi uchun yana bir nima talab etiladi. Biz – o'quvchi bevosita kechinma shaklida

berilgan ehtirosli fikr (yoki fikriy ehtiros)ning shakllanish usuli, rivojlanish jarayonini kuzatib borishimiz shart. Ana shu holda “men” ifodasida kechinma – obraz yaxlit, ta’sirchan holda yuzaga chiqadi. Buni asoslash uchun Muhammad Yusufning “Beshinchi o’g’il” she’riga razm solamiz. Ushbu she’rda onadan ajragan bola qiyofasi gavdalanadi. O’g’il onadan ajragan. Uni butun borligi bilan sog’inadi. Sog’inish – mavzu. Sog’inish she’rda yetakchi lirik kechinma. Uning vositasida o’g’il obrazi ochilishi kerak. Biroq o’z onasini sog’ingan o’g’ilni she’rda yaxlit, birato’la ko’ra olmaymiz. Yetakchi lirik kechinma – sog’inish birdaniga bo’y cho’zmaydi. U bizning ko’z o’ngimizda shakllanadi, hayotiy qaytarilmas bir jarayon sifatida rivojlana boradi. Biz uni mushohada etamiz. Shu sababli ham ishonamiz. Uning oqimida sog’inayotgan o’g’il qiyofasini ko’rib turamiz. Bu qiyofa tobora ravshanlasha borib, qalbimizda abadiy qoladi:

Yetmish yulduz yog’ilib,

*Yarim oycha to’lolmas,
Yetti yanga yig’ilib,
Bitta ona bo’lolmas. [3:59]*

Ushbu misralarda lirik kechinma yukini ko’targan yurak onani qumsayotganini namoyon eta boshlaydi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, shoirning ko’pgina she’rlarida ilm-u fan qadri doimo balandligi, vatanparvarlik tuyg’usining ulug’ligi qalamga olinadi. Bu asarlar bevosita adib shaxsiyati bilan bog’liq ravishda yuzaga chiqqan, deyish o’rinli. Negaki, qomusiy olimlarning jahon ilmiga qo’shgan hissalar, ulardagi yuksak insoniylik xislati yuqoriligi, dastlab adib ijodiy laboratoriyasida uning qalbi orqali his qilinib, so’ngra badiiylik tusini olgan. Darhaqiqat, Vatanini ardoqlagan, millatini sevgan insongina uning tarixini bilishga qiziqadi. O’zligini anglashni burchi deb biladi va uning qalbi milliy ruh degan mo’tabar tushuncha bilan to’yinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Badriyev F., Xudoyberdiyev A. Adabiyot o’qitish metodikasi. – Samarqnd, 2003. 91-bet.
2. Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
3. Мухаммад Юсуф. Сайланма. Т.: Шарқ, 2007. – Б.367
4. Gulruh Bozorova, Maysara Eshniyazova. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodini o’rganishda interaktiv metodlardan foydalanish. Til va adabiyot.uz. 2023-yil. 13-son

Dilfuza SHADIYEVA,

*“International school of finance technology and science”
instituti o’qituvchisi filologiya fanlari nomzodi*

ERKIN VOHIDOV SHE’RLARIDA IRSOLI MASAL SAN’ATINING QO’LLANISHI

Annotatsiya: ilmiy maqolada irsoli masal san’ati va uning badiiy vazifasi Erkin Vohidov she’rlari orqali tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: *maqol, dalillash, irsoli masal, bayt, qofiyadoshlik, aloqadorlik, mumtoz adabiyot, zamonaviy adabiyot.*

Abstract: the scientific article analyzes the art of traditional parables and its artistic function through the poems of Erkin Vahidov.

Key words: *proverb, proof, proverb, verse, rhyming, connection, classical literature, modern literature;*

Аннотация: в научной статье анализируется искусство традиционной притчи и ее художественная функция через стихи Эркина Вахидова.

Ключевые слова: *пословица, доказательство, пословица, стих, рифма, связь, классическая литература, современная литература.*

She’riyatda maqol qo’llash irsoli masal san’atini yuzaga keltiradi. Irsoli masal ma’naviy san’at hisoblanib, mumtoz adabiyotimizda ham juda unumli qo’llangan. Namuna sifatida Alisher Navoiy ijodidan olingan

*O’qlaring ko’ngluma tushgach kuydi ham ko’z, ham badan,
Kim kuyar ulu qurug’ chun naysitong’a tushdi o’t.*

baytini keltirish mumkin. Ushbu baytda xalq orasida keng tarqalgan “To’qayga o’t tushsa, ho’l-u quruq baravar yonadi” maqoli baytning dastlabki misrasidagi fikrni dalillash uchun qo’llangan. Aslida Navoiygacha ham bu san’at keng qo’llangan. mavlono Lutfiyning “Ayoqingg’a tushar har lahza gesu”

g’azali ham bu san’atning eng yetuk namunalaridan hisoblanib, ushbu g’azalda o’sha vaqtlarda keng iste’molda bo’lgan “Charog’ tubi – qorong’u”, “Oqqan ariqqa oqar su(v)”, “Kishining ko’zi tarozu”, “Tiloganni – tilogu” kabi maqollar qo’llangan. Zamonaviy o’zbek adabiyotida ham xalq maqollarining ko’plab namunalari uchraydi. Jumladan, Erkin Vohidovning “Yoshlik devoni”ga kiritilgan g’azalarda maqollarning aynan yoki o’zgargan shaklda berilishi she’rlarga alohida badiiy vazifa yuklagan.

*Ne ajab tolpinsa ko’nglim,
Yo’q emish orzuda ayb. (“Yo’q emish orzuda ayb”)*

Ushbu baytda “Orzuga ayb yo‘q” maqoli shaklan o‘zgartirilib eshitganlik ma’nosini anglatish maqsadida “emish” to‘liqsiz fe‘li bilan qo‘llangan. Lirik qahramon dastavval o‘z fikrini aytadi, so‘ngra uni dallilash uchun maqol keltiradi. She‘rga aynan shunday sarlavha berilishi hamda uning shunday yakunlanishi ham lirik qahramonning butun she‘r davomidagi ruhiy holatiga chiroyli xulosadir.

*Do‘st qidir, do‘st top jahonda, Do‘st yuz ming bo‘lsa oz,
Ko‘p erur bisyor dushman, Bo‘lsa u bir dona ham.*

“Dushmaning bitta bo‘lsa ham ko‘p, do‘sting mingta bo‘lsa ham kam” maqoli bandga mohirona singdirilgan. *Zahmati ishq dard erursa, Zahmati she‘rdur davo,
Chunki og‘uning shifosi, Deydilar, og‘u bilan.*

Ushbu parchada bandning dastlabki misrasining isboti sifatida “Achchiqni achchiq kesadi” maqoli mazmunan saqlangan holda shaklan o‘zgartirib berilgan. Shu o‘rinda bu banddagi antiteza, ya‘ni qarshilantirishga ham alohida e‘tibor berish lozim. “zahmati ishq”qa “zahmati she‘r” qarshilantiriladi va ularning ikkalasi ham og‘uga tenglashtiriladi.

“Achchiq” so‘zining o‘rnida “og‘u”ning keltirilishi ular orasida aloqadorlikka asoslangan. “Deydilar” so‘zining qo‘llanishi ham bu maqolning juda mashhur ekanligini ta’kidlash uchun xizmat qilgan.

Elda bor shunday masal:

Jon chekmasang, jonona yo‘q. (“O‘rtada begona yo‘q”)

Xalq maqollarida ko‘pincha ikki voqelik bir-biriga qiyoslanadi. Masalan, “Arqog‘ini ko‘rib bo‘zini ol, onasini ko‘rib qizini ol”. “Yoridan ayrilgan yetti yil yig‘lar, yurtidan ayrilgan o‘lguncha yig‘lar” va h.k. Bayt uchun asos bo‘lgan maqol aslida “Tog‘ga chiqmasang, do‘lona qayda, jon chekmasang, jonona qayda” shaklida bo‘lib, shoir maqolning ikkinchi qisminigina qo‘llab, undagi “qayda” so‘zini “yo‘q” so‘zi bilan almashtirgan. Bu o‘rinda “qayda” hamda “yo‘q” so‘zlarini kontekstual sinonim deb qarash mumkin. Yuqoridagi ikki so‘z og‘zaki so‘zlashuvda ham shartli sinonim sifatida qo‘llanadi. Boshqa shoirlarning she‘rlarida ham maqollarga ijodiylik jihatdan yondashilishini kuzatamiz. Misol uchun, “Kambag‘alning og‘zi oshga yetganda burni qonabdi” maqoli Erkin Vohidov va boshqa ijodkorlar asarlarida qanday shaklda qo‘llanganini ko‘rib chiqamiz:

Masal borkim, og‘iz oshga,

Burun toshga tegibdur, voh! (“Masal borkim...”)

Bu maqol Muhammad Yusuf tomonidan

*Og‘zi oshga yetganda
Burni qonar g‘aribning (“Uch o‘g‘il va bir qiz qissasi”)*
shaklida qo‘llangan bo‘lsa, Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodida

Baxtsiz burni qonar, derlar,

Og‘zi oshga yetganda

ko‘rinishida keltirilgan. Bu uchala parchada bitta maqol qo‘llangan bo‘lsa-da, ularning badiiy vazifasi bir-biridan farq qiladi. Muhammad Yusuf qo‘llagan variantda “kambag‘al” o‘rnida “g‘arib” birligining ishlatilishi she‘rdagi vaziyat bilan bog‘liq bo‘lib, bu yerda shaxsning qancha mol-dunyosi borligi emas, balki mushkul vaziyat girdobida qolgan odamning ruhiyatini berish muhimroq. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham “g‘arib” so‘zining bu ma’nosiga alohida to‘xtab o‘tilgan. «G‘arib (a). 1. Qarindosh-urug‘i yo‘q, biror homiysi, ko‘makchisi bo‘lmagan, kimsasiz; musofir. 2. Kambag‘al, qashshoq; faqir, bechora. 3. Kishining rahmi keladigan darajada abgor; nochor ahvolda qolgan, ahvoli tang». Hamza ijodidan keltirilgan parchada ham shu ma’noga ishora sifatida “baxtsiz” so‘zi qo‘llangan. Erkin Vohidovning “Masal borkim...” she‘rida esa “kambag‘al” so‘zi umuman tushirilgan. “Og‘iz”, “burun” so‘zlari saqlangan holda “toshga” so‘zi kiritilgan. Bu dastlabki misradagi “oshga” so‘zi bilan qofiyadoshlikni ta’minlagan.

Degaylar: o‘zginin kulma, O‘zingdan bo‘lmay ogoh. (“Masal borkim...”)

“O‘zingni bil, o‘zgani qo‘y” maqolining bu tarzda keltirilishi quyidagi tahlil bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Erkin Vohidov bu maqolning mazmuniga qo‘shimcha ottenka yuklaydi: avval o‘zingdan ogoh bo‘l, biroving ustidan kuladigan holing yo‘q. Maqolga ishora sifatida “degaylar” so‘zi tarkibida badiiy uslubga xoslangan “-gay” qo‘shimchasining keltirilishi oldingi banddagi “deydilar” birligi takrorlanishining oldini olgan.

O‘zingga, deydilar, dushman Keyin chekkan pushaymon, oh.

“Masal borkim...” she‘ridan olingan bu parchada “So‘nggi pushaymon – o‘zingga dushman” maqolining bunday shaklida “pushaymon” so‘zi mantiqiy urg‘u olgan. Shuning uchun uning yoniga uyushiq bo‘lak sifatida “oh” so‘zi qo‘shilgan va ta’kid kuchaytirilgan. Demak, irsoli san‘at zamonaviy adabiyotimizda ham shoirlar ko‘p bora murojaat qiladigan she‘riy san‘atlardan biridir. She‘rda maqolning qo‘llanishi fikr isboti, asar g‘oyasining muhim qirralarini ko‘rsatish maqsadi bilan bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Erkin Vohidov. Yoshlik devoni. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1965
2. Muhammad Yusuf. Saylanma. – T.: “Sharq” NMAK, 2007.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2- jild. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
4. Hakimov M. O‘zbek yozuvchilari asarlarida maqol, matal va aforizmlar: Filol. fanlari nomzodi... dis. – Toshkent, 1965.
5. A.Hojjahmedov. She‘r san‘atlarini bilasizmi. – T.: “Sharq” NMAK, 2001.
6. Sultonmurod Olim va b. Adabiyot. 8- sinf uchun darslik. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.

Dilnoz OLLABERGANOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi

MALALA YUSUFZOY IJODINING ADABIY KONTEKSTI VA AYOLLARGA BO'LGAN MUNOSABATNING MILLIY, DINIY, MADANIY, MA'NAVIY ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada Malala Yusufzoy asarlari tahlil qilinib unda ayol va qizlar taqdiri, hayot tarzi kabi masalalar yuksak mahorat bilan yoritilganligiga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, mazkur asarlarda jamiyatda ayollar ham ta'lim olish huquqlaridan foydalanishlari mumkinligi, ularning erkinligi cheklanishlari hamda ko'plab tazyiqlarga uchrashi bilan bog'liq holatlar ifodalangan hamda ularning ta'lim va tarbiyasi haqida ham fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, oila, ayollar huquqlari, gender tenglik.

Аннотация: в данной статье анализируются произведения Малалы Юсуфзай и особое внимание уделяется тому, что с высоким мастерством освещены такие вопросы, как судьба женщин и девушек, образ жизни. Также в этих работах рассматриваются ситуации, связанные с тем, что женщины могут воспользоваться правом на образование в обществе, их свобода ограничена и они сталкиваются с большим давлением, а также высказываются мнения по поводу их образования и воспитания.

Ключевые слова: образование, воспитание, семья, права женщин, гендерное равенство.

Abstract: in this article, Malala Yusufzai's works are analyzed and special attention is paid to the fact that issues such as the fate of women and girls, lifestyle are covered with high skill. Also, in these works, situations related to the fact that women can use the right to education in the society, their freedom is limited and they face a lot of pressure, and opinions are also expressed about their education and upbringing.

Keywords: education, upbringing, family, women's rights, gender equality.

Xalq tinchligi orzusi, yurt farovonligi qayg'usi, ayol-qizlarni ilm olishlaridagi to'siqlarni yengib o'tishdagi beminnat va benazir xizmatlari uchun Nobel mukofoti lauriyatiga aylangan pokistonlik vatan himoyachisi Malala Yusufzay 1997-yil 12-iyulda tavallud topgan. Oila azolari besh kishidan iborat: otasi – Ziyovuddin Yusufzoy, onasi-Tor Pekay va ukalari – Hushal bilan Atal, bundan tashqari millat qahramonining o'zi Malala Yusufzoydir. Yosh bo'lishiga qaramasdan el-yurt oldidagi burchlarini ado etishda katta yutuqlarga erishib kelmoqda. Nafaqat o'z yurtida balki butun dunyo bo'ylab, ayollar huquqlarini himoya qilishda, ularning ta'lim olishlari uchun, ularga barcha sharoitlar, erkinliklar yaratilishi uchun ulkan sa'y-harakatlarni amalga oshirib kelmoqda. Bugungi kunga qadar, juda ko'plab davlat mukofotlari bilan taqdirlangan Malala, bugungi kunimizning eng yosh Nobel mukofoti lauriyati bo'lib qolmoqda. 2015-yil 12-iyulda Suriyadan qochib kelib, lagerlarda yashayotgan oila qizlari uchun Livanda qizlar maktabini ochganligi tahsinga sazovordir.

Jumladan, uning 2023-yilda nashrdan chiqqan "We are displaced" deb nomlangan so'ngi kitobida ham bu masalalar keng yoritib berilgan. Masalan: qochqin ayol-qizlar hayoti, yaxshi daromad topish, tinch hayotda farovon yashash va bepul va havfsiz ta'lim olishga bo'lgan yuksak ishtiyok-asarning bosh mavzusi hisoblanadi.

Ayniqsa uning boshidan kechirgan voqealarni kitob

bo'lib nashrdan chiqishi va bu kitob "Men Malalaman" deb nomlanishi, yana bir bora, ayollar ham jamiyatda erkaklar bilan bir qatorda teng huquqli ekanligini va ular ham ta'lim olish huquqiga ega ekanliklarining isbotidir.

Asar hayotiy voqealarni o'z ichiga olganligi, unda, asosan, kitobning muallifi bo'lmish Malalaning hayot yo'llari aks etgani, bu kitobga bo'lgan qiziqishni ikki karra oshiradi.

"Erkak oila boshlig'i, ayol erkakning yaxshi va munosib yo'ldoshi, u bola tarbiyasida yaxshi voris va yordamchidir, u aqlan dono, iffatli, halol, pok, to'g'ri so'z, kamtar bo'lishi, iffati va obro'sini to'kmasligi lozim, u hech qachon eriga nisbatan dimog'dorlik, viqor hissini ko'rsatmasligi, o'z ishlarini yaxshi bajarishi, shuningdek, moddiy boyliklarini tejamkorlik bilan ishlatmog'i va o'z xulq – atvori bilan o'z erini qalbida hadiksirash hissiga o'rin qoldirmasligi, umuman, er va xotin o'rtasidagi munosabatlar o'zaro hurmat va bir-birini tushunishga asoslanmog'i lozim".

Malala Yusufzoy tomonidan yaratilgan "Men Malalaman" kitobi bir nechta tillarga tarjima qilindi. Bu kitob real voqealarga asoslangan bo'lib, unda Malalaning va u yashayotgan jamiyat va undagi insonlarning taqdiri hikoya qilinadi.

Bundan tashqari, erta nikoh qurish kabi dolzarb muammoli masalalar jamiyatning oldini olishi kerak bo'lgan ustuvor maqsadlaridan biri ekanligi haqida ham so'z boradi. Erta nikoh natijasida kattalar aralashuvi va roziligi bilan, qiz bolaning istak-xoxishlari, fikrlari so'rab ham o'tirilmagan turmushga berish xolatlari

ko'plab uchrab turibdi. Bu esa nikoxdan keyingi uy-ro'zg'or ishlariga sho'ng'ib ketish, farzandlarni ketma-ket dunyoga kelishi, qaynana kelin munosabatlarida turli hil tushunmovchiliklar, ziddiyatlar, va eng asosiysi er-xotin orasidagi munosabatlarning dars ketishi, ikkala yoshning bir-birlarini tushunib olishlari uchun vaqt yetishmasligi va natijada bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbatni kamayishi yoki butunlay so'nib ketishiga olib kelmoqda. Yana eng asosiy muammolardan biri shuki, erta nikox qurish jamiyatda qizlarimizning chuqur bilim olishlari, kasb-hunar o'rganishlariga bo'lgan qiziqish, xohish va talabning kamayib ketishi natijasida sa'lbiy ta'sir qilmoqda.

Fikrim so'ngida Malala Yusufzoyning o'z kitobida keltirib o'tgan gaplarini keltirib o'tmoqchiman:

-“Biz odamlar Allohning buyukligini anglay olmaymiz. U bizga foydalana olishimiz uchun aql, his qilishimiz uchun yurak kabi mo'jizalarni hadya etgan u bizni gapirishimiz va his-tuyg'ularimizni ifoda etishimiz uchun lablarimizni, atrofigimizdagi go'zallikdan bahramand bo'lishimiz uchun ko'zlarimizni, xushbo'y hidlardan bahramand bo'lishimiz uchun burunni bergan. Alloh sari boradigan yo'llardan yurishimiz uchun oyoqlarimizni va yaxshi amallarni bajarishimiz uchun qo'llarimizni hadya etgan. Ushbu organlardan birortasini yo'qotmagunimizcha, biz uchun qanchalik muhimligini anglay olmaymiz. Bir qulog'im kar bo'lganidan so'ng buni o'z tajribamdan angladim.

Menga malakali va tajribali shifokorlarni yuborgani uchun Allohga behisob shukronalar aytaman. Bu

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibn Sino “Oila xo'jaligi”. – Toshkent: Meros, 1992-y.
2. Sodiqova T. “Yashash tilsimi”. Toshkent: G'ofur G'ulom nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2009. 19-b.
3. Yousafzai M. “We are displaced”, London, Weidenfeld & Nicolson., 2021. – 5 p.
4. Yusufzoy M. “Men Malalaman”. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. 384 bet.

Dilrabo CHORSHANBIYEVA,
Mustaqil tadqiqotchi

ABDULLA ORIPOVNING TABIAT LIRIKASIDA MAKON VA ZAMON MASALASI

Annotatsiya: maqolada shoir Abdulla Oripovning tabiat lirikasida makon va zamon masalasi talqinida ruhiy kechinmalari tasvirining yoritilishi va turli obrazlar hamda metaforalarning qo'llanilishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *xronotop, obraz, intim lirika.*

Annotation: the article talks about the illumination of the mental experiences of the poet Abdulla Oripov and the use of various images and metaphors in the interpretation of space and time in his nature lyrics.

Key words: *chronotope, image, intimacy.*

Аннотация: в статье говорится, об использовании поэта Абдуллы Орипова-метафор и различных образов, при отображении духовных переживаний автора о жизни и времени в лирических произведениях.

Ключевые слова: *хронотоп, образ, интимная лирика.*

O'zbek she'riyatida qalam tebratgan biror bir ijodkor yo'qki, tabiat mavzusiga murojaat etmagan bo'lsa. Yoki uning go'zalligini, tarovatini yuksak tashbehlar bilan tasvirlamasa. Sir emaski, ona tabiat bashariyatning ajralmas bir bo'lagidir. Hatto Navoiy hazratlaridan tortib, bugungi zamondosh shoirlarimiz ijodida ham turfa olamning,

borliqning betakror unsurlari, uning ajoyibotlari aks ettirilganini ko'rishimiz mumkin. Abdulla Oripovning yirik hajmdagi she'rlari bilan bir qatorda tabiat mavzusiga doir to'rtliklari alohida o'rinni egallaydi. Hech bir jihati takrorlanmas, o'ziga xos uslubga ega shoirning soddagina misralarida tabiatga xos ramziy ifodalar, metaforik obrazlar, falsafiy mushohadalar kitobxonni o'ylantirmasdan qo'ymaydi va o'z-o'zidan fikrlashga, tafakkur qilishga chorlaydi. Shoirning aksariyat tabiatga doir she'rlarida vaqt va makon masalasi mavzuning asosiy syujetini, qolaversa, ijodkorning intim hissiyotlarini sof va samimiy tuyg'ularini yoritib berishga xizmat qilgan.

“Shuning uchun ham shoirning qalbida tug'ligan hissiyot uning fitratiga ta'sir qilib, keyin qog'ozga to'kiladi. Ko'p holatlarda tabiat tasviri asosiy mavzusiga aylansa-da, tashqi olam va jamiyat bilan bog'liq qarashlar ham ifoda maqsadiga aylanadi”¹. Misol uchun shoirning tabiat mavzusida yozilgan, “Bahor shamol”, “Kuz manzarasi”, “Tog'lar”, “Shafaq”, “Yulduzlar”, “Ikki daraxt”, “Buloq”, “Kuz xayollari”, “Qushcha” kabi bir qancha she'rlarida badiiy makon va zamon tasviri lirik qahramonning birlamchi maqsadini ochib beruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, “Shafaq” she'rida keltirilgan:

**Tongning go'zalligini ko'rmoq bo'lsangiz,
Bilmoqchi bo'lsangiz saharning sirin,
Shomda sayr etingiz, chunki, odatda,
Shafaq tahrir etar tongning tasvirin.**

misralariga xronotop nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak: “tong”, “sahar”, “shom”, “shafaq” tushunchalari orqali o'tmish va kelajakning bevosita uzviy bog'liqligini inson umrining yoshlik va keksalik davri o'rtasida uzib bo'lmaydigan hayot rishtalarining mavjud ekanligini shu oddiy jumlar tasvirida ilg'ab olamiz. Abdulla Oripov she'riyatida so'zlarni bezak uchun ishlatmagan, balki ular zamirida ijtimoiy hayotning, o'sha davr ruhining katta global muammolarini ham yoritishga harakat qilgan. She'rlarining deyarli barchasida ramziy ifodalar ustunlik qiladi. Buni “Ikki daraxt” she'ri misolida ham ko'rishimiz mumkin.

**Zilol hovuz, tuproqda,
Ikki daraxt o'sar yonma-yon.
Bir urug'dan ko'kargan, shaksiz,
Ildizlari tutash begumon.**

Yuqoridagi misralarda, tuproq makon vazifasini o'tayotgan bo'lsa, daraxt bu tirik jonning ramziy ifodasidir.

**Biri chapga tomon anqaygan,
Beso'naqay, nimta va kesik.
Biri esa sersoya, mag'rur,
Salobatli, to'g'ri, tippa-tik.**

**Biz tutashmiz shu daraxtlar kabi,
Bir onani emgan talashib.**

Achinaman, to'g'rilash mushkul Huv daraxtni kesib, tarashlab...

Insoniyat yaralibdiki, ikki qarama-qarshi kuchlar o'rtasida har doim ichki ixtiloflar vujudga kelgan. Zero turfa xil xarakterga ega insonlar bo'lsak-da, biroq bani-bashariyatning barchasi Odam Ato va Momo Havoga borib tutashadi. She'r g'oyasidan anglashimiz mumkinki, og'a-ini, qarindosh-urug' va millatchilik muammosi jamiyatga ma'naviy zarar keltiradi. Hech bir kishi begona emas, shoir ta'kidlaganidek, ildizlarimiz bitta joyga borib tutashadi, bu esa ikki daraxt misolida ramziy bo'yoqlada tasvirlangan. Yana shuni ham sezishimiz mumkinki, ushbu she'rda sobiq Sovet davridagi o'zbek xalqiga bo'lgan adolatsiz munosabatini, qolaversa, hech bir xalqni, millatni o'zligidan, tafakkuridan ayirib bo'lmaslik kabi butun bashariyatga xos dolzarb muammolar yoritilganini anglaymiz.

Shoir ko'pgina she'rlarida xayollari misolida o'z ichki psixologik ruhiy holatini ham namoyon qiladi. She'rxonga ma'lumki, Abdulla Oripov ijodida tabiat fasllarining barchasi qalamga olingan har bir faslga o'zgacha metaforalar bilan yondashilgan. Lekin kuz manzarasi alohida e'tirof etilgan. Negadir boshqa fasllardan tabiat lirikasida kuz obyektini ko'proq o'rin egallagan. Bu bevosita shoir ruhiyati bilan bog'liq. Ana shu ustuvor ruh xronotop tushuncha bilan qarishib shoir qalbidagi kechinmalarini go'zal tarzda namoyon qilgan.

**Nimani xohlayman? Istagim nima?
Changalzor shovqinin tinglab turaman.
Yaproqlar bandida kezgan jimgina,
Ma'yus va bezovta kuzni ko'raman.
Uning qo'shig'ida, uning ohida,
Sezaman odamzod qalbin gohida.**

Bir qarashda kuzning manzarasi kishiga ma'yuslik, horg'inlik kayfiyatini beradi, ammo lirik qahramon inson qalbining xuddi yaproq kabi nafis bir xilqat ekanligiga ishora qilmoqda.

**Shu dam tuyg'ularga to'ladi ko'nglim,
titrab tarashlayman qalamim uchun
tong ham yorishadi, ey mening umrim.
Bunchalar tezlikda chopasan nechun?
Xazonlar shoshadi shoshaman men ham
Do'stim, huzurimga shoshib kel sen ham!**

Zeroki, kuzning o'zi ham vaqt jihatidan xronotop vazifasini o'tayotgan bo'lsa, shoir maqsadining yoritilishidagi barcha makon va zamon tushunchalari “ko'ngil”, “tong”, “umr”, “xazonlar” o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik asosida inson umrining bir daqiqa ham to'xtab turmasligiga, go'yoki umrimiz tongdan to shomga qadar oqar suvdek tez fursatda o'tib ketayotganligiga iymon keltiramiz. Demak, hayot falsafasi shunday ekan, inson mana shu xazon misoli yashab o'tguvchi umrini mazmunli sarflamog'i kerakligi she'r zamiriga singdirilgan. Chunonchi, lirik

asarlarda tog' xronotopi juda ko'plab shoirlar ijodida uchraydi. Biroq, Abdulla Oripov ijodida hech kimnikiga o'xshamaydigan jihatlar bor:

**Eh siz tog'lar, dilrabo tog'lar,
Yosh qalbimni maftun etgansiz.
Yoshlik, baxtni kuylagin deya
Ijodimga ilhom tutgansiz.**

Bu yerda "tog'" shoirning bolalik paytlaridayoq erishishni maqsad qilib qo'ygan ulkan orzularining ramziy ifodasi bo'lsa, ana shu orzulari, qiziqishi tufayli shoir o'zligini topishga, shaxsiyatining shakllanishiga ham tog'ni sababchi qilib ko'rasatmoqda.

Xullas, shoirning tabiat mavzusida yozilgan

hech bir she'ri shunchaki ermak uchun yozilmagan. Balki ijodkorning badiiy olamini yetarlicha ochib bera olgan. Har bir jumlasidan hayotiy falsafa ko'ngil torlarini cherta oladigan o'zgacha bir nafislikni topa olamiz. Ulug'bek Hamdam aytganidek: "Inson mohiyati turli davrlar she'riyatida turlicha jilo beradi". Shunga ko'ra bemaol aytishimiz mumkinki, Abdulla Oripov she'riyatida tasvirlangan har bir makon va zamon motivlari shoirning ichki va tashqi olamini o'zi yashagan davr ruhini yetarlicha ko'rsatib bera olgan. Qolaversa, ijodkor ona tabiatimizning har bir qirrasidan shoirona mantiq topa olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ким Ён Сун художественное пространство в лирике Б. Постренака Авториферот диссиртаци кандидата филолочи чесрих наук Москва 2001 С.30.
2. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. Toshkent "Sharq nashriyoti" aksiyadorlik kompaniyasi 2019.13.13.

Komila FAYZIYEVA,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

AMERIKA ADABIYOTIDA ROMANTIZM RUHI TUG'ILISHI

Annotatsiya: davlat, hukumat insonlarning shu huquqlarini himoya qilish uchun xalqning istagi bilan tashkil etilgan. Agar davlatning biror tuzumi mana shu maqsadlarga javob bermay, to'sqinlik qilsa, bunday davlat tuzumini yo'qotib, boshqasini o'rnatish kerak, toki yangi tuzum xalq uchun baxt-saodat keltirsin.

Kalit so'zlar: *romantizm ruhi tug'ilishi, eski dunyo, chuqur psixologizm, chuqur va qudratli ruh, changalzor o'rmonlar.*

Аннотация: государство, правительство было создано волей народа для защиты этих прав людей. Если какая-либо государственная система не отвечает этим целям и препятствует этому, то такую государственную систему следует упразднить и установить другую, чтобы новая система принесла людям счастье.

Ключевые слова: *рождение духа романтизма, старый мир, глубокая психология, глубокий и могучий дух, густые леса.*

Annotation: the state, the government was formed by the desire of the people to protect these rights of people. If a system of the state does not meet and hinder these goals, it is necessary to lose such a state system and establish another, so that the new system brings happiness to the people.

Keywords: *the birth of the spirit of romanticism, the Old World, deep psychology, a deep and powerful spirit, jungle forests.*

Ma'lumki, Amerika adabiyotida romantizm ruhi tug'ilishida Yevropadan avvalroq kelib, quldorlarga qarshi

kurashayotgan kuchlar va buyuk fransuz inqilobini keltirib chiqargan Jan-Jak Russo g'oyalaridan ta'sirlangan adiblar, shoirlar, jurnalistlar, publitsistlar iste'dodli, insonparvar, taraqqiyparvar ijodkorlar kuchli ta'sir ko'rsatdi. Yevropa adabiyotiga nisbatan juda yosh bo'lgan AQSh adabiyoti tez orada eski dunyo (Angliya, Germaniya, Fransiya) adabiyotidan o'zib ketgani e'tirof qilindi. Herman Melvill ("Mobi Dik"), Genrietta Bicher-Stou ("Tom tog'aning kulbasi"), Fenimor Kuper ("Iztopar", "Josus", Chingachkuk haqida 5 roman), Vashington Irving ("Rip van Vinkl", "Annet Delabr", "Arab munajjimi", "Al-Hamro" turkumi, Edgar Po ("Asherlar uyi", "Morella", "Vaqt o'rog'i"), Genri Toro ("Uolden", "Fuqaro va davlat"), Ralf Emerson ("Tabiat")

asallarini yozgan, yorqin siymolar tez orada jahon aro shuhrat qozondi.

Adabiy tanqid dahosi V.G.Belinskiy AQSh adabiyotida badiiylik, xarakterlar, ruhiy holatlar (psixologizm) kuchli ekani haqida yozdi. U avval Angliya romantizmining yetuk vakili Valter Skottning "Ivanoye" ("Ayvenggo") romanidagi qahramonning ma'shuqasi Revekka bilan munosabatlaridagi drammatizmni va chuqur psixologizmni maqtaydi: "Bu bir ajoyib kartina sifatida, ishq va dard bilan mast bo'lgan o'quvchining nigohiga bu kartina o'zining chuqur foni bilan qanday cheksiz manzara ochadi". Shundan so'ng V.G.Belinskiy Yevropadan Amerika sahrolariga va changalzor o'rmonlariga kelib, bu joylarni qayta

kashf etayotgan qahramonlarning xarakterlarini, psixologiyasini – ruhiy olamini chuqur ochgan Fenimor Kuperning badiiy mahoratini maqtaidi: “Kuperning “Sahroda yo‘l ko‘rsatuvchi” nomli asari ... dramatik romanning yuksak namunasidir. Umrining eng yaxshi yillarini Amerikaning katta, qalin o‘rmonlarida... o‘tkazgan, ulug‘ tabiatning keng erkinligiga berilib, tangri yaratgan ulug‘ borliqning hashamatli sukunatida tangri bilan balandparvoz suhbat qurishni istagan, tabiati chuqur va qudratli ruhga ega bo‘lgan, arslon kabi mard bo‘lishiga qaramay nozik qalb egasi bo‘lgan odam hayot yo‘lida ayollik olamining go‘zal, latif bir namunasiga yo‘liqadi va asta-sekin ishq uning butun vujudini egallaydi”. Sevgilisi, Angliyadan yangi dunyoga kelgan kichik amaldorning qizi Mabel, otasining adyutanti bo‘lgan yosh harbiy yigit Jaspersni sevib qoladi. Bosh qahramon, o‘rmon arsloni Patfaynder raqibiga o‘z sevgilisini topshirishga ruhiy qudrati yetadi.

Fenimor Kuperning bu romanida sevgi uchligi boshqa asarlardagiga sira o‘xshamaydi. V.G.Belinskiy Amerika adibining bu asaridagi lirizm va dramatismni V.Shekspir dahosiga tenglashtiradi. “Bu romanni o‘qigan va tushungan odamlar, – deydi V.G.Belinskiy, – unda bir necha ajib badiiy sahnalar borligini, bu sahnalarda hislar kurashi, Patfaynder ruhining bo‘roni dahshatli haqqoniylik bilan tasvir etilganini xotirlaydilar. Bu roman (insondagi) o‘z borlig‘idan voz kechishning yuksak darajasi, dardning buyuk materiyasi, inson qalbining eng asl, eng chuqur sirlarini fosh etishdir. F.Kuper Shekspir kabi, chuqur qalb biluvchi, ruh olamining buyuk rassomidir”. F.Kuper keyingi romanlarida ham (“Josus”, “Mogikanlarning so‘ngisi” ...), adabiy tanqid dahosining yuksak bahosini oqladi. F.Kuperning “Josus” romani qahramoni janub quldorlariga qarshi urushda Shimoliy Amerika prezidenti Jorj Vashingtonga maxfiy xizmat qilgan ekan, dushman haqida boshlig‘iga ko‘p qimmatli xabarlarini yetkazganidan keyin uni shimolliklar quldorlar josusi deb dorga osadilar, u o‘shanda ham shimol uchun maxfiy xizmatda ekanligini bildirmaydi. F.Kuper “Josus” romanida janubdagi quldorlarga qarshi urushning haqqoniy tasvirini, dramatzimini tasvirlaydi. Shimolliklar yengib, quldorlik qonun bilan yo‘q qilinishi butun dunyoda buyuk voqea edi.

Inson qadr-qimmati, shaxs erkinligi, adolatli davlat boshqaruviga doir ijtimoiy-siyosiy adabiyot bilan jamoat arboblari Tomas Peyn, Tomas Jefferson, Veniamin Franklin shug‘ullandilar. Bu yozuvchi va davlat arboblari o‘tkir publitsistik maqola va murojaatlari bilan, Parlamentdagi nutqlari bilan yangi davlat boshqaruvida irqchilikka va quldorlikka qarshi kurashdilar. Inson qadri qora tanlilar uchun ham kerak – dedilar.

Davlat va jamoat arbobi Benjamin Franklin (1706–1790) Virjiniya shtatining kichik bir qishlog‘ida tug‘ilgan,

maktabda bir yil o‘qib, yosh daho bo‘lib, ko‘p fanlarni o‘zlashtirgan, so‘ng akasining bosmaxonasida harf teruvchi, muharrir, noshir bo‘lib ishlaydi. Ingliz faylasufi va adiblari Jon Lokk, Sheftsberi, Addison, Daniel Defo asarlariga qiziqadi. U 17 yoshida Angliyaga borib, noshirlik kasbini yaxshiroq o‘rganadi. Jurnalist va noshir sifatida Filadelfiya va Pensilvaniyada gazeta chiqarib, demokratiya g‘oyalarini targ‘ib qiladi. B.Franklin ijodida eng muhimi Angliya mustamlakachilariga qarshi, Amerika ozodligi uchun kurashda faol qatnashuvi edi. Amerikada oq tanlilar va mahalliy, qora tanlilarni tenglashtirgan yangi mustaqil davlat rahbariyati B.Franklinni Angliyaga qarshi ittifoqchilardan yordam so‘rash uchun yuboradi.

B.Franklin falsafiy asarlarida davlatga faqat yirik mulkdorlar, boylar rahbarlik qilishiga qarshi chiqadi. U ilm-fanni rivojlantirishni, ma‘rifatchilikni, diniy bag‘rikenglikni, xalqaro tinch-totuvlikni quvvatlaydi. Ta‘lim sohasida xalq ommasiga yo‘l ochadi. Mahalliy “yovvoyilar” qora tanlilar insonparvar ekanligini ta‘kidlab, hindularda politsiya ham yo‘q – deydi.

Angliya mustamlakachiligidan ozodlik uchun kurashda faol qatnashgan adabiyotning ikkinchi yorqin vakili Tomas Jefferson (1743–1826) “Mustaqillik deklaratsiyasi”ni yozgan va barcha asarlarida odam savdosiga quldorlikka qarshi, inson huquqlari uchun kurashgan. U inson boshqa insonlarni ekspluatatsiya qilishga, qul qilib ishlatishga haqli emas, deydi. U Russo g‘oyalaridan ilhomlanadi. Tomas Jefferson yozgan “Mustaqillik deklaratsiyasi” (“The declaration of Independence”)da quyidagi gumanistik g‘oyalar bor: Biz mana bu haqiqatlar uchun kurashamiz: “Tangri barcha insonlarni teng qilib yaratgan va barcha insonlarga quyidagi huquqlarni ne‘mat qilib bergan: yashash huquqi; ozod va baxtli yashash huquqi. Davlat, hukumat insonlarning shu huquqlarini himoya qilish uchun xalqning istagi bilan tashkil etilgan. Agar davlatning biror tuzumi mana shu maqsadlarga javob bermay, to‘sqinlik qilsa, bunday davlat tuzumini yo‘qotib, boshqasini o‘rnatish kerak, toki yangi tuzum xalq uchun baxt-saodat keltirsin”.

Tomas Jeffersonning o‘zi Angliyaning mustamlaka tuzumini ag‘darib, yangi, adolatli, mustaqil Amerika davlatini tuzishda faol qatnashdi. U Virjiniyadan saylangan deputat edi. U qonunchilikda Kongressda o‘tkazgan loyihalar, islohotlar: yerga egalikning feodalizm shaklini tugatish, davlat va dinni mustaqil qilish va boshqalar jahondagi boshqa xalqlar hayoti uchun ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Amerika mustaqillikka erishgach Tomas Jefferson prezident Jorj Vashington davrida tashqi ishlar vaziri, keyinroq demokratiya kuchlari saylovda g‘olib chiqib, AQSh prezidenti vazifalarida ishladi. U uchinchi marta prezidentlikka nomzodini qo‘ymay, Virjiniyaga, qishlog‘iga qaytib, o‘z dalasida fermer bo‘lib, mehnat qildi. Maktab va oliy ta‘limni isloh qilish bilan

shug'ullandi. Kelgusida – deydi u, – hukumat xalqdan uzoqlashadi, fuqarolar faqat boylik, mol-dunyo topish uchun intiladi. Boylar kambag'allarni yana qul qilib ishlata boshlaydi.

Tomas Jeffersonning shogirdi bo'lgan kichik xizmatchi Tomas Peyn "Oqilona fikr" nomli satirik, pamflet asarida Angliya konstitutsiyasini tadqiq qilib, uning xalqqa qarshi ekanligini, qadimgi ikki tiraniya-qirollik va aristokratiyaning davomi ekanligini isbotladi. U Angliyadan Amerikaga kelib, qirol yakka hokimligiga, quldorlikka qarshi, xalq ozodligi, shaxs erkinligi uchun, mustaqil AQSh davlatini tuzish uchun

faol kurashga qo'shildi. U yangi Amerika armiyasining bosh qo'mondoni general Vashingtonning adyutanti sifatida g'alaba va mag'lubiyatlarni boshdan kechirdi. Xalq armiyasi qirol armiyasidan yengilgan vaqtlarda Tomas Peyn askarlarni ozod davlat qurishga chaqirib, "Krizis" nomli asarni yozgan. Jorj Vashington bu asarni barcha bo'linmalar oldida o'qitirgan. Tomas Peyn o'n uch qismli bu asarida ozodlik uchun urushlar adolatli ekanini tushuntirdi. U o'zining yozuvchi, adib bo'lib qolishiga ozodlik urushida qatnashgani sabab bo'lganligini ta'kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Roussau J.-J. Emile ou de L'Education (livre II) // Roussau J.-J. Œuvres complètes. T. I. – Paris: Gallimard, 1969.
2. Belinskiy V.G. Poeziyaning xil va turlarga bo'linishi. – T.: "O'z davr nashri", 1955. 158-bet.
3. История американской литературы в 2-х томах. I том. – М.: «Просвещение», 1971.– С.37-41.
4. И.В.Гёте. Фарбу-Шарк девони. С.Салим таржимаси.

Hoshim AHMEDOV,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

RAUF PARFINING NASRIY SHE'RLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada taniqli shoir Rauf Parfining nasriy she'rlari haqida fikr yuritiladi. Mazmun va shakl jihatidan o'ziga xosligi, poetik mahorati ochib beriladi. Adibning so'z tanlashi va obrazlilikni hosil qilishi va poetik ma'no yaratishi haqida mulohazalar bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: *Rauf Parfi, she'r shakli va mazmuni, poetik mahorat.*

Абстрактный: в данной статье рассматриваются стихи в прозе известного поэта Рауфа Парфи. Раскрывается ее своеобразие по содержанию и форме, поэтическое мастерство. Комментируются писателем выбор слов, создание образов и создание поэтического смысла.

Ключевые слова: *Рauf Парфи, форма и содержание стихотворения, поэтическое мастерство.*

Abstract: this article examines the prose poems of the famous poet Rauf Parfi. Its originality in content and form, as well as its poetic skill, are revealed. The writer comments on the choice of words, the creation of images and the creation of poetic meaning.

Key words: *Rauf Parfi, form and content of the poem, poetic skill.*

Nasriy she'rlarda gap tuzilishi odatda nasriy shaklda bo'ladi. A. Kvyatkovskiyning ta'biri bilan aytganda, "shaklan nasriy, mazmunan poetik". Matnda emotsionallik, obrazlilik, fikriy umumlashmalarning o'ziga xosligi kabi sifatlar evaziga she'rlik xususiyati zohir bo'ladi.

Rauf Parfining "So'zlar" nomli nasriy she'rida chuqur, teran ramziylik yaqqol ajralib turadi. Muallif qisqacha nasriy she'rida katta ijtimoiy-insoniy ma'no va mazmun tashigan obrazlarni tasvirlaydi. Sirdan qaraganda sodda nasriy bayon ostida umuminsoniy qadriyatlar qalamga olinganini, rang – ramz sifatida inkishof etilganini ilg'ash qiyin:

"So'zlar..."

So'zlar. Tun qo'ynida bo'shliqning qo'llari ko'ksimni qisarkan, ruhim taslim bo'lmaydir-da, olg'a intilar,

qarshimda oq bir bino paydo bo'lar oq binoda qalin va oq ko'rpalarga o'ranib-chirmanib qator so'rilarda uxlab yotgan so'zlarni ko'raman. Yana tun qo'ynida bo'shliqning temir qo'llari ko'ksimni qisarkan: – Yordam bering, uxlab yotavering, – deya hayqiraman. – Shunday uyg'otaman qadimiy so'zlarni.

Bu yerda tun – qora, yozuv – kuchlar timsoli, ezgulik kushandasi. Bo'shliq – Tun hokimi mutlaqning Azroili. Uning "temir qo'llari" hamisha tun zulmati aro qurbon izlaydi. Najot – Oq bino – yorug'lik, oliyjanoblik, yaxshilik, ezgulik timsolidan. Faqat ugina qora kirdikorlarni fosh eta oladi, uning jonbaxsh ta'siri ostida "temir qo'llar" ham erishga moyil. Insonga hamisha "oq ko'rpalarga o'ranib chirmanib" olgan so'zlar hamroh bo'lsin, esh bo'lsin, ana shu ko'hna va najotkor qadimiy so'zlar.

Shu o'rinda, sharq donishmandlaridan Unsurulmaoniy Kaykovusning so'zlari yodga tushadi: "Yashirin fikrlarni so'rasalar, aytilishi mumkin bo'lgan hamma masalani aytaverma, shunda hukmingning ko'pi to'g'ri chiqishi kerak". Kitobxon, she'r shaydosining ishi ham ana shu yashirilgan sirlarni ochish. Umarali Normatovning to'g'ri e'tirof etishicha, Rauf Parfi har bir she'rda odamning murakkab ruhiy dunyosidagi biron konkret holatni tutib olib, suratga tushirishga, holatlarni timsollar orqali, harakatdagi tafsillar orqali ifodalashga tirishadi. Rauf Parfini dastlab nima haqida so'zlash emas, balki qay tarzda so'zlash, aniqrog'i, she'riy shakl masalasi ko'proq qiziqtirar edi .

Demak, kuzatishlarni jamlab, oddiy nasriy she'rlarga xos alomatlar haqida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Tasvir (matn)ning grafik tuzilishi bevosita nasriy ko'rinishda bo'ladi.
2. Ekspressivlik (serbo'yoqlik), ta'sirchan his-tuyg'uning bo'rtib turishi.
3. Obrazlilik, fikriy umumlashmalarning kuchlilikgi.
4. Bu shakldagi nasriy she'rlarda vazn, turoq, qofiya kabi she'riyat unsurlari o'ta erkin qo'llanadi.
5. Oddiy nasriy she'rlarda ichki ohang, his-tuyg'uning yetakchiligi alohida planga chiqadi.

Bu xulosalar har bir ijodkorning mahorati bilan bog'liq holda u yoki bu darajada namoyon bo'ladi.

Ijodkor inson xohlaydimi-yo'qmi, baribir, doim yangicha ifoda usullarini o'ylashga majbur".

Xuddi shunday tuzilishga ega bo'lgan sajli nasriy she'rlar Rauf Parfi ijodida ham uchraydi. Uning "Sabr daraxti" to'plamida biz samimiy, sodda va ayni zamonda kitobxon qalbini sehrlab qo'yadigan xalqona, shirador sajli nasriy she'rlarni kuzatamiz. Bunda shoirning so'z tanlashdagi mahorati va gap qurilishidagi sodda bayon orqali mayin, xazin kayfiyatni bera olishi o'quvchini o'ziga tortadi.

Munajat

Bag'rimda g'ildirar temirchil hayot, izg'itqi chivg'inda chidamdur boshim. Faqat sen uyquchan tomirin uyg'ot. Qizimning qo'lga kuch ber, Quyoshim.

Bag'rida lahcha cho'g', aylanadi yer, kulinchim, sevinchim, quyuq ko'z yoshim. Faqat sen qizg'anma, bir kaft mehr ber, ilinjim, sig'inchim – buyuk Quyoshim

Qizig'i shundaki, buni oddiy she'r ko'rinishida yozsak, barmoq vaznidagi nihoyatda nafis o'n bir hijoli she'r hosil bo'ladi:

Bag'rimda g'ildirar temirchil hayot,
Izg'itqi chivg'inda chidamdir boshim.
Faqat sen uyquchan tomirin uyg'ot,
Qizimning qo'lga kuch ber, Quyoshim...

Shunday ekan, shoir nega an'anaviy usuldan voz kechdi? Bizningcha, buning sabablari bir nechta. Birinchidan, ohangdorlik va she'riy – ravon, o'ziga xos maromni she'rda qofiya yaratsa, nasrda saj' hosil qiladi.

Rauf Parfi "Munajat"ni barmoq tizimiga xos shaklda, hijolarga qat'iy asoslangan holda yozganda intonatsiya, o'z o'rniga ko'ra qofiya talabiga binoan, misra oxiriga ko'chadi. Bu o'rinda sajning roli katta. Intonatsiya, xushohanglik bir necha ohangdosh so'zlarni o'zaro yoxud ketma-ket kelishidan hosil bo'ladi. So'zlarda mavjud bo'lgan mana shu tovushdoshlik tildagi go'zallik hosil qiluvchi nisbatning bir turidir. Ammo buning o'zi bir necha ko'rinishlarga ega bo'lib, bular nutqqa turli miqdor va darajada husn bag'ishlaydi. Bularning eng husndori va eng ko'p foydalaniladigan so'z oxiridagi tovushdoshlik bo'lib, bundan so'z ustalari nazmda qofiya, nasrda saj' yasaydilar.

Ikkinchidan, odatda, munajat – Xudoga iltijoni anglatadi. She'rning turg'unlik davrida, adabiyotga tazyiq kuchaygan davrda yozilganini hisobga olsak, adib, yaratgan Ollohning nomini majburan "quyosh"ga almashtirganini sezish mumkin. Saj' san'ati "Qur'oni karim"ni qanchalar bezaganini bilgan holda shoir, balki saj'li – nasriy shaklda she'r bitmoqni a'loroq bilgan.

Va nihoyat, uchinchidan, mo'jazzgina she'rdagi ortiq darajadagi hissiyot, dardni an'anaviy shakldan ko'ra noan'anaviy (nasriy she'r) shakl ko'zlanganidek yuzaga chiqara olishi mumkin. Navoiy so'zlari bilan aytganda "so'zdagi ma'ni jone dururkim, so'z qolib onsiz qolibe dururkim jonsiz" .

Demak, bu yerda biz nasriy she'rda ham ijodkorning iztirob, kechinmalari, yurak tug'yonlarini ajoyib pafos bilan bera olishi mumkinligining guvohi bo'lamiz.

"She'riyat – hamisha kashf etishdan iborat" .

Fikrimizni yakunlab quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

1. Fabula (matn) nasriy ko'rinishda bo'ladi.
2. Saj' san'atining har uch shakldan (saj' mutavoziy, saj'i mutarraf, saj'i mutavozin) tegishlicha istifoda etiladi.
3. Saj' tufayli aniq, izchil vaznga xos marom yuzaga keladi, o'ziga xos ritmik – intonatsion tuzilish hosil bo'ladi.
4. Ma'lum kompozitsiyaga ega bo'ladi, bu bir necha misradan (abzaslardan) yoki bandlardan iborat bo'lishi mumkin.

Mazkur saj'li nasriy she'rlarda ko'p mavzu va mazmunni qamrab oluvchi turkum yoki dostonlar ham bitish mumkin.

Nasriy she'rlarning saj'li shakli mahsuldor bo'lib, undan hali ko'plab poetik mo'jazzalar kutish mumkin.

Mustaqillikka erishgandan keyin adabiyotimizda buyuk bir "qaytish" sezilmoqda. Ya'ni ilohiy ishq sari intilish, mantiqan, mumtoz salafimizning buyuk e'tiqodlariga monand ishqparastlik sari intilish ro'y bermoqda. Iqtidorli adiblar – Rauf Parfi va Xurshid Do'stmuhammadlar ham "Ollohga bo'lgan muhabbatdan buyukroq muhabbatning o'zi yo'q"ligini ta'kidlaydilar .

Xo'sh, shunchalar ruhafzo, shunchalar rang-

barang olam turfaliklariga, hayratbaror tuyg'ularga boy ishq-muhabbat mavjlari – nasriy she'rlarda qanday aks etmoqda?

Rauf Parfi ikki qalb o'rtasidagi iztirob, hissiyot "po'rtanalariga" serob, ishq kechinmalarini ikki tafsil – qo'g'irchoq va ayol timsolida jonlantiradi. Oddiy gap qurilishiga asoslangan "Sevgilimning porloq-porloq..." nasriy she'rida tuyg'ular so'z zamirida, yuzaki qaraganda sezilmaydi. Lekin ramziy ifoda qatlarida chuqur hayotiy, ishqiy dard aks etadi:

"Sevgilimning porloq – porloq ko'zlarini ko'rmoqdaman ko'zguda. Qo'llarida qo'g'irchoq – jingalasochoq, munchoq ko'zli qizaloq. Parishon. Avaylar, beparvo bolaligi – qo'g'irchoq'ini. Nahotki vidolashurlar, nahotki?! Oqarib ketdi oq ko'zguning rangi.

Qanday bardosh ila qarab turibman, men hech kim, hech narsa emasman axir, ko'zguning qarshisida".

Shoir qarshilantirish san'atiga asoslanib, sevguvchi qalblar iztirobini ramzlar orqali ifodalaydi. Mahbusaning "porloq-porloq" ko'zlari shirin, saodatli VISOL damlariga ishora. Qo'g'irchoq o'sha shodumon damlarni yodga soladi. O'zi oq ko'zguning rangi tag'in oqarib ketishi – mubolag'a san'ati bo'lib, ayriliq va hijronning og'ir kunlarini, fidoyi muhabbatning aks sadosi. Shuning uchun ham shoir shul buyuk iztirob oldida o'zini o'ta o'z sezadi.

Ko'ramizki, Rauf Parfi ushbu nasriy she'rida asosan simvolika (ramzlar), so'z tartibi (inversiya) va tazod, mubolag'a usullari yordamida badiiy niyatiga erishgan.

Biz kuzatib chiqqan nasriy she'rlar tahlili shuni ko'rsatdiki, so'z tanlash va qo'llashda ikki tamoyil (tendensiya) kuzatilmoqda:

a) an'anaviy usul: b) Qur'oni karim oyatlari, Hadisi sharif hikmatlari yoxud ular bilan bog'liq fikrlarni istifoda etish usuli.

An'anaviy usul umuman keng ma'nodagi ijodga, she'riyatga xos an'anaviy usuldir. Bunda ijodkor poetik mantiqqa mos yangicha so'z qo'llaydi, shu asos o'ziga xoslikka erishishga intiladi.

Rauf Parfining "Munojot" nomli saj'li nasriy she'rida shunday misralar bor:

Bag'rimda g'ildirar temirchil hayot, izg'itqi chivg'inda chidamdir boshim... .

Bu yerda uchta so'z izoh talab qilyapti – temirchil, izg'itqi, chivg'in. Sezishimcha, shoir har uchala so'zga alohida urg'u beryapti. Ular tafsiliy vazifada istifoda qilinaypti. Ya'ni Hayot otlig' zohiriy-botiniy hukm-farmoning iztirob, og'riq, daxshatlari, uning o'z inson jismiga, ruhiyatiga yetkazajak zarbalari, dard-musibatlar ana shu uch so'zga jo qilingan. She'rda dard chekib yotgan xasta qizaloqqa falak ul-azim – Quyoshdan (yaratgan egamdan) najot so'ralyapti. Bu yerda "chil" qo'shimchasi otdan sifat yasovchi kamunum affikslar turkumiga kiradi: dardchil qiyofa, namchil havo kabi. "Temirchil hayot" deyish orqali shoir hayotning inson umriga solguvchi kutilmagan

zarbalariga ishora qilyapti.

Har qanday sharoitda ham irodali, sobit e'tiqodli inson taqdir yozg'iriqlari aro o'zligini saqlab qoladi. "Izg'itqi" – fikrimizcha, "izg'irin" so'zining poetik mantiqni kuchaytirish uchun qo'llangan "shoirona shakli ("ma'no ko'chishi" – transformatsiya usuli). "Chivg'in" (chiviq) ham shunday talqin namunasi deyish mumkin. Ana shu so'z birikmasini yasash orqali shoir o'zining ustuvor ishonchi, iroda-sabotiga ishora qilyapti. Bu "Munojot" ruhiga mos. Inchunun Navoiy ham "Munojot"ida aytganidek: "Ilohi, bu ofatlarning iloji senga osondur, menga dushvor. Men banda tavba qildim degandin ne sud, sen tavba bergilki, ham tavvobsen va ham Ma'bud" .

Poetikada yangi so'z yasash ko'pincha san'atkorning mushohadakorligiga, obrazni his eta bilishga va uni konkret tasavvur eta olishiga va ana shu kabi sabablarga bog'liqdir .

Xulosa. Shoir uchun, qaysi shaklni tanlamasin, eng avvalo, o'zining his-tuyg'u, kechinmasini bera olishi muhimdir. Chunki fikr – faylasufga xos tuyg'u, hissiyot, ehtiros – shoir, ijodkorga xos. Lekin chinakam iste'dodning asarlarida unisi ham, bunisi ham va yana mussavirona zukkolik ham aks etadi. Shunday misralar bo'ladi, ulardan oniy lahzalar, holatlar jonlanadi. Tasavvur, sezgi – sezim hissi uyg'onadi. Shunday misralar bo'ladi, kechinma, hissiyot xossalarini jamlab, quyma ibratomuz hikmatlar, hayotiy o'gitlar, maqol, iboralar hosil bo'ladi. Faqat insonning ichki dunyosida abadiy bo'lgan narsagina, ya'ni uning ruhi, hissiyotlari, tuyg'usigina yashab qoladi, xolos.

Asar kitobxonni o'ziga asir qilib, maftun eta olgandagina yozuvchi mehnatini e'tirof etish mumkin. Zero, mustahkam e'tiqodi, o'ziga xos badiiy-estetik qat'iyatlari (prinsiplari) bo'lgan ijodkorgina manzur asarlar yaratishi mumkin. His qilinmasdan, ichki bir sezgi, ehtiyojdan kelib chiqmasdan, yozilgan narsa o'quvchiga yuqmaydi. So'z she'riyatida o'ta hayajonli bo'lishi, o'ziga diqqatni torta olishi kerak. Mabodo og'ir, hissiz so'zlar qatlami terib chiqilsa, ular she'riy ohang bilan jaranglamaydi. Agar she'riy parchani o'qiyotganda so'zlarning sehri tebranishlarini, ma'no tovlanishlari-yu, mazmuniy, shakliy o'ziga xosliklarni his qilmasang, unda so'z o'lik, jonsiz, ta'sirsizdir. Faqat yurakdan sizib chiqqan, ustidan ruhning betakror jilolari qandaydir ilohiy yog'dudek miltillab turgan so'zlargina fusunkor, hayajonli bo'ladi, mehriyosi bo'ladi.

Poeziya uchun eng zarur bo'lgan – obraz, kayfiyat, yashirin ma'no, uslubiy-tasviriy o'ziga xosliklar nasriy bayonda ham saqlanib qoladi. Ko'ryapimizki, nasriy she'rlarda ham yuksak poeziya talablari aks etadi. Nasr va nazmni o'zaro bog'lovchi, oraliq janr bo'lmish – nasriy she'rlarda ham ijodkorlar uchun imkoniyatlar bor. O'ziga xos uslubga ega bo'lgan taniqli rus shoiri – Andrey Bely uchun hatto "poeziya va proza o'rtasidagi chegara yo'qday edi". Lekin bu

degani nasriy she'rlarning ma'lum qoida – talablari yo'q ekanda degani emas. Aslo! Ularning ham o'z qoidalari bor, o'z vazn, o'z ohanglari bor. Unda ichki ritm (marom), ichki bir musiqa, jarang bo'ladi. Undagi obrazlar, katta vazifalar, yuklatilgan poetik timsollar ijodkordan ko'p mehnatni talab qiladi. Chamasi, har bir ijodkorda nasrdan nazmga, yoki unisidan bunisiga o'tayotganda orada go'yoki bir "nafas rostlash" mashqlari bo'ladi. Buni ulug' ijodkorlar ijodida aniq ko'rish mumkin. Masalan: Alisher Navoiy umrining so'nggi yillarida nasriy she'rlarning chiroyli ko'rinishlari jamlangan, ham shaklan, ham mazmunan o'ziga xos "qomusiy asari" – "Mahbub ul-qulub"ni yaratdi. Ivan Sergeevich Turgenev ham hayotining so'nggi yillarida sof nasriy she'rlarini ("Стихотворения в прозе"), fransuz adibi – Aloiziyus Bertran esa shu janrni asosladi – asarlarini yozdi, lekin ayni kamolot, balog'at ostonasida, 34 yoshida kashfiyotini adabiy jamoatchilikka berib o'lgan. Demak, har bir ijodkorda, Erkin Vohidov yozganidek, o'zini yangilash, odatiy fikrlash uslubidan, odatiy vazn va qofiyalardan uzoqlashish istagi, ehtiyoji tug'iladi. Ana shunday istaklarga javob o'laroq nasriy she'rlar yuzaga chiqadi. Ularda adib o'zini sarbastdagidan ham erkin sezadi. Shoir vazn, qofiya kabi she'r mashaqqatlaridan qutuladi. Chunki chiroyli mazmun, poetik topilmagan mos ifoda hammavaqt ham topilavermaydi. Unga maqbul usul, shakl topish ham bir muammo. Lirikamni tahrir qilish, ularga tartib berish mushkul, – deb yozadi Eduardas Mejelaytis, – ish emas, turgan-bitgani azob. Qiyomiga yetmagani (ba'zan sof texnik kamchiliklari) shunchalar ko'pki, ba'zi o'nqir-cho'nqirlarini shag'ar bilan to'ldiraman, tekislayman... Qofiyani to'g'rilay boshlasang, misra, fikr, obraz so'ng butun she'riy band buzilib ketadi. Obrazni esa buzishni xohlamaysan, lirik kechinmani saqlab qolishga harakat qilasan kishi... Bir necha she'rlardan voz kechishga to'g'ri keladi: ularni tuzatish uchun hech qanday vosita topa olmayсан. Ularning chiqindiga aylanishini esa xohlamayman. Menga ulardagi iliq, botiniy lirik kayfiyat qimmatlidir.

Biz ana shunady "lirik kayfiyat" saqlangan nasriy she'rlarning bir qanchasini ko'rib chiqdik. Garchand, badiiy ijod olamida mazmun yetakchi, birlamchi bo'lsa ham, shakl o'sha mazmunning talabidan kelib chiqadi va qolaversa, adabiy jarayonda shaklning ahamiyatini e'tiborga olmaslik "vulgar sotsiologizm" deb atalmish

g'ayriilmiy tushunchaga olib keladi. Demak, tegishli mazmunga xos maqbul shakl bo'lmish – nasriy she'rlarni qayd etish lozim.

Ishimizda nasriy she'rlarning uch turini tahlil qildik: oddiy nasriy she'rlar, mansuralar, saj'li nasriy she'rlar. Ibrohim G'ofurovning mansuralari misolida sochmaning sifat va miqdor jihatdan o'zgargan yangicha shaklini ko'rdik. Ammo adabiy hayotda eski shaklga jon kirgiza olish, o'sha shaklni ijodkorning o'y-kechinmalari, badiiy estetik qarashlarini ifoda etishga xizmat ettira bilish – shoirning iste'dodiga, mahoratiga va boshqa omillarga bog'liqdir. Lekin adabiy jamoatchilik Ibrohim G'afurovning tajribalarini iliq kutib oldi. Va ijobiy baholadi. Shuningdek, saj'li nasriy she'rlar barmoq tizimidagi she'rlar kabi va hatto ulardan ham badiyroq, pishiq-puxtarok ekanini keyingi paytlardagi she'riyat isbotlamoqda. Shu tariqa, nasriy she'rlar shakllari she'riyatda xilma-xillik uslubiy rang-baranglik ufqlarini tag'in ham kengaytirdilar. Ijod – shunday bag'ri keng maydon, hamma bir-biridan o'rganadigan serbaraka san'at olamidir. Ana shunday o'zaro ta'sir, ijodiy o'rganish asnosida nasriy she'r ko'nikmalari asta-sekin ijodkorlar tomonidan ijodiy o'zlashtirilib borilmoqda. Buni Muhammad Yusufning "Osmonning oxiri" nomli mansurasi, shoirlardan – A'zam O'ktam, Salim Ashur, Shuhrat Ne'mat, Shuhrat Ikrom va boshqa ijodkorlarning qator saj'li nasriy she'rlari misolida ko'rish mumkin.

Endilikda ijodkor uchun o'zini nasriy she'rlarning uch shaklidan xohlagan birida sinab ko'rish imkoniyati bor. Ammo ijod – bu subyektiv – intellektual, nozik ruhiy-ma'naviy jarayon bo'lgani uchun, iste'dodga yo'l ko'rsataverish to'g'ri kelmaydi. Har bir asar o'zicha bir olam bo'lganidek, uni tushunish, badiiyatni kashf etish, tadqiq etish ham o'ziga xoslikni talab etadi.

Bizning nazarimizda, mazkur ishimiz o'zbek adabiyotida nasriy she'r haqida ma'lumot beradi va shu ma'lumot – tadqiqot natijalariga suyanib, ilmiy-adabiy jamoatchilikda ushbu she'riy tizim haqida dastlabki qarashlarni bayon etish mumkin. Nasriy she'rni filologiya fakultetlarining maxsus kurslarida, turli xil anjumanlarda o'rganish, badiiyati, o'ziga xosliklari kabi xususiyatlari ustida kuzatishlar olib borish mumkin. Bizning tadqiqotimiz kelajak ishlar uchun bahslar, tadqiqotlar uchun fundament, asos bo'la oladi deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Квятковский А. Поэтический словарь. – М.: Сов. Энциклопедия, 1966. – 375 стр.
2. Doniyorov R., Toshpo'latov B. Shayxzodaning so'z ma'nosini o'zgartirish va so'z yasash mahorati (O'zbek tili va adabiyoti, 1974. №2. 58-bet.
3. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent.: Fan, 1989. 382-b.
4. Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: O'qituvchi, 1986. 168-b.
5. Rauf Parfi. Qaytish. Lirika. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashr., 1981. 191-b.
6. Rauf Parfi. Sabr daraxti. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashr., 1986. 216-bet.

7. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. M. Nurmuhammedov tahriri ostida. Birinchi tom. – Toshkent: Fan, 1978. 448-bet.
8. Rustamov A. Soʻz xususida soʻz. – Toshkent.: Yosh gvardiya, 1987. 156-bet.
9. Rauf Parfi. Muhabbat... (Yoshlik. – 1991. № 9–10–14-bet).
10. Rauf Parfi. Muhabbat... (Yoshlik. – 1991. № 9–10–14-bet).
11. Xurshid Doʻstmuhammad. Muhabbat... (Yoshlik. № 9–10–14-bet).

Sanobar KAMOLOVA,
OʻzDJTU dotsenti, filologiya fanlari
boʻyicha falsafa doktori (PhD)

TURLI TILLAR TALQINIDA SHAXS ISMLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada oʻzbek, arab turk va fransuz tillaridagi ismlarning leksik-semantik xususiyatlari haqida bayon etilgan. Turk olamida ismlar oʻziga xos qonunlar asosida ishlatilishi ifodalangan. Hozirgi kunda ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy sharoitlar, oila tiplari, turmush tarzi, mentaliteti va boshqalar, bularning barchasi nomlashda oʻz ifodasini topgan. Oʻzbek antroponimlarining ham leksik-semantik xususiyatlari katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada turli tillardagi antroponimlarning oʻziga xos xususiyatlari misollar asosida tahlillangan.

Kalit soʻzlar: *leksik-semantik xususiyat, antroponim, madaniy hayot, axloqiy-tarbiyaviy, leksik maʼno.*

Аннотация: в данной статье описаны лексико-семантические особенности имен в узбекском, арабском, турецком и французском языках. В тюркском мире использование имен основано на определенных законах. В наше время в именовании выражаются социально-экономические, социокультурные условия, типы семей, образ жизни, менталитет и т.д. Лексико-семантические особенности узбекских антропонимов также имеют большое значение. В данной статье на примерах анализируются особенности антропонимов в разных языках.

Ключевые слова: *лексико-семантический признак, антропоним, культурная жизнь, нравственно-воспитательное, лексическое значение.*

Abstract: this article describes the lexical and semantic features of names in the Uzbek, Arabic, Turkish and French languages. In the Turkic world, the use of names is based on certain laws. Nowadays, naming expresses socio-economic, socio-cultural conditions, types of families, lifestyle, mentality, etc. The lexico-semantic features of Uzbek anthroponyms are also of great importance. This article analyzes the features of anthroponyms in different languages using examples.

Key words: *lexical-semantic feature, anthroponym, cultural life, moral and educational, lexical meaning.*

Fanda leksik maʼno va tushuncha munosabati munozarali masalalardan biridir. V.Gumboldt, E.Sepir, B.Uorf,L.

Vaysgerber ishlarida leksik maʼnoni aniqlashda ilmiy izlanishlar qilindi. Ularning fikricha, ongda voqelikning tasvirlanishi til qurilishi bilan belgilanadi. Yaʼni maʼno til strukturasi bilan aniqlanadi va u oʻz navbatida voqelikni anglashni ham belgilab beradi. Baʼzi tilshunoslar tushuncha va maʼnoni boshqa-boshqa hodisa sifatida qatʼiy chegaralasalar, baʼzilari esa har ikkisini ham bitta hodisa deb tan oladilar. Tushuncha va leksik maʼno ham alohida ikki xil hodisami, bir hodisaning ikki tomonimi, bundan qatʼiy nazar, ularning oʻziga xos umumiy va farqli, bir-biriga bogʻliq va bogʻliq boʻlmagan tomonlari mavjud. Tushuncha ham, leksik maʼno ham voqelikning inʼikosi shakllaridir. Tushuncha voqelikning (umumlashgan) inʼikosi hisoblansa, leksik maʼno esa tushunchaning, yaʼni inʼikosning inʼikosidir.

Tushuncha ham leksik maʼno ham umumlashtiruvchi kategoriyadir. Oʻzbek turmushida yuz bergan yangi va yaxshi oʻzgarishlar ismchilikda ham shunga mos

tendensiyalarni paydo qildi. Bu davrga kelib ism berishning islomgacha boʻlgan turkiycha (oʻzbekcha) rasm-rusumlari “islomchasiga, musulmonchasiga nomlash» odatlari bilan almasha boshladi. Chaqaloqqa nom berish islom dinining maʼlum talablarini bajo keltirish asosida (masalan, chaqaloqning qulogʻiga azon aytish, chaqaloqqa diniy tushunchali ismlar tanlash va boshqalar) amalga oshiriladigan boʻldi. (Begmatov E. Oʻzbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013. 190–191-betlar). Shunday tendensiyalardan biri kelib chiqishi arabcha boʻlgan va diniy maʼno-mazmuni bilan xarakterlanadigan ismlarning qoʻyilishining faollashganligidir. Nomshunoslikning mashhur bilimdoni Ernest Begmatov ham turkiy xalqlarning islom diniga oʻtishi uning antroponimiyasiga katta taʼsir koʻrsatganini, diniy motivlarning ism tanlashda yetakchilik qilishini alohida taʼkidlagan edi. [E. Begmatov, 2013;1]. Bugungi kun odami uchun bolani

etnik urflarga rioya qilib, axloqiy-tarbiyaviy tomonlari o'ylab, diniy e'tiqoddan kelib chiqib, ukaning ismini akanikiga, singilning ismini opanikiga uyqash qilib ism qo'yishning o'zi yetarli bo'lmay qoldi. Jarangdorlik, originallik, kamyoblik ismchilikda asosiy motivlarga aylanmoqda. Yetarlicha hayotiy tajribaning yo'qligi yoki ba'zida o'z bilarmonlikning oqibatida serial qahramonlari yoki chet ellik sportchilarga havasmandlik ortidan Ishani, Rivaldo kabi ismlar qo'yilmoqda. Hozirda bu ismlar farzand uchun g'ayritabiiydek tuyulmas, ammo keksalik yoshiga yetganda Ishani xola, Rivaldo tog'a tarzida murojaat qilish aytuvchiga ham, ism egasiga ham ta'sir qilishi aniq.

Turk jamiyatidagi ijtimoiy hayot va madaniy xususiyatlar ismlarga bevosita ta'sir qilgan. Masalan, hayot va fikrlash tarzi, tili, dini, madaniyati va boshqalar. Turk mifologiyasida sher, ot, achchiq, buqa, tuya, kiyik, yo'lbars, echki, qo'y, it, lochin, bo'ri, qoplon, lochin, burgut, turna, oqqush, sungur kabi hayvon nomlari – ko'chmanchilik tufayli muhim o'rinni egallaydi. Bundan tashqari, ularning e'tiqodlarida, tabiat va Tabiatdagi predmetlar ham katta ahamiyatga ega va bu xususiyatlar nomlarda ham o'z ifodasini topgan. kun, Oy, Yulduz, Osmon, Tog', Dengiz kabi nomlarning qo'yilishi buning dalilidir. Turk jamiyatida o'g'il tug'ilishi qiz boladan ko'ra hurmatliroq sanalganligi sababli, o'g'il bolalarga ism qo'yishda ko'proq e'tibor berildi va g'amxo'rlik qilindi. Erkaklar uchun ko'pincha qizlarga kuch, jasorat, qahramonlik va jasorat bilan bog'liq ismlar qo'yilgan. Asosan yaxshi his-tuyg'ular, rahm-shafqat, go'zallik, go'zal narsalar yoki xushbo'y, jozibali, narsalarni bildiruvchi nomlar berilgan. Dastlabki davrlarda ismlar sof turkiy bo'lib, keyinchalik madaniy ismlar ta'sirida bo'lgan. Shuningdek, Turkiya islom bilan eng katta o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Umuman, bugun arabcha nomlar eng katta ulushni, keyin esa forscha nomlarni tashkil qiladi. VII-VIII asrlarda arablarning Movarounnahr hududlariga bostirib kirishlaridan so'ng, mahalliy erkaklar "Abu Ali ibn Sino yoki g'arbda Avitsenna nomi bilan tanilgan, Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy yoki ingliz tilida Al-Biruni kabi to'liq nomlarni olishgan. Bu yerda "abu" ota va "ibn" – o'g'il degan ma'noni anglatadi. Mahalliy ayollarga kelsak, ularning ismlaridan oldin "binni yoki binti" ishlatilgan bo'lib bu "qizi" degan ma'noni bildirgan. Shuningdek, arabcha ismlarning bir nechtsini leksik-semantik ma'nolarini misol keltirsak. Abdulaziz – (arabcha) bu o'rinda «abdu» va «abu» so'zlarini farqlay olish kerak, «abdu» – qul, «abu» — ota ma'nosida qo'llaniladi. «Abdu» bilan boshlanadigan ismlarga Allohning zoti va sifatleri qo'shilgan. Turob – tuproq, fayz-baraka, mo'llik beruvchi; Fattoh — bandlarni ochuvchi, rizq eshiklarini ochuvchi; Forix – nurli, nurafshon; Xannon — rahmdil va shafqatli; Adham -badanida qora dog'i bor bolaga ism sifatida qo'yilgan. Azamat (arabcha);

ulug'vor, dovyurak Ayyub – payg'ambarlardan Ayyub alayhissalomning ismi bo'lgan. Ammo bu ismning ma'nosi pushaymon bo'luvchi deganidir. Shu bilan birga, ibodatgo'y, tavba qiluvchi deb ham izohlash mumkin. Akbar – ulug', ulkan, hurmatli, mo'tabar kabi ma'nolarga ega. Akmal – arabcha; mukammal, benuqson demakdir. Akram – arabcha bo'lib, o'ktam, jo'mard ma'nolarini beradi. Alimardon – arabcha-forscha; yuksak martabali kishi degan ma'noni beradi. Alisher – arabcha-forscha; yuksak martabali sher; istilohiy ma'nosi — sherdek dovyurak, martabali demakdir. Asila – arabcha; nasli toza ma'nosida keladi. Aksariyat oqsuyak, zodagon oilalarda go'dakka shunday ism beriladi. Afro'z – forscha; yorug', ravshan, nurli, munavvar, shu'lali, kuydiruvchi ma'nolariga ega. Ibrohim, Ismoil, Ya'qub, Zakariyo kabi o'tgan payg'ambar alayhimussalomlarning go'zal ismlarini ko'p eshitamiz. Farzandlarimizni o'sha ismlar bilan nomlaymiz. Lekin juda kamchiligimiz bu ismlarning ma'nolarini bilamiz. Ba'zilar bu ismlar ma'nosini bilish uchun arab tili lug'atlariga murojaat etadilar. Vaholanki, aksar payg'ambarlar Bani Isroilga yuborilgani bois ularning ismlari ibroniychadir. Odam alayhissalom Ma'nosi: Yer, tuproq. Ingliz tilida Adam; Nuh alayhissalom Ma'nosi: Hodiy, hidoyatga chaqiruvchi. Ingliz tilida: Noah; Idris alayhissalom (Birinchi bo'lib qalam bilan yozganlar. Alloh taolo bu zotni to'rtinchi osmonga ko'tarib qo'ygan) Ma'nosi: Asos soluvchi va bag'ishlovchi Ingliz tilida: Enoch Hud alayhissalom Ma'nosi: Rafiq – do'st. To'rt arab payg'ambar: Hud, Solih, Shuayb, Muhammad alayhissolatu vassalomlarning biri. Ingliz tilida: Heber; Ibrohim alayhissalom Ma'nosi: Ummatlar otasi. Inglizchada Abraham.

Fransuz ijtimoiy diskursida ayol va ayolning xulq-atvorini ko'rsatuvchi leksemalar erkaklarga qaraganda, ko'proq salbiy konnotatsiya baholarini oladi. Ayol jinsiga tegishli ismlarning ko'pchiligi ayollarni yengil tabiatli ayol sifatida tavsiflaydi, masalan: Jeannoton, Marie salope, Marie, couche-toi là!, Margoton, Margot, Julie. Faqat ayol jinsidagi antroponimlar ijtimoiy diskursda narkotik moddalarning nomlarini olgan: jumladan, narkotik moddalarning: Hélène – heroin, Julie – kokain, Marie – marixuana, Marie-Jeanne – marixuana, nasha va h.z., spirtli ichimliklarning: Marie Salope («Qonli Meri», aroq va tomat soki), mère Moreau (Moro uyi vinosi, so'zma-so'z «Moro ona»), marguerite (aroqning nomi) va gilotinaning (bosh oladigan jodi) fransuz etnomadaniyatida jazolaydigan qurolning umumlashtirilgan obrazi sifatida: épouser Marianne, so'zma-so'z «Mariangga uylanmoq», mère au bleu so'zma-so'z «samoga olib boruvchi ona», Marguerite de Bourgogne (Burgundlik Margarita). Erkak jinsi ko'pincha intellektual baho sohibi: faire le Jacques – o'zini axmoq qilib ko'rsatmoq, Jean de Nivelles – befahm odam, jinni, Jean-Jean – go'l odam, Michel – esi past, tentak, yoki etik baho sohibi sifatida

nomlanadi: Jean Foutre – aldamchi, muttaham, ablah, Charles – firibgar, André – hushamadgo‘y. Qirol Charlz III ning kenja o‘g‘liga Genri Charlz Albert Devid deb nom berilgan. Tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomada ko‘rsatilganiga qaramay, deyarli hamma shahzodani Genri emas, balki Garri deb chaqirishining sababi aniq emas. Genri nomi eski fransuzcha Anri (Henri) nomidan kelib chiqqan, ammo vaqt o‘tishi bilan (o‘rta asrlarda) inglizcha versiya — Garridan foydalana boshlandi. Genrix deb atalgan monarxlarning ko‘pchiligi ham o‘sha paytda Garri deb chaqirilgan. Xullas, muayyan davrning o‘z moddiy, ma‘naviy ehtiyojlari bo‘ladi. Bu ehtiyojlar jamiyat hayotining barcha jabhasiga o‘z

talablarini qo‘yadi. Zamona zayli bolaga ism berish odatlariga ham ta‘sir ko‘rsatadi, davriga xos ismlar zahirasini shakllantiradi. Biroq bu inson ta‘siridan, uning ongli aralashuvidan tamomila tashqari jarayon emas. Jamiyatning ilg‘or ziyoli qatlami bunday milliy masalalarda sergak bo‘lishi, birda nomuvofiq, birda nomunosib ko‘ringan jarayonlarda o‘zini dahldor sezishi lozim. Demak, keng ma‘noli antroponimlar leksik-semantik kategoriya sifatida ma‘lum darajada mavhumlik va o‘ziga xoslikka ega bo‘lgan, hodisa yoki predmet xarakteriga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan, nominativ to‘liq qiymatli birliklardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013. 190–191-betlar.
2. Akarsu, O. (2014). Raqamli davrda ingliz tili va adabiyotini o‘rganayotgan universitet talabalarining o‘qish odatlari. Til jurnali/ 3- sahifa
3. Erol Akarsu. 1998. Cited by 11 - DARP: Java-based data analysis and rapid prototyping environment for distributed high performance computations..
4. Golden P. B. Turk Halklari tarixine Giris.. S. 119.
5. Abdurahmonov G‘., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. B. 101; Golden P. B. Turk Halklari tarixine Giris... – S. 120.
6. Abdurahmonov G‘., Rustamov A. Qadimgi turkiy til... B. 105–106; 7.S.Kamolova “Fransuz antroponimlarining diskursiv-pragmatik xarakteristikasi”. Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyasi. – Samarqand, 2020.
6. Yuldashev D. O‘zbek va tojik antroponimlari tizimida tafakkur tarzi umumiyliigi // Adabiy aloqalar va madaniyatlarining o‘zaro ta‘siri. Xalqaro ilmiy anjuman maqolalar to‘plami. – Termiz, 2018. 189–191-betlar.

Inobat MADRAXIMOVA,
ChDPU tadqiqotchisi

XOSIYAT RUSTAMOVA SHE‘RLARIDA KUZ MODUSI

Annotatsiya: maqolada shoira Xosiyat Rustamova she‘rlaridagi kuz modusining obrazlar orqali tasvirlanishi va shoiraning voqelikni intensiv shakldan yoki ifodasidan tabiiy ruhiy bir holatni chizish orqali ruhiy-ijtimoiy kayfiyatni ilgari surishi haqida so‘z ketadi.

Kalit so‘zlar: *modus, kuzak modusi, xronotop, modernizm, obraz.*

Аннотация: в статье говорится об описании осеннего лада в стихотворениях поэтессы Хосият Рустамовой через образы и поднятии поэтессой психосоциального настроения путем рисования естественного душевного состояния из интенсивной формы или выражения действительности.

Ключевые слова: *лад, осенний образ, хронотоп, модернизм, образ.*

Abstract: the article talks about the description of the autumn mood in the poems of the poetess Khosiyat Rustamova through images and the poetess raising the psychosocial mood by drawing a natural state of mind from an intense form or expression of reality.

Key words: *mode, autumn look, chronotope, modernism, image.*

XX asrning 90-yillarida o‘zbek she‘riyatiga chaqmoqdek kirib kelgan A.Qutbiddin, Z.Mirzo, H.Ahmedova singari Xosiyat Rustamovaning ham o‘rni beqiyosdir. Shoira she‘rlaridagi modernistik qarashlar har qanday vaziyatda G‘arb-u Sharq an‘analari sintezi fonida yuzaga kelgan. Demak, shoira izlanishlarida o‘z salafarlari, tengqurlari qatori – ustozlariga ergashish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shoira kim va qanday mavzu atrofida mushohada yuritmasin, ijodidagi ikki jihat e‘tiborga loyiqdir: birinchisi: qisqalik, ikkinchisi shu qisqalikda obrazlilikning yorqin suratlarda namoyon bo‘lishi. Shunday she‘rlar bo‘ladiki, biroq unda atayin birgina so‘z – yashirinadi. So‘z o‘yinining jonli metamorfozasida shoiraning erkka tashna nigohi porlab turadi:

Juda og‘ir – esga tushgan chog‘

O‘ylab ketar umr so‘ngini.

Oy – osmonning ko'ksidagi dog',
Xira qilib turar ko'nglini.
Ko'kka yolg'on hilolni ilib,
Tunlar buzmay turganda pinak.
Qora xalqni qorong'u qilib
Pardasini tushirar falak .

Jonlantirish – shoira she'riyatiga xos yana muhim bir poetik talqinning o'ziga xosligidir. Umrning – so'nggi esa – kuz, o'lim va bu dunyo bilan xayrlashmoq ekanligi ayonlashadi. Shoiraning Oy – osmonning ko'ksidagi dog' ekanligiga ishora esa zulmat hamisha insonni kuchli qilishga o'rgatadi. Axir, yorug'likka talpingan o'rmondagi yo'lovchi yashash uchun kurashishi tayin. Shunday ekan, shoira ayni shu o'xshatishni nozik pardalar bilan idroklaydi. Negaki, qorong'ulik mahkum bir millatning taqdiri haqiqiy ijod kishisini bezovta qilmasligi mumkin emas. XX asrning Cho'lpon an'analari tadqiqotimizdagi to'rtta iste'dodli shoirning ijodiy kredosida alohida topilmalar ekanligi kundek ravshanlashadi.

Xazon mavsumidagi ruhiy-ijtimoiy kayfiyati shoirani ma'nan yanada o'stirishga chorlagani haqiqat. Shoiraning juda ko'pchilik she'rlarida hali tiriklik va o'lim orasida uvul bo'lgan XAZONni tasvirlash modusi yetakchilik qilayotir:

Chirigan shoxlarda chayqalib chunon,
So'nggi bor – o'zingga kelding qayerdan?
Men seni kuzatib, kuzatib hayron –
O'zim ham qaygadir
Ketayotirman.
Chirpirab-chirpirab
tushasan nogoh,
Mayda o'limlardan uchasan yuksak.
Nahotki, poyimdan
Topgansan panoh.
Nahotki, men bilan
birgasan kuzak?!
Gul bilan xazonni
barobar etding,
Ketar chog' – baxtiyor etding havolab.

She'rdagi jonlantirish va o'xshatishlar shu qadar bir ipga tizilgan marjondek ifodalanganki, o'qigan o'quvchi birdan sergak tortishi tayin. Chunki unda o'limning ham shirin visol ekanligini, xazonlar davrasida kechayotgan lirik qahramonning kayfiyat, ruhiy olamini idroklaydi. Ayniqsa, inson bir-biriga talpingandagina shunday obrazli ifodalarga ro'baro' keladi. Demak, shoira izlanishlaridagi – xazonli bog'lar, aslida o'zining qismatining bir uzvi. Shunday ekan, uni talqin qilishda – poetik o'lchovning tarixiy ildizlariga teran nazar solish ishonchni oqlaydi.

Kuz – kuzak moduslari (xazon) pallasiga qadar o'lim bilan olishgan tabiatning injiqliklarini shoir o'ziga singdira olsagina baxtiyor lahzalarni kashf qiladi.

20-21-betlar.

2. Quronov D., Rahmonov B. G'arb adabiy-tanqidiy tafakkuri charxi ocherklari. –T.: "Fan", 2008. 188-bet.
3. D. Quronov, Z. Mamajonov, M. Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: «Akademnashr», 2013. 179-bet.

Shu ma'noda, insondagi iqtidor va talant hamisha bir xil kechmaydi. Biroq shoirlarning eng iqtidorli, mehnatsevar va omadilari instinktik ravishda tabiatning o'zidan yoki mashqlar natijasida o'zlashtirgan narsalarni donishmand va fozil Aristotel umumlashtira oldi va san'atga tatbiq etdi. Zero, u hodisalarning sababini anglashni bilan, boshqalarga an'anaviy ravishda yoki tasodifan ayon bo'lgan narsalarni u tafakkur kuchi bilan izlab topardi. Aristotel faqat xatolardan qochish usulini kashf etmadi, u bizga eng qisqa yo'lni, qaysiki, shundan borilsa, xato qilinmaydigan yo'lni ko'rsatib berdi. Binobarin, X.Rustamovaning poetik izlanishlarida erkin (sarbast) she'ning boshqa tengdoshlaridan tamomila ajralib tutgan, uslubiy-shakli o'ziga xos jihatlarni ko'ramiz. Ayniqsa, shoiraning fasllar – bahor, yoz, kuz, va qish xronotopiga monand tuyg'ularida modernistik g'oyalar tarannumi yaqqol ajralib turadi.

X.Rustamovaning kuz xronotopiga doir o'nlab she'rlarida modernizm: bilish va anglatish ehtiyoji o'laroq yuzaga kelganini inkor qilib bo'lmaydi. Chunki shoira G'arbda rasm bo'lgan an'anadan tamomila milliy she'rga yangicha shakl bag'ishlamoqda. O'lim va hayot orasidagi vido maktubida, xazon yoki daraxtlarning mungli nolalari, qushlarning horg'in kayfiyati xuddi suratlardagidek aks-sado bermoqda:

Voqelikning intensiv shaklidan yoki ifodasidan tabiiy ruhiy bir holatni chizish X.Rustamovaga xos usullardan biri bo'lsa, ajabmas! Ba'zan o'limni faslga, faslni o'limga antiteza usulida – insonning yashash instinktiga javob axtarish ilinjida qalam suradi. Shoira "Kuzak" she'rida ayni shu ruhiy-ijtimoiy kayfiyatni ilgari suradi va bunga yangicha ma'no yuklashga erishadi:

Bog'larga ne bo'ldi?
Ko'kda nima gap?
Borliq to'lib ketdi shovqin-suronga.
Xuddi taslim bo'lgan askara o'xshab,
Daraxtlar qo'lini cho'zdi osmonga.
Ortiqcha yig'iga bermadi izn –
Shamol g'azab bilan
Tutdi dastini.

Borliqqa qorong'u tushishi bilan,
Kuz somon yo'liga kirdi bostirib.

She'rdagi ramziy-majoziy pafos inson tuyg'ularini yanada yuksaltiradi. O'quvchi kuzga o'zi beixtiyor savol bera boshlaydi. Bu savollar zamirida insonning o'ziga tan hayotiy kechmishlari aks etadi. To'g'ri, ijtimoiy lirikaning mazmun-mundarijasida yuzaga chiqqan ruhiy tovlanishlar yangi modern she'riyatga asos bo'lgani ayni haqiqatdir. Kuzning osmon-u falakka uchib ketishi, umrning ham o'tkinchiligiga ishora qilinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rustamova X. Najot. – T.: "Ma'naviyat", 2003.

Gulbahor MINGYASHAROVA,
 Alisher Navoiy nomidagi
 ToshDO‘TAU 1-bosqich magistranti

“MUHABBATNOMA” ASARINING O‘RGANILISHI

Annotatsiya: o‘zbek adabiyotining shakllanishida Hofiz Xorazmiyning o‘rni beqiyosdir. Uning yozgan asarlari asrlar osha o‘zining qadr va qiymatini yo‘qotmagan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotining mashhur shoiri, mutafakkir olim Hofiz Xorazmiyning hayoti va ijodi, uning yozgan noyob asari “Muhabbatnoma” haqida qisqacha fikr va mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: “*Muhabbatnoma*”, *Xorazmiy*, *g‘azal*, *qit‘a*, *tasavvuf*, *tariqat*.

Абстрактный: место Хафиза Хорезми в становлении узбекской литературы бесподобно. Не будет преувеличением сказать, что его произведения не потеряли своей ценности с течением веков. В данной статье собраны краткие мысли и комментарии о жизни и творчестве Хафиза Хорезми, известного поэта узбекской классической литературы, мыслителя и учёного, и его уникального произведения «Муhabbatnama».

Ключевые слова: “*Мухаббатнома*”, *Хорезми*, *газель*, *кита*, *суфизм*, *тарикат*.

Abstract: the place of Hafiz Khorezmi in the formation of Uzbek literature is incomparable. This article contains brief thoughts and comments about the life and work of Hafiz Khorazmi, a famous poet of Uzbek classical literature, thinker and scholar, and his unique work “Muhabbatnama”.

Key words: “*Muhabbatnama*”, *Khorezmi*, *ghazal*, *qita*, *Sufism*, *tariqat*.

Hofiz Xorazmiy XIV asr o‘zbek adabiyotida dunyoviy lirikani rivojlantirishga munosib hissa qo‘shgan buyuk olim.

Xorazmiy uning taxallusi bo‘lib, uning asl ismi bizga ma‘lum emas. O‘zbek adabiyotida birinchi marta noma janrini boshlab bergan olim Xorazmiydir. U hazrati Navoiygacha bo‘lgan atoqli olimlardan hisoblanadi. Uning ko‘p asarlari bizga yetib kelmagan. Biz uni mashhur “Muhabbatnoma” asari orqali taniymiz. “Muhabbatnoma” Oltin O‘rda xoni Jonibekning hukmdorlaridan Muhammad Xo‘jabekning taklifi bilan 1353-yilda yozilgan. “Muhabbatnoma”ning “Bayoni voqeni aytur” qismidan ma‘lum bo‘lishicha, Xorazmiy ilgari ham ko‘p she‘rlar yozgan, ayniqsa, muhabbat mavzusidagi asarlari bilan shuhrat qozongan, lekin ular forsiyda yozilgan bo‘lib, Muhammad Xo‘jabek shoiridan ishqiy mavzuda turkiycha kitob yozib berishni iltimos qilgan. Xorazmiy asarining maydonga kelishida Avhadiy Marog‘aviy (1274-75; 1337-38) ning forscha yozilgan “Muhabbatnoma” dostonining ta‘siri bo‘lgan[1.123]. Shoir asarni Sirdaryo yoqalarida yozganligini ta‘kidlaydi. Lekin Avhadiyda nomalar oshiq va ma‘shuqa nomidan yozilgan bo‘lsa, Xorazmiyda oshiqning mahbusasiga yo‘llagan she‘riy nomalari jamlangan. Har bir maktub muallifning chuqur kechinmalari, murojaati bilan boshlansa-da, unda ma‘shuqa husn-u jamoli, fe‘l-atvorining mubolag‘ali tasviri birinchi o‘ringa chiqadi. Nomalar mohiyat e‘tiboriga ko‘ra, vasf bilan madhning sintezidan iborat.

Asar bilan Navoiy ham tanish bo‘lgan. “Muhokamat ul-lug‘atayn”da turkiy tilning boyligini isbotlamoq maqsadida “Muhabbatnoma”dan misol keltiradi.

«Muhabbatnoma»ning 2 ta qo‘lyozma nusxasi, ya‘ni uyg‘ur va arab yozuvlaridagisi bizga ma‘lum. Shulardan eskisi uyg‘ur yozuvidagi nusxa bo‘lib, u Britaniya muzeyida saqlanadi. Nusxa Shohruxning Hirotdagi sarkardasi Mir Jaloliddin topshirig‘i bilan

Bakir Mansur tomonidan 1432-yilning martida Yazd shahrida ko‘chirilgan. O‘nta noma berilgan. 364 baytdan tarkib topgan.

Asarning arab yozuvidagi 2-nusxasi ham Britaniya muzeyida saqlanadi, 1508-1509-yillarda ko‘chirilgan, 474 baytdan tarkib topgan. “Muhabbatnoma” keyingi shoirlarga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Xo‘jandiy (“Latofatnoma”), Yusuf Amiriy (“Dahnoma”), Sayyid Ahmad (“Taashshuqnoma”) unga nazira bitganlar[2.73]. Quyida Hofiz Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asari – til xususiyatiga ko‘ra ham boshqa mumtoz asarlar matnidan farqlanib turadi:

*Jahonda sentek ey jonon yo‘q ey jon
 Sening dardingga hech darmon yo‘q ey jon.*

*Aningdek yerga qo‘l sundi ilikkim,
 Yiroqdin boqmag‘a imkon yo‘q ey jon.*

*Bugun ming jon bilan kimki ko‘ngilni
 Sanga bermas qani vah jon yo‘q ey jon.*

*Yeti iqlim ichinda ko‘rukka moli
 Saningdek bir taki sulton yo‘q ey jon.*

*Bizning mazhabta oshiqlarni sizlar
 Agar o‘ldursangiz tovon yo‘q ey jon.*

*Seni jonimdan ortiqroq sevarmen
 Bu so‘zda haq bilur yolg‘on yo‘q ey jon.*

*Sening ishqingda sayrarga Xorazmiy
 Bugun olamda bir bo‘ston yo‘q ey jon.*

Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asari juda ko‘p sharqshunos olimlarning e‘tiborini o‘ziga qaratadi.

Jumladan, AM.Samoylovich, M .F.Ko'prulizoda, M.Shcherbak kabi xorijiy tadqiqotchilar bu borada qiziqarli ilmiy izlanishlar olib borishdi. Shuningdek, o'zbek adabiyotshunoslaridan S.Qosimov 1950-yilda Xorazmiy ijodi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Bulardan tashqari, N.Mallavevning "o'zbek adabiyoti tarixi"da va boshqa manbalarda shoir haqida ma'lumot beriladi[3.146].

Umuman, asarda haqiqiy go'zallikni ta'rif va tavsif etish, insoniy muhabbat tuyg'ularini samimiy ifodalash, inson qalbidagi nozik kechinmalarni qalamga olish asosiy o'rin tutadi. Bu goh ma'shuqa va saboga murojaat, goh oshiq qalb izhori tarzida namoyon bo'ladi. Ularning barchasiga xos xislat yuksak badiiyatdir. Adibning o'xshatish va sifatlashlaridan boshlab, tanlagan vazni, janri, qofiya va radiflarigacha ana shunday nozik badiiyatni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi[4.64].

"Muhabbatnoma" asarida qadimgi turkiy so'zlardan

ochun (dunyo, olam), qamug' (hamma, barcha, jami), dag'i (yana, tag'in), ev (uy, xona), uchmoh (jannat), tamug' (do'zax, jahannam) kabilar qo'llangan. Biroq bu kabi izohtalab qadimgi turkiy so'zlarning miqdori ko'p emas. Ma'nodosh so'zlar tilning lug'aviy jihatdan boylik darajasini ko'rsatib beruvchi o'ziga xos vositalardir. Tilda ma'nodosh so'zlarning ko'p bo'lishi tilning estetik vazifasini yanada to'liq bajara olishini osonlashtiradi. Bu tilimizning qadimgi davrlaridan anglangan, idrok etilgan va o'rganilgan o'zbek tili ma'nodosh so'zlarga juda boy. Xususan, Xorazmiy ham o'z asarida ma'nodosh so'zlardan mahorat bilan foydalangan. Ijodkor sinonim so'zlarni qo'llash mobaynida ikki jihatga e'tibor qaratgan: ulardan biri muallifning ikki yoki undan ortiq ma'nodosh so'zdan ifodalanayotgan mazmun uchun eng maqbulini tanlay olgani bo'lsa, ikkinchisi, ayni bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq ma'nodosh birliklarni badiiy tasvir maqsadiga uyg'un holda qo'llay bilganidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xorazmiyning "Muhabbatnoma" asari. Kitobda: Muborak maktublar. –T.: 1987.
2. Vohidov R.J., Eshonqulov H. P. O'zbek mumtoz adabiyoti//Darslik. –Toshkent, 2019. 73-b.
3. Muratova N. Xorazmiyning "Muhabbatnoma" asarining til xususiyatlari//Konferensiya materiallari. – Toshkent, 2023. 146-b.
4. Dadaboyev H., Hamidov Z., Xolmanova Z. O'zbek adabiy tili leksikasi tarixi. – Toshkent: Fan, 2020. 64-b.

Nargiza MUHAMEDOVA,

*O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,
Bosma OAV va noshirlik ishi fakulteti, Harbiy va sport kafedrasida o'qituvchisi*

Zohid KARIMOV,

*O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,
Bosma OAV va noshirlik ishi fakulteti, Harbiy va sport kafedrasida o'qituvchisi*

MILLIY KURASHIMIZ O'ZBEK TILI TARG'IBOTI VOSITASI

Annotatsiya: kurash qadimdan o'zbek xalqi turmush tarzining uzviy qismi bo'lgan. Buni arxeologik topilmalar, tarixiy qo'lyozmalar ham isbotlaydi. Ushbu milliy sport turining dunyo miqyosida nufuzini oshirish hamda olimpiya o'yinlari sport turlari oilasiga kiritish tomon keyingi vaqtlarda katta sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Bu bilan biz milliy xarakterga ega sport turi bilan birga o'zbek tilidagi atamalarni ham jahon sport arenalarida yanada baralla yangrashiga erishamiz. Ushbu maqolada milliy kurashimiz mohiyatiga va atamalariga qisqacha izohlar berib o'tilgan bo'lib, ularning ommaviy axborot vositalarida to'g'ri qo'llanilishiga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: kurash, bellashuv, milliy, asr, sport, ajdodlar, polvonlar, jahon, chala, yonbosh, halol.

Аннотация: борьба была неотъемлемой частью образа жизни узбекского народа с древних времен. Это доказывают археологические находки и исторические рукописи. В последнее время прилагаются большие усилия для повышения репутации этого национального вида спорта на мировом уровне и включения Олимпийских игр в семью видов спорта. Тем самым мы добьемся более гармоничного звучания узбекскоязычных терминов на мировых спортивных аренах наряду с национальным спортом. В данной статье кратко освещаются суть и условия нашей национальной борьбы, уделяя особое внимание их правильному использованию в средствах массовой информации.

Ключевые слова: борьба, состязание, народный, век, спорт, предки, борцы, мир, чала, сторона, честный.

Abstract: wrestling has been an integral part of the Uzbek people's lifestyle since ancient times. This is proven by archaeological finds and historical manuscripts. Great efforts are being made in recent times to increase the

reputation of this national sport at the world level and to include the Olympic Games in the family of sports. With this, we will achieve a more harmonious sounding of Uzbek language terms in the world sports arenas along with the national sports. This article briefly comments on the essence and terms of our national struggle, focusing on their correct use in mass media.

Key words: *wrestling, competition, national, century, sport, ancestors, wrestlers, world, chala, side, honest.*

Kurash ikki kishining yakkama-yakka bellashuviga asoslangan yakkakurash sport turlaridan biridir. Kurash jangovar tayyorgarlikning bir qismi va sport sifatida dunyoning ko'p xalqlarida qadim zamonlardan buyon ma'lum bo'lib, asrlar osha rivojlanib kelmoqda. Bellashuvning bu turi ko'hna Gretsiyada qadimgi olimpiya o'yinlari dasturidan doimiy o'rin olgan. Antik dunyoning bir qator mashhur faylasuflari ham olimpiada musobaqalarida kurash bahslarida ishtirok etishgani haqida manbalar mavjud[1,1].

Milliy kurashning xilma-xil ko'rinishlari Gretsiya, Italiya, Yaponiya, Turkiya, Eron, Afg'oniston, Rossiya, O'zbekiston, Gruziya, Armaniston, Ozarbayjon, Qozog'iston, Hindiston, Qirg'iziston va boshqa mamlakatlarda mavjud.

Kurash qadimdan o'zbek xalqi turmush tarzining uzviy qismi bo'lgan. Buni arxeologik topilmalar, tarixiy qo'lyozmalar ham isbotlaydi. Zamonaviy O'zbekistonning janubiy hududlariga to'g'ri keladigan Qadimgi Baqtriya hududidan topilgan jez davriga oid silindrsimon sopol idishda kurashayotgan ikki polvon tasvirlangan. O'sha davrga mansub boshqa arxeologik topilmada esa polvonlarning kurash usullarini namoyish qilayotgani aks ettirilgan. II-III asrlarda yashab ijod qilgan yunon adibi Klavdiy Elianning yozishicha, shu hududda umr kechirgan sak qabilasi qizlari o'zlariga kuyovni yigitlar bilan kurashib tanlaganlar. Shuningdek, Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk», Alisher Navoiyning «Xamsa», «Holoti Pahlavon Muhammad», Zayniddin Vosifiyning «Badoe' ul-vaqoe'», Husayn Voiz Koshifiyning «Futuvvatnomai sultoniy», Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarlarida ham kurash haqida qimmatli ma'lumotlar uchraydi[2].

1983-yilda sambo sport turining yaratilishi tarixi haqida hikoya qiluvchi «Yengilmas» nomli badiiy film suratga olingan edi. Film qahramoni askarlar uchun o'zini quolsiz himoya qilishga yordam beradigan sport turi – samboni yaratish maqsadida bir qancha hududlar, jumladan, yurtimiz bo'ylab kezib, milliy kurashimiz usullarini o'rganadi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida milliy kurashimizni keng ommalashtirish, uni xalqaro maydonga olib chiqish borasida ilk qadamlar tashlandi. Asli polvonlar sulolasi vakili bo'lgan Komil Yusupov milliy kurashimizning xalqaro andozalarga moslangan qoidalarini ishlab chiqdi. 1992-yilda O'zbekistonda kurash federatsiyasi tashkil etildi[4, 15].

1998-yil sentabr oyida Toshkentda AQSh, Boliviya, Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Rossiya, O'zbekiston, Yaponiya – jami 28 davlat vakillari Xalqaro kurash

assotsiatsiyasi(IKA)ga asos solishdi. Natijada, nafaqat mamlakatimizda, balki xorijiy davlatlarda o'zbek kurashi bo'yicha o'tkazilayotgan musobaqalarda o'zbekcha atamalar baralla yangray boshladi. Chunki, kurash qoidalariga ko'ra, polvonlar tomonidan kurash jarayonida amalga oshirgan usullariga mos ravishda «chala», «yonbosh», «halol» baholari, qoidaga zid harakatlarga esa «tanbeh», «dakki», «g'irrom» jazolari beriladi. Kurashuvchi «halol» bahosini olsa (yoki raqibi «g'irrom» bilan jazolansa) bu uning g'alabasini bildiradi[1,2].

Quyida o'zbek milliy kurashi bo'yicha musobaqa paytida gilamdagi hakamlar tomonidan ishlatiladigan o'zbekcha atamalar va ularning ma'nolariga to'xtalib o'tamiz:

«Tanishing» – kurashchilar gilamga chiqib kelishganidan keyin o'rtadagi hakam chap va o'ng qo'llarini baland ko'tarib, o'zbek tilida «Tanishing» deydi. Axborot beruvchi hakam kurashchilarning ismi sharifi va qaysi davlat vakili ekanini aytib, ularni tanishtiradi.

«Ta'zim» – gilamdagi hakam shu iborani ishlatganidan keyin kurashchilar o'ng qo'lini chap ko'ksiga qo'yib, bir-birlariga egilib salomlashishadi.

«O'rtaga» – hakam shu ibora bilan polvonlarni gilam markaziga taklif qiladi.

«Kurash» – gilamdagi hakam tomonidan polvonlarga bellashuvni boshlash uchun beriladigan buyruq. Hakam «kurash» demaguncha polvonlarning kurashni boshlashlari ta'qiqlanadi.

«To'xta» – kurash davom etayotgan paytda qoidada ko'rsatilgan sabablarga ko'ra bellashuvni to'xtatish uchun hakam tomonidan ishlatiladigan ibora. Hakam «kurash» deganidan keyin kurashchilar olishuvni to'xtatishlari shart.

«Halol» – kurashchilardan biri bellashuvda sof g'alabaga erishganda hakam tomonidan ishlatiladigan ibora.

«Yonbosh» – kurashchilardan biri usul qo'llab raqibini kuragiga yiqitganida hakam shu iborani ishlatadi.

«Chala» – kurashchilardan biri usul qo'llab, uni oxirigacha yetkaza olmasa, hakam shu iborani qo'llaydi.

«Tanbeh» – uncha jiddiy bo'lmagan xatolarga yo'l qo'ygan kurashchini ogohlantirish maqsadida hakam tomonidan aytiladigan so'z.

«Dakki» – kurashchiga tanbehdan keyin beriladigan ogohlantirish. Ikkinchi marta unchalik jiddiy bo'lmagan xatoga yo'l qo'ygan polvonni hakam «dakki» berib

ogohlantiradi.

«G'irrom» – bungacha dakki berib ogohlantirilgan, yoki jiddiy xatoga yo'l qo'ygan kurashchini ogohlantirish uchun hakam mana shu o'zbekcha so'zni qo'llaydi.

«Bekor» – hakam tomonidan «To'xta» ishorasi berilganidan keyin kurashchi tomonidan bellashuv davom ettirilib, usul qo'llanilsa, uni baholashga noloyiq, deb topish uchun ishlatiladigan ibora.

«Vaqt» – bellashuv vaqti tugaganini bildirish uchun ishlatiladigan so'z. Gilamdagi hakam «Vaqt» deganidan keyin kurashchilar olishuvni to'xtatishlari kerak[4,75].

Tabiiyki, o'zbek kurashi bilan shug'ullanish istagidagi polvonlar, ularning murabbiylari, hakamlar, boshqa mutaxassislar, sport jurnalistlari va kurashga qiziquvchi muxlislar yuqorida sanab o'tilgan o'zbekcha so'zlarni, ularning ma'nolarini bilib olishga intiladilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining buyuk ajdodlarimizdan meros qolgan kurash sportining boy an'analari va qadriyatlarini kelajak avlodlarga yetkazish, o'zbek sporti brendi nomi bilan kurashning jahon arenasidagi rolini oshirish, yoshlarning milliy sportga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish orqali ularda vatanparvarlik tuyg'usini yanada mustahkamlash, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning, shuningdek, jahon xalqlarining

mazkur sport turi bilan shug'ullanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilingan "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 4-noyabrdagi PQ-4881-sonli Qarorida ta'kidlanganidek, qadimiy qadriyatlarimiz, xususan, mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, gumanizm g'oyalarini o'zida mujassam etgan milliy sportimiz bo'lgan kurashni ommalashtirish, rivojlantirish va dunyoga tanitish hamda ushbu qadriyatimizni umumjahon durdonasiga aylantirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda[3].

Shu bilan birga, kurashning tobora ommalashib borayotganligi nufuzli xalqaro musobaqalarni tashkil qilishga, mavjud infratuzilma va moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilishga, sport inventarlari va kiyimlari ta'minotini yaxshilashga, bu borada ishlab chiqarishni kengaytirishga, shuningdek, soha uchun malakali kadrlar, trenerlar va hakamlar tayyorlashga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirishni talab etmoqda.

Xulosa o'rnida aytishimiz kerakki, milliy kurashimizga bo'lgan e'tibor sabab jahon miqosida o'tkazilayotgan xalqaro musobaqalar soni orta borishi bilan o'zbekcha so'z va iboralar ham dunyo arenalarida baralla yangrayveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Экономические и социальные аспекты развития спортивных услуг. (Под редакцией д.э.н., профессора Восколович Н.А.). – М., 2012.
 2. Донской Д. Роль и место спортивной журналистики в системе СМИ США. Дисс.к.ф.н. – М., 2008.
 3. Озеров Н. Репортаж о репортаже. – М., 1976.
 4. O'tayev O'. Televideniye – davr ko'zguisi. – T., 2008.
 5. Ro'ziyev F., Jo'rayeva X. Telejurnalistga tavsiyalar. – T., 2013.
 6. Xurshid Do'stmuhammad. Axborot – mo'jiza, joziba, falsafa. – T., 2013.
 7. Ortiqova Y. Sport jurnalistikasi. – T., 2016.
 8. Audiovizual jurnalistika (mualliflar guruhi). – T., 2019.
 9. uza.uz. 05.01.2022, 2022-yil O'zbekistonda qancha xalqaro musobaqalar o'tkaziladi?
 10. www.lex.uz
 11. <https://www.taylorfrancis.com/chapters/edit/10.4324/9781003117957-12/sport-genre-runs-runs-david-rowe>
 12. <https://journals.sagepub.com/doi/full/10.1177/0163443719857623>
 13. <https://www.igi-global.com/chapter/always-on-sport-content-multimedia-delivery-over-internet-in-croatia/192975>
 14. Sport in the African World J Nauright, M Amara - 2018 - books.google.com
 15. Development of e-Sport in Turkey and in the World Year 2018, Volume 6, Issue 1, 95 - 102, 30.03.2018
- Harun AYAR
16. <http://sport.ziyonet.uz>
 17. <https://lex.uz/docs/5080074>
 18. <http://idum.uz/ru/archives/4900>
 19. K. Yusupov. «Kurash». – T., 1999.

Sohibaxon NE'MATULLAYEVA,
 Andijon davlat universiteti
 O'zbek adabiyotshunosligi
 kafedrasida o'qituvchisi

LUQMON BO'RIXONNING IJODIDA XALQONA SYUJET

Annotatsiya: mazkur maqolada istiqloq davri hikoyachiligi va hikoyada xalqona syujet, shuningdek, folklorizmlardan foydalanish mahorati, unda ifodalangan motivlar namunalarini Luqmon Bo'rixonning "Tumor" hikoyasi misolida tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: hikoya, folklorizm, rivoyat, mif, fetishizm, motiv, safar, ramz.

Annotation: in this article, the storytelling of the independence period and the skill of using folklorisms in the story, the examples of motives expressed in it were analyzed on the example of the story "Tumor" by Luqman Borikhon.

Key words: storytelling, folklorism, myth, fetishism, motive, trip, symbol.

Аннотация: в данной статье на примере рассказа Лукмана Борихона «Тумор» проанализированы повествование периода независимости и мастерство использования фольклоризмов в рассказе, примеры выраженных в нем мотивов.

Ключевые слова: рассказ, фольклоризм, миф, фетишизм, путешествие, символ

Ko'p ming yillik tarixni o'z ichiga olgan folklor janri bugungi kunda o'z ahamiyatini yo'qotmadi va hozirgi adabiy jarayonda ham xalq og'zaki ijodi namunalaridan keng foydalanilgan holda turli asarlar yaratilmoqda. Bunga misol sifatida zamonaviy o'zbek yozuvchilarimizdan biri bo'lgan iste'dodli ijodkor Luqmon Bo'rixonning roman, qissa va hikoyalarini keltirishimiz mumkin. Ijodkorning hikoyalaridan biri bo'lgan "Tumor" hikoyasi folklor an'analari asosidagi keng syujetni o'ziga qamrab olgan bo'lib, mazkur hikoyada xalqona syujet yaqqol ko'zga tashlanadi.

Folklorizmlar tadqiqiga kirishishdan oldin biz "folklor" va "folklorizm" nima ekanligi haqida tushunchaga ega bo'lishimiz kerak. Mazkur atamalar o'rtasidagi farqni adabiyotshunos olim Bahodir Sarimsoqov quyidagicha izohlaydi, "Biror ijodkor asariga biror maqsad bilan kiritilgan folklorga xos barcha materialni folklor deb emas, balki folklorizm atamasi bilan yuritish lozim, chunki unga ijodkor tomonidan muayyan ishlov berilgan bo'ladi" [1. 86-bet] Ijodkor tomonidan folklorlardan olinib, qayta ishlab sintez qilingan ijodiy an'analarning davomi bo'lgan folklorizmlarni bugungi kun hikoyalarining ko'p o'rinlarida ko'rishimiz mumkin.

Folklor janrining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lgan an'anaviylik o'zining boy ijtimoiy-tarixiy manbalariga ega bo'lib, uning ilk namunalarini ibtidoiy jamiyat vakillari tomonidan yaratilgan, unda o'sha davr kishilarining dunyoqarashlari va odatlarida aks etadi. Bu omillar badiiy adabiyotga bevosita ta'sir etib, asarning sujeti, obrazlari va motivlarida turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Luqmon Bo'rixonning "Tumor" hikoyasining sarlavhasining o'zidayoq biz ilk mifologik qarashlardan biri bo'lgan "fetishizm" namunalarini ko'rishimiz mumkin. Fetishizm tushunchasi (fr.Fetische "tumor"). Fetishlarda kasallik, ins-jinlarni daf qilish, yaxshilik

qiladigan, omad keltiradigan xosiyatli xususiyatga ega bo'lgan sirli tomonlari bo'ladi deb tasavvur qilingan. Duolar yozilgan qog'ozni lattaga tikib uch, to'rtburchak shaklida tumor qilib taqadilar. Go'yo shu tumor "yomon ko'z"dan, "ins-jins"lardan, xavfli kasalliklardan saqlaydi, omad keltiradi. Tumor yosh bolalar kiyimlariga tikib qo'yiladi, chaqaloqlar beshigiga osib qo'yiladi, xotin-qizlarning bo'yniga taqiladi.[2. 15-bet]

Luqmon Bo'rixon mazkur hikoyasida uzoq tarixdagi voqeaning asarimiz qahramoniga qay darajada ta'sir etganini ko'rishimiz mumkin. Asarning boshlanishida folklor janrlaridan biri bo'lgan rivoyat keltirilgan bo'lib, professor Salima Mirzayeva rivoyat haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: "Mavzu jihatdan turlarga bo'lingan holda yo biron tarixiy shaxs hayotidagi ibratli voqeani bayon etadi, yo geografik o'rin-joyning nomini izohlaydi". [3.38-bet] Hikoyaning debochasi hisoblangan bu rivoyat asar bosh qahramon hisoblangan qishloqlik sodda fermer, samimiy qalbi muhabbatga to'la, ismi ham ruhiyatini ko'rsatib turgan To'lqin ("dengiz to'lqinidek jo'shqin", "to'lib toshgan") vafodorlik timsoli sifatida namoyon bo'lishiga sabab bo'ladi va tumorni sotib olib, ayoliga sovg'a qilishni niyat qiladi. Tumor qadimgi saljuqiylar sulolasi vakili sulton Selim Ikkinchining rafiqasi Duygubegimga sovg'a qilgan va ayoli ham turmush o'rtog'iga sadoqati sifatida qadrlagan, hattoki vafot etganda ham qo'lidan chiqarmagan, sulton ham o'z haramiga, yuzlab joriyalarga ega bo'lish imkoniyatiga qaramasdan hayoti davomida faqatgina bir ayolga muhabbat qo'ygan va unga abadiy sodiqlik ramzi bo'lgan tumor edi. To'lqin muzey xodimasining hikoyasidan ta'sirlanishi natijasida mazkur tumorni ikki barobar narxda sotib olishga ham tayyor bo'ladi. Sheriklarining uning ustidan kulishlariga e'tibor bermasdan ko'rgan-kechirganlari haqida o'yg'a toladi. To'lqin tumorda

boshqalar ko'ra olmagan quvvatni his qiladi. Tumorni To'lqin uchun bu qadar qadrlil qilgan narsa bu undagi qandaydir ilohiy qudrat mavjudligi emas, balki u bilan bog'liq afsonaviy muhabbat haqidagi rivoyatning kuchi ekanligini atrofdagilar tushuna olmaydi.

Tasodifni qarangi, To'lqin shuncha vaqt davomida yetishishni istagan tumor uning uyida, ayoli Matlubada ham bor bo'lib chiqadi. Bir necha yillardan buyon o'z oilasida mavjud bo'lgan bu tumorning qiymatini anglashi uchun esa, yozuvchi hikoyaga "safari" motivini kiritgan. "Motiv bu voqeband asarlarda syujet sxemasi, yoki biror bir narsa, holat, obraz kabi qator ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Motivga xos muhim xususiyatlardan biri muayyan turg'unliklarga egalikdir. Motivlar yarim tayyor holda olinadi".[4. 180-bet]

Xalq og'zaki ijodida eng ko'p uchrovchi motivlardan biri bu "safari" motivi bo'lib, safari inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan hodislardan biri hisoblanadi. Inson hayotini ham bir safari sifatida tasavvur etish mumkin. Aksariyat hollarda asar qahramoni ma'lum bir maqsad bilan yo'lga chiqadi va safari davomida turli qiyinchiliklar, sinovlar, tilsimlarga duch keladi. O'zi o'rgangan muhitdan chiqadi, olamni qayta anglaydi va rivojlanadi.

Xalq dostonlari, ertaklarining qahramonlari asosan yorga yetishish, ma'lum bir xazinani qo'lga kiritish yoki orzu-maqsadini amalga oshirish uchun yo'lga chiqsalar, zamonaviy o'zbek adabiyotida hikoyamiz qahramoni ish yuzasidan safarga chiqishi orqali o'z-o'zini anglashi, qalbida mavjud bo'lgan chin insoniy tuyg'ularni yuzaga chiqarish, insonning o'zida mavjud bo'lgan narsalarning qiymatini tushunib yetishi uchun yozuvchi mazkur motivni o'z asariga kiritadi.

Safardan qaytgan To'lqin endi butun borliqqa nisbatan o'zgacha qarashni boshlaydi. Har doim ko'rib katta bo'lgan dalalar, yo'llardan tortib, endi ayoli ham

unga boshqa bir ko'rinishda namoyon bo'ladi. Bunga misol qilib quyidagi sahnani keltirishimiz mumkin:

"Balki boshqa payt bo'lganida xotining befarosatligidan fig'oni falakka chiqib, tishlari g'azabdan qayralib, ortidan toshlar otib qolardi. Ammo ayni chog'da... pastga pildirabgina Matluba emas, necha kunki ko'z o'ngida jilolanib, jilvalanib turgan xilqat sarg'ish-qizg'ish etaklarini silkitib go'yoki noz-u istig'no bilan ortidan chorlab uyi tomon enib ketganday tuyuldi. Yuz-ko'ziga tabassum qalqdi. Yuragi zavq-shavqdan hapriqdi. Xuddi shu zavq-shavq mavjida hovlisiga qanday kirib borganini sezmay qoldi..." [5.]

Birga safarga chiqqan sherigining aytganiday, To'lqinga safari "yoqqan" edi. Yuqoridagi misralar orqali biz Luqmon Bo'rixonning qahramon ichki his-tuyg'ulari, kechinmalarini ifodalashda mayda detallardan mohirona foydalanganligi, obraz va peyzaj yaratishdagi mahoratini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish lozimki, bugungi keskin rivojlanib borayotgan adabiy jarayonga xalqning milliy qadriyatlarini, xalqona ohanglarni o'z hikoyasida namoyon eta olgan Luqmon Bo'rixonning bu hikoyasi inson dunyoqarashi va tafakkurining o'zgarishida, olamni qayta anglash jarayonida uzoq yillik tarixga ega bo'lgan folklor elementlarining qay darajada ahamiyatga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Zero, folklor eng qadimgi manbalardan biri bo'lib, uning sarchashmasidan bir necha ming yillik adabiy asarlar namunalar oladi.

Ushbu maqolada ijodkorning syujet yaratishda folklor an'analari, qadimgi diniy tasavvurlarning inson hayotiga ta'siri, obrazlar sistemasi, portret, peyzaj va boshqa detallarni yaratishdagi mahoratlaridan misollar ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hotamov N, Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1979.
2. Mahkamov Qodirjon. Dinshunoslik (uslubiy qo'llanma). – Namangan, 2020.
3. Mirzayeva S. O'zbek realistik adabiyotida folklor an'analari. Folklorshunoslikdan o'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: "Istiqol", 2005.
4. Қуроноу Д., Мамажоноу З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Т:Академнашр, 2013. – 408 б.
5. zyouz.com sayti. Luqmon Bo'rixon. "Tumor" hikoyasi.

Gulnoza TESHAYEVA,
Buxoro davlat universiteti
1-bosqich tayanch doktoranti

ADABIY PARALLEL JANRINING KOMPOZITSIYASI

Annotatsiya: adabiy tanqidchilikning janrlar tizimida muhim ahamiyat kasb etgan adabiy parallelning mustaqil janr sifatidagi o'рни, tarixi, kelib chiqishi, tabiati, rivojlanishi, shakllanish yo'llarini o'rganish muhim vazifalardan biri sanaladi. Ushbu maqolada adabiy parallelning kompozitsion tuzilishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *tanqidchilik janrlari, adabiy parallel, spetsifik xususiyatlar, maqola kompozitsiyasi, "Qiyosiy hayotnomalar", "Pushkin va Oybek".*

Аннотация: одной из важнейших задач является изучение роли, истории, происхождения, характера, развития, путей становления литературного параллеля как самостоятельного жанра, который приобрел важное значение в жанровой системе литературной критики. В этой статье анализируется композиционная структура литературной параллели.

Ключевые слова: *критические жанры, литературные параллели, специфические черты, композиция статей, "Сравнительные жизнеописания", "Пушкин и Айбек".*

Annotation: one of the important tasks is to study the role, history, origin, nature, development, ways of formation of the literary parallel as an independent genre, which is important in the genre system of literary criticism. This article the compositional structure of the literary parallel was analyzed.

Keywords: *genres of criticism, literary parallel, specific features, article composition, "Comparative Chronicles", "Pushkin and Oybek".*

Kirish. Jahon adabiyotshunosligida adabiy tanqidchilik janrlari alohida bir tizim sifatida adabiy jarayonda, adabiyot taraqqiyotida muhim o'rin tutadi, jumladan, o'zbek adabiy tanqidchiligida ham. Bu tizimda taqriz, maqola, adabiy portret singari adabiy parallel ham muhim o'rin egallaydi. Adabiy tanqidning mustaqil janri bo'lgan adabiy parallel adabiyotni rivojlantirishda, adabiy jarayonni faollashtirishda katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga har bir adabiy parallel chuqur mantiqiy ildizga ega bo'lib, asosli, mulohaza va muhokamalari ilmiy-nazariy jihatdan puxta bo'lishi zarur. Shuni ta'kidlash joizki, matbuotning yuzaga kelishi adabiy tanqid janrlari rivojini tezlashtirdi, adabiy-tanqid janrlari va uning turli ichki xillari taraqqiy topdi.

Asosiy qism. Adabiy tanqid ijodning o'ziga xos xususiyatlariga ega turidir. Bu ijod har bir davrda o'z muammolaridan kelib chiqib, mazmuni va mohiyatiga ko'ra doimo rivojlanib boruvchi fandır. Badiiy adabiyotda bo'lgani kabi adabiy tanqidchilikda ham har bir janrning shakl va mazmun uyg'unligi uning rivojiga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Shu bois har bir munaqqid tanqidiy asarining ham mazmun, ham shakl jihatdan mukammal chiqishi uchun harakat qiladi. Shu jihatdan adabiy parallel janrining poetik xususiyatlari, kompozitsiyasi, shakl jihatdan rang-barangligi kabi muammolarni tadqiq etish zarurati yuzaga chiqadi. "Matbuotda bosiladigan maqolalar kirish, isbot va uni tavsiflash, xulosa kabi uch qismdan tashkil topadi. Adabiy parallellar esa kirish, qiyoslanayotgan obyektlar, ularning o'xshash va farqli jihatlari umumlashirish va xulosa kabi qismlardan tashkil topadi. Parallel janrining ilk namunalaridan biri bo'lgan yunon tarixchisi va faylasufi Plutarxning

"Qiyosiy hayotnomalar" asari ham o'ziga xos kompozitsion qurilishga ega. Xususan, Plutarx har bir hayotnomani yozar ekan uni ma'lum qismlarga bo'ladi va ularga sarlavha qo'yadi. Bu qismlarda, asosan, shaxslarning tug'ilishi va bolalik yillaridan hikoya qilishni boshlaydi, keyin esa ular hayotidagi muhim voqealar tafsiloti beriladi. Har ikkala shaxs haqida ma'lumot berilgandan so'ng ular qiyoslanadi. Masalan, Tesey va Romul haqidagi hayotnoma ham yuqoridagi xususiyatga ega. Hayotnomaning Teseyga bag'ishlangan qismi quyidagi bo'limlardan iborat:

- I. Kirish.
 - II. Tug'ilish va bolalik.
 - III. Afinaga boradigan yo'ldagi yutuqlar.
 - IV. Tesey Afinada.
 - V. Kritdagi Tesey.
 - VI. Attika Birlashmasi.
 - VII. Amazonlar bilan urush.
 - VIII. Yelena va o'lim uchun urush.
 - IX. Teseyning xokini Afinaga o'tkazish.
- Romul haqidagi ma'lumotlar esa quyidagi qismlardan tashkil topgan:
- I. Rimning boshlanishi haqidagi qarama-qarshilik.
 - II. Ajoyib tug'ilish va yoshlik.
 - III. Rimning tashkil topishi.
 - IV. Sabiniyaliklar uchun urush.
 - V. Sabinlar bilan birlashish va qo'shnilar bilan urushlar.
 - VI. Avtokratiya va mo'jizaviy o'lim.
 - VII. Taqqoslash.
- Ko'rinadiki, "Qiyosiy hayotnomalar" asari murakkab, shu bilan birga, mukammal kompozitsiyaga ega. Oxirgi bo'limda ikkala tarixiy shaxs qiyoslanadi va muallifning

umumlashtiruvchi fikrlari aytiladi.

Maqolalarda olingan obyekt oldin ta'riflanadi, so'ng masalaning mazmuni va mohiyati nazariy asosda isbotlanadi va oxirida fikr umumlashtiriladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, adabiy parallellar ham shunday tuzilishga ega. Rus olimi V.Krilov: "maqola tuzilishiga qo'yiladigan asosiy talab – bu tuzilmaning yaxlitligi va birligi, uni maqolaning boshidanoq amalga oshirish kerak. Jurnalistik tanqidda boshlanishda ko'pincha klishe bo'ladi: kitobning dastlabki ma'lumotlari haqida ma'lumot beriladi. Ammo tanqidchining vazifasi o'quvchining e'tiborini munozara mavzusiga jalb qilishdir", – deb yozadi. Dilbar Qambarovanning "Sharq yulduzi" jurnalining 1987-yil 6-sonida chop etilgan "Pushkin va Oybek" maqolasining tuzilishiga e'tibor qaratsak, quyidagi xususiyatlar namoyon bo'ladi:

Dastlab muallif maqolani Oybekning Pushkinga munosabati masalasiga oydinlik kiritish masalasi bilan boshlaydi. Shu sababli ham vafoti 100 yilligiga bag'ishlab yozilgan "Dohiydan o'rganish" maqolasini tahlil qiladi. Bunda Oybekning Pushkin ijodiga bo'lgan cheksiz hurmat va mehr - muhabbat aks etishi maqoladan olingan iqtiboslar asosida dalillangan. Maqolaning keyingi qismida, asosan, ijodkorlar lirikasi qiyoslanadi. So'nggi qismda esa umumiy xulosalar beriladi.

"Adabiy tanqidning kompozitsion qurilishi, birinchi navbatda, kombinatsiya va elementlarning joylashuv o'rni tanqidchining maqsadiga qarab har xil bo'lishi mumkin". Bu borada ko'p uchraydigan quyidagi ikki holatni ko'rsatishimiz mumkin.

1. Fakt – talqin – nazariya;
2. Nazariya – fakt – talqin .

Maqola tarkibiga qo'yiladigan asosiy talab yaxlitlik va boshidanoq amalga oshirilishi kerak bo'lgan tuzilish birligidir. Bu elementlar joylashish o'rni ham maqolaning o'qimishligini ta'minlovchi asosiy sifatlardan biridir. Tadqiqotchi Ruxsora To'laboyevaning "Uchqur xayol mevalari" deb nomlangan maqolasida ingliz adibasi Joan Roulingning "Garri Potter" turkumidagi romanlar va o'zbek bolalar yozuvchisi

Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sehrli qalpoqcha" romanlaridagi o'xshash va farqli jihatlarni tahlil qilib, pirovardida fantastik-detektiv romanning janriy xususiyatini ochib beradi. Maqolani shartli ravishda 4 qismga bo'lish mumkin. Kirish qismida tadqiqotchi bolalar adabiyoti, xususan, fantastik romanlarga xos xususiyatlarni sanab o'tadi. Maqolaning asosiy qismida ikki romanning qiyosiy tahlili keltiriladi. Fantastik romanlarga xos bo'lgan boyqush, sehrli qalpoq, sehrli chakmon, sehrli tayoq singari detallar, bayahbat odamlar, turli sehrli hayvonlar mavjudki, ularning ildizi xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi. Ikkala romanda ham shunday detallardan unumli foydalanilgan. Ammo romanlarning o'ziga xos, tafovutli jihatlari ham borki, bu yozuvchilarning original uslubi, milliylik bilan bog'liq. Romanlarning uslubi ham bir-biridan farq qiladi. X.To'xtaboyev fantastik detallardan faqat badiiy vosita sifatida foydalansa, J.Roulingda fantastik o'rinlar sehr-jodu, afsun va g'ayritabiiylikni bo'rttirishga qaratilgan. O'zbek yozuvchisi romanida hayot haqiqati sehrli hodisalarga uyg'un holda tasvirlanadi. Bu esa mazkur janrning realizmni inkor qilmasligini ko'rsatadi. Xulosadan oldingi qismda jahonning boshqa yozuvchilari romanlarining xususiyatlari keltiriladi.


Xulosa. Adabiy tanqid ham san'atning turi, shu bilan birga, o'ziga xos ijod turi ham hisoblanadi. Shu sababdan ham uning o'ziga xos uslubi, tuzilishi – bir so'z bilan aytganda, poetikasi bor. Adabiy tanqid o'z mazmuni va mohiyatiga ko'ra doimo rivojlanib boruvchi ilmiy-badiiy fan. U ilm bilan san'at oralig'ida yashaydi, bir tomondan ilmga, ikkinchi tomondan san'atga suyanib, hayot kechiradi. San'at so'zini mantiq tiliga, mantiq kuchini san'at sohasiga ko'chiradi. San'at asaridan yangi-yangi nafosatlar izlaydi. Adabiyotda bo'lgani kabi adabiy tanqidda ham shakl va mazmun uyg'unligi asosiy talablardan biridir. Adabiy-tanqidiy parallelning poetik xususiyatlari, kompozitsiyasi, shakl rang-barangligi uning mazmuniga katta ta'sir qiladi. Shuning uchun har bir muallif tanqidiy asarining ham mazmun, ham shakl jihatdan to'liqligini ta'minlashga harakat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хусаинов. М. Ўзбек совет бадиий публицистикаси. – Т.: Фан, 1978.
2. Худойкулова М. Ўзбек танқидчилигида баҳс: табиати ва тараққиёти. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. – Бухоро, 2021.
3. Дилбар Қамбарова. Пушкин ва Ойбек. // Шарқ юлдузи. 1987, 6 - сон.
4. То'laboyeva R. Uchqur xayol mevalari// Jahon adabiyoti, 2011, 6-son
5. <http://elibrary.ru/item.asp?id=16969603>

Matluba JABBOROVA,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU
 dotsent v.b. PhD

“HAYRAT UL-ABROR”DA XOTIN-QIZLAR OBRAZI



Annotatsiya: maqolada Alisher Navoiy ijodida ayollar obrazi turli talqinda – ona, sevimli yor, mehribon qiz siymosida tasvirlanishiga e’tibor qaratilgan. Hazrat Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida ayollar obrazi tahlil etilgan. Mavzuga oid tadqiqot ishlari o’rganilib, umumiy xulosalar chiqarilgan.

Kalit so’zlar: “Hayrat ul-abror” dostoni, ayollar obrazi, badiiy vazifa, tasvirlash mahorati, hadis, an’anaviy obraz

Аннотация: в статье рассмотрено изображение женщины в творчестве Алишера Навои в разных интерпретациях - как матери, любимой жены, любящей дочери. Анализируется образ женщины в эпосе Хазрата Навои «Хайрат уль-Аброр». Были изучены исследовательские работы по теме и сделаны общие выводы.

Ключевые слова: эпос «Хайрат уль-Аброр», женский образ, художественная задача, мастерство изображения, хадис, традиционный образ.

Abstract: the article focuses on the portrayal of women in the works of Alisher Navoi in different interpretations - as a mother, a beloved wife, a loving daughter. The image of women is analyzed in Hazrat Navoi's "Hayrat ul-Abror" epic. Research works on the topic were studied and general conclusions were drawn.

Key words: "Hayrat ul-Abror" epic, women's image, artistic task, image skill, hadith, traditional image.

O‘zbek mumtoz adabiyotida xotin-qizlar tasviri o‘ziga xos o‘ringa ega. Badiiy adabiyotda ayollarning malohati, jozibasi, noz-karashmasi ijodkorlarning betakror tasvir o‘xshatishlari uchun asosiy ilhom manbayi bo‘lib kelgan. Ayollarning sevgisi, oqizaligi, makkoraligi va bir qator fazilatlari, shuningdek, jamiyatdagi o‘rni – ona, opa-singil, yor, do‘st sifatidagi qiyofasi badiiy asarlarda mahorat bilan tasvirlanadi. Lirika yoki nasrda bo‘lsin, xotin-qizlar obrazini tadqiq etish; obrazga xos xususiyatlarni ochiqlash orqali asar mazmunini tushunish, muallifning badiiy niyatini anglash va badiiy mahoratini baholash mumkin.

Alisher Navoiy ijodida ayollar obrazi alohida tadqiqotni talab etuvchi jarayon. Chunonchi, bu borada mavjud tadqiqotlar ham diqqatga sazovor. N.Jabborov “Ona obrazining poetik suvrati” maqolasida Navoiy asarlarida ona obraziga to‘xtaladi; obraz bilan bog‘liq ma‘lumotlarni “omma hayotida ona obrazi” va “xoslar – podshohlar va avliyolar taqdirida onaning o‘rni” tarzida tasniflaydi. Va hazrat Navoiy asarlarida ona siymosi tasviri, onaning haqqi, unga hurmat bajo keltirish, ona siymosi ulug‘langan, madh etilgan misralar asosida tahlil etadi. Natijada, olim “Umuman, hazrat Alisher Navoiy mo‘tabar siymo – ona obrazi vasfida betakror badiiyat namunalari yaratdi... Bu boradagi izlanishlarni muttasil davom ettirish adabiyotshunosligimiz, navoiyshunosligimiz oldidagi dolzarb vazifalardandir”, degan xulosaga keladi.

I.Adizovaning “Tafakkur mash‘allari” maqolasida hazrat Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi orifa ayollar mavzusida so‘z boradi. Maqolada Islom olamida xotin-qizlarning o‘rni masalasiga alohida e’tibor qaratgan Annamariye Shimmel xonimning “Jonon mening jonimda” kitobidagi so‘fiya ayollar va “Nasoyim ul-muhabbat”da madh etilgan 35ta ayol haqidagi ma‘lumotlarning mushtarak va farqli jihatlari yoritiladi. “Orifa va so‘fiy ayol maqomi berilgan mazkur muhtarama zotlar faoliyati va taqdirini chuqur o‘rganish, bizni Sharq ayoli tafakkur teranligidan bahramand etadi”, degan xulosaga keladi.

Burobiya Rajabova mumtoz adabiyotda ayollar mavzusiga doir talaygina maqolalar e‘lon qilgan. Uning “Attor va Navoiy talqinida Robiyai Adaviya siymosi” maqolasida so‘fiya ayol Robiyai Adaviya haqidagi ma‘lumotlar ochiqlangan. Olima “Navoiy talqinidagi Robiyai Adaviya obrazi va u haqidagi ma‘lumotlar Fariduddin Attorning

“Tazkirat ul-avliyo”sidagi Robiyai Adaviyasiga monand, degan xulosaga keladi. Olimaning “Ko’rki, ne gullar ochar anjomi adl...” maqolasida “Hayrat ul-abror”dagi tilla kampir haqida so’z boradi. Alisher Navoiy davlat boshqaruvida adolatning ustivor bo’lishi, qonun oldida shoh ham gado ham teng ekanligi, hatto, ayollar ham o’z qonuniy haqqini talab etishi kerakligini “Zoli zar” misolida ochib berilgan. B.Rajabova hikoyani tahlil etishda shu jihatlarga e’tibor qaratgan.

Darhaqiqat, Alisher Navoiy ijodida ayollar obrazi – betakror tasvirlar orqali ularning portreti, ruhiyati, xislat-u fazilatlar tarannum etiladi; xotin-qizlar muallif g’oyasini yuzaga chiqarish va voqealar rivojini yo’naltirishda muhim o’ringa ega. Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida juda ko’p va turli xarakterdagi xilma-xil obrazlar mavjud. Dostondagi ayollar timsoli asosiy obraz sifatida keltirilmagan, biroq voqealar rivojida – masalalarning yechimida ayollar obrazidan maqsadli foydalanilgan. “Hayrat ul-abror”da ayollar obrazini quyidagicha tasniflash mumkin:

- 1) 2-maqolat hikoyati: Chin e’tiqodli ayol – Robiya Adaviya obrazi;
- 2) 3-maqolat hikoyati: Adolatparvar ona – tilla kampir obrazi;
- 3) 8-maqolat hikoyati: Sadoqatli yor – Vafoli yor obrazi;
- 4) 17-maqolat hikoyati: Sevimli qiz – Zaynulobidinning qizi obrazi.

Dostonning 2-maqolati Islom bobida. Hazrat Navoiy Islomning 5-sharti haqida yoza turib, Haj amalini bajarish uchun yo’lga tushgan ikki toifa odamlar ta’rifini keltiradi: Birinchisi, boy kishilar – undagi boylik va amal barcha mushkilotlarni yengillashtiradi. Bunday kishilarga yaxshi hamroh bo’lsa kifoya, Haj ziyoratini bajarib qaytaverishadi. Ikkinchisi, faqirlikni boylik, deb biluvchilardir. Ular moddiylik bilan emas, chin e’tiqodi tufayli, buyuk maqomga yetishadi.

*Foniy o’lub kimki niyoz ayladi,
Tengri ani koshifi roz ayladi .*

Hikoyatda muallif “kim chin qalbdan istasa, Allohdan yolborib so’rasa, Alloh uni niyatiga yetkazadi”, degan g’oyani ilgari suradi. Hatto moddiy va jismoniy to’siqlar bo’lsa ham. Hazrat Navoiy fikrlarini dalillash uchun “Ibrohim Adham va Robiyai Adaviya” hikoyatini keltiradi. Ibrohim Adham Ka’ba ziyoratiga 14 yil deganda, har qadamida 2 rakatdan namoz o’qib, riyozat chekib boradi. Borsaki, Ka’ba Robiyai Adaviyani ziyorat qilgani ketgan.

*Dedi Birohimki: “Ey pokrav,
Balki malak xaylidek afflokrav.*

*Nedin ekin buki manga yetti ranj,
Men chekibon ranju sanga bo’ldi ganj?”*

*Robia dedi anga: “Ogoh bo’l,
Kim necha yil bodiyada borcha yo’l.*

*Bo’ldi ishing arzi namoz aylamak,
Sheva manga arzi niyoz aylamak.*

*Sanga samar berdi namoz-u riyo,
Bizga bu bar berdi niyoz-u fano.” (144-b.)*

Alisher Navoiy Robiyai Adaviyadek ham jisman zaifa, ham mol-dunyoisiz bir faqira misolida “e’tiqodli inson riyosiz ishonchi tufayli ham orzusiga, ham buyuk maqomga erishadi” degan fikrlarni dalillaydi.

27-bobda Shoh G’oziy va kampir haqidagi hikoyatda farzand dog’ida kuygan ona siymosi o’ta jonli tasvirlanadi. Shoh G’oziydan adolat talab qilib kelgan ona, o’z ahvolini quyidagicha bayon etadi:

*Zol dedikim: “Qazoq erkanda shoh,
Tig’ chekibkim, chekar erdi sipoh.*

*Bor edi men tulg’a jigargo’shaye,
Bal jigarim mazraidin xo’shaye.*

*Bog’im aro sarvi sihisheva ul,
Balki quruq naxlim aro meva ul.*

*Shoh qilichi jigarim qildi chok,
Ul jigarim porasin etti halok.*

*Tig' ila yorib jigarim yonini,
Yerga oqizdi jigarim qonini". (144-b.)*

Ta'sirli misralarni o'qigan o'quvchi ko'z oldida yagona farzandidan ayrilgan onaning g'amnok qiyofasi bor iztirobi bilan namoyon bo'ladi. Qozining "adolat talabiga ko'ra, xunni yo joni bilan, yo puli bilan to'lash mumkin", degan qaroriga so'zsiz bo'ysungan shoh jonini ham berishga tayyorligini aytadi. Biroq kampir kutilmaganda shohdan bunday qarorni eshitib, qilgan ishiga afsuslanadi:

*Tig'ni ul adl ila insof tund,
Zoli hazin tishlaridek qildi kund.*

*Tushti ayog'iga bo'lub uzrxoh,
Dediki: "Ey xisravi anjumsipoh,*

*Gar yigitim qildi fido jon sanga,
Men qari joni dog'i qurbon sanga.*

*Mendin agar bo'ldi ayon iztirob,
Lutf ila afv etki, men o'ldum xarob." (156-b.)*

Hazrat Navoiy bu hikoyat zamirida farzand dog'idagi alamzada ona va podshohning bemisl adolatidan nafaqat farzandi, o'zini ham jonini fido qilishga tayyor ayol qiyofasini parallel ko'rsatish orqali adolatning kuchi naqadar buyuk ekanligini dalillaydi.

Dostonning 37-bobida ikki sevishtan yor haqida hikoyat keltiriladi. Amir Temur zamonida Hindistonda dinsiz xalqqa qatliyom e'lon qilinadi. Shunda ikki sevishtan bir-biriga vafo ko'rsatib, butun xalqini qatliyomdan qutqaradi. Ushbu hikoyatda garchand ayol obrazi yaqqol namoyon bo'lmasa-da, muallif vafoni madh etish barobarida vafo ikki tomondan bo'lishi, ayollar ham o'z navbatida juftiga vafo ko'rsatishi lozimligini uqtiradi:

*Aylasalar ikki tarafdin vafo,
Yetgay alar jonig'a oncha safo.*

*Kim sifati sig'mag'ay avroq aro,
Demayin avroqki, ofoq aro. (214-b.)*

Dostonning 17-maqolatda yigitlik bahori, yoshlikning g'animatligi va yoshlikda ibodatga ulgurib qolish haqida bayon etiladi. Maqolatga "Imomi ma'sum Zaynulobidinning sag'irai ma'sumasining kabirush-shon kalomi, agarchi ul sag'iradin ma'sum erdi" deb nomlanuvchi hikoyati keltiriladi. Hikoyatda payg'ambarimiz Muhammad s.a.v.ning nabirasi Ali ibn Husayn va uning olti yoshli qizi bilan suhbat berilgan.

Ali ibn Husayn Muhammad s.a.v.ning qizlari Fotima r.a. va Ali r.a.ning farzandi Husaynning o'g'lidir. Hazrat Navoiy dostonida Ali ibn Husaynni shunday ta'riflaydi:

*Ulki falakka surub erdi kumayt,
Mash'alai anjumani ahli bayt.*

*Xatmi nubuvvatqa bo'lib nuri ayn,
Sham'i valoyat, Ali binni Husayn.*

*Baski ibodotidin arbobi din
Otini aytib Zaynulobidin.(325-b.)*

Ali ibn Husayn 4-imom sifatida mashhur bo'lgan, u ko'p vaqtini toat-ibodatda o'tkazgan, va shu sababdan Zaynulobidin, ya'ni "ibodat qiluvchilarning bezagi, ziyati" degan unvon berilgan. Ali ibn Husaynning namozdan

so'ng o'qiladigan duolar jamlangan "As-Sahifa as-Sajjodiya" nomli kitob qoldirgani ma'lum .

Dostondagi hikoyatga ko'ra, bir kuni Zaynulobidin beshikdagi kichik o'g'liga mehr berib, uni erkalab o'tirganini ko'rgan olti yoshli qizi yig'lab oh tortadi. Otasi unga ukasining kichik va zaif bo'lganligi bois unga mehr ko'rsatayotganini, bundan xafa bo'lish, rashk qilish kerak emasligini tushuntiradi. Qizcha bu so'zlarni eshitib, ko'proq xafa bo'ladi. Ma'suma qiz otasiga tanbehona ohangda,

*Bir kun eshittimki, takallum aro,
Borur erdi og'zinga bu mojaru.*

*Kim manga mahbub haq o'ldiyu bas,
G'ayr sori maylg'a qilmon havas.*

*G'ayrni ko'rdumki, sevarsen bu dam,
Qildi ichimni mutag'ayyir bu g'am.(326-b.)*

Ali ibn Husayn begunoh qizining tilidan aytilayotgan so'zlarni hayrat bilan tinglaydi.

*Sajda nechuk bo'lg'ay aning boshig'a,
Kim topinur Haq bila but qoshig'a.*

*Bo'lsa samad birla sanam jilvasoz,
Qiblada bo'lg'aymu ravo ul namoz.(327-b.)*

"Faqat Allohni sevaman, degan va'dani unutib, mehrini ikkiga bo'lgan" ota bu gaplardan hayratga tushadi va ko'zidan yoshini tiya olmaydi. Tavba qilib, "Allohga shukr qilishni vojib deb bilib, qizining boshini o'pib, yaxshi niyatlar bildirdi." (327-b.) Hazrat Navoiy bir ma'suma qizning otasiga demishlari orqali har bandaning muhabbati faqat Alloh uchun, umri esa Alloh buyurgan amallarni bajarib, doimo ibodatda o'tishi uchun ekanligini uqtiradi. Hikoyatdan insonni ibodatdan chalg'ituvchi, umr bahorini behuda (ibodatsiz, dunyo lazzatiga berilib) o'tib ketishiga sabab bo'luvchi omillar qatori farzandni ham sanaydi. Zero, hadisda ham shunday keltiriladi: "Ollah taoloning qavli: "Innamo amvolukum va avlodukum fitnatun!". Oyatning mazmuni: Darhaqiqat, mol-dunyongiz birlan farzandlaringiz fitnadir". Har bir kishi uchun farzandi jondan aziz, biroq farzand Alloh-u Taolodan berilgan omonat-ne'mat. Navoiy hazratlari ushbu hikoyat orqali omonatga mehr qo'yib – unga oshiq bo'lib, omonat egasini yoddan chiqarmaslik kerakligini uqtiradi.

Xulosa qilib aytganda, "Hayrat ul-abror" dostonida turli yoshdagi, turli holatdagi xotin-qizlar obrazi tasvirlangan. Robiya Adaviya – chin e'tiqodli ayol timsoli, tilla kampir adolatparvar ona, sadoqatli yor – vafo timsoli, Zaynulobidinning qizi esa haqiqiy ishq sohibasi safatida talqin etiladi. Navoiy ayollarga xos jisman zaifalik, jabrdiydalik, yuksak e'tiqod, o'ta mehribonlik, onalik sifatleri va sadoqatlilik xislatlarini mohirona ifodalab, voqealarning tub burilishi va hikoyatlar g'oyasini hayotiy tasvirlashga erishadi. Muallif maqolatda berilgan nazariy fikrlarini hikoyatlardagi qahramonlarning portreti, nutqi, ruhiyati, harakatlari orqali dalillagan. Jumladan, ayollar obraziga ham shunday badiiy vazifa yuklagan. Demak, dostonida har bir ayol-qiz obrazi maqsadli yaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Xamsa. Hayrat-ul abror. – T.: Tamaddun, 2021.
2. Jabborov N. Maoniy ahlining sohibqironi. – T.: Adabiyot, 2021.
3. Adizova I. Tafakkur mash'allari// Sharq yulduzi jurnali. 2023-yil, 10-son. 58-62-betlar.
4. Rajabova B. Attor va Navoiy talqinida Robiya Adaviya siyosi / "Alisher Navoiy va XXI asr", 2024-yil №9. 99-104-betlar.
5. Rajabova B. Qalb va qadriyat. To'plam. – T.: Fan, 2002.
6. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-jomi' as-sahih. 4-jild. – T.: Qomuslar, 1992.
7. <https://www.al-islam.org/imamate-and-imams-ibrahim-amini/fourth-imam-ali-ibn-husayn>, <https://imamus.org/islamic-awareness/islam-101/beliefs/ahl-al-bayt/imam-zayn-al-abidin>, https://wiki2.org/en/Ali_ibn_Husayn_Zayn_al-Abidin.

Xurshida BERDIYEVA,
Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani
67-sonli umumiy o'рта ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING BILIMINI BAHOLASHDA XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINING AHAMIYATI VA AFZALLIKLARI

Annotatsiya: bugungi kunda ta'lim tizimi xalqaro baholash dasturlariga mos ravishda ta'lim mazmunini tashkil etish masalasiga jiddiy qaramoqda. Shu boisdan mazkur maqola Xalq ta'limi tizimida va asosan, umumiy o'рта ta'limning boshlang'ich bo'g'inida xalqaro baholash tadqiqotlarining ahamiyati hamda ta'lim tizimidagi afzalliklariga, shuningdek, xalqaro baholash tadqiqotlarining zamonaviy ta'lim tizimida egallab kelayotgan o'rni xususida fikr-mulohaza yuritadi.

Kalit so'zlar: *innovatsion ta'lim tizimi, xalqaro baholash tadqiqotlari, baholash mazmuni, kompetensiya, TIMSS, PISA, PIRLS, TALIS, boshlang'ich ta'lim, boshlang'ich sinf o'quvchilari.*

Аннотация: сегодня в системе образования серьезно рассматривается вопрос организации содержания образования в соответствии с международными оценочными программами. Поэтому в данной статье основное внимание уделяется важности и преимуществам международных оценочных исследований в системе государственного образования, и главным образом на начальном уровне общего среднего образования, а также важности международных оценочных исследований в современной системе образования.

Ключевые слова: *инновационная система образования, международные оценочные исследования, содержание оценивания, компетентность, TIMSS, PISA, PIRLS, TALIS, среднее образование, учащиеся начальных классов.*

Abstract: today, the educational system is seriously considering the issue of organizing educational content in accordance with international assessment programs. Therefore, this article focuses on the importance and advantages of international evaluation studies in the public education system, and mainly in the elementary level of general secondary education, as well as the importance of international evaluation studies in the modern education system. reflects on the place.

Key words: *innovative education system, international assessment research, assessment content, competence, TIMSS, PISA, PIRLS, TALIS, secondary education, primary school students.*

Kirish.

XXI asrga kelib O'zbekiston Respublikasi boshlang'ich ta'lim tizimida juda ko'p o'zgarishlar amalga oshirildi. Mazkur o'zgarishlarning joriy qilinishi ta'lim sifatini xalqaro talablar darajasiga yetkazishdan iborat. Hozirda ta'lim to'g'risida qabul qilinayotgan ko'plab me'yoriy-huquqiy hujjatlarning zamirida ham boshlang'ich ta'limga yangicha yondashuvni olib kirish va sifat samaradorlikni oshirish asosiy maqsad qilib belgilangandir. Shu boisdan ham nafaqat kelajak yillardagi yetuk mutaxassislarni, balki hozirgi vaqtidagi umumiy o'рта ta'limda tahsil olayotgan har bir maktab o'quvchisini bir necha fanlar bo'yicha o'tkir savodxon etib tayyorlashga alohida e'tibor berilyapti. Ayni shundan kelib chiqib, respublikaning Xalq ta'limi tizimida o'qitishning maqsadlarini kuchaytirish chora-tadbirlari kun sayin murakkablashtirilmoqda.

Mamlakat bo'ylab amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarida malakali kadrlar va yetuk mutaxassislarga bo'lgan talabni yanada oshirdi. Bu o'z-o'zidan maktab o'quvchilarining darslarga

qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim-tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni ham talab etadi. Jumladan, innovatsion ta'lim sharoitida dars jarayoniga mas'ul o'qituvchilarning xalqaro tadqiqotlar borasidagi bilimlarining chuqur bo'lishi ham muhim qoidadir.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi.

Bu jihatlarning innovatsion ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalarini rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Mamlakat o'quvchilari xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishi ham respublikada mavjud ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan muhim jarayon hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, o'quvchining ta'limdagi erishgan yutuqlarini qayd etish va baholash usuli ham yuqoridagi funktsiyaning amalga oshirishiga xizmat qiladi. Shunday qilib, belgilangan tartibda

rasmilashirilgan baholash tizimi o'quvchining o'quv jarayonidagi muvaffaqiyatini aniqlaydigan va qayd etadigan mezon hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim yutuqlarini qayd etish usullari o'z-o'zini baholashga asoslanadi.

Kelajak egalarining zamonaviy bilim, intellektual salohiyat, ilm-u ma'rifat, erkin fikr, ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish, jahonda e'tirof etilgan uslub va an'analarni qo'llash malakasiga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Ta'lim tizimidagi islohotlar ana shu maqsadga qaratilgan bo'lib, xalqaro mezonlar asosida dunyoning yuksak taraqqiy etgan davlatlarida qo'llanayotgan va katta samara berayotgan ta'lim texnologiyalari, baholashning xalqaro talablariga muvofiq bo'lishiga qaratilmoqda.

Dunyoning yuksak taraqqiy etgan davlatlarida ta'lim sohasida baholashning PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS kabi xalqaro baholash dasturlari amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etilmoqda. Taraqqiyot odimlari bilan jahonga yuz tutayotgan O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim sohasida baholashning xalqaro mezonlari qo'llanilmoqda. Ma'lumki, ta'lim sifatini xalqaro standartlar asosida baholash orqali dunyo mamlakatlari bilan qiyosiy tahlillar olib borish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2018-yil 8-dekabrda «Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qaror qabul qilingan. Qarorda ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etilib, ta'lim sifatini belgilash bo'yicha qator xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishi belgilangan. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi farmonida inson kapitalini shakllantirishning asosiy bo'g'ini bo'lgan tizimda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar va ularni hayotga tatbiq etish yo'llari atroflicha belgilab berildi. Jumladan, unda mamlakatning 2030-yilga borib PISA (The Programme for International Student Assessment) — o'quvchilarning ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur reytingida jahonning 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish vazifasi qo'yilgan. Xalq ta'limida sodir bo'layotgan mazkur o'zgarishlar bevosita Oliy ta'lim muassasalari bilan ham bog'liq bo'lib, maktab va Oliy ta'lim muassasalari hamkorlik aloqalari yuksalishiga sabab bo'lmoqda.

Tadqiqot natijalari.

Hozirgi kunda dunyoning ko'pgina davlatlari ta'lim tizimida o'z o'rnini mustahkam egallab kelayotgan xalqaro dasturlarda ishtirok etish yosh avlodning intellektual-ma'naviy darajasini aniqlash, shu orqali natija va samaradorlikning yangi yo'nalishlarini

belgilab olishga imkoniyat yaratrsa, milliy baholash tizimining yanada takomillashtirish xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash bilan birga, ularning kreativligini va komponentligini va o'z navbatida ta'lim sifatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayni shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ushbu xalqaro baholash dasturlari boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'ylantirishga, fikrlay olish doirasini kengaytirishga, ya'ni intellektual-ma'naviy salohiyatini rivoj toptirishga yo'naltirilar ekan, boshlang'ich sinflarda bu dasturni kengroq ko'lamda tatbiq etish muhim ahamiyatga egaligini ko'rsatadi. Buni namuna tariqasida xalqaro baholash dasturining PIRLS dasturi bo'yicha qaralsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual-ma'naviy darajasini rivoj toptirishda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish masalasi mazkur xalqaro baholash dasturini (PIRLSni) amaliyotga qo'llash va yuqori samaradorlikka erishishning asosiy omili deyish mumkin.

Muhokama.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual darajasini rivojlantirishda zamonaviy axborot resurslaridan oqilona va maqsadli foydalanish, xalqaro baholash dasturlaridan keraklicha foydalanish o'quvchilarning muammolarni hal etish qobiliyatini rivojlantirish, komponentlar, tushunchalar, ko'nikmalar, jarayonlarni o'rganish va baholash singari yo'nalishlarni ta'minlab berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kelgusida ham rivojlangan mamlakatlar tajribalari chuqur o'rganilib, O'zbekiston Respublikasiga xos xususiyatlar, qadriyatlar, sharoitlar inobatga olingan holda, kadrlar tayyorlash tizimini tubdan modernizatsiya qilish lozim. Hozir Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan malaka oshirish, chet el professorlarini O'zbekistonga olib kelib ma'ruza o'qitish, bakalavr va magistr dasturlarini rivojlangan mamlakatlardagi o'quv dasturlariga yaqinlashtirish ishlari olib borilmoqda. Xuddi shu tizim asosida Oliy ta'lim tizimida ishlayotgan tajribali o'qituvchilarni maktablarga birlashtirish, kafedralarning hududiy filiallarini ochish orqali maktab o'qituvchilari salohiyatini rivojlantirish ishlari ham jadal olib borilmoqda. Bugungi kunda hamkorlikni boshlagan Oliy va xalq ta'limi tizimlari oldida turgan asosiy maqsad ham shu — boshlang'ich sinf o'qituvchilariga amaliy yordam berish.

Xulosa. XXI asrga xos xalqaro baholash dasturlari asosida o'quvchilar bilimini baholash, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimini baholash o'qitish va ta'lim olishning zamonaviy usullaridan maqsadli foydalangan holda ularni yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lishlarini ta'minlashga xizmat qiladi. O'quvchilarni fikrlash chegarasidan tashqariga chiqishga, ijodiy, samarali va odobli fikrlashga undaydi. Binobarin, mazkur muammolarning har birini qamrab oluvchi mavzular, ko'rsatmalar, sinfxona muhiti, baholash mexanizmi va

texnik qo'llanmalardan foydalanish kabi masalalarda turli xil yondashuvlarga asoslanilgan holda kafolatlangan natijani ta'minlash, ko'zlangan maqsadga erishishni nazarda tutadi. Xulosa qilib aytganda, mamlakat innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajak davomchilari bo'lgan yoshlarning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son qarori.
3. Hutchison, D., Schagen, I. Comparisons between PISA and TIMSS - Are we the man with two watches? / Loveless, T. (Eds.) // Lessons Learned - What international assessments tell us about math achievement. -Washington, D.C.:Brookings Institute Press, 2007. P 227-261.
4. "PISA-2018 Kompyuter format xalqaro tadqiqot vositalari": To'plam " – Axborot-tahlil markazi" AQ. Astana. 2016. 126-bet.
5. "Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash" metodik qo'llanmasi. – T., 2019.

Nafosat BOBOQULOVA,
Surxondaryo viloyati Angor tumanidagi
3-ixtisoslashtirilgan maktabning ona tili
va adabiyot fani o'qituvchisi

O'QUVCHILARNING ADABIY-NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: maqolada o'quvchilarning adabiy-nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda olib borilayotgan metodik ishlarning amalda qo'llanishi, ilm-fan va texnologiyalarning tezkor rivojlanishi, o'quvchilarning badiiy asar o'qish jarayonida hayotiy voqealar asosida tahlil qilish, asar g'oyasi va voqealar rivojidagi umumiy mohiyatni anglab yetish ko'nikmalarini shakllantirish masalalari talqin qilingan.

Kalit so'zlar: *adabiy-nutqiy kompetensiya, metodik ishlar, ilm, fan, texnologiya, badiiy asar, hayotiy voqealar, tahlil, asar g'oyasi, voqealar rivoji, mohiyat, ko'nikma.*

Аннотация: в статье затрагиваются вопросы практического применения проводимой методической работы в развитии литературно-речевых компетенций учащихся, оперативного развития науки и техники, формирования у учащихся навыков анализа на основе жизненных событий в процессе чтения художественного произведения, понимания идеи произведения и общей сущности в развитии событий.

Ключевые слова: *литературно-речевая компетентность, методическая работа, наука, Наука, техника, художественное произведение, жизненные события, анализ, идея произведения, ход событий, сущность, умение.*

Annotation: the article interprets the issues of practical application of methodological work carried out in the development of literary and colloquial competencies of students, the rapid development of Science and Technology, analysis of students on the basis of life events in the process of reading fiction, the formation of the idea of the work and skills for realizing the general essence in the development of events.

Keywords: *literary and colloquial competence, methodological work, science, science, technology, artistic work, life events, analysis, idea of the work, development of events, essence, skill.*

Barchamizga ma'lumki, axborot texnologiyalar asrida bugungi kunda yoshlarimiz shiddat bilan o'rganib borayotgan innovatsion texnologiyalar bilan birga ularga badiiy adabiyot olamining rang-barang ekanligini uqitirib borish o'qituvchilar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Shunday ekan bo'lajak o'qituvchilarning bilim, salohiyat

egasi bo'lishi bilan bir qatorda ta'limga innovatsion yondashish, qolaversa, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rgangan holda ta'lim sifatini yanada oshirish muhim ahamiyatga molikdir. Bo'lajak o'qituvchining pedagogik faoliyatida o'quvchilar bilan olib boradigan muloqoti muhim ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilar bilan ta'lim jarayonida yetarli darajada samaraga erishishning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Oxirgi yillarda juda ko'plab davlatlarda, qolaversa, bizning yurtimizda ham ta'lim standartlari kompetensiyaviylik tamoyili asosida tuzilishiga alohida ahamiyat berilmoqda. Ma'naviy hayotimizni yanada rivojlantirish maqsadida keyingi yillarda kitobxonlik madaniyatini oshirish bo'yicha turli ko'rik-tanlovlarning o'tkazilishi ham e'tiborga molikdir. Bunday tanlovlar ko'plab iste'dodli yoshlarimizning bilim salohiyatlari, badiiy asarga bo'lgan qiziqishlari, teran fikrlaydigan iqtidor egalarini kashf etishda muhim rol o'ynaganligi quvonarli hol, albatta.

Bizga ma'lumki, pedagogik mahorat va kompetentlik har bir bo'lajak o'qituvchining o'z ustida ishlashi, ijodiy mehnati, iste'dodi va iqtidori evaziga mukammallashib, yoshlarning yanada salohiyatli va ilmiy qila oladigan ijod mahsuli hisoblanadi. Pedagogik kompetentlikni rivojlantirish pedagogik va psixologik qonuniyatlarga tayangan holda turli shakl va metodlar, maxsus didaktik tamoyillarni qo'llash asosida tashkil etadi. Kompetensiyaviy ta'limga asoslangan standartlarni tahlil qilishdan oldin kompetensiyaviy ta'limning mohiyatini aniqlab olish zarurdir. Pedagogik terminlar lug'atida "kompetensiya" so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan: "ma'lum bir vazifani adekvat tarzda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar majmui hamda tajriba". Misol tariqasida Buyuk Britaniya o'rta ta'lim maktablarining adabiyot fani standartlarini kuzatib chiqsak. "O'quvchi asar syujeti qurilishining asar mazmuniga qanday ta'sir qilinishining asar mazmuniga qanday ta'sir qilishini tahlil qila oladi" kompetensiyasi quyidagi kompetensiyalarga bo'lingan:

- syujet elementlarini topib, ularning ahamiyatini ko'rsatib bera oladi;
- asardagi ayrim epizodlarning asar mazmuni uchun ahamiyatini izohlab bera oladi;
- syujetning tarkibiy elementlarini aniqlab, ularning ahamiyatini izohlay oladi.

"Asarni o'z hayoti bilan, boshqa asar(lar) bilan va atrofdagi olam bilan bog'lay oladi" kompetensiyasi quyidagicha tarkibiy qismlarga bo'linganligi e'tiborga molikdir:

- asarda aks etgan inson xarakterini to'liq tahlil qilib asoslab bera oladi;
- kitobxon shaxsi matnni tushunish va tahlil qilishga qay darajada ta'sir qilishini izohlab bera oladi. Ko'rinib turibdiki, bunday badiiy asar tahlilini yuqori saviyadagi kompetentlikka erishilganini e'tirof etishimiz darkor.

Rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimini kuzatar

ekanmiz, aynan adabiyotga oid hujjatlarning barchasida o'quvchilarning badiiy asarni tahlil qilishidagi bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga oid barcha chora-tadbirlari mustaqil fikrlashda, asarni tahlil qilish jarayonida nafaqat o'zining shaxsiy hayoti, balki ijtimoiy hayot tarziga bog'lagan holatda tahlil qilishi muhim ahamiyat kasb etishini anglab yetdik. Yana ham asosiy qulay tomoni adabiyotni o'rganishda kompetensiyalarni o'rganish uchun adabiyotlar ro'yxati shakllantirilganligining guvohi bo'ldik.

Adabiyotshunos olimalarimizdan biri Marg'uba Mirqosimova adabiy tahlil haqida ilmiy qarashlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu boradagi izlanishlari tahsinga sazovordir. Olimaning "O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari" nomli kitobida badiiy tahlil qilishning eng ilg'or namunalarini ochib bera olgan. Olimaning fikricha, V-VII sinflarda badiiy asarni o'rganish jarayonida dastlab tez va ravon o'qishni yo'lga qo'yish kerakligi, og'zaki va yozma nutqini xatosiz va mukammal rivojlantiradigan chora-tadbirlarni qo'llash lozimligini alohida uqtirib o'tadi. O'quvchini kuzatgan voqea va hodisalari asosida hikoya tuzish ko'nikmalarini hosil qilish, rasmlar asosida hikoya yoki ertaklar yaratishlari ham badiiy asar tahlili jarayonida alohida ahamiyatga ega. So'z qo'llashda to'g'ri va ma'noli jumlar tuzish lozimligi, jumlar tuzayotganda o'zining mantiqiy fikrlariga tayangan holda yoza olishini tushuntirib borish lozim. Yuqori sinfdan o'quvchilar asar qurilishi, voqealar rivojida ularga munosabat, badiiy obraz mohiyatini anglab yetish va estetik didni tarbiyalashga alohida ahamiyat berish kerakligini uqtiradi.

Darhaqiqat, boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy asar tahlili dastlab rasmlar orqali shakllanadi. Chunki bolalar rangli tasvirlarga juda qiziquvchan bo'ladi. Rasmlar asosida fikr yuritish jarayonida atofida ro'y berayotgan voqea va hodisalar haqida teran fikrlar bilan birga o'zlarining xayolot olamini ham sekin-asta kashf etishlarida asosiy vazifa sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday fikrlash ijtimoiy hayotda o'z o'rinlarini egallashlarida ko'prikk vositasini bajara oladi.

N. Brodskiy va boshqa olimlar tahriri ostidagi adabiyotshunoslik atamalarini izohli lug'ati badiiy adabiyotning quyidagi xususiyatlarini keltirib o'tadi:

- badiiy adabiyotdagi voqelik real hayotdagi voqelikning aynan takrori emasligi;
- badiiy adabiyotdagi voqelik betakror – o'quvchi asarni har safar o'qiganida voqelikni boshqacha qabul qilish holati;
- real voqelik inson tafakkuridan tashqarida ham mavjud, badiiy adabiyotdagi voqelik esa faqat inson tafakkurida mavjud bo'lishi;
- badiiy adabiyotdagi voqelikni yaratgan muallif ma'lum bir maqsadni ko'zlaganligini aytib o'tadilar.

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asari misolida

yuqoridagi fikrni tahlil qilishimiz o'rinlidir:

– asar ma'lum bir real tarixiy zamon va makon haqida bo'lsa-da, unda tasvirlangan voqealar tarixiy voqealarning ayni bayoni emas, tarixiy voqealar asosida hikoya qilinsa-da, unda to'qima obrazlar ustunlik qilayotganini zukko kitobxon anglab yetadi;

– romanni qayta-qayta o'qigan kitobxon qahramonlar taqdiriga befarq bo'lolmaydi. Voqealar va qahramonlarga munosabati o'zgarib boraveradi. Ayniqsa, yoshi ulg'ayavergan sari fikrlar teranligi ham tobora ravshanlashib boradi. Bu esa o'z navbatida asarning naqadar beqiyos darajada aks ettirilganidan dalolatdir;

– asarda tasvirlangan davlat (Qo'qon xonligi) siyosiy xaritada hozir mavjud emas, zamon va makon o'zgargan, lekin shunday bo'lsa-da, kitobni o'qigan o'quvchi o'sha davr voqealari qurshovida o'zini his qilaveradi;

– asarni o'qish davomida har bir kitobxon o'zining dunyoqarashi, olami bilan kuzatar ekan yangi fikr-mulohazalarni kashf etib boraveradi. Bu esa ijodkorning yuksak tasviriy bo'yoqlardan mohirona foydalanganining isbotidir.

– yozuvchi asarni yozayotganida makon va zamoni aks ettirishda voqealar rivojini to'la-to'kis ifodalashni maqsad qilib olmagan. U o'zining shaxsiy fikrlaridan kelib chiqqan holatda barcha tarixiy va to'qima obrazlarni mohirona qo'llash orqali kitobxonni maqsad sari yo'naltira olgan.

Badiiy asarni o'qish jarayonida metakognitiv tahlili joriy qilinsa, badiiy matn bilan ishlash va undan ma'no chiqarishda interfaollik, konstruktivlik va strategiklik tamoyillariga tayangan holda yuqori samaradorlikka asoslanib ish ko'rish maqsadga muvofiqdir. Badiiy asarni o'qishda o'quvchilar 3 usuldan foydalangan holda tahlil qilishlari fikr-mulohazalarning yanada oydinlashishiga zamin yaratadi:

1) O'qish – bu o'quvchi va matn orasidagi interfaol jarayon bo'lib, bunday jarayon bo'ylab harakatanganda mavjud sxemalar asosida matnni tushunishning qay darajada samarali bo'lishini anglatadi. O'quvchi alohida olingan so'zlarni tushunishi matnning mohiyatini anglab yetishi lozimligini unutmasligimiz kerak. Zero, o'qiyotgan badiiy asarida keltirilgan ayrim jumlar yoki so'zlar ma'nosini idrok eta olmasa, faqatgina kontekstni ilg'ab olishi bilan samaraga erishib bo'lmaydi. Masalan:

*Bor edi beshada bir tund sher,
Vahshat aro ko'k asadidek daler.*

(Alisher Navoiy. "Hayrat ul-abror"dan)

Yuqoridagi parchani o'quvchi anglab yetishi uchun besh – to'qay, tund – yirtqich, vahshat – yovvoyi, ko'k – osmon, asad – sher, daler – qo'rqmas so'zlarining ma'nosini ilg'aydigan zukko kitobxonga aylanishi lozim.

2. O'qish konstruktiv jarayon hisoblanadi. Ziyrak

o'quvchi asarni o'qish davomida ijodkorning asarda aks ettirmagan jarayonlarini, ya'ni kitobxonni o'zi anglab yetishiga qoldirgan voqealarni mulohaza qila olishi kerak. Masalan:

*Tongga yaqin onasining ingrayotganini eshitdi.
Keyin otasi nimadir dedi. Tancha sovub qolgan, badani
sovuqdan junjika boshlagan edi. Otashkurakni olib
kulni titib qo'ysa-ku, olam guliston, ammo erinchoqlik
sovuqdan ustunlik qildi. Bu yumushni onasi bajarar
edi.*

*Uchovlon tanchaning uch tomonida yotishardi.
Hozir onasi narigi uyda ingrayapti, otasi nimadir
deyapti. Sovuq uyda nima qilishyapti ekan?*

– *Uyg'ondingmi, toychoq? – dedi dadasi
ostonadan turib. – Turaqol, ayangni kasalxonaga
tashlab kelaman. Bugun qorbobo senga ham chana,
ham uka olib keladiganga o'xshaydi. Sen yaxshi bola
bo'lib o'tirib tur.*

(Tohir Malik. "Shaytanat" qissasi, 1-kitobdan)

Yuqorida keltirilgan parchadan ma'lumki, onasini homiladorligi ta'kidlanmagan. Lekin kitobni mutoala qilish chog'ida o'quvchi bolaning onasini homiladorligi-yu, uni otasi shifoxonaga olib borishini anglab yetishi zarur.

3. O'qish strategik jarayondir. Metakognitiv tahlil tarafdorlarining fikr va mulohazalariga ko'ra, o'quvchi matn bilan ishlash jarayonini nazorat qila olishlarini e'tirof etadilar. O'qib tushunish bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borgan olim Sara Dauhauer (Sarah Dowhower) fikriga ko'ra, o'qilayotgan asarni tushunishga yordam beradigan quyidagi strategiyalarni joriy qilgan:

- o'quvchida mavjud bilimlarni faollashtirish;
- bashorat qilish, vizualizatsiya (voqeani xayolida tasavvur qilish);
- xulosa yasash, o'z-o'ziga savol berish, matnning badiiy elementlarini tahlil qilish;
- ochiq aytilmagan yashirin ma'noni anglash;
- sintezlash, monitoring qilish, noto'g'ri tushunchalarni to'g'rilash.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz lozimki, bugungi iste'dodli va iqtidorli yoshlarimizning badiiy asarni o'qish jarayonida uning har bir sahifasini shunchaki bir qiziqish uchun o'qimasliklarini, balki tahlil qilish jarayonida ijtimoiy jamiyatdagi o'rni va roli, qahramonlar hayoti jamiyatda qanday ahamiyatga ega ekanligi haqida fikr-mulohaza yuritishlari lozimdir. Bunday mas'uliyat, albatta, o'qituvchilar zimmasiga tushishi ularning o'z ustida ishlashlarini ko'rsatadi. O'z navbatida aytishimiz joizki, bugungi kunda o'qituvchilar ilg'or zamonaviy pedagogik texnologiyalarni mahorat bilan qo'llab o'quvchilarning bilim va salohiyatini yanada rivojlantirib bormoqdalar. Zero, kelajagimiz tayanchi bo'lgan unib-o'sib kelayotgan yosh avlodni rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi asosida, qolaversa, o'zimizning milliy dastur ta'lim tizimi bilan chambarchaslikda yanada chuqur bilim berilmoqda. Bu sa'y-harakatlar

badiiy adabiyotni yanada yuqori cho'qqilarga ko'tarilishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, adabiyotshunos olimlarimiz tomonidan ishlab chiqilayotgan qo'llanmalar, ilmiy kitoblarning barchasi badiiy adabiyotning tahlilini o'rganish jarayonida o'quvchilar bilan ishlashda yuqori natijalarni qo'lga kiritishda asosiy manba hisoblanib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevralda "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF – 5349-son qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 20.02.2018-y. 06/18/ 5349/0792-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF – 5812-sonli Farmoni. Qonun hujjatlari milliy bazasi.
3. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o'qitish metodikasi: an'anaviylikdan zamonaviylikka. – Toshkent, 2020. 160-bet.
4. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T: Yangi asr avlodi, 2010. 157-bet.
5. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T., 2018. 351-bet.
6. Mavlonova R. Umumiy pedagogika. – T: Fan va texnologiya. 528-bet.
7. Mavlonova R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – Toshkent. 338-bet.
8. Mavlonova K. Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o'qish metodikasini takomillashtirish. –T., 2019. 112-bet.
9. Abdullayeva Q. Nutq o'stirish. Boshlang'ich sinf uchun qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 1980. 118-bet.
10. National curriculum: Secondary curriculum. Department of Education. Crown Copyright, 2014.

Ra'no RIZAYEVA,
NDPI tadqiqotchisi
Bolalar kutubxonasi direktori

O'QUVCHILARDA MILLIY IDENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA O'QITUVCHI MILLIY IDENTLIGINING IJTIMOIIY PEDAGOGIK MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK MODELINI

Annotatsiya: o'quvchilarning milliy identligini shakllantirish jarayonini boshqarishda o'qituvchining rolini tushunish o'qituvchining milliy identligini yaxlit pedagogik hodisa sifatida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. Zero, ta'lim jarayonida o'qituvchi o'zining identifikatsiyalash imkoniyatlarini amalga oshiradi, uning milliy identligini belgilaydi. O'qituvchi faoliyatining pirovardida o'quvchilarning o'z-o'zini aniqlash jarayoni, o'z mezonlari va g'oyalarini rivojlantirish, o'z milliy identligini qabul qilishga erishiladi.

Kalit so'zlar: *milliy identlik, ta'lim va tarbiya, ijtimoiy pedagogika.*

Аннотация: понимание роли учителя в управлении процессом формирования национальной идентичности учащихся показывает необходимость рассмотрения национальной идентичности учителя как целостного педагогического явления. Ведь в процессе обучения педагог реализует свои идентификационные возможности, определяет свою национальную идентичность. В конце деятельности учителя достигается процесс самоопределения учащихся, развитие их критериев и представлений, принятие своей национальной идентичности.

Ключевые слова: *национальная идентичность, образование и воспитание, социальная педагогика.*

Annotation: understanding the role of the teacher in managing the process of forming the national identity of students shows the need to consider the national identity of the teacher as a holistic pedagogical phenomenon. After all, in the process of education, the teacher realizes his identification possibilities, defines his national identity. At the end of the teacher's activity, the process of self-determination of students, the development of their criteria and ideas, and the acceptance of their national identity are achieved.

Key words: *national identity, education and training, social pedagogy.*

Kirish. Mamlakatimizda xalq ta'limi bolalar va yoshlar bilan ishlash tizimining muhim maqsadlaridan biri ularning milliy identligini shakllantirishdir. Hozirgi globallashuv tendensiyalari jadal takomillashib borayotgan bir sharoitda yoshlarimiz shuurida tarixiy, madaniy va mafkuraviy kelib chiqishi bilan bog'liq tushunchalarni shakllantirish zarurati paydo bo'ldi. Milliy istiqloq mafkurasi millatning milliy o'zligini belgilab beruvchi tarixiy dalillar asosiga qurilganligi, biroq iqtisodiy sharoit sababli yoshlarimizning turli o'lkalarda ish izlab ketishlari va turli millatlar aqidalarga ergashayotganliklari milliy identlikni shakllantirish mexanizmini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirdi.

Hozirgi ijtimoiy-madaniy bosqichda tarixni qayta ko'rib chiqish, asrlar davomida shakllangan qadriyatlarni qayta baholashga urinishlar qayta-qayta amalga oshirildi. Muammo o'zbek millatiga mansublikni anglash shartlarining o'zgarishi, boshqa o'ziga xoslik turlariga urg'u berish bilan murakkablashdi. Hozirgi vaqtda vaziyat noxiziqlik, jamiyat a'zolarini identifikatsiyalash jarayonlarining harakatchanligi, shaxs sotsializatsiyasining umumiy tendensiyasi sifatida o'ziga xosliklarning ko'pligi bilan to'ldiriladi. Jamiyatning fuqarolar o'rtasida o'zbek milliy identligini shakllantirishga bo'lgan ehtiyoji va hozirgi ijtimoiy-madaniy vaziyat o'rtasidagi ta'kidlangan qarama-qarshilik bizga ta'lim tizimi duch keladigan bir qator muammolarni aniqlash imkonini beradi. Bunday muammolarga quyidagilar kiradi:

- ta'lim jarayonida bolalar va yoshlarning milliy identligini shakllantirishning zamonaviy texnologiyalari, mexanizmlari, shakl va usullarining yetarli darajada rivojlanmaganligi;

- ijtimoiy ahamiyatga molik vazifalarni hal qilish jarayonida fuqarolik va milliy fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan munosabatlarda ijtimoiy faollikning namoyon bo'lishini talab qiladigan ta'lim muassasalarining texnologik va uslubiy jihozlari. Aniqlangan muammolar yangi voqelikni – o'qituvchilarning o'quvchilar milliy identligini shakllantirish va rivojlantirish jarayonini boshqarishga tayyorligini talab etadi.

O'quvchilarning milliy identligini shakllantirishda o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini o'rganish jarayonida biz ushbu hodisani o'qituvchini o'zining milliy identligi kontekstida ko'rib chiqish zarurligini angladik. Chunki ta'lim va tarbiyada haqiqatdan ham o'qituvchi o'z milliy identligining barcha tarkibiy qismlari – kognitiv, hissiy-qadriyatni o'z xulqida aks ettirgan bo'lishi lozim. Shu bilan birga o'qituvchi milliy identligining har bir komponenti o'quvchilarning milliy o'zligini shakllantirishda o'qituvchi kompetensiyasi tarkibida o'z ifodasini topadi.

Rus pedagogi M.V.Shakurova ta'lim muassasasining pedagogik ta'lim makonida o'qituvchining identifikatsiyalash salohiyatini ro'yobga

chiqarish haqida fikr bildiradi. O'qituvchilar o'quvchilar xulqi parametrlarini aniqlash jarayonlarining ijtimoiy-pedagogik shartlilikini belgilaydilar. Ular bilan o'zaro munosabatlarda bolalar va yoshlar identifikatsiyalash xususiyatlarini o'zlashtiradilar. Ular asosida o'zlarining mezonlari va g'oyalari ishlab chiqiladi va ularning milliy identligi qabul qilinadi. Bu fikrni O.A.Mixnevichning identifikatsiya jarayonining tabiati, bu yerda taqlid qilish bilan bir qatorda, u yoki bu milliy predmet bilan hissiy uyg'unlashuv sodir bo'lganda, taqlid faoliyati ham borligi haqidagi mulohazalari tasdiqlaydi. Taqlid faoliyati shartli ravishda milliy muloqot tili, boshqa ishora-semantik tizimlar vositasida amalga oshiriladi. Taqlid o'rganishning zaruriy sharti bo'lib, ta'lim jarayonida turli xil tadbirlarda milliy tarixiy voqelikning rivojlanishi sodir bo'lganda, milliy ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat va munosabatlar tajribasida shakllanadi. Identifikatsiyalash jarayonini boshqarishda asosiy vazifa o'qituvchi zimmasiga tushadi. O'qituvchining ijtimoiy-madaniy tajribasi o'quvchilar bilan o'zaro aloqada o'zining milliy identligini aks ettiradi.

Asosiy qism. Ta'lim tizimi va o'qituvchilarning ta'lim subyektlari sifatidagi pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilish o'quvchilar xulqiy parametrlarini aniqlash jarayonlarini pedagogik boshqarishga to'sqinlik qiladigan bir qator pozitsiyalarni aniqlashga imkon beradi. Bular quyidagilar:

1. Mantiq va tarixiy dalilga emas, balki tashqaridan suqishtirilgan o'ziga xoslikka yo'naltirish. Agar shaxsiyatni shakllantirish jarayoni barcha ideallashtirilgan modellar tomonidan tan olingan qadriyatlarga asoslangan bo'lsa, unda shunday bo'lishi mumkin. Berilgan madaniy sharoitda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan, realistik tasvir va namunalarni namoyish etish, aksincha, ijtimoiy-madaniy, madaniy o'lchov, insoniy o'lchov xususiyatlariga ega bo'lgan haqiqiy o'ziga xoslikni shakllantirishga yordam beradi. Bolalar ko'pincha, axborot ta'siri vositasida qabul qilgan mohiyati noma'lum qadriyat sifatida gavdalanuvchi urlarga beriladilar;

2. O'z shaxsini uning shakllanishi sharti sifatida ixtiyoriy qabul qilish, bunda o'quvchilarning o'qituvchilar tomonidan ko'rsatilgan tasvirlar va namunalarni qabul qilishdagi faolligini rag'batlantirishga, shaxsiyat parametrlarini mustaqil tanlashga qaratilgan. Bu o'qituvchining jamoa oldida ibratli xulq-atvori asosida milliy o'zlikni shakllantirish jarayoniga hamroh bo'ladigan an'anaviy ta'lim amaliyoti shakllarini berish zarurligini anglatadi;

3. O'qituvchi ta'lim munosabatlarining subyekti sifatida zaruriy ma'lumotnomaga ega bo'lishi kerak. Milliy o'zlikni shakllantirish jarayoni o'qituvchi tomonidan nazorat qilinishi mumkin. Pedagogik ahamiyatga ega bo'lgan "ustoz-shogird" hamkorligidagi ishonchli munosabatlar tizimi ta'minlanadi. O'qituvchining ibratli mavqeyiga yo'naltirilishi o'qituvchi parametrlari

bilan tasdiqlanishi mumkin bo'lgan shaxsiyatni shakllantirishga imkon beradi;

4. O'qituvchilar tomonidan ko'rsatilgan namunalar va tasvirlarni belgilashda nomuvofiqlikning ko'zga tashlanishi. Bunda o'qituvchining o'z aytganlariga amal qilishi uning so'zlash odobi, yurish-turishi, kiyinishi, odamlarga munosabatlari fonida namoyon bo'ladi. Pedagogik ishning jamoaviy tabiati o'ziga xosliklarning asosiy majmui maqomiga ega bo'lgan belgilangan tipifikatsiya tizimiga e'tibor qaratish zaruratini keltirib chiqaradi. Zamonaviy ta'lim amaliyotida "o'ziga xoslik siyosati"ni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayoni o'qituvchilar uchun mavjud bo'lgan real antropologik tasvirlar, modellar, me'yorlarning subyektiv xiralashishiga olib keladi;

5. Milliy o'zlikni shakllantirish jarayonini ta'lim muassasasining ta'lim makonidan ayri holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Ta'lim makonini tashkil etish ijtimoiylashuv va inkulturatsiya jarayonlarini tartibga solishni, milliy o'zlikni shakllantirish jarayonining yoshga mosligiga e'tibor berishni talab qiladi. To'g'ridan to'g'ri ta'lim ta'siridan bilvosita ta'sirga bosqichma-bosqich o'tish bilan identifikatsiyalash jarayonlarini pedagogik boshqarish imkoniyatlari, ta'lim jarayonining boshqa subyektlarini keng jalb qilish orqali ta'lim maydonini kengaytirish muammolarini ham ko'rib chiqilishini taqozo etadi. M.V.Shakurova belgilab bergan har bir pozitsiyada o'qituvchi milliy identligining turli tarkibiy qismlari ta'lim munosabatlari subyeksi sifatida namoyon bo'lishini kuzatish mumkin. Shunday qilib, o'qituvchi milliy identligining ta'lim-tarbiya makonidagi ahamiyati, uning turli tarkibiy qismlarining o'qituvchilar bilan referent(ibrat bo'lishi) aloqada namoyon bo'ladi. Bundan kelib chiqib, o'qituvchining milliy identligi o'qituvchilarning milliy o'zligini shakllantirishga ta'sir qiladi, – degan xulosaga keldik. Lekin bu tushunchaning pedagogik mohiyati ilmiy va ilmiy-metodik adabiyotlarda yetarlicha ifodalanmagan, bu turkumning tuzilishi to'liq yoritib berilmagan. Bu uzluksiz pedagogik ta'lim tizimida o'qituvchining rivojlanish jarayonini psixologik-pedagogik va tashkiliy-metodik ta'minlashni sezilarli darajada murakkablashtiradi. Bunday qo'llab-quvvatlash juda zarur, chunki o'qituvchining o'zi ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarning umumiy tendensiyalariga bo'ysunadi, zamonaviylik muammolari va xavf-xatarlariga javob berishga majbur bo'ladi va shu bilan birga milliy o'ziga xoslikni shakllantirish jarayonlarini boshqaradi.

Shuni ham alohida qayd etishimiz lozimki, o'qituvchi milliy hamjamiyat a'zosi sifatidagi milliy identligining barcha tarkibiy qismlarini shakllanishi va rivojlanishi jarayonlariga boshqariladigan va boshqarilmaydigan omillar ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, o'qituvchi milliy identligi o'qituvchilarning milliy identligini shakllantirishning muhim omiliga aylanib boradi. Fuqarolik – shaxs uchun muhim ma'noga ega bo'lgan

ma'lum bir davlat fuqarolari jamoasiga mansublikni anglatadi. Ammo milliy mansubiyat va milliy til, dunyoqarash, urf-odat, an'analar va qadriyatlarini hurmat qilish bu milliy identlikni ko'rsatadi.

O'qituvchi ongli va hissiy ravishda o'zining o'zbek xalqiga mansubligini va o'qituvchining ijtimoiy o'zini o'zi anglashga tayyorligini his qiladi. O'qituvchining milliy identligi strukturasi fuqarolik va milliy komponentlar bilan ifodalanadi, madaniy asosi esa u o'zlashtirgan etnik va milliy madaniyat unsurlari bilan belgilanadi. O'qituvchining milliy identligi zamonaviy ijtimoiy-madaniy vaziyatga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi, ammo bu tushunchaning mohiyatini hali ham tushunish kerak. Muammo pedagogika fanida ushbu hodisaning tuzilishi, rivojlanish mexanizmlari, kasbiy shartliligi, uning ta'lim salohiyati va "ustoz-shogird" o'rtasidagi o'zaro ta'sirda amalga oshirish imkoniyatini ochib beradigan individual tadqiqotlarning yetishmasligi bilan belgilanadi. O'qituvchida shakllangan milliy identlik tarbiya jarayonida uning o'qituvchisiga singdiriladi. Zero, tarbiyalanuvchi bola shaxsida taqlidchi, ustozidan namuna olishga moyilligining balandligi kuzatiladi.

Yoshlarda milliy o'zlikni anglashni millatlararo va ijtimoiy-madaniy munosabatlarni uyg'unlashtirish vositasi sifatida shakllantirish, yangi shaxsning semantik mazmunini spetsifikatsiya qilishni talab etadi.

O'qituvchi uchun o'z milliy identligi va milliy qadriyatlar va madaniy modellar tizimini qabul qilish, shuningdek, davlat hayotining ijtimoiy-madaniy va boshqa sohalarida, birinchi navbatda, professional pedagogik tizimda faol faoliyat ko'rsatishi uchun hissiy ahamiyatga ega. O'qituvchining milliy identligi tarkibida etnik, fuqarolik va milliy identlik kabi tarkibiy qismlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Milliy identlikni o'qituvchi shaxsining integral belgisi sifatida qarashda quyidagi o'ziga xos farqlar aniqlandi: natijada o'zbek millatiga tegishli belgilar subyektiv aks ettirilgan. Etnik, fuqarolik va milliy jihatlarida shaxsiy va kasbiy o'zini o'zi anglash, aloqalar va munosabatlar tizimi, kasbiy pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. O'qituvchilarning milliy o'zligini shakllantirishda o'qituvchining malakasini ta'minlovchi vositalar uning faoliyatida namoyon bo'ladi. O'qituvchining milliy identligi tuzilishiga ko'ra kognitiv, hissiy-qadriyat va faoliyat komponentlaridan tashkil topadi. Konsepsiyaning taqdim etilgan ta'riflarining har biri turli xil qo'llanilishi sohalarini ajratib ko'rsatishga imkon beradi.

O'qituvchi yoshlarning milliy identligini shakllantirish bu jarayonni boshqarishda o'qituvchilardan alohida malaka talab qiladi. Malakali o'qituvchi zamonaviy ijtimoiy-madaniy vaziyat keltirib chiqaradigan muammolarga qarshi tura oladi. Umumlashtirilgan shaklda bu muammolarni bartaraf qilish pedagogik faoliyatning texnologik va uslubiy ta'minotiga, o'qituvchining o'ziga xos ta'lim vositalariga ega

bo'lishiga olib kelishi mumkin. Bu nafaqat shakl va usullar arsenaliga, balki o'zaro ta'sir qilish tizimiga asoslanadi. Konsepsiyani aniqlashning mantiqiy analizidan foydalanish natijasida biz o'qituvchining milliy identligi bilan bog'liq bo'lgan "ijtimoiy-madaniy identlikning bir turi" va "o'qituvchi shaxsining integrativ sifati" kabi umumiy tushunchalarga oydinlik kiritdik. Ularning har biri konsepsiyaning o'ziga xos farqlarini, tuzilishini aniqlash imkonini berdi.

Xulosa.

Demak, o'qituvchining milliy identligi ijtimoiy-madaniy identlikning bir turi sifatida o'qituvchi shaxsining o'z-o'zidan ma'lum bir ijtimoiy guruh – millatga murojaat qilishi kabi o'ziga xos farqlarga ega. Birinchi ta'rifdan hozirgi ijtimoiy-madaniy vaziyat sharoitida, o'quvchilarning milliy o'zligini shakllantirishda o'qituvchining rolini aniqlashda,

shuningdek, o'qituvchining milliy o'zligini shakllantirish va rivojlantirish omillarini tavsiflashda foydalanish kerak. Ikkinchi ta'rif oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimida o'qituvchining milliy identligini rivojlantirish, o'quvchilarning milliy o'zligini shakllantirishda pedagogik kompetensiyalarni aniqlash hamda o'qituvchining milliy o'zligini rivojlantirish mezonlari va ko'rsatkichlarini belgilashda qo'llaniladi.

Xullas, milliy identlikni shakllantirishning ijtimoiy pedagogik mexanizmini takomillashtirishning texnologik tizimi yuqorida ko'rib o'tganimiz asosiy to'rt bosqichda amalga oshiriladi. Milliy identlikni shakllantirishning ijtimoiy pedagogik mexanizmini takomillashtirishning texnologik tizimi oddiydan murakkabga tomon differensial o'zgaruvchanlik mezonida tashkil etilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. "O'zbekiston Respublikasi yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" // Xalq so'zi, 2017-yil, 7-dekabr.
2. Yo'ldoshev J.G'. Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.
3. Xodjayev B., Choriyev A., Saliyeva Z., Choriyev I. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. – Toshkent, 2019. / [https://library. Samda. Uz/](https://library.samda.uz/)
4. Ибраимов Х.И., Мажидова Д.А. Психолого-педагогические факторы детско-родительских отношений в семье// Science and innovation. International scientific journal. Volume 1, ISSUE 7. UIF-2022: 8.2 – С. 382-385.
5. Доноева Ю.В. Этнокультурные факторы формирования здоровь ориентированной направленности личности учащихся подросткового возраста. Автореф. дисс. канд. психол. наук. – Харьков, 2020. – 22 с.
6. Зеленецкая Т.И. Формирование региональной идентичности в образовательном пространстве: Социологический анализ. Автореф. дисс. на соиск. учен. степ. канд. социол. наук. – Екатеринбург, 2005. – 22 с.
7. Смакотина, Н. Л. Национально-культурная идентичность молодежи: социологический метод оценки / Н. Л. Смакотина, Н. А. Хвыля-Олинтер // Вестн. Моск. ун-та. – 2010. – Сер. 18. № 2. – С. 59–78.

Sayyoraxon ABDURAXMONOVA,
"University of economics and pedagogy" NOTM,
Pedagogika kafedrası o'qıtuvchısı

PEDAGOGIK AMALIYOT VOSITASIDA TALABALARNI OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIK QILISHGA TAYYORLASH OMILLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada pedagogik amaliyot – talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlash omillari va amaliyotdagi ahvoli o'rganilgan. Hamkorlik qilishga tayyorlash jarayoni andozasi ishlab chiqilgan. Amaliyot rahbari, talabalar, tarbiyachilar, ota-onalar ishtirokida ta'lim muhitini takomillashtirish vazifasi belgilagan.

Kalit so'zlar: hamkorlik ishi, modernizatsiya, so'rovnoma, "Pedagogik amaliyot", "Hamkorlik ishlar" "Amaliyot rahbari, talabalar, tarbiyachilar, ota-onalar" ishtirokida ta'lim muhitini takomillashtirish, andoza.

Абстрактный: педагогическая практика – в данной статье изучаются факторы подготовки учащихся к сотрудничеству с родителями и ситуация на практике. Разработана модель процесса подготовки к сотрудничеству. Руководитель практики поставил задачу по улучшению образовательной среды с участием студентов, педагогов, родителей.

Ключевые слова: совместная работа, модернизация, анкета «Педагогическая практика», «Совместная работа», совершенствование образовательной среды с участием «Руководитель практики, обучающиеся, педагоги, родители», шаблон.

Abstract: pedagogical practice - the factors of preparing students to cooperate with parents and the situation in practice are studied in this article. A model of the process of preparing for cooperation has been developed. The head of practice set the task of improving the educational environment with the participation of students, educators, parents.

Key words: cooperative work, modernization, questionnaire "Pedagogical practice", "Cooperative work", improvement of the educational environment with the participation of "Practice leader + students + educators + parents", template.

Kirish. So'nggi yillarda pedagogik-psixologik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishi sifatida ta'limni insonparvarlashtirish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, o'qitishni individuallashtirish, ta'lim shakllarini optimallashtirish, ta'lim oluvchilarning bilish faolligini oshirish, bu jarayondagi talabalarning ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorgarligini takomillashtirish masalasiga alohida urg'u berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "Ta'lim va ma'rifati tizimini takomillashtirish, mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni zamonaviy bilim olishga yo'naltirish, ularning qiziqishlarini e'tiborga olish va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash – davlat va jamiyat oldida turgan eng muhim vazifadir" [1;592-b] deb ta'kidlaydilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yosh avlodning barkamol, komil inson bo'lib yetishishida pedagog, tarbiyachilarning o'rni benihoya kattadir. Taniqli rus pedagogi V.Suxomlinskiy, "Yaxshi murabbiy bo'lgan taqdiridagina yaxshi pedagog bo'lish mumkin. Tarbiyachining butun pedagogik madaniyati, bilimi tarbiyaviy ishda kor qilmasa, befoyda yukka aylanib qoladi" [2;18-b] – deb fikr bildirgan.

G'arbiy Yevropa tadqiqotchilari Sanja Berchnik [3'207-226-b], Tatjana Vonta [4] Sloveniya davlat maktabgacha ta'lim muassasalari ota-onalar bilan hamkorlikning ahamiyati va o'rni ota-onalar va bolalar bog'chasi mutaxassislari hamkorlik sifatini

amalga oshirish bo'yicha umumiy majburiyatni, ta'lim maqsadlarini, ta'lim-tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni ochiqlik bilan hal qilishni ta'kidlaganlar. Agar – deydi Beruniy, – tarbiyachining o'zi-o'rnak bo'lmasa, aytgan gapiga o'zi rioya etmasa, uning talabi va tarbiyasi samarasizdir[5;10-12-b].

Abdulla Avloniy: "Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyangan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadir. Fikr insonning sharofatli, g'ayratli, bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga muhtojdirki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'liqdir", – deydi[6;16-b]. Shu sababli tadqiqot muammosining hamkorlik qilishga tayyorlash nechog'lik ahamiyatga egaligini baholash va dolzarbligini aniqlashda mavjud ahvol bilan tanishish, uni ham nazariy, ham amaliy tahlil etish dolzarb muammodir. Mazkur tadqiqotning eksperimental bosqichida pedagogik amaliyot vositasida talabalarni pedagogik amaliyot negizida hamkorlik faoliyatiga tayyorlashni takomillashtirish jarayonining amaldagi holati, shart-sharoitlari, xususiyatlari, funktsionalligi, samaradorligi va o'ziga xosligi masalalari o'rganib chiqildi.

I. Obyektiv omillar:

– talabalar ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish pedagogik

zaruriyat ekanligini asoslashga xizmat qiladigan pedagogik-psixologik omillarini aniqlashtirish to'g'risida ma'lumotlar beradigan maxsus adabiyotlarning mavjudligi;

- “pedagogik amaliyot”, “hamkorlik ishlar” tushunchalarining tayanch iboralar sifatida o'rganib chiqilishi va ilmiy farazlarimizning amaliyotdagi tatbiqi jarayonini tashkil etishda qo'llaniluvchi o'quv jihozlari (texnik vositalar, plakatlar, stendlar va boshqa turdagi ko'rgazmali qurollar)ning yaratilganligi; ta'lim metodlari va maqsadining talabalar hamkorlik ishlariga tayyorlashni takomillashtirishga yo'naltirilganligi respondent talabalarning amaliyot davrida turli pedagogik vaziyatlarda qo'llashga yo'naltirilgan topshiriqlarni bajara olishi, o'zlashtirilgan bilimlari asosida malaka va ko'nikmalarni izchil tizimga solishi va umumlashtirishi;

- pedagogik amaliyot jarayonining texnik va texnologik vositalar bilan qurollanganligi;

- pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlikka tayyorlashni takomillashtirish indikatorlarining ijtimoiy baholash mezonlari (kreativlik, verbal-noverbal, sinergetik yondashuv, prezentativlik - eksklyuzivlik - progressivlik - motivatsion) asosida belgilanishi;

II. Subyektiv omillar:

- pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlashda amaliyot rahbarlarining pedagogik malaka hamda ilg'or ish tajribasiga egaligi;

- talabalar hamkorlik faoliyatiga tayyorlashni

takomillashtirishda ularning mustaqil fikrlash va kasbiy qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish, xususan pedagogik munosabatlarda ilmiy izlanish olib borishlariga oid muammolarning yechimlarini topish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilishi;


- pedagogik amaliyot vositasida talabalar ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlashning tashkiliy pedagogik shart-sharoitlarini modernizatsiyalashga nisbatan ehtiyojning mavjudligi;

- pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlashni takomillashtirishning metodik elektron dasturiy ta'minotiga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi. Mazkur metodik elektron dasturiy ta'minot amaliyot rahbarlarining pedagogik amaliyot davrida nazariya va amaliyotning uzviyligini ta'minlab borilishi;

- pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlash mazmunining ilmiy, tarbiyaviy-ta'limiy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar texnologiyalarini joriy qilishga yo'naltirilgan imkoniyatlari, ularning yechimiga doir ilg'or ish tajribalarining keng ommalashtirilishi;

- pedagogik amaliyot jarayonini puxta loyihalashtirish, bashoratlash, dasturlashtirish zamirida talabalar va ota-onalar hamkorligi shart-sharoitlari, imkoniyatlari, kasbiy qobiliyatini metodik-texnik vositalar bilan birlashtirgan holda sifat va samaradorlikka erishish va boshqalar. Biz tajriba – sinov ishlari jarayonida talabalar va ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlashga oid munosabatlarni quyidagicha turkumlashtirdik. (1-rasmga qarang).

Pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlash jarayonidagi munosabat turlari



1-rasm. Pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlash jarayonidagi munosabat turlari

Tajriba-sinov ishlarining pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlash jarayonidagi munosabat turlariga qarab muayyan tartib va dastur asosida tashkil etilishi ushbu jarayonning samaradorligini ta'minladi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida shunga amin bo'ldikki, mazkur tamoyillarga amal qilgan holda hamkorlik faoliyatini tashkil etish talabalarni ota-onalar bilan muloqot qilishga zamin yaratadi. Natijada, talabalarni kasbiy faoliyatida ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini amalga oshirish imkoniyatini boyitadi. Oliy ta'lim tizimida

pedagogik amaliyot vositasida talabalarni hamkorlik faoliyatiga tayyorlashni takomillashtirish zamirida o'zaro hamkorlik qobiliyatlari shakllantiriladi.

Demak, har tomonlama rivojlangan shaxs tarbiyasida talabalarni hamkorlik faoliyatiga tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Pedagogik amaliyot jarayonida yoshlar ajdodlar tomonidan to'plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirishi, amaliy tajriba asosida jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallashi, salohiyati va dunyoqarashini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018. 592-bet.
2. V.Suxomlinskiy. "Tarbiya haqida". – Toshkent .1977 yil. 18-bet.
3. Sanja Berchnik, Tatjana Devjak "Cooperation between Parents and Preschool Institutions through Different Concepts of Preschool Education" c e p s Journal | Vol.7 | No4 | Year 2017.207-226.
4. Tatjana Vonta "Ijtimoiy o'zgarishlar muammolarida tashkil etilgan maktabgacha ta'lim ilmiy monografiya pedagoški inštitut / 2009.
5. K.Hoshimov, M.Inomova, S.Nishonova, R.Hasanov. Pedagogika tarixi. – T.: O'qituvchi, 1996. 10-12-betlar.
6. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992. 16-bet.
7. S. Sh. Abduraxmonova, S. U. Ergasheva "Pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishining mazmuni" Science and education.

Simela ABDULLAYEVA,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti dotsenti

AKADEMIK YOZUVNI O'QITISHDA GRAFIK ORGANAYZERLAR

Annotatsiya: maqolada akademik yozuvni o'rgatishda grafik organayzerlardan foydalanishning dolzarbligi muhokama qilinadi. Zamonaviy ta'limda samarali o'qitish usuli sifatida grafik organayzerlar variantlari va ularning konstruktivligi taklif etiladi.

Kalit so'zlar: *divergent fikrlash, aloqa, grafik organayzer, obyekt.*

Аннотация: в статье рассматривается актуальность использования графических органайзеров в обучении академическому письму. Предложены варианты графических органайзеров и их конструктивность, как продуктивный метод обучения в современном обучении.

Ключевые слова: *дивергентное мышление, коммуникативность, графический органайзер, объект.*

Annotation: the article discusses the relevance of using graphic organizers in teaching academic writing. Options for graphic organizers and their constructiveness are proposed as a productive teaching method in modern education.

Key words: *divergent thinking, communication, graphic organizer, object.*

Zamonaviy universitetlarda akademik yozuv va akademik savodxonlik bo'yicha kompetensiyalarni rivojlantirish zarurati juda dolzarbdir. Hozirgi vaqtda ilmiy aloqaning chegaralari yo'q bo'lsa, akademik yozuvga bo'lgan ehtiyoj va usullar hamda texnologiyalarning rivojlanmaganligi o'rtasidagi qarama-qarshilik muammosi aniq ko'rinadi.

Universitet tizimidagi tajriba amaliyoti shuni ko'rsatadiki, tadqiqot faoliyatining asosi bo'lgan,

tahliliy va akademik ko'nikmalarni rivojlantiradigan divergent fikrlash (bitta muammo yoki vazifaning eng ko'p yechimlarini topishga yordam beradigan ijodiy fikrlash usuli) past darajada bo'ladi.

Shu bilan birga, ta'limning asosiy vektori akademik va ilmiy matnni mustaqil yozishga qaratilgan bo'lib, ommaviy matnga nisbatan tanqidiy fikrlashning birinchi tajribasi muvaffaqiyatsizlikka uchragan akademik yozuv fanining konstruktivligi xususiyatini ta'kidlash

kerak. Shu bilan birga, muammoni tushunishning haqiqiy holati akademik yozuvni o'rgatish sohasidagi uslubiy ishlanmalarning yetishmasligidir. Irina Borisovna Korotkina o'z shakli va mazmuni bo'yicha samarali didaktik xarakterdagi tavsiyalarni taqdim etadi, ular bizning fikrimizcha, o'quv dasturlarini ishlab chiqishda asosiy konsepsiyani ifodalaydi va biz ularni akademik o'qitishning asosiy tamoyillari sifatida ko'rib chiqishni taklif qilamiz.

U quyidagi tamoyillarni o'z ichiga oladi:

1. Aniqlik.
2. Ikki tillilik.
3. Transdistiplinarlik.
4. Munozara.
5. Hamkorlik.
6. Obyektivlik.
7. Fanlararo integratsiya.

Ushbu tamoyillar asosida akademik yozuv bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqish, ularni yangi uslub va texnologiyalarni ishlab chiqishda bosqichma-bosqich joriy etish konsepsiyani tashkil etadi. Uning amalga oshirilishi quyidagi natijalarga erishishga yordam beradi:

- ilmiy va uslubiy ta'minot;
- talabalar muhitida ham, ilmiy nashrlarda ham akademik va ilmiy matnlarni yozish samaradorligi hamda sifatini oshirish;
- ta'limning hozirgi bosqichida tobora ommalashib borayotgan o'rganish obyektiga aylanib borayotgan fanlararo integratsiya.

Akademik yozuvni o'rgatishning muhim vazifalaridan biri bu matnni tashkil etuvchi tarkibiy elementlarni o'zlashtirishga asoslangan ilmiy matnni qurish yoki modellashtirishdir: mavzu, kommunikativ vazifa, mikromavzular, berilgan va yangi ma'lumotlar, matn yaratish imkoniyatlari, jumla, matnda ma'lumotni rivojlantirish yo'llari. Ushbu tamoyilning harakati matnning tuzilishi va ma'nosi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik bilan belgilanadi. Ilmiy axborotni strukturalashtirish va taqdim etishni o'rgatishda turli xil usullar hamda texnologiyalar mavjud. Biz grafik organayzerlarning yuqori ko'rsatkichlarini ko'ramiz, ular yordamida ilmiy matn mazmunini tashkil etish hamda taqdim etishda sifat va izchillik oshadi, divergensiya kuchayadi. Bu yerda bitta muammoning ma'lum miqdordagi yechimlari ko'rib chiqiladi va ilmiy aloqa kuchaytiriladi. Grafik organayzerni g'oyalar rejalashtirilgan va tuzilgan samarali amaliy vositalardan biri deb hisoblash mumkin, chunki g'oyalar, tushunchalar, tasniflash va turli komponentlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar vizual tarzda eng yaxshi ifodalanadi.

Grafik organayzerning asosiy maqsadi sizning g'oyalaringizni taqdim etishdan iborat bo'lib, u ilmiy ma'lumotlarni tartibga soluvchi va muayyan muammoning yechimini yaratishga yordam beradigan eng yaxshi vositadir. Misol tariqasida

biz divergent fikrlashni rivojlantiruvchi va analitik fikrlashni rivojlantiruvchi ba'zi organayzerlarni ko'rib chiqamiz. Har qanday obyekt yoki obyektning farqlari va o'xshashligini ko'rsatadigan taniqli Venn diagramma ko'rib chiqilayotgan jarayon va hodisalarni qiyosiy jihatdan tuzish hamda taqdim etishning yetarlicha samarali usuli bo'lib xizmat qilishi mumkin. Diagrammaning tabiati ko'rib chiqilayotgan obyektlar, hodisalar, jarayonlar va boshqalarning qiyosiy tavsifini berish ko'nikma hamda malakalarini shakllantirishga qaratilgan. Shuningdek, ilmiy matnda sabab va oqibatni ko'rsatishda samarali tashkilotchilardan biri sabab-natija grafik organayzerlaridir. Akademik yozuvni o'rgatishda, xususan, matnni modellashtirishda ushbu organayzerlardan foydalanib, siz tushunchalar va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatishingiz, ilmiy dunyoda sodir bo'layotgan voqealarning sabab va oqibatlarini keltirishingiz mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu turdagi organayzerlarni tasvirlashda erkin yondashuv mavjud bo'lib, unda o'ziga xoslik aniq chegaralarga ega bo'lmaydi, bu grafiklarning taqdimotini ijodiy tarzda amalga oshirishni taklif qilish mumkin.

Akademik yozuvda grafik organayzer – bu murakkab materiallar va tushunchalarni boshqariladigan qismlarga bo'lish, turli informatsion komponentlar o'rtasida aloqalarni o'rnatish orqali ma'lumotlar va g'oyalarni taqdim etish hamda vizualizatsiya qilishni osonlashtiradigan o'quv va o'qitish vositasi bo'lib, bunda funksional diqqat akademik tuzilmani shakllantiruvchi xususiyatdir. Grafik organayzer yordamida matn tuzish orqali kommunikativ maqsad izchil amalga oshiriladi. Amaliy tajriba akademik matnlarning funksional yo'nalishi mavzu bilan chambarchas bog'liq degan xulosaga kelishga imkon beradi. Agar matn mavzusi ilmiy faktlarni aks ettirsa, muallif hech narsani isbotlashiga hojat qolmaydi. Shuning uchun mavzulari o'xshash bo'lgan matnlar gaplarning funksional sinfiga kiradi. Bunday hollarda grafik organayzerlar an'anaviy jadval prinsipi asosida quriladi. Shu bilan birga, obyekt haqida ilmiy qonun yoki tushunchani bayon qilish ham o'rinli emas. Ushbu ma'lumotni tushuntirish kerak. Obyektni turlari bo'yicha baholashni taqdim etuvchi akademik matnlar ("Axborot tarmoqlari" va boshqalar) informatsion va bahsli yo'nalishga ega, bu yerda o'quv matnlarining standart sxemasidan foydalanish yaxshiroqdir.

Akademik ilmiy matnni modellashtirish jarayonida organayzerlar bilan ishlash turli, ammo yaxlit kontekstda aloqalarni o'rnatish qobiliyati quyidagi muammolarni hal qilishga qaratilgan:

- bilimlarni yangilash;
- yangi ma'lumotlar bilan munosabatlarni o'rnatish;
- har xil turdagi hodisalarni aniqlash;
- kognitiv jarayonlarni faollashtirish;
- tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;

- axborotni jamlash;

Bu kompetensiyalarni egallashda, o'quv, ilmiy matnni tuzishda va ko'rib chiqilayotgan mavzularni tizimlashtirishda yetarlicha samarali vosita sifatida tan olingan. Keling, o'qitish amaliyotida foydalanadigan eng samarali grafik organayzerlarni ko'rib chiqaylik. Akademik yozuvning vazifalaridan biri kontekstda ma'lumotni tizimlashtirish, tadqiqot obyekti va predmetini konseptual tasvirlashdir. Muammoni hal qilish shubhasiz, tizimli fikrlashni rivojlantirish va mavzu qismlarining ma'lum xususiyatlariga ko'ra tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Bunday jadvalni konseptual deb hisoblash mumkin, uning jarayonida tizimli tafakkur rivojlanadi va o'rganilayotgan hodisalar, tushunchalar va turli jihatlar boyicha qarashlarni taqqoslash imkoniyati taqdim etiladi. Bunday faoliyatning mahsuldorligi maksimal ko'rsatkichlarga tushiriladi va aniq mavzularni aniqlash, ularning tizimlashtirilgan va taqqoslanadigan xususiyatlarini ajratib ko'rsatish qobiliyatiga asoslanadi, bu akademik yozuvni o'rgatishda juda muhimdir.

Axborotni mantiqiy tashkil etish va uni qattiq matn shaklida taqdim etish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan yana bir grafik organayzer bu iyerarxik diagrammani qurish hisoblanadi, u savollarning mantiqiy zanjiri bo'lib, umumiy tasavvurga ega bo'lishga imkon beradi. Muammoni bir butun sifatida tizimli, ijodiy va analitik fikrlashini rivojlantiradi va faollashtiradi. Matnni eng muhimidan ikkinchi darajasigacha iyerarxik tarzda tuzishga yordam berib, fikrlarni guruhlash va ularni mantiqiy tartibga solish, belgilar yoki bloklar bo'yicha ketma-ket solishtirish, muhimidan eng muhimigacha sabab-oqibat tartibini qurishga undaydi. Ushbu organayzerlar ilmiy faktlar rivojlanishining asosiy bosqichlarini va ularning ko'rib chiqilayotgan ilmiy obyektning hozirgi holatiga ta'sirini kuzatish imkonini beradi.

Xronologik jadval – bu ma'lum bir voqeaning vaqt yoki bosqichlar bo'yicha jadval shaklida ketma-ket uzatilishi.

Xronologiya – sanalar bo'yicha taqsimlash. Voqea, biografiya, ijod bosqichlariga bo'linadi. Jadvalda ko'pincha ikkita ustun mavjud. Birinchisi, sana, vaqt davri. Ikkinchisi – hodisaning bir qismining tavsifi, uning xususiyatlari.

Jadvalda tarixdan, adabiyotdan, bir kishining hayotidan yoki dunyo faktlari va hodisalaridan faktlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Tartibni taqsimlash voqea tartibini shu kunlargacha tiklashga yordam beradi. Kelib chiqqan kundan boshlab tugallangan vaqtgacha. Bunday tashkilotchining maqsadi asosiy bosqichlarni kuzatib borishdir.

Akademik yozuv tadqiqot usullarini tavsiflashni o'rganish turlari bilan shug'ullanadi. Ushbu turdagi faoliyatda "qanday?" degan savol bilan organayzerlardan foydalanish juda muhimdir. Turli harakatlarga savollar berish ketma-ketligi bizga muammoni hal qilishning barcha mavjud imkoniyatlarini va ularni amalga oshirish yo'llarini o'rganishga imkon beradi; hodisalar va jarayonlar haqida qanchalik ko'p savollar tug'lsa, deyarli har qanday muammoning yechimini topishga kafolatlar shunchalik ko'p bo'ladi.

Biz grafik organayzerlarni grafik diagrammalar ko'rinishidagi ishchi vositalar sifatida ko'rib chiqishni taklif qilamiz, ya'ni matnning asosiy subyektlari o'rtasidagi mantiqiy aloqalarning grafik tasviri (shartli aniqlangan konstantalar o'rtasidagi munosabatlar).

Grafik diagramma quyidagi variantlarda bajarilishi mumkin:

– tushunchalar orasidagi iyerarxik munosabatlarni vizual shaklda taqdim etish;

– matnda tushunchalar yoki kategoriyalar ko'rinishida ifodalangan har qanday tizim (bo'lim) elementlari o'rtasidagi funksional munosabatlarni taqdim etish;

– o'qituvchi topshiriq mazmuni va mustaqil ish maqsadlariga muvofiq grafik diagrammaning kerakli turini ko'rsatishi mumkin.

Grafik organayzer taklifida to'g'ri tuzilmani ishlab chiqishning kaliti bu matnni mantiqiy tartibga solish yoki matnni tashkil qilish usulidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. И.Б.Короткина: « Академическое письмо: процесс, продукт и практика». Учебное пособие для вузов. – Москва: Юрайт, 2021
2. Ю.М. Кувшинская, Н.А. Зевахина, Я.Э.Ахапкина, Е.И. Гордиенко и др.: «Академическое письмо. От исследования к тексту». Учебник и практикум для вузов.
3. И.А.Стернин : «Практическая риторика». – М.: Академия, 2007.

Ma'rufjon INATULLAYEV,
Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahar
9-umumiy o'rta ta'lim maktabi musiqa fani o'qituvchisi

KO'ZI OJIZ BOLALARGA MUSIQIY TA'LIM O'RGATISHNING ZAMONAVIY METODLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada ko'zi ojiz yoshlarning musiqiy bilimlarni egallashlari uchun maxsus qo'llanmalar yaratish to'g'risida fikrlar bayon etiladi

Kalit so'zlar: *qalb ko'zi, brayl, tiflopedagog, solfedjio, interval, akkord, alteratsiya, dinamik pribor*

Abstract: this article presents ideas on creating special guides for the acquisition of musical knowledge by blind young people

Keywords: *heart eye, braille, typhlopedagogue, solfeggio, interval, chord, alteration, dynamic instrument*

АННОТАЦИЯ: в данной статье представлены идеи по созданию специальных пособий для приобретения музыкальных знаний слепой молодежью

Ключевые слова: *сердечный глаз, шрифт Брайля, тифлопедагог, сольфеджио, интервал, аккорд, альтерация, динамический инструмент*

Kirish. Ne'matlarning eng yaxshilaridan biri - dunyoni ko'ra olish va uni idrok qilishdir. Yaratganning marhamati ila bu yorug' dunyoning mehmonlari bo'lganimiz va Alloh taolo tomonidan bizga tuhfa etilgan barcha ne'matlardan bahramand bo'la olishimizning o'zi buyuk baxtdir. Shunday insonlar borki, bu turfa olamning serjilo go'zalliklarini: moviy osmon, bepoyon zamin uzra mavjlanayotgan jo'shqin hayotning tarovatini ko'zlari bilan emas balki, qalblari bilan his etish orqali anglaydilar.

Zero, qalb ko'zi – Alloh yaratgan barcha narsalarni botiniy idrok eta oladigan mardum (gavhar)dir. [1] Ayniqsa, ko'zi ojiz insonlar qalb ko'zlariga tayangan holda butun borliqni ichki bir tuyg'ular bilan tasavvur etish orqali ijtimoiy hayotga moslashadilar. Bu moslashuv jarayoni ko'zi ojizlar hayotida sog'lom insonlar singari yashash, bilim olish, kasb tanlash, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lish borasida qulay shart-sharoitlarga ehtiyoj tug'diradi. Ehtiyojlar qondirilgani sari yangilari tug'ilaveradi. Yangi ehtiyojlar zamirida inson va jamiyat taraqqiy etib boradi.

Bugungi kunda ko'zi ojiz insonlar hayotini yengillashtirish maqsadida ular uchun davlatimiz tomonidan ko'plab qulayliklar yaratilmoqda, har sohada imkoniyat eshiklari ochilmoqda. Xususan, ta'lim sohasining turli yo'nalishlari bo'yicha olib borilayotgan islohotlar o'z samarasini bera boshladi. Jumladan, musiqa va san'at sohasida ko'zi ojiz iste'dodli yoshlar ko'plab yutuqlarga erishmoqdalar. Ular o'z ijro mahoratlarini katta-katta sahnalarda namoyish etib, nafaqat Respublika miqyosida, hatto xalqaro ko'rik-tanlovlarda ham qatnashib faxrli o'rinlarni egallamoqdalar.

- **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).** Ko'zi ojiz san'at ustalari: Rustamqori Tursunov, O'lmas Rasulov, Orolmirzo Safarov, Ochilbek Matchonov kabi ustozlar izidan borayotgan

yosh iste'dod sohiblari milliy musiqiy san'atimiz rivojiga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi." [2]

Ushbu ilhombaxsh so'zlar ko'rish imkoniyati cheklangan yoshlarning ongiga chuqur kirib borgan holda ularni ijodkorlikka da'vat eta boshladi. ko'zi ojiz insonlar tabiatan adabiyot, san'at va musiqaga bolalikdan astoydil mehr qo'yadilar, juda-juda qiziqadilar. Ularning ba'zilari boshqa bir sohaning egasi bo'lsa ham biron bir cholg'uni chala oladilar yoki qo'shiq kuylaydilar, g'azal o'qiydilar.

Ko'zi ojiz insonlar, ayniqsa, kitob mutolaa qilishni, radio tinglashni o'zlarining eng sevimli mashg'uloti deb hisoblaydilar. Bu mashg'ulotlar orqali ular bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishni ta'minlaydilar va bundan zavq olib yashaydilar.

Ko'zi ojiz insonlarning eng sevimli sohalaridan biri musiqa bo'lib, ular musiqasiz yashay olmaydilar. Chunki, musiqa dardli qalblarga malham, o'ksik ko'ngillarga taskin beruvchi ma'naviy ehtiyojdir. Ko'zi ojiz insonlar bu borada o'z ustida ishlashni yaxshi biladilar. Buning Samarali natijasi esa ularni mazkur sohani egallashlari uchun zamin yaratadi.

- **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Bugungi kunda "Nurli maskan" [3] ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarida musiqaning turli yo'nalishlari bo'yicha Bolalar musiqa va san'at maktablarining maxsus sinflari tashkil etilib, bu sinflarda ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar sog'lom bolalar bilan bir qatorda tahsil olmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat

Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir" [4] mazmunidagi fikrlari ko'zi ojiz yoshlarni ham musiqa san'atiga jalb qilish, kitobxonlik madaniyatini oshirish yuzasidan amaliy ko'rsatma sifatida xizmat qilmoqda. Zero, yurtboshimiz yuksak iste'dodli ko'zi ojiz yoshlar qatlamini har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha g'amxo'rdirlar.

O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 22-iyulda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 11-sentabrda ma'qullangan O'RQ-641- sonli "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi" qonunining 8, 38, 40-moddalari asosida bugungi kunda ko'zi ojiz bolalar ta'lim-tarbiyasiga davlatimiz tomonidan katta e'tibor va imkoniyatlar berilmoqda. Shuningdek, bu qonunning 8- moddasida qayd etilgan "Nogironligi bo'lgan bolalarning rivojlanayotgan qobiliyatini va o'z individualligini saqlab qolish huquqini hurmat qilish prinsipi"dan kelib chiqib nogironligi bo'lgan bolalarni har tomonlama va uyg'un rivojlantirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, mehnatga bo'lgan qiziqishiga ko'maklashish, ta'limga, ilm-fanga, texnikaga, san'at va sportga jalb etish maqsadida nogironligi bo'lgan bolalar manfaatlari, ularga nisbatan bajariladigan barcha harakatlarda ustuvorlik yaqqol seziladi.

Ushbu qonunning 38, 40-moddalarida yozilishicha, davlat organlari nogironligi bo'lgan shaxslarning har biri uchun mosroq bo'lgan tillarni, muloqot qilish usullari va vositalarini rivojlantirish, Brayl alifbosini, muqobil harflarni, nutq va og'zaki muomala ko'nikmalarini o'zlashtirish, shuningdek o'qituvchilarni va maktab xodimlarini inklyuziv ta'lim masalalarida o'qitish, imo-ishora tilini va Brayl alifbosini biladigan nogironligi bo'lgan o'qituvchilarni ta'lim muassasalariga ishga joylashtirish yordamida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ko'makdosh bo'lgan loyihalar tahsinga sazovordir.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Biroq, ko'zi ojiz yoshlarning musiqa sohasidagi hali yechimini topmagan muammolarini hal etish masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Bugungi kunda ta'lim sohasiga kirib kelayotgan innovatsiyalashish jarayoni ilgari, o'zaro raqobatlashib ketayotgan bir paytda ko'zi ojizlar ta'limi, ayniqsa, musiqa yo'nalishi zamon bilan hamqadamlikda, o'z faoliyatini samarali tashkil etishda davr talabidan ortda qolmoqda. Chunki, ko'zi ojiz o'quvchilarni musiqa ta'limi, cholg'u ijrochiligi, nota savodxonligi, solfedjio va musiqa nazariyasi kabi musiqaning turli yo'nalishlarida o'qitish uchun Brayl nota yozuvida zarur qo'llanma va darsliklarning yo'qligi dolzarb muammoligicha qolmoqda. Buning natijasida o'quvchilar qanchalik mohir ijrochi bo'lmasin, ular nota savodxonligidan, Solfedjio, Musiqa nazariyasi,

Garmoniya, Polifoniya kabi fanlarni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Orkestr va Xorda ijro etish, shuningdek, unda dirijorlik qilish haqida esa aytmasa ham bo'ladi. Hozirda ko'zi ojiz o'quvchilar noyob esda saqlash tug'ma iste'dodiga tayanib, ko'p hollarda an'anaviy ijrochilik yo'nalishida tahsil olishga majbur bo'lmoqdalar. Ya'ni ular ko'proq tinglash orqali biror cholg'uni chalish yoki qo'shiq kuylashni o'rganmoqdalar. Qolgan yo'nalishlar esa ularga bir orzudek bo'lib qolmoqda.

Bu muammoning yechimini topish uchun sohadagi ilm ahli yanada chuqurroq izlanishlar olib borishi muhimdir. Buning uchun bizgacha mavjud bo'lgan brayl nota yozuvidagi chet el adabiyotlarini tubdan o'rganib, davlat ta'lim standartiga mos holda bosqichma-bosqich uzluksiz ta'lim tizimiga olib kirish zarur. Eng avvalo, "Nurli maskan" ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda, Umumta'lim maktablar qoshida ochilgan ko'zi ojiz bolalar uchun maxsus sinflarda, Bolalar musiqa va san'at maktablarida tahsil olayotgan ko'zi ojiz o'quvchilar uchun maxsus metodik va o'quv qo'llanmalar (Musiqa alifbosi va nazariyasi) yaratish kerakki, ushbu qo'llanmalar musiqaning turli yo'nalishlarida faoliyat olib borayotgan pedagoglar, hamda bilim olayotgan o'quvchilarning nota savodxonligiga, musiqa nazariyasiga, solfedjiosiga oid muammolarini hal etishga xizmat qilishi lozim. Shuningdek, mazkur qo'llanmada: tovush va uning turlari, musiqiy tovushning xususiyatlari, skripka kaliti, nota yozuvi hamda cho'zimlari, ritm, o'lchovlar, alteratsiya va dinamik belgilar, intervallar, nota cho'zimini uzaytiruvchi va nota yozuvini qisqartiruvchi alomatlar, pauzalar, ladlar majmuasi, akkordlar kabi barcha zarur bilimlar tiflopedagogik tilda tushuntirilishi kerak. Musiqa savodxonligidagi besh chiziqli nota tizimi va barcha belgilar Priborning [5] birgina yo'lidan iborat bo'lgan bo'rtma nuqtalar ko'rinishida o'z aksini topishi ko'zda tutilgan. Ayrim noqulaylik tug'diruvchi belgilarni qayta ko'rib chiqish, moslashtirish, mavjud bo'lmaganlarini esa yaratish zarur bo'ladiki, bunday izlanishlar natijasi o'zidan keyingi kashf qilinadigan ko'plab ilmiy yangiliklarga keng yo'l ochib beradi. Bu esa kelajakda ko'zi ojiz bolalarning yuqori cho'qqilarga erishib, musiqa ilmining yetuk namoyondalari, buyuk san'at ustalari bo'lib yetishishlariga xizmat qiladi.

- Xulosa va takliflar. Xulosa tarzida ta'kid o'rinliki, ushbu muammolarning yechimini topish uchun quyidagi amaliy-nazariy va metodik ishlar yuzasidan tizimli ravshda faoliyat olib borish maqsadga muvofiqdir:

1. Brayl nota alifbosini yaratish.

2. Musiqa nazariyasi, Solfedjio, Shashmaqom, Fortepiano, Ansanbil, Orkestr, Xor uchun bir ovozli va ko'p ovozli kuy-qo'shqlarning matnlari va notalarini brayl yozuviga o'girib, alohida kitob shaklida nashr qilish.

3. Brayl doskalarini joriy qilish, Tiflometronom va Tiflotyunerlarni ko'zi ojizlar uchun moslashtirish.

4. Musiqa tiflopedagogikasi metodikasini ishlab chiqish va pedagoglarni bu tizim bo'yicha qayta tayyorlash.

Ko'zi ojiz yoshlar musiqa sohasida yetuklikka, barkamollikka intiladilar. Buning uchun ilk qadam

sifatida Brayl nota alifbosing yaratilishi juda zarurdir. O'ylaymanki, Bu boradagi izlanishlar mahsuli o'sib kelayotgan iste'dodli ko'zi ojiz yosh ijrochilarga poydevor bo'lib xizmat qiladi. Iшонamanki, ushbu maqolada o'z aksini topgan fikrlar kelajakda izimizdan kelayotgan ko'zi ojiz yoshlarning bu boradagi ilmiy izlanishlariga turtki beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 03.08.2017 dagi O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi www.president.uz

2. O'RQ-641-sonli "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida". www.lex.uz

3. "Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktabinternatlarda ta'lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 18.04.2022 1-bandi www.yuz.uz

4. A. Navoiy "Qaro ko'zum" g'azali 1-bayt 2-qator, www.google.com

5. Mannopov, S., Karimov, A., Qurbonova, B., & Dilobar, J. (2022, February). THE EMERGENCE AND DEVELOPMENT OF MUSIC. In Archive of Conferences (pp. 49-52).

Quvonchbek BEGMATOV,
Samarqand davlat chet tillar instituti Phd.

XORIJIY TIL TA'LIMIDA KOMMUNIKATIV METODDAN FOYDALANISHNING O'RNINI VA AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada xorijiy til ta'limida kommunikativ metoddan foydalanishning o'rnini va ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Maqolada, shuningdek, zamonaviy o'qitish metodlarini taqqoslash, talabalarga turli bosqichda chet tilini o'rgatishning o'ziga xos maqsadlarining xilma-xilligi keltiriladi.

Kalit so'zlar: kommunikativ, metodika, ta'lim tizimi, telekommunikatsiya texnologiyalari, kommunikativ kompetentlik

Аннотация: в данной статье говорится о роли и значении использования коммуникативного метода в обучении иностранному языку. также в статье представлено сравнение современных методов обучения, разнообразие конкретных целей обучения иностранным языкам учащихся разного уровня.

Ключевые слова: коммуникативность, методика, образовательная система, телекоммуникационные технологии, коммуникативная компетентность.

Abstract: this article talks about the role and importance of using the communicative method in foreign language education. the article also presents a comparison of modern teaching methods, the variety of specific goals of teaching foreign languages to students at different levels.

Key words: communicative, methodology, educational system, telecommunication technologies, communicative competence

Mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o'quv-metodik ta'minotini yaxshilash, mutaxassis kadrlar tayyorlash sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida professor-o'qituvchilarning ilg'or ta'lim texnologiyalari va o'qitish usullarini tatbiq etish bo'yicha tashabbuskorligini oshirish, chet tillarini o'qitishning interfaol metodlarini joriy etish imkoniyatlari kengaymoqda. Respublikamizda ta'lim tizimida tub o'zgarishlar yuz berayotgan hozirgi vaqtda o'qitishning mazmuni va metodlari tubdan

qayta ko'rib chiqish xorijiy tillarni o'qitish metodikasi tarixiga va uning rivojlanishidagi asosiy tendensiyalarini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Hozirda chet tillarni o'qitish metodikasining fan sifatida yuritilishiga hech kim shubha qilmaydi. Metodikani fan sifatida ta'riflashdagi yo'nalish 40-yillarning oxirlarida paydo bo'lgan metodologiya o'z qonuniyatlari va o'z tadqiqot usullariga ega bo'lgan fan sifatida e'tirof etiladi. Metodikaning eng to'liq ta'rifi quyidagicha: "o'qitish metodikasi-o'qitishning maqsad va mazmuni, qoliplari, vositalari, usullari, uslublari va tizimlarini

o'rganadigan hamda chet tili materiali asosida o'qitish va tarbiyalash jarayonlarini o'rganadigan fandır. Zamonaviy o'qitish metodlarini taqqoslash muhim rol o'ynaydi, chunki tadbiiq etilayotgan yangi metodlar ular asosida paydo bo'ladi va zamonaviy metodlarga kamchiliklarga ega bo'lmasligi maqsadga muvofiq bo'ladi. Til o'qitish metodikasi rivojlanishining bu bosqichida eng ko'p qo'llaniladigan kommunikativ yo'naltirilgan tushunchalar. Ular orasida eng mashhuri kommunikativ, loyihaviy, intensiv va faollikka asoslangan usullardir.

Ularning asosiy qoidalari haqida: Kommunikativ metodikani ishlab chiqish tillarni o'qitishning maqsadi sifatida chet tili madaniyatini yakuniy rag'batlantirishga olib keldi. Bunday tizimni esa faqat kommunikativ asosda qurish mumkin. Bundan tashqari, kommunikativ metoddan foydalanish amaliyoti nafaqat muloqot vositasi sifatida chet tilini o'zlashtirishni, balki o'quvchilarning har tomonlama shaxsiy sifatlarini rivojlantirishni ham ta'minlaydi.

ASOSIY QISM

Hozirgi kunda xorijiy tillarni intensiv o'qitish turli rivojlanayotgan, yangi yaratilgan va mavjud uslubiy tizimlarda amalga oshirilmoqda. Bu talabalarning turli bosqichda chet tilini o'rgatishning o'ziga xos maqsadlarining xilma-xilligi, shuningdek, o'quv sharoitlarining xilma-xilligi bilan bog'liq.

Tillarni o'qitishning faollikka asoslangan metodikasi aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich shakllanishi nazariyasi bilan ifodalanadi. Bu nazariyaga asoslanib, bir necha yillar davomida o'qitish texnologiyasini ishlab chiqish amalga oshirildi va u keyinchalik faoliyat metodi deb nomlandi. Masofaviy ta'lim-bu masofaviy ta'lim, ya'ni o'rganuvchidan masofa bilan ajralib turadi. So'nggi yillarda turli mamlakatlardagi oliy o'quv yurtlari masofadan o'qitish uchun kompyuter telekommunikatsiya texnologiyalaridan, jumladan, xorijiy tillardan foydalanish imkoniyati mavjudligiga e'tibor qaratmoqda. Masofaviy ta'limning boshqa shakllaridan farqli o'laroq, kompyuter asosida telekommunikatsiya o'qitish imkoniyatlarini:

- har qanday axborotni masofada tez uzatish;
- bu ma'lumotlarni kerakli vaqt xotirada saqlash, uni tahrirlash va boshqalar;
- shu maqsadda maxsus yaratilgan multimediali axborotlar yordamida interaktivlik va o'qituvchi va o'quv kursining boshqa ishtirokchilarining tezkor mulohazalari;
- internet orqali turli axborot manbalariga, jumladan, masofaviy va tarqatiladigan ma'lumotlar bazalariga, butun dunyo bo'ylab ko'plab anjumanlarga kirish;
- qo'shma telekommunikatsiya loyihalarini, shuningdek, xalqaro, elektron konferensiyalar, kompyuter audio va videokonferensiyalarini tashkil etish. Masofaviy ta'limning har qanday turi qanchalik samarali bo'lishi to'rt omilga bog'liq:

– masofa bilan ajralib turishiga qaramay o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro samarali muloqot;

– bu jarayonda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar;

– ishlab chiqilgan uslubiy materiallar va ularni yetkazib berish usullari samaradorligi;

– fikr-mulohazalar samaradorligi

Tillarni o'qitish metodlarining rivojlanish tendensiyalarini ko'rib chiqish tarjima qilish nazariy va amaliyotini o'tash, so'z va grammatikani xorijiy til kommunikativ kompetentligining mahoratini ta'minlaydigan usullarga o'rgatishdan iborat bo'lgan xulosalar chiqarishga imkon beradi; hozirda chet tillarni o'qitish tizimida grammatika nazariyasining roli kamaydi va o'zgardi, kommunikativ yo'nalish tamoyili joriy etildi, talabalarning o'zaro aloqalari va nutq faoliyatining roli oshdi.

Shu munosabat bilan biz fransuz metodisti J.P. Blavatskiyning fikrini keltiramiz darslik yoki o'qitish metodi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, bu birinchi navbatda ta'limning asosiy boyligini tashkil etuvchi ma'lumotdir. O'qituvchi til o'qitishda tor doirada cheklanib qolmasligi kerak. Madaniy hodisalarga, ilm fanga murojaat qilmasdan, tilni o'rganish qashshoqlashadi va fonetik, leksik va grammatik hodisalarni o'zlashtirish o'z o'rnida qo'llashga imkon bermaydi. Albatta, nutq mexanizmlarini o'zlashtirishga va nutq modellarini tayyorlashga katta e'tibor berish kerak,

Chet tillarni o'qitishning an'anaviy va noan'anaviy usullari tahlil qilingandan so'ng shuni ta'kidlash kerakki, chet tilini o'qitishning an'anaviy usuli grammatikani o'rganish va tarjima amaliyotini majmuada o'z ichiga oladi. Bu usullarning xarakterli xususiyati so'z va konstruksiyalarni eslab qolish, bu ham samarali bo'ldi, yodlangan so'z va iboralar esda saqlab qolish. An'anaviy metodlar sinfiy tizimga asoslangan bo'lib, nutq faoliyatining barcha turlarini: grammatika, fonetika, so'z turkumlarini o'rgatish, o'qitishning asosiy metodi matnlarni o'qish va tarjima qilish va grammatikani o'rganish bo'lib. An'anaviy o'qitish usullari bilan o'qituvchi asosan aktyor vazifasini bajaradi, talabalar vazifalarini bajaruvchi passiv tinglovchilardir. Ushbu usullarning afzalliklari so'z boyligini kengaytirish, tarjima texnikasi va grammatikasini egallash, shuningdek, o'rganilayotgan tilning badiiy adabiyoti bilan tanishish, ulardan foydalanish tillarda taqqoslash elementlarini shakllantirish. Bu usullarning kamchiliklari og'zaki nutq malakasining yo'qligi, shuningdek, hissiy aql-idrok, noan'anaviy o'qitish usullarida o'z rivojini topgan ijodiy faoliyatdir. An'anaviy usullardan farqli o'laroq, chet tillarni o'qitishning noan'anaviy usullari, jumladan, muammoli o'qitish usullari kommunikativ faoliyatni, ijodiy qobiliyatlarni, tanqidiy fikrlashni va aqliy faoliyatni faollashtirishga qaratilgan, jonli muloqot, o'quv jarayoni real hayotiy vaziyatlarga yaqin. Muammoli

ta'lim metodlaridan foydalangan holda dars o'quvchilar faoliyatiga qaratiladi. O'quv markazida o'quv faoliyatining faol ijodiy subyektini bajaruvchi talaba shaxsi turadi. O'rganilayotgan tildagi gaplarning semantik strukturasi qurishda subyektiv fikrlarning,

muayyan muammoli vaziyat haqidagi tasavvurlarning ifodalanishi katta rol o'ynaydi. Muammoli o'qitish usullari o'quv materialini problemalashtirish, faol o'rganishni tashkil etish bilan xarakterlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Газета «Народное слово», 11.12.2012 г., № 240 (5630).
2. Национальная программа по подготовке кадров. – Т.: Шарк, 1997 – С. 60.
3. Common European Framework of Reference (CEFR). Cambridge ESOL. Retrieved 2012-01-25.
4. Быстрова Е.А., Закирьянов К.З. Литвинова Н.Д. Практическая методика обучения языкам. – Л.: «Просвещение» – 1989 г.
5. Тимофеев Б. Правильно ли мы говорим? – Л.: Издательство. 1978г.

Munisxon RABBIMOVA,

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti

BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY FAOLIYATIDA INTELEKTUAL TA'LIM TIZMLARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: maqolada bo'lajak tarbiyachilar kasbiy faoliyatini rivojlantirishda intellektual ta'lim tizimlaridan foydalanish haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: *kasbiy ko'nikmalar, baholash, kompetensiya, texnologiya, raqamlashtirish, funktsiya, ta'lim tizimi.*

Аннотация: использование систем интеллектуального образования в развитии профессиональной деятельности будущих педагогов.

Ключевые слова: *профессиональные навыки, оценка, компетентность, технология, цифровизация, функция, система образования.*

Abstract: the use of intellectual education systems in the development of professional activities of future teachers.

Key words: *professional skills, assessment, competence, technology, digitalization, function, education system.*

Ma'lumki, hozirgi vaqtda mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bo'lib, ularning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, zamonaviy talablarga muvofiq kasbiy bilimlar bilan qurollantirish mexanizmlarini joriy etish asosida uzluksiz kadrlar tayyorlashni amalga oshirish ta'lim bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida qaralmoqda.

Bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonining mazmuni ularni imkon qadar nazariy tushunchalar bilan qurollantirish emas, balki ularda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, tegishli kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishdan iborat bo'lishi zarur.

O'rganilayotgan jarayon, ya'ni tarbiyachilarni kasbiy tayyorlash jarayoni pedagogik faoliyatning barcha bosqichlarida o'zlarining kasbiy tajribalarini anglash, tahlil qilish va baholash, shuningdek, o'zini-o'zi shaxsiy rivojlantirish ehtiyojlarini faollashtirish va qo'llab-quvvatlashga asoslanadi. Mazkur jarayonda shaxsning ma'naviy takomillashuvi hamda ijodiy

salohiyatining rivojlanishi uchun imkoniyat vujudga keladi.

O'quv materialining mazmuni va uning hajmini aniqlashda biz quyidagi qoidadan kelib chiqdik: dasturda quyidagilar amalga oshirilishi ko'zda tutilishi kerak:

1. kasbiy va nazariy tayyorgarlik, ya'ni kasbiy faoliyat jarayonlarini tushuntiruvchi va asoslovchi asosiy tushunchalar, qonunlar, nazariyalarni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi;

2. bo'lajak mutaxassislarning bo'lajak pedagogik faoliyatga kasbiy va amaliy tayyorgarligini shakllantirish - o'quvchilar tomonidan kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan maxsus amaliy ko'nikmalarni olinishi.

Mazmuni loyihalashda biz uchun eng muhimi ta'lim ma'lumotlarining optimal hajmini aniqlash edi. Ushbu muammoni hal qilishda biz S.I. Arxangelsk ishida bayon etilgan bir qator qoidalarga tayandik:

- ta'lim ma'lumotlarini minimallashtirish zarurligi to'g'risida;


- materialni taqdim etish "chuqurligi"ning "kenglik"dan ustunligi haqida.

S.I. Arxangelskiyga ergashib, biz haddan tashqari katta hajmdagi ma'lumotlar uni o'zlashtirish va ko'nikmalarga aylantirish uchun na vaqt va na makon qoldirmaydi, degan g'oyaga amal qildik. Biz, o'qitish uchun intizom dasturini tuzishda haqiqatda o'rganish va keyingi amaliy faoliyat uchun zarur bo'lgan minimal materialni tanlash juda zarurligini tushunar edik. Asosiy ta'lim mazmunini belgilashda biz o'quvchilarga nutq terapiyasi fanining yetakchi g'oyalari, tamoyillari, asosiy qonuniyatlarini kam sonli eng aniq faktlar bilan ta'minlashga e'tibor qaratishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Kursning yaxlitligini ta'minlash uchun fanning tarkibiy-mantiqiy sxemasi yordamida biz quyidagilarni o'rnatdik:

- o'quv materialini taqdim etish ketma-ketligi;
- mavzular orasidagi aloqalar (ichki aloqalar);
- fanlararo (tashqi) aloqalar.

Yuqorida aytib o'tilganidek, dasturda ta'lim ma'lumotlarining joylashishini o'ylab, biz uni chiziqli tartibga solishga qaror qildik. "Kasbiy faoliyatda axborot texnologiyalari" fani mavzularining grafik ketma-ketligi quyida rasmda keltirilgan.



Rasm "Kasbiy faoliyatda axborot texnologiyalari" fanining takomillashtirilgan o'quv ta'minotining ketma-ketligi

Mavzularni o'rganish bo'yicha uslubiy tavsiyalar: Mavzu ma'ruza qismini o'z ichiga oladi, bu erda "Ma'ruza" bo'limida mavjud mavzu bo'yicha umumiy fikrlar, oldingi qismni bajarishingizdan so'ng, siz vazifani bajarishingiz kerak va matn bo'yicha savollar tayyorlash; muhokama qilish mumkin bo'lgan "Muhokama" bo'limi mavjud.

Intellectual ta'lim tizimlari: kompyuter sohasida eng istiqbolli hisoblanadi o'rganish. Ular sun'iy intellekt (AI) texnologiyasiga asoslangan. ITT moslashuvchan va ikki tomonlama o'zaro ta'sirni amalga oshiradi bilimlarni samarali uzatishga qaratilgan. Moslashuvchanlik degan ma'noni anglatadi. Tizim har bir o'quvchi uchun mos tushuntirishlar beradi. Ikki tomonlama hamkorlik - aralash tashabbus bilan o'zaro ta'sir bo'lib, unda o'quvchi savollar berishi yoki tizimdan muammoni hal qilishni so'rashi mumkin. Bu tizim amaliy kompetentlikni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari yaratish hisoblanadigan o'z-o'zini o'qitish tizimi. Ushbu tizimlarda bilimlar o'zlashtiriladi. Bunday tizimlarning tuzilmasi quyidagi komponentlardan iborat:

- mikrodunyo;

- o'quvchi - bu shaxs;
- o'quvchi - kompyuter;
- ikki o'quvchi va mikrodunyo o'rtasidagi interfeys;
- ikki o'quvchi o'rtasidagi interfeys.

Tizim modelni amalga oshirish uchta rejimga asoslangan:

- savol rejimi (o'quvchi kompyuterga savol beradi topshiriqlarga javob olish);
- tadqiqot rejimi (muammoni birgalikdagi sa'y-harakatlar bilan hal qilish kompyuter bilan o'quvchi);
- yechim rejimi (o'quvchi masalani mustaqil hal qiladi, kompyuterdan minimal yordam va maslahat olish).

Misol tariqasida o'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar keltirib o'tamiz:

1. Masofaviy ta'limning qanday xususiyatlari bor?
2. DO ning salbiy va ijobiy tomonlarini ayting.
3. Internet tarmog'i qanday tuzilishga ega?
4. Internetda qanday qidiruv vositalari mavjud?
5. Elektron pochta qanday ishlaydi?
6. Internet qanday aloqa vositalarini taklif etadi?

Amaliy topshiriqlar: Ushbu mavzu bo'yicha hisobot tayyorlang.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim tizimida pedagog kadrlar tayyorlash ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy shakllaridan biri bo'lib, uning asosiy xususiyatlaridan biri shuki, androgogik ta'lim tabiatiga ko'ra uni tashkil etishda katta yoshdagi shaxslarning individual-psixologik va shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish

zarur. Mazkur jarayon bo'lajak tarbiyachilarda o'zini-o'zi rivojlantirish, shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan o'zaro ta'sir ko'nikmalarini shakllantirish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratib berishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlonov.N.Sh Raqamlashtirish muhitida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining axborot kompetentligini rivojlantirish // falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T. 2023..
2. Olimov Q.T., Mavlonov N.Sh. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini pedagog kadrlar bilan ta'minlash va ularning kompetensiyasini oshirish jarayonining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari. /- B. 21-23
3. https://plov.press/blogs/all/doshkolnik_i_tsifrovizatsiya_kak_idet_protssess_v_strane/
4. <https://www.unicef.org/uzbekistan/achieving-universal-early-childhood-education>

Farrux BOBOYEV,
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor
va mutaxassislarini qayta tayyorlash va
ularning malakasini oshirish instituti mustaqil izlanuvchisi

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORINING SHAXSIY MALAKASI MOHIYATI VA TUZILISHINI ANIQLASHDAGI YONDASHUVLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining shaxsiy malakasi mohiyati va tuzulishini aniqlashga oid yondashuvlar hamda rahbarning shaxsiy kompetensiyasini rivojlantirishga oid xorijiy olimlarning ishlari tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: *shaxsiy, modernizatsiya, kompetentsiya, texnologiya, innovatsiya va dinamika.*

Аннотация: в данной статье представлены подходы к определению сущности и структуры личностной компетентности руководителей дошкольных образовательных организаций, а также анализ работ зарубежных ученых по развитию личностной компетентности руководителя.

Ключевые слова: *личность, модернизация, компетентность, технология, инновации и динамизм.*

Abstract: this article presents approaches to determining the essence and structure of personal competence of leaders of preschool educational organizations, as well as an analysis of the work of foreign scientists on the development of personal competence of a leader.

Key words: *personality, modernization, competence, technology, innovation and dynamism.*

Maktabgacha ta'limni boshqarishdagi o'zgarishlar va ta'lim muassasalari uchun rahbar kadrlarni kasbiy tayyorlashning barqaror amaliyoti yo'qligi tufayli bosqichma-bosqich boshqaruv ta'limida uzluksizlikni nazarda tutuvchi, rahbarning shaxsiy vakolatlarini rivojlantirishga qaratilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarini kasbiy qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda, bir tomondan, zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida ta'lim tashkilotlari rahbarlarining malakasizligi tufayli, boshqa tomondan, mutaxassislarining tijorat tuzilmalariga o'tib ketishi ko'payib borayotgani tufayli ularni almashtirish jarayonlari kuchaymoqda. Bundan tashqari, pensiya yoshidagi mutaxassislarining qariyb 30 foizi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, shu jumladan maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari lavozimida ishlaydi. Va eng muhimi, mustaqillik davridan beri boshqaruv zaxirasini deyarli o'qitilmaydi, ya'ni yangi

tayinlangan rahbarlar uchun bazaviy tayyorgarlik yo'q. Boshqaruv xodimlarining kadrlar bilan bog'liq muammolari hal etilmagan, ayniqsa, oliy pedagogik yoki maxsus ma'lumotga ega bo'lmagan rahbar va mutaxassislar ishlaydigan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida. Ularning katta qismi oliy o'quv yurtlarini sirtqi shaklda va pedagogik mutaxassislik bo'yicha tamomlagan. Bu tabiiy ravishda kadrlar kasbiy tayyorgarligining umumiy darajasida o'z ifodasini topadi" [3]. Rahbarlarning kasbiy malakasi darajasini aniqlash va uni rivojlantirish muammosi juda dolzarbdir, chunki uni o'rganish rahbarga kasbiy faoliyatda o'z salohiyatini ko'rsatishga va shu bilan ta'lim muassasasi faoliyatidan maqbul natijalarga erishishga imkon beradi. XX asrning 50-yillari boshlariga kelib insonga o'zini professional rahbar sifatida ko'rsatishga imkon beradigan xususiyatlarni aniqlashga qaratilgan yuzdan ortiq tadqiqotlar o'tkazildi. So'nggi yillardagi ishlarda ta'kidlanganidek, maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining faoliyati va

kasbiy malakasining o'zaro muvofiqligi ma'lum bir dinamika bilan tavsiflanadi. Rahbarning o'z faoliyatida kasbiy malakasini rivojlantirish muammosi quyidagicha ko'rib chiqilishi kerak: Shaxsiy malakaning rivojlanishi natijasida kasbiy faoliyat va uning sifati sezilarli darajada o'zgaradi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining funksional imkoniyatlari va boshqaruv faoliyatiga qo'yiladigan talablarni tahlil qilish asosida professional boshqaruv faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun eng muhim bo'lgan bir qator xususiyatlar aniqlandi:

- malakalilik (ta'limni boshqarish sohasida bilim va ko'nikmalarni egallash, ularni maktabgacha ta'lim tashkilotining joriy va strategik vazifalarini hal qilish amaliyotida qo'llashga tayyorlik);
- kasbiy subyektivlik (o'z kasbiy faoliyatining strategiy bo'lish, maqsadlarni belgilash va to'g'rilash, motivlarni bilish, mustaqil ravishda harakatlarni shakllantirish va ularning rejaga muvofiqligini baholash qobiliyati);
- tashkiliy va muloqot qobiliyatlari;
- intellektual xususiyatlar (analitik fikrlash, bilimdonlik);
- boshqaruv qobiliyatlari (rahbarlik uslubi);
- irodaviy sifatlar, talabchanlik;
- vaziyatdan chiqish qobiliyatlari (kasbiy faoliyatdagi cheklovlarni yengib o'tish);
- kasbiy rivojlanish qobiliyati (kasbiy yutuqlarga bo'lgan ehtiyoj).

Ta'lim muassasalari rahbarlarini kasbiy qayta tayyorlash, kasbiy mahorat, malaka masalalari xorijiy mualliflarning (Denisov V.M., Zvereva V.I., Zeer E.F., Klyuyev F.N., Kustov L.M., Konarjevskogo Yu.K., Maslova V.I., Tonkonogoy Ye.P., Shamovoy T.N. va hkz) ko'plab tadqiqotlarida ko'rib chiqilib, muammoni hal qilishda turli yondashuvlar taklif etiladi. T.I. Shamovanning fikricha, "boshqaruv faoliyati – bu pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilarini jalb qilgan holda ta'lim muassasasi tomonidan rejalashtirilgan vazifalarga erishishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini tayyorlash, qabul qilish va amalga oshirish bo'yicha harakatlar tizimidir. Boshqaruv faoliyatining maqsadi – jamoa tomonidan rejalashtirilgan maqsad va vazifalarga erishish uchun pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilarining samarali ishlashi uchun sharoit yaratishdir. Bu shartlar quyidagilardan iborat:

- 1) jamoadagi axloqiy-psixologik iqlim;
- 2) rivojlanayotgan maktabda ishlashga tayyorligini oshirish uchun pedagogik xodimlar bilan ishlash;
- 3) jamoaning barcha a'zolarining mehnatini rag'batlantirishning samarali tizimining mavjudligi, ularning o'z ishidan qoniqishi va uni tashkil etish;
- 4) jamoaning vazifalari va ehtiyojlariga mos keladigan moddiy-texnika bazasi;
- 5) innovatsion jarayonlarni rivojlantirish;
- 6) maktabgacha ta'lim tashkilotini rivojlantirish

dinamikasi natijalarini kuzatishning tizimli jarayoni" [6].

Ta'lim muassasasida bu shart-sharoitlarni yarata olishi uchun rahbar ma'lum darajada kasbiy malakaga ega bo'lishi va uni rivojlantirishi kerak. Tadqiqotchilarning mutlaq ko'pchiligi rahbarlarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni barqaror boshqaruv ko'nikmalariga yetkazish, shaxsning qobiliyatlari va kasbiy ahamiyatli fazilatlarini bilan birgalikda rahbarning boshqaruv faoliyatini amalga oshirishga doimiy tayyorligini ta'minlash zarur deb hisoblaydi.

V.M. Denisov malakalilik rahbar shaxsi va faoliyati resurslaridan tashkil topgan deb taxmin qiladi. "Malakalilik – bu rahbarning resurslari va ushbu subyekt ega bo'lgan va u o'z kasbiy faoliyatida boshqariladigan jarayonning sifatli natijasini ta'minlash uchun ishlatishi mumkin bo'lgan vositalar to'plami" [2]. Rahbarning malakaliligi quyidagilar hisobiga shakllanadi:

- manbasi ta'lim muassasasining o'zi bo'lgan ma'muriy resurslar. Asosiy ma'muriy resurs – bu boshqaruv huquqi va rahbarning tegishli vakolatlaridir.
- Ta'lim muassasasi rahbarini ishga qabul qilishda unga rahbarlik qilish huquqini beradi, muayyan boshqaruv ishlarini bajarishga va pedagogik natija uchun mas'ul bo'lish uchun topshiriq beradi;
- rahbarning tajribasi va bilimi, ko'nikmalarini o'z ichiga olgan kasbiy resurslari.

Ushbu turdagi resurs kasbiy tayyorgarlik va bevosita boshqaruv faoliyati davrida to'planadi. Ularning mazmuni ko'p jihatdan ta'lim muassasasi rahbarining tajriba va bilimlarni qanday va qay darajada to'plashi mumkinligiga bog'liq. Professional resurslar rahbarning butun faoliyati davomida shakllanadi va rivojlanadi. Biroq muayyan sharoitlarda to'plangan kasbiy tajriba va bilimlarning umumiy to'plami emas, balki hozirgi boshqaruv amaliyotida ulardan faqat bir qismi muhim ahamiyatga ega. Kasbiy resurslarning tuzilishi boshqaruv faoliyatining tarkibiy qismlarini va ta'lim muassasasining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi: boshqaruv komponenti – bu pedagogik xodimlarni boshqarishda qo'llaniladigan bilim va amaliy ko'nikmalar (boshqaruv qarorlarini qabul qilish, ta'sirlarni tayyorlash va ularning o'qituvchilarning atrof muhitiga ta'siri, jamoa bilan uzluksiz hamkorlik qilish, ta'lim va mehnat muhitining ishbilarmonlik xususiyatlarini, ta'lim muassasasining tashkiliy madaniyatini shakllantirish);

boshqariladigan jarayonlar texnologiyasi sohasidagi bilimlarni o'z ichiga olgan texnologik komponent;

maxsus komponent – ish yuritish tajribasi va bilimi, hujjat aylanishi, uchrashuvlar o'tkazish, muzokaralar tashkil etish, chet tillarni bilish va boshqalar.

Ta'lim muassasasi rahbarining lavozimi va unga mos keladigan huquqlar obyektiv ravishda mavjud va ma'lum bir xodim bilan bog'liq emas. Bu ma'muriy resurs ham ma'lum bir shaxs bilan bog'liq emas deb

hisoblashga asos beradi. Aksincha, kasbiy bilim va tajriba ularning tashuvchisi bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasasi rahbaridan alohida bo'lishi mumkin emas. Boshqaruv huquqiga egalik qilish rahbarning rasmiy belgisidir. Professional resursning mavjudligi rahbarning belgilar tizimiga kiritilmagan va faqat ushbu xodimning boshqaruv faoliyati bilan shug'ullanish uchun potensial imkoniyatlarini ko'rsatadi. Xodim boshqaruv kadrlarini tayyorlash dasturlari bo'yicha maxsus ma'lumotga ega bo'lishi mumkin, lekin uning ish hayotida rahbarlik lavozimini egallamasligi, ya'ni rahbarlik lavozimida tajribaga ega bo'lmasligi mumkin. Bunday holda, u tomonidan to'plangan resurslar (kasbiy bilim) talab qilinmaydi, potensial boshqaruv resurslari qoladi. Bu rahbarlik lavozimlari uchun boshqaruv zaxirasini tayyorlash, ularni keyinchalik attestatsiyadan o'tkazish va tayinlash imkoniyati haqida gapirishga imkon beradi. Kasbiy resurslar mehnat faoliyati davomida bir nechta manbalardan shakllanadi. Ushbu manbalardan biri rahbarning o'zi bo'lib, u mustaqil ravishda maxsus bilim olish va boshqaruv tajribasini kasbiy tayyorgarlik va o'z-o'zini o'qitish, stajirovka shaklida to'plash uchun harakat qiladi. Boshqa manba – rahbarlik huquqi: bosqichma-bosqich martaba o'sishi (pedagogdan metodistgacha, rahbar o'rinbosaridan rahbargacha), bu huquqning kengayishi bilan kasbiy resurslarning mos ravishda ko'payishi va ixtisoslashuvi uchun sharoit yaratadi;

- vazifalarni bajarish uchun ayniqsa muhim bo'lgan rahbarning o'ziga xos shaxsiy xususiyatlari to'plamini tashkil etuvchi psixologik resurslar.

V.M. Denisovning tadqiqotlarida rahbar shaxsining sifatleri emas, balki boshqaruv faoliyati jarayonida bevosita qo'llaniladigan va uning samaradorligi va rejalashtirilgan natijalarga erishishni ta'minlaydigan qismi o'rganiladi" [2]. Shaxsiy resurslar muayyan rahbarning kasbiy talablari va ehtiyojlarini ta'minlaydigan, uning kasbiy xulq-atvorini shakllantiradigan, unga zarur huquqlar, kasbiy bilimlar va ma'muriy ko'nikmalar beradigan yagona tizimni tashkil qiladi. Resursni saqlash va to'plash, o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyati ularga xos [2]. E.F. Zeer yo'naltirilganlik, malakalilik, kasbiy jihatdan muhim xususiyatlar, mutaxassisning funksiyalari, tipik kasbiy vazifalari, faoliyati, bilimlari, ko'nikmalari va qobiliyatlari bilan bog'liq bo'lishi kerak bo'lgan kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan psixofiziologik xususiyatlar boshqaruv faoliyati uchun muhim deb hisoblaydi. Bundan tashqari, muallifning ta'kidlashicha, rahbar qanchalik fenomenal qobiliyatlarga ega bo'lmasin, agar u professional boshqaruv faoliyatini o'rganmagan bo'lsa, u ta'lim sohasidagi rahbar funksiyalarini bajara olmaydi [3]. Kasbiy faoliyatning turli bosqichlarida kasbiy fazilatlar va shaxsiy xususiyatlarning turli guruhlar ustunlik qiladi. Kasb-hunarni egallashda ularning shakllanishi

va rivojlanishining to'rt bosqichi mavjud:

- 1 – faoliyatga kirish;
- 2 – birlamchi professionalashtirish;
- 3 – barqarorlashtirish;
- 4 – ikkinchi darajali professionalashtirish.

Mutaxassisning kasbiy subyektivligi namoyon bo'la boshlaydi. Subyektivlik kasbiy faoliyatni o'zgartirish uchun mutaxassisning o'zi faoliyatining tashuvchisi ekanligini anglatadi. Subyektivlik maqsadlar, ehtiyojlar, munosabatlar, motivlar, faoliyatning yo'nalishi va saylanganligini aniqlovchi sodir bo'layotgan narsaga munosabatda, shaxsiy ma'noda, ya'ni shaxsning o'zi uchun kasbning ahamiyatida ifodalanadi [5]. Oxirgi bosqichda professional muhim xislatlarning o'zgarishi kuzatiladi. Subyekt faoliyatni amalga oshirishga ko'maklashadigan kasbiy qobiliyatlar tizimidan kasbiy tajriba to'plashga, kasbiy malakalilikning zarur darajasiga erishishga o'tadi [5]. Boshqaruvni fanlararo ilmiy va amaliy bilimlar sohasi yutuqlariga asoslangan kasb sifatida anglash boshqaruv ishini tahlil qilishda va rahbarning kasbiy malakaliligida ikki yo'nalish – ratsionalistik va xulq-atvorning paydo bo'lishiga olib keldi. M. Vudkok va D. Frensisning fikricha, boshqaruv menejerlardan quyidagi ko'nikma va malakalarga ega bo'lishni talab qiladi: o'zini o'zi boshqarish qobiliyati; oqilona shaxsiy qadriyatlar; aniq shaxsiy maqsadlar; doimiy shaxsiy o'sishga e'tibor berish; muammolarni hal qilish qobiliyatlari; topqirlik va innovatsiyalar qila olish; boshqalarga ta'sir qilishning yuqori qobiliyati; zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini bilish; rahbar qilish qobiliyati; qo'l ostidagilarni tayyorlash va rivojlantirish qobiliyati; jamoani shakllantirish va rivojlantirish qobiliyati [1]. Ushbu xislatlar rahbar xodim tomonidan o'z imkoniyatlarini faoliyat talablari bilan bog'liq holda rivojlantirish va baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Shaxs tomonidan cheklovlarni tan olish shaxsiy malakalilikni rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Shu bilan birga, rahbar boshqaruv ishini tushunishni chuqurlashtirish, yangi ko'nikma va yondashuvlarga ega bo'lish uchun kasbiy tayyorgarlik va boshqaruv tajribasini egallashi zarur. Rahbarning vazifasi: tashkilotni boshqarish jarayoniga uning yondashuvlarini va uni ta'minlashi kerak bo'lgan qobiliyatlarni tahlil qilish. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, hamma narsa rahbarga va uning professional yutuqlarga intilishiga bog'liqligini ta'kidlaydi. Shuningdek, ular shaxsiy harakatlar rejasini tuzishning asosiy bosqichlarini sanab o'tadi, ularni amalga oshirish orqali siz rahbar uchun zarur bo'lgan xislatlarni rivojlantirishingiz mumkin:

1. Kasbiy va shaxsiy cheklovlarni aniqlash.
2. Belgilangan cheklovlarni baholash.
3. Cheklovlarni bartaraf etish bo'yicha rivojlanish dasturini tuzish.

4. Yangi kasbiy bilim va ma'muriy ko'nikmalarga ega bo'lish.
5. Yangi ish usullarini sinab ko'rish va amalga oshirish.
6. Taraqqiyotni tahlil qilish.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining shaxsiy malakalarini rivojlantirishga cheklovlar konsepsiyasini qo'llash unga o'zini kasbiy faoliyat subyekti sifatida o'zini ko'rsatish imkonini beradi, biroq buning uchun shaxs o'zi ustida uzoq muddatli tizimli ishlashi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Вудкок М., Френсис Д. Раскрепощенный менеджер. Для руководителя -практика: пер. с англ.- М.: Дело ЛТД, 1994.-320 с.
2. Денисов В.М. Ресурсы менеджера// Менеджмент в России и за рубежом. - 2 0 0 3. - № 4. - С. 45-58.
3. Жилина А.И. Модель управления подготовкой руководящих кадров системы образования в регионе. - СПб.: ИОВ РАО, 1999.- Кн. I.-200 с.
4. Зеер Э.Ф. психология личностно ориентированного профессионального образования. - Екатеринбург: Изд-во УрГППУ, 2000. - 258 с.
5. Психология: учебник для гуманитарных вузов/ Под общ. ред. В.Н. Дружинина. - СПб.: Питер, 2002. - 656 с.
6. Шамова Т.И., Тюлю Г.М., Литвиненко Э.В. Оценка управленческой деятельности руководителем школы: Метод, пособие./ Вологод. ин-т пов. квал. и перепод. пед. кадров. - Вологда, 1995.-74 с.

Moxir XALIMOV,

Nizomiy nomidagi TDPU

"Muhandislik va kompyuter grafikasi" kafedrasida dotsenti

O'QUVCHILARNING CHIZMALARNI O'QISH ORQALI BOSHLANG'ICH TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya: maqolada maktab chizmachilik fanida o'quvchilarning chizmalarni o'qish orqali boshlang'ich tushunchalarini shakllantirish metodikasi hamda unga doir metodik tavsiyalar yoritilgan.

Kalit so'zlari: *fazoviy tasavvur, tafakkur, tadqiqot, chizma, metodika, tushuncha, savodxonlik*

Аннотация: в статье описан метод формирования первоначальных представлений учащихся в школе черчения путем чтения черчение, а также даны методические рекомендации по этому поводу.

Ключевые слова: *розрастранственное воображение, мышление, исследование, черчение, методология, понимание, грамотность*

Abstract: the article describes a method for forming students' initial ideas in drawing school by reading drawings, and also provides methodological recommendations in this regard.

Key words: *spatial imagination, thinking, research, drawing, methodology, understanding, literacy.*

Ma'lumki chizma atrofimizdagi mavjud olamdagi narsalarni o'rganish vositalaridan biri hisoblanadi. Grafik tasvirlar hozirgi ko'rinishga kelguncha bir qancha ko'rinishlarga ega bo'lgan. Chizmalar inson amaliy faoliyati, avvalo uy-joy qurishda, shahar va qal'alar qurilishlariga bog'liq bo'lgan. Dastlab chizmalar qurilishi olib boriladigan joylarni tekislab o'sha yerlarning o'ziga chizilgan, keyinchalik har xil tekis sopol plitalarga chizilgan. Chizmachilik o'qitishning asosiy vazifasi o'quvchini detal chizmasini chizish va o'qishga o'rgatish, shuningdek uncha murakkab bo'lmagan yig'ish chizmalarini bajarish va detallarga ajratishdan iboratdir. Biroq, amalga oshirilgan tadqiqotlar taxlili chizmalarni o'qish orqali o'quvchilarda chizma bajarishning boshlang'ich tushunchalarini shakllantirish biroz oson bo'lishi kuzatildi.

Umuman, chizmalarni o'qish chizmada tasvirlangan detalning shaklini to'la tasavvur qilishga va uning konstruktiv xususiyatlarini aniqlashga, chizmaga qo'yilgan hamma o'lchamlarni o'qishga, ular detalning qaysi qismiga oidligini aniqlashga o'rganishdir. Bulardan tashqari, chizmani o'qish natijasida detalning nomi, u qanday materialdan tayyorlanganligini va chizmaning masshtabini aniqlab olishga yordam beradi. Chizmani o'qishda eng qiyin tomoni tasvirlangan detalning umumiy shaklini tasavvur qilishdir. Buning o'quvchilarni uchun mumkin qadar ko'proq chizmalarni tahlil qilishga o'rganish zarur.

Xususan, o'zbek olimlaridan I.T.Rahmonov tomonidan chop etilgan Chizmalarni chizish va o'qish (Toshkent., O'qituvchi, 1992.) kitobida chizmani o'qish tartibi, chizmalarni taxt qilish qoidalari yoritilgan,


E.I.Ro'ziyev tomonidan "Grafika" integrativ kursining mukammal mazmuni va uni o'qitish metodikasi ishlab chiqilgan bo'lib, unda o'quvchi yoki talabalarning boshlang'ich tushunchalarini shakllantirishda kompyuter grafikasidan foydalanish muammolari qisman yoritilgan. N.J.Yodgorov tomonidan olib borilgan tadqiqot ishida umumiy o'rta maktablarda chizmachilik fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning chizmaga oid tushunchalarini shakllantirishga hizmat qiladigan animatsiyon kadrlar majmuasini yaratishning usul va omillari asoslab berilgan.

O'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi uchun ularga o'z qiziqishlari, qobiliyat va iqtidorlaridan kelib chiqqan holda ta'lim berish va ularning o'quv-bilish faolligini taminlovchi topshiriqlardan samarali foydalanish, darsda o'quv materialini ko'plab maqsadli ko'rgazmali materiallar bilan boyitish, ta'lim jarayonida pedagogik shart-sharoit va psixologik qulaylikni vujudga keltiradi.

O'quvchilarga davlat talim standartlari talablariga mos holda bilim, ko'nikma va malakalar berish va o'quv-metodik taminotning kelajakdagi potentsalini oshirish uchun ta'lim jarayonini zamon talablariga javob beradigan o'quv-metodik majmualar bilan taminlash lozim bo'ladi. O'quvchilarda grafik bilimlarni

shakllantirish chizmachilikni geometriya, tasviriy san'at va mashinasozlik bilan uzviy bog'liqligini his etish sezgisi va tushunchani ular ongiga singdirish orqali amalga oshirish eng muhim masala hisoblanadi. Chizmachilikni mutolaa qilish jarayonida geometriya, tasviriy san'at va texnikaviy (texnologik ta'lim) fanlarni his etish bilan birga ular orqali ko'plab olayotgan bilimlari mukammal bo'lishi lozimligi o'quvchilar ongiga singdiriladi.

Boshlang'ich va o'rta sinflarda tasviriy san'at (rasm) darslarida o'quvchilar real (haqiqiy) narsalarning rasmlarini perspektiva qonun-qoidalariga amal qilib rasmini chizishadi. Geometriya darslarida oddiy jism (figura)larni o'rganadilar, geometrik yasashlarni bajarishadi. Duradgorlik, mashinasozlik dastgohlarida buyumlar yasashadi. Shu tartibda chizmachilikka oid ba'zi bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishadi. Demak, o'quvchilar chizmachilikdagi dastlabki, elementar ma'lumotlarni oldinroq egallay boshlashadi. Masalan, o'quvchilarning chizmalarni o'qish orqali boshlang'ich tushunchalarini shakllantirishda o'quvchi oddiy geometrik jismlar nomi va ta'rifini bayon etishi kerak bo'ladi (1- chizma).




Geometrik jism nomlarini jadvalga to'ldiring.

№	Nomi va ta'rifi	№	Nomi va ta'rifi	№	Nomi va ta'rifi
1		5		9	
2		6		10	
3		7		11	
4		8		12	

1- chizma

Keyingi bosqichda o'quvchilarning chizmalarini o'qish orqali boshlang'ich tushunchalarini shakllantirish maqsadida berilgan geometrik jismlar to'plamining ikki ko'rinishi asosida uning ustdan (H) ko'rinishini aniqlash topshirig'i beriladi (2- chizma).



2-chizma

Yuqoridagi topshiriqlar orqali o'quvchilarning chizmalarini o'qish orqali ularning boshlang'ich tushunchasini shakllantirish, shuningdek, o'quvchilarda turli topshiriqlarni taxlil qilish malakasi hosil bo'lsa, o'qituvchi ham dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan, xususan fan o'qituvchisi ham chizmachilik fani mavzulari asosida yuqoridagi kabi topshiriqlarni ishlab chiqishga harakat qiladi. Ushbu o'rganishlar va izlanishlar natijasida maktab chizmachilik fanida o'quvchilarning o'quvchilarning chizmalarini o'qish orqali boshlang'ich tushunchalarini shakllantirishga mo'ljallangan ishlanmalar tayyorlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.Raxmonov. Chizmachilik 8, Chizmachilik 9. –T.: “O'qituvchi”, “O'zbekiston”. 2010, 2014 va 2019.
2. M.Xalimov, F.Maxmudova. Talabalarning chizma geometriya fanidan dastlabki bilimlarini aniqlash usullari. Orient Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, Scientific Journal Impact Factor Advanced Sciences Index Factor, 2022., 737-746 betlar, <https://oriens.uz/journal/article/talabalarning-chizma-geometriya-fanidan-dastlabki-bilimlarini-aniqlash-usullari/>

Muborak MIRSAIDOVA,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi

ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING AQLIY FAOLIYATINI OSHIRISH

Annotatsiya: mazkur maqola ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning aqliy faoliyatini oshirish masalalariga bag'ishlangan hamda kichik maktab yoshidagi bolalar misolida o'rganilgan.

Kalit so'zlar: *ilm-fan, dars, ta'lim-tarbiya, faoliyat, savodxonlik, o'quvchi.*

Аннотация. данная статья посвящена вопросам совершенствования мыслительной деятельности учащихся на занятиях родного языка и читательской грамотности и изучается на примере детей младшего школьного возраста.

Ключевые слова: *наука, урок, образование, деятельность, грамотность, ученик.*

Abstract: this article is devoted to the issues of improving the mental activity of students in the classes of mother tongue and reading literacy, and is studied on the example of children of junior school age.

Key words: *science, lesson, education, activity, literacy, student.*

Kelajagimiz bo'lmish yosh avlodni sog'lom, barkamol, bilimli, mustaqil va erkin fikr sohibi etib tarbiyalash muhimdir. Zero, farzandlarni komil inson etib tarbiyalashda, ularda, avvalo mustaqillikni va aqliy qobiliyatini rivojlantirish zarur, toki o'quvchi mustaqil o'qisin, mustaqil fikr yuritsin. Hozirgi davr mamlakatimiz taraqqiyoti

uchun raqobatbardosh kadrlarni talab etadi. Ana shu maqsaddan kelib chiqqan holda mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda shaxsning aqliy rivojlanish koeffisientiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash muhim. Ushbu maqolada aql-idrok va uni tashkil etish omillardan biri bo'lgan aqliy faoliyat hamda uni tashkil etish haqidagi masalalar ko'rib chiqiladi. Bugun mamlakatimizda ham ilm-fan davlat tomonidan qo'llab quvvatlanmoqda. Ilm-fanning ustuvor, eng avvalo, fundamental sohalarini rivojlantirishga alohida e'tibor berilyapti. Zero, ilmga intilish yo'qolsa, fan ham rivojlanmaydi. Ilm-fan taraqqiyoti to'xtab qolsa, jamiyatning kelajagini tasavvur etib bo'lmaydi. Shuni ko'zda tutgan holda hozirgi kunda ilm-fanga bo'lgan qiziqish, intilish, umuman o'quvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlat siyosatiga aylangan. Kelajagi buyuk davlat barpo etishda ilm-fan, umuman ta'lim sohasining ahamiyati baland. Negaki, mamlakatning iqtisodiy qudratini, uning ertangi kunini, taqdirini ham aql-zakovat, yuksak ma'naviyat, chuqur va atroflicha bilim hal qiladi. Jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasi, yuksalishi ilm-fanni rivojlantirish asosida qo'yilganligidan yaqqol dalolat berib turibdi. AQSh, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarda ilm-fanga alohida e'tibor bilan qaraladi. Fanning yutuqlarini ishlab chiqarishga keng joriy etish, eng zamonaviy texnika va ilg'or texnologiya asosida ishlab chiqarish samaradorligini keskin oshirish, kam sarf bilan jahon bozorida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga keng yo'l ochadi. O'quvchilarning intellektual faoliyatining rivojlanishi unga o'zini qurshab turgan ob'ektiv olamni yanada chuqurroq, to'laroq, to'g'riroq va aniqroq aks ettirish imkonini yaratadi hamda u dunyoning asl mohiyatini, turli yo'sinda o'zaro bog'lanishlari, murakkab munosabatlar va aloqalarni tobora aniqroq yoritadi. Shu bilan birga o'quvchining ob'ektiv borliqqa, voqelikka, jismlarga, kishilarga va o'z-o'ziga nisbatan munosabati vujudga keladi. O'quvchi ongining rivojlanishi uning tashqi olamni idrok ettirishda namoyon bo'ladi. O'qitish jarayonida o'quvchilarning aqliy mehnat ko'nikmalari tobora rivojlanib boradi. Ular mehnatning ahamiyatini, mehnat orqasida hayot, yashash, baxt-saodat turganini anglab yeta boshlaydilar. O'zlarining har bir qilayotgan ishiga ongli munosabatda bo'ladilar. Keyinchalik o'quvchilarning har biri o'zining sevimli mashg'ulotlaridan qutilgan maqsadini anglab yetadilar. O'zi bajarayotgan ishning natijasini kuzatadi, undan qanday manfaatdor bo'lishini anglaydi. Ma'lumki, o'quvchilarning diqqatini o'ziga tortib, uni aqliy mehnat qilishga jalb etish, bilimiga bo'lgan qiziqishini uyg'otishi samarasi, eng avvalo o'qituvchining darsda badiiylik, obrazlilik, yorqinlik, qiziqarlilik, ajablanish, ma'naviy kechinmalar ruhini uyg'otishi kabi omillardan kelib chiqadi. Shu bilan birga darslarda o'quvchida yaratilayotgan qiziqarli vaziyatni

eng yordamchi detallari emas, balki asosiy o'rinlarini bilishdan shodlanish quvonchi tug'ilishi juda muhim. Shundagina o'quvchi bilimga qiziqadi, aqliy mehnat qilishga shoshadi. Ta'lim jarayonida aqliy mehnatga yo'naltirishning asosiy ma'nosi, ijobiy yo'llari, maktab, oila va jamoatchilik hamkorligi, o'rab turgan muhit ta'sirlari aniqlangan. Ishlab chiqarishning o'sishi, bozor iqtisodiyoti talablari masalaning dolzarbligini kuchaytirmoqda.[1:94]

Bilamizki, boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida asosiy e'tiborni o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish, bog'lanishli nutqini o'stirish, adabiy-estetik tafakkurini kamol toptirish, o'quvchilarning aqliy faoliyatini oshirish, nutq madaniyatini shakllantirish, nutq ta'sirchanligini ta'minlashning muhim omili deyishimiz mumkin. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida biz o'quvchida to'g'ri, tez, ongli ifodali o'qish malakalarini shakllantirishimiz, ularni oddiy kitob o'quvchidan chuqur mulohaza yurituvchi ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarishimiz, lug'at boyligini boyitish orqali tevarak atrof borliq haqidagi bilimlarni kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitish har qanday uslubdagi matnni o'qish va uni anglash, tanqidiy, kreativ fikrlash ko'nikmasini egallashda interaktiv metodlarni qo'llab ularga bu bilimlarni egallashlariga imkoniyat yaratishimiz lozim. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarni o'quv bilim faoliyatiga tayyorlash, boshqalar bilan muloqatga kirisha oladigan, o'z fikrini boshqalarga tushunarli tarzda yetkaza oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat. Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda eng asosiy e'tibor o'quvchida tilga doir to'rt ko'nikma:

o'qib tushunish;

tinglab tushunish;

nutq so'zlar va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi.[2:1]

Aqliy tarbiyani samarali tashkil etish shaxsda ilmiy tafakkurning yuzaga kelishini ta'minlaydi. Ilmiy tafakkur–inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqea-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuvni anglatadi.

Kuzatishlar shundan dalolat beradiki, boshlang'ich sinf o'qituvchilari dars jarayonida yozma ishlardan faqat ona tili darslarida foydalanishadi. Bunday mashg'ulotlar aksariyat hollarda, o'quvchilarning yozma savodxonligini tekshirishga qaratilgan bo'ladi (insho, diktant). Vaholanki, "o'qish", boshqa darslarda ham yozma ish turlaridan foydalanish yaxshi natijalarga olib keladi. Yozma ishlar bolalarni mustaqil fikrlashga, dunyoqarashini o'stirishga xizmat qilishi bilan birga, barcha o'quvchilarning mavzu yuzasidan olgan bilimlarini tekshirib ko'rishga imkon beradi. Bo'lim yoki mavzu yakunida yozma ishlar tashkil etilganda o'quvchilar darsda olgan bilimlarini mustahkamlaydilar, mavzuga qayta murojaat etish

orqali asar haqidagi tasavvurlari yanada teranlashadi, xotirasidan mustahkam joy oladi. Yozma ishlarni bajarish jarayonida o'quvchilarda Vatanga nisbatan g'urur, muhabbat tuyg'ulari tarbiyalanadi. [3:5]

Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. O'quv faoliyati boladan nutq, tafakkur, qobiliyat rivojlanishi uchun yangi sharoit yaratadi. Maktabga kelgash bola o'z atrofidaqlar bilan psixologik jihatdan yangi munosabat tizimiga o'tadi. U o'zining hayotini tubdan o'zgartirishni, unga yangi mjburiyatlar, o'quv faoliyati talablariga bo'y so'nish, har kun maktabga borishni his eta boshlaydi. Oila a'zolarining bola o'quv faoliyati yutiqlari bilan qiziqayotganligi, shuningdek, uni nazorat qilayotganligi, unga qilinayotgan yangicha shakldagi munosabat uning ijtimoiy mavqei o'zgarganligini to'la his etishga o'ziga nisbatan munosabatning o'zgarishiga asos bo'ladi. Ta'lim jarayonidagi barcha imkoniyatlar orqali ularning bilimlar egallash ko'lami kengayadi, qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobilayati rivojlanadi, tafakkurning faolligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatni ishga solish vujudga keladi. Ular har bir narsaga berilib, sinchkovlik bilan ular o'rtasidagi farqni ajratish, umumlashtirish, xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bola maktabga qadam qo'yishi bilanoq unga bo'lgan munosabat va talablar orqali o'ziga xos bo'lgan aqliy rivojlanish xususiyatlari uchun imkoniyatlar va shart – sharoitlar yaratish oila, maktab ta'lim tizimiga ulkan ma'suliyat hissini yuklaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilar ishonuvchan, tashqi taassurotlarga beriluvchan bo'ladi. Buyuk allomalarimiz ta'kidlaganidek, kishining fe'l-atvori hammadan ko'ra ko'proq hayotining dastlabki yillarida tarkib topadi va unda shu davrda paydo bo'lgan sifatlar mustahkam o'rnatilib kishining ikkinchi tabiatiga aylanadi. Insonning ikkinchi tabiatida tabiiy hissiyotlarni fazilatlarini tarkib toptirish yuksak axloq normalarini shakllantirish uchun butun ma'suliyat boshlang'ich sinf

o'qituvchisining zimmasiga tushadi. Bolaning mazkur davrida o'qituvchining har bir gapi har bir xatti-harakati ta'sir ko'rsatish uning uchun haqiqat mezonini vazifasini bajaradi. Chunki o'quvchilar o'qituvchilarga qattiq ishonadilar. Uning fikr mulohazalariga quloq soladilar. Pedagogik nazokatida jiddiy tasvirlanadilar. Talablarga hamisha amal qiladilar. U bergan topshiriqlarni to'liq bajarishga intiladilar. To'g'ri mulohaza yurtishga o'rganish noma'qul qiliqlardan tiyish va musiqa tinglashga odatlantirish ularga nimalar bilan shug'ulanish kerakligini, burch hissini tushuntirish ular bilan o'qilgan kitoblarni, ko'rilgan tomoshalarni muhokama qilish imkoniyati tug'iladi.

Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning axloqiy sifatlarni rivojlantirishdagi ko'zlangan maqsadga erishish uchun ularning yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olish shart.

Bilamizki, ko'pchilik pedagoglar o'quvchilarning aqliy rivojlanishini baholashda qiynaladilar va buning oqibatida ularning ish faoliyatida ta'lim jarayonida hisobga olinishi lozim bo'lgan muhim omil go'yoki chetda qolib ketadi.

O'qish savodxonligi insonning o'z oldiga qo'yan maqsadlariga erishishi, jamiyatda ishtirok etishlari va o'z bilim va imkoniyatlarini rivojlantirishlari uchun matn ko'rinishidagi ma'lumotlardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish, ular bilan ishlash va tushunish demakdir. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, o'quvchilarning aqliy rivojlanish darajasi ulardagi nazariy yoki amaliy bilim olishga bo'lgan qobiliyat yoki bilimning mavjudligi bilangina aniqlanmaydi. O'quvchining aqliy rivojlanish darajasi tafakkur jarayonlarining rivojlanganligi, o'quv materialining muhim va asosiy larni ajrata olishi, olgan bilim yoki hosil qilingan, o'zlashtirilgan ko'nikmani boshqa faoliyatga ko'chira olishi, turli nazariy bilimlarni amalda qo'llay olishi, mustaqil fikrlashi, xulosa chiqara olishi kabi bir qancha belgilar bilan aniqlanadi. [4:704]

Foydanilgan adabiyotlar

1. N.Mamatova, S.Sulaymanova. O'zbekiston mediata'lim taraqqiyoti yo'lida. O'quv qo'llanma.–T.: «Extremum-press», 2015.
2. M.Abdumurodova. O'qish darslarida lug'at ustida ishlash, boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar: № 1 (2022).
3. С.Камолова. (2022). Уқитувчи педагогик қобилиятларини шакллантиришнинг психологик асослари. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(5).
4. D.Xalkuziyeva. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga axloqiy-irodaviy tayyorligining psixologik jihatlari. SCIENTIFIC PROGRESS. 2021.

Sanjarbek SHERALIYEV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
Nag'ima JIYENBAYEVA,
"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti o'qituvchisi

MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARIDAN I SPRING DASTURI YORDAMIDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL QILISH METODIKASI

Annotatsiya: maqolada hozirgi rivojlanib borayotgan texnologiyalar barcha jabhalar qatori ta'lim tizimiga ham tadbiq etilishini zamonning o'zi ko'rsatib turibdi. Chunki yoshlarimizni noan'anaviy, zamonaviy intellektual texnologiyalarga qiziqishi kun sayin oshib bormoqda. Bu esa ta'limning barcha sohalarida pedagog oldida o'qitishning yangicha uslublarini, metodlarini texnikalar yordamida chambarchas bog'lash, yangiliklar yaratish kabi vazifalarni qo'yimoqda.

Kalit so'zlar: muhandislik grafikasi, mustaqil ta'lim, intellektual texnologiyalar, I Spring dasturi, markaziy proyeksiyalash, perspektiva.

Абстрактный: В статье само время показывает, что развивающиеся в настоящее время технологии применяются как в системе образования, так и во всех ее аспектах. Потому что интерес нашей молодежи к нетрадиционным, современным интеллектуальным технологиям возрастает с каждым днем. Это ставит перед педагогом всех областей образования такие задачи, как тесное соединение новых методов и методов обучения с помощью методик, создания инноваций.

Ключевые слова: инженерная графика, самостоятельное образование, интеллектуальные технологии, программа I Spring, центральная проекция, перспектива.


Abstract: in the article, the time itself shows that the currently developing technologies are applied to the education system as well as to all aspects. Because the interest of our youth in non-traditional, modern intellectual technologies is increasing day by day. This puts the pedagogue in all fields of education with tasks such as closely connecting new methods and methods of teaching with the help of techniques, and creating innovations.

Key words: engineering graphics, independent education, intelligent technologies, I Spring program, central projection, perspective




1-rasm

Talaba "начать тест" tugmasini bosganidan so'ng test savollari bilan birgalikda test javob variantlari ham kompyuter ekranida ko'rinadi (2-rasm).



3-rasm


Markaziy proyeksiyalash (perspektiva)ni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanib o'qitishimizga I Spring dasturi yordam beradi. Bu dastur bir mavzu bo'yicha talabalarning bilimni tez va aniq natijalarini ko'rsatishda qulayligi bilan boshqa dasturlardan farqlanadi. Talaba bu dasturni (I Spring) ishga tushirganidan so'ng oynada quyidagi xolat ko'rinadi (1-rasm).



2-rasm

Talaba bir vaqtning o'zida birdaniga 4 ta savolga javob berishi kerak, shu orqali testga ajratilgan vaqt tejiladi. Box ichidagi savol va javoblar mos ravishda bog'lanadi va "отправить" tugmasi bosiladi (3-rasm).


Talabalar testlarni yechish davomida mantiqiy fikrlash orqali bilmagan test javoblarini bilib olishlari mumkin, chunki 3 ta test savollarini bilsa qolgan javob chiqadi. Demak talaba testlarni yechish davomida bilmagan testini oxiriga qoldirishi va to'g'ri javobni topib, o'rganishi mumkin (4-rasm).




4-rasm

Talaba testni yechish davomida testlarga xato yoki to'g'ri javob berib borayotganini bilishi mumkin. Javoblar qatorining birortasi ham xato bog'langan bo'lsa, umumiy natijaga ta'sir ko'rsatadi va oynada "неправильно" yozuvi chiqadi (5-rasm).

Agar javoblar to'g'ri ko'rsatilsa:




Noto'g'ri ko'rsatilsa:




5-rasm

Hamma testlarni javoblarini belgilaganizdan so'ng, oxirgi qismida "просмотр результатов" yozuvi chiqadi (6-rasm).




6-rasm

Testlarning barchasiga javob bergandan so'ng quyidagi oyna chiqadi. Unda talabaning umumiy natijalari ko'rsatiladi (7-rasm).



7-rasm

Oynada umumiy savollar soni, maksimal ball va talabning to'plagan balli, o'tish balli ko'rsatilgan bo'ladi. "Просмотреть тест" tugmasini bosish orqali quyidagi oyna ko'rinadi. Bu oynada to'g'ri va noto'g'ri bog'langan javob qatorlarini ko'rish mumkin. (8-rasm).



6-rasm

Xulosa. Talabalar muhandislik grafikasi fanidan I Spring dasturi orqali mustaqil ta'limni tashkil qilish uchun bir nechta muhim vazifalarni bilishi kerak. I Spring dasturini kompyuterga o'rnatib, uni ishga tushirish uchun tayyorlash. I Spring dasturi bo'yicha onlayn videolar, darsliklar, yozuvlar va forumlar orqali qo'llanmalar bilan tanishib chiqish lozim. Bu vazifalarni amalga oshirib, I Spring dasturi orqali mustaqil ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E.I.Ro'ziyev, A.O.Ashirboyev. Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi. -T.: «Fan va texnologiya», 2010, 248 bet <https://e-library.namdu.uz/>
2. Tashimov N.E., Ashirboev A.O., Valiyev A.N., Dastur 5A110802 – Muhandislik grafikasi va dizayn nazariyasi. <https://www.samdu.uz>
3. www.ispring.ru
4. Sheraliyev Sanjarbek Karimberdiyevich (2022). KO'RGAZMALILIK VOSITASINING CHIZMA GEOMETRIYA VA MUHANDISLIK GRAFIKASI FANINI SIFAT VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (Special Issue 4-2), 780-786. doi: 10.24412/2181-1784-2022-4-2-780-786 <https://cyberleninka.ru>

Bori NIGMANOV,
Nizomiy nomidagi TDPU Jismoniy tarbiya
va sport kafedrasini professori

YOSH BASKETBOLCHILARNING JISMONIY VA FUNKSIONAL TAYYORGARLIK ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada yosh basketbolchilarning jismoniy va funksional tayyorgarlik asoslari, to'g'ri va o'z vaqtida qo'yilgan asosiy malaka va mahoratlarini shakllantirish jarayoni haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: yosh basketbolchilar, sport tayyorgarligi, maxsus mashqlar, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy sifatlari, texnik-taktik tayyorgarlik, funksional tayyorgarlik.

Аннотация: в данной статье рассмотрены основы физической и функциональной подготовки юных баскетболистов. Описаны сведения о процессе формирования основных умений и навыков, которые задаются правильно и вовремя.

Ключевые слова: юные баскетболисты, спортивная подготовка, специальные упражнения, физическая подготовка, физические качества, технико-тактическая подготовка, функциональная подготовка.

Annotation: in this article, the basics of physical and functional training of young basketball players were observed. The information about the process of formation of basic skills and skills, which are set correctly and on time, is described.

Key words: young basketball players, sports training, special exercises, physical training, physical qualities, technical-tactical training, functional training.

Ma'lumki, sport mashg'ulotlarida jismoniy sifatlarni takomillashtirishda turli hajm va shiddatda qo'llaniladigan mashqlar yuklamasini nazorat qilish, umuman, sportchilarni takomillashtirishda shug'ullanuvchilarning fiziologik

reaksiyasini e'tiborga olish juda zarur jarayondir. Chunki mashg'ulot jarayonida sportchilarning funksional imkoniyatlari doimiy nazoratda bo'lmasa, katta yuklamalar organizmni zo'riqishga, kichik hajmli va shiddatli yuklamalar esa uning shakllanishini susayishiga sabab bo'ladi. Binobarin, o'quv mashg'ulot jarayonida jismoniy sifatlarni takomillashtirish hamda texnik-taktik tayyorgarlikni shakllantira borishda fiziologik reaksiyalar ko'rsatkichlariga e'tibor qaratish har bir mashqning fiziologik qiymatini bilgan holda undan foydalanish yuqori malakali sportchilar tayyorlashning muhim shartlaridan biridir [1]. Sport mashg'uloti, xususan, tezlik-kuch sifatlarining fiziologik asoslari ko'pgina ilmiy va o'quv adabiyotlarida a'zaldan o'z ifodasini topib kelgan. Olimlar o'zlarining ilmiy ish va o'quv asarlarida jismoniy sifatlarni, jumladan, tezlik-kuch sifatlarini takomillashtirishda organizmda ro'y beradigan holatlarni, barcha fiziologik o'zgarishlarni atroflicha tahlil qilib berganlar. Ularning fikriga ko'ra harakat malakalarning shakllanishi va jismoniy sifatlarning takomillanishi bilan bir qatorda, shug'ullanuvchilar organizmining funksional imkoniyatlari ham takomillashib boradi. Yosh basketbolchilarni tayyorlashda, avvalambor, o'sayotgan organizmning fiziologik xususiyatlariga va tayyorlash vazifalarining ish xususiyatlariga mos kelishiga asoslanishi kerak. To'g'ri va o'z vaqtida qo'yilgan jismoniy va funksional tayyorgarlik asoslari asosiy malaka va mahoratlarni shakllantirish jarayoni bilan birgalikda kelgusida yuqori sport natijalariga erishish uchun yordam beradigan ishni olib borishga imkoniyat tug'diradi [2]. Quyidagi vaziyatlarni hisobga olish zarur: 1) yosh o'zgarishi bilan birga, bolaning organizmi ham o'zgaradi. Bu o'zgarishlar nafaqat son jihatdan (bo'y, vazn), balki sifat jihatdan ham egadirlar. Shuning uchun kattalarga qo'yiladigan talablarni, bolaning yoshiga mutanosib ravishda yuzaki tarzda kamaytirib, bolalarga qo'yish mumkin emas; 2) bola organizmining rivojlanishi uzluksiz, ammo notekis holda ketadi (kechadi). Ma'lum bir davrlarda muhim o'zgarishlar bo'lib o'tadi (bo'ynning mushak massasining o'sishi, organ va tizimlarining rivojlanishi har xil yoshga qarab bo'lingan davrlarda sur'at jihatdan ham, metabolik jarayonlar xarakteri jihatdan ham turlichadir). Masalan, qizlarning jinsiy yetilishi davri o'g'il bolalarnikiga qaraganda ancha ertadir, qizlar 11-13 yoshda bo'y va vazn jihatidan o'g'il bolalardan o'zib ketishadi, o'g'il bolalarda mushak kuchi 13-14 yoshda, ayniqsa, jadal ravishda o'sadi, qiz bolalarda esa 11-12 yoshda; 3) bolalarning jismoniy sifatlarning va boshqa qobiliyatlarning rivojlanish sur'atlari ma'lum bir davrlarga to'g'ri keladi. Natija ma'lum bir jismoniy sifatlarni va boshqa qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qulayroq shart-sharoitlar yaratiladi.

Masalan, sezuvchanlik tezligi 15 yoshgacha rivojlanadi, yuqori tezlikning o'sishi 13-14 yoshlarga, ayniqsa, jadal ravishda bo'lib o'tadi. O'g'il bolalarda yuqoriga sakrash natijalarining eng yuqori o'sishi

9-13 yoshda kuzatiladi, keyinchalik, bu jarayon barqarorlashadi, qizlar esa ba'zan 15 yoshdan keyin vaqtinchalik yomonlashadi ham; 4) harakatning har xil turlarida qizlarning va o'g'il bolalarning ko'rsatkichlari yoshiga qarab bo'lingan guruhlariga qarab turlicha bo'ladi. Shuning uchun yosh o'sishi natijasida vujudga keladigan shart-sharoitlarni hisobga olish kerak; 5) har bir organizmning yakka tarzda rivojlantirishini yodda tutish zarur. Kalendar, pasport yoshidan tashqari, jismoniy rivojlanish saviyasini, harakatlantiruvchi imkoniyatlarini, jinsiy yetilish va h.k. tasniflaydigan biologik yoshni ham hisobga olish tavsiya etiladi. Kalendar yoshi biologik yoshga to'g'ri kelmasligi ham mumkin. Basketbol sport mashg'ulotlari jismoniy tayyorgarligida harakat (jismoniy) sifatlarni rivojlanishi tushuniladi: kuch, tezlik, chidamlilik, egiluvchanlik, chaqqonlik. Sportda umumiy, yordamchi va maxsus jismoniy tayyorgarlik ajratiladi, ular sportchini musobaqaga tayyorlovchi vosita hisoblanadi. Sportchining jismoniy tayyorgarligini rivojlanishining baholanishini ko'rsatkichi nerv-muskul apparatining miqdoriy va sifat ko'rsatkichidir.

Har bir sport turning o'ziga xosligi mavjud, buni yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkin. Basketbol sport to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilar jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni bog'lovchi sifatida yordamchi jismoniy tayyorgarlikdan foydalanish yuqori samara beradi [3]. Yosh basketbolchilarni tanlab olishda bir qator aniqlovchi tavsifnomalar ajralib turadi: a) bo'yining ko'satkichlari; b) jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi; d) texnik tayyorgarlik va harakatlarni tez o'rgatib olish qobiliyati; e) taktik fikrlash va mahoratni rivojlantiruvchi qobiliyatlar; f) ruhiy barqarorlik. Bu qobiliyatga baho berish BO'SMga qabul qilish uchun tayyorlangan nazorat mashqlar va mezonlarga asos qilib olingan.

O'quvchilar tanlash muvaffaqiyati oldindan, yaxshi tashkil etilgan ish bilan aniqlanadi. Uning asosiy mazmuni – bu BO'SM murabbiylarining umumiy ta'lim maktablari va ularning o'qituvchilari bilan uchrashuvlari, o'quvchilarni yig'ish, axborotlar, umumiy ta'lim maktablari negizida tayyorgarlik guruhlarini tashkil etish, musobaqalar va boshqa ommaviy tadbirlarga borib turishdadir. O'qitish natijalarini oldindan aytib berish ancha qiyin bo'lganligi uchun tanlov ikki bosqichga ajratiladi. Birinchi bosqichning maqsadi saralash tanlovining nomzodlarini aniqlash. Shuning uchun murabbiy maktabdagi jismoniy tarbiya darslariga, bayramlarga, musobaqalarga va boshqa tadbirlarga qatnab, oldindan katta miqdordagi bolalarni ko'rib chiqadi. O'quvchilarni tanlashdagi birlamchi mezonlar quyidagilardir: sog'ligida nuqsonlarning yo'qligi, harakatlarning muvofiqligi, umumiy harakatchanlik, o'yinlar faoliyatiga moyilligi. Birlamchi ko'rikda tanlab olingan bolalar saralash tanloviga qo'yiladi. U jismoniy sifatlarning rivojlanishning boshlang'ich darajasi va maxsus

qobiliyatlarini tavsiflovchi nazorat mashqlarning majmuasi bo'yicha o'tkaziladi [4]. Bular tayyorlov guruhlarning o'quv mashg'ulot ishlari jarayonida murabbiyning bundan keyingi kuzatuvlari uchun boshlang'ich ko'rsatkichlari bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchi bosqich bolalarni o'rganishda, ularning o'qib-o'rganish jarayoni va rivojlanishini kuzatishga qaratilgan. Bu davrda basketbol talablariga yakka qobiliyatlarining mos kelishi tekshiriladi. Bunda bolaning o'zini tutishi, mustaqillik va jamoachilik hislarning namoyon bo'lishi, faolligi, dovyurakligi, maqsadga yiqilishi va sport-texnika ko'nikmalarini tez o'rnashiga bo'lgan qobiliyati o'rganiladi. O'quvchilarni tanlash uslubiyati turli testlar majmuasini o'z ichiga oladi.

Ular qiziqtirayotgan omillar bo'yicha xolisona tavsifnomalar olish imkonini beradi: jismoniy sifatlarning

rivojlanganlik darajasi, maxsus muvofiqlik, o'yinga qobiliyatlar oliy asab faoliyatining xususiyatlari, ruhiy holatlari va shifokor ko'rsatmalari.

Xulosa. Yosh basketbolchilarni tarbiyalashda va ularning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda avvalo mashg'ulotni muntazam ravishda tashkillash talabi yuzaga keladi. Mazkur talabni bajarish uchun yosh basketbolchilarni mashg'ulot talablaridan bezitmasdan ishtiyoq bilan mashq bajarishlarini ta'minlash juda muhim hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlangan yordamchi jismoniy tayyorgarlik shu vazifani amalga oshirishda juda ham yuqori samara berishi haqida ma'lumotlarni etiborga olgan holda tayyorgarlik turlaridan oqilona va maqsadli foydalanish eng kerak vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Abdullayev, Sh.X.Xonkeldiyev. Jismoniy madaniyat nazaryasi va metodikasi. Bakalavr talabalar uchun darslik. – T., 2016, 410-bet.
2. Faxriddin Xo'jayev. Basketbol. Uslubiy qo'llanma, "Tafakkur", – Toshkent, 2015. 96-bet.
3. R.S.Salomov. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Darslik. – Toshkent, 2014. 284-bet.
4. F.A.Kerimov. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. – Toshkent: "Zar qalam", 2014. 447-bet.
5. Portnov Y.M. Basketbol FvaS. 1997. 480-bet.

Nigora NEMATOVA,

Samarqand davlat chet tillar instituti doktoranti

CHET TILNI O'QITISHDA MUSTAQIL TA'LIM MAQSADI VA TASHKILY MEZONLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada mustaqil ta'lim va uning turlari xususida keng ma'lumot berilgan. Jumladan, mustaqil ta'lim haqida o'quv jarayoni tarkibiga kiradigan „sinf mashg'uloti“, „uy ishi“ va „darsdan tashqari mustaqil ish“ ta'limiy tushunchalari orasidagi farqlarni aniqlash zarur. Ta'lim dasturi dars tufayli ro'yobga chiqadi. Dars zamon va makonda chegaralangan ta'limiy hosiladir. Uning mazmunan ajralmas, zamonda esa ajralgan qismi uy ishidir. Dars va mustaqil uy ishi yuz foiz o'quvchilar uchun majburiy mashg'ulotlar hisoblanadi. O'quvchilarning muayyan qismi ixtiyoriy mashg'ulot va darsdan tashqari ishlarda ishtirok etadi. Darsdan tashqarida, jadvalga kirmaydigan, maxsus o'quv dasturiga ega bo'lmagan, birorta sinf va uy ishlarining uzviy davomi sifatida o'tkaziladigan ta'limiy tadbir mustaqil ta'lim maqomini olgan. Har bir o'quvchi darsga qatnash va uy vazifasini bajarishga majbur, lekin sinfdan tashqari ishlarda ishtirok etishi ixtiyoriy bo'lib, aynan ushbu maqolada mustaqil ta'lim turlarini sanab o'tamiz.

Kalit so'zlar: *mustaqil ta'lim, og'zaki nutq mashg'uloti, o'qish mashg'uloti, darsdan tashqari mashg'ulotlar, ta'limiy tadbirlar.*

Аннотация: в данной статье представлена подробная информация о самостоятельном образовании и его видах. В частности, необходимо определить различия между учебными понятиями «классное обучение», «домашнее задание» и «самостоятельная внеклассная работа», которые являются частью образовательного процесса самостоятельного обучения. Учебная программа реализуется благодаря уроку. Урок – это образовательный продукт, ограниченный во времени и пространстве. Его неотъемлемой частью по содержанию, а во времени и отделенной от него, является работа по дому. Уроки и самостоятельные домашние задания являются обязательными занятиями для ста процентов учеников. Определенная часть студентов участвует в добровольной подготовке и внеклассной деятельности. Статус самостоятельного образования получила образовательная деятельность вне класса, не включенная в расписание, не имеющая специальной учебной программы и проводимая как неотъемлемое продолжение любого урока и домашнего задания. Каждый ученик обязан посещать занятия и выполнять домашние задания, однако участие во внеклассных мероприятиях является добровольным, и виды самостоятельного обучения мы перечислим в этой статье.

Ключевые слова: *самостоятельное обучение, обучение устной речи,*

Annotation: this article provides detailed information about independent education and its types. In particular, it is necessary to determine the differences between the educational concepts of "class training", "homework" and "independent work outside of class", which are part of the educational process of independent education. The curriculum is realized thanks to the lesson. A lesson is an educational product limited in time and space. Its inseparable part in terms of content, and in time it is separated from it, is housework. Lessons and independent homework are

mandatory activities for one hundred percent of students. A certain part of students participates in voluntary training and extracurricular activities. An educational activity outside the classroom, not included in the schedule, not having a special curriculum, and conducted as an integral continuation of any class and homework, has received the status of independent education. Every student is obliged to attend classes and do homework, but participation in extracurricular activities is voluntary, and we will list the types of independent education in this article.

Key words: *independent education, oral speech training, reading training, extracurricular activities, educational activities.*

Chet til vositasida o'quvchilar umumiy saviyasini oshirish, o'quv predmetiga qiziqishni kuchaytirish, bo'sh vaqtlardan samarali foydalanib, bilishga qaratilgan ehtiyojlarni qondirish kabi vazifalar hal qilinadi. Dars va undan tashqari ish maqsadlarini ta'riflashda, birinchidan, ular orasidagi sezilarli farq nazarda tutiladi, ikkinchidan, mustaqil ta'lim turlarining xususiyatlari inobatga olinadi va, nihoyat, uchinchidan, o'quv predmeti oldiga qo'yilgan amaliy, ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlar to'lig'icha hisobga olinadi. Mustaqil ta'limning har bir turining xususiyatidan kelib chiqib, ularga qator metodik talablar qo'yiladi. Talablarni ro'yobga chiqarish darsdan tashqari ishlarni tashkil qilish mezonlari bilan bog'liq. Quyidagilar muhim mezonlar sanaladi [1; 48-b.]:

1. Ixtiyoriylik. O'quvchi o'z xohish-istagi bilan darsdan keyin mashg'ulotga qatnashadi. Ixtiyoriy tanlagan tadbirlarida „va'daga vafo“ qabilida muayyan topshiriqlarni bajarish majburiyga aylanadi.

2. Muntazamlik va aniq maqsad. Ishlar bir me'yorda (haftada, oyda, yarim yilda, har kuni) bajarib boriladi.

3. Yoshiga moslik. Ishtirokchilarning shaxs xususiyatlarini, ya'ni bilim saviyasi va qiziqishlari kabi ruhiy va ma'naviy jihatlarni nazarga olib, ularga yumush yuklanadi.

4. Uzviy bog'liqlik. Darsda shakllanadigan nutqiy ko'nikma va malakalar zaminida mustaqil ta'lim tashkil qilinadi. O'z navbatida dars jarayoniga ijobiy ta'sir o'tkaziladi.

5. Ommaviylik. Imkon boricha ko'pchilik jalb etilsa, darsdan tashqari tadbirlarning o'quv-tarbiya jarayonini jonlantirishga shunchalik yaxshi erishiladi.

6. Informativlik (axborotga boylilik). Darsdan tashqari sarflanadigan kuch va vaqtni zo'ra ketkazmaslik maqsadida majburiy dastur o'quv materialini takrorlash va mustahkamlash bilangina kifoyalanmay, rejalashtirilgan tadbirlarning mazmuni sinchiklab tanlanadi. o'quvchiga yangilik berilishi, qiziqarli axborotga oshno etilishi, uning bilish ehtiyoji qondirilishi mustaqil ta'limning informativligi, ya'ni ma'naviy ozuqaga boyligi orqali ta'minlanadi. Ma'naviy boyish o'quvchini olg'a undaydi, ijodiy faoliyatini qo'zg'aydi, tashabbusini uyg'otadi. Bularning hammasi o'qishga moyillik (motivatsiya) tug'diradi.

Mustaqil ta'lim o'zining maqsad va mazmuniga ko'ra turli shakllarda bo'ladi. Ular, asosan, uch ko'rinishda tashkil qilinadi, ya'ni ommaviy, guruhiy va yakkama-yakka o'tkaziladi. Maktab tajribasida uchalasi, o'z navbatida, yana kichik turlarga bo'linishi ma'lum. Chet til muallimi mustaqil ta'limning turlarini o'quvchilarga tavsiya qiladi, material tayyorlaydi va ularni o'tkazish metodikasini

ishlab chiqadi (mavjud adabiyotdan keng foydalanadi) [2; 33-b.]. Ayrim tadbirlarni u maktab miqyosida muvofiqlashtiradi. Ish turlari bo'yicha o'quvchilarni safarbar etadi, guruhlariga ajratib vazifalarni belgilaydi, topshiriladigan yumushlarning ijrosini nazorat ostiga oladi. O'quvchilar qatnashadigan mustaqil ta'limning uch toifasini birma-bir ko'rib chiqamiz: Ommaviy ishlar: Darsdan tashqari ommaviy ishlarda nisbatan ko'pchilik qatnashadi. Maktab, litsey va kollejda joriy etilgan ommaviy tadbirlar sirasiga quyidagilar kiradi: mavzuviy kecha, viktorina (savol-javob tomoshasi), tanlov, olimpiada, kinofilm (diafilm) namoyish qilish, chet til haftaligi (kuni), ko'rgazma, badiiy havaskorlik va h.k.

Viktorina (savol-javob tomoshasi) chet til va boshqa o'quv predmetlarini bilish darajasini oshirishda predmetlararo aloqani kuchaytirish yo'lidagi darsdan tashqari muhim ishdir. Mazkur tadbir mavzu jihatidan xilma-xil bo'ladi. Masalan, „Tevarak-atrof haqida“, „Qishlog'im/shahrim“, „Tili o'rganilayotgan mamlakat“, „O'zlashtirgan so'zlarimiz/grammatik material“ singarilar yuzasidan savol-javob uyushtiriladi. Olimpiada shaklida o'tkaziladigan ommaviy ish o'quvchilarni kasbga yo'naltiruvchi omillardan sanaladi [2; 65-b.]. Shahar/tuman maorif bo'limlarida saqlanadigan maxsus nizomga ko'ra ushbu ta'limiy tadbir o'tkaziladi. Chet til olimpiadasi ishtirokchilariga qo'yiladigan o'quv talablari matbuotda e'lon qilinadi (mas., gazeta sahifalaridan ularni o'qib olish mumkin). Odatda, olimpiada sinf/maktab/litsey/kollej doirasida, viloyat va, nihoyat, respublika miqyosida o'tkaziladi. Olimpiada talablarini quyidagicha umumlashtirib ifodalash mumkin: chet til matnini tez va to'g'ri o'qish; ravon talaffuz qilish; savolga tezkorlik bilan javob berish; tabiiy nutq tezligini namoyish etish; savolga berilgan javob mazmunining mavzuga mos tushishi; leksik, grammatik va talaffuzdagi kamchiliklar bor/yo'qligi. Chet tildan O'zbekistonda (Olmaliq shahrida) 1974-yil ilk da'fa respublika olimpiadasi o'tkazilgan. Biror viloyatda har yili ushbu respublika ommaviy o'quv tadbirini o'tkazish odat tusiga kirgan. Chet til olimpiadasi g'oliblari orasidan chet til oliy o'quv yurti/fakultetlari talabasi bo'lish huquqini olgan va keyinchalik chet tildan mutaxassis bo'lib yetishib chiqqanlar oz emas [6; 101-b.]. Olimpiada ishtirokchilariga kelgusida o'qishga maxsus tavsiyanoma berilishi qoidalashtirilgan. Chet til haftaligi yoki kuni katta tayyorgarlik bilan o'tkaziladigan ommaviy ish turlaridandir. „Haftalik o'quv yili mobaynida bir marta, belgilangan vaqtda o'tkaziladi. Haftalik oldidan uzoq muddat hozirlik ko'riladi: tashkiliy guruh tuziladi; muallimlar vazifalarni bo'lib olishadi; dastur yoziladi;

maktab, litsey, kollej binosi (zal va koridorlar) bezaladi; „Chet til o'rganuvchiga yordam“ burchagi tashkil qilinadi; 343 to'garakning ochiq majlisi mavzulari belgilab olinadi; o'yinlar dasturi ishlab chiqiladi; sinf yoki muvoziy sinflar devoriy matbuoti chiqariladi; hakamlar hay'ati saylanadi. Bir necha kun avval haftalik haqida e'lon osiladi, unda o'tadigan tadbir muddati ko'rsatilgan bo'lib, o'quvchilarni haftalikda faol qatnashishga da'vat etiladi. Devoriy matbuotda ko'riklar bo'yicha uy vazifalari va haftalikni o'tkazish tartib qoidalari yoziladi. Guruhiy ishlar. Mustaqil ta'limning ushbu ko'rinishiga to'garaklar yoki bo'lim (seksiya)lar kiradi [7; 42-b.]. Doimiy o'tkaziladigan guruhiy ishlar qatorida og'zaki nutq, o'qish, tarjima to'garaklari, chet ellik do'stlar bilan xat yozishuv, ko'rgazmali qurollar yasash, filatelistlar (marka to'plovchilar), drama, kino to'garaklari ishlaydi. Vaqtincha ishlaydigan to'garaklarda albom yasash, stend tayyorlash, devoriy gazeta chiqarish

kabilar tashkil qilinadi. Og'zaki nutq to'garagi: Bu guruhiy darsdan tashqari to'garak tilni taxminan bir xil biladigan o'quvchilardan tashkil topadi. Qatnashchilar gaplashish bilan mashg'ul bo'ladi. To'garakning quyidagi turlari keng tarqalgan: rasmlar bo'yicha gapirish, tayanch so'zlar asosida gapirish, berilgan mavzuda gapirish, suhbat, axborot berish, ma'ruza qilish kabilar. Gapirish va tinglab tushunishni o'rgatish materiallaridan ushbu to'garakni o'tkazishda foydalanish tavsiya etiladi. Muallim maslahati va rahnamoligida bajariladigan mazkur tadbirlar qatnashuvchilari guruhiy va ommaviy ishlarda ham faol ishtirok etadilar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, chet tilni amaliy o'rganishda va o'qitishda mustaqil ta'limning o'rni beqiyos, shu sababdan maktab ta'limining boshlang'ich bo'g'ini hisoblanmish boshlang'ich sinfdan boshlab mustaqil ta'limning olib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бабинская П. К., Леонтьева Т. П., Андреасян И. М., Будько А. Ф., Чепак И. В. Практический курс методики преподавания иностранных языков: Учебное пособие... — Изд. 5-е. — М.: Тетра Системе, 2009. — 288 с.
2. Бим И. Л. Методика обучения иностранным языкам как наука и теория школьного учебника. — М.: Русский язык, 1977. — 288 с.
3. Верещагина И. Н., Рогова Г. В., Языкова Н. В. Методика обучения английскому языку: 1—4 классы: Пособие для учителей и студентов педагогических вузов. — 4-е изд. — М.: Просвещение, 2008. — 223 с.
4. Тальскова Н. Д. Современная методика обучения иностранным языкам: Пособие для учителя. — 2-е изд. — М.: АРКТИ, 2003. - 162 с.
5. Демьяненко М. Я., Лазаренко К. А., Кислая С. В. Основы общей методики обучения иностранным языкам: Теоретический курс/Под ред. М. Я. Демьяненко — Киев: Вища школа, 1976. - 282 с.
6. Джалалов Д. Д. Проблемы содержания обучения иностранному языку. — Т.: Фан, 1987. — 110 с.
7. Zaripova R. A. Chet tillar o'qitish metodikasidan qo'llanma, — T.: O'qituvchi, 1986. 184-b.
8. Jalolov Jamol Jalolovich. Chet til o'qitish metodikasi: chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik / J.J. Jalolov. — Toshkent: O'qituvchi, 2012. 432-b.

Albina STÉPANIAN,

Professeur à l'Institut d'État des langues étrangères de Samarkand

MÉTHODES MODERNES D'ENSEIGNEMENT DE L'ÉCRITURE DANS LE PROCESSUS D'ÉDUCATION DES ÉTUDIANTS

Annotatsiya: maqolaning maqsadi xorijiy tilda yozishni o'rgatish yondashuvlari va amaliy o'qitish tajribasini, shuningdek, yozma nutq sohasidagi tadqiqot yo'nalishlarini ko'rib chiqishdir.

Kalit so'zlar: *jarayon, zamonaviy ritorik yondashuv, protsessual yondashuv, postprotsessual yondashuv, diskursiv ma'no.*

Annotation: l'objectif de l'article est de passer en revue les approches d'enseignement de l'écriture en langue étrangère et les expériences pratiques d'enseignement, ainsi que les orientations de recherche dans le domaine du discours écrit.

Mots clés: *produit, processus, approche rhétorique moderne, approche procédurale, approche post-processuelle, sens discursif.*

Les approches de l'enseignement de l'écriture dans une langue étrangère sont étroitement liées à la recherche dans le domaine du discours, puisque la compétence discursive fait partie intégrante de la compétence communicative. Il est logique de supposer que la compréhension du discours en tant que résultat sous forme de texte et en tant que processus cognitif de création de sens est interconnectée avec les termes « produit » et « processus » dans la théorie de l'enseignement des langues étrangères. Ces deux termes opposés ont été mis en œuvre dans des approches d'enseignement de

l'écriture connues sous le nom d'approches « rhétorique contemporaine » (orientées produit) et processus. Les deux approches se sont développées depuis les années 60 et 70. au XXe siècle, trouvant ses partisans et ses opposants. Au cours des dernières décennies, en relation avec l'enseignement de l'écriture, un autre terme « post-processus » est apparu, compris comme un reflet du contexte social dans la construction discursive de la réalité dans le processus d'écriture (Trimbur, Atkinson) [4]. Cette approche de l'écriture tente de synthétiser et de surmonter les lacunes des approches précédentes,

mais elle s'inscrit avant tout dans la continuité de l'approche processus. L'approche post-processuelle, selon ses partisans, ouvre de nouvelles opportunités dans la compréhension de l'écriture comme une activité à plusieurs composantes dans l'enseignement de l'écriture dans une langue étrangère.

L'approche rhétorique moderne de l'enseignement de l'écriture a pris forme dans une théorie cohérente avant l'approche procédurale. Malgré le fait que le terme « procédural » se retrouve souvent dans la littérature méthodologique sur la problématique de l'enseignement de l'écriture en langue étrangère et fait l'objet de nombreuses études étrangères, l'approche procédurale n'est toujours pas une théorie méthodologique cohérente. En outre, il est juste de noter que la distinction entre les approches « productives » et « procédurales » de l'enseignement de l'écriture est assez arbitraire, car en pratique elles utilisent des éléments les unes des autres.

Premièrement, cela se reflète dans le fait que l'ensemble de la communauté des professeurs d'anglais n'est pas familier avec les idées de l'approche processus et ne les partage pas. Deuxièmement, la plupart des complexes pédagogiques et méthodologiques en langue anglaise contiennent des tâches de type mixte, qui impliquent à la fois la rédaction de textes basés sur des échantillons et un travail créatif. L'approche rhétorique moderne de l'enseignement de l'écriture en langue étrangère a servi de tremplin pour le début de la recherche dans le domaine de l'écriture en tant que processus. Ce terme a été formulé par D. Fogarty et R. Young dans les années 70. décrire les méthodes traditionnelles utilisées pour développer les compétences rédactionnelles et rhétoriques. En d'autres termes, le terme décrivait la recherche sur l'enseignement de l'écriture qui se concentrait davantage sur le résultat que sur le processus d'écriture. L'accent dans l'enseignement du discours écrit s'est déplacé vers les mots, les phrases individuelles et les paragraphes connectés syntaxiquement, orthographe, ponctuation et style (Berlin, Crowley) [4]. Depuis l'émergence du terme « rhétorique moderne », la méthode d'enseignement de l'écriture consiste à effectuer des tâches contrôlées contenant des instructions sur le genre et le but de l'œuvre écrite, le volume de l'énoncé et le plan de construction du texte (Silva, Connor, Leckie, Grabe et Kaplan) [3]. La forme la plus rigoureuse de manifestation de cette approche dans l'enseignement était les tâches, généralement composées de cinq paragraphes, dans lesquelles les étudiants doivent construire des phrases dans l'ordre logique correct et utiliser les normes linguistiques typiques des locuteurs natifs dans les

tâches du genre spécifié, c'est-à-dire remplir le modèle avec une nouvelle signification.

Les étudiants doivent analyser et copier des échantillons, en identifiant le thème général du texte, la phrase principale de chaque paragraphe et les phrases qui la détaillent. Une caractéristique distinctive de l'approche rhétorique moderne est que la formation des compétences écrites ne se pratique pas tant au niveau de la phrase qu'au niveau du paragraphe et du texte. Dans le cadre de cette approche, une grande attention est accordée aux unités organisationnelles du texte : introduction, partie principale et conclusion, ainsi qu'aux genres : description, narration, argumentation. Les techniques d'enseignement comprennent l'analyse d'échantillons de discours écrits, le développement d'idées de contenu principales et l'élaboration d'un plan. Cependant, le sujet du travail écrit est déterminé par l'enseignant et non par les étudiants, et le texte final n'est généralement pas révisé conjointement avec les étudiants. Cette technique a permis de classer cette approche comme une approche centrée sur l'enseignant. À une certaine époque, cette méthode d'enseignement était aussi qualifiée de prescriptive et statique, ce qui ne lui permettait pas de réaliser pleinement son potentiel [3]. À notre avis, le potentiel de cette méthode est évident dès les premiers stades de l'apprentissage de l'écriture dans une langue étrangère, car elle permet de comprendre l'organisation, la structure sémantique du texte et ses caractéristiques linguistiques. Les exemples de tâches de ce type sont irremplaçables, car avant d'effectuer des tâches créatives avec une réponse ouverte dans une langue étrangère, l'étudiant doit comprendre comment cela peut être fait. Enseigner à l'aide d'échantillons de tests n'entrave ni n'entrave le développement des capacités créatives des élèves. Après tout, les preuves expérimentales sont encore insuffisantes pour étayer la thèse de Hyland selon laquelle l'écriture s'apprend et non s'enseigne. C'est le principal désaccord entre les partisans des approches axées sur les résultats et celles axées sur les processus.

L'approche traditionnelle a été critiquée à plusieurs reprises parce qu'elle ne permet pas aux étudiants de développer leur individualité et leurs compétences en écriture créative. Cependant, nous trouvons une confirmation de sa prévalence et de son efficacité du point de vue de l'évaluation dans des tâches d'un format similaire dans la partie C de l'examen d'État unifié en anglais.

Littérature

1. Celce-Murcia, M., E. Olshtein. Discours et contexte dans l'enseignement des langues : un guide pour les professeurs de langues. TASSE. 2000.
2. Klein, PD (1997). Réouverture de l'enquête sur les processus cognitifs dans l'écriture pour apprendre // Revue de psychologie éducative. 1999. Vol. 3.
3. Matsuda P. K. Rhétorique contrastive en contexte : un modèle dynamique d'écriture en L2 // Journal of Second Language Writing. 1997. N° 6. P. 45-60.

Maftuna KHASANOVA,

English teacher at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

APPLICATION OF THE "CLOSE READING" METHOD IN AN INTEGRATED TEACHING ENGLISH LANGUAGE AND LITERATURE TO UNIVERSITY STUDENTS

Annotation: "Close reading" is a specific method of literary analysis, involving careful, thoughtful reading of classical literature. The method allows to disassemble the structure of the text and gradually penetrate into its meaning, analyzing each word, its interaction with other expressions, and the reason why the author included it in the text. In the future, the interpretation of a small part of the work is projected onto the entire text. The implementation of this method includes five stages: primary reading and highlighting unusual words and phrases in the text, secondary reading and analysis of previously written words, building a general interpretation and semantic picture of the work, including the text in the historical and cultural context and searching for additional information, building private interpretations. The work on the "close reading" method is presented in this study using the example of a poem "on Welbeck, the duke of Newcastle's House" by Richard Flecknoe. The use of the "close reading" method made it possible to identify the meaning of the work based on the analysis of words and artistic phrases, to trace how the historical context affects the perception of the text.

Keywords: *integration, integrated learning, methods of teaching English language, methods of teaching foreign literature, method, slow reading.*

Аннотация: «Close reading» – это специфический метод литературного анализа, предполагающий внимательное, вдумчивое чтение классической литературы. Метод позволяет разобрать структуру текста и поэтапно проникнуть в его смысл, анализируя каждое слово, его взаимодействие с другими выражениями, и причину, по которой автор включил его в текст. В дальнейшем интерпретация небольшой части произведения проецируется на текст целиком. Реализация данного метода включает пять стадий: первичное чтение и выделение в тексте необычных слов и оборотов, вторичное чтение и анализ ранее выписанных слов, построение общей интерпретации и смысловой картины произведения, включение текста в историко-культурный контекст и поиск дополнительной информации, построение частных интерпретаций. Работа по методу «close reading» представлена в настоящем исследовании на примере поэмы «on Welbeck, the duke of Newcastle's House» Ричарда Флекно. Использование метода «close reading» позволило выявить смысл произведения на основе анализа слов и художественных оборотов, проследить, как исторический контекст сказывается на восприятии текста.

Ключевые слова: *интеграция, интегрированное обучение, методика преподавания английского языка, методика преподавания зарубежной литературы, метод, медленное чтение.*

Annotatsiya: "Yaqindan o'qish" - bu adabiy tahlilning o'ziga xos usuli bo'lib, klassik adabiyotni diqqat bilan, puxta o'qishni o'z ichiga oladi. Usul sizga matnning tuzilishini tahlil qilish va uning ma'nosiga bosqichma-bosqich kirib borish, har bir so'zni, uning boshqa iboralar bilan o'zaro ta'sirini va muallifning uni matnga kiritish sababini tahlil qilish imkonini beradi. Keyinchalik, asarning kichik qismini talqin qilish butun matnga proektsiyalanadi. Ushbu usulni amalga oshirish besh bosqichni o'z ichiga oladi: matnda g'ayrioddiy so'zlar va burilishlarni birlamchi o'qish va ta'kidlash, ilgari yozilgan so'zlarni ikkinchi darajali o'qish va tahlil qilish, asarning umumiy talqini va semantikasini yaratish, matnni tarixiy va madaniy kontekstga kiritish va qo'shimcha ma'lumotlarni qidirish, shaxsiy talqinlarni yaratish. "Yaqin o'qish" usuli bo'yicha ish ushbu tadqiqotda Richard Fleknoning "Nyukasl gersogi Uelbekda" she'ri misolida keltirilgan. "Yaqin o'qish" usulidan foydalanish so'zlar va badiiy iboralarni tahlil qilish asosida asarning ma'nosini aniqlash, tarixiy kontekst matnni idrok etishga qanday ta'sir qilishini kuzatish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: *integratsiya, integratsiyalashgan ta'lim, ingliz tilini o'qitish metodikasi, chet el adabiyotini o'qitish metodikasi, usul, sekin o'qish.*

Integration of various disciplines, creation and strengthening of interdisciplinary connections plays an increasingly important role in the modern educational process. According to the new encyclopedic dictionary, "integration is the process of obtaining a whole with new properties, qualities, and features not previously inherent in individual components". Thus, integration is the process and result of merging, combining and establishing links between various elements, branches of knowledge.

The integration of English language and literature into a single course has great potential for learning, as it examines the language from several sides – from the internal structure and grammar, from the vocabulary and specifics of its use, as well as from the history and culture of peoples speaking a foreign language.

The main purpose of teaching a foreign language in general and an integrated course in particular is the formation of students' communicative competence, which can be defined as "the ability to carry out speech activity by means of the studied language, implementing communicative speech behavior based on phonological, lexico-grammatical, sociolinguistic, subject and regional knowledge, skills and abilities".

In other words, communicative competence refers to the ability and willingness to carry out foreign-language interpersonal and intercultural communication with native speakers.

In the context of the research, the method of "slow reading" is of the greatest interest to us. "Close reading" is a standard term from Western European literary criticism, meaning an attentive, thoughtful reading of classical literature. This is a specific method of literary analysis, which calls for paying attention to individual words, constructions and images in the work. The implementation of this method includes several stages:

1. At the first stage, students are invited to read a literary text on their own. In some cases, for a better understanding, you can read the work or its passage aloud. At this time, everything that seemed incomprehensible, new and entertaining

to the students is recorded. The main purpose of this stage is to understand the general meaning of the text.

2. The second stage involves re-reading the work. Special attention is paid to deciphering the meanings of previously written words.

3. At the third stage, a general semantic picture is built. After reviewing and comprehending all the details, students begin to create their own interpretation of the text.

4. At the fourth stage, for a better understanding, it is possible to include the work in a historical and cultural context.

5. At the last stage, each student builds a private interpretation that differs from the general one.

The specifics of usage of the "Close reading" method can be considered on the example of analyzing the poem "On Welbeck, the Duke of Newcastle's House", written by Richard Flecknoe, an English playwright, poet and musician.

At the first stage, students need to carefully read the poem and think about its meaning. Here they do not interpret the text yet, but focus on its specific features.

*On Welbeck, the Duke of Newcastle's House
 Welbeck's a royal place, where everything
 Seems made for entertainment of a King;
 And all the world confesses that he ne'er
 Was entertained more royally than there:
 Whose cellar and whose larder seems
 t'have been
 Of every foreign land the magazine;
 Whilst everywhere their rarities were sought
 By land and sea, and unto Welbeck brought.
 Let others wonder at thy Lord's expense,
 And at the vastness of his magnificence,
 Whose feast was but prelude to the cost
 With which soon after he maintained an host.
 He who would venture his fortunes, life,
 and all,
 To serve his Master when his General:
 For me, I ne'er shall wonder that he would
 Not spare all his purse, that would not
 spare his blood.*

Next, students are encouraged to ask what observations and notes they have made and discuss the following issues in the form of a discussion: What prompted the author to write this work? What does he want to tell them? What effect does the poem have on the reader? What is its general meaning?

At the second stage, upon re-reading the text, the decoding of previously identified specific words and artistic means begins. The poem is immediately associated with nobility, at the very beginning it says that Welbeck is a "royal place".

«Welbeck's a royal place, where everything
 Seems made for entertainment of a King».

The Duke of Newcastle, although he is not a monarch himself, lives like a king. And at the same time, he does not claim power, but is completely devoted to the king, creating excellent conditions for his stay in the estate.

It can be noticed the transition of the words "royal" and "entertainment" to "royally" and "entertained". This repetition is deliberate and indicates that the relationship between the royal family and entertainment is one of the main themes of the work. So why is Welbeck so attractive? The following lines indicate that the estate is rich, provided with food and supplies, and is also a repository of rarities from all over the world.

At the end of the work, the king is described as "Master" and "General", which duplicates the hint that there is a storage of weapons and ammunition in the castle.

We have come a long way from the theme of entertainment, which sounded at the beginning, to the solemn and gloomy ending, revealing the theme of loyalty and devotion. Thus, by breaking the poem into individual words and paying attention to their specific features, we can be sure of the accuracy of our general interpretation.

The use of the "Close reading" method in integrated teaching of English and foreign literature contributes to the formation and development of literary, socio-cultural, communicative, reading and other competencies. Having mastered this method, students not only acquire the skills of analyzing a literary text, but also can transfer new abilities to other objects of information in everyday life.

Reference list

1. Alexander Search, S. G. (2017) "Entrepreneurial Literary Theory: A Debate on Research and the Future of Academia". London: Shot in the Dark.
2. Allen, M. (2017) "The SAGE Encyclopedia of Communication Research Methods". United States of America: SAGE Publication, Inc. doi:10.4135/9781483381411.
3. Brummett, B. (2010) "Techniques of close reading / Barry Brummett". United States of America: SAGE Publications, Inc.
4. Kalmane, R. (2012) "Improving Reading Comprehension with Online Text Visualization Tools". New York: Lulu.com, p. 108.
5. Mokhtari, K. (2016) „Improving Reading Comprehension through Metacognitive Reading Strategies Instruction". Lanham, Maryland: Rowman & Littlefield Publishing Group, Inc.

Feruzaxon KARIMOVA,
O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va
folklori instituti katta ilmiy xodimi, PhD

PSIXOLOGIYA VA TILSHUNOSLIKNING O'ZARO TA'SIRLASHUVI

Annotatsiya: maqolada muloqot nutqining psixologik va lingvistik uyg'unlashuvi haqida fikrlar bayon etilgan. Shu bilan birga psixolingvistik qarashlar ildizi haqida mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *psixologiya, tilshunoslik, psixolingvistika, muloqot, ruhiy holat, nutq.*

Аннотация: в статье описывается психологическая и языковая гармония коммуникативной речи. При этом высказываются замечания о корнях психолингвистических взглядов.

Ключевые слова: *психология, лингвистика, психолингвистика, общение, душевное состояние, речь.*

Abstract: the article describes the psychological and linguistic harmony of communicative speech. At the same time, comments are made about the roots of psycholinguistic views.

Key words: *psychology, linguistics, psycholinguistics, communication, mental state, speech.*

Bugungi tilshunoslik sotsiologiya va psixologiya, madaniyatshunoslik kabi fanlar bilan qo'l bergan

holda oldinga odimlayotgani ayni haqiqatdir. Xorijiy davlatlarda ijtimoiy psixologiyaning o'rganilishi va rivoji fanlar integrallashuvidan o'z samarasini berayotganini ko'rishimiz mumkin. Bu sohaning ko'zga ko'ringan namoyondalaridan D.Mayers ushbu fan haqida qisqa qilib quyidagi fikrni aytib o'tgandi. "Ijtimoiy psixologiyaning shaxs psixologiyasidan farqi shundaki, uni odamlar o'rtasidagi individual farqlar emas, balki odamlarning bir-birini qanday qabul qilishlari va bir-biriga qanday ta'sir qilishlari qiziqtiradi". Aynan shuning uchun ham insonlararo muloqotda nutq orqali ham "bir-birini qanday qabul qilishlari va bir-biriga qanday ta'sir qilishlari" psixolingvistikaning o'rganish obyektlaridan biri bo'la oladi.

Ijtimoiy psixologiya fani o'z nomidan ham ko'rinib turibdiki, psixologiya va sotsiologiya fanlarining jipslashuvidan kelib chiqqan.

Olam, jamiyat va inson mushtarakligini aks ettiruvchi ruhshunoslik fani boshqa sohalarga qaraganda yoshroq fan deya ta'kidlanadi. Dunyo psixologiyasida g'arb olimlarining nomlari bot-bot takrorlansa-da, aslida uning tamadduniga ilk tamal toshini qo'ygan mutafakkir olimlarning inja qarashlari (tafakkuri) sharqqa daxldordir. Inson ichki dunyosining eng chuqur sarhadlarigacha kirib borgan, ruhiyat dunyosining asl kashshof g'avvosi J.Rumiy deysizmi yoki umr yo'llarida inson sinoatini bila olmay uning sargashta holini bayon qilishga uringan U.Hayyommi yoinki Sharq Aristoteli hisoblangan Forobiyning ezgu qarashlarimi yoxud inson jism-u joni uning ruhiyatiga bog'liqligini o'z tajribalarida isbot etib ketgan faylasuf olim Ibn Sinomi, bari Inson deb atalmish sir-u sinoatga to'la kichik va kabir dunyoning ajib va muvozanatsiz muvozanatini anglamoq uchun umr soatlarini unga baxshida qilganlari bejizga emas. Ibn Sinoning nazariy qarashlarida "Ruhiy proses bilan jismoniy proseslarning – psixologiya va fiziologioyaning o'zaro bog'liqligi, ularning bir-biriga ta'sir etishi..."

har doim ustuvor qarash bo'lgan, desak adashmagan bo'lamiz. J.Rumiyniung birgina: "Fihi mo Fihiy" da ruh dialektikasi, inson mayllari, tushuncha-tasavvurlari, ehtiyoj va talablari, iztirob va qiynoqlari, ziddiyatlar va muvofiqliklar, kurash va g'alaba, yo'qlik va borliq, ro'yo va haqiqat, jism va jon va hokazolar ustida bildirilgan fikrlarni bundan yuz yil ilgari aytilganiga ishonqiramay qolasiz, go'yo ular bugun aytilganday".

Forobiyning "Hikmat ma'nolari" risolasidagi psixologiyaga oid yorqin dalillar ham fikrimizni isbotlaydi. "Xulosa: tashqi xislatlardan bo'lgan har bir his etiluvchi (ya'ni seziluvchi, - M.X) narsaning tabiatiga bog'liq bo'ladi".

"Baxt-saodatga erishuv haqida"gi risolasidagi mazkur fikrlar esa yoshlar psixologiyasiga oid bugungi kundagi eng sara quvvatlantiruvchi g'oyalarni asosi, poydevori deyish mumkin. "Amaliy fazilatlar va amaliy san'at (kasb-hunar)lar va ularni bajarishga odatlanish masalasiga kelganda, bu odat ikki yo'l bilan hosil qilinadi: bulardan birinchisi – qanotbaxsh so'zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so'zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g'ayrat, qasd-intilish harakatga aylantiriladi".

G'arb olamining fitrati o'laroq, o'tgan asrning birinchi yarmida Zigmund Freyd, Karl Yung, Karen Xorni, Avraam Maslou va Karl Rojers kabi shaxs psixologiyasining tom ma'nodagi ulkan ijodkorlari yashab ijod etganlar.

Fanlar taraqqiyotida integrallashuv jarayoni doimo muhim o'rin tutgan. Tilshunoslik va ruhshunoslik fanlarining o'zaro ta'sirlashuvi sohalar rivojida ijobiy ta'sir etgani holda oraliq soha lingvopsixologiya yoki psixolingvistikaning yuzaga kelishiga turtki bergan. Ayniqsa, bu o'rinda tildagi psixologik qarashlarning ildizini Boduen de Kurtenening fonema haqidagi nazariy qarashlaridan, xususan, fonemani "tovushning psixik ekvivalenti" ekanligi e'tirofidan qidirish maqsadga muvofiq bo'lardi. Tilshunos olim A.Nurmonovning ta'kidlashicha, Boduen de Kurtenening "1917-yilda

nashr etilgan “Tilshunoslikka kirish” asarida fonema inson psixikasida barqaror mavjud boʻlgan tovush tasavvuri, soʻzlovchi ongida yashovchi model sifatida izohlanadi”.

Zamonaviy tilshunoslikda inson ruhiyati va uning nutqiy faoliyat bilan oʻzaro taʼsiri masalasi shuning uchun muhimki, “...psixolingvistika tilning oʻzaro koʻp sonli rivojlanishi va faollashish omillarini “klassik” umumiy tilshunoslikka qaraganda atroflicha koʻrib chiqqa oladi va shu bilan birga oxirgi xulosalarga nisbatan tadqiqot predmetini sezilarli darajada kengaytiradi” . Biz dunyoni amaliyotda qoʻllaydigan tilimiz orqali anglaymiz. Boshqacha aytganda, tilimiz tafakkurimizning inʼikosi hisoblanadi,

Shu sabab ham til jamiyat va inson ruhiyati bilan chambarchas bogʻliq hodisa, deya taʼkidlanadi. Yuqorida taʼkidlaganimiz, ijtimoiy psixologiyaning yorqin namoyandalaridan D.Mayers tili bilan aytganda: «Ijtimoiy voqelik - bu biz sub'ektiv ravishda quradigan narsadir». Darhaqiqat, ruhimiz olamni qanday anglasa, uni aqlimizga va tilimizga uzatadi, tilimiz shuni soʻzlaydi, shuni toʻgʻri deb tasdiq etadi. Aslida, biz anglagan olam asliyat boshqacha boʻlishi ham mumkin (boshqa shaxs koʻzglasida oʻzgacha gavdalanishi) va biz uni parda ortidan koʻrmaganimiz tufayligina (ruhiy holatimiz bunga yoʻl bermagan boʻlishi mumkinligi) ham biz anglagan holda deb bilganimiz bir narsaning turli talqini sifatida baholanishi mumkin. Tildagi bir vaziyatni turlicha talqin etilishi, rang-barangligi inson ruhiyati va ijtimoiy qarashlari bilan uygʻunlashganidan dalolatdir. Misol uchun, sizga quvonchli boʻlib tuyulgan voqelik, shu daqiqaning oʻzida kimgadir qaygʻuli boʻlishi va u haqida bayon qilinish kerak boʻlsa, bir xil hodisaning ikki xil talqini paydo boʻlishi ham gʻayritabiiy emas. Tajribalarda koʻp bor oʻquvchilarga 3-4 gapdan iborat bir xil mavzudagi, bir xil shartlardagi jumla tuzish topshirigʻi berilgandagi turli – bir xil boʻlmagan natijalar buni tasdiq etadi. Inson dunyoqarashi va bilimi, ruhiy holatining tilda yaqqol aks etishi tilshunoslik va ruhshunoslik fanlari orasiga koʻprik tashlaydi.

Shu bilan birga quyidagi jumlar ham fikrimizni mantiqiy davom ettiradi: “Har qanday odamning nutqi har doim maʼlum bir hissiy holat fonida sodir boʻladi, bundan tashqari, bizning his-tuygʻularimiz koʻpincha suhbat mavzusiga aylanadi. Shu munosabat bilan, biz his-tuygʻularni qanday shakllarda ifodalashimiz va ularni ifoda etish muloqot uchun qanchalik foydali yoki zararli ekanligini muhokama qilishimiz kerak”. Olimning fikrlarida jon bor, albatta. Inson nutqining maʼlum bir hissiy holat fonida sodir boʻlishi kundalik holatdagi muloqotlarda ham, ish jarayonida ham tez seziladi. Shuning uchun ham nutqimizda, “Eʼtibor berma, bugun kayfiyati yomon” yoki “Falonchiga qattiq tegmang, u betob”, “Yaqindagina boshidan falon musibat oʻtdi”, ish jarayonida esa “Boshliqning kayfiyati qanday?” tarzidagi jumalarga duch kelishimiz

tasodif oqibati emas, albatta. Yaqin qoʻshnisining holidan xabar olgani chiqqan qoʻshning suhbat, albatta, qoʻshning ruhiy holatiga moslab tuzilgan nutqdan boshqa narsa boʻlmaydi”. Barcha jumlar uni kayfiyatini koʻtarish, dalda berish, qoʻllab-quvvatlash ssenariysiga qurilgan boʻladi. Bu vaziyatda nutq tashabbuskori aqlga emas, hissiyotlarga eʼtibor qaratadi va “tinglovchi”ning barcha reaksiyalariga oʻzini xayrixohdek tutadi. Garchi “tinglovchi”ning ushbu reaksiyalari “soʻzlovchi” uchun maqbul boʻlmasa ham. Bunday “oldindan reja qilingan nutqning bosh mezoni ruhiy holat va unga qaratilganligi bilan boshqa nutqlardan tubdan farq qiladi. Shu maʼnoda, bunday nutqlarni “ruhiyat nutqlari” deb atash mumkin boʻlsa, ularni alohida holda olib oʻrganish ham mumkin. Sababi bu nutqlarda, real voqelikni aks ettirish biroz orqaga chekinadi va bu chekinish yaxshilikka va muloqot ishtirikchilarining foydasiga xizmat qiladi. Misol uchun quyidagi muloqotga eʼtibor qarataylik: (holat yaxshi emas, lekin uning asl holini yashirish orqali maqsadga erishish).

Sherdil maktabga chaqirib kelgan samandar qarshisiga koʻzlari qizarib chiqdi.

– Nima boʻldi, yigʻladingmi?

– Yoʻq, oʻzim.. koʻzim ogʻriyapti, – xushlamay javob berdi Sherdil.

– Meni aldab boʻpsan, yigʻlagansan, – qoʻymadi Samandar ham.

(Sabo va Samandar. Ulugʻbek Hamdam, 47-bet)

Yoki:

– Aka, qoʻrqib ketyapman!

– Qoʻrqma, nimadan qoʻrqasan?

– Aka, sen qoʻrqmaysan-a?

– Yoʻq, men hech narsadan qoʻrqmayman?

Shu mahal qizgina oyogʻi allaqanday ildizga ilashib yiqilib tushdi. “Voy, oʻlay”, deb hadik va qoʻrquv aralash oʻsha zahoti akasiga qaradi. Aka ortiga qaramay ketib bormoqda.

(Shamolli kecha. Asarlar. I jild. Isajon Sulton, 217-bet)

Mazkur vaziyatdagi muloqotni davomini kuzatar ekanmiz, akaning singlisi oldida “yolgʻon (real voqelikka zid maʼlumot berayotganining) guvohi boʻlamiz.

– Aka, akajon!..

Yigitcha yoʻqdan bino boʻlgan qoʻrquvini engishga urinardi-yu, shu shamol ostida chayqala-chayqala, tizzalari dir-dir qaltirab qadam tashlar edi. Jonholatda yugurib qochgisi kelardi. (Shamolli kecha. Asarlar. I jild. Isajon Sulton, 219-bet)

Bu holatlar tilda hali kam oʻrganilgan jarayon deb hisoblashimizga asoslar bor. Oʻzbek tilshunosligida psixolingvistik tadqiqotlar koʻlami keng emas va u maʼlum bir oʻzanni qamrab olishni reja ham qilmaganligi tadqiqotlar salmogʻining kamligidan ham maʼlum. Lingvopsixologiyaning vazifasi sirasiga bugungi kunda ana shu masalalar, yaʼni bir kishi nega

aynan bu tarzda gapirdi? Boshqa tarzda, boshqa ohang yoki boshqa uslubda emas yoki uzoq va qisqa, aniq yoki noaniq gapirishdan ko'zlangan maqsad nima? Qaysi uslub va ohang nimalarning darakchisi? Qaysi yoshda va qaysi jinsdagilar muloqoti qanday omillarga bog'liq? Ular nutqiga nimalar to'siq yoki hamrohlik qiladi? Qaysi ijtimoiy mavqe va darajalarda yoki kasb va hunar vakillari nutqida nimalar va qanday aks etadi, nega erkaklar va ayollar nutqining zalvori va ohori turli vaziyatlarda turlicha yuk tashiydi. Begonalar bilan muloqot qilganda nimalarga ahamiyat qaratish kerak? Nega ba'zan aytmoqchi bo'lgan fikrimizni yuzma-yuz ayta olmaganimizda uni qog'ozda aks ettirib tinglovchiga yuborsak, yumshoqlik kasb etadi, nega ijtimoiy va milliy an'analarga o'zimiz bilmagan holda tayanib fikr bildiramiz, degan savollar kirishi shubhasizdir.

Tanish va notanish til egalarining bir hodisaga qarashi turlicha bo'lishi bu til dunyosining turlicha ekanligidandir. Har bir kishini o'rab turgan til dunyosi uning yoshlikdan ko'nikkan, foydalangan yoki uning eng yaxshi ko'rgan tili bo'lishi mumkin (2-3 tilli insonlarda). Masalan, rus olimi P.Belyanin rus tilidan ko'ra ingliz tilida ko'proq muloqot qilayotgani va bu u uchun qulayligini shunday yozadi: "Keyingi paytlarda men uchun rus tilidan ko'ra ko'proq ingliz tilida muloqot qilish qulayroq, chunki ingliz tilida qo'shimchalar, suffikslar, ma'no ottenkalari beruvchi elementlar kamroq va bu menga asosiy mohiyatga hech qanday kayfiyat va baholashlardan holi tarzda diqqat qaratishimga imkon beradi".

Lingvopsixologiyaning o'rganish obyekti uchun birgina misol, yuqorida nomi keltirilgan olim fikricha, ayol va erkak kishining ovozida katta farqlar mavjud bo'lib, "o'rtacha vazndagi erkak ovozi chastotasi 120 gersni, o'rtacha vazndagi ayol ovozi chastotasi 195 gersni, 10 yoshli bolaniki 220 gersni, chaqaloqning ovoz chastotasi 440 gersni tashil etar ekan. Shuning uchun ham chaqaloq yig'isi baland bo'lganligidan u odamlarga tezroq ta'sir ko'rsatadi va ba'zan vahima tuyg'usini oson uyg'otadi. Ayniqsa, samolyotdagi parvozda bu holat juda vahimali va salbiy hissiyotlarni uyg'onishiga olib kelar ekan". Olimlar kuzatishicha, ovoz tembrining ta'siri qaysi jins vakilini ekanligiga ko'ra ham muhim farqlarni keltirib chiqarar ekan va uning insonlarga ta'siri quyidagi hollarda ko'p kuzatilgan.

Madaniyat va san'atga oid xabarlarni ayol kishi o'qisa ta'sirliroq va ishonchliroq va yoqimliroq hisoblanar ekan.

Har qanday millat vakillarida g'alaba, yutuq,

biror muvaffaqiyat haqidagi xabarlarni erkak kishi o'qisa, shiddatliroq va viqorliroq va faxr tuyg'usini uyg'otuvchiroq chiqishiga hech kim shubha qilmasa kerak.

Motam, o'lim haqidagi xabarlarda ham erkak kishining ovozi ta'sirliroq bo'lganidan, ko'p hollarda ularga yuklatilar ekan; sharqda, xususan Markaziy Osiyoda jarchilar, xabarchilar, asosan, erkak jinsiga mansub bo'lgan.

Televideniya mashhur shaxs yoki siyosat va davlat arbobi vafotini, odatda, erkak kishilar o'qishini ko'p bor guvohi bo'lganmiz. (Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning motami haqidagi matnini yodga olish mumkin).

Bugungi kunda uy-ro'zg'or buyumlari savdo va reklama olamida, asosan, ayollar ovozidan ko'proq foydalaniladi (Masalan, "Uzum market"da xonanda Shahzoda ovozidan va mineral suv reklamasida Sevara Nazarxon ovozidan, kir yuvish nashinasi va muzlatgich reklamasida aktrisa Yulduz Rajabova ovozidan).

Sport sohasidagi yangiliklarda ham, asosan, erkak kishining ovozi muvaffaqiyatli chiqishi, ayniqsa, futbol va kurashda yaqqol seziladi.

Umumiy holda, erkak kishining ovozi ishonchni, barqarorlikni ifodalasa, ayol kishining ovozi xayrixohlikni, bo'ysunishni, yumshoqlikni ifodalaydi.

Shu bilan birga inson nutqining tavsifi va bahosi bu uning o'zining tavsifi va bahosi ekanligiga shubha yo'q. Ovoz, nutq, nutqning tembri, keskinligi, baland-pastligi va kuchi bu shaxsning ruhiyati darakchisidir. Bu holat faqatgina tashqi tomondan tuyulsa-da, aslida nutqning ichki mazmuni bilan usluksiz ravishda bog'langan bo'ladi. Kayfiyatsiz odam qancha o'z holatini yashirishga urinmasin, nutqida bu holat sezilmay qolmaydi. Yoki baxtli insonning xushchaqchaq ovozi uning sir tutgan narsasini sotib qo'yishi mumkin. Ustoz sifatida har gal o'quvchilarimga til ilmidan saboq berar ekanman, "so'zlar sotqin, ular siz haqingizda xabar beradi, shuning uchun ogoh bo'lib so'z qo'llang", deyishni kanda qilmayman va ularni ustoz tomon ba'zan qiziqish, ba'zan xo'mraygan, ba'zan tabassumli nigoh bilan boqishlarini ko'z oldimga keltiraman. Shu turfa boqishlarni o'ziyoq, bir tadqiqot uchun mavzu bo'la olishini aytib, yana bir bor ularni xushyor torttiraman.

Xulosa qilib shuni aytmoqchimanki, o'zbek tilshunosligida psixolingvistik va sotsiolingvistik tadqiqotlar ko'lami hali ochilmagan qo'riq yer kabi keng yastanib yotgan manzildir. Ana shu manzil sari qiziqarli sayohatga o'tlanaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Белянин В.П., Шкуратова И.П.. Диалоги о человеке говорящим и пишущим. - Санкт-Петербург, «Речь», - 2011. - С. 26.
2. Майерс Д. Социальная психология. – 2002. - С. 24. <https://vshp.pro/wp-content/uploads/2020/04/Majers-Devid.-Sotsialnaya-psihologiya.pdf>.
3. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари (“Лингвистика” йўналишидаги магистрлар учун ўқув қўлланма). – Андижон, 2006. – 182 б.
4. Румий Ж. Ичингдаги ичингдадур. – Тошкент, “Янги аср авлоди”. 2013. – 240 б.
5. Хайруллаев М. Уйғониш даври ва шарқ мутафаккири. Т., “Ўзбекистон”, 1971. – 310 б.
6. Internet manba: <https://tapemark.narod.ru/les/404d.html>.
7. Султон И. Асарлар. Ҳикоялар. 1-жилд. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2017. – 388 б.
8. Ҳамдам У. Сабо ва Самандар. – Тошкент, “O‘zbekiston”, 2011. – 352 б.

Saodat SAIDAKBAROVA,

Dotsent, Tashkent Davlat Sharqshunoslik universiteti

INGLIZ VA O‘ZBEK IJTIMOY MULOQOTIDA KODLASH USULLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida ijtimoiy muloqotda kodlash va dekodlash usullarining lingvistik tahlili olib borilgan. Turli tillarda ijtimoiy muloqotni o‘rganish muhimligi va ingliz va o‘zbek tillarini o‘rganishning o‘ziga xos ahamiyati ega. Tadqiqotning savollari, maqsadlari va ahamiyati ushbu tillarda kodlash va dekodlash usullarini tahlil qilish uchun zamin yaratib, tildan foydalanish va muloqotdagi madaniy ta’sirlar haqida potentsial tushunchalarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: kodlash, dekodlash, madaniyat, kod, lisoniy, nolisoniy, ijtimoiy.

Annotation: in this article, a linguistic analysis of coding and decoding methods in social communication in English and Uzbek languages was carried out. It emphasizes the importance of learning social communication in different languages, and the special importance of learning English and Uzbek languages. The research questions, aims and significance lay the groundwork for the analysis of encoding and decoding methods in these languages, providing potential insights into cultural influences in language use and communication.

Key words: encoding, decoding, culture, code, linguistic, non-linguistic, social.

Аннотация: в данной статье проведен лингвистический анализ методов кодирования и декодирования в социальной коммуникации на английском и узбекском языках. Подчеркивается важность изучения социального общения на разных языках, а также подчеркивается особая важность изучения английского и узбекского языков. Вопросы, цели и значение исследования закладывают основу для анализа методов кодирования и декодирования на этих языках, обеспечивая потенциальное понимание культурных влияний на использование языка и общение.

Ключевые слова: кодирование, декодирование, культура, код, языковой, нелингвистический, социальный.

Kirish qismi: Ijtimoiy muloqotda kodlash va dekodlashning umumiy nazariyasi ijtimoiy kontekstda xabarlarini tuzish va sharhlash jarayonini tushunishga asoslangan. Ushbu kontseptsiya turli xil elementlarni o‘z ichiga oladi: til, og‘zaki bo‘lmagan belgilar, madaniy me‘yorlar va til egalari ma‘lumotni qanday yetkazishi va sharhlashiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy omillar. Ijtimoiy aloqa kontekstida kodlash jo‘natuvchining g‘oyalari, his-tuyg‘ulari yoki niyatlarini ifodalash uchun til, imo-ishoralar va boshqa kommunikativ vositalardan foydalangan holda xabarni shakllantirish jarayonini anglatadi. Xabar yuboruvchilarning kodlash jarayoniga ularning e’tiqodi, madaniy kelib chiqishi va muloqotning ijtimoiy konteksti ta’sir qiladi. Demak, jo‘natuvchining lingvistik tanlovi, og‘zaki bo‘lmagan belgilar va umumiy

muloqot uslubi turli xil ichki va tashqi omillar ta’sirida shakllanadi.

Asosiy qism: Atoqli tilshunos Roman Yakobson (Roman Jakobson) muloqat nazariyasiga katta hissa qo‘shgan. Yakobsonning eng e’tiborga molik xizmatlaridan biri uning muloqot modelini ishlab chiqishi bo‘lib, u ijtimoiy o‘zaro munosabatlarda tilning ko‘p qirraliligini ta’kidlaydi. “Tilshunoslik va poetika” (Linguistics and Poetics) nomli maqolasida Yakobson “tilning olti funktsiyasi” tushunchasini kiritdi, bu tilning muloqotda o‘ynaydigan turli rollarini tushunish uchun asos yaratadi. (Newton, 1997) Tilning oltita funktsiyasi orasida kodlash va dekodlash nazariyasiga tegishli bo‘lgan ikkita asosiy funktsiya havola va emotsional funktsiyalardir:

1. Yo'naltiruvchi funksiya (Referential Function): Yakobson tilning murojaat funktsiyasini tilning faktik ma'lumotlarni yetkazish va tashqi dunyoga murojaat qilish funktsiyasi sifatida ifodalaydi. Ushbu funksiya havola yoki denotativ tarkibga ega bo'lgan xabarlarni uzatish va qabul qilish bilan bog'liq. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, havola funktsiyasi dunyo haqidagi ma'lumotlarni uzatish maqsadida xabarlarni kodlash va dekodlashga qaratilgan. Masalan, The cat is on the mat (Mushuk gilamchada) kabi oddiy almashinuvda so'zlovchi mushukning joylashuvini yetkazish uchun xabarni kodlashi va tinglovchi, o'z navbatida, tasvirlangan fazoviy munosabatlarni tushunish uchun ushbu ma'lumotni dekodlaydi.

2. Hissiy funksiya (Emotive Function): Tilning emotsional funktsiyasi nutqning ekspressiv tomoniga tegishli bo'lib, nutq so'zlovchi yoki yozuvchining hissiy holati, munosabati va niyatlariga e'tibor beradi. Bu funksiya tilning so'zlovchining his-tuyg'ularini, kayfiyatini yoki shaxsiy ifodalarni yetkazishdagi rolini anglatadi, muloqotning sub'ektiv o'lchovini ifodalaydi. Masalan, I'm thrilled to hear the good news! (Xushxabarni eshitganimdan xursandman!) kabi bayonot emotsional funktsiyaga misol bo'la oladi, chunki u so'zlovchining hayajonlanish hissiy holatini va yangiliklarga shaxsiy munosabatini bildiradi. Tinglovchi so'zlovchining his-tuyg'ulari va munosabatini tushunish uchun xabarning emotsional funktsiyasini dekodlaydi.

Madaniyatshunoslikning yetakchi arbobi Styuart Xoll (Stuart Hall) xabarlarni talqin qilishda madaniy va ijtimoiy kontekstlarning vazifasini ta'kidlab, kodlash va dekodlash nazariyasiga hissa qo'shgan sotsiolingvist bo'lib u o'zining "Kodlash/dekodlash" (Encoding/Decoding) nomli maqolasida xabarlarni talqin qilishni shakllantirishda madaniy va ijtimoiy kontekstlarning roli ustivor bo'lgan modelni taklif qildi va natijada aloqa va ma'no yaratishning murakkab dinamikasini tushunishimizga yordam berdi (Hagen, 1995). Xollning kodlash va dekodlash modeli, bu jarayon xabarlarni jo'natuvchidan qabul qiluvchiga to'g'ridan-to'g'ri uzatish emasligini ta'kidlab, aloqaning an'anaviy qarashlarini shubha ostiga qo'yadi (Shaw, 2017). Buning o'rniga, u xabarlarni talqin qilish ma'lum bir madaniy kontekstning hukmron mafkuraviy tuzilmalarida va odamlar tomonidan ushbu kontekstda qo'llaniladigan talqin qilish strategiyalarida chuqur ildiz otganligini ta'kidlangan.

Hall modelining asosiy elementlari: 1. Kodlash:

Xabarlar jo'natuvchilar tomonidan hukmron mafkuralar va kuch tuzilmalari ta'sirida muayyan ijtimoiy va madaniy doirada kodlangan. Kodlash jarayoni neytral emas; u jo'natuvchining o'ziga xos madaniy va ijtimoiy mavqei, shuningdek, jamiyatda keng tarqalgan hukmron nutqlar va mafkuralar bilan shakllanadi.

2. Dekodlash: Xabarlarni dekodlash qabul

qiluvchining madaniy va ijtimoiy joylashuvi kontekstida sodir bo'ladigan faol va murakkab jarayon. Dekodlash nafaqat jo'natuvchining mo'ljallangan ma'nosi, balki qabul qiluvchining e'tiqodi, tajribasi va sharhlash strategiyalari bilan ham ta'sir qiladi. Shunday qilib, odamlar o'zlarining noyob madaniy kelib chiqishi va qarashlari asosida xabarlarni turlicha dekodlashlari mumkin.

Madaniy va ijtimoiy kontekstlarning o'rni:

Xabarlarni talqin qilish madaniy va ijtimoiy kontekst bilan chuqur vositachilik qilishdir. Bu xabarlarning kodlanishi va dekodlanishini shakllantiradigan hukmron mafkuralar, kuch dinamikasi va madaniy me'yorlarning ta'sirini o'z ichiga oladi. Irq, jins, sinf va millat kabi kontekst omillari talqin qilish va ma'no yaratishning murakkabligiga hissa qo'shadi beradi.

Devid Berlo, muloqot nazariyotchisi, aloqa jarayonida kodlash va dekodlash masalalarini hal qiluvchi, Sender-Message-Channel-Receiver (Yuboruvchi-Xabar-Kanal-Qabul qiluvchi) (SMCR) aloqa modelini taqdim etdi. Berlo ushbu modelda xabarni kodlaydigan manbaning va qabul qiluvchining uni dekodlashining ahamiyatini ta'kidlab, samarali muloqotda umumiy ma'no va tushunish zarurligini ifodalagan. (Das, 2023)

Berloning SMCR modeli samarali aloqada jo'natuvchi tomonidan kodlash jarayoni va qabul qiluvchi tomonidan dekodlash jarayonining ahamiyatini ta'kidlaydi. Model umumiy ma'no va tushunish zarurligini ta'kidlaydi, chunki muvaffaqiyatli muloqot jo'natuvchining xabarni samarali kodlash qobiliyatiga va qabul qiluvchining xabarni to'g'ri dekodlash qobiliyatiga bog'liq. Berloning asoslari shaxslararo va tashkiliy aloqaning kengroq kontekstida xabarlarni kodlash va dekodlash bilan bog'liq murakkabliklar haqidagi tushunchamizni shakllantirishda muhim rol o'ynadi. Tilshunoslikning yetakchi namoyandasi Noam Xomskiy (Noam Chomsky) generativ grammatika va tilni o'zlashtirishni o'rganishga urg'u berib, kodlash va dekodlash nazariyasiga hissa qo'shgan. Xomskiyning generativ grammatika kontseptsiyasi lingvistik xabarlarni kodlash jarayonini tushunishda muhim rol o'ynadi. Xomskiy nazariyasiga ko'ra, bola o'z ona tilining grammatik qoidalari va tuzilmalarini tushunish va o'zlashtirishga imkon beradigan lingvistik ma'lumotlarini dekodlaydi. (Smith, 1975) Bola ulg'aygan sari o'z fikr va g'oyalarini til tizimining generativ qoidalardan foydalangan holda grammatik jihatdan tashkil etilgan lingvistik xabarlarga kodlash qobiliyatini rivojlantiradi. Nensi Frishberg (Nancy Frishberg), sotsiolingvistika va nutq tahlili bo'yicha taniqli olim, og'zaki bo'lmagan muloqotni kodlash va dekodlashni tushunishga katta hissa qo'shgan. (McKee, 2001) Uning imo-ishora tilini tahlil qilish bo'yicha ishi vizual-imo-ishorali aloqa tizimlarida kodlash va dekodlash jarayonlarini shakllantiradigan

madaniy va ijtimoiy omillarni o'rgangan.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy muloqotda kodlash va dekodlashning umumiy nazariyasi ijtimoiy kontekstda xabarlarini shakllantirish, uzatish va talqin qilishning murakkab jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Ushbu asos til, og'zaki bo'lmagan belgilar, madaniy me'yorlar va ijtimoiy omillarning muloqot jarayoniga ta'sirini ko'rib chiqadi va samarali shaxslararo va madaniyatlararo muloqot uchun umumiy tushunish va o'zaro tushunish muhimligini ta'kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Das, B. (2023, December 30). Berlo's SMCR Model of Communication: Advantages and Disadvantages. StudyMassCom.com.
2. Hagen, I. (1995). Stuart Hall: Encoding/decoding. Norsk Medietidsskrift, 2(1), 193–197. <https://doi.org/10.18261/issn0805-9535-1995-01-24>
3. Комилова, Дилдора Шавкатовна БАДИИЙ ТАРЖИМАДА ҲИССИЙ БАҲОЛАШ ЛЕКСИКАСИННИНГ БЕРИЛИШИ (ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИ МИСОЛИДА) // ORIENSS. 2022. №10-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-tarzhimada-issiy-ba-olash-leksikasining-berilishi-ingliz-va-zbek-tillari-misolida>.
4. McKee, C. (2001). The Signs of Language Revisited: An Anthology to Honor Ursula Bellugi and Edward Klima (review). Language, 77(4), 845–846. <https://doi.org/10.1353/lan.2001.0231>
5. Newton, K. (1997). Roman Jakobson: 'Linguistics and Poetics.' In Poetry of Grammar and Grammar of Poetry. (pp. 71–77). https://doi.org/10.1007/978-1-349-25934-2_16
6. Shaw, A. (2017). Encoding and decoding affordances: Stuart Hall and interactive media technologies. Media, Culture & Society, 39(4), 592–602. <https://doi.org/10.1177/0163443717692741>
7. Smith, C. S. (1975). Language Acquisition device. Contemporary Psychology, 20(2), 97–100. <https://doi.org/10.1037/0013088>
8. Parhadjanovna S. S. MASTERING THE ART OF READING: TECHNIQUES AND STRATEGIES TO ENHANCE READING SKILLS //International Scientific and Current Research Conferences. – 2023. – C. 482-485.
9. Abidova Zilola Xabibullayevna. Rejalashtirmoq fe'llarining o'zbek tili izohli lug'atidagi talqini. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. 2024/2/1. bet 28-31
10. Olimjonovna M. Z. COMPOSITIONAL AND STRUCTURAL CHARACTERISTICS OF THE ANECDOTES // European International Journal of Philological Sciences. – 2023. – T. 3. – №. 05. – C. 45-47.
11. Olimjonovna M. Z. ANALYSIS OF ANECDOTES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES //European International Journal of Philological Sciences. – 2023. – T. 3. – №. 05. – C. 90-92.

DilraboXon RUSTAMOVA,

*Andijon davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

ENSIKLOPEDIK LUG'ATNING UMUMIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada ensiklopedik lug'atlarning umumiy xususiyatlari o'rganilib, ensiklopedik lug'atlarning boshqa turdagi lug'atlardan farqli xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, leksikografiyada lug'atlarning tasniflanishiga doir masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: *leksikografiya, ensiklopedik lug'at, lingvistik lug'at, termin, lug'atlarni tasniflash*

Abstract: this article examines the general characteristics of encyclopedic dictionaries and analyzes the characteristics of encyclopedic dictionaries that differ from other types of dictionaries. Moreover, lexicography, issues related to the classification of dictionaries are covered.

Key words: *lexicography, encyclopedic dictionary, linguistic dictionary, term, classifying dictionaries*

Kirish. Ensiklopedik lug'at predmet, shaxs, hodisa, tushuncha haqida u yoki bu so'z bilan izohlanadigan lug'atdir. Bundan farqli ravishda lingvistik lug'atda so'zning ma'nosi va qo'llanishi haqida ma'lumot beriladi. Lingvistik lug'at tabiiy tildagi matnlar tahlili va ularni tizimlashtirish asosida so'zlar ro'yxatini ham aks ettiradi. Ensiklopedik lug'atdan tushuncha ifodalansa, lingvistik lug'atda lisoniy birliklar izohlanadi. Odatda, lingvistik lug'atlar ensiklopedik lug'atlarga qarama-qarshi qo'yiladi. Ammo bu yondashuv doim ham to'g'ri emas. Masalan, fransuz tilida Larousse guruhidagi lug'atlar, ingliz tilidagi Oxford Advanced Learner's Dictionary of Current English lug'ati, amerikalik Webster lug'atlari lingvistik lug'at tipida bo'lib, ensiklopedik xususiyat ham kasb etadi. Mifologik, onomastik (toponim, antroponim, psevdonom lug'atlari), lingvoo'lkashunoslik lug'atlari ensiklopedik va lingvistik lug'atlar o'rtasida "oraliq uchinchi" maqomida .

Ensiklopedik lug'atdan farqli ravishda terminologik lug'at ma'lum bir soha yoki fanga oid terminlarning maxsus tipli glossariysi, bu terminlar faqat ro'yxat shaklida emas, odatda, izohi bilan keltiriladi. Lug'atning alohida bir

tipini ajratish uning tarkibida saqlanadigan ma'lumot mazmuni va shakliga bog'liq bo'ladi.

Asosiy qism. Leksikografiyadagi birinchi masala lug'atlarning tasniflanishi muammosidir: u doim nazariy va amaliy jihatdan ayrim muammolar yechimiga xizmat qiladi. Rus tilshunosligida birinchi bo'lib lug'atlar tipologiya masalasiga L.V.Sherba e'tibor qaratgan. U 6 ta zidlanish asosida o'z tasnifini taqdim etgan. L.V.Sherbaning lug'atlar tasnifi haqidagi fikri hozir ham dolzarbligicha qolmoqda.

1. *Birinchi farqlanish:* akademik tipdagi lug'at / lug'at-ma'lumotnoma. Dastlab akademik tipdagi lug'at yoki normativ lug'at hamda lug'at-ma'lumotnoma haqidagi tasavvurimizni aniqlashtirib olishimiz kerak. Akademik tipdagi lug'at me'yoriy hisoblanib, ma'lum tilning leksik tizimini tavsiflaydi. L.V.Sherba unda hozirgi adabiy tilda qo'llanishga zid keluvchi faktlar bo'lishi mumkin emas, deb hisoblaydi. Akademik lug'atga zid o'laroq, lug'at-ma'lumotnomalar so'z haqida nisbatan kengroq ma'lumotni qamrab olishi mumkin, u ta'riflar adabiy til me'yoriga mos bo'lmasligi, tilning leksik qatlami chegarasiga bo'ysunmaydi.

2. *Ikkinchi farqlanish:* ensiklopedik lug'at / umumiy lug'at. Ensiklopedik lug'at narsa, voqea va reallikni tavsiflash, lingvistik lug'atlar so'zni izohlaydi.

3. *Uchinchi farqlanish:* tezaurus / oddiy (izohli yoki tarjima) lug'ati. Tezaurusda shu tilda mavjud bo'lib, bir marta ishlatilgan so'z bo'lsa ham keltiriladi.

4. *To'rtinchi farqlanish:* oddiy (izohli yoki tarjima) lug'at / ideologik (ideografik) lug'at. Ideologik lug'atda so'zlar tartib bilan berilishi talab etiladi.

5. *Beshinchi farqlanish:* izohli / izohsiz lug'at.

6. *Oltinchi farqlanish:* tarixiy / zamonaviy lug'at.

L.V.Sherbaning keltirilgan tasnifidan ko'rinadiki, olim lug'at materialida ma'lumotning berilishi va boshqa belgilariga ko'ra farqlaydi hamda ensiklopedik lug'atlarni umumiy lug'atlarga zid qo'yadi. Demak, umumiy ravishda, ensiklopedik lug'atlar umumiy lug'atlardan farq qilgan ekan.

Boshqa bir ta'rifda lingvistik va ensiklopedik lug'atlar quyidagicha farqlanadi: "Ensiklopedik lug'atlar tushunchalarni ta'riflaydi, bunda lug'at hajmi va maqsadidan kelib chiqib katta yoki kichikroq ma'lumotlar to'plami keltiriladi. Izohli lug'atlarda lingvistik ma'nolar aks etadi. Ensiklopedik lug'atlarda ko'plab lug'at maqolalarini topish mumkin. Lug'at maqolasining (filologik lug'atlardan farqli ravishda) bosh so'zi atoqli otlardan ham iborat bo'ladi. Quyida ayni bir birlikning ensiklopedik va lingvistik lug'at maqolasidagi izohini keltiramiz:

Ensiklopedik lug'atdagi ta'rif: QUYOSH SISTEMASI – quyosh sistemasining markaziy jismi; Yerga eng yaqin joylashgan yulduz. Unda sistemaning 99,866% massasi ($M_0 = 1,99T033$ g) joylashgan. Q. qizigan plazmali shardan iborat, radiusi $K_0 = 696000$ km. U massasi bo'yicha Yerdan 332958, diametri

bo'yicha 109 marta katta. O'rtacha zichligi $1,41T03$ kg/m³. Yer Quyosh atrofida o'rtacha 29,5 km/sek tezlik bilan cho'ziq bo'lmagan ellipsoid orbita bo'ylab harakatlanadi. Yerning Quyoshdan o'rtacha uzoqligi $149597870 \pm 1,6$ km (astronomik birlik); perigeliyda afeliyga qaraganda 5 mln. km kamroq. Q. sirtidagi tortilish kuchi tezlanishi 273,98 m/sek². Q. sirtidagi effektiv t-ra, uning to'la nurlanishi bo'yicha 5770 K ga teng. Yerni o'z orbitasida ushlab turuvchi kuch $3,6T021$ kg. Q. o'lchamlariga ko'ra o'rtacha sariq yulduz bo'lib, spektr yorqinlik Gertssprung – Ressel diagrammasining o'rta qismidan o'rin oladi. Q.ning spektral sinfi S2U. (davomi bor)

Lingvistik lug'atdagi izoh: QUYOSH 1 (astronomiyaga oid termin sifatida bosh harf bilan) Quyosh sistemasiga oid markaziy jism – o'zidagi termoyadroviy reaksiyalar hisobiga yorug'lik va issiklik tarqatuvchi (chiqaruvchi) ulkan gazsimon shar shaklidagi yoritqich. Yer Quyosh atrofida aylanadi. Quyoshning tutilishi. Raketalar tufayli biz Quyosh sistemasini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ldik. «Fan va turmush».

2 Shu jismdan taraluvchi nur, issiqlik. Quyosh vannasi. Yoz quyoshida qoraymoq. Quyoshga tutmoq. Murod quyosh yoyilganda turdi. T.Ashurov, Oq ot. Uy, quyoshga teskari solinganligidan bo'lsa kerak, bir oz qorong'iroq edi. S.Zunnunova, Olov. Soldatlar qahqahlashib yuborishdi. Ayniqsa, qora qoshli, yuzlari quyoshda pishgan yigit sillasu qurib kulardi. A.Ubaydullaev, Qonli izdan.

3 ko'chma. Nimaningdir hayot, yashash manbai, asosi hisoblanadigan, shunday deb qaraladigan narsa haqida. Baxtu iqbolim suyoshi chiqdi, ko'rsatdi jamol, O'zbekistonda qazildi zo'r kanal, oqdi zilol. Habibi.

Quyosh batareyasi. Yarimo'tkazgichli fotoelementlarga asoslangan, quyosh radiatsiyasi energiyasini bevosita elektr energiyasiga aylantirib beradigan tok manbai. 2005 yil bizga grant asosida YuNESKO tomonidan quyosh batareyasi berildi. Gazetadan.

4 Quyosh (erkaklar ismi).

Yuqorida keltirilgan ikki ta'rifning farqlarini quyidagicha ko'rsatish mumkin. Qiyoslaymiz: ensiklopedik lug'atda "quyosh" tabiat hodisasi sifatida astronomiya, fizika nuqtai nazaridan ta'riflangan. Tushuncha haqida ma'lumot keltirilgan // izohli (lingvistik) lug'atda esa bu so'zning o'z va ko'chma ma'nolari, bosh va ko'p ma'nolari, illyustrativ misollar keltirilgan. Asosan, so'zning ma'nolari ochib berilgan.

Yana shunday ta'riflar ham uchraydi: "Ensiklopediya lug'at emas, uning leksikografiyaga aloqasi yo'q. Uni lug'at deb atashga asos bo'ladigan yagona sabab tushunchalarning lug'atdagi kabi tartib bilan berilishidir". Ammo bugun leksikograflar boshqa nuqtai nazarni qo'llab-quvvatlashadi: "Lingvistik lug'atning asosiy "qahramoni" – so'z; ensiklopedik lug'atning

“bosh qahramoni” narsa, realiya va uning belgilaridir. Tilshunoslar soʻzlarning mohiyatini tavsiflashadi, ularning shakli va maʼnosini izohlashadi, ensiklopediya mualliflari esa zamon/makon va boshqa xususiyatlarga ega boʻlgan borliq va uning predmetlari tizimlashtirishadi. Ammo bu ikki hodisa orasiga devor qoʻyish toʻgʻri emas: tilshunoslar ham narsalarga murojaat qilganidek, ensiklopedistlar ham soʻzga ehtiyoj sezishadi. “Narsa” va “soʻz” orasidagi chegara bizning ongimizdagina mavjud, haqiqatda esa ular oarsidagi farqni hissiy jihatdan sezish qiyin” .

V.P.Petushkov, V.N.Sergeevlarning fikricha, ayrim holatlarda lingvistik akademik lugʻatlarda baʼzi soʻzlar (maxsus leksika) izohini berishda ensiklopedik lugʻatga xos belgilar ham uchrab turadi. Tadqiqotchilar bunday yondashuvni muvaffaqiyatsiz deb baholashadi. Har bir lugʻatda oʻzining xususiyatidan kelib chiqqan taʼriflash usulini qoʻllash yaxshi natija beradi. Bunday akademik lugʻatlarda maxsus soʻzlarning “filologik” usulda izohlanishi termin maʼnosini ochishda qusurlar borligini koʻrsatadi . Izohli lugʻatlarda ensiklopedik lugʻatga xos taʼrifni keltirish notoʻgʻri yondashuv deb hisoblaymiz. Bu holatni yuqoridagi jadvalda keltirilgan misol izohida ham kuzatish mumkin. “Quyosh” soʻzining astronomiyaga oid termin ekanligi taʼkidlangan va termining ilmiy taʼrifi keltirilgan. Bizningcha, izohli lugʻatlardagi taʼriflar ommabop boʻlgani maʼqul. Aniqroq aytganda, adabiy til leksikasini taʼriflashda umumxalq tilidan foydalanish maqsadga muvofiq va filologik lugʻatlar mana shunday tuzilishi kerak. Ammo tilimizga yangi kirib kelgan terminlarning izohli lugʻatlarning soʻzlliligiga kiritilishi maxsus lekiskani ham izohlash majburiyatini keltirib chiqaradi. Buning uchun filologik lugʻatlarda maxsus leksikani izohlash metodikasini ishlab chiqish talab etiladi.

V.P.Petushkov, V.N.Sergeevlar “О классификации словарей” sarlavhali maqolasida lugʻat va ensiklopediyalarni farqlash, tasniflash haqida shunday yozadi: “Avvalo, lugʻat soʻzligi va izohini yaratishdan oldin lugʻatni oʻqiydigan auditoriya belgilab olinishi

lozim. Negadir filologik lugʻatlar oʻrta maʼlumotli kishilarga moʻljallangan degan qarashlar bor. Naqat filologik lugʻatlarning, balki istalgan lugʻatning oʻquvchi auditoriyasi belgilab olish aniq lugʻat qoʻllanmasining vazifalarini shakllantirib olish, leksik materialni taqdim etish usulini belgilashga yordam beradi. Shu sababli lugʻatlarni ilmiy jihatdan tasniflash (potensial imkoniyat, realizatsiyaga nazariy jihatdan t ayyorgarlik) ehtiyoj dolzarbdir .

L.V.Sherba “суммарные словари” – umumiy lugʻatlar (oʻzbekcha tarjima bizniki) degan tushunchani farqlaydi. Olim umumiy lugʻatlar termini ostida BSE, MSE, Ensiklopedik lugʻat seriyasi (tipi)dagi universal nashrlar, fanning kattaroq bir sohasiga bagʻishlangan, oʻziga yaqin, aloqador, kichik sohalarni qamrab olgan lugʻatlarni tushungan. Masalan, katta yoki qisqa tibbiy ensiklopediyalarda anatomiya, psixologiya, farmakologiya, sanitariya va boshqa sohalar qamrab olinadi. Qishloq xoʻjaligiga oid ensiklopediyalarda esa agronomiya, veterinariya, tuproqshunoslik, botanika kabi sohalar qamrab olinadi. Texnikaga oid ensiklopediya texnika fanlari tushunchalarini izohlaydi. Ensiklopediya boʻlishi bilan birga bunday lugʻatlarni “sohaviy lugʻatlar” deb ham atashadi.

Xulosa. Ensiklopedik lugʻat premet, shaxs, hodisa, tushuncha haqida u yoki bu soʻz bilan izohlanadigan lugʻat boʻlsa, lingvistik lugʻatda soʻzning maʼnosi va qoʻllanishi haqida maʼlumot beriladi. Lingvistik lugʻat tabiiy tildagi matnlar tahlili, soʻzlar roʻyxatini aks ettiradi. Ensiklopedik lugʻatda tushuncha, lingvistik lugʻatda lisoniy birliklar izohlanadi. Lugʻatlar farqlanishiga koʻra: akademik lugʻat / lugʻat-maʼlumotnoma (1); ensiklopedik lugʻat / umumiy lugʻat (2); tezaurus / oddiy (izohli yoki tarjima) lugʻati (3); oddiy (izohli yoki tarjima) lugʻat / ideologik (ideografik) lugʻat (4); izohli / izohsiz lugʻat (5); tarixiy / zamonaviy lugʻat (6) kabi turlarga ajratiladi. Termin aniq va konkret ifoda usuliga ega boʻlishi zarur, noaniqlik, mavhumlik terminga xos emas. Shu sababli terminologik lugʻatning axborot manbai darslik, ensiklopediya, ilmiy nashrlardan iborat boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Берков В.П. Заметки об определениях терминов в филологических и энциклопедических словарях / Проблематика определений терминов в словарях разных типов. Под. ред. С.Бархударова, В.Петушкова, Ф.Сороколетова. – Ленинград: Наука, 1976. – 267 с. – С.
2. Журавлев Ф.В. По поводу определений в формальной логике, в сборниках рекомендуемых терминов, терминологических стандартах, толковых словарях и энциклопедиях / Проблематика определений терминов в словарях разных типов. Под. ред. С.Бархударова, В.Петушкова, Ф.Сороколетова. – Ленинград: Наука, 1976. – 267 с. – С.
3. Кутина Л.Л. Термин в филологических словарях (к антитезе: энциклопедическое – филологическое) / Проблематика определений терминов в словарях разных типов. Под. ред. С.Бархударова, В.Петушкова, Ф.Сороколетова. – Ленинград: Наука, 1976. – 267 с.
4. Петушков В.П., Сергеев В.Н. О классификации словарей / Проблематика определений терминов в словарях разных типов. Под. ред. С.Бархударова, В.Петушкова, Ф.Сороколетова. – Ленинград: Наука, 1976. – 267 с.
5. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20Q.pdf

Manzura ASHIRMATOVA,
ToshDAU o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti

QISHLOQ XO'JALIGI TERMINLARI TEZAVRUSINI YARATISH

Annotasiya: ushbu ilmiy maqolada qishloq xo'jaligi terminlari tezavrusini yaratishning muammo va yechimlari ochib berilgan. Qishloq xo'jaligi terminlari tahlili keltirilgan lug'atda tezavrus yaratish texnologiyasidan foydalanib, dars jarayoniga qo'llashni tadbiiq etish sifatli ta'lim olishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Maqolamizda qishloq xo'jaligi terminlari tezavrusini yaratishda qilingan tadqiqotlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, termin, tezavrus, texnologiya, ta'lim olish, omillar, terminologiya

Аннотация: в данной научной статье раскрываются проблемы и пути решения создания тезавруса сельскохозяйственных терминов. Использование технологии создания тезавруса в словаре, включающего анализ сельскохозяйственных терминов, применение ее в учебном процессе является одним из важных факторов качественного образования. В нашей статье рассказывается о проведенных исследованиях по созданию тезавруса сельскохозяйственных терминов.

Ключевые слова: сельское хозяйство, термин, тезаврус, технология, образование, факторы, терминология

Abstract: this scientific article reveals the problems and solutions of creating a thesaurus of agricultural terms. Using the technology of creating a thesaurus in the dictionary, which includes the analysis of agricultural terms, applying it to the teaching process is one of the important factors of quality education. Our article talks about the research done in creating a thesaurus of agricultural terms.

Key words: agriculture, term, thesaurus, technology, education, factors, terminology

Barchamizga ma'lumki, globallashib borayotgan bugungi zamonda ta'lim jarayoniga bir qator zamonaviy atamalar jadal sur'atlar bilan kirib kelmoqda. Ayniqsa, sohalarida terminologiya va texnologiya bilan bog'liq fanlarda bu holat ko'p kuzatiladi. Dasturlash tilini o'rganish jarayonida terminologik lug'atdan foydalanish – talabalarning yangi mavzuni o'zlashtirish jarayonini tezlashtiradi va ta'lim sifatini oshiradi. Tezavrus tilning lug'atiga mumkin bo'lgan "kirish nuqtalari" sonini kengaytiradi va shu bilan leksikaning semantik makonining o'lchamini oshiradi: majburiy alifbo kiritish bilan, shubhasiz, hech qanday lug'atni tasavvur qilib bo'lmaydi va bu lug'atni ta'minlaydi. "so'z" dan "tushuncha" ga (yoki "belgi" dan "tushuncha" ga) o'tish, buning uchun konstitutsiyaviy kirish "tushuncha" yoki "mavzu" orqali amalga oshiriladi, ya'ni "tushuncha" dan o'tish imkoniyatini ham ta'minlaydi. Tezavrusning amaliy ahamiyati aynan "tushuncha" - "belgi" munosabatlarining pragmatik jihatida, so'z, ibora yoki atamani eng samarali izlash imkoniyatida ifodalanadi. Chet tilini o'rgatishda tezavrusning atamaviy jihatidagi ahamiyati ham juda kattadir. O'quv jarayonida bir yoki ko'p tilli terminologik tezavrusdan foydalanish talaba uchun o'rganilayotgan fan sohasi tushunchalarining yaxlit tasavvurini yaratishga yordam beradi.

Hozirgi vaqtda axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan fanning turli sohalarida tobora ko'proq axborot-qidiruv tezavruslari va terminologik ma'lumotlar banklari yaratilmoqda. Keling, Internetda erkin mavjud bo'lgan va ekologiya va atrof-muhit huquqi terminologiyasini o'z ichiga olgan frantsuz tilidagi bir nechta elektron nashrlarni ko'rib chiqaylik. Tahlil tezavrus tuzilishi, terminologiyani qamrab olishning to'liqligi va tezavrusning ushbu fanlar terminologiyasini

o'rganishdagi ahamiyati nuqtai nazaridan amalga oshirildi.

Grafik asosida terminologik tezavrus yaratish ikki qismidan iborat bo'lib, sahifaning yuqori qismida qidiruv panelini joylashtiramiz. Foydalanuvchilar orasida osongina termini toppish masalasi tegishli lug'at yozuvi ta'rifining mavjudligi bilan aks ettiriladi.

Ushbu tezavrus uzilmas tuzilmasiga va universal xarakterga ega bo'lib, turli huquq manbalarini tartibga solish, qonunchilik, huquqshunoslik va huquq nazariyasi haqida ma'lumot olish imkonini beradi. Tezavrus huquqning barcha sohalarini o'z ichiga oladi.

Tezavrus hamma uchun ochiq; u amaliyotchi yuristlar, noshirlar va davlat amaldorlariga turli huquqiy hujjatlarni va ma'lumotlar bazalaridagi har qanday huquqiy ma'lumotlarni umume'tirof etilgan tarzda tasniflashda yordam berish uchun yaratilgan.

Tezavrusning daraxtga o'xshash tuzilishi uning mualliflari tomonidan tanlangan huquqqa analitik yondashuvni aks ettiradi, bu esa ushbu nashrni oddiy, alifbo bo'yicha atamalar ro'yxatidan ajratib turadi. Tezavrusning tuzilishini yaratishda asosiy qonunchilik matnlari asos bo'lib, ular tematik guruhlarini va ularning mazmunini aniqlashni aniqladilar. Ushbu yondashuv taqdim etilgan ma'lumotlarning eng katta ob'ektivligini ta'minladi.

Tezavrus quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi: davlat huquqi, fuqarolik huquqi, protsessual huquq, iqtisodiy huquq, jinoyat huquqi, soliq huquqi, ijtimoiy qonun. Har bir huquq sohasi doirasida alifbo tartibida joylashtirilgan guruhlar ajratiladi.

Biz ko'rib chiqayotgan qishloq xo'jaligi terminologiyasi davlat huquqi guruhiga kiritilgan.

Bunda ko'pgina kichik guruhlardan tashkil topgan terminlar jamlamasi soha darajalari tartibida keltirilgan. Qoida tariqasida, tartib darajasidan ko'p bo'lmagan terminlar, tezaurusning huquqiy hujjatlar klassifikatorini o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tuziladi. Tezaurusning kichik guruhlarining kelib chiqishi bo'yicha har qanday bo'linmalarni o'z ichiga oladi. Tezaurusga terminlarni kiritish usullari mavjud: termin yoki iborani qidirish oynasiga kiritishingiz kerak, bu qidirish usuli alifbo tartibidagi ro'yxat va tematik ro'yxat yordamida yo'lga qo'yiladi. Tezaurus bir qancha tematik guruhni o'z ichiga olgan: mahalliy xalqlar- коренные народы; qishloq xo'jaligi- сельское хозяйство qishloq xo'jaligi; торговля, потребитель, сфера услуг- savdo, iste'molchi, xizmat ko'rsatish sohasi; доходность пред-приятий и их принадлеж-

ность- korxonalar rentabelligi va ularning tegishliligi; дети и молодежь- bolalar va yoshlar. Biz tadqiqot olib borayotgan ilmiy mavzu doirasida "Qishloq xo'jaligi" terminologiyasini tematik guruhlarini ko'rib chiqdik. U kichik guruhlardan tashkil topgan: umumiy tushunchalar, o'simliklar, dala muhiti, o'simlik, tabiiy resurslar. "Umumiy tushunchalar" guruhiga qishloq xo'jaligi terminlarining asosiy atamaları kiradi.

Yuqorida muhokama qilingan tezaurus va qishloq xo'jaligi terminologiyasining tezaurusini modellashtirish uni tashkil etish sohasida ham, bibliografik ma'lumotlar, me'yoriy va boshqa hujjatlar matnlari bilan ishlashni tashkil etishda ham amaliy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Terminologik tezauruslarni yaratish zamonaviy terminografiyaning istiqbolli sohasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pirumova L.N. Qishloq xo'jaligi ma'lumotlar bazalarini lingvistik ta'minlash vositalarining muvofiqdigi masalasi bo'yicha // O'zgaruvchan dunyoda kutubxonalar: yangi texnologiyalar va hamkorlikning yangi shakllari: stajyor. ilmiy konf. Sudak, 2000 yil 3-11 iyun: Konf. - Sudak, 2000. - S. 397-401.
2. M.F.Khakimova, M.Sh.Kayumova. Factors that increase the effectiveness of hybrid teaching in a digital educational environment.-Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems, 2022
3. Yusupova M.A. Linguistic and cultural problems in literary translation and their solution// International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.48047/INTJECSE/V15I1.22 ISSN: 1308-5581 Vol 15, Issue 01 2023
4. Suyarova S. T., Ashirmatova M. J. The process of teaching students to foreign languages at agrarian university //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 6. – C. 683-685.
5. Jumanbaevna A. M. Activity and communication aspects of Russian-speaking competence of a future specialist in agrarian university. – 2022.
6. Ashirmatova M. J. Terminology at agrarian university in Russian language //Theoretical & Applied Science. – 2021. – №. 1. – C. 350-352.
7. Jumanbaevna A. M. Development of oral and written speech in the study of the Russian language in an agrarian university //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 3. – C. 1743-1747.

Go'zal BURXONOVA,

ToshDAU o'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti

TILLARDA AGRAR TIZIMI ATAMALARINING LEKSIKOGRAFIK TALQINI

Annotatsiya: maqolada o'zbek va rus tillarida agrar atamalarining leksikografik talqini roli ko'rsatilgan. Har bir sohaning maxsus atama tushunchalarni nomlash tizimi sifatida qaralib, va ushbu ilmiy maqola agrar atamalarining ifodalash vositasi sifatida ko'rsatilgan. Maqola rus va ingliz tillarida agrar tizimi atamalarini leksikografik jihatdan qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: lug'at, atama, leksikografik jihat, rus tili, o'zbek tili, ta'lim, talqin, tarjima, leksikografik talqin

Аннотация: в статье показана роль взаимного лексикографического толкования аграрных терминов в узбекском и русском языках. Специальный термин каждой области рассматривается как система наименований понятий, а в данной научной статье показан как средство выражения сельскохозяйственных терминов. Статья посвящена лексикографическому сравнительному анализу терминов аграрного строя в русском и английском языках.

Ключевые слова: словарь, термин, лексикографический аспект, русский язык, узбекский язык, образование, интерпретация, письменный перевод, лексикографическая интерпретация.

Abstract: the role of mutual lexicographic interpretation of agrarian terms in Uzbek and Russian languages is shown in the article. The special term of each field is considered as a system of naming concepts, and this scientific article is shown as a means of expressing agricultural terms. The article is devoted to a lexicographic

comparative analysis of the terms of the agrarian system in Russian and English.

Key words: dictionary, term, lexicographic aspect, Russian language, Uzbek language, education, interpretation, translation, lexicographic interpretation

Jahon tilshunosligida til sathlari tizimli munosabatlarini tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Til muloqot vositasi sifatida ijtimoiy funktsiya bajaradi va til birliklarining xususiyatlarini tavsiflash, qo'llanish darajasini belgilash, o'zaro tizimli munosabatlarni tahlil qilish muhimdir. Shu bois, turli genetik asosdagi tillar (rus va o'zbek tillari) da olam manzarasini anglash, idrok etish, lug'aviy birliklar orqali ifodalashga asoslangan lug'atlarni tizimli ravishda tahlil etish madaniyatlararo universal va mental leksikon bilan bog'liq semantik belgilarni aniqlash imkonini beradi. Lug'at tuzish tamoyillarini belgilash tilning kommunikativ funktsiyasi va shaxs omili, lisoniy ong, tafakkur darajasi va idrok etish qobiliyati bilan aloqador xususiyatlarni uyg'unlikda yoritishda dolzarblik kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida lug'atlar tarixi, ularning tizimli munosabatda shakllanishi hamda nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilishni rejalashtirgan loyiha va dasturlar amalga oshirib kelinmoqda. Bunda lug'atlarning jahon miqyosida joriy etilishi va hozirgi zamon talablariga javob beradigan lug'atlardan foydalanishning yangi tizimlarini shakllantirish talab etiladi. Shu jihatdan zamonaviy tilshunoslikda ideografik lug'atlarni yaratish va tasniflashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va takomillashtirish zaruriyati vujudga keldi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida zamonaviy fan, texnika va texnologiyadagi progressiv o'zgarishlar hamda dunyoda ro'y berayotgan globallashuv jarayonlari jahon ilmiy-texnikaviy hamjamiyatlari vakillari o'rtasida axborot almashinuvining rolini oshirmoqda. A.A.Ufimtsevaning adolatli fikriga ko'ra, "leksikografik tizim, boshqalarga qaraganda, tilning aloqa vositasi sifatida ishlashini ta'minlaydi".

Ilmiy bilimlarning integratsiyalashuvi, uning doimiy ravishda kengayishi va chuqurlashishi tilshunoslarning atama muammolariga qiziqishi ortib borayotganini tushuntiradi. Atamalarni boshqarish sohasidagi tadqiqotlarning ahamiyati ayni paytda umumiy adabiy tilda yangi so'zlarning 95% dan ortig'ini maxsus lug'at tarkibidan tashkil etishi bilan ham bog'liqdir.

Mamlakatimiz ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy barqarorligida agrar tizimining muhim roli fan va texnologiyaning ushbu sohasini tadqiqotning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantiradi. Olimlarning e'tibori xususiy atama tizimining rivojlanishining asosiy tendentsiyalari va qonuniyatlarini aniqlash, ilmiy aloqani takomillashtirish va optimallashtirish, ilmiy bilimlarni takomillashtirish natijasida doimiy ravishda rivojlanib borayotgan uning chegaralarini aniqlash, til o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishga qaratiladi.

Atama chegaralangan leksik qatlamga mansub lug'aviy birlik sifatida atama ologik tadqiqotlarning asosiy obyekti, atama ologik lug'atlar yaratishning muhim manbai hisoblanadi. Barcha tillarda mavjud bo'lgani kabi o'zbek tilida ham "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga hozirgi o'zbek adabiy tilida keng iste'molda bo'lgan 80 mingdan ortiq so'z va so'z birikmalarini, fan, texnika, san'at va madaniyat sohaslariga oid atama larni, bir necha shevada qo'llanadigan so'zlarni, ba'zi tarixiy va eskirgan atama larni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy ilm-fan, texnika va ishlab chiqarishning biron bir sohasi ham ularning holati va rivojlanishini bevosita aks ettiruvchi atama ologiyasiz muvaffaqiyatli rivojlana olmaydi. Atama ologiyada aniqlik ilmiy yondashuvning elementar talabi, olim va amaliyotchi atama ologik madaniyatining elementidir. Agar atama larda aniqlik bo'lmasa, nazariyalarni samarali ishlab chiqish va ular asosida amaliy faoliyatni amalga oshirish mumkin emas. So'nggi paytlarda atama ologik tadqiqotlar zanjirining kengayishi va ularning ahamiyatining oshishi atama lar sonining sezilarli darajada ko'payishi bilan bog'liq. Dunyoning ko'plab mamlakatlari olimlari o'rtasidagi hamkorlik kuchayib borayotgan bir davrda ilmiy atama ologiya tilning boshqa sohaslariga qaraganda beqiyos ko'proq kommunikativ funktsiyani bajaradi va nafaqat milliy, balki xalqaro munosabatlarda ham muloqot qilish uchun mo'ljallangan. Maxsus tushunchalarni nomlash tizimi sifatida qaraladigan har qanday bilim sohasi atama lari inson qaysi tilda gaplashishidan qat'i nazar, odamlar ongida mavjud bo'lgan kasbiy xarakterdagi g'oyalarni ifodalashning moddiy vositasidir. Lingvistik atama ologiya atama ologiyaning eng murakkab sohaslaridan biridir.

Biz fonetik atama larni ketma-ket ikki nuqtai nazardan ko'rib chiqamiz:

- 1) tilning leksik tizimiga mansubligi sifatida;
- 2) fonetik tushunchalar tizimiga mansubligi sifatida.

Atama ologiyaning mohiyatini o'rganish va kuzatish natijalarini umumiy adabiy til qonuniyatlarini bilan solishtirish atama ologiya tilning umumiy tizimiga maxsus quyi tizim sifatida, ularning asosiy birliklari – atama va so'z o'rtasida esa – degan xulosaga kelish imkonini beradi.

So'nggi yillarda atama ologiya ilmiy nazariyaning ajralmas elementi va amaliyotchilar faoliyatining chambarchas bog'liqligi sifatida haqli ravishda tan olindi. Bir xil fonetik tushunchani nomlash vazifasini bajaradigan atama larni turli tillarda tahlil qilish va taqqoslash lingvistik atama ologiyaning tizimli tabiatini o'rganish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Tizimlilik muammosi nafaqat nazariy, balki amaliy

ahamiyatga ham egadir. Xususan, atama tizimlarini taqqoslash tarjima lug'atlarini yaratish bo'yicha leksikografik ishlarda, shuningdek, rus va o'zbek tilini o'qitishning uslubiy maqsadlari uchun atama ologik birliklarni tanlashning maqsadga muvofiqligini hal qilishda muhim ahamiyatga egadir. Bu atama texnik atama ning asl kontseptsiyasi va fan va texnika tilining asosiy elementi bo'lib, kasbiy tushunchaning aniq nomi uchun qabul qilingan professional tilning nominativ maxsus leksik birligi (so'z yoki ibora) sifatida belgilanadi. Qolaversa, atama til birligi bo'lib, murakkab shakllanish bo'lgan atama ning qo'llanish shartlari va o'ziga xos maqsadiga qarab tilga mansub bo'lib, uning qonuniyatlariga bo'ysunadi. Atama ning tuzilishi - bu uning tashqi va ichki tomonlarini tashkil etish, maxsus tushunchaning munosabati va uning moddiy lingvistik ifodasidir.

Biz ushbu tadqiqot ishimizda leksikografik jihatdan kasbiy faoliyati natijasi sifatida agrar tizimi faoliyatining atama tizimiga murojaat qilib, bu sohaning ayrim jihatlari hali ham o'zbek va rus tillarida yetarlicha o'rganilmagan. Agrar tizimi leksikografikasi lingvistik jihatdan asosiy va yangi tushunchalarini aniqlash va tahlil qilish, ularning lingvistik va tildan tashqari vakillik darajasida o'zaro ta'sirining kognitiv mexanizmlarini aniqlash, ularning milliy, madaniy va kasbiy xususiyatlarini aniqlash zarurati tug'iladi. Shu munosabat bilan, bir-biriga bog'liq bo'lmagan tillarga – o'zbek va rus tillariga murojaat qilish nafaqat bunday hodisalarning o'ziga xos xususiyatlarini to'liq aniqlashga imkon beradi, balki professional subtilda ham umumiy, ham milliy xususiyatlarni aniqlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Franz Kafka. Process. Tashkent., "Yangi asr avlodi", 2016-448 pages.
2. M.F. Khakimova, M.Sh. Kayumova. Factors that increase the effectiveness of hybrid teaching in a digital educational environment.-Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems, 2022
3. Yusupova M.A. Linguistic and cultural problems in literary translation and their solution// International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.48047/INTJECSE/V15I1.22 ISSN: 1308-5581 Vol 15, Issue 01 2023
4. Bakhtiyarovna Y.G. Degree and relationship of increasing the creative activity of students of technical higher education in the process of teaching foreign languages //American Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2022. – T. 10. – C. 152-156.
5. Yakhoeva G. Retrospective analysis of the development of student's creative activity in education and cognitive activity //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2022. – T. 1. – №. 6. – C. 92-94.
6. Y.G.Bakhtiyorovna Relationship of student activity with creative development in German language lessons - Thematics Journal of Social Sciences, 2021
7. Bazarova U. M. Spiritual and moral education of students in the use of technology in the preparation of future professionals for innovative activities in foreign language classes //Архив научных исследований. – 2022. – T. 2. – №. 1.

Dilnoza JAMOLITDINOVA,
 Qo'qon DPI (DcS).professor
Mohinur QODIROVA,
 QDPI 1 bosqich doktoranti

PARANTEZ BIRLIKLARNING GAP VA MATNGA MUNOSABATI

Annotatsiya: kirish va kiritmalar tadqiqiga bag'ishlangan ishlarning deyarli barchasida parantezalarning so'z, birikma, gap, murakkab butunlik, tinish belgilari shaklidagi turlari mavjud ekanligi ko'rsatib o'tiladi. Parantezalarning asosiy ifoda imkoniyatlarini matn qurshovida o'rganish muhim ahamiyat kasb etishini nazariy jihatdan asoslab beradi.

Kalit so'zlar: kirish, lingvistika, kiritmalar, so'z, birikma, gap, murakkab butunlik, paranteza, semiotika.

Абстрактный: практически во всех работах, посвященных изучению вступлений и вступлений, показано, что существуют виды скобок в виде слов, соединений, предложений, сложных целых, знаков препинания. Теоретически обоснована важность изучения основных выразительных возможностей скобок в контексте текста.

Ключевые слова: введение, лингвистика, вступления, слово, сочетание, предложение, сложное целое, скобка, семиотика.

Annotation: in almost all works devoted to the study of introductions and introductions, it is shown that there are types of parentheses in the form of words, compounds, sentences, complex wholes, and punctuation marks. It theoretically justifies the importance of studying the main expressive possibilities of parentheses in the context of the text.

Key words: Introduction, linguistics, introductions, word, combination, sentence, complex whole, parenthesis, semiotics.

KIRISH. Parantezalarning mazkur turlari esa aksariyat ishlarda, asosan, o'zlari mansub bo'lgan muayyan bir gap doirasida o'rganiladi va parantezalar bilan bilan mazkur gap o'rtasida sintaktik aloqaning yo'qligi yoki qisman mavjudligi turli shakllarda ta'kidlanadi. Paranteza va u kirgan gap orasidagi semantik-grammatik, mantiqiy-shakliy yoki umuman, qandaydir aloqa gap doirasidan tashqariga chiqmagan holda izlanadi. Holbuki, parantezaning haqiqiy sintaktik, kommunikativ, mantiqiy, lingvopoetik mohiyatini gapdan tashqariga chiqmasdan turib tayin etish mahol. Birgina misol, aytaylik, Demak, mehmonlar ertaga keladi gapi tarkibidagi demak parantezasining ma'nosi faqat shu gap doirasida tushunarli emas, shubhasiz, bu gapdan oldin, masalan, Dovon yo'li bugun yopiq ekan yoki Mehmonlar bugun band ekan kabi yoki yana boshqa qandaydir gaplar bo'lishi lozim. Shundagina mazkur paranteza o'z semantikasini namoyon qiladi, ayni paytda faqat muayyan mazmunninggina emas, balki gaplar o'rtasidagi bog'lanishlarning ham ifodachisi, demakki, matn shakllanishining ham o'ziga xos unsuri ekanligi ko'rinadi.

ASOSIY QISM. Matndagi semantik-struktur aloqalarning yuzaga kelishida, umuman, matnning struktur, mazmuniy va kommunikativ yaxlitligining ta'minlanishida parantezalarning o'rnini monografik aspektida o'rgangan A.A.Metsler o'z xulosalaridan birida shunday yozadi: "...Parentez konstruksiyalarni gapdan katta lisoniy birlik bo'lmish matn masshtabida

tadqiq qilish, shubhasiz, katta ustunlikka ega, chunki bunday yondashuv mazkur muammoning turli jihatlarini integral (jamlagan holda) talqin qilishga va shu tariqa parantez konstruksiyalarning real lingvistik maqomini aniqlashga imkon beradi". [1]

Turli tilshunosliklarda parantezalarni xilma-xil jihatlardan tadqiq etishga bag'ishlangan juda katta miqdordagi ilmiy ishlarni tahlil etar ekan, A.A.Metsler bu muammoga oid keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda ko'zga tashlanayotgan asosiy yo'nalishlarni quyidagicha tasniflaydi: "parentez konstruksiyalarning jumlaning asosiy qismi bilan aloqasining xarakteri tahlili va bu aloqaning leksik-semantik va grammatik vositalarini belgilash;

parentez konstruksiyalarning ikki funksional tipini, ya'ni subyektiv-modal (kirish) va obyektiv-izohlovchi (kiritma) tiplarini aniqlash;

parentezani uslub belgilovchilik vazifasi nuqtayi nazaridan o'rganish;

parentezaning pozitsion tamoyil asosidagi tahlili; jumlaning ikki kommunikativ yo'nalishga bo'laklash sabablari va tabiatini aniqlash maqsadida parenteza hodisasini ontologik jihatdan o'rganish;

parentetik kiritmalarning ayrim tiplarini nisbatan keng lisoniy kontekstda tahlil etish;

parentezani notekis nutq semiotikasi aspektida tadqiq etish". [137]

Olim parantez konstruksiyalar yuzasidan bir qator nozik kuzatishlar umumlashtirilgan juda katta

miqdordagi ishlarning mavjudligiga qaramay, muammo hamon o'z yechimini topmayotgani, zero parantez konstruksiyalarning til sistemasidagi haqiqiy o'rni va ahamiyati ochilmay qolayotganini ta'kidlaydi.

Parantezalarni matn lingvistikasi hodisasi deya baholash keyingi yillarda ko'plab olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topdi. Xususan, R.S.Samoletovanning "Matn lingvistikasi aspektida parenteza hodisasi" mavzuidagi ilmiy maqolasi fikrimiz isbotidir. Olima nemis tilidagi parantezalar misolida o'z qarashlarini shakllantiradi. Parantezaning kirituvchi gap bilan o'zaro munosabati hamma vaqt ham yuzada yotavermaydi, reallashishi uchun matniy qurshov darkorligini ta'kidlar ekan, R.S.Samoletova olmon stilisti B.Sovinskinning "Parenteza gapga emas, balki kontekstga mustaqil fikr olib kiradi" degan mulohazalarini keltiradi va quyidagilarni qo'shimcha qiladi: "O'z vazifalarining diapazoni bilan parantezalar deyarli butun matn bo'ylab harakatlanadi, nafaqat matnning tematik rivojini ta'minlaydi, balki uni polisemantik chuqurlashtiradi, shuningdek, unga konnotativ-stilistik bo'yoq nozikliklarini kiritadi". Olima maqola doirasida parantezalarning asosiy ifoda imkoniyatlarini matn qurshovida o'rganish muhim ahamiyat kasb etishini nazariy jihatdan asoslab beradi.

Kiritma konstruksiyalarning lingvistik tabiati, matn kategoriyalarining ifodalanishida ularning o'rni kabi masalalar yuzasidan V.A.Shaymiyevning ilmiy qarashlari e'tiborga molikdir. Olim kiritma konstruksiyalarni faqat qabul qiluvchi gap chegaralarida ko'rish ularning mohiyati uchun yetarli emasligini qat'iy ta'kidlaydi, shu bilan birga kiritmalarning muhim xususiyatlari kengroq lisoniy kontekst fonida tushunarli bo'lishini ilmiy jihatdan asoslab beradi.[3;62]

Ingliz tili materialida parenteza va matn munosabati masalasiga alohida e'tiborni qaratgan ekan, O.V.Aleksandrova shunday yozadi: "Tarkibida parantetik kiritma mavjud bo'lgan alohida olingan gap asosiy hollarda jumladagi fikr predmeti haqida ham, parantetik kiritmaning mazmuni haqida ham to'liq tasavvurning shakllanishini ta'minlay olmaydi. Faqat matn doirasidagina fikr predmeti aniq bo'ladi, parantetik kiritmaning o'zi esa gapdagi aloqalarni uzgan holda, o'z mazmuni bilan tinglovchi/o'quvchi e'tiborini avval aytilgan fikrga ko'chiradi va shu tariqa avvalgi fikrni ayni daqiqada qabul qilinayotgan mazmun bilan bog'lashga (umumlashtirish, xulosa qilish, o'xshashlikni belgilash va h.) imkoniyat yaratadi". Aytish joizki, parantetik kiritmali gap ham, parantetik kiritmasiz gap ham eng oliy kommunikativ birlik bo'lmish matn ichidagina o'zining semantik-struktur, kommunikativ-estetik va boshqa xususiyatlarini to'la namoyon qila oladi, shuning uchun ham har qanday gap matn doirasida o'rganilgandagina to'g'ri ilmiy talqinga erishish mumkin bo'ladi. Zotan, grammatika nazariyotchilari axborot birligi bo'lmish gap nutqda alohida olingan tarzda mavjud

bo'lolmasligini, u boshqa gaplar bilan qo'shib, matn hosil qilishini va matnda inson fikrlashining natijalari qayd etilishini aytib o'tadilar. Muayyan gaplarning bog'lanishligi asosida yuzaga keladigan yaxlitlik matnning muhim belgisi ekanligi dunyo tilshunosligida ko'p bor e'tirof qilingan. Har qanday so'zning ma'nosi aniq bir kontekstda reallik kasb etgani kabi gap ham o'zining chin mazmunini boshqa gaplar bilan munosabatda xolis reallashtira olishini ta'kidlar ekan, M.Yo'ldoshev nemis tilshunosi K.Boostning matndagi gaplar o'rtasidagi munosabat haqidagi quyidagicha mulohazasini keltiradi: "Bir gapdan boshqasiga tortilgan iplar shu qadar ko'p va shunday pishiq to'rni hosil qiladiki, gaplarning chatishishi, ularning yagona to'r sifatida o'rib to'qilganligi haqida gapirish mumkin, chunki har bir alohida gap boshqalari bilan chambarchas bog'langan." [4;86-89] Gap tuzilishidagi turli o'zgarishlarning matn doirasida o'rganilishi zaruriy ekanligi haqida Sh.Safarov shunday yozadi: "Gap tarkibidagi bo'laklar tartibini aniqlash uchun sintaktik tahlilning o'zi yetarli. Gap tuzilishidagi har qanday o'zgarishlar (inversiya, ellipsis va boshqa shakliy o'zgarishlar) va ma'no ko'chishlarining (sintaktik polisemiya, omonimiya kabilar) turlari, ularning yuzaga kelish sabablarini yoritish maqsadidagi tahlil, so'zsiz, matn sintaksisi va pragmatikasi darajasiga ko'tariladi." Ana shu kabi ba'zi muhim mulohazalar asosida yana bir bor ta'kidlash mumkinki, nafaqat gap, balki gaplarga kiritilgan parantezalarni ham matn doirasida ish ko'rmasdan turib, xolis baholash, ularning semantik, struktur va lingvopoetik qimmatini belgilash mushkul. [5;73] Hozircha birgina misolga murojaat etaylik: Nuqul dohiylarni davolagan (Chingizxonu Napoleondan bo'lak – afsuski, bular oldin o'tgan-da, yo'qsa, ularni-da davolagan bo'lardi!) zot uning oyoqlarini juftlab qayish bilan chandib tortadiyu karavot adog'idagi nimagadir qistirib qo'yadi (E.A'zam, "Pakananing oshiq ko'ngli" qissasi). O'tkir kinoya bilan yozilgan asardan olingan misoldagi Chingizxonu Napoleondan bo'lak – afsuski, bular oldin o'tgan-da, yo'qsa, ularni-da davolagan bo'lardi parantezasi ayni gap doirasida o'zining to'liq ma'nosini reallashtira olgan emas. Bu parantezaning semantik-struktur, mantiqiy va badiiy-estetik mohiyatini anglash uchun kengroq matnga murojaat qilish lozim. [6] Xususan, bir necha abzas oldingi quyidagi parcha bilan aloqalantirilganda mazkur parantezaning maqsadi oydinlashadi: Tilmochning ma'lumot berishicha, quriyacha salom bilan hindiycha salomni chalkashtirgan bu zot Kim Ir Senning xolavachchasi emish, vaqti-zamonida Chan Kayshini, Mao Szedunni, hatto Stalinni davolagan. Hitlerni ham davolamoqchi bo'lgan-u, samolyotga patta topolmagan. Qo'li rosa yengil, o'zini Ibn Sinoning shogirdi sanaydi... Bu o'rinda ayni matn misolida yana ikki xususga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq. Avvalo, matn doirasida gaplarning o'zaro bog'lanishida, shuningdek, parantezalarning

asosiy - kirituvchi gap bilan (umuman, boshqa gaplar bilan ham) bog'lanishida gorizontaal va vertikal munosabatlarni farqlash tilshunoslikda ancha keng tarqalgan. Parantez birliklarning matn bloklarini shakllantirishdagi ishtiroki, ya'ni ularning gaplar orasidagi ham gorizontaal, ham vertikal aloqadorlik mavjudligining ko'rsatkichlari bo'lishini hisobga olgan holda parantezalarning matndagi ahamiyatining nechog'lik katta ekanligi ta'kidlanadi. Parantez birliklar tadqiqida mazkur ikki munosabat turi ham inobatga olinishi lozim. Alohida aytish joizki, bunday munosabatlar, ayniqsa, badiiy matnda favqulodda diqqatga sazovor. Shuning uchun ham M.Yo'ldoshev bu munosabat bilan quyidagilarni ta'kidlaydi: "...Ana shu mulohazalardan kelib chiqilsa, so'z yoki boshqa birlikning badiiy matndagi poetik, estetik qimmatini baholash uchun matndan uzib olingan kichik bir parcha yetarli emasligi yanada oydin bo'ladi. Estetik belgining mohiyati sintagmatik yoki kengroq gorizontaal munosabatlarda to'la namoyon bo'la olmas ekan, vertikal munosabatlar ifodasi uchun yetarli bo'lgan yaxlit badiiy matn yoki matnning yirikroq parchasi bilan ish ko'rish zaruriydir." Vertikal munosabatlarni

tasavvur qilish uchun yaxlit badiiy matn yoki matnning yirikroq parchasi lozim ekanligi haqidagi bu fikrga to'la qo'shilish mumkin. Ammo ayrim tadqiqotchilar bunday munosabatning voqelanishini parantez birlikning faqat oldingi kontekst bilan aloqasi doirasida cheklab qo'yadilarki, bunday qarash anchayin munozaralidir. Parantez birliklarning matndagi vertikal aloqalari oldingi kontekst bilan ham (bu holat kengroq tarqalgan), keyingi kontekst bilan ham bo'laverishi mumkin.

XULOSA. Paranteza o'zi kirgan jumla tarkibida ikki xil yo'nalishdagi mazmuniy-kommunikativ planlarning ifodalanishiga imkon beradi.[7] Boshqacha qilib aytganda, paranteza bir nuqtayi nazardagi fikrni, asosiy gap esa boshqa nuqtayi nazardagi fikrni ifodalaydi, ana shunday ikki farqli kommunikativ yo'nalishdagi fikr ifodasi bir gap yoki matn doirasida birlashadi, jamlanadi. Bu o'rinda parantezalarning matn shakllantiruvchilik xususiyati yana bir karra namoyon bo'ladi. Parantezali gaplardagi bunday imkoniyat, ya'ni murakkab mazmundan tashqari turli nuqtayi nazarlarni jamlash imkoniyati badiiylikni ifodalash, lingvopoetika uchun benihoya katta ahamiyatga ega ekanligini aytish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 2-jild (Lingvistik ta'limotlar tarixi). Toshkent:
2. Sosyur F. Umumiy tilshunoslik kursi. 1916. – B.137.
3. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – B.62.
4. Xojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Ўzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – B.86-89.
5. Sa'farov Ш. Til qurilihi: ta'lim metodlari va metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007. - B.73;
6. Rahmatullayev SH. Sistem tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Universitet, 2007.
7. Qo'chqortoyev I. F.de Sosyurning lingvistik konsepsiyasi. – Toshkent, 1976.

Navruz IMAMOV,
Samarqand davlat chet tillar instituti "Ingliz filologiyasi"
kafedrasida mustaqil izlanuvchisi

INGLIZVA O'ZBEK TILLARIDA TUGALLANGANLIK ASPEKTUAL SEMANTIKANI SHAKLLANTIRUVCHI TEMPORAL ADVERBIALLARNING IFODALANISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida tugallanganlik adverbiallar o'zlarining vaqt kechimi ma'lum vaqt oralig'idagi ish harakatni ifodalashi bilan ajralib turishi ifodalangan. Tugallanganlik natijasi ma'lum bir vaqtda saqlanib qoladigan tugallangan hodisani bildirish uchun ham qo'llaniladi.

Kalit so'zlar: aspekt, vaqtinchalik, aspektuallik, temporallik, dietik, aspektual ma'no, kuzatuv nuqta, perfektiv, imperativ, morfologik komponent, semantik komponent.

Аннотация: в данной статье утверждается, что дюративные адвербиали в английском и узбекском языках отличаются тем, что их длительность выражает действие в течение определенного периода времени. В английском языке длительность расширено, морфологические показатели определяются как продолжительность движения.

Ключевые слова: аспект, темпоральность, аспектуальность, темпоративность, диэктика, видовое значение, точка наблюдения, перфективный, императивный, морфологический компонент, семантический компонент.

Abstract: this article argues that durative adverbials in English and Uzbek languages differ in that their duration expresses an action over a certain period of time. In English, the meaning of duration is expanded; morphological indicators are defined as the duration of movement.

Key words: aspect, temporality, aspectuality, temporativity, diectics, aspectual meaning, point of observation, perfective, imperative, morphological component, semantic component.

Kuzatuv nuqtasi aspektni ko'pincha grammatik jihat deb ataladigan fikrga mos keladi: Bu voqea-hodisa kechishini anglatuvchi birlik o'rtasidagi farqni grammatikalashtirish usuli bilan bog'liq amalga oshiriladi. (Xydopilos 1995:118). An'anaviy ravishda voqea-hodisa kechimini kuzatuv nuqta turi mavjud: Perfektiv va Imperfektiv. K.Smit (1997) ularning xususiyatlarini quyidagicha umumlashtiradi: Perfektivga tegishli kuzatuv nuqta aspekti vaziyatni to'liq, shu jumladan, boshlang'ich va yakuniy nuqtalarning ikkalasini ham qamrab oladi.

Imperfektiv kuzatuv nuqtali aspekt vaziyatning bir qismiga, shu jumladan, boshlang'ich yoki yakuniy nuqtalarga emas, voqea-hodisalar kechimiga qo'llaniladi.

Perfektivlik va Imperfektivlik farqiga kelsak perfektivlik muddatning yo'qligi yoki chegaralangan xususiyatli xarakterini o'z ichiga oladi, holbuki, imperfektiv aniqlovchi xususiyatga nisbatan aniqlanmagan hodisa sifatida tavsiflash kerak. Aksincha, imperfektiv vaziyatning kechimidagi harakatning vaqtinchalik tuzilishiga ishora qiladi.

Aspekt morfologik, semantik va sintaktik realizatsiyaga ega. Uning morfologik, semantik va sintaktik xususiyatlari ko'plab tilshunoslarga tomonidan keltirilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, ko'pincha morfologik va semantik komponent ba'zilar chalkashtirib yuborishadi. Lekin ularni aniq ajratib

ko'rsatish kerak. Chunki ikkala komponent ham aspekt turini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ingliz tili zamon talqinlarida zamoni morfologik ko'rsatkichlari fe'l shakllari bilan belgilanadi. Ammo hozirgi zamon morfologik jihatdan aniq mustaqil grammatik ko'rsatkichlari mavjud bo'ladi, hozirgi zamoni nutqda qo'llanilishining turli semantik ifodasi, mazmun farqlanishi kuzatiladi. Bu bevosita qo'llaniladigan fe'llarning leksik ma'nosidan tashqari vaziyat turiga bog'liq ekanligini kuzatishimiz mumkin. Perfekt jihat uchun belgilangan og'zaki shakl, ehtimol hozirgi zamon sifatida zamon xususiyatlarining kamligi natijasi sifatida talqin qilinadi. Hozirgi zamon, shunday qilib hech qanday morfologik zamon spetsifikatsiyasi mavjud bo'lmaganda "standart" talqin sifatida ko'rib chiqiladi.

K.Smit (1991) fikriga ko'ra, perfekt anglatadigan vaziyatning yakuniy nuqtasidan tashqarida bo'lgan harakat yoki vaziyatning ta'siri ham kuzatiladi. Mazkur hol kontekst semantikasi sanaladi. Ko'rinadiki, morfologik jihatdan faqat perfekt va imperfektivni ajrata olamiz. Perfekt fe'l harakatning turgan nuqtasini ifodalovchi ko'makchi fe'l (have) va fe'lning shaxssiz shakli bilan yasaladigan perfektiv tushunchaga nisbatan qo'llaniladi. (Xydopolus 1995:130).

Perfektivning morfologik xususiyati kuzatuv nuqta aspektida anglashiladigan perfektiv ma'noda farq qiladi. Vaziyat turi "fe'l va fe'l iboralarini o'ziga xos

aspektual xususiyatlariga ko'ra tasniflash bilan bog'liq (Xydopolus 1995;118). Bu borada Vendler (1957;1967) ingliz tili uchun eng maqbul tasnifni taqdim etdi. U tomonidan amalga oshirilgan fe'llarning aspektual tasnifi ular bildiradigan hodisa turiga asoslanadi. U fe'llarning ichki tuzilishini tekshiradi. Quyi hodisalar, ketma-ket bosqichlar va uni tashkil etuvchi boshlang'ich va oxirgi tugagan nuqtalar e'tiborga olinadi. Ular vaqt bilan o'zaro bog'liq bo'lib, fazalar ketma-ketligida o'zgarishlarni tasvirlashda foydalaniladi. Bunda o'sha o'zgarishlarni belgilovchi vaqt ko'rsatkichlariga e'tibor qaratiladi. Vendlerning fe'llarining faoliyat, tugallanish natija tasnifi va holati quyidagicha ta'riflanadi.

a) faoliyat fe'llari vaziyatlarni vaqt o'tishi bilan ketma-ket bosqichlardan iborat bo'lgan holda kodlaydi.

b) tugallanish fe'llari ham vaziyatlarni ketma-ket bosqichlarga ega bo'lishini tavsiflaydi, lekin ular faoliyatdan o'ziga xos yakuniy nuqtani kodlashi bilan farq qiladi (masalan, uy qurishda terminal nuqtasi va natija turi ma'lum vaqt davomida o'zgarish orqali erishiladigan natija).

c) Muvaffaqiyatga erishish fe'llari (ozgina, fe'l frazalari) xuddi (recognize a friend, do'stni tanimoq), (reach the top, yuqoriga chiqish) kabi muvaffaqiyatga erishish fe'llari vaziyatni o'z vaqtida va bir zumda kodlashini bildiradi. Ular shunday qisqa vaqt ichida sodir bo'ladiki, ular bir lahzalik sifatida qaraladi.

d) Holat fe'llari xuddi (know- bilmoq, wont- istamoq, be sleep-uyquda bo'lmoq) kodlangan fe'llari

bir xil holatlarni o'z ichiga olgan va tugallanmagan yakuniy nuqtaga ega bo'lmagan holatlardir. Holat fe'llari vaqt o'tishi bilan o'zgarimaydigan va aniq yoki ko'rsatmaydigan vaziyatlarni tasvirlash bilvosita, vaziyatning boshlanishi yoki tugallanishi hisoblanadi. Haqiqat shundaki, ularning o'zgarimasligi ularning boshqa turdagi vaziyatlardan asosiy farqidir. Ko'rinib turganidek, ularning barchasi o'zgarishlarga ishora qiladi, lekin atamalar jihatdan bir-biridan farq qiladi.

Aspektual hodisalar tahlilida qator terminlarni uchratish mumkin. Jumladan, Verkyul aspektual hodisalar tahliliga eventuality ya'ni ehtimoliy tugallangan hodisa atamasini kiritgan bo'lsa. Karlotta Smit esa hodisa turlari, hodisa strukturasi event types va event structure atamalarini kiritadi. Karlotta Smit tomonidan taklif etilgan hodisa turlari event types ma'lum jarayon process hamda culminated process ya'ni jarayonning kulminatsion nuqtasi kabi hodisalarni qamrab oladi. Mazkur hodisalar ma'lum vaqt jarayonida cho'zilgan yoki davom etgan hodisalarga ishlatiladi. Harakatning lahzalik yoki ma'lum bir voqea hodisaning ma'lum lahzada amalga oshirilishi esa points yoki culminations atamasi bilan yuritadi. Karlotta Smit tomonidan taklif etilgan states ya'ni holat atamasi ham bo'lib, bu ko'proq subyekt yoki voqea hodisaning ma'lum bir holatda bo'lishini nazarda tutadi. Karlotta Smit yuqorida qayd etilgan voqea hodisalarni kategoriyalashni quyidagi sxema yoki jadvalda ko'rsatib beradi.

	EVENTS		STATES
	Atomic	Extended	
+ consequent state	culmination	culminated process	
- consequent	point	process	

Past simple va introduktiv bo'lgan jumlar ma'lum bir vaqt davomida davom etgan harakatning distributiv to'plamini ko'rsatadi. Buni fe'l shaklining o'zi ko'rsatadi va shuning uchun vaqtni ko'rsatadigan ravishlar, odatda, qo'shimcha ma'no berishga xizmat qiladi. Yakuniy tugallanganlik ma'nosidagi fe'llar va ravishlar ish-harakatning to'liq yoki qisman tugallanishining qamrovini ifodalaydi. Bunda yaxlitlik, to'liqlik **for a moment, for two hours** kabi temporal ravishlar va fe'l semantikasida hosil bo'ladi.

Ushbu misoldagi **for a moment, for two hours** ravishlar va shuningdek, "optimal yoki to'liq qiymat" ma'nosi bilan birlashtirilgan fe'llardan iborat. Bu semantik xususiyat ushbu harakat boshlangan chegaraga erishishni ko'rsatadi. Noaniqlik ma'nosini bildiruvchi birikmalar harakatning to'liq emasligini

bildiradi.

Masalan: You can't have ; he dead all over the place. Although Stanton, a member of Lincoln's cabinet, kept his dead wife **for nearly a year.**" (Saul Bellow *Humboldt's Gift*, 239).

H.J.Verkuylning ta'kidlashicha, aspekt zamondan farq qiladi. Perfektiv fe'l ish-harakat yoki jarayonning vaqtga nisbatan tugallanishini bildiradi. U faqat eng oddiy holatlarda o'tgan zamoni bildiradi. Xuddi shunday, imperfektivlik faqat eng aniq holatlarda davom etayotgan jarayonni bildiradi. Voqea-hodisalar takrorlanishi esa qo'shimcha temporal vositalar qo'llanganda mavjud bo'ladi. Shuningdek, takrorlanish imperfektiv ham, perfektiv ham bo'lishi mumkin. Shunday qilib, perfektiv fe'llar o'tgan voqealarni, shuningdek o'z vaqtida va natijaviy hodisalarni,

imperfektiv fe'llar esa progressiv va doimiy hodisalarni yoki jarayonda tugamaydigan hodisalarni ko'rsatishga moyildir. Biroq ma'lum bir kontekstda perfektiv yoki imperfektivlikning paydo bo'lishi uchun ushbu ikki xususiyatlar to'plamining hech biri muhim emas. Masalan, kelajakdagi hodisani perfektiv, o'tmishdagi voqeani esa imperfektiv deb ko'rish va tasvirlash emas, xuddi shunday perfektiv kuzatish nuqtasidan taqdim etilgan voqea doimiy yoki progressiv bo'lishi mumkin. Imperfektiv kuzatish nuqtasidan taqdim etilgan voqea natijali bo'lishi mumkin. Masalan: It had suffered a kind of crystalline internal hemorrhage). Appalled, I **nearly broke down**, I felt like swooning. (Saul Bellow *Humboldt's Gift*, 19).

Ma'lum bir hodisa boshlanishi va oxiri, o'rta qismi (davom etuvchi yoki o'zgaruvchanligi) keyingi natija yoki holat o'zgarishiga ega bo'lishi mumkin. Bunday jarayon hodisani turli bosqichlari hisoblanadi. Ushbu voqea haqida individual bosqichlarning har birini kuzatish nuqtasidan gapirib o'tishimiz mumkin va uning ingliz va o'zbek tillarida bu farqlarini ifodalash uchun flektiv belgilardan foydalanish mumkin. Bunday belgilar hodisani vaqtinchalik tarkibidagi farqlarni bildirganligi sababli biz ularni aspekt toifasiga tegishli

Foydalanilgan adabiyotlar

1. C. S. Smith Modes of Discourse // The Local Structure of Texts. -Cambridge University Press, 2003. -P.336.
2. Z.Vendler Linguistics in philosophy. (Verbs and times). - New-York: Cornell university press, 1967. -P. 97-121.
3. H.J.Verkuyl A theory of aspectuality: the interaction between temporal and atemporal structure. -Cambridge University Press, 1993.
4. B.Comrie Aspect: An Introduction to the study of verbal aspect and related problems. -Cambridge University Press, 1976.

Iqlima JO'RAYEVA,
O'zbekiston Davlat Jahon tillari
universiteti o'qituvchisi,

EVFEMIZMLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI TAHLILI (ingliz va o'zbek tillari misolida)

Annotatsiya: bu maqolada evfemizmlarning kelib chiqish tarixi, qo'llanilish o'rinlari va maqsadiga oid ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi evfemizmlarning lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilinadi va unga doir misollar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *evfemizm, evfemistik vositalar, lingvokulturologiya, lingvokulturologik yondashuv.*

Аннотация: в данной статье представлена информация об истории эвфемизмов, месте их использования и назначении. Также в статье анализируются лингвокультурные особенности эвфемизмов в английском и узбекском языках и анализируются их примеры.

Ключевые слова: *эвфемизм, эвфемистический инструментарий, лингвокультурализм, лингвокультурный подход.*

Abstract: this article gives information about the history of euphemisms and their practical purposes. Moreover, the article analyzes the linguocultural characteristics of euphemisms in English and Uzbek languages and provides examples in both languages.

Key words: *euphemism, euphemistic phrases, linguoculturology, linguocultural approach.*

Kirish. Barcha tillarda suhbat jarayonida xushmuomalalik qoidalariga to'liq rioya qilgan holda so'zlashish suhbatning ijobiy yo'sinda davom etishiga yordam beradigan asosiy omil hisoblanadi. Bu usul asrlar davomida

muvaqqatli muloqotning eng xavfsiz va samarali usuli bo'lib kelgan. Ana shu kamtar va yoqimli so'zlar tilshunoslikda "evfemizmlar" atamasi bilan qo'llanadi. Evfemizmlar nutqda qo'pol, qattiq yoki yoqimsiz so'zlar o'rnida ishlatiladi. Evfemizmlarning nutqda qachondan beri qo'llanilayotgani aniqlanmagan bo'lsa-da, ular qadimgi yunonlar orasida ishlatilganligi haqida dalillar mavjud. Qadimgi Yunoniston xalqi odamlar bilan gaplashganda yoki Xudolariga murojaat qilganda, yomon va qo'pol so'zlar o'rniga ularning "yumshoq" variantini ishlatishni boshlaganlar. Masalan, ular qamoqxonani "xona", jallodni "jamoat odami" va g'azablangan Xudolarni "Eumenidlar" yoki "muhtaram ma'budalar" deb atashgan [etymonline.com/word/euphemism].

Bundan tashqari, bu atama yunoncha "euphemos" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "xayrli" yoki "yaxshi" degan ma'noni anglatadi. "Yaxshi" degan ma'noni anglatuvchi yunoncha "eu" - prefiksi euphemosning birinchi elementidir. Ikkinchi element "phēmē", yunoncha so'z bo'lib, "nutq" degan ma'noni anglatadi va "gapirmoq" degan ma'noni anglatuvchi "phanai" fe'lidan olingan [Merriam Webster, n.d.]. So'zning kelib chiqishi shuni ko'rsatadiki, evfemizmlar muloqotda uzoq vaqtdan beri ishlatilgan, chunki bu salbiy fikrlarni yanada optimistik ko'rinishga olib keladi.

Ma'lumki, til va madaniyat – uzviy aloqador hodisa. Har bir xalqning o'ziga xos xususiyatlari, urf-odati, madaniyati, birinchi navbatda, tilida aks etadi. Evfemizmlar ham lingvomadaniy jihatdan qiyosiy tadqiqotning asosiy obyekti sifatida qaraladi. Tilda mavjud bo'lgan hodisalar – maqol, matal, frazeologizm, tasviriy ifoda, o'xshatish, jumladan, tadqiqotimiz obyekti bo'lgan evfemizmlar hosil bo'lishi o'sha xalqning tarixi, etnogenezi, madaniyati va taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq.

Lingvokulturologiya tilshunoslik, etnolingvistika, pragmalolingvistika va kognitiv tilshunoslik bilan birgalikda rivotlanayotgan tilshunoslik bo'limidir. Millat madaniyatini aks ettiruvchi juda ko'p turli xil so'zlar mavjud bo'lib, ular ma'lum bir elatning turmush tarzi, mentaliteti, dunyoqarashi, milliy xarakteri, urf-odatlarini, e'tiqodlarini, tizimlarini qadriyatlar, ijtimoiy xulq-atvor turlarini anglatadi. Lingvokulturologiya – tilshunoslik va kulturologiya kesishuvi asosida paydo bo'lgan murakkab ilmiy yo'nalish. U madaniyat bilan tilning o'zaro bog'liqligi va ta'sirini, tilni madaniyatning fenomeni sifatida o'rganadi. Bu – milliy til prizmasi orqali dunyoni ma'lum darajada ko'rish, tilning ma'lum millat aql va madaniyati orqali namoyon bo'lishi. [1: 13]

Asosiy qism. Ingliz va o'zbek tillaridagi evfemizmlar xilma-xil bo'lib, turli xil ma'noviy guruhlariga bo'linadi. Biz qiyosiy tahlil uchun murojaat va o'lim bilan bog'liq evfemizmlarni lingvokulturologik jihatdan tahlil qilamiz.

Murojaat bilan bog'liq evfemik vositalar. Oilaviy munosabatlarda ikki til orasidagi farq yaqqol ko'zga

tashlanadi. Masalan, o'zbeklarda oilada erining yoki xotining o'z ismi bilan murojaat qilinmaydi. Agar to'g'ridan-to'g'ri ismini aytib chaqirilsa, bu behurmatlik sanaladi. Shu sababdan ham, 'turmush o'rtoq, jufti halol, umr yo'ldosh, bular, onasi, dadasi, bu kishim' kabi evfemistik vositalardan foydalaniladi. O'zbek madaniyatida er – oila boshlig'i, xotin uning ismi bilan murojaat qilishi – tabu. Shu o'rinda er ham xotinini ismi bilan chaqirmaydi. Gender evfemalardan foydalanishi bu madaniyatning yuqori ko'rinishlaridan biri sanaladi. Olim A.Omonturdiyev er-xotin farzandlarining nomi bilan atalishini ham evfemalashtirishning bir ko'rinishi sifatida baholaydi. [2: 50] Demak, tushunchalar, jumladan, murojaat atamalarining yuqoridagidek tabulashish va evfemalashish jarayonlari nutqning etik-etetik, ya'ni uzoq davom etib kelayotgan muayyan udum, rasm-rusm, axloqodob talabi asosida yuz beradi. Bu holatni ham o'zbek oilalarida ko'p uchratish mumkin. Mana shu gender evfemalar orqali o'zbek xalqida oilaning o'rni muhimligi, er-xotinning bir-biriga cheksiz hurmati, hech qaysi millatga o'xshamaydigan murojaat shakllari bo'y-basti bilan namoyon bo'ladi. Bunga misol qilib, A. Qodiriyning 'O'tkan kunlar' asaridan olingan quyidagi parchani keltirish mumkin. Choyini ichib bo'lg'andan keyin qutidor fotiha o'qib o'rnidan turdi:

- Men senga aytib qo'yay, Kumush, - dedi turar ekan qutidor Oftob oyimga, - bu kunga bir mehmon aytkan edim. Cho'ringni chiqarib mehmonxonani tozalat. Anovi yangi qoplag'an ko'rpalarini ber, tanchaga o'shani yopsin (Abdulla Qodiriy 'O'tkan kunlar').

Ushbu matnda madaniy munosabatlarga doir evfemizmlar o'z ifodasini topgan. Keltirilgan matn parchasida o'zbek xalqi madaniyatiga xos bo'lgan "qayta nomlash" funksiyasi mavjud. Bu hodisa metonimiya asosidagi ma'no ko'chishi natijasida yuz beradi. Qayta nomlash er-xotin munosabatlarida kuzatiladi. Er-xotin bir-birlariga farzandlarining ismi bilan murojaat qilishgan. Bu esa o'ziga xos me'yor, odob-andisha, hurmat belgisi sanalgan. Mazkur evfemizmda yana bir jihat ko'zga tashlanadiki, bu holat milliy mental xususiyat bilan bog'liq. Qutidor Oftoboyimga yuzlanib "Kumush" deb (qizining nomi bilan) murojaat qiladi. Agar kitobxon o'zbek millatiga mansub bo'lmasa, bu holatni Mirzakarim qutidorning avval Kumushga (qiziga), keyin esa Oftob oyimga (xotiniga) murojaat qilgan deya tushunadi. O'zbeklarda er-xotin munosabatida o'ziga xos qadriyat mavjud. Er va xotin bir-birining ismini aytib chaqirishi mumkin emas – bu hurmatsizlik belgisi hisoblangan. Eng yaxshi usul: farzandning (odatda, to'ng'ich farzandning) nomi bilan atash hisoblangan. Keltirilgan matn parchasida Mirzakarim qutidor "Kumush" deb Oftoboyimga murojaat qilayotganini bilish uchun kitobxondan lingvokulturologik bilim talab etiladi ya'ni kitobxon

asar muallifi mansub bo'lgan bo'lgan xalqqa xos qadriyatlarini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

O'lim bilan bog'liq evfemik vositalar. Ingliz va o'zbek tillarida "o'lim" ma'nosini beruvchi evfemistik vositalarni lingvo-madaniy jihatdan tahlil qilsak. Endi bu evfemizmlarni misollar bilan ko'rib chiqsak.

A strapping lad like Cliffy Benton to be smashed up and put out of his life, and all the parsons can do about it is stuff religion down y'r throat, and try to make y' believe Cliffy's gone to glory: 'God knows best.' [K. Prichard. "Golden Miles"].

Patrick Henry has already gone to his long home; Samuel Adams was soon to follow. [Ch. Beard and M Beard. "The Rise of American Civilisation"] (Patrik Genri allaqachon narigi dunyoga ketgan; Tez orada Samuel Adams unga ergashdi.).

Odam esa gunohu savobning o'rtasida, kuni bitganini bilmay, narigi dunyoga rihlat qiladi. [N. Qobil, „Unutilgan sohillar“].

Odam esa gunohu savobning o'rtasida, kuni bitganini bilmay, narigi dunyoga rihlat qiladi. [N. Qobil, „Unutilgan sohillar“].

Kampir uyga kirganu, shu qisqa fursat ichida choli to'shakka beozor cho'zilganicha, omonatini topshirib qo'rganining guvohi bo'lgan. ["Yoshlik"].

Ikki tilda keltirilgan misollardan ikki madaniyat vakillari tillaridagi evfemistik vositalarda aks etgan lingvo-madaniy xususiyatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, ikki tildagi evfemizmlar ham qo'rquv hissi asosida yuzaga kelgan. Insonlar 'o'lmoq' so'zini tilga olishsa, bu marhumning boshqa yaqinlariga yoki o'zlarining yaqinlariga ham xavf solishidan qo'rqishgan. Ingliz tilidagi 'to go to glory – sharaflilik makonga ketmoq', 'to go one's last/long home – so'nggi/oxirgi manzilga ketmoq' va o'zbek tilidagi 'u dunyoda rihlat qilmoq', 'narigi dunyoga ketdi' evfemizmlariga e'tiborni qaratsak. Ingliz tilidagi evfemistik vositalarda ijobiylik ma'nosi kuchli, 'glory – sharaf, home – uy' so'zlari evfemizm tarkibida qo'llangan. Ammo o'zbek tilida har ikkala misolda ham neytrallik kuchli, 'dunyo' so'zi qo'llanilgan. Bunga sabab, ikki madaniyat o'rtasidagi farq, ya'ni inglizlarda din tushunchasi o'zbeklarga qaraganda ancha yengil qabul qilinadi. Ular qanday hayot yashab o'tishmasin, o'lgandan so'ng, yaxshi hayotga erishishga ishonadilar, shuning uchun ham 'sharaf yoki uy' so'zlarini evfemistik vositalar uchun tanlashgan. O'zbeklarda esa islom diniga ko'ra, inson yaxshi yoki yomon amallarga qarab jannat yoki do'zaxga loyiq ko'riladi. Shu sababdan

ham, evfemistik vositalarda ham neytral 'dunyo' so'zi qo'llangan.

Yana bir qiziqarli jihat shundaki, yuqorida keltirilgan evfemistik vositalar faqat islom va xristian dinlari asosida emas, balki boshqa diniy qarashlar asosida ham paydo bo'lgan. Masalan ingliz tilidagi, 'to pay one's debt to nature – tabiatga bo'lgan qarzini to'lamoq' evfemizmi. Misolda "Xudo" so'zi o'rnida 'tabiat' so'zi ishlatilgan. Bu esa panteizm diniy ta'limotiga tegishli g'oyadan kelib chiqqan. Panteizm— xudo bilan tabiat bir narsa, ular bir butunni tashkil qiladi deb hisoblovchi diniy va falsafiy ta'limot. [Wikipedia.org] O'zbek tilidagi xuddi shu ma'nodagi evfemizm mavjud bo'lib, bu evfemizm islom dini asosida vujudga kelgan. 'Omonatini topshirdi' ya'ni insonning hayoti unga Xudo tomonidan berilgan omonat ya'ni qarz deya qaralgan va inson o'lgach u qarzini topshirdi degan evfemistik vosita vujudga kelgan.

XULOSA. Ingliz tilidagi evfemistik vositalar, asosan, suhbat jarayonida tinglovchiga biror fikrni yetkazish mobaynida so'zlovchiga ko'proq yengillik berish maqsadida paydo bo'lgan. Mulozamat qilish ingliz madaniyatiga yot tushuncha, chunki ingliz madaniyatida erkin muloqot va erkin gapirish asosiy omil sanaladi. O'zbek madaniyatida esa bu holatning aksiga duch kelamiz. O'zbeklarda so'zlovchi barcha hollarda o'z tushunchalaridan ko'ra tinglovchining his-tuyg'ulariga e'tibor qaratadi. Tinglovchining ko'nglini olish uchun iltifot ko'rsatish o'zbek madaniyatining milliy xususiyatidir. O'zbek tilidagi evfemistik vositalarning asl ildizi islom diniga borib taqaladi. Musulmonlarda qo'pol so'z ishlatish, tahqirlash, birovning dilini xira qilish gunoh hisoblanadi. Mana shu sababdan ham, o'zbek tili evfemizmlarida ma'no voqelanishida muloyimlik va uyat tamoyillari yetakchi hisoblanadi. Ingliz tiliga keladigan bo'lsak, bu tildagi evfemizatsiyalashgan so'zlarda bu omil deyarli ko'zga tashlanmaydi. Inglizlarda ham xristian dini ta'sirida vujudga kelgan ba'zi evfemistik vositalar mavjud ammo ular juda kam va bugungi kunda iste'moldan chiqib ketgan. Bir so'z bilan aytganda, evfemizatsiya hodisasi orqali turli xalqlar madaniyatini tahlil qilish mumkin. Lingvokulturologik yondashuv evfemiyaning turli tillarda milliy-madaniy o'ziga xosligini ko'rib chiqishga imkon yaratadi. Dunyoning lingvistik milliy o'ziga xos manzarasi va turli til egalari nutqiy xulq-atvorini o'rganish esa zamonaviy tilshunoslikning dolzarb vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akbarova M.I. O'zbek va ingliz tillarida atoqli otlarning lingvomadaniy xususiyatlari // Mag.diss.. – Toshkent, 2015.
2. Omonturdiyev A.J. Professional nutq evfemikasi (chorvadorlar nutqi misolida): Fil.fan.dok.diss. – Toshkent, 2009. – 50-b.

Mohinur AZIZOVA,
Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

TURLI LINGVOMADANIY MUHITLARDA “QADAH SO‘Z” JANRINING VOQEALANISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada tilshunoslik va madaniyatshunoslikka xos bo'lgan mavzu yoritib berilgan bo'lib, unda qadah so'zlarning turli millatlarda turlicha ifodalanishini yoritib berilgan. Xususan, maqolada turli lingvomadaniy muhitlarda “qadah so‘z” janrining voqealanishiga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: “qadah so‘z”, *tilshunoslik, madaniyat, lingvomadaniyat, lingvokulturologiya.*

Аннотация: в данной статье рассматривается тема, специфичная для лингвистики и культурологии, которая объясняет, как слова по-разному выражаются у разных народов. В частности, в статье уделяется особое внимание распространению жанра «када соз» в разных лингвокультурных средах.

Ключевые слова: «кадах соз», *языкознание, культурология, лингвокультура, лингвокультурология.*

Annotation: this article covers a topic specific to linguistics and cultural studies, which explains how words are expressed differently in different nations. In particular, the article pays special attention to the occurrence of the genre "kadah soz" in different linguistic and cultural environments.

Key words: “kadah soz”, *linguistics, culture, linguoculture, linguoculturology.*

KIRISH. Tilshunoslikda uchraydigan o'ziga xos janrlardan biri bo'ldan his hayajonni ifodalovchi konseptlar ba yoki qadah so'zlar bugungi kunda tilshunoslikda yangi va dolzarb masalalardan biri deya olamiz. Chunki qadah so'zlari har bir millat tilida o'zgacha, o'ziga xos uslubda ifodalanadi va hu millatning mentalitetini yoritib bera oladi. Qadah so'zi konsepti ayrim mamlakatlarda faqat alkogol ichimliklar ichish ma'nosini anglatga, boshqa mamlakatlarda u xursandchilik, o'yin kulgu ma'nosini anglatadi.

Odatda qadah so'zlarda nima uchun – hammaning sog'ligi uchun yoki ishtirokchilarning birortasining sog'ligi uchun, muhabbat uchun, omad yoki daromad uchun ekanligi belgilanadi. Ba'zan to'g'ridan-to'g'ri maqsad aytiladi – “bizning imkoniyatlarimiz niyatlarimizga to'g'ri kelsin”. Norasmiy vaziyatda esa bitta so'z bilan ifodalash mumkin: Rossiyada “Budem” yoki “Vzdrognem!”, Angliyada “Cheers”, Germaniyada “Prosit” va h.z.

ASOSIY QISM. MATERIALLAR VA METODLAR.

Qadah so'zlar alohida janrni tashkil qiladi. Qadah so'zlarning o'ziga xos xususiyati ularda afsona, rivoyat, qiziqarli voqealarning ishlatilishidir. Demak, qadah so'zlarning o'ziga xos belgisi, ularning ta'sirchan bo'lishi matnda turli afsona va rivoyatlarning ishlatilishidir. Bular adresat va boshqa tinglovchilarda alohida zavq, huzur bag'ishlaydi.

Qadah so'zlar – bu dasturxon atrofida alkogol ichimlikni ichish oldidan tantanali tarzda aytiladigan, ayni vaziyatni ajratib ko'rsatish uchun ishlatiladigan nutq.

Qadah so'zlar qisqa va uzun, kulguli va pand-nasihatli, she'riy va nasriy bo'lib, ular tug'ilgan kun, yubiley, mutaxassislik va diniy yoki davlat bayramlarida ishlatiladi.

Qadah so'zlar, avvalo, ayni vaziyatga mazmunan

to'g'ri keladigan, uncha uzoq bo'lmagan (3 minutga qadar), ma'noga ega bo'lgan, mehmonlarni xursand qiladigan va xotimada qadahlarni ko'tarishga da'vat qilinadi.

IZLANISHLAR VA MUHOKAMALAR

Qadah so'zdan keyin qadahlarni urishtirish rus xalqi uchun an'ana hisoblanadi, Evropa va AQSHda esa bunday emas. Qadah urishtirish an'anasining yuzaga kelishi haqida uch xil varianti mavjud:[1.1]

1.Qora ruhlarni haydash. Qadimda insonlar ularning hayotini xudolar va qora ruhlar boshqaradi deb tushunishgan. Shu sababli xudolarning rahmini keltirish, qora kuchlarni esa haydash zarur bo'lgan. Ularning tushunchasiga ko'ra ovqatlanish paytida ochilgan og'izdan qora ruhlar tanaga kirib olishi mumkin, qadahlarni urishtirishdan chiqqan jarangli baland ovoz esa ularni haydaydi deb bilishgan.

2.Ritsarlarga (qadimgi xarbiylar) hurmat. VII-VIII asrlarda Buyuk Karl ritsarlari birlikni, kuchni, do'stlikning mustahkamligini ifodalash uchun ishlatishgan. Lekin bu an'anani ritsarlar o'ylab topgani yo'q, ko'rinadiki, ular bu an'anaga yangi mazmun kiritib boshqa xalqlardan o'zlashtirgan.

3.Zahardan saqlanish. Antik davrdan hokimiyatni egallash uchun zahardan foydalanishgan. Bu zaharlanish ovqatlanish jarayonida bo'lgan, shu sababli may to'ldirilgan qadahlarni urishtirilganda bir-biriga suyuqlikning o'tishi zaharlanishning oldini olgan. Agar birorta idishda zahar bo'lsa, bu usul orqali hamma zaharlangan. Bu himoyalash uchun o'ylab topilgan ayyorona ritual edi.

O'rta asrlarda Fransiyada nafaqat qadahlarni urishtirilgan, balki idishlarning o'zlarini ham almashtirib ishlatishgan, rad etgan kishi dushman yoki zaharlovchi hisoblangan. Oddiy xalq ham qadah urishtirishning maqsadini tushunmagan holda bu ritualdan

foydalanishgan. Ko'rinadiki, oddiy xalq aristokratlarga o'xshashga harakat qilgan.

Evropa madaniyatida alkogol ichimliklarni ichish jarayoning o'ziga xos etiketi paydo bo'lgan. Rus xalqi dasturxon atrofida alkogol ichimliklarni ichishning bir qator qoidalarga umr bo'yi rioya qiladi. Alkogol ichimliklarni ichish boshqa mamlakatlarda ham mavjud, lekin Rossiya dunyoda alkogol ichimliklarni ichish qoidalari bo'yicha birinchi o'rinlardan birida turadi.

Angliyada hozirda ham ba'zi ichimliklarni ichishda qadah so'zlar ishlatilishi an'ana bo'lib qolgan. Agar mehmon qadah so'z aytgan bo'lsa, qadahni oxirigacha ichib tugatishi lozim.

Qadah so'zlar tarixi Sezar davriga borib taqaladi. Alkogol ichimliklar haqida 1995-yilda nashr qilingan so'rovnomada shunday deyiladi: "Qadah so'zlar qadimgi an'analarga, ya'ni xudolarga qurbonlik qilib, o'rniga shunday tilaklar bildirilgan: "Uzoq umr!" yoki "Sening sog'liging uchun" kabi"[2.99]. Bu tilaklar frantsuz tilida sante yoki tchin (Sizning sog'ligingiz uchun), nemis tilida rrost yoki prosit, ispan tilida saiid, ingliz tilida cheers, polyak tilida na zdrowie, shved tilida skal, ukrain tilida будьмо, yapon tilida kampay [3.411].

Nutqiy amaliyotning tahlili shuni ko'rsatadiki,

O'g'lim, eslab qol:

В жизни много бед.

Её уроки и мудры,и строги

И все же, наверно, злей несчатья нет,

Чем вдруг да оказаться вез дороги.

Дрога – под камнями ли, под песком

Прямая иль кривая, – все же дороже

Покрытого печалью и тоской

Бесцельного, пустого бездорожья.

Nasriy matn:

Bir kuni uzoq tog' bag'rida cho'pon echki podasini boqayotgan edi. To'satdan osmondan tushgan toshday burgut paydo bo'ladi va uloqchaga changal soladi. Cho'pon miltiqdan otadi – burgut yiqiladi, uloqcha esa uchishda davom etadi.

Qani olinglar, burgutlarni otishmasin, uloqchalar esa uchmasin!

Gruzin xalqiga mansub qadah so'zlardan 150 ta namunasi bilan tanishib chiqdik, ulardan ba'zilarini tahlil qilib ko'ramiz.

Ma'lumki, kontseptlar o'ziga ma'lum bir belgilar (til, tarix, madaniyat, din va b.) bilan birlashtirib turuvchi lingvomadaniy jamoaga xos bo'lgan milliy o'ziga xos bilimlarni jamlaydi va ularni madaniy kontsept deb atash mumkin[5.23]. Milliy kontseptlar shakllanayotgan matnga, shu jumladan, qadah so'zlarga ham, tabiiy, ijtimoiy-madaniy xususiyatlar ham ta'sirini o'tkazadi.

A.K.Mixalskiy so'ziga ko'ra qadah so'zlar "o'zlashtirma" xususiyatga ega, bu ko'proq boshqa madaniyatga taalluqli bo'lgan an'analarga imitatsiya, taqlidga olib boradi, ko'proq gruzin an'alariga taqaladi [3.411]. Ko'rinadiki, qadah so'zlar Kavkazda alohida ahamiyatga ega, ayniqsa bu sohada gruzinlarda kuchli an'ana mavjud. Shu sababli biz Kavkaz qadah so'zlarini tahlilga tortishni ma'qul ko'rdik. Kavkaz qadah so'zlari kulguli, pand-nasixatli yoki tabrik tarzida bo'lishi mumkin. Masalan,

Gruzin haydovchilik guvohnomasini olish uchun imtixon topshirayapti. Inspektor yo'ldagi vaziyatni tushintirmoqda:

- Siz tor yo'lda mashina haydab ketayapsiz. Chap tomondan baland-baland tog'. O'ng tomonda jarlik. Birdaniga yo'lda go'zal qiz va uning yonida qo'rqinchli qari kampir paydo bo'ladi. Kimni bosib o'tasan?

- Albatta, kampirni!

- Axmoq!.. Tormozni bosish kerak!

Qiyin vaziyatlarda tormoz bosishni unutmashimiz uchun ichaylik!

Kavkaz qadah so'zlari haqida maxsus to'plamlar e'lon qilingan. Ularda she'riy va nasriy qadah so'zlar jamlangan[4.9]. Masalan, she'riy matn:

Запомни, сын мой:

Hayotda g'amu tashvishlar bisyor.

Uning darslari oqilona va qat'iy.

Ashaddiy baxtsizlik - bu xoksor

Yo'lsiz qolmoq to'satdan.

Toshlimi, qumlimi, to'g'rimi,

Qiyshiqmi har qalay, bori yaxshi

G'am andux bilan qoplangan

Maqsadsiz, bo'm-bo'sh yo'lsizlikdan

Kontsept o'zida «ma'lum madaniyat kishisi ma'naviy tajribasining izi, belgisi»ni namoyon etadi [4.9].

Kontseptning shunday interpretatsiyasi E.G.Azimov, A.N.Shukin ishlarida ham ko'rinadi. Ular kontsept atamasi ostida so'z, so'z birikmasi, gap ko'rinishidagi lisoniy ifodaga ega va til egasining o'ziga xos xususiyatlarini tushunish uchun o'zida muhim lingvomadaniy mazmuni jo'etgan madaniyatning milliy markerlangan timsolini tushunadilar [6.112].

XULOSA. Qadah so'zlar alohida nutqiy janrni tashkil qiladi. Qadah so'zlar – bu dasturxon atrofida alkogol ichimlikni ichish oldidan tantanali tarzda aytiladigan, ayni vaziyatni ajratib ko'rsatish uchun ishlatiladigan nutq. Har bir millatda mavjud bo'lgan afsona, rivoyat, hikmatli va qiziqarli voqealarning ishlatilishi qadah so'zlarning ta'sirchanligini oshiradi va bu janrning o'ziga xos xususiyatini bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://spb.banketresto.ru>poleznoettossty>
2. Аристотель. Поэтика. Риторика. — СПб.: Азбука, 2000. — 99 с
3. Михальский А.К. Основы риторики. — М.: Дрофа, 2001. — 411 с
4. Тильман Ю.Д. Культурные концепты в языковой картине мира: автореф. дисс... кан. филол. наук. — М., 1999. — С. 9.
5. Усманов Ф.Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: филол. фан. бўйича фалс. докт... дисс. — Тошкент, 2020. — Б. 23.
6. Азимов Э.Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). — М.: ИКАР, 2009. — С. 112.

Shahnoza QARSHIYEVA,
 “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining
 Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA INNOVATSION NUTQIY BIRLIKLARNING TASNIFI

Annotatsiya: ushbu maqolada tilshunoslik va iqtisodiy terminologiya uchun yangi tushuncha hisoblangan innovatsion iqtisodiy nutq birliklarining tasnifi va ularning qaysi til sathlarida shakllanishiga oid nazariy qarashlar o‘z ifodasini topgan. Shuningdek, ingliz va o‘zbek tilida uchrovchi shunday birliklarga misollar va ularning tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: terminologiya, iqtisodiy nutq birliklari, innovatsion birliklar, zamonaviy iqtisod, qiyosiy lingvistika, til tarkibi.

Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan texnika asri nafaqat insonlarning ijtimoiy-madaniy turmush tarzi, balki iqtisodiy va ma’naviy hayotiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmayapti. Ayniqsa, bunday ta’sir va o‘zgarishlar har bir tilning lug‘at tarkibida o‘z ifodasini topmoqda. Misol qilib keltiradigan bo‘lsak, iqtisod sohasida ham ko‘plab innovatsion nutqiy birliklar yuzaga kelmoqda. Bunday birliklar tillarga bir-biridan transliteratsiya orqali yoki shu tilga to‘liq tarjima qilinib moslashtirish yo‘li orqali o‘tib kelmoqda. Ushbu atamalar va lug‘atlar zamonaviy iqtisodiy tendensiyalar, texnologik yutuqlar va rivojlanayotgan biznes amaliyotlari bilan bog‘liq bo‘lgan turli xil innovatsion iqtisodiy tushunchalar va tillarni ifodalaydi.

Nutq birliklari tilning asosiy tarkibiy qismlari bo‘lib, ular muloqotning qurilish bloklarini tashkil qiladi. Bu birliklar o‘z ichiga alohida tovushlardan tortib so‘zlar, iboralar va jumlarlar kabi kattaroq tuzilmalargacha qamrab oladi. Ular anglashilgan ma’noni yetkazish va samarali muloqotni yuzaga keltirish uchun zarurdir. Quyida ba’zi nutqiy birliklarni ko‘rib chiqamiz:

1. Fonemalar: Bular tildagi eng kichik tovush birliklari. Masalan, "cat" so‘zida /k/, /æ/ va /t/ tovushlari fonemadir. "Tut"- "sut" so‘zlarida esa "t" va "s" fonemalardir.

2. Morfemalar: Bular til ichidagi eng kichik ma’no birliklari. Ular "money" yoki "capital" kabi individual so‘zlar yoki "invested" dagi "-ed" qo‘shimchasi kabi so‘zlarning qismlari bo‘lishi mumkin.

3. So‘zlar: So‘zlar ma’noni anglatuvchi alohida til birliklari. Ular otlar, fe‘llar, sifatlar va boshqalar bo‘lishi mumkin.

4. So‘z birikmalari va gaplar.

Innovatsion iqtisodiy nutq birliklari til lug‘at boyligining katta qismini tashkil etmasa-da, lekin ishlatilishi jihatidan ahamiyati kattadir. Boisi, bunday so‘zlar texnologiya va iqtisodning chambarchas bog‘liqligida yuzaga kelgan bo‘lib, ayni hozirgi zamon leksikasi uchun juda muhimdir. Bunday so‘zlarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: Aqlli kontrakt, moliyadagi sun‘iy intellekt, EdTech, nudge nazariyasi, ma’lumotlarning maxfiyligiga ta’sirini baholash, neyron tarmoqlari, ta’minot zanjiri, barqaror investitsiya, elektron hamyon, mobil savti, to‘g‘ridan to‘g‘ri iste’molchi, to‘lov innovatsiyalari, elektron savdo tizimlari, masofaviy ishchi kuchi, ma’lumotlarni moneyizatsiya qilish, kriptografiya, kraudfanding, startap ekotizimlari, fintech, kriptovalyuta (smart contracts, Artificial Intelligence in Finance, EdTech, nudge theory, Data Privacy Impact Assessment, neural networks, impact assessment, sustainable development, e-wallet, payment innovations, tele commuting, remote workforce, data monetization, cryptograpy, crowdfunding, startup ecosystems, resilience economics, bailout, cryptocurrency, Fintech).

Innovatsion nutq birliklari kontekstida tilning ushbu fundamental elementlari yangi so‘zlarni kiritish, mavjud

lug'atni moslashtirish yoki yangi iboralar va iboralar yaratish kabi turli xil shakllariga duch kelishi mumkin.

Bunday iqtisodiy atamalar kontekstida nutq birliklari iqtisodiy tushunchalar, tamoyillar va hodisalarni yetkazish uchun ishlatiladigan til elementlarining keng doirasini qamrab olishi mumkin. Ushbu nutq birliklari iqtisodiy g'oyalarni yetkazish va moliya, biznes, savdo va tegishli sohalar kontekstida tushunishni osonlashtirish uchun lingvistik vosita bo'lib xizmat qiladi. Bunday birliklar til tarkibining quyidagi qatlamlarida hosil bo'lishi mumkin:

1. Atamalar va iboralar : Iqtisodiy nutq birliklari ko'pincha "talab va taklif", "yalpi ichki mahsulot (YalM)," "imkoniyat narxi", "fiskal" kabi iqtisodiy tushunchalarni qamrab oluvchi mustaqil atamalar yoki iboralar sifatida namoyon bo'ladi. Bu birliklar murakkab iqtisodiy g'oyalarning qisqacha ifodasini beradi.

2. Neologizmlar : Til innovatsiyasi paydo bo'lgan tushunchalarni qamrab olish uchun yangi iqtisodiy atamalarni kiritadi. Masalan, "fintech" (moliyaviy texnologiya), "gexit" (yunoncha Evrozonadan chiqish) va "Brexit" (Britaniyaning Yevropa Ittifoqidan chiqishi) muayyan iqtisodiy hodisalar yoki tendensiyalarni aks ettiruvchi neologizmlar va portmanto so'zlariga misoldir.

3. Metaforik ifodalar: Iqtisodiy nutq birliklari mavhum iqtisodiy tamoyillarni yetkazish uchun metaforalardan foydalanishi mumkin. "Zamonaviy texnologiyalar", "iqtisodiy yuksalish", "yashil iqtisodiyot" (Cutting-edge technology, green economy, economic boom, economic bubble) kabi iboralar murakkab iqtisodiy hodisalarni tanish tasvirlar orqali yoritishda metaforik tilga tayanadi.

4. Raqamli ma'lumotlar va deskriptorlar: Iqtisodiyotdagi nutq birliklari, shuningdek, "inflyatsiya darajasi", "ishsizlik foizi", "fond bozori indeksleri", "Jini koeffitsienti" (Inflation rate, unemployment percentage, stock market indices, Gini coefficient)kabi iqtisodiy ma'lumotlarni yetkazish uchun zarur bo'lgan raqamli ma'lumotlar, tavsiflovchilar va o'lchovlarni o'z ichiga oladi.

5. Moliyaviy va savdo jargoni: Iqtisodiy nutq birliklari ko'pincha moliya va savdoda qo'llaniladigan maxsus jargon va texnik atamalarni o'z ichiga oladi.

Ushbu nutq birliklari iqtisod sohasida samarali muloqotni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi, odamlarga iqtisodiy hodisalar, siyosat va bozor dinamikasini ifodalash, tushunish va tahlil qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akobirov S. Til va terminologiya. – T., 1968.
2. Anikina A. Iqtisodiy atamalar lug'ati inglizcha-ruscha. – T., 1993.
3. Barotov Z. Iqtisodiy matnlarda neologizmlarning tarjima qilinishi. S., 2013.
4. Comrie, Bernard. "Language Universals and Linguistic Typology: Syntax and Morphology." University of Chicago Press, 1981.
5. Serdobolskaya, Natalia V. "Innovative processes in languages and societies." Moscow: Languages of Slavic cultures, 2014.

Soniya LATIPOVA,

O'zbek va xorijiy tillarni o'qitish markazi o'qituvchisi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

IDIOMALARNING GRAMMATIK VA SINTAKTIK TUZILISHIGA OID AYRIM DOLZARB MASALALAR

Annotatsiya: maqola idiomalarning grammatik va sintaktik tuzilishiga oid ayrim dolzarb masalalarga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: *idiomalar, grammatika, sintaktika, til qurilishi, ifodaviy quvvat, ma'no, moslashuvchanlik, madaniy ma'lumot.*

Аннотация: статья посвящена некоторым актуальным вопросам, связанным с грамматическим и синтаксическим строем идиом.

Ключевые слова: *идиомы, грамматика, синтактика, построение языка, выразительная сила, значение, гибкость, культурная информация.*

Annotation: the article is devoted to some topical issues related to the grammatical and syntactic structure of idioms.

Keywords: *idioms, grammar, syntactic, language construction, expressive power, meaning, flexibility, cultural information.*

Frazeologizmlarning doirasi va chegaralari hozirda aniq yechimi mavjud bo'lmagan savol bo'lib qolmoqda. XX asrning 50-yillari o'rtalaridan boshlab frazeologiyani "tor" tushuncha sifatida qarab kelganlar orasida munozaralar kelib chiqa boshladi: ya'ni ular frazeologik birliklarni so'zlarga ekvivalent deb hisoblar edilar, frazeologiyani "keng" tushuncha deya ta'rif berganlar esa frazeologiya mustaqil lingvistik fan sifatida va har qanday shakldagi barqaror kombinatsiyalar va sintaktik tuzilmalarni o'z ichiga oladigan birlik degan tushunchaga ega edilar [13;338]. "Idioma" – bu frazeologik birliklarning to'laqonli xususiyatlariga ega bo'lgan turi bo'lib, turli tillar orasida tarjima qilishda muqobil (ekvivalent) variantlar bilan ifodalashni talab qilinadi. Ular tilning o'ziga xosligini, madaniyatini va an'analarini aks ettiruvchi, qoliplashgan va nutqqa tayyor holatda ishlatiladigan iboralardir. Har bir idioma, o'ziga xos xarakterga ega bo'lib, uning kelib chiqishi bo'lgan tilning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishda foydalaniladi. Qardosh tillar orasida ham, bir til oilasiga mansub bo'lsa-da, idiomalar o'zaro farqlanadi va har bir tilning o'ziga xos xususiy xarakterini namoyon qiladi. Masalan, ingliz tilidagi "It's raining cats and dogs" (Kuchli yomg'ir yog'yapti) iborasi boshqa tillarga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinmaydi, chunki har bir tilda shu ma'noni ifodalash uchun o'ziga xos idioma mavjud emas. Shuningdek, o'zbek tilidagi "ko'z tegmasin" iborasi ham boshqa tillarda boshqacha idiomalar bilan ifodalanishi mumkin. Bu kabi idiomalar har bir tilning o'ziga xos madaniy va an'anaviy xususiyatlarini aks ettiradi.

Idiomadagi grammatik tuzilishining o'zgarib turishi ma'lum darajada muntazamdir. Langakerning fikriga ko'ra "grammatikaning o'zi muhim va tizimli rolga ega" degan qarashlaridan keyin qo'shma iboralarning ma'nolarini aniqlashda noan'anaviy usul orqali ya'ni idiomalarning tuzilishini boshqarishda grammatikaga oid ba'zi cheklovlar bilan bog'liq deya olishimiz ham mumkin. Demak, idiomalar kabi qo'shma iboralar tahlil qilinayotganda, ularning grammatik tuzilishi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Idiomalar, odatda, o'zlarining so'zma-so'z tarjimasini bilan emas, balki ko'chma ma'noga egaligi jihatdan qabul qilinadigan maxsus ifodalardir. Langaker va boshqa tilshunoslar bu kabi iboralarni tahlil qilar ekan, ularning grammatik tuzilishi, qanday qabul qilinishi va tushunilishiga ta'sir qilishini ta'kidlab o'tishgan. Bu esa grammatikada tilning ma'nosini shakllantirishdagi rolini yanada muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi [8;562]. Masalan, "ko'zni ochib yumguncha" idiomasi o'zbek tilida biror narsa juda tez sodir bo'lishini bildiradi, ammo bu iborada har bir so'zning alohida ma'nosi bu tushunchani bermaydi. Shu tarzda, idiomalar tahlilida grammatikaning roli, ularning so'zma-so'z ma'nosi bilan emas, balki ularning tuzilishi va qo'llanilish kontekstiga qarab aniqlanadi.

Shunday qilib, idiomalarning tuzilishini tahlil qilishda grammatikaning o'zgaruvchan xususiyatlari va ularning konteksti bilan bog'liqligini hisobga olish muhimdir. Bu esa tilshunoslikdagi muhim bir tadqiqot maydonining keng ekanligini belgilaydi.

Grammatik cheklovlar modifikatsiyalar keng ma'noda ta'riflanadi: tilshunoslikdagi qoidalarga binoan idioma tuzilishidagi o'zgarishlar ko'chma ma'nosi bilan mos kelishi kerak, umuman olganda, tilshunoslikdagi grammatik qoidalarga mos kelishi kerak. Idiomalarning leksik grammatik tuzilishi ularning kontekstda qanday o'zgarishida muhim rol o'ynaydi. Masalan, (to)predlogini o'z ichiga olgan idiomatik iboralar voqealar va holatlarning konteyneri sifatida kontseptualizatsiyasini aks ettiradi [11;204].

Jelena Parizoskaning fikrlariga ko'ra, idiomalar va ularning grammatik tuzilishi haqida muhim ma'lumotlarni ko'rsatadi. Uning izohida aytilishicha, idiomalar odatda ma'lum bir tizimga asoslangan holda tuzilmaydi, va ularda tizimli o'zgartirishlar qo'llanmasligi mumkin. Shu sababli, ulardagi o'zgartirishlar va grammatik tuzilishda o'zgartirishlar modifikatsiyalar sifatida qaraladi [5;19].

Ko'pincha o'zgarishlar idiomalarning grammatik tuzilishi yoki qoidalariga mos kelmasligini anglatadi. Idiomalar odatda o'zlarining ma'nolari va sintaktik tuzilishi bilan ajratilgan va ularda sodir bo'lgan o'zgarishlar kontekstga xos bo'ladi. Biroq, idiomalar kontekstda ishlatiladigan so'zlar bo'lib, ulardan kelib chiqadigan o'zgarishlar va modifikatsiyalar, ularga yangi ma'nolar ifoda qilishi mumkin. Bu esa, idiomalarning qanday qilib ko'pincha sodir bo'ladigan o'zgarishlarni oldindan bilishimiz va ularni to'liq tushunishimizni talab qiladi. Ma'lum bir tuzilmaga ega bo'lgan idiomalar qo'llanishda ko'pincha sodir bo'ladigan o'zgarishlarni va modifikatsiyalarni oldindan sezish, tushunish, va o'rganishni talab qiladi Bundan tashqari, idiomada sodir bo'ladigan o'zgarishlarni oldindan aytib bo'lmaydi va ularni kontekstga xos ekanligini hisobga olsak, ko'pincha ular tizimli emas deb ham qaraladi. Bunday leksik almashtirish to'g'ri bo'lsada, idiomalar uchun bunday o'zgarishlar grammatik tuzilishidagi o'zgartirishlar modifikatsiya (moslashtirish) misolida muntazamlikni ko'rsatadi.

Beykerni fikricha ko'ra, idiomalar haqida quyidagi tushunchalarni o'zida qamrab olgan:

- (1) idiomadagi so'zlarning tartibini o'zgartirib bo'lmaydi;
- (2) idioma tarkibidan so'zni olib tashlab bo'lmaydi;
- (3) idiomaga yangi so'z qo'shib bo'lmaydi;
- (4) idioma tarkibidagi so'zlarini boshqa so'zlar bilan almashtirib bo'lmaydi;
- (5) idiomalarning grammatik tuzilishini o'zgartirib bo'lmaydi;

Aytish joizki, idiomalar tartibidagi lug'aviy birliklarni va ularning grammatik tuzilmalarini o'rni almashgan

holatdagi varianlari juda ham kam miqdorni tashkil etadi [1;71].

Beyker idiomalarni boshqa tilga tarjima qilganda yuzaga keladigan bir qancha muammolarga alohida to'xtalib ularni quyidagicha umumlashtirdi:

(1) Idioma yoki turg'un iboraning tarjima qilingan tilda ekvivalenti bo'lmashligi mumkin;

(2) Idioma yoki turg'un ibora ishlatilgan tildagi tarjima varianti ham unga o'xshash bo'lishi mumkin, ammo uning qo'llanilishi konteksti boshqacha bo'lishi mumkin; ikki ibora, masalan, turli xil ma'nolarga ega bo'lishi mumkin yoki ular pragmatik jihatdan tarjima qilinmasligi ham mumkin;

(3) Idioma ham o'z ma'noda ham idiomatik ya'ni ko'chma ma'noda bir vaqtning o'zida ishlatilishi mumkin;

(4) Tarjima qilingan tildagi idiomalar tarjima qilinadigan tiliga mos kelmasa idioma ham shakl, ham ma'noda jihatdan to'liq ma'noga ega bo'lmaydi;

(5) Yozma nutqda idiomalardan foydalanish konvensiyasi, ulardan foydalanish mumkin bo'lgan kontekst va manbalari va har xil bo'lishi mumkin [1;75].

Gibbs va Nayakning tadqiqotlariga ko'ra, idiomalarning sintaktik tomondan tuzilishlari va vazifalarini ham muhokama qilish kerak degan xulosaga kelishgan. Ularning shakllar bo'yicha, jumladan, yangi konstruksiyalar(tuzilishi) – ularning tahlil qilinishi yoki qismlarga ajratish orqali aniqlanadi [4;120], [3;527],[9;491].

Sintaktik tuzilish va tuzilma (grammatik qurilishi) nutqning sintaktik qismi, ya'ni nutqning tuzilganligi va qanday qo'llanilishini ifodalaydi. Idiomalar, sintaktik tuzilishga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki ular o'z tuzilishlariga ega va ko'p o'qiladigan til qoidalariga murojaat qilmasdan foydalaniladi. Idiomalar ob-havo, geografik manzaralar, ma'naviy mazmunlar va boshqa tarkibiy qarorlarga asoslangan holda o'ziga xos ifodalarni kash etadi.

Tadqiqotchilar tilshunoslikda idiomalar va ularning tuzilishini o'rganib, ularning manbalari, mazmunlari va sintaktik xususiyatlari haqida ma'lumot topishadi. Idiomalar sintaktik tuzilishga binoan tahlil qilinishi mumkin, ularning ma'nosi to'g'ridan-to'g'ri so'zma-so'z tarjima qilinadigan iboralardan farq qiladi. Masalan, "ko'z yoshlarini yutmoq" idiomasi, hissiyotlarni ichiga yutib, tashqi ko'rinishda hissiyotini namoyon qilmayotgan kishini anglatadi. Bunday idiomalar tilning boyliklarini namoyish etadi va madaniy kontekst orqali yanada chuqurroq ma'nolarni ifodalaydi. Sintaktik jihatdan ko'rib chiqqanda, idiomalar odatda mustahkam tuzilishga ega bo'lib, ularning tarkibiy qismlarini o'zgartirish yoki almashtirish ma'noni to'liq o'zgartirib yuborishi mumkin.

Arnoldning qarashlariga ko'ra, idiomalar turlariga va sintaktik tuzilishiga e'tibor bermasdan, ularning nutqda qanday shaklda ishlatilishini aniqlashda juda samarali usullardan biridir. Ammo, har

ikkala yondashuv juda muhim hisoblanadi ya'ni tilni o'rganish va undan foydalanish jihatidan. Idiomalarni tushunib olish va ulardan to'g'ri usulda va o'z vaqtida foydalanish – o'rganish jarayonidagi eng muhim asoslardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Ingliz tilidagi idiomalarni sintaktik uzilishidan farqlab, tushinib olish muhim ahamiyatga ega. Arnold idiomalarni sintaktik tuzilishiga yoki nutq birliklariga qarab yetti turga ajratadi:

(1) ot tuzilmali idiomalar; (2) fe'l tuzilmali idiomalar; (3) sifat tuzilmali idiomalar; (4) ravish tuzilmali idiomalar; (5) predlog tuzilmali idiomalar; (6) bog'lovchi tuzilmali idiomalar va (7) kesim so'z birikmali idiomalar [12;285].

1. Ot tuzilmali idiomalar (Phrase-Structured Idioms):

Bu idiomalar odatda tuzilma ko'rinishida bo'ladi, ya'ni ularning tarkibiy qismlari (sintaktik strukturasi) yaxshi tanlanishi mumkin. Misol uchun: "kick the bucket" (vafot etmoq) – (kick-tepmoq), "the" ko'pincha jamiyatni ifodalaydi, va "bucket" (paqir, chelak) so'zi asosiy ma'noni anglatadi.

2. Fe'l tuzilmali idiomalar (Verb-Structured Idioms):

Bu idiomalar odatda bir fe'l (verb) tarkibidagi idiomalaridir. Ular fe'l tuzilishiga asoslangan va odatda fe'lning asosiy ma'nosi tarkibida boshqa bir ma'no ko'rsatadigan fe'l yoki so'zni o'z ichiga oladi. Misol uchun: "hit the sack" (uxlashga yotmoq) – "hit" (urmoq) fe'li asosiy ma'no bermaydi, va "sack"(yotoq) so'zi asosiy ma'noni ifodalaydi.

3. Sifat tuzilmali idiomalar (Adjective-Structured Idioms):

Bu idiomalar odatda bir sifat (adjective) asosida tuzilgan. Ular tarkibiy qismi sifatni o'z ichiga oladi va odatda biror narsani ta'riflashda ishlatiladi. Misol uchun: "cool as a cucumber" (tinch, sokin) – "cool" (salqin) sifati asosiy ma'noni ifodalaydi.

4. Ravish tuzilmali idiomalar (Adverbial-Structured Idioms):

Bu idiomalar odatda bir ravish (adverb) asosida tuzilgan. Ular biron bir harakatni yoki ravishni ifodalaydigan fe'l yoki so'zga asoslanadi. Misol uchun: "at the drop of a hat" (shu ondayok) – "at" predlogi bir harakatni, "drop" (tushirib yubormoq) "hat" (shapka, bosh kiyim) kabi lug'aviy ma'nosiga ega bo'lsa ham bu yerda "at" predlogini o'zi bir harakatni ifodalab asosiy ma'noga ega bo'lyapdi..

5. Predlog tuzilmali idiomalar (Prepositional-Structured Idioms):

Bu idiomalar odatda bir predlog (preposition) asosida tuzilgan. Ular predlogni o'z ichiga oladi va odatda belgilangan ma'noni ifodalaydi. Misol uchun: "in the nick of time" (o'z vaqtida) – "in" predlogi belgilangan yozuvni o'z ichiga oladi, va "the nick of time" idiomalarni ifodalaydi.

Arnoldning ushbu izlanishlari idiomalarning tuzilishi

va ularni to'g'ri ishlatishi uchun yordam beradi. Idiomalarni to'g'ri tarzda ishlatish va tushunish nutq o'rganishning muhim qismi bo'lib, ular odatda til va madaniyatni ifodalaydigan o'zgacha ifodalar o'rnida ishlatiladi [12;285].

Kunin ingliz tilidagi idiomalarni funksional nuqtayi nazardan to'rt turga ajratadi. Bular (1) nominativ idiomalar, (2) nominativ-kommunikativ idiomalar, (3) kesim so'z birikmalari va (4) kommunikativ idiomalardan tashkil topgan [7;190]:

1. Nominativ idiomalar (Nominal Idioms):

Bu guruh idiomalar, adabiy, ma'naviy, yoki stilistik jihatdan tayyor holdagi so'zlar sifatida qo'llaniladi. Ular nutqda boshqa so'zlar yoki ifodalarni ishlatish orqali nutqning qismlari sifatida ko'rinadigan o'zgacha ifodalardir. Misol uchun: "piece of cake" (oson) - bu idiomada "piece" (qism) va "cake" (tort) so'zlari boshqa ma'noni ifodalash uchun ishlatiladi.

2. Nominativ-kommunikativ idiomalar (Nominal-Communicative Idioms):

Bu guruh idiomalar kommunikatsiya yaratish uchun qo'llaniladi. Ular adabiy, yozuvchi ko'rsatmalar, va suhbatda boshqa kishilar bilan munosabatni kuchaytirish uchun ishlatiladi. Misol uchun: "burn the midnight oil" (tungacha ishlash) - bu idiomada "burn" (kuydirmoq, yoqmoq) va "midnight oil" (tungi yog') so'zlari boshqa ma'noni ifodalash uchun ishlatiladi.

3. Kesim so'z birikmalari idiomalar (Phrasal Verbs):

Kesim so'z birikmalari, bir fe'l va bir yoki bir nechta to'g'ri shaklda kelgan qo'shma so'zlar kombinatsiyasi bo'lib, ulardan tarkib topgan fe'lning asosiy ma'nosiga o'zgartirish kiritadi. Misol uchun: "take off" (uchib ketmoq) - bu kesim so'z birikmasi "take" (olmoq) va "off" (- dan) so'zlaridan iborat.

4. Kommunikativ idiomalar:

Bu guruh idiomalar mutq jarayonida o'zaro ma'noni kuchaytirish uchun qo'llaniladi. Ular ob-havo, madaniyat, va jamiyatga oid ma'lumotlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Misol uchun: "hit the books" (o'qimoq) - bu idiomada "hit" (urmoq) va "books" (kitoblar) so'zlari boshqa ma'noni ifodalash uchun ishlatiladi. Yuqorida keltirib o'tilgan guruhlar ingliz tilidagi idiomalar tuzilishi va nutq funksiyasiga

ko'ra ajratilgan. Har bir guruh nutqning xususiyatlari va qanday kontekstda foydalanishini ifodalaydi.

Idiomalar - tarkibiy so'zlarining so'zma-so'z ma'nosidan farq qiladigan ko'chma ma'noga ega bo'lgan ko'p so'zli iboralardir [2;15]. Ularning sintaktik tuzilishiga nisbatan o'zgarimas bo'lib, chuqur ma'lumotga va kuchli ma'noga ega ekanligi, bu ularni tarjima qilinadigan tilda aniq bir maqsadga muvofiq ishlatishini talab qiladi [10;301], [6;28].

Keltirilgan fikrlar tilshunoslik va tarjima nazariyasi doirasida muhim bir nuqtani ko'rsatadi: ba'zi so'zlar yoki iboralar o'zining sintaktik tuzilishiga nisbatan o'zgarimas bo'lib qoladi va shu bilan birga yuqori darajada aniq ma'lumot va kuchli ma'no anglatadi. Bu esa tarjimonlardan nafaqat tilni tushunishni va grammatik tuzilishlarni, balki shuningdek, ma'lum bir tilning madaniy va kontekstual xususiyatlarini ham chuqur bilishni talab qiladi. Pitzl va Kovaliuk ishlarida bu kabi so'z va iboralarni tarjima qilishda ularning maqsadi va qo'llanilish sohasiga mos kelishini ta'minlash muhimligi ta'kidlanadi.

The survey result is as follows: 15 out of 20 candidates do not pay attention to change the code in sentences, since the meanings of most of the words used in magazines, do not cause difficulties; their use is quite common in world practice, and the use of native code helps to update a specific meaning. 5 people expressed their dissatisfaction, according to them opinion, you only have to guess the meaning of French words if you don't you know the language. As for Russian women, they believe that the process of code switching is the result of the natural development of languages, that words of foreign origin are a consequence of general globalization We concluded that code changes are used relatively frequently as a means of communication strategy to convey social and linguistic information.

Reference

1. Eloeva F.A., Rusakov A.Yu. Problems of language interference. - L.: Leningrad State University, 1990.
2. Hoffman E. Lost in translation: A new life in a new language. - N.Y.: Dutton, 1989.
3. Norway. In J.J. Gumperz and D. Hymes. Directions in Sociolinguistics. — New York: Holt.
4. Sapir E. The grammarian and his language // Selected works on linguistics and cultural studies.

Nigina PULATOVA,

Professeur à l'Institut d'État des langues étrangères de Samarkand

L'APPRENTISSAGE DE LA GRAMMAIRE DANS L'ENSEIGNEMENT DU FRANÇAIS

Annotatsiya: ushbu maqolada talabalariga fransuz tilini o'qitishda grammatik jihatning o'rni va ahamiyati an'anaviy, kommunikativ va funksional yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Grammatik ko'nikmalarning murakkabligi va ko'p qirraliligi, jumladan, retseptiv grammatik ko'nikmalar (faol va passiv), shuningdek, bo'lajak tarjimonlarning grammatik ko'nikmalarini shakllantirishga kompleks yondashuvni taqozo etuvchi lingvistik va og'zaki ko'nikmalar tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: *grammatik kompetensiya, kommunikativ usul, funksional yondashuv, lingvistik talablar.*

Annotation: l'article examine la place et l'importance de l'aspect grammatical dans l'enseignement du français aux étudiants en linguistique du point de vue des approches traditionnelles, communicatives et fonctionnelles. La complexité et la polyvalence des compétences grammaticales sont soulignées, y compris les compétences grammaticales réceptives (actives et passives), ainsi que linguistiques et orales, ce qui nécessite une approche intégrée de la formation des compétences grammaticales des futurs traducteurs, qui se déroule en trois étapes.

Mots clés: *compétence grammaticale, méthode communicative, approche fonctionnelle, étudiants linguistiques.*

La formation de la compétence grammaticale des étudiants en linguistique est un problème urgent, car seule la connaissance de la langue grammaticale à un niveau élevé de la composante de compétence communicative offrira aux diplômés la possibilité de résoudre avec succès des problèmes dans les activités professionnelles dans des conditions de concurrence croissante dans le marché du travail. La grammaire occupe une place particulière dans le système des sciences linguistiques. Tirant son nom du mot grec « gramma » (« lettre »), qui le rapproche des mots « alphabétisé », « alphabétisé », la grammaire en tant que science indépendante

existe depuis plus de deux mille ans. Une analyse des définitions du mot « grammaire » présentées dans les dictionnaires explicatifs modernes permet de mettre en évidence ses principales significations : 1) la structure grammaticale de la langue ; 2) une branche de la linguistique qui étudie un tel système ; 3) un ensemble de règles pour changer les mots, leurs combinaisons en combinaisons, phrases, textes ; 4) un manuel contenant une description des règles. En même temps, comme le constatent des chercheurs français (Henri Besse, Rémy Porquier), le terme « grammaire » reste ambigu.

La grammaire comprend des règles pour décrire le fonctionnement de la langue dans son ensemble ; un ensemble de règles « imposées » à quelqu'un qui parle déjà la langue ; ainsi qu'un système de règles qui seront apprises par ceux qui commencent à apprendre la langue [8]. D'autres (Claude Germain et Hubert Séguin) distinguent la grammaire linguistique, qui « décrit la compétence grammaticale sans référence à la pratique » ; grammaire spéciale (grammaire d'une langue spécifique) ; grammaire pédagogique. Ce dernier propose « une description des manifestations spécifiques de la compétence grammaticale de l'utilisateur de la langue, perçue par les étudiants. Il se présente sous la forme d'un programme d'étude de grammaire pour un enseignant ou d'un manuel de grammaire pour un étudiant d'une langue étrangère ». L'ambiguïté des définitions souligne la nature complexe et complexe de la grammaire en tant que science et les difficultés à choisir une méthodologie adéquate pour l'enseigner dans le processus d'apprentissage des langues étrangères.

Le rôle de la grammaire dans la méthodologie de

l'enseignement du français langue étrangère a évolué sous l'influence d'un certain nombre de facteurs, parmi lesquels les plus significatifs étaient le développement de la théorie de la linguistique, les changements dans la politique de l'État dans le domaine de l'éducation et de l'apprentissage. Dans l'approche traditionnelle, la grammaire était centrale et le but de l'apprentissage. La connaissance de la grammaire était identique à la connaissance de la langue, qui était perçue comme un ensemble de règles grammaticales. Avec une approche directe, la grammaire perd son statut de base de la connaissance de la langue. L'apprentissage est implicite. L'approche audiovisuelle considère la grammaire comme un ensemble de structures sélectionnées pour un développement basé sur une analyse comparative des langues maternelles et étrangères. Le métalangage grammatical est exclu. L'approche communicative s'est généralisée en France depuis 1970 en lien avec la promotion d'un nouvel objectif d'apprentissage : la maîtrise de la langue comme moyen de communication.

La grammaire s'étudie également en situation de communication ; son développement nécessite une sélection minutieuse de sujets de discours et d'intentions qui doivent refléter les intérêts pratiques et les besoins des étudiants. La grammaire communicative repose sur les idées de la linguistique communicative, de la théorie psychologique de l'activité et du concept de développement de l'individualité dans le dialogue des cultures. La position principale de la linguistique communicative est l'identification en tant qu'unité de communication vocale d'un acte régi par les règles du comportement de la parole.

Les références

1. Bondarko, A. V. (1987) La théorie de la grammaire fonctionnelle
2. Solovova, E. N. (2008) Méthodologie d'enseignement des langues étrangères : études de base : Manuel pour les universités / E. N. Solovova. – Moscou : AST : Astrel. – 192p.
3. Passow, E. I. (1991.) Méthode communicative d'enseignement de la langue étrangère – M. : Education, 2e éd. – 216 p.
4. Shatilov, S. S. (1991.) Fondements théoriques des méthodes d'enseignement de l'aspect grammatical du discours étranger Méthodes générales d'enseignement des langues étrangères. // Comp. Léontiev. – M. – Rus. langue. – P. 295-305.
5. André Martinet, (1984) Grammaire fonctionnelle du français // Centre de recherche et d'études pour la diffusion du français CREDIF. – 276 p.
6. Claude Germain et Hubert Séguin, (1998) Focus sur la grammaire // Paris : CLE International. – 59 p.

Nargiza XIDOYATOVA,
Yunusobod tumanidagi 5-maktab direktori

MOBILLIK TUSHUNCHASI VA UNING TURLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada pedagogik-psixologik adabiyotlarni tahlil qilish natijasida mobillikning shaxsiy, kognitiv yoki bilishga doir akademik, kasbiy, kommunikativ, ijtimoiy, madaniy, ijtimoiy-madaniy, tarbiyaviy mobillik kabi turlari, ularning mazmuni tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: *shaxsiy, kognitiv yoki bilishga doir, akademik, professional, kommunikativ, ijtimoiy, madaniy, ijtimoiy-madaniy, tarbiyaviy mobillik.*

Аннотация: в результате анализа педагогической и психологической литературы в статье анализируются виды мобильности, такие как личностная, познавательная или когнитивная, академическая, профессиональная, коммуникативная, социальная, культурная, социокультурная, образовательная мобильность, и их содержание.

Ключевые слова: *личностная, познавательная или познавательная, академическая, профессиональная, коммуникативная, социальная, культурная, социокультурная, образовательная мобильность.*

Annotation: through an analysis of pedagogical and psychological literature, this article discusses various forms of mobility, including personal, cognitive, academic, professional, communicative, social, cultural, socio-cultural, and educational mobility, along with their respective characteristics and implications.

Key words: *personal, cognitive or knowledge-based, academic, professional, communicative, social, cultural, socio-cultural, educational mobility.*

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 79-moddasida "Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantirishi", shuningdek, davlat tomonidan "yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga" e'tibor qaratilgan. Qomusimizda belgilab berilgan ushbu bandlar o'quvchi-yoshlarni har tomonlama kamol toptirish, intellektual salohiyatini rivojlantirish, ularning jamiyatga qo'shilishini ta'minlash, ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etishga undashi bilan ahamiyatli sanaladi va ushbu jarayon o'quvchilardan moslashuvchanlik, o'zgarishlarga doimiy tayyorlik, mobillik kabi sifatlarga ega bo'lishni taqozo etadi.

Pedagogik-psixologik adabiyotlar tahliliga ko'ra mobillikning quyidagi: shaxsiy, kognitiv yoki bilishga doir, akademik, professional, kommunikativ, ijtimoiy, madaniy, ijtimoiy-madaniy, tarbiyaviy turlari ajratib ko'rsatiladi.

P.A.Sorokin "ijtimoiy mobillik deganda shaxs yoki ijtimoiy voqelikka oid har qanday o'zgarishlarni, ya'ni inson faoliyati bilan yaratilgan, o'zgartirilgan, bir ijtimoiy pozitsiyadan ikkinchisiga o'tishga doir jarayonni tushunadi". Olim shaxsning ijtimoiy makonda harakatlanishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni tahlil qilib quyidagi ikki shartga e'tibor qaratadi: 1) mashg'ulotning (kasbning) butun guruhning omon qolishi va faoliyati uchun ahamiyatligi; 2) kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun zaruriy aql-zakovat darajasiga egalik.

P.Sorokin tomonidan ijtimoiy mobillikning bir necha

turlari ajratib ko'rsatiladi:

1. Vertikal va gorizont. Gorizont mobillik bu shaxsning bir ijtimoiy guruhdan bir xil darajadagi ikkinchisiga o'tishidir. Bu diniy e'tiqodlar, davlat fuqaroligi, millati, kasbi, oilaviy ahvoli va hokozolarning o'zgarishi bilan bog'liq jarayonlarni aks ettiradi. Vertikal mobillik bu shaxs ijtimoiy maqomining yuqori ko'tarilishi yoki pastga tushishini anglatadi.

2. Individual va guruhli. Ijtimoiy pozitsiyaning yuqoriga yoki pastga o'zgarishi ham individual, ham guruhli sodir bo'lishi mumkin.

3. Ixtiyoriy va jamiyatdagi tarkibiy o'zgarishlar natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy o'zgarishlar.

Ijtimoiy mobillik bilan bir qatorda, sohaga oid adabiyotlarda "kasbiy mobillik" tushunchasi ham uchraydi. Ilmiy adabiyotlarda kasbiy mobillikning bir qancha ta'riflari mavjud. Z.Bagisheva va L.Amirovalarning tadqiqotlarida kasbiy mobillik kasbiy kompetensiyaning bir qismi sifatida izohlansa, Y.Giddens va V.Yadovlarning ilmiy izlanishlarida "kasbiy mobillik faoliyatda namoyon bo'lishi, ya'ni subyektning faolligi bilan bir qatorda jamiyat va shaxs taraqqiyotini rag'batlantirib borishiga e'tibor qaratiladi".

Mobillikning kognitiv mobillik degan turi ham mavjud bo'lib, ilmiy izlanishlarda quyidagicha ta'riflanganligini ko'rishimiz mumkin: kognitiv mobillikning kognitiv faollik, intellektual moslashuvchanlik, izlanishga moyillik, tadqiqot faoliyati, harakatlarni ijodiy amalga oshirishga yo'nalganlik, tanqidiy fikrlash, o'z pozitsiyasini, mustaqilligini, qarorlari uchun javobgarlikni, shuningdek, intellektual barqarorlik kabi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. Ushbu ta'rifdan xulosa qilishimiz mumkinki, kognitiv mobillik muammoli vaziyatlarni samarali hal qilish qobiliyatini ta'minlaydigan shaxsning kognitiv xususiyati sifatida tavsiflanadi.

Mobillik madaniyatlararo muloqot samaradorligiga

bevosita ta'sir etadi. A.N.Sheremet madaniy mobillikni "shaxs tomonidan etnik guruhning madaniy an'analari tabiiy ravishda idrok etish, ko'p madaniyatli plyuralizm tamoyiliga amal qilish asnosida madaniy qadriyatlarni anglash, yangi madaniy qadriyatlarni yaratishga intilish, ularni jahon madaniyati asarlari bilan solishtirishdan iborat madaniy xabardorlikni anglatadi" – deb izohlaydi.

Shuningdek, L.V.Goryunovaning ilmiy izlanishlarida ta'lim jarayoniga nisbatan madaniy mobillik tushunchasi qo'llanganda "ijodkorlik, mustaqil, erkin va tanqidiy fikrlash, voqealarni refleksiv anglay olish, yangi vaziyatlarda nostandart yechimlarni topish, o'zgarishlarning tabiati va borishini oldindan bilish qobiliyati" tushunilishi ta'kidlanadi.

Ilmiy adabiyotlarda "ijtimoiy-madaniy mobillik" tushunchasi ham mavjud bo'lib, I.V.Vasilenko ijtimoiy-madaniy mobillikni "atrof-muhitga moslashish yoki unga faol ta'sir ko'rsatish uchun zarur bo'lgan subyektiv harakatchanlik darajasini ta'minlovchi ijtimoiy subyektlarning ichki hayotiy elementlarining yig'indisi sifatida" ta'riflaydi.

Shuningdek, pedagogik-psixologik adabiyotlarda ijtimoiy-madaniy mobillik shaxsning ichki harakatchanligi sifatida talqin qilinib, o'zida ijtimoiy, shaxsiy, biologik omillar hamda faol va passiv komponentlar majmui sifatida anglashiladi. Bunda passiv komponent shaxsning vaziyatga moslashuvini nazarda tutadi, faol komponent esa maqsadni belgilash, vaziyatlarni tahlil qilish, muammolarni hal qilish, ijobiy o'zgarishlarni yuzaga chiqarishni ifodalaydi.

Pedagogika fani doirasida B.Skinner, N.M.Talanchuk kabi olimlar shaxsning tarbiyaviy mobilligini tadqiq etib, ushbu hodisani "o'quvchilarning o'qituvchi bilan o'zaro munosabatida uning tarbiyaviy ta'siriga adekvatligi, maqsad va vazifalarga muvofiq shakllanishga tayyorligi va qobiliyatini ifodalovchi yaxlit va dinamik holati" sifatida qiladilar.

Tarbiyaviy faoliyatga oid mobillik o'quvchi shaxsning yaxlit holati sifatida anglashilib, bunda har bir tarkibiy qism zanjirli reaksiyani yuzaga keltirishi bilan xususiyatlanadi. Ya'ni ta'lim oluvchi shaxsning pozitsiyasi tarbiyaviy ta'sirni idrok etish, o'qituvchi bilan o'zaro munosabatda adekvat bo'lishga tayyorligini aks ettiradi.

Geografik mobillik – bir joydan ikkinchi joyga bir xil ijtimoiy maqomni saqlab turgan holda ko'chishni nazarda tutib, asosan migratsion xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Shuningdek, sohaga oid adabiyotlarda akademik mobillik va bilishga doir mobillik kabi tushunchalar ham

faol qo'llanganini ko'rishimiz mumkin. L.V.Znovenko akademik mobillikni shaxsiy neoplazma deb hisoblab, bu o'quv jarayoni subyekt faoliyatining natijasi deb hisoblaydi. Ya'ni, tanlangan kasbning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim oluvchi tomonidan individual ta'lim yo'nalishini ishlab chiqish va amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

N.K.Dmitriyevaning tadqiqotlarida ta'lim jarayoni ishtirokchilarining akademik mobilligi o'quv jarayonida shakllanadigan va uning tarkibiy qismlarining dinamik holatini ifodalovchi, o'zini va atrof-muhitni o'zgartirish, moslashtirishga doir qobiliyati va ushbu jarayonga tayyorligini tavsiflovchi shaxsga oid fazilat tariqasida izohlanadi.

Bilishga doir mobillik o'quvchining voqelikni bilishga bo'lgan ehtiyoji, ta'lim muammolarini hal qilish yo'llarini mustaqil ravishda topish qobiliyati, nostandart vaziyatlarda o'z bilimlaridan foydalanish qobiliyati, olingan bilimlarni boshqa faoliyatga kiritish ko'nikmalari kabi fazilatlariga ega bo'lishni taqozo etadi.

Bilishga doir mobillik – bu shaxsning bilish jarayoniga, uning intellektual, hissiy va kommunikativ-irodaviy qobiliyatlariga bo'lgan ijobiy hissiy munosabatida ifodalangan, axborotni idrok etishga va uni egallashga tayyorlikda namoyon bo'ladigan shaxsning sifat jihatdan shakllanishidir. Ushbu mobillik turida ta'lim oluvchi shaxsi fanning asosiy tushunchalari va mazmuni bilan ishlashda yetarlicha erkinlikka ega bo'lishi, o'quv-bilishga oid topshiriqlar ijodiylikni talab etishi, o'z navbatida, ta'lim oluvchilar ma'lum darajadagi bilimlarni o'zlashtirgan bo'lishi ham talab etiladi.

Shuningdek, sohaga oid adabiyotlar mazmunida kasbiy mobillik turiga ham alohida to'xtalib o'tiladi. Kasbiy mobillik shaxsning o'z kasbiy maqomini to'liq yoki qisman o'zgartirishini ifodalab, uning asosida yuqori darajadagi kasbiy bilim, kasbiy texnika va ko'nikmalarni egallash, shuningdek, o'z kasbi bo'yicha har qanday vazifani bajarishda ulardan samarali foydalanishni aks ettiradi.

Yuqorida bayon etilgan ilmiy-nazariy tahlillar natijasida quyidagi xulosaga kelindi: barqaror kognitiv qiziqishlar asosida ma'lum kasbiy faoliyatga moyillikning rivojlanib borishi, ushbu jarayonda kasbiy qiziqishlar doirasini aniqlash, o'z rivojlanish yo'nalishlarini bo'yicha mustaqil ravishda yoki kattalar yordami bilan tanlov kurslari, ixtiyoriy fanlarni tanlash, loyihalarda ishtirok etishga doir tanlovlarni qabul qilish orqali o'z manfaatlarini qondirish yo'llarini izlash va amalga oshirishni anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son)
2. Сорокин П. А. Социальная стратификация и мобильность / П.А.Сорокин // Человек. Цивилизация. Общество. - М., 1992. с. 302-373.
3. Сорокин П. Социальная мобильность, ее формы и флуктации // Кравченко А.И. Социология. Хрестоматия.

- тия для ВУЗов. – М.: Академический проект; Екатеринбург: Деловая книга, 2002. – с. 647
4. Гидденс Э. Социология / Э. Гидденс. - М.: Едиториал УРСС, 2005. - 632 с. 156.
 5. Шеремет А.Н. Об академической мобильности будущих учителей информатики / А.Н. Шеремет // Сборник материалов научно-практической конференции / [под ред. М.С. Можарова]. - Новокузнецк: Изд-во КузГПА, 2006. - с. 83-88.
 6. Василенко И.В. Социокультурная мобильность как философская проблема: Дис. ... канд. филос. наук / И.В. Василенко. - Волгоград, 1996. – с. 174.
 7. Зновенко Л. В. Развитие академической мобильности студентов педагогического вуза в условиях непрерывного образования: автореф. дисс. ... канд. пед. наук. Омск, 2008, 22 с.
 8. Дмитриева Н. К. Академическая мобильность как личностное качество субъектов образовательного процесса // Непрерывное образование: XXI век. Петрозаводск: Изд-во ПетрГУ, 2013. № 4. С. 58-65.

Zamira QARSHIYEVA,
nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti

“NAZM-UL JAVOHIR”DAGI RUBOIYLARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodida ta'lim-tarbiya masalalari hamda odob-axloq masalalari va oilada tarbiya kabi zamonning muhim hamda dolzarb bo'lgan muammolariga bag'ishlangan asarlar xususida fikr-mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, Alisher Navoiy ijodida yoshlar tarbiyasi va ta'limi kabi masalalar borasida asarlarida keltirib o'tilgan, ruboiylari haqida atroflicha ma'lumotlar keltirilgan, ularning ma'nolariga sharh berilgan.

Kalit so'zlar: *adabiyot, falsafiy qarashlar, ta'lim-tarbiya, ijtimoiy hayot, madaniy islohot, dunyoqarash, ma'naviyat, ma'rifat, ruboiy, milliy qadriyat.*

Abstract: in this article, Alisher Navoi's work is devoted to the issues of education and morals, and the important and urgent problems of the time, such as upbringing in the family. In addition, Alisher Navoi's writings on issues such as youth upbringing and education are mentioned in his works, detailed information about his rubai is given, and their meanings are commented on.

Key words: *literature, philosophical views, education, social life, cultural reform, worldview, spirituality, enlightenment, rubai, national value*

Аннотация: в данной статье творчество Алишера Навои посвящено вопросам образования и нравственности, а также таким важным и актуальным проблемам времени, как воспитание в семье. Кроме того, в его произведениях упоминаются сочинения Алишера Навои по таким вопросам, как воспитание и образование молодежи, даются подробные сведения о его рубаи, комментируются их значения.

Ключевые слова: *литература, философские взгляды, образование, общественная жизнь, культурная реформа, мировоззрение, духовность, просвещение, рубаи, национальная ценность.*

Kirish. Sharq xalqlarining adabiyoti qanchalik chuqur o'rganilsa, bu xalqlar orasidagi adabiy aloqalar

ham shunchalik ravshanroq ko'rina boradi. Adabiy aloqalarning o'rganilishi esa buyuk san'atkorlarning, adabiy maktab vakillarining ijodiy qudratini, ta'sir doirasini aniqlash uchun to'laroq tasavvur beradi. Bu jihatdan Alisher Navoiy merosini o'rganish alohida ahamiyatga egadir. Navoiy merosini o'rganish yolg'iz o'zbek olimlarininggina vazifasi emas. Navoiy buyuk bir adabiy maktab boshlig'i sifatida buyuk Nizomiy kabi bir qancha xalqlarning adabiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatganligidan uning ijodini o'rganish ham keng bir sohani tashkil etadi. Dunyo sharqshunoslari Navoiy merosini o'zbek xalqining adabiyotini o'rganish maqsadida tekshirsalar, sharq xalqlari tadqiqotchilari butun hayotini xalq baxt-saodatiga bag'ishlagan bu ulug' san'atkorning hayoti va ijodini o'z madaniyatlarini o'z adabiyotlari tarixini chuqur o'rganish, o'zaro mushtaraklik tomonlarini aniqlash maqsadida o'rganishgan.

Navoiy ruboiylari tuyg'ular va fikrlarning yetukligi,

tabiiyligi, favqulodda go'zal va ta'sirchanligi, so'z ma'nolarining kamalakdek tovlanishi bilan ajralib turadi. Navoiy she'riyati bilan muloqot kitobxonlarning ichki olami, ma'naviyatining boyishiga katta hissa qo'shadi. Navoiyning vatan va vatanparvarlik haqidagi she'rlari faqat o'sha davr kishisining kechinmalari sifatidagina emas, balki bugungi avlod, xususan, yoshlar uchun ham ibrat va namuna maktabi bo'lishi tabiiydir.

Tahlil va natijalar. Ruboiy (arabcha — to'rtlik) — Sharq xalqlari she'riyatida keng tarqalgan poetik janr. Tayin g'oyaviy-badiiy va shakli shartlarga binoan yaratilgan 4 misradan iborat falsafiy, axloqiy, ta'limiy yoki ishqiy mavzudagi she'r. Ruboiy hazaj baxrida (axram va axrab vaznlarida jami 24 ta) yoziladi. Boshqa bahrlarda yozilgan to'rtliklar dubaytiy, kuylanadiganlari esa tarona deb ataladi. Ruboiy qofiyalanish tartibiga ko'ra ikki xil bo'ladi. Birinchi xil ruboiylarning 1—2—4 misralari o'zaro qofiyalanadi (a-a-b-a shaklida). Navoiy ruboiydagi 4 unsur 4 misrada aytilmoqchi

bo'lgan fikrning to'g'ri, badiiy yuksak, kompozitsion jihatdan pishiq bo'lishini ta'minlaydi. 1-misra — tezisda shoir aytmoqchi bo'lgan fikr o'rtaga tashlanadi; 2-misra — antitezisda birinchisiga qarama-qarshi fikr aytiladi, biroq, u tezisini isbotiga xizmat qiladi; 3-misra — moddai ruboiya 4-misrada aytilmoqchi bo'lgan xulosa uchun ko'priq vazifasini o'taydi; 4-misra — sintezda avvalgi 3 misradan g'oyaviy xulosa chiqariladi, bu shoirning asosiy g'oyasi hisoblanadi.

Alisher Navoiy "Nasr ul-laoliy" tarkibidagi 268 hikmatni turkiy ruboiylar shaklida she'riy yo'l bilan tarjima qilgan va o'z asarini "Nazm ul-javohir" deb atagan :

*Eykim, qilasen jilva-u ishrat chog'i zeb,
Mustahsan emas er kishining qilmog'i zeb,
Gar bo'lsa ishing ko'pragi yo ozrog'i zeb,
Zohirdin erur sutuda botindog'i zeb.*

"Nazm ul-javohir" devonidan olingan ushbu ruboiyda shoir birinchi, ikkinchi va uchinchi misralarda kitobxonga tanbeh berib, to'rtinchi misrada bevosita yakuniy xulosa beradi. Dilmurod Quronov bu haqida: "dastlabki ikki misrada g'oya va maqsad, keyingi ikki misrada dalil va xulosa o'z aksini topadi. Shundan kelib chiqib hozirgi adabiyotshunoslikda ruboiyni birinchi misrasi tezis, ikkinchisi antitezis, uchinchisi moddai ruboiya (yoki xulosa uchun asos bo'ladigan ko'priq), to'rtinchi misra esa sintez deyiladi"— deydi. Ya'ni ushbu ruboiyning xulosasi: "botiniy husn zohiriy husndan yaxshiroqdir". Shoir kitobxonga qalb go'zalligi hamma narsadan ustunligini uqtirmoqda. Ushbu g'oya hozirgi davr muammosiga aylandi desak mubolag'a bo'lmaydi, menimcha. Chunki ko'pchiligimiz insonning tashqi ko'rinishiga, kiyimiga qarab muomala qilamiz, do'st tanlaymiz. Bundan necha asrlar avval Hazrat Navoiy buning noto'g'ri ekanligini ta'kidlab o'tgan.

Bizga ma'lumki, Navoiy o'z davrining o'ziga to'g'ri amaldorlaridan bo'lgan. Lekin shuncha boyligi bo'lsa ham hech nima olib keta olmasligini xalq ko'rinishini istaydi. Bu ruboiyda "Insondan faqatgina yaxshi amallari qolishi, shuning uchun qo'ldan kelgancha yaxshilik qilish kerakligi" g'oyasi ilgari surilgan.

*Farzand ato qullig'in chu odat qilg'ay,
Ul odat ila kasbi saodat qilg'ay,
Har kimki atog'a ko'p rioyat qilg'ay,
O'g'lidin anga bu ish siroyat qilg'ay.*

"Nazm ul-javohir" ("Gavharlar tizmasi") asaridan olingan ushbu ruboiyda qaysiki farzand otasi xizmatini qilishni odat qilsa, o'sha odati uchun kasbida saodatga erishishi va otasiga itoat qilgan har qanday insonning o'g'lining o'g'liga ham bu odat yuqishligi aytilgan. Bunday tahlil qilishimizning sababi: "Siroyato'tish, ta'sir, yuqish", — deya izohlangan. Hadislarimizda ham "otanonaga yaxshi muomalada bo'lish kerakligi, qanday muomala qilsa, farzandidan qaytishi", — aytilgan.

*El qochsa birovdin, el yomoni bil oni,
Ahvolida idbor nishoni bil oni,
Fe'l ichra ulus baloyi joni bil oni,
Olam elining yamon yamoni bil oni.*

Navoiyning "Nazm-ul-javohir asari boshdan oyoq ta'lim-tarbiyaga doir. "Nazm-ul-javohir"da Navoiy el-u yurt hayoti tajribasidan kelib chiqqan xulosa va umumlashmalari orqali ezgulik, insoniylik, adolat g'oyalari keng targ'ib etadi. Kishilarni ma'naviy yuksaklikka ko'tarishga harakat qiladi, moddiy va ma'naviy uyg'unlik qanday bo'lmog'i kerakligi to'g'risida yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi.

Navoiy "Nazm-u-l-javohir" muqaddimasida yozgan:

*Yorab, bu javohirlarniki, manzum etdim,
Chekkanim anga har nuktaki, ma'lum etdim,
Har nuktaga bir tarona marqum etdim,
Ko'p gavhar aning zimnida maktum etdim.*

Ma'nosi:

Ey xudo, bu javharlarni she'r bilan yozib chiqdim,
Turli nozik ma'noli so'zlarni terib ularning
(mazmunini) ma'lum qildim.
Har bir shunday so'zga bir ohang berdim.
Ularning orasiga ko'p gavharlarni berkitdim.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, buyuk alloma, shoir Alisher Navoiy umuminsoniy tarbiya sohasida bir butun asar yaratmagan bo'lsa ham, o'zining bu haqidagi fikrlarini deyarli barcha ilmiy va adabiy asarlarida ifodalagan. Alisher Navoiyning ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya masalalaridagi fikrlarida insonparvarlik g'oyalari bosh o'rinda turadi. Uning fikricha, inson dunyoda hammadan yuksak, aziz va qadrlidir. Alisher Navoiyning barcha asarlari yoshlar tarbiyasi uchun muhim xazina hisoblanadi. Alisher Navoiy ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor berar ekan, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, talablarini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://www.uz-science.uz/media/pdf/maqola/1111%D0%94%D0%B8%D0%BD%D0%B0%D1%80%D0%B0_%D0%BC%D0%B0%D2%9B%D0%BE%D0%BB%D0%B0.pdf.
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ruboiy>.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Nasr_ul-laoliy.
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/navoiy-ruboiylarida-axloqiy-mezonlar>.
5. <https://adiblar.gitbook.io/adiblar/ruboiylar/untitled>.

Muxlisa NASILLAYEVA,
 Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
 1-kurs magistranti

ATOIY IJODIDA FRAZELOGIZMLARNING O'RNINI

Annotatsiya: ushbu maqolada Atoiy she'riyatida qo'llanilgan frazeologizmlarning shoir ijodida tutgan o'rni hamda o'ziga xos qo'llanilish xususiyatlari misollar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: frazeologizm, turg'un birikma, ko'ngil, ko'z, quloq, yaqo, lingvistik tahlil.

Аннотация: в данной статье на основе примеров анализируется роль фразеологизмов, используемых в поэзии Атои, в творчестве поэта и особенности их применения.

Ключевые слова: фразеологизм, устойчивое сочетание, сердце, глаз, ухо, ошейник, лингвистический анализ.

Abstract: in this article, the role of phraseologisms used in Atoi's poetry in the poet's work and their specific application features are analyzed on the basis of examples.

Key words: phraseologism, fixed combination, heart, eye, ear, collar, linguistic analysis.

Tilimizda shunday leksik birliklar borki, ular nutqimizni boyitish bilan bir qatorda uning estetik bo'yoqdorligini ham ta'minlashga xizmat qiladi. Shunday birliklarga frazeologizmlarni ham keltirish mumkin. Tilshunoslikda ular ibora, turg'un birikma, frazeologik birlkma hamda barqaror birikma kabi terminlar bilan ham yuritiladi. Frazeologizmlar birdan ortiq mustaqil leksema ko'rinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli ma'noviy tabiatga ega bo'lgan lisoniy birlik hisoblanadi.[4:129] Frazieologik birliklar shu jihatdan ham lisoniy hodisa sanaladi. Ular tuzilishiga ko'ra qo'shma so'zlar, so'z birikmasi va gaplarga o'xshab ketadi. Ammo ulardan farqli ravishda til jamiyatining ongida barqaror va nutqqacha tayyor holatda bo'ladi. Frazeologizm lisonda barcha lisoniy birliklarga xos bo'lgan umumiylik sifatida namoyon bo'ladi.[4:129] Frazeologizmlardan tilimizda keng foydalaniladi va ular tilshunoslikda, asosan, harakat va belgi ifodalovchi iboralar deya keltiriladi. Bunday iboralardan badiiy adabiyot namoyondalari, xususan, Atoiy ijodida ham foydalanilganligini ko'rish mumkin.

Hozirgi kunda "ko'ngil uzmoq" iborasining tilimizda qo'llanilishi ko'p uchraydi. Ushbu ibora "yuragiga yaqin, intilga kishisidan yoki narsasidan ajralishga qaror qilmoq" ma'nosini anglatadi. Ushbu frazeologik kirikmadan Atoiy quyidagicha foydalanadi:

*Uzun sochingdin uzmasmen ko'ngulni,
 Ayog'ing qanda bo'lsa, boshim anda.* [2: 24]

Ko'rinadiki, baytda ham "ko'ngul uzmoq" iborasi yordamida yorning uzun sochlaridan ko'ngil uzmasligi, ya'ni ajralmasligi ifodasini keltiradi hamda unga "ayog'ing qanda bo'lsa, boshim anda" deya xitob etadi. Yana bir o'rinda:

*Ko'rklik kishilar ilmidurur xud ko'ngul olmoq,
 Bu fanda vale, sen borining a'lamidursen* [2:182]

deya yozadi. Bunda shoir "ko'rkli kishilar o'zgalar ko'nglini olishi, o'ziga maftun etishi ularga xos ilmdur, sen ularning a'lamisan" deydi. A'lam so'zining" Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati" kitobida quyidagi ikki

xil ma'nosi keltiriladi: 1. Ranj, g'am, qayg'u, dard, azob, iztirob; xasrat. 2. Bayroq, tug'. Bayt mazmunidan kelib chiqsak, bu yerda a'lam so'zining "bayroq" ma'nosi to'g'ri keladi. Ya'ni ularning bayroqdori, yetakchisidan ma'nosi anglashiladi.

*Qaro soching ko'ngulga kelsa dermen,
 Qaroring'a, ki bot bo'l boshing ol qoch.* [2:46]

"Ko'ngilga kelmoq" o'zicha o'ylamoq ma'nosini ifodalovchi ibora bo'lib, sinonimi sifatida "xayoliga keltirmoq" iborasi beriladi. Yuqoridagi misolda ham Atoiy shu ma'noda qo'llaydi.

Shoir g'azallarida "ko'z" so'zi asosida hosil qilingan frazeologizmlardan ham ko'plab foydalanilgan:

*Har xasta dilkim, ul yuzi tulun oyo boqar,
 To'ymas ko'zi, kuyar tanu joni yano boqar.* [2:58]

"Ko'zi to'ymoq" iborasi biror narsaga yoki biror kimga ko'p tikilib qarash ma'nosida ishlatiladi. Bu ibora "ko'zi och" frazieologik birligi bilan ma'noviy yaqinlikka ega hisoblanadi. Atoiy ushbu baytda yorning to'lin oydek yuziga har xastadil kishining boqib to'ymasligi hamda ularning qancha tanu jonining kuyishiga qaramasdan yana boqaverishi orqali yorning naqadar go'zal husn egasi ekanligi tasvirini keltirmoqda. Bu yerda go'zal oshiqlarining holatini keltirishda iboraning ham vazifasi salmoqlikdir. Quyida ham xuddi shunday ma'no yuzaga chiqadi:

*Yuziga ko'p tika boqsam, menga kulub aydur,
 "Atoyi, ne ko'zi to'ymas gado emishtuksen"* [2:198]

Xalqimizda "yomon ko'zdan asrasin" degan gap bor. Shunga o'xshash birlik Atoiyda ham uchraydi. Biroq unda "yamon ko'z" shaklida keltiriladi:

*Garchi men tushdim jamolingdin yomon ko'ztek yiroq,
 Yaxshikim, bechora ko'nglum bordi hamrohing saning.* [2:125]

Atoiyda ham "yomon ko'z" iborasi "yomonlik istovchi", "g'anim" ma'nosida qo'llanadi:

*Qolmadi olamda bir javru jafo men ko'rmagan,
 To jamolingni yamon ko'zdek judo qilding meni* [2:232]

Shu bilan birga, “yaqo chok aylamiq” “zor-zor yig'lamoq” ma'nosini anglatib ushbu ibora mumtoz adabiyotda keng qo'llanilgan. Bunga misol qilib Navoiy asarlarini keltirish mumkin. Xuddi shunday Atoiy o'z asarlarida ham bu iboradan foydalanadi.

*Suman pirohanningdin rashk eltib,
Qilur gultek yaqosin chok derlar. [2:100]*

Baytda go'zal yorning pirohani, ko'ylagidan suman rashk etib zor-zor yig'lashi tasviri ibora yordamida kuchaytirib yanada go'zal tasvirlanadi. Bundan tashqari “oqni qoradan ajratmoq”, “oq-qorani tanimoq” kabi frazeologizmlar ham faol ishlatiladi. Bunday birliklarning o'tmishda kam keng iste'molda ekanligini

ko'rishimiz mumkin. Bunga misol qilib quyidagi misralarni keltirsak:

*Ruxsoravu zulfung'ga meni qildi muqayyad,
Maktabda chu farq etti ko'ngul oqni qarodin. [2:170]*

Bu o'rinda ibora tarkibida kelgan so'zlar tartibi o'zgargan va ular orasiga “ko'ngul” so'zi kiritilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Atoiy ijodida frazeologizmlardan unumli foydalanilgan bo'lib, biz ularning ayrimlarinigina tahlil qildik, xolos. Zeroki, bu dengizdan tomchi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Iboralarning Atoiy she'riyatida qo'llanilishi ham o'ziga xos bo'lib, ularning ijodkor g'azallari badiiyligini ta'minlashida o'rni va ahamiyati beqiyos.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. -Тошкент: Фан, 1985. -636 б
2. Девони Шайхзода Атоий. -Тошкент: Фан, 2008. -320 б.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. -Тошкент, 1978. - 407 б.
4. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M. Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent, 2009. - 416 b.

Nilufar DEHQONOVA,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Folklorshunoslik va dialektologiya kafedrasii bosqich magistranti.*

“DEVONU LUG'OTIT TURK ASARIDA MARSIIYA JANRI”

Annotatsiya: ushbu maqolada “Devonu lug'otit-turk” asaridagi marosim folklori bilan bog'liq to'rtliklar, ulardagi mifologik unsurlar, marsiya janrining tarixiy namunalari, ularning atroflicha tahlillarini yoritishga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: *marsiya, unsur, syujet, marosim, Alp Er To'nga.*

Аннотация: в данной статье внимание сосредоточено на освещении четверостишие относящихся к ритуальному фольклору, мифологических элементах в них, исторических примерах жанра панихиды, а также их детальному анализу в произведении «Девону Луготит-Тюрк».

Ключевые слова: *марсия, стихия, система, церемония, альпийский Эр Тонга.*

Abstract: this article focuses on highlighting the quadruplets associated with ceremonial folklore in "Devonu Dictionary-Turkish," their mythological elements, historical examples of the Marcia genre, and their comprehensive analysis.

Key words: *marcia, element, system, ceremony, Alpine Er Tonga.*

“Devonu lug'otit turk” (“Turk so'zlari lug'ati”) asari turkiy tilshunoslikning bizga ma'lum bo'lgan ilk yirik, shuning bilan birga bebaho, ulug' yodgorligidir. O'z davrida asar arablariga. Arab tili orqali esa Sharq-u G'arb xalqlariga qadimgi turklarning tili, madaniyati, tarixi haqida ma'lumot beruvchi qomusiy kitob sifatida yaratilgan. Ushbu asar turkiy tilshunoslikning tarixiy grammatikasi, shuning bilan birga, qomusiy xarakterdagi yodgorligi hamdir. Asarda turkiy tillar ilk bor arab tilshunosligi metodologiyasi doirasida bayon qilingan. Asarning ilmiy qiymati, muallifning yutuqlari shularning o'zi bilan cheklanmaydi. Qadimgi xalq maqollari, xalq dostonlari va qo'shiqlaridan olingan parchalar, iboralar, ko'plab misollar, shuningdek, sheva materiallari asar uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qilgan. “Devonu lug'otit-turk” garchi tilshunoslikka

oid asar bo'lsa-da, undagi badiiy ijod namunalari qadimgi turkiy adabiyotning o'ziga xos tomonlarini tasavvur qilishga ham yordam beradi. Masalan, “Devon”da qadimgi turkiylar davlatining hukmdori Alp Er To'nganing mardligi, oliyjanoblighi, shonshuhratini madh etuvchi, shu bilan birga uning vafoti munosabati bilan paydo bo'lgan bir qator to'rtliklar uchraydi. Bularning yaratilish tarixi shaksiz, eramizdan oldingi davrlarga borib taqaladi. Bu to'rtliklarni o'z navbatida marosim folklori tarkibidagi marsiya janri namunalari deyish mumkin. Avvalo, marsiya janri haqida to'xtalib o'tsak. Xalq og'zaki ijodida marsiya mayus, hazin, o'ychan, qayg'u, g'amgin ruhdagi she'r yoki qo'shiqdir. “Marsiya” – arabcha so'z bo'lib, “yig'lamoq, aza tutmoq, “achinmoq” degan ma'nolarni anglatadi. Odatda marsiya biror mashhur kishining

vafoti munosabati bilan, uning fazilatlarini e'tirof etish, vafotidan adsuslanish mazmunida yozilgan lirik she'rdir. Xalq og'zaki ijodida marsiyalar "yig'i" deb ham atalgan va insonlar qalbida tug'ilgan qayg'u va alamni, javobsiz muhabbatni, ayriligi iztirobini, o'tib borayotgan umr, yo'qotish, qalbdagi azobli va hazin tuyg'ularni ifodalagan. Qadimgi marsiya biron yaqin kishining vafoti munosabati bilan yozilgan motam qo'shiqlari shaklida yuzaga kelgan. Mumtoz adabiyotda esa marsiyalar podshohlarga, yaqin qarindoshlariga bag'ishlanganligi ma'lum. Narshaxiyning "Buxoro tarixi"dan o'rin olgan Siyovush o'limi bilan bog'liq marsiya, va Mahmud Koshg'ariyning quyidagi "Alp Er To'nga" haqidagi marsiyalari marsiya janrining betakror namunalaridir. Ta'kidlash kerakki, marsiya o'zining she'riy shakliga ega emas. Uning she'riy shaklni g'azal, qasida, murabba', muxammas, tarjiband, tarkibband kabilarda ko'rinadi. Shu bilan birga marsiyalarning rang-barang vaznlarda, xususan, an'anaviy barmoq va aruzda bitilishi humim xususiyati sifati hisoblanadi. Mumtoz adabiyotda marsiyalar ko'proq aruzda, zamonaviy adabiyotda esa barmoq vaznida yoziladi. Barmoqda yozish an'anasi Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida keltirilgan "Alp Er To'nga" (Afrosiyob) haqidagi marsiyasidan boshlangan. Bu asar murabba' shaklida yozilgan bo'lib, misralar a-a-a-b tartibida qofiyalangan. Har bir misrasi yetti bo'g'indan iborat. Ushbu marsiyani Aziz Qayumov hozirgi o'zbek tiliga tabdil qilgan:

Alp Er To'nga o'ldimi,
Yomon dunyo qoldimi,
Zamon o'chin oldimi,
Endi yurak yirtilur.

Marsiyada Alp Er To'nga xalq qahramoni sifatida tilga olinadi. Shuning uchun uning o'limidan xalq chuqur qayg'uga tushadi. Yuqoridagi satrlarda shu hazin ohangni his etish mumkin. To'rtliklardagi chuqur dard, alam, iztirob, hazin ruh fikrimizga asos bo'la oladi. Tarixdan ma'lumki, Alp Er To'nga mil.avv. VII asrda yashagan turkiy xoqon edi. U bir necha turkiy qabilalarni birlashtirib qudratli davlat tuzishga erishadi. U tuzgan davlatning shon-shuhrati tez orada uzoq yurtlarga ham yetib boradi. Mahmud Koshg'ariy Alp Er To'nganing Qoshg'arda yashaganligini ta'kidlab, uni "yo'lbars kabi kuchli, bahodir" deya ta'riflaydi. Shunday ulug' hukmdorning vafoti turkiy qavmni chuqur qayg'uga soladi. Xalqning dardi, qayg'u-alamlari marsiyalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Mahmud Koshg'ariy

turkiy urug'lar yashaydigan hududlarni kezib, Alp Er To'nga vafoti munosabati bilan paydo bo'lgan marsiya parchalarini yozib oladi va ulardan "Devonu lug'otit turk" asari uchun manba sifatida asar tarkibiga kiritadi. Marsiya asar tarkibida to'liq berilgan emas. U asarda tarqoq holda uchraydi. Olimlar tomonidan ushbu tarqoq parchalar birlashtirilib, yaxlit holga keltirishga harakatlar bo'lgan. Bu ishlarga dastlab Firta boshchilik qilgan. U dastlab 10 ta to'rtlikni jamlab 1927-yilda "Eng eski turk adabiyoti" nomli kitobiga kiritadi. Marsiyada tasvirlanishicha, Alp Er To'nganing o'limi turkiylarning kuchsizlanishi, bilim ahlining e'tibordan chetda qolishi, ezgu ishlarning kamayishi va yovuzlikning kuchayishiga olib keladi. Hatto beklar ham qayg'uga botadilar. Bunga quyidagi misralarni misol qilib keltirish mumkin:

Beglar atin arg'urub,
Qazg'u ani turg'urub,
Mengzi yuzi sarg'arib,
Korkum anga to'rtulur.

Mazmuni: Amirlar otlarini charchatib keldilar,
Qayg'u beklarni ozdirdi.

Yuzlari za'faron urgandek juda sarg'aydi.

Yoqa yirtib baqirishdilar.

Ba'zan cholg'uchilar chalg'uning chinqirishi kabi baqirishadilar.

Ular shunday yig'lashdilarki, ko'z yoshlari ko'zlarini qopladi.

Yana bir to'rtlikda esa:
Ko'nglum ichun o'rtadi,
Yetmish yashig' qartadi.
Kechmish uzuk irtadi,
Tun-kun kechib irtalur.

Deb yozadi. Mazmuni: Tushgan musibat bilan ko'nglum o'rtandi,

Bitgan yaramni tirnab yangilatdi, o'tgan kunlarimni istatdi. Kecha-kunduzu izlatdi. Folklorshunos Muzaffar Mamatqulov ushbu to'rtlik haqida fikr bildirib, shunday deydi: "...dunyo begi vafot etsa-da, barcha uni yodida tutadi, ezgu sifatlar bilan eslaydi, fojiali musibatdan qayg'uradi, butun tushkunlikning ko'ngil cho'kishining sababi uning bevaqt dunyoni tark etishidir". Olimning fikriga qo'shilgan holda aytish mumkinki, har bir marsiya janriga oid to'rtlik tarkibida Alp Er To'ngani qo'msash, uning odilligi, mardligini madh etish butun marsiya bo'ylab hukmronlik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit-turk. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1963. -B.379
2. Muzaffar Mamatqulov. "Qadimgi turkiy adabiyotda janrlar poetikasi" (Moniylik she'rlari va "Devonu lug'otit-turk" asari asosida). Filol.fan nomzodi. Diss. 2004.